Bb3(54)
M-22

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MAHMUD KOSHG'ARIY

2

Б6.3(5Ў)
М 37

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MAHMUD KOSHG‘ARIY

2

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.1-1
KBK 83.3(54)
M 37

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

Nashrga tayyorlovchi:

Hamidulla Boltaboyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8721-9-6

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

IKKINCHI JILD HAQIDA

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining bu jildi, asosan, fe'llardan tashkil topgan bo'lgani uchun unda fe'llarning yasalishi, fe'l qoidalari, fe'l turlari, fe'l boblari va boshqa lingvistik hodisalar keng sharhlangan.

Mazkur ikkinchi kitob ham avvalgi jild kabi qo'lyozma nusxaga solishtirib chiqildi. Qiyoslash uchun asos bo'lgan manba:

محمد بن الحسين بن محمود الكاشغرى كتاب ديوان لغات الترك

Ushbu qo'lyozma Turkiyadagi Millet Genel Kütüphanesi A.T.Arabi qismida 4189 raqami bilan saqlanadi*.

Matndagi o'zgarishlar izohlarda aks etdi. Tarjimon S.Mutallibov izohlari sahifa ostida arab raqamidagi havolalar orqali saqlandi. Nashrga tayyorlovchilar tomonidan berilgan izoh va qo'shimchalar (*) yulduzcha orqali havolada ko'rsatildi. Boshqa nashrlar bilan qiyoslash natijasida aniqlangan o'zgarishlar nashr o'rni yoki tarjimonni ko'rsatish bilan cheklanildi. Mas., *Basim Atalay:* Divanü Lügat-ıt-Türk ve Tercümesi üzerine Notlar/Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-ıt-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild II. Ankara, 2006; Ayrim so'zlarning o'qilishi va yozilishi "Qadimgi turkiy til lug'ati" bilan solishtirildi: Древнерусский словарь. Л.: Наука, 1969. Qisqa shakli: DS; *Olmaota nashri:* Maxmud al-Kashgari. Divan Lugat at-Turk / Казахстанские востоковедние исследования. Перевод, предисловие и комментарии. З.-А. М.Авезовой. Индексы подг. Р.Эрмерс. Алматы: Dayk-Press, 2005.

Asliyat bilan solishtirish natijasida matnda tushirib qoldirilgan jumla, so'z va iboralar hamda harflar tiklandi. Asl nusxaning sahifa raqamlari **(42)** tarzida qo'yib chiqildi. S.Mutallibov nashrida arab tilida kelgan oyati karima, hadis va ayrim she'rlarning o'qilishi va tarjimasi berilmagan edi, ularning lotin yozuvidagi transliteratsiyasi bilan birga tarjimasi ham ushbu nashrda

---

* *Qo'lyozma haqida:* Ta'lif tarixi – 466-468^{h} / 1068-71. Muhammad b. Abu Bako b. Abulfath as-Soviy tomonidan 664^{h} /1266 yilda Damashqda nasx xatida ko'chirilgan. Kitobning shakli 238x166 – 173x111. Hajmi 638 sahifa (asl matnda sahifa raqamlari yo'q, kutubxona xodimlari tomonidan arab raqamida sahifalar qo'yib chiqilgan). Xarita ilova qilingan (11b-12a varaqlar).

TerDU ARM
№ 426 513

keltirildi. Shuningdek, she'rlar rim raqami bilan **[XIII]** tarzida belgilandi. Maqollar ham ajratilgan holda yangi satrboshidan yozildi. Fasllarda misoli keltirilayotgan harflar ں **(n)** shaklida ajratilib ko'rsatildi. Sharhlanayotgan misollar jumla ichida kelsa, *kursiv* bilan ajratildi. Mahmud Koshg'ariy ushbu fundamental asarni Muqaddimada "sakkiz kitobdan iborat" deb aytgani uchun uning har bir kitobini alohida raqamlar bilan **[Beshinchi kitob]** tarzida ajratdik.

"Devon..."ning 2-jildi H.Boltaboyev tomonidan umumiy tahrir qilindi va f.f.n. B.Isabekov matnni Olmaota nashri va "Qadimgi turkiy til lug'ati" bilan solishtirib chiqdi va zarur o'zgarishlarni qayd etib, ularni izohlarda (B.I. tarzida) ko'rsatib bordi, matnni qayta tahrirdan o'tkazdi va tarjimadagi ayrim saktaliklarni isloh qilishga muvaffaq bo'ldi.

Ma'lumki, "Devon..."ning S.Mutallibov nashri* 2-jildida "Qabilalar masalasi" sarlavhasi bilan ikki qabilaga izoh berilgan, 3-jildda esa "Qabilalar haqida" deyilib, bir necha qabilalarga izoh berilgan edi. Ushbu jildda mazmunan o'zaro yaqin bo'lgan har ikki izohlar ham bir o'rinda nashrga qo'shildi. Asarning qo'l-yozma nusxasidan titul varaqlari va ayrim sahifalar ilova qilindi.

Mahmud Koshg'ariy tomonidan tuzilgan "Musulmon olami xaritasi" hamda "Devon..."ning bir necha tillarga amalga oshirilgan tarjimalarining titul varaqlari ham ushbu jildga ilova qilindi.

Hamidulla BOLTABOYEV,
filologiya fanlari doktori, professor

---

* *Mahmud Koshg'ariy.* Turkiy so'zlar devoni / Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. I tom. T.: O'zFA nashriyoti, 1960. 16-b.

Bismillahi-r-rohmani-r-rahim

BIR HARFI QAYTA TAKRORLANGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI
[To‘rtinchi kitob]

IKKI HARFLI OTLAR BOBI

ت (t)

تَتْ tat[1] – tot. Chunonchi, bu haqda shunday maqol bor:

تَتغْ كُوزْرا. تِكانَكْ تُبْرا
Tatïg‘ közrä tikänig tubra
Tot*ning ko‘ziga ur, tikanni tubidan uz.

Yag‘ma — tuxsilar nazdida bu so‘z islom dinini qabul qilmagan uyg‘urlardir. **(406)** Men buni o‘z shaharlarida ulardan eshitdim. تَتْ. تَغْغاجْ *Tat – tawg‘ach* “uyg‘urlar va chinlilar” demakdir. Bu ibora تَتْ *tat* so‘zining uyg‘urlarga ham, chinlilarga nisbatan ham qo‘llanishidan darak beradi. Maqol ma’nosi ham shunga olib boradi. Chunki ular vafosizdir: *Tikanning haqi tomiridan uzish bo‘lsa*, shuningdek, *uyg‘urga lozimi ko‘ziga urishdir*. Boshqa bir maqolda shunday kelgan:

تَتْسِزْ تُرك بُلْماس. بَشْسِزْ بُرك بُلْماسْ
Tatsïz türk bolmas, bashsïz börk bolmas.

Totlar bor yerda turklar albatta bor. Boshsiz bo‘rk bo‘lmagani kabi turksiz tot bo‘lmaydi. Bosh bor yerda bo‘rk, albatta, bor.

تُتْ t u t** – qilich va pichoqlar ustida paydo bo‘lgan zang. Maqolda shunday kelgan:

قِلِجْ تُتْقُسا اِيشْ بُنْجِرْ. اَرْ تَتْقُسا اَتْ تُنْجِرْ
Qïlïch tutïqsa ïsh yunchïr, er tatïqsa et tunchïr

---

[1] *Tot* so‘zi “Devon”ning birinchi jildida izohlangan.

* Bu so‘zni *fors* deb izohlash ham bor. Xususan, S.Mutallibov nashrida shunday izoh bor.

** Olmaota nashrida: *tat.*

Qilich zanglasa, botirning holi yomon bo‘ladi. Chunonchi, turk eronli axloqi bilan yursa, go‘shti o‘zgaradi – hidlanadi*. Bu maqolni botirlikka undalgan kishi haqida har jinsning o‘z qavmi bilan yashashi haqida aytiladi.

چ *(ch)*

حُجْ حُجْ x o‘ c h - x o‘ c h – echki podasini haydashda qo‘llanadigan *xo‘sh-xo‘sh* degan so‘zdir.

هَجْ هَجْ h e c h - h e c h – podani qaytarishda qo‘llanadigan so‘z. Asli اَجْ اَجْ ech-echdir. So‘ngra so‘z boshiga ه – *h* orttirilgan. Bu arabchaga o‘xshaydi. Chunonchi, arablar qo‘y boshidagi chaqiriqlarida هَجْهَجْتُ deydilar – qo‘ylarni qaytarish uchun baqirdim, demakdir.

ش *(sh)*

شِشْ s h ï s h – tutmoch yeyiladigan cho‘p, qoshiq o‘rnida qo‘llanadigan maxsus cho‘p.

ق *(q)*

قَقْ q a q – danak, mag‘iz اَرُكْ قَقي erÿk qaqï – o‘rik danagi. Boshqalari ham shunday.

قَقْ q a q – قَقْ اَتْ qaq et. Qoq go‘sht va har bir qotgan narsa.

قَقْ q a q – yomg‘ir va sel suvidan paydo bo‘lgan ko‘lmak. She’rda shunday kelgan:

[I]

قَقْلارْقَمُغْ كُلَرْدي
تَغْلَرْ بَشي اِلَرْدي
اَرُنْ تَني يِلَرْدي
توتو جَجَكْ جَرْكَشُورْ

Qaqlar qamug‘ kölärdi**
Tag‘lar bashï ilärdi
Ajun tanï*** yilärdi****
Tÿtÿ chechäk jerkäshÿr.

---

* Shu o‘rinda *et* ni *go‘sht* deb emas, asos – mohiyat deb tarjima qilingani maqbul. (B.I.)

** Olmaota nashri: *kulradi.*

*** Mazmunga muvofiq bo‘lishi uchun *tïnï* bo‘lishi lozim (B.I.)

**** Olmaota nashri: *yilirdi.*

Bahorni sifatlab aytadi: yomg‘ir va seldan paydo bo‘lgan ko‘lmaklar to‘lib, hovuzlar kabi bo‘ldi. Ko‘llardagi suvlar ko‘pligidan tog‘larning boshlari xayoliy narsa bo‘lib qoldi. Chunki suv tog‘ taglarini ham qoplagan edi. Dunyoning nafasi isidi. Chaman-chaman bo‘lib gullar ochildi.

ك *(k)*

كَكْ k e k – kek, xusumat, o‘ch أُجْلُكْ كَكْلِكْ كِشِي öchlÿk keklik kishi – kekli, o‘chli odam.

كَكْ k e k – qiyinchilik* اَرْ كُرْدِي كَكْ kek kördi er – odam qiyinchilik tortdi.

كُكْ k ö k – egar chilviri. **(408)** Maqolda shunday kelgan:

اَرْ سُزِي بِيرْ. اَذَرْ كُكِي اُوجْ

Er sözi bir, ezär köki ÿch

Kishi bir so‘zli, qaytmaydigan bo‘ladi, egar chilviri uchta bo‘lganiday, uning ham, buning ham kamayish – ko‘payishi ishni buzadi. Bu maqol va’daga vafo qilishga undab aytiladi.

كُكْ k ö k – asl, tomir, tag كَكْنَكْ كِمْ kökuŋ kim[2] – asling kim, qaysi qabiladansan, demakdir (o‘g‘uzlar va qipchoqlar so‘zi). Ikki harflilar bobi tugadi.

---

* Olmaota nashri: *sinov.*

[2] *Ko‘k* so‘zi ilgarigi runik yozuvlar, O‘rxun yodgorliklarida ham tez-tez uchraydigan qadimgi so‘zdir. U davrlarda bu so‘z *osmon, havo rang, urug‘-avlod* ma’nolarida qo‘llangan. Shu bilan birga u yodgorliklarda *osmon va urug‘-avlod* ma’nolaridagi so‘zlar bir xil talaffuz qilingan, bir xil yozilgan. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”ida bu so‘zlar juda keng izohlangan. Mahmud Koshg‘ariy izohiga ko‘ra, bu so‘zlar ikki alohida o‘zaklardan iborat bo‘lib, yozilishida ham *kök, kÿk* shaklida farqli so‘zlardir.

Kök: osmon, she’r vazni, ohang, havorang, xotinlar yuzidagi dog‘ ma’nolarida.

Kÿk: egar chilviri va *urug‘-avlod* ma’nolarida izohlangan. Hozirgi o‘zbek tilida ham bu so‘z “Devon”dagi kabi ikki mustaqil so‘z sifatida qo‘llanadi. Ikki xil talaffuz qilinadi, ikki xil yoziladi. Lekin ikkinchi so‘z jonli tilda o‘zgarishga uchragan. Oxirgi *k* harfi *y* ga almashgan, *kuy* tarzida o‘zlashgan. Lekin Navoiyda bir xil talaffuz qilinib o‘zlashgan. Chunonchi, 1 – ko‘k *osmon* ma’nosida:

*Ko‘k*ka yetti sadoyi no‘shonush.

2 – osmoni rang: Chiqti *ko‘k* atlasin kiyib xurshid,

Ko‘k libos ichra niluqar yanglig‘.

O‘rta undoshlari har xil unli (a, i, u) lar bo‘lgan فَعْلْ فَعَلْ فَعِلْ kabi so‘zlar

ت *(t)*

قَتْتْ q a t u t – aralashish, qotishish قَتْتْ لُغْ اُقْ qatutlug‘ oq – tig‘i zaharga qotishtirilgan o‘q.

قَتْتْ q a t u t – barsag‘onlar tilida mag‘iz, danak, urug‘ (اَرْمُتْ قَتْتِي armut qatutï – nok urug‘i).

قَتْتْ q a t u t – kosiblar ishlatadigan yelim.

كَتْتْ كِشِي k e t ÿ t k i s h i – qo‘lida ko‘p narsa tutuvchi, mechkay, xo‘rak odam*.

ج *(ch)*

قَجَجْ q a c h a c h – Chindan keltiriladigan ipak tovar. To‘g‘risi قَجاجْ dir. Joriyalarni ham shu so‘z bilan ataydilar.

قَجَجْ q a c h a c h – kir, nopok تُونْ قَجاجْ بُلْدِي ton qachach boldï – to‘n kir bo‘ldi. ج *ch* harfi ق *q* o‘rniga almashgan. Asli قَقاجْ *qaqach*dir.

بُقَقْ b u q a q – bo‘qoq.

ق *(q)*

بُقْقْ b u q u q – gullar to‘dasi; g‘uncha بُقْقْلَنْدِي جَجَكْ chechäk buquqlandï – gullar g‘unchaladi.

[III]

تَكْما جَجَكْ اُكْلْدِي
بُقْقْلَنْبْ بُكْلْدِي
تُكْسُنْ تُكُنْ تُكْلْدِي
يَزْلِبْ يَنا يُرْكْشُور

---

3 – maqom, kuy ma’nosida: Mutribi navha saro navha *ko‘k*in choldi yana...

4 – sozlamoq, ma’lum vaznda tuzmoq: Ey mug‘anniy, sen navo ohangda *ko‘kla* qo‘buz.

* Olmaota nashrida: *qo‘pol, shafqatsiz.*

Tegmä chechäk ökÿldi
Buquqlanub bÿkÿldi
Tÿgsÿn* tÿgÿn tÿgÿldi
Yazlïb yana yÿrkäshÿr.

Bahorni ta'riflab yozadi: har xil gullar o'sib-unib, g'unchalar chiqardi. Burchakli tugunlar shaklida bog'lanishadi, taralib ketadi va ko'pligidan yana yig'iladi.

بُقُقْ b u q u q – buqoq. Tomoqning ikki tarafi teri bilan go'sht orasida paydo bo'ladigan yelim, **(409)** go'sht kasali. Farg'ona bilan Shikni shaharlarida bir ko'p odamlar bu dardga yo'liqqanlar, bu dard ularning bolalariga ham o'tadi. Ba'zilariniki ko'kragini ko'rolmas darajada katta bo'ladi. Men ulardan bu kasal sirini so'raganimda shunday javob bergan edilar: "Bobolarimiz g'oyat baland tovushli kofirlar ekan. Sahobalar bilan jang qildilar. Otalarimiz ularga kuch bilan bostirib boribdilar, baqiribdilar, chaqiribdilar. Musulmonlar ularning tovushlaridan hayajonga tushibdilar. Bu voqea hazrati Umar (r.a.)ga eshitildi. Hazrat Umar (r.a.) ularni qarg'adi. Natijada ularning bo'g'izlarida shu dard paydo bo'ldi va ularga meros bo'lib qoldi. Hozir ular orasida biror baland ovozlik kishi topilmaydi".

تَقُقْ t a q u q – turk tilida tovuq.

سَقَقْ s a q a q – iyak. Maqolda shunday kelgan:

[42]

سَقَقْ أُخشارْ سَقالْ بِجارْ

Saqaq[3] oxshar saqal bïchar*

Soqolini qirqadida hiyla uchun iyagini silaydi. Bu arablarning يُسرُّ حسواً في اَرتِغاءِ iborasiga o'xshaydi.

سُقَقْ s o q a q – oq kiyik, sayg'oq.

---

* DSda: *tügsin.*

[3] Bu so'z Navoiyda سقاغ *saqog'* shaklida uchraydi.

Gahi ko'z surtaramda yo'qsa har yon shodlig' ashkim
Gul uzra qatra shabnamlar kabi siymin *saqog'inda.*

** Olmaota nashrida asl nusxadan ko'chirishda xatoga yo'l qo'yilgan deb hisoblab: *saqal o'xshar; saqaq bichar* tarzida berilgan.

سُقَقْ s u q a q – bu so‘zni o‘g‘uzlar forsilarga kinoya tarzida qo‘llaydilar. Chunonchi, بُو سُقَقْ ناتِيرْ bu suqaq[4] ne-ter, deydilar – bu fors nima dedi, demakdir

ك *(k)* تُكَكْ t ÿ g ä k* – egarga yuk mustahkamlaydigan arqon boshlariga bog‘lanadigan yog‘och halqa.

جُكْكْ c h e k ÿ k – temirchining bolg‘asi (o‘g‘uzcha); bolg‘acha.

جِكِكْ c h e k i k – nuqta, xat nuqtasi.

جِكِكْ c h e k i k – chuk, yosh bolalar chuki.

جِكِكْ c h e k i k – chumchuqdan kichikroq bir xil chinor qush.

كُكُكْ k e k ÿ k – bir xil qush. So‘ngagi, bo‘ynini sehrgar duoxonlar ishlatadilar.

ت *(t)*

يَتُتْ j e t ÿ t – askarga yordamchi kuch kelishi. Bu so‘z يَتُتْ سَجْ jetÿt sach – ulama soch iborasidagi يَتُتْ so‘zidan olingan.

Bu bobning misol qismi

كُكاكُونْ k ö k ä g ÿ n** – ko‘k pashsha, mol pashshasi (so‘na). Maqolda shunday kelgan:

---

[4] Hozirgi tilda soqov tarzida talaffuz qilinuvchi so‘z ana shu so‘zdir. Bizga bu so‘zning ma’nosi ham bir oz o‘zgarish bilan yetib kelgan. Bizda hozir bu so‘z keng ma’noda, asosan, tilsiz ma’nosida, ba’zan duduqlanib, tutilib gapiruvchilarga nisbatan qo‘llanadi. Bu so‘zning hozirgi tilda *gung, tilsiz* kabi bir necha sinonimlari bor. Lekin gung so‘zi “Devon”da uy xizmatchisi – *joriya* deb izohlangan. Uy xizmatchisi boshqalar qatori ozod gapira olmasligi natjasida mana shu ma’no o‘zlashgan bo‘lishi mumkin. Mumtoz adabiyotda bu so‘zning yana bir qancha sinonimlari bor:

Navoiy ul yuzu qad shavqidin nogah navo cheksa,
Dam urmas bulbulu to‘tiki uldur *kajja, bu piltak.*
Nola qilsa qaddu yuzung shavqidin Munis agar,
Qumri uzvini yo‘qotgay, bulbul o‘lg‘ay *gungu lol.*

* DSda: *tükäk.*

** DSda: *kökägün.*

[5] Ayrim undoshlarning takrorlanishi (geminatsiya)ni ba’zi turkologlar tan olmaganlar. Ba’zilar cho‘ziq undoshlar deb bu xususiyatga shubha bilan qaraganlar. Bizning kuzatishlarimiz qadimgi davrlardan boshlab barcha davrlarda geminatsiya borligini tasdiqlaydi. Chunonchi, ikki so‘zi “Devon”da ko‘p yerda uchraydi. Har yerda ham bu so‘z اكّي shaklida, ya’ni ikkita *k* bilan

[43]

اِكّي بُغْرا اِكاشُور. اُترا كُكاكُونْ يَنْجِلُورْ

Ikki[6] bug‘ra ïkäshÿr öträ* kökägÿn janchïlur

Ikki ayg‘ir olishadi va tishlashadi. Oralarida (so‘na) halok bo‘ladi. Bu maqol ikki botir urishib, orada kuchsizlar halok bo‘lishiga ishorat qilib aytiladi.

Uch harflilar bo‘limi tugadi.

---

berilgan. Demak, bu so‘z u davr jonli tilida faqat bir variantda ikkita *k* bilan qo‘llangan bo‘lsa kerak, chunki Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zning ikkinchi varianti haqida hech qanday izoh bermagan. Holbuki, bu so‘z o‘sha davr adabiy tilimahsuli “Qutadg‘u bilig”da ikki variantda qo‘llangan:

Kishi *iki* turlik kishi atanur,
Biri o‘gratigli, biri o‘granur.
*Iki*dan naru barcha yilqi soni.

Navoiy asarlarida har qanday kelishik shaklida ham bu so‘z ikki xil variantda uchraydi:

Men bo‘ylavu ul zaif bo‘yla,
Kel *ikkala*mizga chora ayla...

Bir na’shga soldilar *ikov*ni,
Jonsiz kelinu o‘luk kuyovni.

Ishq o‘ldi kishiga boisi dard,
Qilmoq *iki* kavn fikridin fard.

Oqu qaroni bilmasam, ey shayx, bas nedin
Dastoring oqu *ikki* yuzung qop-qaro dedim.

Ba’zi turkologlar bu ikki xillikni boshqa til ta’siri deb ko‘rsatganlar. Prof. B.A.Serebryannikov o‘zining “Чуваш тилининг келиб чиқиши” nomli asarida bu ikki variantlilikni mari tili ta’siridan yuzaga kelgan, deb uqtirgan (Yuqoridagi asr.40-b.).

* DSda: *boγra igašur otra*.

فَعْلَلْ *FA’LOL* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR

غ *(g‘)*

تُلْغاغْ t o l g‘ a g‘ – quloqning yuqorisiga taqiluvchi xotinlar ziragi يِنْجُوْ تُلْغاغْ jinǰÿ tolg‘ag‘ – marvarid zirak iborasi shundandir.

تُلْغاغْ t o l g‘ a g‘ – qorin og‘rig‘idan qiynalish. Asli اَمْكاكْ تُلْغاغْ emgäk tolg‘ag‘ – yurak burug‘i, ich ketish ma’nosidadir اَنِكْ قارْنِي تُلْغاغْ anïŋ qarnï tolg‘ar – unda qattiq ich ketish, qayt qilish boshlandi.

تَلْغاغْ t a l g‘ a g‘ – har tarafdan esgan qattiq izg‘irin shamol, kishini behush qiladi, hatto o‘ldiradi تاغْ اَزا تَلْغاغْ بُلْدِي tag‘ ÿzä talg‘ag‘ boldï – toqqa qor yog‘ib, bo‘ron bo‘ldi.

قَرْغاقْ q a r g‘ a q* – qarg‘ish تَنكْرِي قَرْغاغِنكا اِلْنما Teŋri qarg‘ag‘ïŋa ïlïnma – Xudo qarg‘ishiga yo‘liqma.

قِرْغاغْ q ï r g‘ a g‘[7] – to‘n jiyagi, chalmasi.

قِرْغاغْ q ï r g‘ a g‘ ï** – shoh yoki bekning o‘zidan pastga g‘azab qilishi خانْ اَنِي قَرْغادِي xan anï qïrg‘adï – xon uni qarg‘adi, unga g‘azab qildi, unga qarshi bo‘ldi. Xudo qarg‘asa qarg‘adï, odam qarg‘asa qïrg‘adï deyiladi, bu qarg‘ishlarni farq qilish uchun birinchisida *a* bilan, ikkinchisida *i* bilan *qïrg‘adï* deb talaffuz qilingan. Chunonchi, Xudoning elchisi bilan shoh elchisini farq qilib, birinchisi يِلافَجْ *jalafach*, ikkinchisi يَلافَرْ *jalafar* deyiladi (bu uyg‘urchadir).

ق *(q)*

تُاقْقْ t u l q u q*** – shishintirilgan mesh, tulum.

ك *(k)*

يُرْكَكْ y ÿ r k ä k**** – bulut***** كُوكْ يُرْكَكْ بُلْدِي kök yÿrkäk boldï – osmon quyuq bulutlandi.

بَزْكاكْ b e z g ä k – bezgak.

---

* DSda: *qaryay.*

** Bu so‘z V. Radlovda: *qaryaq.*

*** DSda: *qïryay;* Olmaota nashrida ham ï ortiqchaligi arabcha yozuvdan ham ko‘rinib turibdi (B.I.)

**** V. Radlovda: *tolquq.*

***** V. Radlovda: *jörgäk.* Olmaota nashrida: *bÿrkäk.*

تُرْكاكْ t ÿ r g ä k* – bir boylam, bir toy, bir orqa miqdoridagi yuk.

تَرْكاكْ اَرْ t e z g ä k e r – ishdan, o‘qishdan qochuvchi (dangasa) kishi.

سَرْكاكْ s e r g ä k – mastlikdan egilish, qiyshayish, sollanish, gandiraklash اَسْرُكْ سَرْكَكْلَنْدِي äsrÿk sergäklädi – mast gandirakladi, sollandi.

كَرْكُكْ k e r g ÿ k – qo‘yning qat-qat qorni ichidagi katakchalarga o‘xshash narsa.

كَسْكُكْ k e s g ÿ k – uzum pishgan vaqtda tokzorning atrofidagi to‘siqdan o‘tolmasin deb it bo‘yniga bog‘lanadigan yog‘och, tasma.

كُسْكُكْ k ö s g ÿ k – g‘allazorlarda, tokzorlarda ko‘zdan (qush va boshqa hayvonlardan) saqlash uchun tiklab qo‘yiladigan odam shaklidagi qo‘riqchi. Maqolda shunday kelgan:

اَلِينْ اَرْسْلانْ تُتَرْ. كُوجُونْ كُسْنُكْ تُتْماسْ

Alin arslan tutar, kÿchÿn kösnÿk tutmas **(411)**

Hiyla va tadbir bilan arslon tutish mumkin bo‘lsa, zo‘rlik bilan qo‘g‘irchoqni ham tutib bo‘lmaydi.

كُرْكاكْ k ÿ r g ä k – kemachilarning eshkaklari va har bir narsaga qo‘llanadigan belkurak.

كَفْكاكْ k e f g ä k** – so‘zni tutilib so‘zlaydigan – bir tovushni qaytalaydigan, duduq kishi.

فَعْلَعْلْ SHAKLIDAGI BESH UNDOSHLI SO‘ZLAR BOBI

ك *(k)*

سَمْرُكُوكْ s e m ÿ r k ÿ k*** – bulbulga o‘xshash bir qush. Balasog‘unlilar so‘zi. Parchada shunday kelgan:

---

* V. Radlov bu so‘zni *qoplama, o‘rama* deb tarjima qilgan.

** V. Radlovda: *türkäk.*

***Olmaota nashri: *kavkäk.*

[III]

بُجْ بُجْ أَتَرْ سَمُرْكُكْ
بُغْزِي أَجُونْ مَنكَلْنُورْ

Buch-buch ötär semÿrkÿk
Bog‘zï ÿchÿn maŋlanur.

Yoqimli sayrog‘i bilan kishini shodlantiradigan qush och qolsa, don deb tuzoqqa ilinadi*.

كِنِزْكَكْ قاغُونْ k i n i z g ä k** q a g‘ u n – tarovati – tozaligi ketib, yungdek, paxtadek, lattadek bo‘lib qolgan qovun.

كِشِرْكاكْ اَرْ k i sh i r g ä k*** e r – o‘taketgan baxil odam. Uyiga mehmon kelsa, uyi tor ko‘rinadigan odam.

Bu bo‘limning g‘unnalilari

جَنكَلْ اَرْ c h e ŋ ä l* e r – yomon odam.

جُنَكْ c h ö ŋ ä k – yog‘ochdan qilingan sut sog‘adigan idish, yog‘och chelak.

تَرِنكْ t e r i ŋ ÿ k** – sizindi suv. Arabchasi تَرَنُّقْ tarinquqdir, *q g* ga almashtirilgan. Bu so‘z arabchaga mos keladi.

Tangriga shukur. Bir harfi ikki qayta takrorlangan ismlar bo‘limi bitdi.

---

* DSda: *semürgük*.
** Olmaota nashrida: *bo‘g‘zi uchun don teradi*.
*** Olmaota nashrida: *kazizkäk*.
**** Olmaota nashrida: *kushirkäk*.
***** Olmaota nashrida: *jaŋak*.
****** Olmaota nashri: *tarŋak*.

BIR HARFI IKKI QAYTA TAKRORLANGAN FE'LLAR BO'LIMI

IKKI HARFLILAR BOBI

Bir harfi ikki qayta takrorlangan so'zlar asosiy fe'llar orasida kam uchraydi[8]. Bunday so'zlar faqat oxirida *t* harfi kelgan fe'llardagina bo'ladi. Bunday fe'llarda o'tgan zamon fe'lining qo'shimchasi *d*[9] fe'l o'zagidagi *t* bilan birikib, *d* ham *t* ga aylanadi.

---

[8] *Muzoaf* tarkibidagi harflarning birortasi ikki qayta kelgan, takrorlangan so'zlar demakdir. Lekin yuqoridagi ta'rifdan ma'lum bo'lishicha, Mahmud Koshg'ariy bu atamani ikkinchi bir xil so'zlarga, ya'ni assimilyatsiya natijasida biror tovush o'zgarishi bilan so'zlarda tovush ikkilanish xususiyati keyinroq yuzaga kelgan so'zlarga ham tatbiq qildi. M.Koshg'ariy bu usul bilan arab yozuvidagi eng qo'pol chalkashlikdan saqlanishga yo'l topdi. Chunonchi, otti so'zi arab yozuvida اتى shaklida, *kalla* so'zi كله shaklida yoziladi. Holbuki, bu so'zlarni *otti* tarzida o'qish ham, *oti* tarzida o'qish ham; *kalla* va *kala* tarzida ham o'qish mumkin. Lekin Mahmud Koshg'ariyning bu so'zlarni shu atama bilan ma'lum guruhga kiritib berishi u chalkashlikdan qutqardi. Bu usulni Mahmud Koshg'ariy uzoq izlanish bilangina qo'lga kiritgani haqida shubha bo'lishi ham mumkin emas. Dastlabki grammatika tuzishda uning bu xildagi mahorati har yerda ko'rinib turadi. Tilshunoslar bu tomonlarga ham e'tibor berishlari zarur.

[9] Mahmud Koshg'ariyning o'tgan zamon fe'li haqidagi bu ko'rsatmasi tilshunoslar, turkologlar diqqatiga sozovor alohida ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, juda ko'p turkologlar bu masala haqida tekshirish olib borganlar. Lekin hanuz qat'iy bir fikrga kelmaganlar va u masala hanuz noaniq qolmoqda. Shuning uchun XI asrda alohida e'tibor berib tekshirgan yetuk tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning ma'lumoti masalaga katta aniqlik kirituvchi ahamiyatga egadir. Mahmud Koshg'ariy bu masalaga alohida e'tibor berib tekshirdi. Bu haqda qat'iy bir fikrga keldi, uning bu haqdagi keng izohi II jild, 28-betda berilgan. Uning qarashida o'tgan zamonni anglatuvchi affiks *d* edi, *d* dan so'nggi *i* harfi shaxsni ko'rsatuvchi affiks edi. XI asrda juda ko'pchilik qabilalar tilida o'tgan zamon fe'l yasovchi affiks ana shu edi. Lekin o'g'uzlar, ba'zi qipchoqlar tilida *-di* o'rnida *-duq, -duk* shakllari qo'llanar edi. Mahmud Koshg'ariy buning qoidaga xilof, adashtiruvchi kamchiliklarini ko'rsatgan. Shuning uchun ular ham birinchi variantni qo'llay boshlaganlarini uqtirgan.

"Qutadg'u bilig"da va undan so'nggi asarlarda bu shaklning uchramasligi qadimgi davrlardayoq buning safdan chiqqanligidan dalolat beradi.

Bir harfning ikki marta takrorlanishi yuzaga keladi. Biz shularni muzoaf deymiz. Kelasi zamon fe'li va masdarlarda bir undoshi ikki qayta takrorlanganlar yo'qligidan ham buni bilish mumkin. Aslida bir undoshi ikki qayta takrorlangan so'zlar juda kamdir. Shuning uchun ayirib ko'rsatdik.

ت *(t)*

تُتّي t u t t ï – tutdi باشْ تُتّي bash tuttï – bosh og'ridi (تُتارْ. تُتماقْ tutar, tutmaq).

تُتّي t u t t ï – oldi, ovladi اِتْ كَيِكْ تُتّي ït kijik* tuttï **(412)** – it kiyik tutdi. Boshqalari ham shunday. Shuningdek, har kim bir narsani tutsa ham, shu so'z qo'llanadi. Chunonchi, اَلْ مَنكا اَلِكْ تُتّي ol menä elik tuttï – u menga kafil bo'ldi. Maqolda shunday kelgan:

اَلِكْ تُتْغنجا اُتْ تُتَ
Elik tutg'ïncha ot tut

Kafil bo'lguncha olovni ushlash yaxshidir. Chunki kafil bo'lgan kishi so'ng pushaymon bo'ladi (تُتار. تُتماقْ tutar, tutmaq).

تِتّي t ï t t ï: اُلْ اَني تِتّي o'l anï tïttï – u uni qaytardi. Asli تِيذْتي tïztï dir. So'ng bu tovushlar bir-biriga singigandir (تِذار. تِذماقْ tïzar, tïzmaq).

تِتّي t i t t i: اُلْ اَتْ تِتّي o'l et titti – u pishgan go'shtni titdi. Kiyimni yirtib titsa ham shunday deyiladi قُلْ بَكْ كا تِتّي qul bekkä titti – qul bekka qarshi turdi. Boshqalari ham shunday.

د *(d)*

تِتُرُو بَقْدي t i t r ÿ** b a q d ï – ko'z olaytirdi, yomon qaradi اُلْ اَنكارْ تِتُرُو بَقْدي o'l anar titrÿ baqdï – u unga tik qaradi. Bir go'zal haqida shunday deyilgan اَنكارْ تِتُرُو بَقْسا بُلماسْ anar titrÿ baqsa bolmas – unga tik qarash, qarab turish mumkin emas. Ba'zan bu so'z *qiyo boqish, yomon qarash* ma'nosida ham keladi (تِتارْ. تِتْماكْ titär, titmäk). *Go'sht* va *kiyimni yirtish* ma'nosida bu so'zning masdar shakli ق *q* bilan keladi (تِتارْ. تِتْماقْ titar, titmaq).

سُسْدي s ÿ s d i – suzdi اُودْ سُسْدي ud sÿsdi – sigir*** suzdi. Boshqalari ham shunday (سُسارْ. سُسْماكْ sÿsär, sÿsmäk).

---

* Olmaota nashrida: *kayik.*

** DSda: *tetrü.*

*** Olmaota nashri: *buqa.*

شَشْدي s h e s h d i – yechdi اَرْ تُكُونْ شَشْدي er tygyn sheshdi – odam tugun yechdi. Ot va boshqalarni bog‘lovidan yechishga ham bu so‘z qo‘llanadi (شَشْماكْ .شَشارْ sheshär, sheshmäk).

ت *(t)*

قُقْتي q a q t ï – sekin urdi قُقْتي اَني بَشْرا anï bashra qaqtï – u uning boshiga shapatiladi (قَقْماقْ .قَقارْ qaqar, qaqmaq).

قُقْتي q o‘q t ï – tutadi قُقْتي ياغْ اُوتّا jag‘ o‘tta qo‘qtï – yog‘ tutuni o‘tda ko‘tarildi. Bu o‘chirilgan chiroqning tutuni ko‘tarilishiga o‘xshaydi. Go‘sht kuyib, hidi chiqsa ham قُقْدي اَتْ et qoqdï deyiladi (قُقْماقْ .قُقارْ qoqar, qoqmaq).

كِكْدي k i k d (t) i – qayradi اَرْ بِجاكْ كِكْدي pichäk kikdi er – odam pichoq qayradi yoki birini biriga surtdi (كِكْماكْ .كِكارْ kikär, kikmäk). O‘zaklarning o‘zida bir undosh ikki qayta takrorlanganlar mana shulardir. Boshqalari yasamadir. Ular quyidagilar:

بَتّي b a t t ï – botdi بَتّي كُونْ kyn battï – kun botdi[10] قرغرين سُقْقا بَتّي **(413)** qarg‘arïn[11] suwqa battï – qo‘rg‘oshin suvga botdi. Boshqalari ham shunday. Har bir narsa ko‘zdan g‘oyib bo‘lsa ham shu so‘z qo‘llanadi (بَتْماقْ .بَتارْ batar, batmaq).

بُتّي b ÿ t t i – اَرْ اُوني بُتّي er ÿni bÿtti – odamning ko‘ksidagi bir kasallik yoki boshqa bir illat sababli va yoki kaltak zarbi sababli tovushi so‘ndi اَنِكْ اَلِمي بُتّي anïŋ alïmï* bÿtti – uning birovdan oladigan qarzi – puli isbotlandi, tasdiqlandi.

بُتّي b ÿ t t i: باشْ بُتّي bash bÿtti – yara tuzaldi قُلْ تَنكْرى كا بُتّي qul teŋrigä bÿtti – qul (banda) Xudo birligiga iqror bo‘ldi اَتْ بُتّي ot bÿtti – o‘t undi. Meva o‘ssa ham shu so‘z qo‘llanadi.

---

[10] Mahmud Koshg‘ariyning bu xulosalovchi izohi botmoq so‘zining XI asrda *ko‘zdan g‘oyib bo‘lmoq* ma’nosidagina qo‘llanganini isbotlaydi. Bizda hozirgi tilda bu so‘z, asosan, shu ma’noda qo‘llanadi. Suvga botib ketdi, kun botdi va boshqalar. Shu bilan birga, bu so‘z yana bir qancha ma’nolar bilan boyigan: *qadalmoq* – cho‘ntakdagi narsalar badaniga botibdi. *Ta’sir qilmoq* – Sharifning so‘zi qattiq botibdi va boshqalar.

[11] قرغرين *qarg‘arïn* so‘zining to‘g‘risi قُرْغُرْيِنْ *qurg‘ujïn* bo‘lishi haqida Basim Atalay to‘g‘ri izoh bergan (II jild. 293-b.). Chunki bu boshqa yerlarda ham shunday. Olmaota nashrida: *qurug‘jyn.*

* Olmaota nashri: *almiy.*

TerDU ARM №426513

بُتّي b ÿ t t i – tug‘ildi أُغْلانْ بُتّي og‘lan bÿtti[12] – o‘g‘il tug‘ildi. O‘sgan har bir narsaga yoki yaratilgan va tug‘ilganga بُتّي *bÿtti* deyish qipchoqlarga mansubdir (بُتماقْ .بُتارْ bÿtär, bÿtmäk).

جَتّي c h a t t ï: اَرْ أُغْلاقْ قُزي قا جَتّي er og‘laq qozïqa chattï – odam echki bolasini qo‘ziga chatishtirdi, birlashtirdi*. Boshqalari ham shunday (جَتماقْ .جَتارْ chatar, chatmaq) (o‘g‘uzcha). She’rda shunday kelgan:

[IV]

اُرْدُلَنِبْ يُكْساكْ تَغْغْ أُغْلاقْ جَتارْ
اُيْغُرْ تَنِنْ يُفْغا اَلِبْ يُمْغِنْ سَتارْ

Urzulanïb** yÿksäk tag‘ïg‘ og‘laq chatar
Uyg‘ur tanïn***yufg‘a alïb yumg‘ïn satar.

Tog‘ tepasiga joylashgan odam haqida aytadi: tog‘ tepasiga joylashib, har vaqt echki bolasini qo‘ziga birlashtiradi. Ya’ni u cho‘pon bo‘lgani holda, uyg‘urlarga bosqinchilik qiladi. Ulardan bir narsalar olib sotadi.

سَتّي s a t t ï – sotdi اُلْ تَقْارْ سَتّي ol tawar sattï – u tovar, mol sotdi. Boshqalari ham shunday (سَتْماقْ .سَتارْ satar, satmaq).

سُتّي s ÿ t t i**** – tupurdi اُلْ كِيشي يُوزِينكا سُتّي o‘l kishi yÿziŋä sÿtti – u odam yuziga tupurdi. Asli سُوتْتي sÿzti dir: *d* tovushi *t* ga singib ikki *t* paydo bo‘lgan (سُتْماقْ .سُتارْ suzar, suzmaq).

---

[12] *Bola tug‘ilmoq* ma’nosida, yuqorida ko‘rganimizdek, o‘g‘uz qabilasida *butmoq* so‘zi qo‘llansa ham, ko‘pchilik qabilalar tilida u davrda bu ma’noda *yanidi* so‘zi qo‘llangan. Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zning qoidaga muvofiqligini keng izohlab bergan. Mahmud Koshg‘ariyning fikricha, bu so‘zning yasalishini ikki xil izohlash mumkin: 1 – y*engil* so‘zidan yasalgan bo‘lishi mumkin: *yanidi – yengil* bo‘ldidir; 2 – *badan* ma’nosidagi *yin* so‘zidan yasalgan bo‘lishi mumkin. *Yanidi* – gavda (yangi bir jonli gavda) paydo bo‘ldi. Mahmud Koshg‘ariy har ikki izohga ko‘ra ham bu ma’noda so‘nggi so‘zni asosli so‘z deb uqtirgan.

* DS bu gapni *kishi echki va uloqlarni haydab ketdi* deb tarjima qilgan. Olmaota nashrida esa: *kishi uloqni qo‘zi bilan qo‘shib bog‘ladi.* Keltirilgan she’r Radlovda quyidagi mazmunga ega: *Baland tog‘ga joylashib, echki (uloq)larni bu yerga haydadi. Uyg‘urlarni oson asir olib, barini sotadi.*

** DSda: *orzulan;* Olmaota nashrida: *o‘rdulanib* (?).

***Olmaota nashrida: *tatin.*

**** Bu so‘z Radlovda *suztï* shaklidadir.

سِتّي s i t t i: اَرْ سِتّي *er sitti* – odam siydi. Boshqalari ham shunday. Asli سِيذْتي *sizti dir* (سِذْمَاكْ .سِذارْ sizär, sizmäk).

قَتّي q a t t ï – aralashtirdi قَتّي يُغُرْتقا اُلْ سِرْكاني o‘l sirkäni jug‘rutqa* qattï – u sirkani suzmaga aralashtirdi. Biror narsani ikkinchisiga aralashtirishga ham bu so‘z qo‘llanadi يِمْشاقْ نانكْ قَتّي jumshaq neŋ qattï – *yumshoq narsa qotdi* demakdir (قَتْماقْ .قَتارْ qatar, qatmaq).

قُتّي q o t t ï** – tashladi, qo‘ydi اُلْ نانكْ قُتّي o‘l neŋ qottï **(414)** – u narsani tashladi, qo‘ydi. Asli قُوذْتي *qoztï*dir (قُذْماقْ .قُذُورْ qozur, qozmaq).

كَتّي k e t t i – kiydi اَرْ تُونِنْ كَتّي er tonïn ketti – odam to‘nini kiydi. Asli كَذْتي *keżti*dir (كَذْماكْ .كَذارْ keżär, keżmäk).

كَذْتي k e t t i*** – ketdi اَرْ يِيرِنْدِنْ كَذْتي er yerindin ketti – odam joyidan ketdi (كَذْماكْ .كَذارْ ketär, ketmäk).

Qoida. Bu bobning buyrug‘i ikki harflidir. Shuning uchun biz bu bobni ikki harfli deb atadik. Chunonchi, اَتْ تُتْ at tut – otni ushla تَقارْ سَتْ tawar sat – *mol sot* gaplaridagi تُتْ *tut* va سَتْ *sat* buyruqlari kabi. Bu bobning o‘tgan zamon shaklida bir harf ikki qayta takrorlangani uchun harf takrorlangan bob deb ataladi. Bu hol arabchaga o‘xshamaydi. Arabchada o‘tgan zamon fe’lida harf takrorlansa, bu tilda kelasi zamon fe’li va masdarlarda ham takrorlanadi. Lekin arabchaga o‘xshashlik faqat o‘tgan zamon fe’l shaklidadir. Shuning uchun shunday ataldi. Bu fe’llarda ishning bajaruvchisini bildiruvchi shakl turk qabilalarida تُتْغُوجي tutg‘uchï – oluvchi, ushlovchi, سَتْغُوجي satg‘uchï – sotuvchidir. Turkmanlar va ularning qo‘shnilarida bu ma’noni anglatuvchi shakl تُتّجي tuttachï, سَتّجي *sattachï*dir.

Ishning ko‘p martalab ishlanganini bildiruvchi shakl تُتْغانْ tutg‘an – juda ko‘p olgan, سَتْغانْ satg‘an – juda ko‘p sotuvchi, demakdir.

U ishni bajarish maqsadida ekanini bildiruvchi shakl تُتْغساقْ tutug‘saq, سَتِغْساقْ satïg‘saq – *bo‘lib olish maqsadida, sotish maqsadida* demakdir.

Ishni qilish uning vazifasi ekanini bildiruvchi fe’l ko‘rinishi bu bobda *tutg‘uluq*dir اُلْ تُتْغُلُقْ اَرْدي o‘l tutg‘uluq erdi – uning

---

* DS: *joγrut // joγurt.*

** Olmaota nashri: *quz.*

*** Olmaota nashri: *kit.*

vazifasi olish edi اَلْ سَتْغُلْقْ اَرْدِي o‘l satg‘uluq turur – uning vazifasi sotuvchilik edi. O‘g‘uzlar bu ma’noni anglatish uchun mazkur shakllardagi ل – *l* ni س – *s* ga almashtiradilar اَلْ اَنِي تُتْغْسَقْ اَرْدِي o‘l anï tutug‘saq erdi – uning vazifasi uni olish edi اَلْ اَنِي سَتِغْسَاقْ اَرْدِي o‘l anï satïg‘saq erdi – *uning vazifasi uni sotishdir* kabi.

Harakatni bajarish sharafiga egalik mazmunini bildiruvchi shakl تُتْغْلِي tutug‘lï shaklidir اَلْ اَنِي تُتْغْلِي o‘l anï tutug‘lï o‘l – u uni tutishga intilgan اَلْ تَقْارِنْ سَتِغْلِي o‘l tawarïn satïg‘lï o‘l – u molini sotishga intilgandir. Boshqa xil fe’llarni tuzish qoidasi yuqoridagi boblarnikiga tamoman mosdir. Qoidalar bu bobda bir xildir. **(415)** Hech qachon o‘zgarmaydi.

Ikki harflilar tugadi.

UCH HARFLILAR BOBI

فَعْلْدِي *fa’ldi* shaklidagi har bir harfi cho‘zg‘ili so‘zlar

جَبِتِّي c h a p ï t t ï* – chovit qildi اِتْ كِشِي كا جَبِتِّي ït kishigä chapïttï – it kishiga tishi bilan chovit – hamla qildi. Shuningdek, بِكْ اَنِكْ بُيْنِنْ جَبِتِّي beg anïŋ bojnïn chapïttï – bek uning bo‘ynini chopishga buyurdi (uyg‘urcha) (جَبِتْماقْ. جَبِتُورْ chapïtur, chapïtmaq).

سَبِتِّي s a b ï t t ï – qimirlatdi اَتْ قُذْرُقْ سَبِتِّي at quzruq[13] sabïttï – ot dumini qimirlatdi, harakatlantirdi.

سَبِتِّي s a b ï t t ï – likillatdi اِتْ قُذْرُقْ سَبِتِّي ït quzruq sabïttï – it dumini likillatdi (سَبِتْماقْ. سَبِتُرْ sabïtur, sabïtmaq).

سُبِتِّي s u b ï t t ï: اَلْ نانْكْنِي سُبِتِّي o‘l neŋni subïttï – u narsani o‘tkirladi. Bu bir narsaning uchini, masalan, mixning uchini cho‘zish orqali yuzaga keladi (سُبِتْماقْ. سُبِتُورْ subïtur, subïtmaq).

كَبِتِّي k e b i t t i – quritdi يِلْ تُونُغْ كَبِتِّي jel tonug‘ kebitti – shamol to‘nni bir oz quritdi (كَبِتْماكْ. كَبِتُورْ kebitÿr, kebitmäk)

---

* Olmaota nashri: *jabit.*

[13] Bizda hozir *quyruq* tarzida qo‘llanadigan bu so‘z “Devonu lug‘otit turk”da *quzruq* shaklida berilgan bo‘lsa ham, “Qutadg‘u bilig”da *qudruq* tarzida uchraydi.

Baliq *qudruqindin* qo‘zi burniga.

Bu xil misollar ko‘p. Bu xil faktlar, ya’ni *d* – *z* harf almashinishi til tarixi ustida ishlovchilarga so‘z etimologiyasini aniqlashda katta yordam beradi.

كُبِتّي k ö p i t t i*: أُلْ o‘l tonïn köpitti – u guppi to‘n tiktirdi (كُبِتْماكْ .كُبِتُورْ köpitÿr, köpitmäk).

بِتّي b i t i t t i – bittirdi أُلْ بِتِكْ بِتّي o‘l bitik bititti – u kitob yozdirdi (بِتْماكْ .بِتُورْ bititÿr, bititmäk).

تَتّي t a t ï t t ï – totli qildi, ta’m kirgizdi تُوزْ اَشِغْ تَتّي tuz ashïg‘ tatïttï – tuz oshga maza kirgizdi. Bir narsaning mazasiga ta’sir etgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi (تَتْماقْ .تَتُورْ tatïtÿr, tatïtmaq).

تُتّي t ÿ t ä t t i – tutatdi أُوتْ تُتُونْ تُتّي ot tÿtÿn tÿtätti – o‘t tutun tutatdi, olov tutadi (تُتْماكْ .تُتُورْ tÿtätÿr, tÿtätmäk)[14].

قُتّي q u t a t t ï – qutli bo‘ldi اَرْ قُتّي er qutattï – kishi baxtli, davlatli, baland martabali bo‘ldi. Ulug‘langan, martaba topgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُتْماقْ .قُتاتُرْ qutatur, qutatmaq).

سَجِتّي s a c h ï t t ï – sachratdi أُلْ اَنْكَرْ سُقْ سَجِتّي o‘l aŋar suw sachïttï – u unga suv sachratdi. Boshqalari ham shunday (.سَجِتُورْ سَجِتْماقْ sachïtur, sachïtmaq) أُلْ اَنِكْ مِنكِسِنْ سَجِتّي o‘l anïŋ miŋisin** sachïttï – u uni urib dimog‘ini yordi. Tarqatishga, sochishga buyurilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

سُجِتّي s ÿ c h i t t i – chuchitdi, chuchuk qildi أُلْ اَجِغْ نانكُنى سُجِتّي o‘l achïg‘ neŋni sÿchitti – u achchiq va nordon narsani chuchitdi.

سُجِتّي s ÿ ch i t t i :أُلْ يِيرِكْ سُجِتّي o‘l jerig sÿchitti – u ekin bitmas (sho‘rxok) yerni yaroqli qildi (سُجِتْماكْ .سُجِتُورْ sÿchitÿr, sÿchitmäk). **(416)**

سِجِتّي s ï c h ï t t ï – to‘sdi, bo‘shaltirdi أُلْ اَنى سِجِتّي o‘l anï sïchïttï – u uni to‘sdi (سِجِتْماقْ .سِجِتُورْ sïchïtur, sïchïtmaq).

سُجِتّي s u c h ï t t ï – cho‘chitdi أُلْ اَتغْ سُجِتّي o‘l atïg‘ suchïttï – u otni cho‘chitdi, hurkitdi, qo‘zg‘atib yubordi***. Boshqalari ham shunday (سُجِتْماقْ .سُجِتُورْ suchïtÿr, suchïtmaq).

قَجِتّي q a c h ï t t ï – qochtirdi أُلْ اَنى قَجِتّي o‘l anï qachïttï – u uni qochtirdi (قَجِتْماقْ .قَجِتُورْ qachïtur, qachïtmaq).

---

* DSda: *köbit:* Olmaota nashrida esa: *kubit gan – u to‘niga astar tiktirdi* deb tarjima qilingan.

[14] Bosma nusxada bu so‘z ikki xil shaklda berilgan. *Tÿtätmäk, tÿtitÿr* tarzidadir. Bu – yanglish. Aslida bir xil bo‘lishi kerak edi. Biz to‘g‘rilab yozdik.

** DSda: *meŋisin.*

*** Olmaota nashrida: *u otni sakratdi.*

كَجِتّي k e c h i t t i – kechtirdi اُلْ اَنكَرْ سُوفْ كَجِتّي o‘l aŋar suw kechitti – u unga suv kechtirdi (كَجِتُورْ . كَجِتْماكْ kechitўr, kechitmäk).

كُجَتّي k ў c h ä t t i – kuchladi اُلْ اَنِكْ تَقْارِنْ كُجَتّي o‘l anïŋ tawarïn kўchätti – u uning molini qo‘lidan tortib olishga undadi (كُجَتُورْ . كُجَتْماكْ kўchätўr, kўchätmäk).

كِجِتّي k i c h i t t i – qichitdi* اَنِكْ اُذُوزِي كِجِتّي aniŋ ўzўzi ** kichitti – uning qo‘tirini qichitdi (كِجِتُورْ . كِجِتْماكْ kichitўr, kichitmäk).

كَجِتّي k e c h i t t i*** – kechiktirdi اُلْ اِيشِغْ كَجِتّي o‘l ïshig‘ kechitti – u ishni kechiktirdi (كَجِتُورْ . كَجِتْماكْ kechitўr, kechitmäk).

د *(d)*

بَدُتّي b e d ў t t i – katta qildi, o‘stirdi اُلْ اُوغْلانِغْ بَدُتّي o‘l og‘lanïg‘ bedўtti[15] – u bolani tarbiya qildi va ulg‘aytirdi (بَدُتُورْ . بَدُتْماكْ bedўtўr, bedўtmäk).

قَدِتّي q a d ï t t ï – qaytdi اَرْ بِرِيرْ اَرْكانْ قَدِتّي er barïr erkän qadïttï – odam yo‘lda bora turib qaytdi, to‘xtadi (قَدِتُورْ . قَدِتْماقْ qadïtar, qadïtmaq). Odam sovuq qotib o‘lsa اَرْ تُمْلُغْقا قَدِتّي er tomlug‘qa qadïttï deyiladi – odam sovuq qotib o‘ldi, demakdir.

قَدِتّي q a d ï t t ï – qaytardi اُلْ تُونُغْ قَدِتّي o‘l tonug‘ qadïttï – u to‘nni qayirib tikishga buyurdi (قَدِتُورْ . قَدِتْماقْ qadïtur, qadïtmaq).

قِدِتّي q ï d ï t t ï – qaytardi اُلْ بُرْكِنْ قِدِتّي o‘l börkin qïdïttï – u qalpog‘ining ziyini qaytarib tikishga, qaytarma qalpoq qilishga buyurdi (قِدِتُورْ . قِدِتْماقْ qïdïtўr, qïdïtmaq).

Bu fe’llarning hammasidagi د *d* larni ذ *z* gumon qilib, د *d*[16] ni ى *y* qiluvchilar bor. Yag‘mo, tuxsi, o‘g‘uz, uyg‘urlar orasida ham

---

* DSda *qashidi* deb tarjima qilingan.

** DSda: *uduz // uzuz.*

*** Olmaota nashrida bu so‘z keltirilmagan.

[15] *Baduk* so‘zi “Devon”da ko‘p yerda uchraydi. Har yerda shu shaklda, lekin katta, gavdali ma’nosidagina qo‘llangan. Bu yerdagi izohda ma’naviy tarbiya ma’nosi ham bor. Hozirgi o‘zbek tilida *buyuk* shaklida *katta, ulug‘* ma’nolarida qo‘llanadi.

Navoiyda *biyik* shaklida, *martabasi baland, ustunlik, g‘oliblik, yuqorilik, ko‘tarilganlik* ma’nolarida qo‘llangan:

Ayladi olingda *biyik*larni past...
Anga *biyik*lik sanga afgandalik...
Yo‘q ajabkim, past o‘lur soya, quyosh o‘lgach *biyik*.

buni eshitdim. د *d* ni ذ *ż* ga almashtirish arablarda ham bor. Chunonchi, مادَقْتُ عَدُوفاً وَ لا عَذُفاً deyilgandagi kabi ayrim so‘zlar ham د bilan, ham ذ bilan teng qo‘llanadi.

ذ *(z)*

يُذُتّي j u z u t t ï – qotirdi *يُذُتّي نِي ثُمْلُغْقا أَلْ كِشِي o‘l kishini tomlug‘qa juzuttï – u odamni sovuqda qoldirib qotirdi, hatto odam o‘ldi (يُذُتُّورْ. يُذُتّماقْ juzutur, juzutmaq).

بُذُتّي b ÿ z ÿ t t i – o‘yinga soldi أَلْ أُغْلِنِي بُذُتّي o‘l og‘lïnï bÿzÿtti – u o‘g‘lini o‘yinga soldi, u o‘ynadi (بُذُتُّورْ. بُذُتّماكْ bÿzÿtÿr, bÿzÿtmäk).

سِذِتّي s i z i t t i – siydirdi, to‘sdi أُراغُتْ أُغْلِنْ سِذِتّي urag‘ut og‘lïn sizitti – xotin o‘g‘lini to‘sdi. Ot egasi otini siydirishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (سِذِتُّورْ. سِذِتّماكْ sizitÿr, sizitmäk).

ر *(r)* **(417)**

بُرُتّي b u r u t t ï – bug‘latdi اَتْ اَشِجْنِي بُرُتّي ot ashïchnï burutti – olov qozonni bug‘latdi. Boshqalari ham shunday.

بُرُتّي b u r u t t ï – sasitdi أُغْلانِ بُرُتّي og‘lan burutti – bola sassiq yel chiqardi بِرِتّي bïrïtti** talaffuzi ham bor (بُرُتُّورْ. بُرُتّماقْ burutur, burutmaq).

تَرُتّي t a r u t t ï – toraytirdi, tor qilib qo‘ydi أَلْ اَنكَرْ اَقِنْ تَرُتّي o‘l aŋar ewin taruttï – u unga uyni tor qildi. Har narsa toraytirilsa ham shu so‘z qo‘llanadi (تَرُتُّورْ. تَرُتّماقْ tarutur, tarutmaq).

---

[16] “Devon”da u davr yozuvida qo‘llanadigan harflar ko‘rsatilgan yerda *d* harfi ko‘rsatilmagan edi. Shuning uchun bu haqda o‘sha yerda o‘z mulohazamizni ham yozib o‘tgan edik (Qarang: I jild. B.47-48).

Bu yerdagi Mahmud Koshg‘ariy izohi o‘sha shubhamizga aniqlik kiritadi. Mahmud Koshg‘ariyning bu yerdagi ko‘rsatmasi *d* harfining qadimgi ekanini, uni ayrim dialekt vakillarigina *z* ga almashtirganliklarini aniqlab beradi. *D* tovushi qadimgi davrlardayoq sharqiy va g‘arbiy guruh lahjalarini ayirishda tutgan alohida mavqei bilan til tarixidagi ahamiyati ulug‘dir. Bu tovushning u davrdagi mavqeini belgilash, so‘nggi davr turkologlarining tasniflariga ham katta aniqlik kirituvchi ahamiyatga egadir.

* Gapning ma’nosidan kelib chiqib, bu fe’l *yuz* shaklida emas, balki *joz* (yuz) – *yo‘q qilmoqdir*. Demak, berilgan so‘z ham *jozuttï* shaklida bo‘lmog‘i kerak (B.I.)

Olmaota nashrida bu so‘z *buzut* shaklida berilgan va kishini emas, kishi shakli keltirilgan.

** Olmaota nashrida: *buritti.*

تُرْتِي t ö r ÿ t t i – yaratdi, paydo qildi تَنكْرِي يَلِنكُقْ تُرْتِي Teŋri jalïŋuq törÿtti – Xudo odamni yaratdi. Boshqa maxluqlar haqida ham bu so‘z qo‘llanadi (تُرْتُرْ. تُرْتْماكْ törÿtÿr, törÿtmäk).

She’rda shunday kelgan:

[V]

تَنكْرِي اَزُنْ تُرْتِي
جِغْرِي اذ (ء) تَزْكِنُورْ
يُلْدُزْلَرِي جَرْكَشِبْ
تُنْ كُنْ اُوزا يُرْكَنُورْ

Teŋri ajun törÿtti
Chïg‘rï ïz tezginÿr
Yulduzlarï jÿrkäshib
Tÿn kÿn ÿzä bÿrkänÿr*.

Xudo olamni yaratdi, falak doim aylanib turadi. Yulduzlar saf tortib tizilgandir, kecha kun ustiga qoplanadi.

تَرِتِي t e r i t t i – terladi اَرْ تَرِتِي er teritti – odam terladi. Boshqalari ham shunday. Bu so‘z jild – teri ma’nosidagi تَرِي teri dan olingandir تَرِاَ اُتِي teri ötti – ter teridan o‘tdi, demakdir; u harfi tushirilgach, yaxlit fe’lga aylandi. Yoki bu so‘z تَرْ اَتِي ter attï – badan ter chiqardi iborasidan olingan, *a* tushirilib, bir fe’l holiga kelgan (تَرِتْماكْ. تَرِتَارْ teritär, teritmäk).

سَرُتِي s a r u t t ï – qopladi, o‘radi اُلْ اَنكَرْ سُقُلْقْ سَرُتِي o‘l aŋar suwluq saruttï – u unga salla o‘ratdi. Har narsani o‘rashni buyurishga ham bu so‘z qo‘llanadi (سَرُتُورْ. سَرُتْماقْ sarïtur, sarïtmaq).

سُرُتِي s u r u t t ï**: اُراغُتْ كَنجْكا سُوتْ سُرُتِي urag‘ut gänchka[17]*** sÿt suruttï – xotin bolasiga sut emizdi.

---

* Olmaota nashri: *yurkanur.*

** DSda: *sor* (so‘r); Olmaota nashrida: *surit.*

[17] Bu gaplarda ikkita jo‘nalish kelishigi qo‘llangan: biri *ganchga*, ikkinchisi *qizqa* (Qarang: 351-b.) so‘zlaridir. Birinchi misolning qo‘shimchasi *-ga,* ikkinchi misolning qo‘shimchasi *-qa* dir. Bu ikki qo‘shimcha XI asr tilida eng ko‘p qo‘llanuvchi qo‘shimchalardir. Bularning *-ka, -g‘a* variantlari kam uchraydi. Shu bilan birga bu gaplarda qo‘shimchalarning biri ajratilib, biri o‘zakka qo‘shilib yozilgan. Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra, u davrda bular ba’zi so‘zlarda qo‘shilib, ba’zi so‘zlarda ajratilib yozilar edi. Bu qo‘shimchalarning o‘zakka qo‘shilib yoki ayrilib yozilishida ma’lum qonuniyat

سُرتّي s u r ï t t ï** – artdi, quritdi, surtdi اَرْ يُوزِنْ سُرتّي er yÿzin surïttï – odam yuzini surtdi (سُرتُورْ. سُرتْماقْ surïtur, surïtmaq).

سِرتّي s ï r ï t t ï – qayirtirdi, buklatdi*** اُلْ قِيزْقا كِذِزْ سِرتّي o'l qïzqa kiziz sïrïttï – u qizga namatni pishitib buklatdi. Bu kiyimni qaytarib tikish kabidir (سِرتُورْ. سِرتْماقْ sïrïtur, sïrïtmaq).

قَرتّي q a r ï t t ï – qaritdi, qaritib qo'ydi اَنِي قَرتّي اُذْلَكْ özläk**** anï qarïttï – zamon (vaqt) uni qaritdi. **(418)** Maqolda shunday kelgan:

اُذْلَكْ قَرتْمِشْقا بُذُغْ تَلِقْماسْ

Özläk qarïtmïshqa bozug' talïqmas

Zamona qaritganga bo'yoq bo'yash ayb qilinmaydi.

قُرتّي q u r ï t t ï – quritdi كُونْ تُونُغْ قُرتّي kÿn tonug' qurïttï – quyosh to'nni quritdi. Boshqalari ham shunday (قُرتُورْ. قُرتْماقْ qurïtur, qurïtmaq).

كُرَتّي q ÿ r ä t t i – kuratdi اُلْ اَنكَرْ قارْ كُرَتّي o'l anar qar kÿrätti – u unga qor kuratdi. Boshqalari ham shunday (كُرَتُورْ. كُرَتْماكْ kÿrätÿr, kÿrätmäk).

كَرِتّي k e r i t t i – vovullatdi اُلْ اِتِنْ كَرِتّي ol ïtïn keritti – u itini vovullatdi***** (كَرِتُورْ. كَرِتْماكْ keritÿr, keritmäk) (qarluqcha).

---

bor edi. Chunonchi, *tamqa, tog'qa, qug'ushqa, ishqa, yo'lqa* kabi qator so'zlarda *-qa* varianti har yerda o'zakka qo'shilib yozilgan. Ammo *yag'aqqa, yig'achqa, qazqa* kabi so'zlarda *-qa* varianti ajratib yozilgan.

-ga qo'shimchasi *manga, teriga, avga* kabi qator so'zlarda o'zakka qo'shilib, *birga, bitikga, kishiga* kabi so'zlarda ajratib yozilgan.

Bu gapdagi kelishiklar ba'zan (manga) *men uchun* ma'nosida sabab, ba'zan harakat yo'nalgan *tomon* ma'nosida kelgan.

XI asr tilida jo'nalish kelishigi yolg'iz shu ma'nolardagina emas, yana ko'p ma'nolarda qo'llangan. Shu bilan birga, XI asr tilida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi yolg'iz shulargina emas, ular ko'pdir.

* DSda: *känč* (kench).

** *DSda: sürtti* (surtti); Olmaota nashri tarjimasi: *kishi yuzini burishtirdi.*

*** Olmaota nashri: *yamatdi.*

**** *O'zlak* ning *taqdir* ma'nosi ham bor (B.I.)

***** O'rinsiz gaplar gapirib kerilayotgan kishiga qarshi jonli tilda qo'llaniladigan *ko'p karillama* iborasi ana shu o'zakdandir.

ز *(r)*

بَزَتّي b e z ä t t i : اُلْ اَوِنْ بَزَتّي o‘l ewin bezättі – u uyini bezatishga, bo‘yab gul solishga buyurdi (بَزَتْماكْ. بَزَتُورْ bezätÿr, bezätmäk).

تَزِتّي t e z i t t i – tarqatib yubordi تَزِتّي كَيِكْنِي اِتْ ït kijikni tezitti – it kiyikni to‘zitdi, qochirib yubordi, tarqatib yubordi (.تَزِتُورْ تَزِتْماكْ tezitÿr, tezitmäk).

بَزِتّي b e z i t t i – titratdi تُمْلُغْ اَنِي بَزِتّي tomlug‘ anї bezitti – sovuq uni qaltiratdi, titratdi. Titratuvchi isitma kasalini bezgak deyilishi shundandir (بَزِتُورْ. بَزِتْماقْ bezitÿr, bezitmäk).

تُزُتّي t o z u t t ï – to‘zitdi[18], changitdi اُلْ تُبْراقْ تُزُتّي o‘l tupraq tozuttї – u tuproqni to‘zitdi, changini chiqardi (تُزُتُورْ. تُزُتْماقْ tozïtur, tozïtmaq).

سِزِتّي s ï z ï t t ï – suritdi اُلْ اَنكَرْ ياغْ سِزِتّي o‘l aŋar jag‘ sïzïttї – u unga quruq yog‘ surtishga buyurdi*. Boshqalari ham shunday (سِزِتُورْ. سِزِتْماقْ sïzïtur, sïzïtmaq).

قُزُتّي q o z u t t ï – qo‘zitdi, qo‘zg‘atdi, ishtahasini ochdi** اُلْ اَنِكْ بُغْزِنْ قُزُتّي o‘l anїŋ bog‘zїn qozuttї – u uning ishtahasini qo‘zg‘atdi. Bu fe’ldagi *z* ning asli *r* dir. Go‘yoki uning taomga bo‘lgan ishtahasini birov bo‘g‘ib qo‘ygan, degan ma’nodadir*** (قُزُتُرْ. قُزُتْماقْ qozutur, qozutmaq). Bu hol, ya’ni o‘timli fe’lning *z* bilan qo‘llanishi kam uchrovchi holatdir. Chunki o‘timsiz fe’llarning o‘timliga aylanishi, asosan, *r* bilan bo‘ladi.

كَزَتّي k e z i t t i**** – kezdirdi, aylantirib chiqdi اُلْ مَنِي بِيرْ كَزَتّي o‘l menї jer kezitti – u menga yerlarni kezdirdi (كَزَتُورْ. كَزَتْماكْ kezitÿr, kezitmäk).

---

[18] Hozirgi o‘zbek tilida ham bu so‘z aynan qo‘llanadi. Lekin bu so‘zning o‘zagi XI asrda *to‘z* shaklida qo‘llangan bo‘lsa, bizda hozir *to‘zon* tarzida qo‘llanadi. Shu bilan birga, *to‘zitmoq* so‘zi XI asrda faqat tuproqqa nisbatan qo‘llangan, bizda hozir shu bilan birga, *odam va qushlarni tarqatib yubormoq* ma’nosida ham qo‘llanadi.

* Bu gap DSda *u unga* (u uchun) *yog‘ erittirdi* deb tarjima qilingan.

** Olmaota nashri: *och qoldirmoq.*

*** Bu izoh bo‘yicha *qo‘zutti*ning ma’nosi ishtahani ochdi emas, balki *bo‘g‘di* bo‘ladi. Qozї – *qÿzi* so‘zining *past, quyi* ma’nosiga egaligi ham buni tasdiqlaydi.

**** Olmaota nashrida bu so‘z yo‘q.

كُزَتّي k ÿ z ä t t i: اُلْ مَني كُزَتّي ol meni kÿzätti[19] – u meni kutdi, menga ko‘z tikdi. Buning asli كُوزْ اَتّي köz ätti dir. U menga ko‘z otib – tikib muntazir bo‘ldi, demakdir (كُزَتْماكْ .كُزَتُورْ kÿzätÿr, kÿzätmäk).

ش *(sh)*

بُشْتّي b o s h a t t ï – bo‘shatdi اُلْ تَغارْ بُشْتّي o‘l tag‘ar boshattï – u tog‘ora* idishni unda bo‘lgan narsadan bo‘shatdi. Har bir idishni ichida bor narsalardan bo‘shatishga ham bu so‘z qo‘llanadi اُلْ تُكُونْ بُشْتّي o‘l tÿgÿn boshattï – u tugunni bo‘shatdi. **(419)** Boshqalari ham shunday.

بُشْتّي b o s h a t t ï – taloq qildi, qo‘ydi اُلْ اُراغْتْ بُشْتّي o‘l urag‘ut boshattï – u xotinni qo‘ydi (arg‘uchadir).

بُشْتّي b o s h a t t ï – bo‘shatdi, ozod qildi اُلْ بُلُنْغْ بُشْتّي o‘l bulunug‘ boshattï – u asirni bo‘shatdi. Banddan, boshqadan birovning, biror narsaning qutqazilishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (بُشْتُورْ .بُشْتْماقْ boshatur, boshatmaq).

تَشْتّي t a s h ï t t ï – tashitdi تَرغْ تَشْتّي tarïg‘ tashïttï – u donni bir joydan ikkinchi joyga tashitdi. Boshqalari ham shunday (.تَشْتُورْ تَشْتْماقْ tashïtur, tashïtmaq).

تُشْتّي t ö s h ä t t i – to‘shatdi, o‘rin soldirdi اُلْ تُشاكْ تُشْتّي o‘l töshäk töshätti – u o‘rin soldirdi (تُشْتْماكْ .تُشاتُرْ töshätÿr, töshätmäk).

تِشْتّي t i s h ä t t i – tishlatdi اُلْ اُرْغاقْ تِشْتّي o‘l org‘aq[20] tishätti – u o‘roqni tishatdi, tishini chiqarib o‘tkir qildirdi, qayratdi. Tegirmon tishini o‘tkirlatishga ham bu so‘z qo‘llanadi (.تِشاتُرْ تِشْتْماكْ tishätÿr, tishätmäk).

چِشْتّي c h i s h ä t t i – to‘sdi اُراغُتْ كَنْجِنْ چِشْتّي urag‘ut gänjin chishätti – xotin bolasini to‘sdi (چِشْتْماكْ .چِشْتُورْ chishätÿr, chishätmäk).

قِشْتّي q a sh ï t t ï – qashitdi اَرْ تَنِينْ قِشْتّي er tanïn qashïttï – odam tanini qashitdi (قِشْتْماقْ .قِشْتُورْ qashïtur, qashïtmaq).

---

[19] *Kuzatmoq* so‘zi hozirgi o‘zbek tilida *kuzatmoq – olib bormoq, zehn solmoq* va *tekshirib turmoq* ma’nolarida qo‘llanadi. Demak, bu so‘z ma’nosi bizgacha bir oz o‘zgargan holda etib kelgan.

* Bu so‘z DSda *qop, qanor* deb berilgan.

[20] Bizda hozir *o‘roq* tarzida qo‘llanuvchi so‘z XI asr tilida *o‘rg‘oq* tarzida qo‘llanar edi. Demak, bizga *g‘* harfi tushib yetib kelgan. Mahmud Koshg‘ariy bu harf tushish hodisasini o‘sha davrdayoq dialektal holat sifatida yuzaga kelganini, bu xususiyat o‘g‘uz va qipchoq tilining xususiyati ekanini keng va to‘la izohlab bergan (Qarang: “Devon”, I jild. 35-b).

كُشِتّي k ö s h i t t i* – qopladi بُلِتْ كُوكْ كُشِتّي bulït kökÿg köshitti – bulut osmonni qopladi. Biror narsani qoplagan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi (كُشِتُورْ. كُشِتْماقْ köshitÿr, köshitmäk).

ق *(q)*

بَقِتّي b a q ï t t ï – qaratdi اَلْ اَني اَقْدي بَقِتّي o‘l anï ewdin baqïttï – u uni uydan qaratdi, qarashga buyurdi. Har kimni bir yerdan turib boshqasiga qaratishga ham bu so‘z qo‘llanadi (بَقِتُورْ. بَقِتْماقْ baqïtur, baqïtmaq).

بُقَتّي b u q a t t ï – buqa bo‘ldi بُزاغُو بُقَتّي buzag‘u buqattï[21] – buzoq buqa bo‘ldi. Buqalar qatoriga o‘tdi, buqalardan sanaldi. Asli بُقَاذْتي *buqaztï*dir (بُقَتُورْ. بُقَتْماقْ buqatur, buqatmaq).

تُقُتّي t o‘ q u t t ï** – urdirdi*** اَلْ اَنِكْ بُيْنِنْ تُقُتّي o‘l anïŋ bojnïn toquttï – u uning bo‘yniga urdirdi (تُقُتُورْ. تُقُتْماقْ toqïtur, toqïtmaq).

تُقِتّي t o‘ q ï t t ï – to‘qitdi اَلْ بُوزْ تُقِتّي o‘l boz toqïttï – u bo‘z to‘qitdi.

تُقِتّي t o q ï t t ï – zang bostirdi**** اَلْ قِلِجْ تُقِتّي o‘l qïlïch toqïttï – u qilichini zang bostirdi. Pichoqni zang bostirishga ham bu so‘z qo‘llanadi (تُقِتُورْ. تُقِتْماقْ toqïtur, toqïtmaq).

تُقِتّي t o q ï t t ï – taqillatdi اَلْ قَبُغْ تُقِتّي o‘l qapug‘ toqïttï – u eshikni taqillatdi.

تِقِتّي t ï q ï t t ï – zo‘rlab oshatdi اَلْ اَنكَرْ اَشْ تِقِتّي o‘l aŋar ash tïqïttï **(420)** – u unga zo‘rlab osh oshatdi. Asl ma’nosi esa bir narsani idishga qattiq tepib tiqishdir (تِقِتُورْ. تِقِتْماقْ tïqtur, tïqïtmaq).

قَقِتّي q a q ï t t ï – unga g‘azab qildi اَلْ اَني قَقِتّي o‘l anï qaqïttï – u uni xafa qildi, azobladi, hatto undan yuz o‘girdi (قَقِتُورْ. قَقِتْماقْ qaqïtur, qaqïtmaq).

---

* DSda *köşitti* (köşidi) shaklidadir.

[21] *Buqatti* – buqa bo‘ldi, buqalik darajasiga yetdi, demakdir. Mahmud Koshg‘ariy ko‘rsatishicha, bu fe’l *buqa* (ism)ga *-atti* qo‘shilib yasalgan fe’llardandir. U davr tilida sifatga ham *-atti* qo‘shimchasi qo‘shilib, fe’l yasalar edi. *Qalnatdi* – qalin bo‘ldi; *ko‘rkatti* kabi. Bu xil fe’l yasash juda ilgarilar iste’moldan chiqib qolgan. Shuning uchun bu xil usul bilan yasalgan fe’llarning juda oz qismi, ya’ni fe’llardan yasalgan qismigina bizga yetib kelgan: *to‘qitti, bekitti* va boshqalar.

** Olmaota nashrida: *to‘qit.*

*** Bu so‘zlar bosma nusxada shunday berilgan.

**** V.Radlov bu so‘zni *yasatdi* deb, gapni esa *qilich yasattirdi* deb tarjima qilgan.

قُقِتّي q o q ï t t ï – hidini chiqartirdi قُقِتّي سُكْلُنْجُو اَنكَرْ اُلْ o‘l aŋar söklÿnchÿ qoqïttï – u unga kabob hidini chiqartirdi. Chiroq o‘chirilib, pilikdan yoqimsiz hid chiqishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (قُقِتْماقْ .قُقِتُورْ qoqïtur, qoqïtmaq).

ك *(k)*

بَكْتّي b e k ÿ t t i – mustahkamladi, mahkamlatdi بَكْتّي اِيشِغْ اُلْ o‘l ïshïg‘ bekÿtti – u ishni mustahkamlatdi. Aslida tugun mahkam bog‘langanda bu so‘z qo‘llaniladi (بَكْتُمَاكْ .بَكْتُورْ bekitÿr, bekitmäk).

بُكْتّي b ö k ÿ t t i – bo‘ktirdi, aynitdi (ko‘ngilni) ياغْلِغْ اَشْ مَنِي بُكْتّي jag‘lïg‘ ash meni bökÿtti – yog‘liq osh qornim to‘ymasdan* ko‘nglimni tutdi. Shuningdek, birov boshqa birovga narsa berib, ko‘zini to‘ydirish ma’nosida ham bu so‘z qo‘llanadi.

بُكْتّي b ö k ÿ t t i – to‘ydirdi بُكْتّي مَنِي تَقَارِنْ اُلْ o‘l meni tawarïn bökÿtti – u meni mol bilan to‘ydirdi (بُكْتُمَاكْ .بُكْتُورْ bökÿtÿr, bökÿtmäk).

تُكْتّي t ÿ g ä t t i – tugatdi تُكْتّي اِيشِنْ اُلْ o‘l ïshïn tÿgätti – u ishini tugatdi. Ishini bitirib qutuldi (تُكْتُمَاكْ .تُكَاتُورْ tÿgätÿr, tÿgätmäk).

سِكِتّي s i k i t t i – jimo qildirtirdi اُراغْتْ نِي سِكِتّي urag‘utnï sikitdi – xotinni jimo qildirtirdi.

سَكِتّي s e k i t t i: اُلْ اَنِي سَكِتّي o‘l anï sekitti – u uni shoshirdi** (سَكِتْمَاكْ .سَكِتُورْ sekitÿr, sekitmäk).

ل **(l)**

بُلَتّي b u l a t t ï: اُلْ قُوزِي بُلَتّي o‘l qozi bulattï – u qo‘zini qozon bug‘ida pishirishga buyurdi. Qozon bug‘ida pishirilgan boshqa yemaklarga ham bu so‘z qo‘llanadi. Asli بُولاتْتي *bulaztï*dir. Yengillatish maqsadida ◌̂ tashlandi. So‘ng tovushlar bir-biriga singdirildi (بُلَتْماقْ .بُلَتُورْ bulatur, bulatmaq).

بِلَتّي b i l ä t t i: اُلْ بِجاكْ بِلَتّي o‘l bichäk bilätti – u pichoq qayratdi (بِلَتْمَاكْ .بِلَتُورْ bilätÿr, bilätmäk).

تِلَتّي t i l ä t t i – so‘ratdi تِلَتّي اَنِي اُلْ o‘l anï tilätti – u uni tilatdi, so‘ratdi (تِلَتْمَاكْ .تِلَتُورْ tilätÿr, tilätmäk).

تُلَتّي t ÿ l ä t t i* – tug‘dirdi تُلَتّي قُوىْ اُلْ o‘l qo‘y tÿlätti – u qo‘y tullatdi, tug‘dirdi (o‘g‘uzcha). Bu so‘zning asl ma’nosi eski yungini tushirtirishdir** (تُلَتْمَاكْ .تُلَتُورْ tÿlätÿr, tÿlätmäk).

---

* Olmaota nashrida: *to‘yganimdan keyin.*

** Olmaota nashrida: *tiz cho‘ktirdi.*

جِلَتّي c h ï l a t t ï – namlatdi, ho‘llatdi. Asli جِيلَتّي chïjlattï dir اُلْ كَبالْ جِلَتّي o‘l kepäk chïlattï – u kepakni ho‘lladi. Boshqalari ham shunday (جِلَتُورْ. جِلَتْماقْ chïlatur, chïlatmaq).

جِلِتّي c h ï l ï t t ï** – terlatdi اُلْ اَتْغْ جِلِتّي o‘l atïg‘ chïlïttï **(421)** – u otni choptirib terlatdi.

قَلَتّي q a l a t t ï – taxlatdi اُلْ تُونُغْ قَلَتّي o‘l tonug‘ qalattï – u to‘nni taxlatdi. Shuningdek, har narsani bo‘xcha, sandiqda taxlab qo‘yishga ham bu so‘z qo‘llanadi. Asli قالَتّي *qalattï*dir (قَلَتُورْ. قَلَتْماقْ qalatur, qalatmaq).

كُلِتّي k ö l i t t i – ko‘mdirdi اُلْ اُلْكُنِي كُلِتّي o‘l ölükni kölitti – u o‘likni ko‘mdirdi[22]. Boshqalari ham shunday (كُلِتُورْ. كُلِتْماكْ kölitür, kölitmäk).

م (m)

تَمِتّي t a m ï t t ï – tomizdi اُلْ سُوفْ نِي تَمِتّي o‘l suwnï tamïttï – u suvni tomizdi. Boshqalari ham shunday (تَمِتُورْ. تَمِتْماقْ tamïtur, tamïtmaq).

قَمَتّي q a m a t t ï – qamashtirdi كُونْ كُوزُكْ قَمَتّي kün közüg qamattï – kun tig‘lari ko‘zni qamashtirdi (قَمَتُورْ. قَمَتْماقْ qamatur, qamatmaq) اَجِغْ اَقْيا تيشِغْ قَمَتّي achïg‘ awja[23] tïshïg‘ qamattï – nordon behi tishni qamashtirdi. Boshqalari ham shunday. Maqolda shunday kelgan:

اَتاسي اَجِغْ اُلْمِلا يِيسا اُغْلي نِنكْ تيشِي قَمارْ

Atasï achïg‘ almïla yesä og‘lïnïŋ tïshï qamar

---

* DSda: *tölätti.*

** *Tülämäk – eski yungni tushirmoq* ma’nosida *at tüladi* birikmasida keltirilgan (B.I.)

*** Yuqoridagi va bu so‘z DSda va Olmaota nashrida bir xil *cilät* shaklida berilgan.

[22] Bu so‘z II jild 23-bet va II jild 155-betlarda hozirgi tilimizdagi variantdagidek *ko‘mmak* tarzida ham uchraydi. Demak, u davrda bu so‘z ikki xil variantli bo‘lgan.

[23] Prof A.P.Yakubinskiy o‘zining “История древнерусского языка” nomli asarida *o‘tuk, kirpich, ayva, tovar, karandash* kabi qator so‘zlarni juda ilgarilardayoq rus tiliga turkiy tillardan kirgan so‘zlar, deb ko‘rsatgan (Qarang: yuqoridagi asar. 346-b.). “Devon”dan ma’lum bo‘lishicha, *ayva* so‘zining asli *avya* ekani ma’lum bo‘ladi. Demak, bu so‘z rus tiliga metateza xususiyatiga mos o‘zgarib o‘zlashgan ekan.

Otasi achchiq olma yesa, o‘g‘lining tishi qamashar. Bu maqol otasi qilgan jinoyat otasi o‘lgach, bolasiga ham isnod tegizadi, degan ma’noda qo‘llanadi.

قُمِتّي q u m ï t t ï* – hayojonga soldi اُذِكْ مَني قُمِتّي ozik** meni qomïttï – sevikligа yoki vatanga bo‘lgan muhabbatim meni hayajonga soldi*** (قُمِتْماق .قُمِتُورْ qumïtur, qumïtmaq).

She’rda shunday kelgan:

[VI]

بَسْمِلْ سُوسِن قُمِتّي
بَرْجا كَلِبْ يُمِتّي
اَرْسْلَنْ تَبا اَمِتّي
قُرْقُبْ بَشي تَزْكِنُورْ

Basmïl**** sÿsin qo‘mïttï
Barcha kelib yumïttï
Arslan taba emitti
Qo‘rqub bashï tezginÿr.

G‘ozi Arslon Tegin bilan jang qilgan Basmil askarlari haqida yozadi: Basmillar askarlarini bizga qarshi kurashga otlantirdi. Hammalari to‘plandilar. Arslon tomonga yurdilar. Bizni ko‘rgach, ko‘zlari qorong‘ilanib, boshlari aylandi.

ن (n)

تَنْتّي t a n u t t ï: اُلْ مَنْكا سُوزْ تَنْتّي o‘l menjä söz tanuttï – u so‘zni mendan boshqaga yetkazishga buyurdi***** (تَنْتْماق .تَنْتُورْ tanutur, tanutmaq).

تَنْتّي t ÿ n ä t t i – tunatdi اُلْ قُنُقْغْ اَقْدا تَنْتّي o‘l qonuqug‘ ewdä tÿnätti – u mehmonni bir kecha uyda tunatdi (تَنْتْماكْ .تَنْتُورْ tÿnätÿr, tÿnätmäk).

تَنْتّي t o n a t t ï****** – to‘n kiygizdi اُلْ مَني تَنْتّي o‘l meni tonattï – u

---

* DSda: *qomïttï* (qo‘mitti).

** DSda: *üsik.*

*** Bu gapni DS *qayg‘u meni toldirdi* deb tarjima qilgan.

**** Olmaota nashrida: *yasmil.*

***** DS *xabar yetkazishni buyurdi* deb tarjima qilgan.

****** Olmaota nashri: *tunat.*

menga hadya yo‘sinida to‘n kiygizdi*. Asli تُونْ اَنْتي ton ïztï – to‘n yubordi, demakdir (تَتُنْمَاقْ .تَتُنُورْ tonatur, tonatmaq).

سِنَتّي s ï n a t t ï – sinatdi اُلْ مَني بُو اِيشْتا سِنَتّي o‘l meni bu ïshta sïnattï – u bu ishda meni sinalgan odamga topshirib, sinatdi (.سِنَتُرْ سِنَتْمَاقْ sïnatur, sïnatmaq).

قَنَتّي q a n a t t ï – qonatdi اُلْ اَنِينكْ بُرْنِنْ قَنَتّي o‘l anïŋ burnïn qanattï **(422)** – u uning burnini qonatdi (قَنَتُورْ .قَنَتْمَاقْ qanatur, qanatmaq).

قُنَتّي q o‘ n a t t ï – qo‘ndirdi اُلْ اُوزِنكا قُنُمْ قُنَتّي o‘l özïŋä qonum qonattï – o‘z uyi atrofida o‘z urug‘larini va ular bilan birga turuvchilarni, o‘ziga yordam beradiganlarni to‘pladi** (قُنَتُورْ .قُنَتْمَاقْ qonatur, qonatmaq).

قِنَتّي q ï n a t t ï – qiynatdi بَكْ اَنِي قِنَتّي beg anï qïnattï – bek uni qiynashga, azob berishga buyurdi (قِنَتُورْ .قِنَتْمَاقْ qïnatur, qïnatmaq).

كُنِتّي k ÿ n i t t i – to‘g‘rilatdi*** اَرْ يِغاجْ كُنِتّي er jïg‘ach kÿnitti – odam yog‘och to‘g‘rilatdi. Boshqalari ham shunday (كُنِتُورْ .كُنِتْمَاكْ kÿnitÿr, kÿnitmäk).

Bu bobning misol turi[24]

ت *(t)*

يَتّي y a t t ï – yotdi اَرْ يَتّي er jattï – odam (uxlash uchun) yotdi. Boshqalari ham shunday (يَتُورْ .يَتْمَاقْ jatur, jatmaq).

يُتّي y u t t ï – yutdi اُلْ يُمُرْتْقَاني يُتّي ol jumurtqanï**** yuttï – u tuxumni yutdi. Boshqalari ham shunday. O‘g‘uz va qipchoqlar so‘zi (يُوتارْ .يَتْمَاقْ jutar, jutmaq).

يَتّي y a t t ï – yoydi اُلْ تُوغْ كُونْكا يَتّي o‘l tonug‘ kÿngä yattï – u to‘nini kunga yoydi. Boshqalari ham shunday. Asli[25] ياذتي yaztï dir

---

* DSda *u meni kiyintirdi* deb tarjima qilingan.

** Olmaota nashri: *joylashtirdi.*

*** V. Radlovda: *könitti.*

[24] Misol deb bu erda Mahmud Koshg‘ariy bu bo‘limning bosh harfi *y* bo‘lgan so‘zlarini nazarda tutgan.

[25] Mahmud Koshg‘ariyning so‘zlarning asli haqidagi bu xil izohlari tez-tez uchraydi. Bu izohlar uning lug‘atda tutgan prinsipini aniqlab beruvchi alohida ahamiyatga egadir. Chunonchi, dastlabki qarashda kitobxon bu so‘zni *yotmoq* so‘zining omonimi deb tushunishi mumkin. Holbuki, bu so‘zning o‘zagi tamom boshqa bo‘lgani holda assimilyatsiya qoidasiga muvofiq talaffuzda o‘xshashlik paydo bo‘lgan edi. Bu so‘z haqidagi izoh o‘quvchidagi ana shu shubhani ko‘tarish uchun berilgan. Mahmud Koshg‘ariyning har bir izohi ana shunday muhim bir ilmiy asosni ko‘rsatish jihatidan tilshunoslar diqqatiga sazovordir.

-*z* bilan -*t* singishgandir. Singish natijasida يَتّي yattï bo‘lgan (.يَذارْ يَذماقْ yazar, jazmaq).

يِتّي نانكْ y i t t i[26] n e ŋ – narsa yitdi, yo‘q bo‘ldi.

يَتّي y e t t i – etishdi أُلْ مَني يَتّي o‘l meni jetti[27] – u menga yetishdi. Boshqa narsalarga yetishishga ham bu so‘z qo‘llanadi (يَتارْ yetär, yetmäk. يَتماكْ).

يَتّي y e t t i* – yetakladi أُلْ اَتْ يَتّي o‘l at jetti – u otni yetakladi. Ko‘r va boshqalarni yetaklashga ham shu so‘z qo‘llanadi (.يَتارْ يَتماكْ jetär, jetmäk). O‘g‘uz va qipchoqlar so‘z boshidagi ى *j*[28] ni ج *j* ga almashtiradilar. Chunonchi, ular أُلْ مَني جَتّي o‘l meni yetti – u menga yetishdi ma’nosidagi يَتّي *yetti*ni جَتّي *jetti* deydilar. Turklar suwda *yundum* desalar, ular جُنْدُمْ *jundum* deydilar. Turklar bilan o‘g‘uzlar orasidagi bu xususiyat o‘zgarmovchi, doimiydir.

---

[26] *Yo‘q o‘lmoq* ma’nosidagi *yitmoq* so‘zi “Devon”da *yitmoq* va *itmoq* shakllarida uchraydi. Navoiy asarlarida, ko‘pincha, *itmak* shakli, ba’zan *yitmoq* shakli uchraydi:

Iturdum oh ila ag‘yorni ul yuz havosidin
Aningdek, kim kishi suvdin ketirgay hasnidam birla.
(“Badoyi’...”dan).

Chun hush ila aqlini *yiturgay,*
Boshig‘a hakim ham keturgay.

[27] Bu so‘zning yozilishida biz asoslangan nusxada aniqsizlik bor, ya’ni يَتّي shaklida berilgan, biz ham o‘zicha qoldirdik.

* Olmaota nashri: *yayt.*

[28] Mahmud Koshg‘ariyning *y* harfi haqidagi bu izohi turkologiya tarixiga katta aniqlik kirituvchi ahamiyatga egadir. Ma’lumki, ko‘pincha, turkologlar turkiy tillarda *y* harfining mavqei haqida fikr yuritganlar. Lekin hanuz bu haqda aniq fikrga kelinmagan. Hattoki, ayrim olimlar birmuncha xom fikrlar ham yuritganlar. Chunonchi, G.I. Ramsted o‘zining “Oltoy tillarida *y* ning taqdiri” nomli ishida *y* tovushi *d, ch* tovushlaridan kelib chiqqan, degan fikrni ilgari surgan. Holbuki, yetuk olim Mahmud Koshg‘ariyning bu masaladagi fikri bunga ziddir. Bizningcha, *y* tovushi turkiy tillarda asosiy tovushdir. Chunki bu tovush o‘rxun va uyg‘ur alifbolarida aniq ko‘rsatilgan. U o‘rxun matnlarida ko‘p uchraydi. Hattoki, o‘rxun alifbosida bu tovush uchun uch xil belgi (0, a z) berilgan. Bu hol ana shu tovushning eng qadimgi tildayoq juda faol qo‘llanganidan, so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida, yumshoq so‘zlarda, qattiq so‘zlarda ham qo‘llanilganligidan darak beruvchi asosdir. “Devon”da bu harf qo‘llangan so‘zlar eng katta qismni tashkil etishi ham shuni tasdiqlaydi. Turkologlarning fikrini bu masalaga tortish uchun shu bilan cheklanamiz.

Bu bobning misoli*

يُبَتِّي y u p a t t ï** – ishga g‘ofillik qildi, boshqaga yukladi أَلْ اِيشغْ يُبَتِّي o‘l ïshïg‘ yupattï – u ishni bilmaslikka soldi, boshqa birovga to‘nkadi (يُبَتُّورْ .يُبَتُّماقْ yupatur, yupatmaq). Asli aldash ma’nosidadir[29]. O‘g‘uzlar أَلْ اَنِي يُبِيلادِي o‘l anï yupïladï deydilar – u uni aldadi, demakdir.

يَرَتِّي y a r a t t ï – yaratdi, hal qildi تَنكْرِي يَلِنُقْ يَرَتِّي Teŋrï yalïŋuq yarattï – Xudo odam va boshqa mahluqlarni yaratdi. O‘g‘uzlar أَلْ تُونُغْ يَرَتِّي o‘l tonug‘ yarattï **(423)** deydilar – u to‘nni mo‘ljalladi***, demakdir. Yana بُوْ اَتُكْ نِي مَنْكا يَرَتْ bu etÿkni meŋä yarat deydilar – bu etikni menga mo‘ljalla, demakdir.

يَرَتِّي y a r a t t i – to‘qidi أَلْ اُوزِنْدِنْ سُوزْ يَرَتِّي o‘l özindin söz yarattï – o‘zidan yolg‘on so‘z to‘qidi (يَرَتُّورْ .يَرَتُّماقْ yaratur, yaratmaq).

يُرَتِّي y u r ï t t ï – yurgizdi أَلْ مَنِي تِلِمْ يُرَتِّي o‘l meni telim jurïttï – u meni talay yuritdi, yurg‘izdi.

يُرُتِّي y u r u t t ï – surdi (surgi o‘rnida) أَتْ اَنِكْ قَرْنِنْ يُرُتِّي ot anïŋ qarnïn jurattï – o‘t (dori) uning ichini yuritdi, bo‘shatdi, surdi (يُرُتُّورْ .يُرُتُّماقْ yurïtur, yurïtmaq).

يِرَتِّي y ï r a t t ï – yiroq qildi, uzoqlatdi أَلْ اَنِي يِرَتِّي o‘l anï jïrattï – u uni yiroqlatdi, uzoqlatdi (يِرَتُّورْ .يِرَتُّماقْ yïratur, yïratmaq).

يَرَتِّي y e r ä t t i – yalqovlik qildi**** اَرْ اِيشْكا يَرَتِّي er ishkä jerätti – odam ishga erinchoqlik, yalqovlik qildi (يَرَتُّورْ .يَرَتُّماكْ jerätÿr, jerätmäk).

يَغُتِّي y a g‘ u t t ï – yaqinlashtirdi أَلْ اَتَغْ مُنْكا يَغُتِّي o‘l atïg‘ meŋä jag‘uttï – u menga otni yaqinlashtirdi. Boshqalari ham shunday (يَغُتُّورْ .يَغُتُّماقْ yag‘utur, yag‘utmaq).

---

* Misollar bobi takrorlangan. Bir oz aniqsizlik bor.

** DSda bu so‘z *yubat* ko‘rinishida bo‘lib, uning asosiy ma’nosi *aldamoq, ayyorlik qilmoq* deb ko‘rsatilgan. Olmaota nashrida: *yubat*, ma’nosi esa – *bosh tortmoq*.

[29] Bu yerda Mahmud Koshg‘ariyning so‘z ma’nosi haqidagi qarashi muhimdir. Uning bu so‘z ma’nosi haqidagi izohi Mahmud Koshg‘ariyning so‘z ma’nosi alohida sharoit talabi bilan biror vazifadagi munosabatga muvofiq o‘zgaruvchi hodisadir, degan qarashiga ishorat bor. Mahmud Koshg‘ariyning so‘z ma’nosining har xil o‘zgarishlariga doir ishoratlari ham “Devon”da tez-tez uchraydi. Ushbu fe’l ma’nosi bizga *ovuntirmoq* ma’nosida o‘zgarib yetib kelishi ham semantik qonuniyatga mosdir. Bu masala tilshunoslar diqqatiga sazovordir.

*** Olmaota nashri: *mosladi.*

**** DSda bu so‘zning ma’nosi ko‘ngli *qoldi, sovidi* deb berilgan.

She'rda shunday kelgan:

[VII]

كَلْسا أما تُشْرُكِلْ
تِنْسِنْ أَنِكْ أَرْقُلُقْ
أَرْبا شَمَنْ يَغْتُغْلْ
بُلْسِنْ آتي يَرْقُلُقْ

Kelsä uma tÿshÿrgil
Tïnsïn anïŋ aruqluq[30]
Arpa saman yag'utg'ïl
Bulsïn* atï yaruqluq.

Senikiga mehmon kelsa, uni qo'ndir, u hordiq chiqarib dam olsin, otiga arpa, somon sol, oti yorug'lik rohatidan bahra olsin**.

يَغْتُّي y a g' ï t t ï – yog'dirdi تَنْكْرِي يَغْمُرْ يَغْتُّي Teŋri yag'mur yag'ïttï – Xudo yomg'ir yog'dirdi (يَغْتُورْ. يَغْتُماقْ yag'ïtur, yag'ïtmaq).

ل (*l*)

يُلْتُّي y ÿ l ÿ t t i – yuldirdi اَرْ سَجِنْ يُلْتُّي er sachïn yÿlÿtti – odam sochini oldirdi (يُلْتُماكْ. يُلْتُورْ yÿlÿtÿr, yÿlÿtmäk).

bojnï yÿlitti – bek qabilani talon-taroj qildirdi (يُلْتُورْ. يُلْتُماكْ yÿlitÿr, yÿlitmäk).

---

[30] *Charchaganlik* ma'nosida qo'llanadigan ارقلق *aruqluq* so'zi dastlabki qarashda hozirda bizda yo'q so'z kabi tuyuladi. Darhaqiqat, biz hozir bu so'zni aynan qo'llamaymiz. Bu ma'noda hozir *charchamoq, horimoq* so'zlarini qo'llaymiz. Bu yerdagi *arimoq – horimoq*ning dialektal farqli variantidar. Mahmud Koshg'ariy unlilar oldiga bir *h* orttirib qo'llash u davr tilida borligini, bu xususiyat dialektal hodisa ekanini keng izohlab bergan. Shu ham xarakterliki, "Devon"da *o'l, ovich, o'kuz* tarzida berilgan so'zlar *ho'l, hovuch, ho'kiz* shaklida yetib kelgan. Demak, u davrda bu hodisa tilda tor doirada edi, u asta-sekin kengaygandir. Lekin Navoiy asarlari ustidagi kuzatishlarimiz Navoiyda bu so'zlar ikki variantda qo'llanganini, *o'l – ho'l, ovich – hovich, o'kuz – ho'kuz* shakllarida uchrashini ko'rsatadi. Demak, bu sheva xususiyatining o'zbek tilida o'ziga xos tarixiy mavqei bordir.

Shu ham muhimki, bu xususiyat hozir ham o'z ta'sirini yo'qotmagan. Hattoki, hozir yangi kirgan so'zlarda ham ko'rinadi: *avjildobil – haptamabil, avtobus – haptobus* kabi. Ayrim shevalarda juda ko'p so'zlar shunday qo'llanadi: *uzr ema, huzr, objuvoz – hapjuvoz, asta-sekin – hasta-sekin* kabi. Demak, XI asr tilida bor bu sheva xususiyati o'zbek tilida alohida o'ringa egadir.

* DSda: *oti yayrasin.*

يِلتّي y ï l ï t t ï – isitmaladi اَرْ يِلتّي er yïlïttï – odam isitmaladi,* isitmadan tanasi qizidi. Bu fe'l o'timsizdir اَرْ سُوقْغْ يِلتّي er suwïg' yïlïttï – odam suvni isitdi, deydilar. Bu o'timlidir (يِلتُورْ. يِلتْماقْ yïlïtur, yïlïtmaq).

م *(m)*

يُمتّي y u m ï t t ï* – to'plandi كِشي يُمتّي kishi yumïttï – odam to'plandi. Boshqalari ham shunday (يُمتُورْ. يُمتْماقْ yumïtur, yumïtmaq).

يِتتّي y ï t ï t t ï** – o'tkirlatdi, charxlatdi اُلْ اَنكَرْ بِجاكْ يِتتّي o'l anar bichäk yïtïttï – u unga pichoqni qayroqqa qayrash yoki qo'lda ushlab charxlashga buyurdi (يِتتُورْ. يِتتْماقْ yïtïtur, yïtïtmaq).

ن *(n)*

يِنَتّي y i n ä t t i – yara yaxshi bo'ldi باشْ يِنَتّي bash yinätti – yara tuzaldi (يِنَتُورْ. يِنَتْماكْ yinätÿr, yinätmäk). Asli يِناذتي *yänäzti*dir. Tovushlar bir-biriga singishgandir.

يَنَتّي y e n ä t t i – tug'dirdi اَرْ اُراغُتْ نيِ يِنَتّي er urag'utnï yenätti – odam xotinni tug'dirdi*** (يِنَتُورْ. يِنَتْماكْ yenätÿr, yenätmäk).

Qoida: aslida bir harfi takrorlangan so'z turklar tilida yo'qdir. U faqat oxiri ت *t* bo'lgan fe'llardagina paydo bo'ladi. **(424)** Ismlarda esa bu holat juda ozdir. Bu xil fe'l turida o'tgan zamon fe'lida bir undosh ikki qayta takrorlangani uchun biz bularni muzoaf deb atadik. Bu yerda takrorlangan undoshlarning biri ت *t*, u o'zakdagi ت *t* dir. Ikkinchi undosh o'tgan zamon fe'li oxiridagi, o'tgan zamon fe'lining belgisi د *d* dir. Bu د *d* qattiq undosh yonida kelganligi sababli unga singib, bu ham ت*t* ga aylangan. Natijada bir undoshning ikki qayta takrorlanishi yuzaga kelgan. Aslida asosiy muzoaf (bir harfi ikki qayta takrorlangan so'z), yuqorida yozganimizdek, juda ozdir.

Bu fe'llarning buyrug'i uch harflidir. Chunonchi, اَفْ بَزَتْ ew bezät – uyga gul soldir. Yana بِتِكْ بِتِتْ bitik bitit – xat yozdir, gaplaridagi *bezät, bitit* buyruqlari kabi.

Bu bobda tarkibida harfi illat bo'lmagan fe'llarning ishlovchi shakli بِتِكْ بِتِتْكُوجي bitik bititgÿchi – xat bituvchi, yana اَتْ كُزَتْكُوجي at kÿzätgÿchi – ot kuzatuvchi, otboqar birikmalaridagi bititgÿchi, kÿzätgÿchi shakllarida bo'ladi.

---

* Olmaota nashrida bu so'z yo'q.

** Olmaota nashrida: *yanut.*

*** Bosma nusxada shunday.

O‘g‘uz va qipchoqlarda bu shakl بِتْتَجِي bititdächi, كُزَتَّجِي kyzättächi ko‘rinishida qo‘llanadi. Buning asli كُزَتْدَجِي *kyzätdächi* edi. so‘ng ت *t* bilan د *d* singishgandir.

Ishning davomiyligini bildiruvchi ishlovchi fe’l o‘zagining oxiriga غ – *g‘*, ا (alif), ن – *n* yoki غ – *g‘* o‘rnida ك *g* almashtirib yasaladi. Bu haqda yuqorida to‘liq ma’lumot berilgan. Chunonchi, أَلْ اَتِغْ كُزَتْكَانْ أَلْ o‘l atïg‘ kyzätgän o‘l – u doim otini saqlaydigandir. Yana أَلْ اَقِنْ بَزَتْكَانْ أَلْ o‘l ewin bezätgän o‘l – u doim uyini bezatadigandir. Qattiq so‘zlarda أَلْ تَرِغْ تَرِتْغَانْ أَلْ o‘l tarïg‘ tarïtg‘an o‘l – u doim don ekadigandir*. Yana أَلْ بُغْدَىْ اَرِتْغَانْ أَلْ o‘l bug‘daj arïtg‘an o‘l – u doim bug‘doy tozalaydigandir. Boshqalari ham shunday. Bu so‘zlar talaffuzida so‘z o‘zagining qattiqlik, yumshoqligi – so‘z tarkibida ك *k, g* yoki ق *q*, غ *g‘* undoshlarining bor-yo‘qligiga asoslaniladi.

Ishni bajarish ishlovchining maqsadi, orzusi ekanini bildiruvchi shakl تَرِتِغْسَاقْ *tarïtïg‘saq*dir. Chunonchi, أَلْ تَرِغْ تَرِتِغْسَاقْ أَلْ o‘l tarïg‘ tarïtïg‘saq o‘l – u ekin ekishni orzu qiladi, uning maqsadi dehqonchilikdir. Yana أَلْ اَقِنْ بَزَتِكْسَاكْ أَلْ o‘l ewin bezätigsäk o‘l **(425)** – u uyini bezatishni istaydi, uyini bezatishga berilgan.. Bu xil so‘zlar yasalishida asosiy qo‘shimcha س va ق *-saq* qo‘shimchasi oldiga qattiq so‘zlarda hamda tarkibida ق *q* va غ *g‘* undoshlari bor so‘zlarda غ *g‘* orttiriladi. Yumshoq so‘zlarda va tarkibida ك *k, g* undoshlari bor so‘zlarda ساقْ *-saq* qo‘shimchasi oldiga ك *g* orttiriladi. Bu qoida sahih fe’llar haqida yuqorida aytilganchadir.

Ishni bajarish uning vazifasi – maqsadi ekanini bildiruvchi تَرِتْغِلِقْ tarïtg‘ïlïq shaklidir. Chunonchi, أَلْ تَرِغْ تَرِتِغْلِقْ أَلْ o‘l tarïg‘ tarïtg‘ïlïq o‘l – dehqonchilik uning intilishidandir. Yana أَلْ اَتْ كُزِتِكْلِكْ أَلْ o‘l at kyzätiglik o‘l – ot kuzatish, ot saqlash uning vazifasi va maqsadi.

Bu shaklda ك *k* yoki ق *q* ni o‘z o‘rnida qo‘llash masalasiga e’tibor berish zarur.

Ba’zi o‘g‘uzlar bu fe’ldagi ل - *l* o‘rnida س - *s* ni yuqorida bayon qilganim kabi qo‘llaydilar.

---

* Olmaota nashrida: *u doim yer haydashga buyuradi.*

Ko‘nglidagi ishni qilishga muvaffaq bo‘lganlikni bildiruvchi shakl تَرِتِغْلِي *tarïtïg‘lï* shaklidir[31]. Chunonchi, اَرْدِي تَرِغْ تَرِتِغْلِي اُلْ o‘l tarïg‘ tarïtïg‘lï erdi – u tariq tortish maqsadida edi, shu maqsadiga kirishdi*. Yana اَرْدِي كُزَتِكْلِي اُلْ اَتِغْ o‘l atïg‘ kyzätigli erdi – u otni kuzatish maqsadida edi, unga erishdi. Bu xususiyat bilan u solim fe’llar shakliga yaqindir.

Ishlanganlikni bildiruvchi maf’ul shakli كُزَتْمِشْ kyzätmishdir. Chunonchi, كُزَتْمِشْ اَتْ kyzätmish *at* – kuzatilgan ot gapidagi كُزَتْمِشْ *kyzätmish* shakli kabi. Yana: بِتِتْمِشْ بِتِكْ bititmish bitik – yozdirilgan kitob. *Sh* harfining qo‘shilish qoidasi yuqoridagi boblarda ko‘rsatildi.[32]

---

[31] XI asr tilida ishni ishlash ishlovchining vazifasi, maqsadi ekanini anglatuvchi sifatdosh Mahmud Koshg‘ariy izohiga ko‘ra, u davrda o‘zak oxiriga qattiq so‘zlarda غِلِقْ *-g‘ïlïq,* yumshoq so‘zlarda كِلِكْ *-gilik* qo‘shilib yasalar ekan. Navoiyda o‘zakka *-g‘alï, -gali, -qalï* qo‘shimchalari qo‘shilib ishning sababi, ishlovchining maqsadi ma’nosini anglatuvchi shakl ana shu shaklning bir oz o‘zgargan varianti bo‘lsa kerak. Chunonchi, Navoiyda:

Navoiy ko‘ngli qonin to‘k*kali* asrab sen, ey qotil...
Bu nav iki sipohi xunrez,
Qon to‘k*kali* barcha dahshat angez.

* Olmaota nashrida: *u yer haydamoqchi edi, buni boshlab yuborganday ham.*

[32] Mahmud Koshg‘ariyning “-mish” haqidagi bu izohi “-mish” affiksi u davr tilida ikki vazifani bajargani: 1-tusmol fe’li affiksi (Qarang: II t. 49-50-b.); 2-o‘tgan zamon sifatdoshi yasovchi affiks vazifasida qo‘llanganidan dalolat beradi. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida bu haqda batafsil izohlab bergan.

“Qutadg‘u bilig”da bu shakldagi so‘z har ikki vazifada qo‘llanishiga misol ko‘p:

Nag‘u yaxshi aymish kishi urdumi
(Kishilarning aqllisi qanday yaxshi aytibdi).

O‘gush nang ko‘rub to‘dmish ersa ko‘zi
(Ko‘p narsalar ko‘rib ko‘zi to‘ygan bo‘lsa).

Navoiy asarlarida ham bu fe’l shakli ko‘p uchraydi:

Bahki majnun mening ollimda xiradmand o‘l*mish*...
Kim kezib olamni mahvashlardin tanla*mish.*

Shuni aytish kerakki, Mahmud Koshg‘ariy biror yerda ham buni biror dialektga nisbat bermagan. Demak, bu shakl u davr dialektlarida farqsiz umumiy bir shakl edi. Negadir ayrim turkologlar buni o‘g‘uz dialekti xususiyati sifatida qayd qiladilar. Bu shakl hozirgi o‘zbek tilida gumon fe’li vazifasida aktiv qo‘llansa ham, sifatdosh vazifasida adabiy tildagina onda-sonda uchraydi. Hozirgi o‘zbek tilida bu xil sifatdosh o‘rnida, asosan, “-g‘an”, “-gan” affiksi bilan yasalgan sifatdosh qo‘llanadi. So‘nggi xatboshi Olmaota nashrida uchramaydi.

Payt ismi, o‘rin ismi, qurol ismlarining yasalish tartibi hammasi bir xildir. Chunonchi, vaqt oti: بِتِكْ بِتِتْكُوْ أُغُرْ bitik bititgÿ og‘ur – xat* yozadigan vaqt. اَتْ كُزَتْكُو أُغُرْ at kuzatgu og‘ur – ot kuzatadigan vaqt. Boshqalari ham shunday.

Joy oti, chunonchi, تَرِغْ تَرِتْغُو يِيرْtarig‘ tarïtg‘u yer – tariq tortadigan joy**. تَرِغْ اَرِتْغُو يِيرْ tarig‘ arïtg‘u yer – ekin ekiladigan joy.

Qurol oti, chunonchi, تَرِغْ اَرِتْغُو نانك tarig‘ aritg‘u neŋ – tariq aritadigan narsa (asbob). Yana بِتِكْ بِتِتْكُو نانكْ bitik bititgÿ neŋ - yozuv yozadigan narsa kabi.

Payt ismi, joy ismi, qurol ismlarining farqi shuki, payt ismi yasash istalganda u so‘zdan so‘ng اُوزْ öz yoki أُغُرْ og‘ur so‘zlari keltiriladi. Chunonchi, تَرِغْ تَرِتْغُوْ أُغُرْ tarïg‘ taritg‘u og‘ur[33] **(426)** – don tozalaydigan vaqt. O‘rin ismi yasash uchun u so‘zdan so‘ng يِير so‘zi keltiriladi. Chunonchi, اَرِتْغُو يِيرْ aritg‘u yer – aritiladigan joy.

Qurol ismi yasash uchun u so‘zdan so‘ng نانكْ neŋ so‘zi orttiriladi. Chunonchi, تَرِغْ اَرِتْغُو نانكْ tarïg‘ arïtg‘u neŋ – tariq aritadigan (tozalaydigan) narsa kabi.

O‘g‘uzlar bu xil ismlarning hammasida ك - *k*, غ - *g‘* harflarini *ɑ* ga aylantiradilar. و – *v* harfini س - *s* ga aylantiradilar. Ular aytadilar: تَرِغْ اَرِتاسِى أُغُرْ tarïg‘ arïtasï og‘ur – tariq aritadigan vaqt. Yana: تَرِغْ اَرِتاسِى يِيرْ tarïg‘ arïtasï yer – don aritadigan yer. تَرِغْ اَرِتاسِى نانكْ tarïg‘ arïtasï neŋ – don aritadigan narsa. Bu qoida hamma fe’l boblari uchun umumiydir.

Ishning ikki yoki undan ortiq kishi orasida bo‘lganini, yordam yoki bahslashish asosida voqe bo‘lganini ifodalash istalsa, bu xil ma’no anglatuvchi fe’l o‘zagiga ش -sh harfi orttirib yasaladi. Chunonchi, اُلْ مَنْكا تَرِغْ اَرِتِشْدِي o‘l meŋa tarig‘ arïtïshdï – u menga tariq tozalashda yordam berdi اُلْ مَنكا اَتْ كُزَتِشْدِي o‘l meŋa at kÿzatishdi – u menga ot kuzatishga yordam berdi. Yoki men bilan ot boqishda bahslashdi. Boshqalari ham shunday.

---

* Olmaota nashrida: “xat” o‘rnida kitob so‘zi berilgan.

** Olmaota nashrida: *haydaladigan yer.*

[33] Bu gapning arabchasi bosma nusxada وَقْتُ تَمْقِيَه البرّ ya’ni *tariq tozalaydigan vaqt* deb berilgan. Bu izohga ko‘ra, o‘zbekchasi تَرِغْ اَرِتْغُو أُغُرْ bo‘lishi kerak edi. Lekin nusxada تَرِغْ تَرِتْغُوْ أُغُرْ deb berilgan.

Bilgilki, fe'lning bu shakli ikki ko'rinishga ega. Birinchisi o'rtasi yoki oxiri illatli uch harfli o'timsiz fe'llar bo'lib, bularga *t* qo'shilib, o'timliga aylanadi. Bu xil fe'ldan harfi illat tushib, uning o'rnini *t* egallaydi. Fe'l yana avvalgisicha uch harflik fe'l o'rnini oladi. Masalan, manquslar misoli:اَرْ بُرْنِي قَنَدِي er burnï qanadï – odamning burni qonadi. Bu gapdagi *qonadi* fe'li o'timsizdir. Buning o'timlisi: اَرْ بُرْنِنْ قَنِتِّي er burnïn qanattï – *odam burnini qonatdi* demakdir. Bu fe'lning buyruq shakli قَنَتْ qanatdir. اَنِنكْ بُرْنِنْ قَنِتْ anïŋ burnïn qanat – uning burnini qonat. Bunda قانَدي *qonadï*dan الف *a* tushirilgan. Yana اُلْ نِلِكْنِي قُوقِتِّي ol pilikni* qoqïttï – u pilikni o'chirib sasitdi. Asli قُوقْدِي *qoqdï*, buyrug'i قُوقِتْ *qoqït* bo'lib, و – *v* tushirildi.

To'rt harfliklar misoli; اَرْ قُمِنْدي er qomïndï** – odam hayajonlandi. Bu o'timsiz fe'ldir. اَنِي قُمِتْ anï qomït – uni hayajonlantir. **(427)** Bu yerda *n* tushirilib, o'rniga *t* orttirilib, o'timli qilingan. Yana: نانكْ اُلِيدي ölidi neŋ – narsa ho'llandi. Bu o'timsizdir. اُلِتّي ölitti deyilsa o'timli bo'ladi, ya'ni boshqa birovni ho'lladi demakdir. Buyrug'i اُلِتْ ölit – uni ho'lla demakdir.

Bu xildagi o'timli shaklning yasalishi o'timsiz manqus shaklida ro'y beradi. To'rt harflilar ت – *t* bilan o'timli qilinadi. Bularda sahih fe'lini o'timlikka aylantiruvchi *-r, -g'ir, -gir* qo'shimchalariga o'rin yo'qdir. Chunonchi, قُشْ اُجْدي qush uchdï – *qush uchdi* o'timsizdir. Bunda o'timsiz fe'l *r -ur* bilan yasaladi. Yana: اُلُكْ تِرِلْدي ölyk tirildi – *o'luk tirildi* o'timsizdir. تَنكْرِي تِرْكُرْدي Teŋri tirgÿrdi – *Xudo tiriltirdi*. Bunda o'timsiz fe'l *-gur* qo'shimchasi bilan o'timli bo'lgan. Yana: اَرْ تُذْتي *er* toztï – *odam to'ydi* bu o'timsizdir. اُلْ تُذغُرْدي o'l tozg'urdi – u uni to'ydirdi. Bunda o'timlidir. Bir harfi qayta takrorlangan hamma fe'l boblariga oid qoidalar shudir. O'zlik fe'lning manqus va to'rt harflilariga kelganda, bularga *t* qo'shilib, ikki foildan maf'ulga o'tuvchi o'timli fe'l yasaladi. Ularning biri buyuruvchi, ikkinchisi bajaruvchidir. *Chunonchi,* اَرْ بِتِكْ بِتِيدي er bitik bitidi – odam xat yozdi. Bu fe'l ish birgina ishlovchi tomonidan ishlanganligini anglatadi. Ammo اُلْ اَنكَرْ بِتِكْ بِتِتّي o'l anar bitik bititti – u unga xat

---

* Olmaota nashrida: *bilikni.*

** Olmaota nashrida: *qumidi.*

yozdirdi gapida بِتِّي *bititti* fe'li maf'ulga ikki ishlovchi *foil*dan o'tgandir. Biri xat yozishga buyurgan, ikkinchisi yozgan: Yana: اَرْ بِجاكْ بِلادي er bichäk bilädi – odam pichoq qayradi. بِلَتّي bilatti – *qayratdi* ham yuqoridagi kabi ikki ishlovchi tomonidan bajarilgan.

Bu fe'llarda yana boshqa xosiyat shuki, ushbu fe'l bu ma'nolarda qo'llanmay, o'z mazmunida qo'llanadi. Chunonchi, تامْ اَمِتّي tam emïttï – devor egildi, qiyshaydi. Boshqalari ham shunday. Yana: اَرْ سُوزْ اُنِتّي er sŏz unïttï – *odam so'zini unutdi* kabi bu xil fe'llarda o'timlilik yo'qdir.

Bu bobning manqus turi

ت *(t)*

بَيْتّي b a j u t t ï – boy qildi. تَنكري مَنى بَيْتّي Teŋri meni bajytti- Tangri meni boyitdi. (بَيْتُورْ. بَيْتْماقْ bajytyp, bajutmaq).

تَيِتّي t a j ï t t ï – toydirdi. اُلْ اَنى سُقْقا تَيِتّي o'l anï cywqa tajitti – u uni suvga toydirdi. Har narsani toydirishga ham bu so'z qo'llanadi. (تَيِتُورْ. تَيِتْماقْ tajityp, tajïtmaq).

قُيْتّي q u y u t t i – qochirdi. اُلْ اَتِغْ قُيْتّي o'l atïg' qujuttï – u otni qochirdi.*

G'unnalilar bo'limi

تُنكَتّي t ÿ ŋ i t t i – munkutdi. اَرْ بَشِنْ تُنكَتّي er bashïn **(428)** tÿŋitti- odam boshini munkutdi, engashtirdi. (تُنكَتْماكْ. تُنكَتُورْ tÿŋitÿr, tÿŋitmak).

تُنكَتّي t ö ŋ i t t i – havolatib otdi. اَرْ اُقِنْ تُنكَتّي er oqïn tŏŋitti – odam o'qini havolatdi (تُنكَتْماكْ. تُنكَتُورْ tŏŋitÿr, tŏŋitmak).

كَنِكتّي k e ŋ i t t i – kengaytirdi. اَرْ اَفِنْ كَنِكتّي er ewin keŋitti – odam uyini kengaytirdi. Boshqalari ham shunday. (كَنِكتُورْ. كَنِكتْماكْ keŋitÿr, keŋitmäk).

* DSda: *hurkitdi.*

Bu bobning misol turi

يَنكِتّي y e ŋ i t t i – burun tozaladi, qoqdi. يَنكِتّي اَرْ er jeŋitti – odam burun tozaladi. Asli يِنكْ اتّي eŋ jättidir.

يُنكَتّي y ÿ ŋ ä t t i* – chaqdi. يُنكَتّي اَني بَكّا اَلْ ol anï bekka yÿŋätti - u uni bekka chaqdi. Boshqalari ham shunday. (.يُنكَتُورْ يُنكَتْماكْ yÿŋätar, yÿŋätmak).

Uch harflilar tugadi.

TO‘RT HARFLILAR BO‘LIMI

فَعْلَنْدي *fa’aldi* shaklidagi so‘zlar

ت *(t)*

بُرْبَتّي b u r b a t t ï: اَلْ اَنِكْ o‘l anïŋ ïshïn burbattï – u uning ishini chatoq qildi, galga soldi (بُرْبَتْماقْ .بُرْبَتُورْ burbatur, burbatmaq).

تُرْبَتّي t ö r b ä t t i* – yo‘ndirdi. تُرْبَتّي مُنْكُرْ اَلْ o‘l mÿŋÿz törbatti – u shox yo‘ndirdi. Boshqalari ham shunday. تُرْبَتَرْ تُرْبَتَمَكْ törbatÿr, törbatmäk).

د *(d)*

بَغْدَتّي b a g‘ d a t t ï – chaldi. بَغْدَتّي اَذاقِنْ اَنِكْ اَلْ o‘l anïŋ azaqïn bag‘dattï – u kurashda uning oyog‘ini chalishtirdi (.بَغْدَتْماقْ بَغْدَتُورْ bag‘datur, bag‘datmaq).

سِخْتَتّي s ï x t a t t ï – yig‘latdi. سِخْتَتّي اَني اَلْ o‘l anï sïxtattïu – uni yig‘latdi. Bu so‘zning سِغْدَتّي *sïg‘dadtï* talaffuzi ham bor (سِخْتَتْماقْ .سِخْتَتُورْ sïxtatur, sïxtatmaq).

كُكْلَتّي k ö k l ä t t i – to‘qitdi, to‘qittirdi. كُكْلَتّي يِلغِنْ اَذرْ اَلْ o‘l ezär jalïg‘ïn köklätti – u egar yonlarining qayishini to‘qitdi. Bu so‘zning كُكْدَدْتّي *kökdädti* shakli ham bor (كُكْلَتْماكْ .كُكْلَتُورْ köklätÿr, köklätmak).

ج *(ch)*

سُرْجِتّي s u r c h ï t t ï – surkatdi. سُرْجِتّي اَتِنْ اَلْ o‘l atïn surchïttï. U otini toydirdi, qoqiltirdi. Otdan boshqaga ham bu so‘z qo‘llanadi (سُرْجِتْماقْ .سُرْجِتُورْ surchïtur, surchïtmaq).

---

* DSda: *törpitti;* Olmaota nashrida: *turbit.*

** DSda: *tegib ketdi, yalab o‘tdi.*

قِرْجِتّي q ï r c h a t t ï – yordi. اَنِكْ قاشِنْ قِرْجِتّي اُلْ o‘l anïŋ qashïn qïrchattï – u uning qoshini yordi. U unga tosh otdi, tosh uning qoshining bir tarafiga tegib yordi. Boshqalari ham shunday. She’rda shunday kelgan:

[VIII]

اِلِكِمْ اَرِغْ قِرْجِتُرْ اُقْ بَشَقي
اُنْمَشْ اُلُغْ تَرنكَك اُزا كُبْ قَشْقي

Eligïm apïg‘ qïrchatur oq bashakï
Önmish ulug‘ teriŋäk ÿzä köp qashaqï

O‘qning temiri qo‘limni yordi, qonga buladi. Men buloqlar suvidan o‘sgan o‘tlar orasidan **(429)** o‘tar edim.

قِرْجِتّي q ï r c h a t t ï – tegdi, tegib o‘tib ketdi. اُقْ اماجِغْ قِرْجِتّي o‘q amachïg‘ qïrchattï – o‘q omochga (nishonga) tegib o‘tib ketdi. (قِرْجِتْماقْ .قِرْجِتُورْ qïrchatur, qïrchatmak).

اِيشْ اَنكَرْ تُرْجِتّي t ö r c h i t t ï – ko‘rsatdi, boshlatdi, ishga soldi تُرْجِتُورْ. اُلْ تُرْجِتّي o‘l aŋar ïsh törchittï – u unga ish boshlatdi (تُرْجِتْماكْ törchitÿr, törchitmak).

قَفْجِتّي q a f c h i t t ï – xafa qildi, اُلْ اَنى قَفْجِتّي o‘l anï qafchittï – u uni xafa qildi. Hatto qilayotgan ishini tashladi. Yana: اُغْلانْ اَرِينِي قَفْجِتّي og‘lan arïnï qafchittï – bola arining jahlini chiqazdi. Maqolda shunday kelgan:

اَرى قَفْجِتْسا اُسِرّورْ
Arï qafchïtsa ycïpyp

Kishi arini g‘azablantirsa, uni chaqadi. Bu maqol tashvishli bir ishni boshlab, o‘zi ham undan qiynalishiga ishorat qilib aytiladi. (قَفْجِتْماقْ .قَفْجِتُورْ qafchïtur, qafchïtmaq).

تَفْجِتّي t a f c h ï t t i* – tepchitdi, tiktirdi. اُلْ تُونِنْ تَفْجِتّي o‘l tonïn tafchïttï[34] – u to‘nini tepchitdi. U to‘nini choklab emas, ko‘klab tiktirdi (تَفْجِتْماكْ .تَفْجِتُورْ tafchïtÿr, tafchïtmak).

---

* Olmaota nashrida: *tavjit.*

[34] Bu so‘z boshqa yerlarda *tewchimak* tarzida berilgap. Qo‘lyozmada ham shunday, to‘g‘risi ham shudir. Bu so‘z bizga bir ozgina shakliy o‘zgarish bilan *tepchimoq* tarzida etib kelgan. „Devon”da ڤ undoshi bilan berilgan so‘zlardagi

ب *(b)*

تَبْرَتّي t e b r ä t t i – harakatga soldi. اُلْ تَبْرَتّي نانكْنى o‘l tebrätti neŋni – u narsani harakatlantirdi. (تَبْرَتْماقْ .تَبْرَتُوْرْ tebrätÿr, tebrätmäk).

تَبْرَتّي t e b r ä t t i اَرْ يَعِيقا تَبْرَتّي – er jag‘ïqa tebrätti – odam dushmanga hujum qildi.

تَبْرَتّي t e b r ä t t i – tebratdi, qo‘zg‘atdi. اَرْ تَقْىَ سِنْ تَبْرَتّي ep tewäcin* tebrätti – odam tuyasini o‘rnidan turg‘izib choptirdi. Odamdan boshqaga[35] ham bu so‘z qo‘llanadi. (تَبْرَتْماقْ .تَبْرَتُوْرْ t ebrätÿr, tebrätmäk). Bu so‘z tuyadan boshqaga qo‘llanmaydi.

تُبْرَتّي t o‘ p r ä t t i** – tuprog‘ini chiqardi. قَوُىْ اُتْغْ تُبْرَتّي qo‘y otug‘ toprätti – qo‘y o‘tni yeb tugatdi, tamom qildi. Hattoki yerda biror narsa qolmadi. Yerdan sho‘r chiqib ketdi. (تُبْرَتْماقْ .تُبْرَتُوْرْ to‘prätÿr, to‘prätmäk).

تُغْرَتّي t o‘ g‘ r a t t ï – to‘g‘ratdi. اُلْ اَنكَرْ اَتْ تُغْرَتّي o‘l aŋar et tog‘rattï – u unga go‘sht to‘g‘ratdi. Yeyilmaydigan narsaga bu so‘z qo‘llanmaydi. (تُغْرَتْماقْ .تُغْرَتُوْرْ tog‘ratur, tog‘ratmaq).

تَقْرَتّي t a w p a t t ï – shoshildi. اَرْ تَقْرَتّي er tawpattï – odam shoshildi. (تَقْرَتْماقْ .تَقْرَتُوْرْ tawpatyp, tawratmaq).

تَقْرَتّي t a w r a t t ï*** – yigirdi. اُراغْتْ يِبْ تَقْرَتّي urag‘ut yïp tawpattï – xotin ip yigirdi.

تِغْرَتّي t ï g‘ r a t t ï – ish o‘rgatdi, ishga usta qildi. اُغْلِنْ ايِشْقا تِغْرَتّي og‘lïn ïshqa tïg‘rattï **(430)** – odam o‘g‘lini pishitdi, o‘g‘liga ish o‘rgatib, turmushning har xil ishlariga usta qildi (.تِغْرَتُوْرْ تِغْرَتْماقْ tïg‘ratur, tïg‘ratmaq).

تِكْرَتّي t i g p ä t t i – pishqirtirdi, kishnattirdi, pishqirib, kishnab yuradigan qildi. اُلْ اَتِنِ تِكْرَتّي o‘l atin tigpätti – u otini pishqirtirib, kishnatib yuradigan qildi. اُلْ اُغْلِنِي تِكْرَتّي o‘l og‘ïlnï tigpätti deyiladi. Bu so‘zning غ – *g‘* li varianti ham bor (.تِكْرَتُوْرْ تِكْرَتْماقْ tigpätÿr, tigpätmäk).

ڤ harfi hozirgi tilda, ba’zan “v” bilan, ba’zan “p” bilan almashganini, ba’zi so‘zlarda esa har ikki variantda teng qo‘llanganini ko‘ramiz. Bu so‘z u davrda *to‘nni zichlab* emas, *orasini ochib-ochib tikmoq* ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, hozir bu so‘z, asosan, do‘ppiga nisbatan qo‘llanadi. Shu bilan birga faqat siyraklab tikishgagina xos bo‘lmay, zichlab tikishga ham qo‘llanadi. Lekin *mayda tepchuk, siyrak (yirik) tepchuk* deb farqlanadi. Shu bilan birga bir narsani omonatgina tikish ma’nosida ham bu so‘z qo‘llanadi.

* Olmaota nashrida: *tavisin.*

[35] Bu yerda *tuyadan boshqaga* deyilmoqchi bo‘lsa kerak.

** DSda: *toprattï.*

*** DSda: *tevrätti.*

سَجْرَتّي s a c h r a t t ï – sachratdi. ألْ مُنكا سُوڤْ سَجْرَتّي o‘l meŋä cyw sachrattï – u menga (behosdan, ataylab emas) suv sachratdi. Chunonchi, bir idishdan bir idishga suv va boshqa suyuqliklar quyayotganda sochilib chiqib sachrashi, yoki o‘tin yorayotganda sinig‘i kelib tegishiga ham bu so‘z qo‘llanadi. Bir turli tuzoqqa سَجِرَتْغُو *sachïratg‘u* deyish ham shundandir. U tuzoq shunday: bir-biriga yopishgan ikkita ayri shox olinadi. Ularning oralariga tuzoqli ip bog‘lanadi. So‘ng uni tuproqqa ko‘miladi va ustiga don sochiladi. Don yemoqqa kelgan qushni tuzoq bo‘ynidan yoki oyog‘idan ushlab qoladi. So‘ng uni ushlab oladilar.

Maqolda shunday kelgan:

سَجِرَتْغُودنْ قُرْقُمِشْ قُشْ قِرقْ اَذْرِي يِغاجْ أزا قُنْماسْ

Sachïratg‘udïn qorqmïsh qush qïrq yïl azrï yïg‘ach ÿzä qo‘nmas

Tuzoqdan bir marta qo‘rqqan qush qirq yilgacha ayri butoqqa qo‘nmaydi. Bu payg‘ambar alayhissalomning لايُلْسَعُ الْمُومِنُ مِنْ جُحْرٍ مَرّتَيْنِ degan so‘zi kabidir (سَجْرَتُورْ .سَجْرَتْماقْ sachratmaq, sachratur).

سَدْرَتّي s e d r ä t t ï – siyraklatdi. ألْ تُونُغْ سَدْرَتّي o‘l tonug‘ sedrättï – u to‘nini siyrak qildirdi. ألْ كَشِي نِي سَدْرَتّي o‘l kishin sedrättï – u odamlar mehnatini yengillatdi. Har narsani kamaytirishga, yengillatishga ham bu so‘z qo‘llanadi. (سَدْرَتُورْ. سَدْرَتْماقْ sedrätÿr, sedrätmäq).

سُغْرَتّي s u g‘ r a t t ï – surishtirdi, ko‘rib chiqdi. ألْ اَنِكْ اَنِنْ سُغْرَتّي o‘l anïŋ ewin sug‘rattï – u uning uyini surishtirdi. Uyda bo‘lgan narsalarning hammasini ko‘rdi (سُغْرَتْماقْ .سُغْرَتُورْ sug‘rutur, sug‘rutmaq)*.

سُڤْرتّي s ÿ w p i t t i – o‘tkir qildi, tezladi, qirralik qildi. ألْ يِغاجِغْ سُڤْرتّي o‘l yïg‘achïg‘ sÿwpitti – u yog‘och va boshqa narsaning bir tarafini qirralik qildi. Qayrab o‘tkir qilishga ham bu so‘z qo‘llanadi. (سُڤْرتُورْ .سُڤْرتْماكْ sÿwpitÿp, sÿwpitmak).

سَڤْرتّي c e w p i t t i – molu matohlardan bo‘shatdi. ألْ اَنِنْ سَڤْرتّي o‘l ewin cewpitti – u uning uyini molu matohlardan bo‘shatdi. ألْ

---

* *Sug‘rat // sug‘rut* kabi ko‘rinishning berilishi davr tilida bu so‘z ikki variantli bo‘lishining ehtimoli ham bor (B.I)

ايشِنْ سَفْرتّي o‘l ishincewpitti – u ishini tamomladi, demakdir[36] (سَفْرتُورْ. سَفْرتْماكْ cewrittÿp, cewritmäk).

سَكْرتّي s e k p i t t i* – sakratdi. اُلْ اَتِنْ اَرقْتِنْ سَكْرتّي o‘l atïn arïqtïn cekritti – u otini ariqdan, boshqa narsadan xatlatdi. Yana: اُلْ بِتِكْ اُقِرْ اَرْكانْ سَكْرتّي o‘l bitik oqïr erkän cekritti – u xatni, kitob yoki Qur’onni o‘qishda sakratib ketdi. Orada ba’zi joylarni qoldirib o‘qidi (سَكْرتُورْ. سَكْرتْماكْ cekritÿr, cekritmäk). **(431)**

جِلْرَتّي j ï l r a t t i** – jildiratdi, shildiratdi. اُلْ اُقِنْ كيشْتا جِلْرَتّي o‘l oqin kishtä jïlratti – u o‘qini o‘qdonda shildiratdi. Har narsani shildiratishga ham bu so‘z qo‘llanadi (جِلْرَتُورْ. جِلْرَتْماقْ jïlratur, jïlratmaq).

سَمْرتّي s e m r i t t i – semirtirdi. اُلْ اَتِنْ سَمْرتّي o‘l atïn semritti – u otini semirtirdi. Boshqasi ham shunday (سَمْرتُورْ. سَمْرتْماكْ semritÿr, semritmek).

جِغْرتّي c h ï g‘ r ï t t ï*** – tepkiladi, urdi. اُلْ پيرِكْ جِغْرتّي ol yerig chïg‘rïttï – u yerni oyog‘i bilan tepib, qattiq qildi. Har narsani qattiq bosib, tepib pishitishga ham bu so‘z qo‘llanadi. Chununchi, unni idishga bosib qo‘yish kabi. Yana اَرْ اُغْلِنْ ايشْتا جِغْرتّي er og‘lïn ïshta chïg‘rïttï – odam o‘g‘lini ishga o‘rgatib pishitdi (جِغْرتُورْ. جِغْرتْماقْ chïg‘rïtur, chïg‘rïtmaq).

جُقْرَتّي c h o‘q r a t t ï – qaynatdi. اُلْ اَشِجْ جُقْرَتّي o‘l ashich**** choqrattï–u qozonni va boshqani qaynatdi. Bu qozonning kam suv, ko‘p don bilan bug‘lanib qaynashidir (جُقْرَتُورْ. جُقْرَتْماقْ choqratur, choqratmaq).

جَقْرَتّي c h a q r a t t ï – chaqchaytirdi, olaytirdi. اَرْ كُوزِنْ جَقْرَتّي er közin chaqrattï – odam ko‘zini chag‘ir ko‘z, g‘ilayga o‘xshatib chaqchaytirdi (جَقْرَتُورْ. جَقْرَتْماقْ chaqratur, chaqratmaq).

جِقْرَتّي c h ï q r a t t i – qisirlatdi. اُلْ تيشِنْ جِقْرَتّي o‘l tïshïn chïqratti – u tishini g‘ijirlatdi. Yana: بُغْرا تيشِنْ جِقْرَتّي bug‘ra tïshïn chïqratti – nor tuya tishini g‘ijirlatdi. Qalam va eshikning

---

[36] Biz asoslangan bosma nusxada bu so‘z shunday noaniq shaklda berilgan.

* Olmaota nashrida: *sakirt.*

** DS: *čilratti.*

*** Olmaota nashrida: *jig‘irt.*

**** Olmaota nashrida: *äshaj.*

g‘ijirlagan ovoziga ham bu so‘z qo‘llanadi (چڤرتماق .چڤرتور chïqratur, chïqratmaq).

قڤرتي q a q r a t t ï – tartarak chaldi. ألْ قڤرتغو قڤرتي o‘l qaqratg‘u qaqrattï – u chumchuq va boshqa qushlarni ekindan qochirish uchun tartarak chaldi (قڤرتماق .قڤرتور qaqratur, kaqratmaq).

قُڤْرَتّي q u q p a t t ï – qaqratdi, kamaytirdi ألْ سوڤغ قُڤْرَتّي o‘l cywyg‘ quqrattï[37] – u suvni qaqratdi, kamaytirdi. Har bir suyuq narsani kamaytishga ham bu so‘z qo‘llanadi (قُڤْرَتُورْ. قُڤْرَتْماقْ quqratur, quqratmaq).

كَڤْرَتّي k e w p a t t i – pasaytirdi, zaiflatdi. ألْ اَنِكْ كُوچِنْ كَڤْرَتّي o‘l anïŋ kÿchin kewpatti – u uning kuchini zaiflatdi (كَڤْرَتُورْ. كَڤْرَتْماكْ kewpatÿr, kewpatmäk).

She’rda shunday kelgan:

[IX]

أُلْكْ كُنِي تَڤْرَتُورْ
يَلِنكُقْ كُچِنْ كَڤْرَتُورْ
اَرْدِنْ اَزْنْ سَڤْرَتُورْ
قَجْسا تَقِي اَرْتِلُورْ

Özläk kÿni tewrätÿr,
Yaliŋuq kÿchin kewratÿr,
Ördin ayun[38] cewritÿp*
Qachsa taqi artïlur**.

---

[37] Bu so‘z bu yerda قُڤْرَتّي *quqrattï* tarzida berilgan. Holbuki, bu so‘z II va III jildlarda har yerda *qaq* tarzida uchraydi. To‘g‘risi shudir. Shu ham borki, bu so‘z hozirgi o‘zbek tilida ham ikki xil talaffuz qilinadi. *Qoq go‘sht, olma qoqi, qovun qoqi* iboralarida “o” bilan, *qaqramoq* so‘zida “a” bilan talaffuz qilinadi. Bu so‘z XI asrda *quruqlik* va *sekin urmoq* ma’nosida qo‘llangan. Hozirgi tilda bu so‘zning o‘sha qadimgi ma’nosi asosida iste’mol doirasi ancha kengaygan: *mix qoqish* (urmoq), *qoziq qoqmoq*, *olma qoqmoq* va boshqalar.

[38] Bu so‘z Lutfiydan tortib Navoiy asarlarida *ochun* tarzida uchraydi:

Sendek *ochun*g‘a bir ko‘zi ayni balo qani,
Mendek aning jafosi bila mubtalo qani.

* Olmaota nashrida: *savratur*.

** Olmaota nashrida: *artalo‘r*.

Zamon odam kuchini zaiflatdi, u dunyoni odamdan (Alp Erto‘ngadan) bo‘shatishga shoshilib harakat qilayotir. Qochganni ham u izlab topadi. **(432)**

تَبْزَتّي t e b z ä t t i أُلْ مَني بُو ايشْقا تـَفْزَتّي o‘l meni bu ïshqa tewzätti – u meni bu ishda hasad qildirdi (تـَفْزَتُورْ. تـَفْزَتْماكْ tewzätÿr, tewzätmak).

قُبْزَتّي q o b z a t t ï – qo‘biz chalishga ko‘ndirdi. أُلْ اَني قُبْزَتّي o‘l anï qobzattï – u uni qo‘biz chaldirdi (قُبْزَتُورْ. قُبْزَتْماقْ qobzatur, qobzatmaq).

س (s)

بُخْسَتّي b u x s a t t ï – o‘jarlik, qaysarlik qildi. أُلْ أغِلْني ايشْقا بُخْسَتّي o‘l og‘ïlnï ïshqa buxsattï – u o‘g‘lini ishga bo‘ysunmaydigan qildi. Boshqalari ham shunday (بُخْسَتُورْ. بُخْسَتْماقْ buxsatur, buxsatmaq).

تَبْسَتّي t e p s ä t t i – hasad qildirdi. أُلْ مَني تَبْسَتّي o‘l meni tepsätti – u meni hasad qildirdi. Bu so‘zning *z* lik varianti ham bor (تَبْسَتُورْ. تَبْسَتْماكْ tepsätÿr, tepsätmäk).

كَجْسَتّي k e c h s a t t i – kechirishni istadi. أُلْ مَني سُوڤْدِنْ كَجْسَتّي o‘l meni suwdïn kechsatti – u meni suvdan kechirishni istadi. Boshqalari ham shunday (كَجْسَتُورْ. كَجْسَتْماكْ kechsatÿr, kechsatmäk).

سَرْسِتّي c a p c ï t t ï – qo‘po‘llik ko‘rsatdi. أُلْ اَني سَرْسِتّي o‘l anï capcïttï – u unga dag‘allik, qo‘pollik qildi (سَرْسِتُورْ. سَرْسِتْماقْ capcïtur, capcïtmaq).

سُڤْسَتّي c y w c a t t ï – suvsatdi. أُلْ اَني سُڤْسَتّي o‘l anï cywcattï – u uni suvsatdi (سُڤْسَتُورْ. سُڤْسَتْماقْ cywcatur, suwsatmaq).

سَمْسِتّي s a m s ï t t ï – izo berdi, xafa qildi أُلْ اَني سَمْسِتّي o‘l anï samsïttï – u uni so‘z bilan yo muomalasi bilan xafa kildi (سَمْسِتُورْ. سَمْسِتْماكْ samsïtur, samsïtmak).

ش (sh)

تَڤْشَتّي t e w s h ä t t ï – chigaltirdi, qattiq chuvaltirdi. أُلْ يِيغْ تَڤْشَتّي o‘l jïpïg‘ tewshättï – u ipning uchini topib bo‘lmas darajada qattiq chuvaltirdi (تَڤْشَتُورْ. تَڤْشَتْماكْ tewshätÿp, tewshätmäk).

تَڤْشَتّي t e w s h ä t t ï – charchatdi* أُلْ اَنِكْ تَرْنْ تَڤْشَتّي o‘l aniŋ terin tewshättï – u uni charchatdi, hatto dona-dona ter chiqartirdi.

---

* Olmaota nashrida: *ter jildchilatdi.*

جُفْشَتّي j u w s h a t t ï – achitdi, achitib tayyorladi. اَر جَغِرْ جُفْشَتّي er chag‘ïr juwshattï – odam ichkilikni achitib tayyorladi*. Boshqalari ham shunday.

جِفْشَتّي j ï w s h a t t ï – achitdi. سِرْكا قَرِنْ جِفْشَتّي cipkä qapïn jïwshattï – sirka qorinni achitdi. Sirkaning yerga to‘kilib qaynashiga ham shu so‘z qo‘llanadi (جِفْشَتُوْر. جِفْشَتْماقْ jïwshatyp, jïwshatmaq).

شُفْشَتّي s h u w s h a t t ï** – shipshitdi. اُلْ مَنِكْ قُلاقّا سُوزْ شُفْشَتّي o‘l meniŋ qulaqqa söz shuwshattï – u mening qulog‘imga so‘z shipshitdi شُفْشَتُوْر. شُفْشَتْماقْ shywshatur, shuwshatmaq).

قَرْشَتّي q a r s h a t t ï – qarichlatdi, o‘lchatdi. اُلْ بُوزُكْ قَرْشَتّي o‘l bözÿg[39] qarshattï – u bo‘zni qarichlatdi, o‘lchatdi. Boshqalari ham shunday (قَرْشَتُوْر. قَرْشَتْماقْ qarshatur, qarshatmaq).

قُرْشَتَّمْ q u r s h a t t ï m: مَنْ اَنكَرْ قُورْ قُرْشَتَّمْ men anar qur qurshattïm –men unga belbog‘ bog‘lashga buyurdim, u bog‘ladi (قُرْشَتُورْمَنْ. قُرْشَتْماقْ qurshaturman, kurshatmaq).

قُغْشَتّي q u g‘s h a t t ï***

– bo‘shashtirdi, futur etkazdi اَنِي قُيَاشْ قُغْشَتّي qujash anï qug‘shattï – quyosh harorati uni bo‘shashtirdi. Har bir qattiq narsani ham bo‘shashtirishga bu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘zdagi *g‘* o‘rniga *x* qo‘llovchilar ham bor (قُغْشَتُوْر. قُغْشَتْماقْ qug‘shatur, **(433)** qug‘shatmaq).

---

* DSda: *uzum suvini achitish darajasiga etkazdi.*

[39] *Bözÿg* so‘zining oxiridagi *-ug* tushum kelishigining affiksidir. Bu affiksning *-ug‘* varianti ham bor, *to‘n-ug‘, köl-uch, qor-ïg‘, kish-ïg* kabi. Birgina vazifa bajaruvchi affiksning bu variantlari u davr tilidagi qat’iy qoida holiga kirgan. Qalinlik, yumshoqlik xususiyat talabiga muvofiq yuzaga kelgan har bir so‘zning o‘zak xususiyatiga ko‘ra farqlab qo‘llanishi kerak bo‘lgan qonuniy hodisa edi. *Ko‘zug, qulug‘* kabi. Shu bilan birga bu affikslarning u davr tilidagi unlilardagi lab ohangi qoidasiga muvofiq *-ig, -ig‘* variantlari ham bor edi. *Ishig, korig‘* kabi. Bu holat ham u davr tili uchun xarakterli xususiyat edi. Shuni ham aytish kerakki, u davr tilida tushum kelishigining affiksi yolg‘iz shular emas, bu vazifani bajaruvchi affikslar ko‘p edi. U davrda bu vazifada eng ko‘p qo‘llanuvchi affiks hozirgi o‘zbek tilidagi *-ni* affiksi edi. She’rlarda buning *-n / -in* variantlari ham uchrar edi.

** DS: *qovšattï.*

*** DS: *qovšattï.* Gap tarjimasi: *u o‘qiga jilo berdi.*

قُقْشَتّي q u w s h a t t ï* – g‘iloflatdi. اُلْ اُقْ قُقْشَتّي o‘l oq quwshattï – u o‘qni g‘iloflatdi, o‘qqa yog‘och g‘ilof qildirdi (قُقْشَتُوْر. قُقْشَتْماقْ quwshatyp, quwshatmaq).

كَقْشَتّي k e w s h a t t ï – yumshatdi. اُلْ قَتِغْ نانكْني كَقْشَتّي o‘l qatïg‘ neŋni kewshattï – u qattiq narsani yumshatdi, zaiflatdi (كَقْشَتُوْر. كَقْشَتْماكْ kewshatyp, kewshatmäk). اُلْ تَقْي سِنْ كَقْشَتّي o‘l tewesin kewshattï – u tuyasini kavshatdi. Masdar shakli yuqoridagicha.

غ *(g‘)*

تَسْغَتّي t a s g‘ a t t ï – اُلْ قُلِنْ تَسْغَتّي o‘l qulïn tasg‘attï – u qulini va boshqani urdirdi (تَسْغَتُوْر. تَسْغَتْماقْ tasg‘atur, tasg‘atmaq).

قَرْغَتْدي q a r g‘ a t d ï – qarg‘atdi اُلْ ياكْني قَرْغَتْدي o‘l yerni qarg‘atdï – u shaytonni qarg‘atdi. Boshqalari ham shunday (قَرْغَتُوْر. قَرْغَتْماقْ qarg‘atur, qarg‘atmaq).

قُرْغَتّي q u r g‘ a t t ï – qurg‘adi يِرْ قُرْغَتّي yer qurg‘attï – yer namsizlikdan qaqrab qurg‘adi. Asli قُرْغاتْتي *qurg‘aztï*dir (قُرْغَتُوْر. قُرْغَتْماقْ qurg‘atur, kurg‘atmaq).

قِرْغَتّي q ï r g‘ a t t ï – yomonlatdi. اُلْ اَني بَكْكا قِرْغَتّي o‘l ani bekka qïrg‘attï – u uni bekka yomonlatdi. Bek undan yuz o‘girib, haydadi (قِرْغَتُوْر. قِرْغَتْماقْ qïrg‘atur, kïrg‘atmaq).

ڤ *(w)*

قَرْڤَتّي q a p w a t t ï: اُلْ اَنِكْ قُويِنْدا نانكْ قَرْڤَتّي o‘l anïŋ qojunda neŋ qarwattï – u uning qo‘ynidan bir narsa qidirtirdi. Har narsani ko‘z bilan ko‘rmay qo‘l bilan timiskilashga ham bu so‘z qo‘llanadi (قَرْڤَتُوْر. قَرْڤَتْماقْ qapwatyp, qarwatmaq).

ق *(q)*

بُرْقِتّي b u r q ï t t ï: اُلْ يُوزِنْ بُرْقِتّي o‘l yÿzin burqïttï – u yuzini burishtirdi (بُرْقِتُوْر. بُرْقِتْماقْ burqïtur, burqïtmaq).

تِلْقَتّي t ï l q a t t ï* – kechiktirdi. اُلْ اَنِكْ اِيشِنْ تِلْقَتّي o‘l anïŋ ïshïn tïlqattï – u uning ishini kechiktirdi.

تِلْقَتّي t ï l q a t t ï – bog‘ichni mustahkamlash uchun oraga biror narsa qo‘yib siqtirdi. اُلْ يُكْني تِلْقَتّي o‘l yÿkni tïlqattï – u yukni mustahkamladi**. Yukni tuzatish, yaxshi o‘rnatish uchun yuk

---

* DSda bu so‘znining *talqïttï* shakli ham bor.

** DSda: *u yukni surib qo‘ydi.*

bilan arqon orasiga biror narsa ko‘yib, pishiqlashga ham bu so‘z qo‘llanadi (تِلْقَتْماقْ .تِلْقَتُورْ tïlqattur, tïlqatmaq).

سَرْقِتِّي s a r q ï t t ï – silqitdi. أُلْ تُونْدِنْ سُوڤْ سَرْقِتِّي o‘l tondïn cyw sarqïttï – u to‘nning suvini silqitdi. Boshqalari ham shunday (سَرْقِتْماقْ .سَرْقِتُورْ sarqïtur, sarqïtmaq).

قُرْقُتِّي q o r q u t t ï – qo‘rqitdi. أُلْ اَنِي قُرْقُتِّي o‘l anï qorquttï – u uni qo‘rqitdi (قُرْقُتْماقْ .قُرْقُتُورْ qorqïtur, qorqïtmaq).

ك (k)

بَرْكِتِّي b e r k i t t i – bekitdi*. أُلْ بَرْكِتِّي نانكْ o‘l berkitti neŋ – u narsani, ishni bekitdi, pishiq qildi, mustahkamladi (بَرْكِتْماكْ .بَرْكِتُورْ berkitïr, berkitmäk).

كُرْكُتِّي k ö r k ÿ t t ï** – ko‘rsatdi, ko‘rgazdi. أُلْ مُنكا نانكْ كُرْكُتِّي o‘l meŋa neŋ körkÿttï – u menga narsa ko‘rsatdi (كُرْكُتْماكْ .كُرْكُتُورْ körkÿtïr. körkÿtmäk).

كُرْكَتِّي k ö r k ä t t ï – chiroyli bo‘ldi. قِيزْ كُرْكَتِّي qïz körkättï **(434)** – qizning yuzi, rangi chiroyli bo‘ldi. Bu so‘zning asli كُرْكادْتِي *körkäztï*dir. So‘ng ذ *z* harfi ت *t* ga singishgan (كُرْكَتْماكْ .كُرْكَتُورْ körkätïr, körkätmäk).

بِلْكَتِّي b i l g ä t t i – aqlli bo‘ldi. أُغْلانْ بِلْكَتِّي og‘lan bilgätti – bola aqlli bo‘ldi, hushyor bo‘ldi (بِلْكَتْماكْ .بِلْكَتُورْ bilgätïr, bilgätmäk). Asli بِلْكادْتِي *bilgäztï*dir. So‘ng *z* harfi *t* ga singigan. Bilginki, اَدْتِي äzti qo‘shimchasi bilan tabiatga daxldor so‘zlardan fe’l yasaladi. Chunonchi, كُرْكْ körk – *chiroyli* demakdir. *Chiroyli bo‘ldi* demoqchi bo‘linsa, buning oxiriga اَدْتِي *azti* qo‘shiladi. Chunonchi, كُرْكادْتِي körkäztï – *chiroyli bo‘ldi* kabi.

Yana: بِلِكْ bilig – *aql* demakdir. Buning oxiriga اَدْتِي *äzti* qo‘shib بِلْكادْتِي *bilkäzti* fe’li yasaladi. Masalan, أُغْلانْ بِلْكادْتِي og‘lan bilkäzti – *bola aqlli bo‘ldi* demakdir. So‘ng bu so‘zdan *a* tushirilib, *z* harfi *t* ga singdirilsa, bir harf, ya’ni *t* qayta takrorlangan shakl hosil bo‘ladi.

---

* Olmaota nashrida: *mahkamladi.*

** DSda: *körgütti.*

ل (l)

بُزْلَتّي b o‘ z l a t t ï – bo‘zlatdi. اُلْ بُتُوني بُزْلَتّي o‘l bo‘tuni[40] bo‘zlattï – u tuya bolasini onasidan ayirdi. Boshqalari ham shunday بُزْلَتُوْرْ. بُزْلَتْماقْ bo‘zlatur, bo‘zlatmaq).

بَشْلَتِّمْ b a s h l a t t ï m – boshlatdim, مَنْ اَنكَرْ اِيشْ بَشْلَتِّم men aŋar ïsh bashlattïm – men unga ish boshlashga buyurdim (بَشْلَتُوْرْ. بَشْلَتْماقْ bashlatur, bashlatmaq).

بَغْلَتِّمْ b a g‘ l a t t ï m – bog‘latdim. اَنكَرْ اُتُنكْ بَغْلَتِّم aŋar otuŋ bag‘lattïm –unga o‘tin bog‘latdim. Boshqalari ham shunday اَنكَرْ بُوغْ بَغْلَتِّم aŋar bog‘ bag‘lattïm – unga bo‘g‘cha yoki tugunni bog‘latdim (بَغْلَتُوْرْمَنْ. بَغْلَتْماقْ bag‘laturman, bag‘latmaq).

بَكْلَتّي b e k l a t t i – qamattirdi. بَكْ أُغْرِيني بَكْلَتّي bek og‘rïn ïb eklatti – bek o‘g‘rini bog‘lash, qamashga buyurdi. مَنْ اَتْ بَكْلَتّي men at beklattim – men otni saqlashga buyurdim (o‘g‘uzcha) (بَكْلَتُوْرْمَنْ. بَكْلَتْماكْ beklätÿrmän, beklätmäk).

تَبْلَتِّمْ t a p l a t t ï m – rozi qildim. مَنْ اَني بُو اِيشْقا تَبْلَتِّم men anï bu ïshqa taplattïm – men uni bu ishga rozi qildim (تَبْلَتُوْرْمَنْ. تَبْلَتْماقْ taplaturman, taplatmaq).

تُبْلَتّي t ÿ p l ä t t i* – tublatdi, tagli tekshirdi. اُلْ بُوْ ايشِغْ تَلِمْ تُبْلَتّي o‘l bu ïshïg‘ telïm tÿplatti – u bu ishni talay (juda) sinchiklab tekshirtirdi. (تُبْلَتْماكْ. تُبْلَتُوْرْ tÿplatÿr, tÿplatmäk).

تَرْلَتّي t e r l ä t t i – terlatdi. اُلْ اَتِنْ تَرْلَتّي o‘l atïn terlätti – u otini terlatdi. Yana اُلْ اَتِغْ تَرْلَتّي o‘l atïg‘ terlätti – u otini qashlog‘ich bilan qashlatdi (تَرْلَتْماكْ. تَرْلَتُوْرْ terlätÿr, terlätmäk).

تُزْلَتّي t u z l a t t ï – tuzlatdi. اُلْ اَتْ تُزْلَتّي o‘l et tuzlattï – u go‘sht tuzlatdi. Boshqalari ham shunday (تُزْلَتْماكْ. تُزْلَتُوْرْ tuzlatur, tuzlatmaq).

تِزْلَتّي t i z l ä t t i: اُلْ تِزْلَتّي نانكْ o‘l tizlätti neŋ – u narsani tizza bilan bosdi (تِزْلَتْماكْ. تِزْلَتُوْرْ tizlätÿr, tizlätmäk).

تُشْلَتّي t ö s h l ä t t i: اُلْ اَني تُشْلَتّي o‘l ani töshlätti – u uning to‘shiga urdirdi (تُشْلَتْماكْ. تُشْلَتُوْرْ töshlätÿr, (435) töshlätmäk).

تُشْلَتّي t u s h l a t t ï*: اُلْ يِرِكْ اَنكَرْ تُشْلَتّي o‘l yerig aŋar tushlattï – u uni uzoqdan bir yerga ro‘para qilib qo‘ydi. Uzoqdan ro‘parama

---

* Olmaota nashrida: *tublat*. **DSda: *mohiyatiga etmoq*.

ro‘para turgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi (تُشْلَتُورْ. تُشْلَتْماقْ tushlatur, tushlatmaq).

تَشْلَتّي tashlattï: أَلْ أُغْلْني تَشْلَتّي o‘l og‘ulnï tashlattï – u o‘g‘lini tashqarilatdi, tashqariga chiqardi, safar qattiqligini ko‘rsin deb safarga yubordi.

تَشْلَتّي t a s h l a t t ï* – أَلْ اَني تَشْلَتّي o‘l anï tashlattï – u uni tosh bilan urdirdi (تَشْلَتُورْ. تَشْلَتْماقْ tashlatur, tashlatmaq).

تِشْلَتّي t ï s h l a t t ï – tishlatdi. أَلْ اَني تِشْلَتّي o‘l anï tïshlattï – u uni tishlatdi. She’rda shunday kelgan:

[X]

جَغْري بِرِبْ قُشْلَتُو
تَيْغَنْ اِذِبْ تِشْلَتُو
تِلْكي تُنمُزْ تَشْلَتُو
اَرْدَمْ بِلا أُكْلَلِمْ

Jag‘rï berïb qushlatu
Tayg‘an ïzïb tïshlatu
Tilki** toŋuz tashlatu
Ərdäm bilä öglälim***.

Ov va shodlikni maqtab yozadi: ov qushlarini bolalarga berib ov qildiramiz. Ohu, to‘ng‘iz, tulkilarni ovlash uchun itni qo‘yib yuboramiz. Ularga yordam uchun ularni tosh bilan uramiz. Fazilat bilan faxrlanamiz (تِشْلَتُورْ. تِشْلَتْماقْ tïshlatur, tïshlatmaq).

تَغْلَتّي t a g‘ l a t t ï – dog‘latdi. أَلْ اَتِنْ تَغْلَتّي o‘l atïn tag‘lattï – u otini tamg‘a urib dog‘latdi (تَغْلَتُورْ. تَغْلَتْماقْ tag‘latur, tag‘latmaq). Forslar bu so‘zni turklardan olib, داغْ *dag*[41] deydilar. Shuningdek,

---

* Olmaota nashrida har ikki *toshlatti* bir so‘z sifatida berilgan

** Olmaota nashrida: *tilku*.

*** Olmaota nashrida: *uklalim*.

[41] *Dog‘* so‘zi XI asrda faqat mollarga uriladigan belgi vazifasida qo‘llangan. Navoiyda bu so‘z bir necha ma’noda kelgan:

1. Odam badanidagi dog‘ga nisbatan ham qo‘llangan:

Jism uzra bordur yangi butgan ko‘kumtil *dog‘*dek.

2. *Azob, alam* ma’nosida:

Boizo, do‘zah o‘ti dog‘in o‘karsen angladim,
Kim sanga yo‘qtur hamono dog‘i hijrondin xabar.

Hozirgi jonli o‘zbek tilida: biror narsaning yuqi yoki xafalik ma’nosida ishlatiladi.

ular qal'a ismini ham turklardan olib دز *diz* deydilar. Turkcha تِيزْ تِيرْ tiz yer – baland joy demakdir.

تُمْلِتّي t u m l ï t t ï* – yaxlatdi, sovutdi. أَلْ سُوفْ تُمْلِتّي o'l cyw tomlïttï – u suvni yaxlatdi. Sut va boshqalarni yaxlatishga ham bu so'z qo'llanadi (تُمْلِتْماقْ .تُمْلِتُورْ tumlïtur, tumlïtmaq).

تُمْلُتّي t u m l u t t ï** – sovutdi, sovuq ko'rsatdi. أَلْ اَنِكْ كُنكْلِنْ تُمْلُتّي o'l anïŋ köŋlin tumluttï – u unga g'azab qildi, uning ko'nglini sovutdi, hatto u uni xafa qilib qo'ydi (تُمْلُتْماقْ .تُمْلُتُورْ tumlïtur, tumlïtmaq).

سَبْلَتّي s a p l a t t ï – soplatdi, sop qildirdi. أَلْ قِلِجْ سَبْلَتّي o'l qïlïch saplattï – u qilichni soplatdi. Pichoq, xanjar va boshqa shuning kabilarga sop qilishga ham bu so'z qo'llanadi (سَبْلَتْماقْ .سَبْلَتُورْ saplatur, saplatmaq).

جَرْلَتّي j a r l a t t ï – yig'latdi. أَلْ أُغْلانِغْ جَرْلَتّي o'l og'lanïg' jarlattï – u bolani yig'latdi. Filni bo'kirtirishga ham bu so'z qo'llanadi (.جَرْلَتْماقْ جَرْلَتُورْ jarlatur, jarlatmaq).

جَرْلَتّي j e r l ä t t ï*** – buzdi, ishdan chiqardi. أُتْ اَنِكْكُوزِنْ جَرْلَتّي ot anïŋ közin jerlätti – o'simlik (davo) uning ko'zini ishdan chiqardi. G'aliz ovqat va shunga o'xshash yoqimsiz narsalar yeyishdan kishida paydo bo'lgan og'irlashishga ham bu so'z qo'llanadi. (جَرْلَتْماكْ .جَرْلَتُورْ jerlätÿr, jerlätmek).

جُرْلَتّي j ö r l ä t t ï**** – oldirdi. أَلْ اَنْدِنْ نانكْ جُرْلَتّي o'l andïn neŋ jörlätti **(436)** – u uning molidan bir narsa oldirdi (جُرْلَتْماكْ .جُرْلَتُورْ jörlätÿr, jöplätmäk).

---

* DS: *tomlïttï.*

** Olmaota nashrida: *tumlit*; bunday ikki xillik asli *tumlit* va *tumlut* bir so'z ekanligi bilan izohlansa kerak (B.I.)

*** Olmaota nashrida: *jarlat.*

**** DS: *čürlätti.*

جُغْلَتّي c h o g‘ l a t t ï – o‘lchatdi, o‘lchatishga buyurdi. اُلْ تُونِنْ جُغْلَتّي o‘l tonïn chog‘lattï[42] – u to‘nini bo‘g‘chalatdi (.جُغْلَتُورْ جُغْلَتْماق jug‘latur, jug‘latmaq).

چِغْلَتّي c h ï g‘ l a t t ï: اُلْ بُوزْ چِغْلَتّي o‘l böz chïg‘lattï – u turkcha o‘lchov gazi bilan bo‘z o‘lchatdi. Turkcha o‘lchov gazi boshqa gaz o‘lchovining uchdan ikki hissasiga tengdir (.چِغْلَتُورْ چِغْلَتْماقْ chïg‘latur, chïg‘latmaq).

چِنْلَتّي c h ï n l a t t ï – chin qildirdi, uning aytganini, fikrini tasdiqlashga buyurdi. اُلْ اَنِكْ ايشِنْ چِنْلَتّي o‘l anïŋ ïshïn chïnlattï – u uning ishini tasdiqlashga buyurdi (.چِنْلَتُورْ چِنْلَتْماقْ chïnlatur, chïnlatmaq).

سَرْلَتّي s a r l a t t ï – o‘rashga buyurdi. اُلْ سُقْلُقْ سَرْلَتّي o‘l suwluq sarlattï – u salla o‘ratdi. Har bir narsani o‘rashga ham bu so‘z qo‘llanadi (.سَرْلَتُورْ سَرْلَتْماقْ sarlatur, sarlatmaq).

سِرْلَتّي s ï r l a t t ï – sirlatdi. اُلْ اَياقْ سِرْلَتّي o‘l ajaq sïrlattï – u turklarning idishlari (piyola, kosa)ni sirlashga buyurdi (.سِرْلَتُورْ سِرْلَتْماقْ sïrlatur, sïrlatmaq).

سُزْلَتّي s ö z l ä t t i – so‘zlatdi, so‘zlashga buyurdi. اُلْ مَنِي سُزْلَتّي o‘l menï sözlättï – u meni so‘zlashga buyurdi (.سُزْلَتُورْ سُزْلَتْماكْ sözlätÿr, sözlätmak).

سِزْلَتّي s ï z l a t t ï – ziriqtirdi. بُوزْ تِيشِغْ سِزْلَتّي buz tïshïg‘ sïzlattï – muz tishni zirqiratdi. Bu muzning tishni qoplashi yoki og‘riqni va yoki chumoli o‘rmalashini sezish kabidir. Sovuq suvga qo‘l tiqilganda, sovuq ta’siri paydo bo‘lishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (.سِزْلَتُورْ سِزْلَتْماقْ sïzlatur, sïzlatmaq).

سُغْلَتّي s u g‘ l ï t t ï – suqtirdi, tiqtirdi. اُلْ اَنِكْ قُوينكا اَلِكْ سُغْلَتّي o‘l anïŋ qojïŋa elik sug‘lïttï – u bir narsani qidirish uchun, uning qo‘yniga qo‘l suqtirdi (.سُغْلَتُورْ سُغْلَتْماقْ sug‘lïtur, sug‘lïtmaq).

سُقْلَتّي s u w l a t t ï – suv septirdi, suv sepishga buyurdi. اُلْ جُبْنِي سُقْلَتّي o‘l chupnï* suwlattï – u bir narsaning ustiga, po‘stiga, turpiga suv septirdi. Boshqalari ham shunday (.سُقْلَتُورْ سُقْلَتْماقْ suwlatur, suwlatmaq).

---

[42] Bu so‘zning arabcha iborasida bir aniqsizlik borligiga ishorat qilingan. Basim Atalay izohiga ko‘ra, bu aniqsizlik qo‘lyozmada ham bor (II jild. 345-b.). Basim Atalay, III jild, 92-betdagi to‘g‘ri tarjimaga asoslanib, tuzatib to‘g‘ri qilgan. Biz ham shunday tuzatdik.

* Bu so‘z Radlovda: *čöpni.*

سَنْلَتّي s e n l ä t t ï – senlatdi, sensiratdi. سَنْلَتّي اَني اُلْ o‘l anï senlättï – pastga urib, tahqir qilib, senlab so‘zlatdi, sensiratdi.

Yuqorida aytganimizcha, turklar kattalarga siz, yoshlarga sen der edilar. Kattalarni sen deyish tahqir hisoblanar edi. سَنْلَتّي اَني اُلْ o‘l anï senlattï[43], ya’ni *sansirab tahqir qildi* demakdir (سَنْلَتُورْ. سَنْلَتْماقْ senlätur, senlätmäk).

سِزْلَتِمْ s i z l ä t t i m – sizlashga buyurdim. سِزْلَتِمْ اَني مَنْ men anï sizlättim – men unga uni ulug‘lab, sizlashga buyurdim (سِزْلَتُورْمَنْ. سِزْلَتْماكْ sizlätÿrmän, sïzlätmäk).

سُمْلِتّي s u m l ï t t ï – gapini turklar tushunmaydiganga yo‘ydi. سُمْلِتّي اَني اُلْ o‘l anï sumlïttï – uning gapini turklar tushunmaydiganga yo‘ydi*. **(437)** Bu shundayki, turklar hamma turkcha bilmaydiganlarni سُمْلِمْ *sumlïm* deydilar. Chunonchi, arablar arabcha bilmaganlarni *ajam* deganlari kabi. Bu asosdir. Agar arabchani o‘rgansa ham arablar har vaqt uni *ajam* deya beradilar. Lekin turklarda unday emas. Turkchani bilganlaridan keyingi holda *sumlïm* demaydilar. U sumlimlikdan qutuladi (سُمْلِتُورْ. سُمْلِتْماقْ sumlïtur, sumlïtmaq).

قَرْلَتّي q a r l a t t ï – qor yog‘dirdi. تَنكْري قارْ قَرْلَتّي Teŋri qar qarlattï – Xudo qor yog‘dirdi (قَرْلَتُورْ. قَرْلَتْماقْ qarlatur, qarlatmaq).

قِرْلَتّي q ï r l a t t ï – marza qildirdi اُلْ اَرِقْ قِرْلَتّي o‘l arïq qïrlattï – u ariqqa marza qildirdi, ariq chetini yaxshilab ishlatdi (قِرْلَتُورْ. قِرْلَتْماقْ qïrlatur, qïrlatmaq).

---

[43] *Sanlatt*ining yana ham to‘g‘ri tarjimasi hozirgi o‘zbek tilidagi kabi *san-sanladi, sanlab tahqir qilibpastga urdi*, demakdir. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”da bu so‘zning ana shunday qo‘shimcha ma’nosini dialektal xususiyat sifatida yuzaga kelganini keng izohlab bergan. Bu so‘zning ana shu qo‘shimcha ma’nosining ham bizga yetib kelishi muhimdir. Shu bilan birga Mahmud Koshg‘ariyning izohiga ko‘ra, san so‘zining yana boshqa bir xususiyatining ham bizga to‘la yetib kelishi diqqatga sazovordir.

Mahmud Koshg‘ariyning izohiga ko‘ra *sen, men* kabi qator so‘zlar u davr tilida ikki xil: bir xil dialektlarda *san,* bir dialektda s*en* shaklida qo‘llangan. Demak, hozirgi tilimizda dialektal xususiyatni ko‘rsatuvchi farq vazifasidagi bu xususiyat o‘sha davrdan bizga yetib kelgan. Lekin bu dialektal xususiyat so‘nggi davrlardagi bu dialektlar vakillarining aloqasi kuchayishi natijasida faqat ayrim so‘zlarda saqlanib qolgan bo‘lsa ham, ko‘p so‘zlarda teng qo‘llanuvchi bir holga kelgan: *kema-kama, chechak-chachak, chekka-chakka, senchti-sanchti, sekratmak-sakratmoq* kabi.

* Olmaota nashrida: *uni turklarga begona tilda gapirtirdi*. DSda: *uni turkcha gapirmaslikka majbur qildi.*

قُشْلَتّي q u s h l a t t ï – qush ovlatdi, qush ovlashga buyurdi. O‘l aŋar qush qushlattï – u unga qush ovlashga buyurdi (قُشْلَتُورْ. قُشْلَتْماقْ qushlatur, qushlatmaq).

قِشْلَتّي q ï s h l a t t ï – qishlatdi, qishda qoldirdi, saqladi. اُلْ اَنِي اَوْنْدا قِشْلَتّي o‘l anï ewïnda qïshlattï – u uni uyda qishlatdi. Boshqalari ham shunday (قِشْلَتْماقْ. قِشْلَتُورْ qïshlatur, qïshlatmaq). Birov bir narsani uddalasa, saqlasa ham shu so‘z qo‘llanadi.

قِغْلَتّي q ï g‘ l a t t ï: اُلْ بِيرِكْ قِغْلَتّي o‘l yerig qïg‘lattï – u yerini go‘ng bilan kuchlatdi (قِغْلَتْماقْ. قِغْلَتُورْ qïg‘latur, qïg‘latmaq).

قِغْلَتّي q ï g‘ l a t t ï – tezaklatdi. اُلْ اَتِنْ قِغْلَتّي o‘l atïn qïg‘lattï – u otini tezaklatdi.

قَقْلَتّي q a q l a t t ï – qoqlatdi, qurittirdi*. اُلْ اَنكَرْ اَتْ قَقْلَتّي o‘l aŋar et qaqlattï – u unga go‘sht qoqlatdi, qurittirdi. Qoq go‘sht qildirdi (قَقْلَتْماقْ. قَقْلَتُورْ qaqlatur, qaqlatmaq).

كُتْلَتّي k ö t l ä t t i – اُلْ اُغْلانِغْ كُتْلَتّي o‘l og‘lanïg‘ kötlättï – u bolannng ko‘tiga urdi**. Boshqalari ham shunday (كُتْلَتْماكْ. كُتْلَتُورْ kötlätÿr, kötlätmäk).

كَزْلَتّي k e z l ä t t ï – tuzattirdi. اُلْ اُقْ كَزْلَتّي o‘l o‘q kezlättï – u o‘q uchini tuzattirdi*** (كَزْلَتْماكْ. كَزْلَتُورْ kezlätÿr, kezlätmäk).

كِزْلَتّي k i z l ä t t i – yashirtirdi, yashirishga buyurdi. اُلْ مَنكا سُوزْ كِزْلَتّي o‘l meŋä söz kizlättï – u menga so‘z yashirishga buyurdi. Boshqalari ham shunday (كِزْلَتْماكْ. كِزْلَتُورْ kizlätÿr, kizlätmäk).

كَمْلَتّي k e m l ä t t i – mazasini qochirdi. بُو اُتْ اَتِغْ كَمْلَتّي bu ot atïg‘ kemlätti – bu o‘t otning mazasini qochirdi, tobini qochirdi. Boshqalari ham shunday (كَمْلَتْماكْ. كَمْلَتُورْ kemlätÿr, kemlätmäk).

م *(m)*

تَرْمَتّي t a r m a t t ï – tirnatdi. اُلْ اَنِكْ يُوزِنْ تَرْمَتّي o‘l anïŋ yÿzin tarmattï – u uning yuzini tirnatdi (تَرْمَتْماقْ. تَرْمَتُورْ tarmatur, tarmatmaq).

جَرْمَتّي c h e r m ä t t ï – tugdi. اَلْبْ اَرْ اَتِنْ جَرْمَتّي alp er atïn chermättï[44] – botir odam otining dumini ipak bilan o‘rdirdi.

---

* Olmaota nashrida: (go‘sht) *maydalattirdi.*

** DS va Olmaota nashrida: *u bolani zo‘rlattirdi.*

*** DSda: *yoyga o‘qni dum tomoni bilan qo‘ydirdi.*

[44] O‘zbek tilidag‘i *chirmashmaq, chirmashtirmoq* so‘zi ana shu o‘zakdandir. Faqat bizga birinchi bo‘g‘indagi “a” “i”ga almashib yetib kelgan. Bu o‘zgarish Navoiy davridayoq boshlangan edi:

Otning dumini ipak bilan o‘rish botirlik alomatidandir. Fatila-fatila qilib o‘rilgan, tugilgan har narsaga ham bu so‘z ko‘llanadi. Chunonchi, qamchin uchini qayish bilan o‘rib, to‘qish kabi (جَرْمَتُوْرْ. جَرْمَتْماكْ chermätÿr, chermätmäk).

سَرْمَتّي s e r m ä t t ï* – ovlatdi. أنْ اَنكَرْ بَلِقْ سَرْمَتّي o‘l anar baliq sermättï – u unga suvdan baliq chiqartirdi,ovlatdi.

سَرْمَتّي s e r m ä t t ï** – suvidan ayirdi, suvini ayirdi. أنْ تُتْماجْ سَرْمَتّي o‘l tutmach sermättï – u tutmoch suvini ayirtirdi. **(438)** Har bir narsaning suvini ayirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَرْمَتُوْرْ. سَرْمَتْماكْ sermätÿr, sermätmak).

سَرْمَتّي s a r m a t t ï – o‘ratdi. أنْ بِشِغْني بِغاجْقا سَرْمَتّي o‘l yïshïg‘nï yïg‘achqa sarmattï – u ipni yog‘ochga o‘ratdi. Boshqalari ham shunday (سَرْمَتُوْرْ. سَرْمَتْماقْ sarmatur, sarmatmaq).

ن (n)

قَتْنَتّي q a t n a t t ï – qayta-qayta qaytardi. أنْ اَنِكْ سُوزِنْ قَتْنَتّي o‘l anïŋ sözin qatnattï – u uning so‘zini bir necha martadan qaytardi.

قَسْنِتّي q a s n a t t ï – titratdi, zirqiratdi. تُمْلُغْ اَني قَسْنِتّي tumlug‘ anï qasnattï – sovuq uni titratdi. Hatto sovuqdan yuqori jag‘ tishini quyi jag‘ tishiga urib taraqlatdi. (قَسْنِتُوْرْ. قَسْنِتْماقْ qasnatur, qasnatmaq).

بُلْنَتّي b u l n a t t ï – asir qilishga buyurdi. أنْ اَني بُلْنَتّي o‘l anï bulnattï – u uni asir qilishga buyurdi. U asir bo‘ldi (بُلْنَتُوْرْ. بُلْنَتْماقْ bulnatur, bulnatmaq).

قَلْنَتّي q a l n a t t ï – qalinlashdi. يُفْقا نانكْ قَلْنَتّي jufqa neŋ qalnattï – yupqa narsa qalinlashdi. Bu so‘zning asli قَلْنادْتي qalnaztïdir. So‘ng tovushlar idg‘om qilish, singish bilan o‘zgargan (قَلْنَتُوْرْ. قَلْنَتْماقْ qalnatur, qalnatmaq).

Goh ikki rishta yanglig‘ kim tonar bir-birga tob,
Ikkilik fahm o‘lmag‘udek bir-biriga *chirmashib.*
(“Favoidu-l-kibar”. 64-b.)

* DSda: *sarmatï.*

** DSda shu shakl va ma’noli so‘zni uchratmadik.

ش *(sh)*

شُقْشَنْدِي s h u w s h a s h d ï – shivirlashdi. شُقْشَنْدِي بِرْلا أَلْ اَنِكْ o‘l anïŋ birlä shuwshashdï – u birov bilan shivirlashib so‘zlashdi (شُقْشَنْماقْ .شُقْشَنْوُرْ shuwshashyp, shuwshashmaq).

قُغْشَنْدِي q o g‘ s h a s h d ï – susayishdi, bo‘shashdi. كِشِيلارْ قَمُغْ قُغْشَنْدِي kishilär qamug‘ qog‘shashdï – odamlar issiqdan va boshqa shu kabi hollardan susayishdi, bo‘shashishdi. Bu so‘zda غ o‘rniga ج almashtirib[45] qo‘llash ham bor (قُغْشَنْماقْ .قُغْشَنْوُرْ qog‘shashur, qog‘shashmaq).

*قَفْشَنْدِي q a v s h a s h d ï – yo‘nishda yordamlashdi**. أَلْ اَنِكْ أَقِنْ قُغْشَنْدِي o‘l anïŋ oqïn qavshashdï -- u uning o‘qini yog‘och bilan qaytarishda yordam qilishdi (قُغْشَنْماقْ .قُغْشَنْوُرْ qavshashur, qavshashmaq).

كَفْشَنْدِي k e w s h ä s h d i – kavshashdi. اَتْ كَفْشَنْدِي ot kewshäshdi – otlar bir-birini ko‘rib, kavsh qaytarishdi*** (كَفْشَنْوُرْ .كَفْشَنْماكْ kewshäshÿp, kewshäshmäk).

Muzoafning boshqa bir turi

ق *(q)*

تُلْقُقْلَنْدِي t o‘ l q u q l a n dï: تُلْقُقْلَنْدِي نانكْ to‘lquklandï neŋ – narsa tulumga o‘xshash shishdi (تُلْقُقْلَنْماقْ .تُلْقُقْلَنُوْرْ to‘lquqlanur, to‘lquklanmaq).

ن *(n)*

تُرْكَكْلَنْدِي t ÿ r k ä k l ä n d i – tugildi تُونْ تُرْكَكْلَنْدِي ton tÿrkäk1ändi – chopon bo‘g‘chaga tugildi. (.تُرْكَكْلَنْماكْ تُرْكَكْلَنُوْرْ tÿrkäk1änÿr, tÿrkäk1änmak).

---

[45] Mahmud Koshg‘ariy *g‘* ning *x* ga almashinishi haqida bir necha yerlarda izoh bergan. Bu yerdagi izoh bu xususiyat faqat bir tilda ekanini ko‘rsatadi. Lekin boshqa yerlardagi izohiga ko‘ra umumiy hodisadir. Chunonchi *qaxtarmoq* (I jild. 188-425-b.).

* Qofning harakati zamma bo‘lishi kerak.

** DSda: *qoplamoq, o‘ramoq.*

*** DSda: *tuyalar o‘tni chaynashdi.*

ب *(b)*

يَرْبَتّي y e r b a t t ï – er bosdi, oyoqqa turdi. إكّلِكْ يَرْبَتّي iglig yerbattï – kasal er bosdi, oyoqqa bosdi. أغْلانْ يَرْبَتّي og'lan jerbattï – bola er bosdi, oyoq qo'ydi. **(439)** Asli يِرْباذْتي yep baztïdir. So'ng ذ *z* harfi ت *t* ga singigan (يَرْبَتُورْ. يَرْبَتْماقْ yerbatur, yerbatmaq).

يَلْبِتّي y ä l b i t t i – namlatdi. أنْ اَتْقا اَشْبارْ يَلْبِتّي o'l atqa ashbar jälbitti – u ot yemini, chunonchi, xashak, kepak kabilarni ho'lladi (يَلْبِتْماكْ. يَلْبِتُورْ yälbitur, yälbitmäk). Shuningdek, shivillab yoqqan yomg'irdan yer ustining chiroyli namlanishiga ham bu so'z qo'llanadi. Chunonchi: يَغْمُرْ يِيرِكْ يَلْبِتّي yag'mur yerig yälbitti deyiladi – yomg'ir yerni namlatdi, demakdir.

يَلْبَتّي y e l b ä t t i: أنْ اَنكَرْ سِنْكاكْ يَلْبَتّي o'l aŋar singäk jelbättï – u unga yelpig'ich bilan pashsha-chivin yelpitdi (يَلْبَتْماكْ. يَلْبَتُورْ yelbätur, yelbätmäk).

ج *(j)*

يُنْجُتّي y ÿ n j ÿ t t i* – injitdi, ranjitdi, xafa qildi. أنْ اَني يُنْجُتّي o'l anï yÿnjÿttï – u uni injitdi, xafa qildi, ozor berdi (يُنْجُتْماكْ. يُنْجُتُورْ yÿnjÿtÿr, yÿnjÿtmäk).

ر *(r)*

يَبْرَتّي y a p r a t t ï – chimirdi قُلاقِنْ يَبْرَتّي اَتْat qulaqïn yaprattï – ot qulog'ini chimirdi. Bu bir narsadan hurkkanda, bir narsa istagan vaqtda bo'ladi (يَبْرَتْماقْ. يَبْرَتُورْ yapratyp, yapratmaq).

يَغْرِتّي y a g' r ï t t ï – yag'ir qildi. أنْ مَنِكْ اَتِغْ يَغْرِتّي o'l meniŋ atïg' yag'rïttï – u otimning orqasini yag'ir qildi. Boshqasi ham shunday (يَغْرِتْماقْ. يَغْرِتُورْ yag'rïtur, yag'rïtmaq).

يَقْرِتّي y a w r ï t t ï** – zaiflatdi. أنْ اَني يَقْرِتّي o'l anï yawrïttï – u uni zaiflatdi, sustlatdi (يَقْرِتْماقْ. يَقْرِتُورْ yawrïtyp, yawrïtmaq).

يُلْرِتّي y u l r ï t t ï*** – chaqnatdi, alangalatdi. أنْ اُوتْ يُلْرِتّي o'l ot yolrïttï – u o'tni alangalatdi.

يُلْرِتّي y u l r ï t t ï – yaltiratdi. أنْ تُوجُغْ يُلْرِتّي o'l tuchug' yolrïttï – u jezni yaltiratdi, kun tushsa-tushmasa, yaltirab turuvchi qalqon va jom kabi jilolanadigan bo'ldi (يُلْرِتْماقْ. يُلْرِتُورْ yulrïtur, yulrïtmaq).

---

* DSda: *yunčïttï*; ma'nosi esa: *bezovta qildi.*

** Olmaota nashrida: *yabrit.*

*** DSda: *jolrït.*

يُلْرَتّي y u l r a t t ï – oqartirdi. كِرْشانْ اَنِكْ يُوزِنْ يُلْرَتّي kirshän anïŋ yÿzin julrïttï – upa va boshqa narsalar xotin yuzini oqartirdi. Bir narsani oqartirgan, yaltiratgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

يُلْرَتّي y u l r a t t ï – jilolatdi. اُلْ قُمْغانِغْ يُلْرَتّي o‘l qumg‘anïg‘[46] julrattï – u qumg‘onni jilolatdi. Yaltiragan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi (يُلْرَتُورْ .يُلْرَتْماقْ yulratur, yulratmaq). Bu ikki fe’lning bosh harfini ا *a* bilan talaffuz qilish, و – *u* bilan talaffuz qilishdan ko‘ra to‘g‘riroqdir.

س *(s)*

يَرْسِتّي y a p c ï t t ï – yirgantirdi اُلْ اَنِي يَرْسِتّي o‘l anï yarcïttï – u yirgantirdi. Hatto u ovqat yemaydigan bo‘lib qoldi (.يَرْسِتُورْ يَرْسِتْماكْ yarcïtyp, yarcïtmak). Asli يَرْ سُوذْتي yap suztï – yirganganidan tupuk tupurdi. So‘ng ذ *z* ت *t* ga singigan.

يُكْسَتّي y ÿ k c ä t t i – yuksatdi, yuqori ko‘tartirdi. اُلْ تامْ يُكْسَتّي o‘l tam yÿkcättï **(440)** – u devorni yuqori ko‘tardi va mustahkamladi. Har narsani mustahkamlashga ham bu so‘z qo‘llanadi (يُكْسَتُورْ .يُكْسَتْماكْ yÿkcätÿr, yÿkcätmak).

يُمْشَتّي y u m s h a t t ï – oshlab yumshatdi. اُلْ تَرِي يُمْشَتّي o‘l terï yymshattï – u terini oshlab yumshatdi. اُلْ قَتِغْ نانكْنِي يُمْشَتّي o‘l qatïg‘ neŋnï yymshattï – u qattiq narsani yumshatdi. اُلْ اَرْ سُوزِكْ يُمْشَتّي o‘l er sözig jymshattï – u odam so‘zni tez gapirdi. Qur’onni tez o‘qish va yodlashga ham bu so‘z qo‘llanadi (يُمْشَتُورْ .يُمْشَتْماقْ yymshatur, yymshatmaq).

يُفْرَتّي y u f g‘ a t t ï* – o‘jarlandi. اُغْلانْ يُفْرَتّي og‘lan jufg‘attï – bola o‘jarlandi. Hatto butunlay xulqi buzildi. Asli يُفْغَذْتي jufg‘aztïdir. (يُفْرَتُورْ .يُفْرَتْماقْ yufg‘atur, yufg‘atmaq).

يَلْغَتّي y a l g‘ a t t ï** – yalatdi. اُلْ اَنكَرْ بالْ يَلْغَتّي o‘l aŋar bal yalg‘attï – u unga bol yalatdi (يَلْغَتُورْ .يَلْغَتْماقْ yalg‘atur, yalg‘atmaq).

---

[46] XI asrda *qumg‘on* so‘zining bir necha sinonimlari bor edi: *Ivriq* – suv idishi, *ko‘zaj* – sopol idish, buni arg‘ular *ko‘zaj* tarzida qo‘llar edilar, *susiq* – *chelak,* buni Mahmud Koshg‘ariy faqat bir tildagina deb izohlagan. *Tutak* – yuvinadigan idish, chilopchin. *Kunak* – suv idishi, buni “Qutadg‘u bilig” muallifi oy nomlaridan *dalv* o‘rnida qo‘llaydi.

* Olmaota nashrida: *yuvg‘at.*

** Olmaota nashri: *tushirib qoldirilgan.*

يَلْفَتّي y a l f a t t ï – yalatdi. اَلْ اَنكَرْ ياغْ يَلْفَتّي o‘l aŋar jag‘ jalfattï – u unga yog‘ yalatdi. Bu so‘zdagi ف *f* ni غ *g‘* ga almashtiriladigan varianti ham bor (يَلْفَتُورْ . يَلْفَتْماقْ yalfatur, yalfatmaq).

يُرْكَتّي y ö r g ä t t i – yo‘rgatdi. اَلْ يِبْ يُرْكَتّي o‘l yip yörgätti – u ip yo‘rgatdi. Oyoqqa paytava va boshqani o‘rashga ham bu so‘z qo‘llanadi. (يُرْكَتُورْ . يُرْكَتْماكْ yörgätÿr, yörgätmäk).

يِبْلَتّي y ï p l a t t ï – iplatdi. Mo‘ylarini ip bilan terdirdi. اُراغُتْ يُوزِنْ يِبْلَتّي urag‘ut yÿzïn yïplattï – xotin yuz tuklarini ip bilan terdirdi (يِبْلَتُورْ . يِبْلَتْماقْ yïplatur, yïplatmaq).

يَتْلَتّي y a t l a t t ï – afsun, duo o‘qitdi. بَكْ يَتْلَتّي beg yatlattï – bek yada toshini o‘qitdi. Bek yadachiga duo o‘qitdi. Shuning uchun shamol esdi. Yomg‘ir yog‘di (يَتْلَتُورْ . يَتْلَتءماقْ yatlatur, yatlatmaq). Bu hodisa turklar mamlakatida mashhurdir. Tosh orqali shamol, yomg‘ir, sovuq qo‘zg‘atiladi.

يَزْلَتّي y a z l a t t ï – yozlatdi. اَلْ قُويِنْ يِيْلاغدا يَزْلَتّي o‘l qojïn yaylag‘da yatlattï – u qo‘yini yaylovda yozlatdi. (يَزْلَتُورْ . يَزْلَتْماقْ yazlatur, yazlatmaq).

يِغْلَتّي y ï g‘ l a t t ï – yig‘latdi. اَلْ اَني يِغْلَتّي o‘l anï yïg‘lattï – u uni yig‘latdi (يِغْلَتُورْ . يِغْلَتْماقْ yïg‘latur, yïg‘latmaq).

يَغْلَتّي y a g‘ l a t tï – yog‘latdi. اَلْ قُغِشْني يَغْلَتّي o‘l qog‘ïshnï* yag‘lattï – u charmni yog‘latdi. Boshqasi ham shunday (يَغْلَتُورْ . يَغْلَتْماقْ yag‘latur, yag‘latmaq).

يُقْلَتّي y u q l a t t ï** – yuqorilatdi. اَلْ اَني تاغْقا يُقْلَتّي o‘l anï tag‘qa juqlattï[47] – u uni toqqa yuqorilatdi. Boshqalari ham shunday (يُقْلَتُورْ . يُقْلَتْماقْ yuqlatur, yuqlatmaq).

---

* Olmaota nashrida: *qag‘ish – botinka.*

** DSda: *joqlattï.*

[47] Bizda hozir *yuqori* tarzida qo‘llanuvchi so‘z “Devon”da bir necha yerda uchraydi. Har yerda ham bu so‘z *yuq* tarzida qo‘llangan. „Qutadg‘u bilig"da ham bu so‘z *yuq* shaklida qo‘llangan:

Quti kunda artti uru *yuq*ladi...
Tag‘i bir inichka sog‘i *yuq* tilar.

Demak, hozirgi *yuqori* so‘zi XI asrda *yuq* shaklida edi. *Yuqori* so‘zi esa u davrda *yuq* so‘ziga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilib, jo‘nalish kelishigi vazifasida qo‘llanar edi. Qandaydir sharoit natijasida bu so‘z bizga jo‘nalish kelishigi vazifasida emas, bosh kelishik vazifasida yetib kelgan. Lekin bu so‘zdan bir *q* tushgan. Qarshi shevasida bu so‘z hozir ham ikki *q* bilan *yuqqari* shaklida talaffuz qilinadi. Navoiyda ham bu so‘z ba’zan ikki *q* bilan qo‘llangan:

يُكْلَتّي y ÿ k l ä t t i – yuklatdi. أُلْ يُكْ يُكْلَتّي o‘l yÿk yÿklätti – u yuk yuklatdi (يُكْلَتُوْر .يُكْلَتْماكْ yÿklätÿr, yÿklätmäk).

يُكْلَتّي y ÿ k l ä t t i – pat taqtirdi. أُلْ أَقْ يُكْلَتّي o‘l oq **(441)** yÿklätti – u o‘qqa pat taqtirdi يُكْلَتْماكْ .يُكْلَتُوْر yÿklätur, yÿklätmäk). Bu so‘z aslida يُوكْ لَتّي yÿklättidir.

يَمْلَتّي y a m l a t t ï – supurdi, tozalatdi. أُلْ أَوِنْ يَمْلَتّي o‘l ewin yamlattï – u uyini supurtirdi, tozalatdi (يَمْلَتْماكْ .يَمْلَتُوْر yamlatur, yamlatmak).

يَشْنَتّي y a s h n a t t i – yashnatdi, qattiq ravshanlatdi. تَنكْرِي يَشِنْ يَشْنَتّي Teŋri yashïn yashnatti – Xudo yashin (chaqmoq) yashnatdi. Shuningdek, odam qilich va boshqani yaltiratishiga yoki har bir yaltiroq tovlanadigan narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi. She’rda shunday kelgan:

[XI]

يَشْنَبْ قِلِجْ بَشِي أَزا قُوَلْ يَرا
بِجْلِبْ أَنِكْ بُيْنِي تَقِي قَلْقَنْ تُرا

Yashnab qïlïch bashï* ÿzä qaqqïl yapa
Bïchlïb anïŋ bojnï** taqï qalqan tura***.

Qilichni dushman boshi ustida yaltirat, u bilan dushman bo‘yni kesilsin. Qilichni dushman boshiga ur. U bilan dushman qalqonlari pachoqlansin.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ل *(l)*

يَيْلَتّي y a y l a t t ï – yaylatdi, yayratdi, turg‘izdi****. أُلْ أَنِي تاغْدا يَيْلَتّي o‘l anï tag‘da yajlattï – u uni yozda tog‘da yashatdi. Boshqalari ham shunday (يَيْلَتُوْر .يَيْلَتْماقْ yaylatur, yaylatmaq).

Uch quyi, uch *yuqori* qildi shitob.
Yuqoridin indi ikki burgut.

* Olmaota nashrida: *bashini.*

** Olmaota nashrida: *buyuni.*

*** DSda “tura qalqan”. Ma’nosi: jangda lozim bo‘lgan qalqon va boshqa anjomlar

**** DSda: *yozlatdi; ushlab turdi.*

Bu bo‘limning manqus turi

ن (n)

بُيْنَتَّي b o‘ y n a t t ï – bo‘yin tovlattirdi. بُيْنَتَّي ايشقا اُلْ اُغْلِني o‘l og‘luniïshqa bojnattï – o‘g‘lini ishdan bo‘yin tovlattirdi (بُيْنَتُورْ. بُيْنَتْماقْ boynatur, boynatmaq).

سَيْبَتَّي c a y p a t t ï – sarf qildi. سَيْبَتَّي اُلْ تَقْارِنْ o‘l tawarïn cajpattï – u molini isrof qildirdi* (سَيْبَتُورْ. سَيْبَتْماقْ saypatur, saypatmaq).

ر (r)

سَيْرَتَّي s a y r a t t ï – ko‘p gapirtirdi. سَيْرَتَّي سُوزُكْ اَنكَرْ اُلْ o‘l anar sayrattï sözÿg – u unga ko‘p gapirtirdi (سَيْرَتُورْ. سَيْرَتْماقْ sayratur, sayratmaq).

ن(n)

قَيْنَتَّي q a y n a t t ï – qaynatdi. قَيْنَتَّي اَشِجْ اُلْ o‘l ashïch** qaynattï – u qozon qaynatdi (قَيْنَتُورْ. قَيْنَتْماقْ qaynatur, qaynatmaq).

Bu bo‘limning g‘unnalilari

اِنكْرَتَّي ï ŋ r ä t t ï – ingratdi***. اِنكْرَتَّي اَني اُلْ o‘l anï ïŋrättï – u uni ingratdi (اِنكْرَتُورْ. اِنكْرَتْماقْ ïŋrätur, ïŋrätmak).

د (d)

مِنكْدَتَّي m i ŋ d a t t i**** – yuldirdi. مِنكْدَتَّي سَجِنْ اَنِكْ اُلْ o‘l anïŋ sachïn miŋdatti – u uning sochini yuldirdi (مِنكْدَتُورْ. مِنكْدَتْماكْ miŋdatÿr, miŋdatmak).

ر (r)

جِنكْرَتَّي j ï ŋ r a t t ï – jing‘irlatdi. جِنكْرَتَّي قُنكْراغُو اُلْ o‘l qoŋrag‘u jïŋrattï – u qo‘ng‘iroqni jing‘irlatdi (جِنكْرَتُورْ. جِنكْرَتْماقْ jïŋratur, jïŋratmaq).

مَنكْرَتَّي m a ŋ r a t t ï – baqirtirdi. مَنكْرَتَّي اَني اُلْ o‘l anï maŋrattï – u uni baqirtirdi (مَنكْرَتُورْ. مَنكْرَتْماقْ maŋratur, maŋratmaq).

---

* DSda: *u molini sarf qildirdi.*
** Olmaota nashrida: *ishij.*
*** Olmaota nashrida: *bo‘kirtirdi.*
**** DSda: *mendätti.*

مُنكْرَتّي m ÿ ŋ r ä t t i – ma'ratdi. اُوڈني مُنكْرَتّي اُلْ o'l udnï mÿŋrätti – u sigirni ma'ratdi.

مُنكْرَتّي m ÿ ŋ r a t t i – shaqillatib qaynatdi. اُوتْ اَشِجْني مُنكْرَتّي ot ashïchnï mÿŋrätti – olov **(442)** ovqatni shaqillatib qaynatdi.

مُنكْرَتّي m ÿ ŋ r ä t t i – bo'kirtirdi. اُلْ اَرْني اُورُبْ مُنكْرَتّي o'l ernï urub mÿŋrätti – u odamni urib ho'kizday bo'kirtirdi (.مُنكْرَتُورْ مُنكْرَتْماكْ mÿŋrätÿr, mÿŋrätmäk).

ز *(z)*

مَنكْزَتّي m e ŋ z ä t t i – o'xshatdi. اُلْ بِيرْ نانكْنى بِيرْكا مَنكْزَتّي o'l bir naŋni birgä meŋzätti – u bir narsani bir narsaga o'xshatdi (مَنكْزَتْماكْ .مَنكْزَتُورْ meŋzätÿr, meŋzätmäk).

ل *(l)*

تَنكْلَتّي t a ŋ l a t t ï – tang qoldirdi. اُلْ مَني تَنكْلَتّي o'l meni taŋlattï – u meni tang qoldirdi, hayron qildirdi (تَنكْلَتْماقْ .تَنكْلَتُورْ taŋlatur, taŋlatmaq).

تِنكْلَتّي t ï ŋ l a t t ï – tinglatdi. اُلْ مَني سُوزْ تِنكْلَتّي o'l meni söz tïŋlattï – u menga so'z tinglatdi (تِنكْلَتْماكْ .تِنكْلَتُورْ tïŋlatur, tïŋlatmak).

سَنكْلَتّي s a ŋ l a t t ï: اُلْ قُشْني سَنكْلَتّي o'l qushnï saŋlattï – u qush patini yuldirdi*. Boshqalari ham shunday (سَنكْلَتْماقْ .سَنكْلَتُورْ saŋlatur, saŋlatmaq).

مَنكْلَتّي m e ŋ l ä t t i – donlatdi, don yedirdi. اُلْ قازِغْ مَنكْلَتّي o'l qazïg' meŋlätti – u g'ozni donlatdi, don yedirdi. Boshqalari ham shunday (مَنكْلَتْماكْ .مَنكْلَتُورْ meŋlätÿr, meŋlätmäk).

Bu bo'limning misol turi

يَنكْزَتّي y a ŋ z a t t ï – ochib tashlatdi. اُلْ اَنكَرْ سُوزُكْ يَنكْزَتّي o'l aŋar sözÿg jaŋzattï – u unga yashirish kerak bo'lgan so'zni ochib tashlatdi.

(يَنكْزَتْماقْ .يَنكْزَتُورْ yaŋzatur, yaŋzatmaq).

ش *(sh)*

يَنكْشَتّي y a ŋ s h a t t ï – ko'p so'zlab bosh og'ritdi. اُلْ اَنِكْ بَشِنْ يَنكْشَتّي o'l anïŋ bashïn jaŋshattï – u uning boshini og'ritdi (ko'p so'zlab). (يَنكْشَتْماقْ .يَنكْشَتُورْ yaŋshatur, yaŋshatmaq).

---

* DSda bu gap quyidagicha: *u qushni tezaklatdi.*

ل *(l)*

أَلْ y u ŋ l a t t ï** – yungini qirqtirdi, oldirdi, kestirdi. أَلْ قُويُغْ يُنكَلَتِي o'l qoyug' yuŋlatti[48] – u qo'yning yungini kestirdi. Tuya uchun ham shu so'z qo'llanadi (يُنكَلَتُورْ. يُنكَلَتماقْ yuŋlatur, yuŋlatmaq).

Qoida. Bu bobning buyrug'i to'rt harflidir. Chunonchi, تَفْرَتْ tawpat – tezlat, تَبْرَتْ tebrät – harakatlantir kabi. Bu bobning bo'lishsizi تَفْرَتْما tawratma – tezlatma, shoshirma. تَبْرَتْما tebrätmä – *harakatlantirma* kabi.

Bu bobning buyruq shaklida bir harfning ikki qayta takrorlanganlari juda kamdir. اِيشِغْ اَرْتَتْ ïshïg' artat – ishni buz, اَنِي سِغْتَتْ anï sïg'tat – *uni yig'lat* kabi.

Ishning ishlovchisini anglatadigan shakl bu bobda تَفْرَتْغُجِي tawratg'uchï – tezlatuvchi, تَبْرَتْكُجِي tebrätgÿchï – harakatlantiruvchi shakllaridir. O'g'uzchada bu shakl تَفْرَتّجِي tawrattachï, تَبْرَتّجِي *tebrättächï* shakllaridir.

Ishning davomini ko'rsatuvchi shakl تَفْرَتْفانْ tawratg'an – yurishda shoshiladigan, تَبْرَتْكانْ tebrätgän **(443)** – *ko'p harakat qiladigan* shakllaridir.

Ishni ishlashni, istashni bildiruvchi shakl اَرْ تَفْرَتِغْساقْ tawratïg'saq[49] er – ishni tezlatdirishni istaydigan odam. اَلْ تَبْرَتِكْساكْ

** DSda: *jünlätti.*

[48] *Yung* so'zi bu yerda *hayvon yungi* ma'nosida qo'llangan. Mahmud Koshg'ariy bu so'zni arg'u hamda qarluq, yag'mo qabilalari tilida *paxta ma'nosidadir*, deb izohlagan.

Paxta so'zi ma'nosida XI asrda bir necha so'z qo'llangan:

1. Ko'pchilik qabilalar tilida كبز *kubaz* || *kuvaz* || *guvaz* || *g'uvaz* bilan ifodalangan.
2. *Yung* – arg'u, qarluq, yag'molar tilida.
3. بمق *bamuq* || *pamuq* o'g'uzlar tilida. U davr tilida bu ma'noda eng ko'p qo'llangan so'z shu birinchi variantdir. Chunki "Devon"da *paxta maydoni, paxta urug' chiqardi, paxta ekadigan odam* kabi qator ibora va gaplarda faqat ana shu birinchi so'z qo'llangan. Chunonchi, *kuvaz* (I jild. 213, 273, 346-b.; II jild. 110-b), *kuvazlik* (I jild. 419-b.). Bizning fikrimizcha, hozirgi tildagi *ko'sak, g'o'za* so'zlari ham ana shu *kuvaz* || *guvaz* so'zlarining bir oz o'zgarish bilan yetib kelgan variantlaridir.

[49] XI asr tilida ishlovchi ishni qilish orzusida ekanini ifodalovchi so'z uchun ikki shakl qo'llanar edi: ko'pchilik o'g'uzlar bu vazifada, asosan, تَفْرَتِغْساقْ yoki تَبْرَتِكْساكْshakllarini qo'llar edilar. Ya'ni ular shu ma'nodagi sifatdosh vazifasida buyruqqa "g'isaq" yoki "gisak" shakllari qo'shib yasalgan shaklni

اُلْ o‘l yïg‘achïg‘ tebrätigsäq o‘l – u daraxtni silkitishishni istaydigandir.

Ishni ishlash uning vazifasi ekanligi mazmunini ifodalovchi shakl اُلْ تَقْرَتْغُلْقْ اُلْ o‘l tawratg‘uluq o‘l – uning vazifasi tezlattirishdir. اُلْ تَبْرَتْكِلِكْ اَرْدِي o‘l tebrätgilik erdi – uning vazifasi harakatlantirishdir yoki u ishni qilishga yaqinlashdi, qilayozdi demakdir.

O‘g‘uzlarning ba’zisi bu so‘zdagi ل – *l* harfini س – *s* ga aylantiradilar. Chunonchi, ular bu shakl o‘rnida اُلْ تَقْرَتْغَسَقْ اَرْدِي o‘l tawratïg‘saq erdi – uning vazifasi tezlatish edi, shaklini qo‘llaydilar. اُلْ تَبْرَتْكَسَكْ اَرْدِي o‘l tebrätigsäk erdi – uning vazifasi harakatga olish edi. Bir tilda bu so‘zlar oxiridagi ك – *g* va ق – *q* ni ى – *i* ga aylantiradilar. Chunonchi, اُلْ تَقْرَتْغْسِي اَرْدِي o‘l tawratïg‘cï erdi yoki تَبْرَتْكْسِي اَرْدِي *tebratigci erdi* kabi. Bu variantning ma’nosi ham avvalgicha. Lekin birinchi shakl bunga muvofiqdir. Ba’zilar bunda ham asl turklarga ergashadilar, ularnikiga muvofiq qo‘llaydilar.

---

qo‘llar edilar. Lekin sharqiy qabilalarning ko‘pchiligi shu vazifada تقرتغسى *tawratg‘usi,* تبرتكسى *tabratgusi* shaklidagi so‘zlarni qo‘llar edilar.

Demak, *tebratgusi* shaklidagi so‘zlar XI asrda, asosan, sifatdosh vazifasida qo‘llangan. Shu bilan birga bu shakl faqat ba’zi kabila tillarigagina xos shakl sifatida o‘rin tutgan. Shuni ham aytish kerakki, bu shakl shaxs va zamon bilan tuslanib, fe’l vazifasida ham qo‘llanar edi. Lekin bu shakl ko‘makchi fe’l vositasi bilan yasalar edi. Lekin buning iste’moli kam edi. Bu so‘z Navoiyda ham ikki vazifada qo‘llangan:

So‘rmangiz ashkim suvinkim muttasilmu *kelgusi*
To ko‘ngul ishq o‘tidin kuygusi ul suv *kelgusi.*

Nasriy bayoni: Ko‘z yoshimni tinmay oqadimi deb so‘ramang, buni so‘rab o‘ltirishga hojat yo‘q. Modomiki, ko‘nglim ishq o‘tida kuyadigan ekan, kuya berar ekan, ko‘z yoshim to‘xtovsiz oqa beradi.

Shu bir baytning o‘zidayoq bu so‘z shakli – *kuygusi* ikki vazifada sifatdosh va qat’iy kelajak zamon fe’li vazifalarida qo‘llangan. Bu fe’l shakli Xorazm shoirlarida, asosan, qat’iy kelajak zamon fe’li vazifasida uchraydi:

Qilsa iroq ichra so‘zu soz,
Kuygusi ul o‘t bila axli Xijoz.

Agar Iroq kuyini chalib ashula aytsa, u o‘t bilan butun hijoz xalqi kuyib ketadi. Bu yerda bu shakl kat’iy kelajak zamon fe’lidir.

Bu baytda ko‘pgina so‘zlarda she’rdagi lutf san’ati ishlatilgan. Chunonchi: *so‘z – ashula* va *o‘t* ma’nosida *Iroq, Hijoz* so‘zlari ham maqom, kuy nomi ham mashhur shahar ma’nosidadir. Shuning uchun bayt tarjimasini birmuncha keng izohlash kerak edi. Biz o‘z maqsadimiz uchun she’rning asosiy mazmunigina berib cheklandik.

Dilidagi ishni ishlashga muvaffaq bo‘lganlikni anglatuvchi shakl: اُلْ تَقْرَتِغْلِي o‘l tawratïg‘lï o‘l – u ortiq darajada shoshildi va unga erishdi اُلْ تَبْرَتِكْلِي o‘l tebrätigli o‘l – *u qattiq harakatchandir va shunday harakat qilishga yaqinlashdi* ma’nosidadir.

Ishlangan narsa ma’nosini bildiradigan shakl: تَقْرَتْمِشْ پِبْ tawpatmïsh yïp – yigirilgan ip. تَبْرَتْمِشْ نانكْ tebrätmïsh neŋ – tebratilgan narsa.

Payt ismi, joy ismi, qurol ismlarining qoidasi yuqoridagichadir. تَقْرَتْغُو پِبْ tawratg‘u yïp – yigiriladigan yïp, تَبْرَتْكُو نانكْ tebrätgÿ neŋ – uning vositasi bilan harakat qilinuvchi narsa. تَبْرَتْكُو اُغُر tebrätgÿ og‘ur – harakat qilinadigan vaqt, تَقْرَتْغُو پِيْز tawpatg‘y jep – harakat qilinadigan joy تَقْرَتْغُو اُغُرْ tawpatg‘y og‘ur – shoshiladigan vaqt. Bu shakldagi ismi makon (joy oti), harakat otlari o‘g‘uz tilida تَقْرَتاسي پِيْز tawratasï jep **(444)** va تَبْرَتاسي اُغُرْ *tebrätäsi og‘ur* tarzida qo‘llanadi.

Bu bobda ish ikki kishi orasida bo‘lganlikni bildiruvchi fe’l o‘zak oxiriga ش – *sh* qo‘shib yasaladi. Chunonchi, اُلْ پِغاجْ تَبْرَتِشْدي o‘l yïg‘ach tebrätishdi – u yog‘och (daraxt) silkitishda yordam berdi yoki bahslashdi. Yana: اُلْ اَنِكْ پِرْلا تَقْرَتِشْدي o‘l anïŋ birla tawratïshdï – u uning bilan tez yurishda kuchini sinash uchun bahslashdi.

Bu bob bir necha xildir.

Birinchisi, o‘zida ل – *l* bor fe’llardir. Bularning ko‘pchiligi asli ikki harfli ismlardir, ularga لَتّي *-lattï* qo‘shimchasi qo‘shilib, fe’l yasalgandir. Chunonchi, اُلْ اَني اَمْلَتّي o‘l anï emlätti – u uni davolatdi demakdir. Bu so‘zda اَمْ *em* o‘zakdir. Yana: بُغْداىْ اَتِغْ كَمْلَتّي bug‘daj atïg‘ kemlatti – bug‘doy otiga zarar berdi. Bu so‘zda o‘zak كَمْ – *käm* kasallik ma’nosidadir.

Bulardan boshqa fe’llar ham bir-biridan farq qiladi. Ulardan ba’zisi to‘rt harfli bo‘lib, ularning ba’zilari yuqoridagi fe’l boblarida aytildi. To‘rt harfli fe’llardan illatli harflari tushirilib, o‘rniga takrorlangan harflar qo‘yiladi. Chunonchi, اُلْ اَنِكْ يُوزِنْ تَرْمادي o‘l anïŋ jÿzin tarmadï – u uning yuzini tirnadi. *Tarmadï* fe’li noqisdir. Buning buyrug‘i تَرْما *tarma*dir. Bu to‘rt harflidir. Fe’lni ikki foillidan o‘timli qilish uchun bu to‘rt harfli fe’ldan اِلِفْ alif tushirilib, uning o‘rniga ت – *t* orttirish bilan to‘rt harfliga ko‘chgandir: اُلْ مَني تَرْمَتّي Buyrug‘i تَرْمَتْ *tarmat* – uni *tirnat*dir.

O‘zing ko‘rganingdek, ت – *t* harfi qo‘shilgani uchun الف tushirilgan. Yana أَنِي بَغْدادِي o‘l anï bag‘dadï – uning oyog‘ini bog‘ladi, chaldi. Buyrug‘i بَغْدا bag‘da – bog‘la noqisdir. Ikki foillidan o‘timli fe’lga aylantirish uchun ت – *t* orttirilgan va الفtushirilib أَنِكْ أَذاقِنْ بَغْدَتّي o‘l anïŋ azaqïn bag‘dattï deyiladi. U uning oyog‘ini bog‘lashga buyurdi, demakdir. Buning buyrug‘i بُغْدَتْ bag‘dat[50] – *uning oyog‘ini bog‘lat* demakdir. Birinchi bob shu usulda tuziladi.

Fe’llarning ba’zisi ismlardan yasalgandir. Chunonchi, أَنْ بُوزُكْ قَرْشَتّي o‘l bözyg qarishattï **(445)** – u bo‘zni o‘lchatdi. Asli قَرِشْ qarïsh – *qarich*dir. Yana: أَنِي قُرْقُتّي o‘l anï qorquttï – uni qo‘rqitdi, demakdir. Asli قُرْقِنْجْqorqïnchdir. Yana أَنْ بِيرِكْ أَغْلَتّي o‘l yerig ag‘lattï – u yerni bo‘shatdi, holi qildi*. Asli أَغْلاقْ بِيرْ ag‘laq yer – bo‘sh, ovloq joy demakdir. Bu fe’llarning oxiriga ت – *t* orttirish natijasida alif tushiriladi.

Bu bobning ko‘pchiligi ikki foilli fe’llardir. Biri buyuruvchi, ikkinchisi bajaruvchidir. Bu fe’llarning ba’zilari noqis o‘timsiz fe’llar bo‘ladi. Ular ت – *t* harfi orqali o‘timli qilinadi. Chunonchi, أَتْ سَمْرِدي at semridi – *ot semirdi* kabi. أَرْ أَتِنْ سَمْرِتّي er atïn semritti – odam otini semirtirdi. نانكْ أُكْلِيدِي neŋ ÿglidi – narsa to‘plandi, ko‘paydi. أَرْ نانكْنِي أُكْلِتّي er neŋni ÿglitti – odam narsani ko‘paytirdi. Bu bobning ikkinchi xili bu ma’nolarni anglatmay, o‘z holicha qo‘llanadi. Chunonchi, أَرْ تَفْرَتّي er täwrättï – odam shoshildi kabi. أُغْلانْ أُلْغَتّي og‘lan ulg‘attï – bola ulg‘aydi. Boshqalari ham shunday.

Tangriga shukr bo‘lsin, muzoaflar bo‘limi tamom bo‘ldi.

---

[50] XI asr tilida ismlardan fe’l yasovchi affikslar anchagina bo‘lsa ham, bulardan eng ko‘p qo‘llanuvchi affiks *-la* affiksi edi. “Devon”da izohlangan fe’l so‘zlarning katta bir qismini ana shu usulda yasalgan fe’llar tashkil qilishi shuni isbotlaydi. Oz bo‘lsa ham “Devon”dagi misollar ismlarga *-da* affiksini qo‘shib, fe’l yasash ham qoida ekanidan darak beradi. Chunonchi, *bag‘damoq* so‘zi “Devon”da bir necha marta qo‘llanilgan, har yerda shu shakldagina berilgan. Navoiy asarlarida siyrak bo‘lsa ham *-da* affiksi bilan yasalgan so‘zlar uchraydi: Navoiy o‘zining “Xamsa” asarini yozishga boshlaganda, o‘zidan oldin “Xamsa” yozgan ustod shoirlar Nizomiy, Amir Xusrav, Abdurahmon Jomiyni eslab shunday deydi:

Qo‘ldasa bu yo‘lda Nizomiy qo‘lum,
Yo‘ldasa Xisrav bila Jomiy yo‘lum.

* DSda: *u yerni tozalatdi.*

BISMILLOHI-R-RAHMONI-R-RAHIM

BOSH HARFI *J, Ǐ, I* BO‘LGAN MISOL SO‘ZLAR BO‘LIMI

[Beshinchi kitob]

Ikki harflilar

ب *(p)*

يَبْ yap – doira, girdak shakldagi har bir narsa. يَبْ يَرْماقْ يُوقْ yap yarmaq yoq – menda yumaloq (o‘tadigan) tanga yo‘q.

يَبْ yap – yapog‘ (tugilib, o‘ralishib qolgan yung). يُنْك يَبْ yyŋ yap – *yung* va *yapog‘* deyilgandagi kabi.

يِبْ y ï p – ip.

يِبْ yïp – molni o‘tlatish uchun ularni bog‘lab qo‘yiladigan uzun arqon. Ip ham يِبْ *yïp* deyiladi.

ت *(t)*

يَتْ y a *t* – yomg‘ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish odatidir. Bu odat ular orasida keng tarqalgandir. Men buni yag‘molar shahrida o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. **(446)** U yerda paydo bo‘lgan bir yong‘inni so‘ndirish uchun shunday fol qilingan edi. Xudoning amri bilan yozda qor yog‘di. Ko‘z oldimda yong‘inni so‘ndirdi[51].

ر *(r)*

يَرْ y a r – so‘lak. اَنِكْ يَرِي اَقْتِي anïŋ yapï aqtï – uning so‘lagi oqdi.

يِرْ y ï r– kuy, maqom. اُلْ يِرْ يِرْلادِي o‘l yïr yïrladï – u bir maqomni kuyladi. Ko‘pincha, bu so‘z she’rga nisbatan qo‘llanadi. Bu so‘z اِرْ *ïr* tarzida ham talaffuz qilinadi. Harf almash-tirilgandir[52].

---

[51] Navoiyda bu so‘z يدا تاش yada toshi shaklida uchraydi:
Yada toshi*ga* qon etgach, yog‘in yoqqanin, ey soqiy,
Yog‘ar yomg‘urdek ashkim chun bo‘lur la’ling sharob olud.

[52] Harf almashinish emas, tushish va harf orttirish deb berish to‘g‘ri bo‘lar edi. Lekin arab yozuvi jihatidan shu to‘g‘ridir. Alif *j (y)* o‘rnida almashgandir.

ش *(sh)*

يَشْ y a s h – ko‘kat, sabza, barra, yosh o‘t. يَشْ اُتْ yash ot – yosh barra o‘t, bu so‘z يَشْ يُشْ yash-yysh shaklida qo‘shma holda ergash so‘z bilan ham qo‘llanadi.

يُشْ yÿsh – to‘planish[53]. بُذُونْ يُشْ بُلْدِي bozun yysh boldï – xalq to‘plandi, uyushdi (o‘g‘uzcha).

يِشْ y ï sh – yuqorilik, balandlik, chunonchi, اَرتْ يِشْ art yïsh[54] – yuqorilik, quyilik. اِينْ in – quyilik. اَرتْ art – chiqish qiyin bo‘lgan balandlik, dovon.

ق *(q)*

يُقْ yÿq – idish yuqi. Bu so‘zni يَقْ yaq ergash so‘z bilan birga يُقْ يَقْ yÿq-yaq[55] tarzida qo‘shma holda ham qo‘llaydilar. يُقْ يِرْ yÿq yer – yuqori yer, balandlik yer.

ك (k)

يُكْ yÿk – yuk. بِرْ يُكْ بُغْدای bir yÿk bug‘daj – bir yuk bo‘larlik, bir ko‘tarishlik bug‘doy. Xachir va boshqalarning yukiga ham bu so‘z qo‘llanadi[56].

---

[53] Bu so‘z bosma nusxada يُشْ *jysh* shaklida berilgan. Shunga ko‘ra, يُشْ *yÿsh* yoki يِشْ *yish* tarzida qo‘llash ham mumkin. Basim Atalay يُشْ *yÿsh* shaklida olinishi muvofiq deb izoh bergan va shu shaklni olgan. Basim Atalayning bu masalaga keltirgan dalili yetarli kuchli bo‘lmasa ham, uning transkriptsiyasini berdik. Mutaxassis o‘rtoqlar diqqat qilishlari mumkin.

[54] *Yyq* so‘zi u davrda narsaning idishga yuqib, yopishib, o‘rnab qolgan qismi ma’nosida qo‘llangan. Bu so‘zdan yasalgan fe’l ham shu ma’noda moddiy narsalar yuqishiga qo‘llangan. So‘nggi davrlarda bu so‘z ma’naviy tushunchalarga nisbatan ham qo‘llangan:

Yuqmag‘ay ko‘nglunga g‘amim asari...
Ki yuqti qo‘nglig‘a oning g‘ubori.

Ulug‘ olim Koshg‘ariyning ergash so‘zlar haqidagi bu qaydlari ham muhimdir. Ular ham maxsus ottenkaga ega bo‘lib, mustaqil so‘zlar kabi tilda katta hissaga egadir.

[55] Bu so‘z hozirgi o‘zbek tilida ikki ergash so‘z bilan qo‘llanadi: yuq-yuruni, yuq-puqi. Birinchi variantda hech yo‘qlik, ikkinchi variantda bir oz borlik ottenkasi mavjuddir.

[56] Yuk so‘zi ham u davrda moddiy narsalargagina qo‘llangan. So‘ng by so‘z adabiy asarlarda takabburlik, manmanlik, mag‘rurlik kabi insonga noloyiq qiliqlarga ham qo‘llana boshlagan. Navoiyda har ikki holga misollar ko‘p.

Faqr yo‘liga kir uzluk yukin o‘zdin solib...
Sig‘madi kim behad, ulug‘ erdi yuk...
Kim yuk ulug‘dur dag‘i nahbing kichik.

ل *(l)*

يُلْ yul – chashma ko‘zi, chashma og‘zi. جُقُرما يُلْ jo‘qrama yӱl – otilma chashma, suvi otilib chiqadigan chashma deyish shundandir.

يِلْ y ï l– yil. بِيرْ يِلْ كَجْتِي bir yïl kechti – bir yil o‘tdi.

م *(m)*

يَمْ y a m – suv ustidagi va ko‘zga tushadigan xas, cho‘p. كوزكا يَمْ تُشْتِي közga yam tӱshti – ko‘zga cho‘p tushdi.

يَمْ y ä m – xushbo‘y, dorivor o‘tlar. أُتْ يَمْ ot jäm – ovqatga solinadigan kashnich, rayhon, yalpiz, zira kabi isli narsalar har vaqt أُوتْ *ot* so‘zi bilan qo‘shma holda aytiladi. Ayrim qo‘llanmaydi.

ن *(n)*

يِنْ y i n – tezak. قُوىْ يِنِي qo‘y yini – qo‘y qumalog‘i.

يِنْ y i n – in. اَرْسلانْ يِنِى arslan yini[57] – arslon ini. Tulki va boshqa yirtqichlar iniga ham يِنْ *yin* deyiladi. Masalda shunday (kelgan):

تِلْكُو أُوزْ يِنِكا أُدُوزْ بُلُوزْ

Tilkӱ öz yinigä ӱrsä ӱzӱz bolur

Tulki o‘z inidan nolisa, unga nomus bo‘ladi. Bu so‘z o‘z qabilasini malomat qiluvchilarga nisbatan aytiladi. She’r:

[XII]

قُشْ قُرتْ قَمُغْ تِرِلْدِي
اَرْكَكْ تِشِىْ تِيرِلْدِي
أَكُرْ اَلِبْ تَرِلْدِي
يِڭْفا يِنا كِرْكُسُوزْ

---

[57] Bu so‘z u davrda ikki xil: اين va بين in shakllarida qo‘llangani haqida Koshg‘ariy izoh bergan (qarang: “Devon” tarjimasi, I jild. 84-b.). Mahmud Koshg‘ariyning izohiga ko‘ra, bu so‘z u davrda faqat vahshiy hayvonlar uyasigagina xos bo‘lgan. Lekin bu so‘z bizga, asosan, in shaklida yetib kelgan. Shu bilan birga, bu so‘zning iste’mol doirasi ancha kengaygan, mayda jonivorlar, qurt-qumursqalar, hatto majoziy asosda odam yotog‘iga ham qo‘llana boshlagan. Chunonchi: *ari ini, chumolining ini* va boshqalar. Navoiyda sichqonga nisbatan ham qo‘llangan:

Tor in*i* sichqonga solib erdi g‘am,
Quyrug‘ig‘a bog‘ladi g‘irbol ham.

Qush-qurt qamug‘ tirildi
Erkak[58] tïshï tarïldï
Ÿgo‘r alïp tarïldï
Ïïnqa yana kirgÿsÿz. **(447)**

Bahorni ta’rif qilib aytadi: qush-qurtlar bahorning yoqimli shamoli bilan yana qayta tirilishdi. Erkak-urg‘ochilari to‘planishdi. To‘da-to‘da bo‘lib tarqalishdi. Ular ikkinchi qayta iniga kirishmaydi.

Bu so‘zlarning hammasini yozuvda manqus bo‘limiga kiritib, talaffuzda yumshatish ham mumkin edi. Lekin bu to‘g‘riroqdir[59].

فَعْلٍ فُعلٍ فِعلٍ *FA’L, FU’L,FE’L* SHAKLIDAGI O‘RTA HARFLARI SUKUNLI SO‘ZLAR BO‘LIMI

ب *(p)*

يَرپْ نانكْ y a r p n e ŋ – mahkam, puxta narsa.

يَرپْ y a r p – odam sevinganda paydo bo‘ladigan yuz ochiqligi.

اَنِكْ يَرْبي يَزِلْدي anïŋ yarpï yazïldï – sevinchdan uning yuzidagi tugunlar, tirishlar yozildi.

ت *(t)*

يُرْتْ y u r t – baland joylarda saqlanib qolgan bino izlari, devor tagi, qo‘rg‘on alomati va boshqalar.

يَلْتْ قَيا y a l t q a y a – qoya, shuningdek, har bir qattiq, pishiq, mustahkam narsa.

ج *(j)*

يُرْجْ y u r c h – xotinning ukasi. Erning aka-ukasi bilan xotinning aka-ukasini farq qilib shunday deyiladi. Erning kichik uka-

---

[58] Basim Atalay bu baytdagi ارلك *erlak* so‘zi haqida izoh bergan. Izohga ko‘ra, ارلك*erlak* so‘zi qo‘lyozmada اركك *erkak* qilib tuzatilgan ekan. Haqiqatda bu so‘z اركك *erkak* bo‘lishi kerak. Arabcha tarjima فاجتمع الذكر و الانثى iborasi bilan berilgan. Bu ibora u so‘zning اركك *erkak* bo‘lishini talab qiladi.

[59] Yuqorida ين؛ يل؛ ير؛ يب shaklida berilgan so‘zlarni يان‘ يين‘ ييل‘ يير shaklida berish ham mumkinligini, lekin qisqa shaklni muvofiq topganini ko‘rsatadi.

siga اِني *ini* deyiladi, yoshi katta bo‘lsa اِچي *ichi* deyiladi. Erkaklarning o‘zidan kichik qiz ukasiga سنِكِلْ *siŋil* deyilib, o‘zidan katta qiz birodariga اَكا *äkä* deyiladi; xotinning o‘zidan kichik qiz birodariga بَلْدِزْ *baldïz* deyilib, o‘zidan kattasiga اَكا *äkä* deyiladi.

د *(d)*

يُنْدْ y u n d – ot. Bu so‘z *tuya* so‘zi kabi birlikka ham, ko‘plikka ham qo‘llana beradigan turdosh otdir. يُنْدْ اَتي يِناڑْ yynd eti yïpap – ot go‘shtidan yoqimli hid keladi, demakdir. Go‘sht qaynatilib, qozondan olib qo‘yib sovutilgach, undan yoqimli bir hid keladi.

يُنْدْ y u n d – turkiy xalqlar yillarining o‘n ikki nomidan biri. Uni يُنْدْ تِلي yund yïlï deyiladi.

Bu bo‘lim til va lab tovushlaridan[60] tashkil topgan, shuning uchun bu bo‘lim ismlari ozdir.

O‘RTA HARFI *A, U, I* BO‘LGAN فَعَلٌ، فَعُلٌ، فَعِلٌ *FA’LIN, FA’ULIN, FA’ILIN* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI

ت *(t)*

يُزْتْ yyzyt: يُزْتْ نانكْ yyzyt neŋ – yaxshiligi bo‘lmagan, yaxshiligi yo‘q narsa, birovni so‘kkanda, haqorat qilganda يُنْتْ *yyzyt* deyiladi – yaxshiligi yo‘q, yomon demakdir.

يَشْتْ y a s h u t: يَشْتْ نانكْ yashut neŋ – yashiriladigan narsa. Ergash so‘z بَكْتْ bekyt bilan qo‘shma holda يَشْتْ بَكْتْ yashut bekyt ham deyiladi. Yashiriladigan, berkitiladigan narsa, demakdir.

يِكِتْ y i g i t[61] – har narsaning yoshi. **(448)**

يَمَتْ y e m ä t – xo‘p, mayli ma’nosidagi bir so‘zdir. So‘z boshidagi ي harfini ا ga almashtirib, اَمَتْ *yemät* tarzida talaffuz qilish ham bor.

يَنُتْ y a n u t – o‘rniga, evaziga, badaliga, baravariga[62].

---

[60] Qadimgi fonetikada til va lab tovushlari oltita bo‘lib, uchtasi: م ،ب ،و tovushlari – *lab tovushi* deb, ف ،ر ،ل tovushlari *til tovushi* deb yuritilgan.

[61] Yigit so‘zi hozirgi o‘zbek tilida faqat odam bolasiga xos bo‘lib qolgan. Hattoki, bu so‘zning u davrdagi ma’nosi ustiga *botirlik, kuchga to‘lganlik* ma’nolari ham yuklangan. Bu hol Navoiy davridayoq boshlangan edi.

ج *(ch)*

يَسِجْ y a s ï c h – o‘qning yassi va uzun uchi, uch qismi.

يِغَجْ y ï g‘ a c h – *yo*g‘och.

يِغَجْ y ï g‘ a c h – er kishi olati.

يِغَجْ y ï g‘ a c h – bip farsax (o‘n ikki ming qadam uzunligidagi joy). بِيرْ يِغَجْ – b*ir* jïg‘ach yer – bip farsax uzunlikdagi yer.

يِغَجْ y ï g‘ a c h – daraxt. اُزُمْ يِغاجِي ÿzÿm yïg‘achï – uzum daraxti, يَغاقْ يِغاخِي yag‘aq yïg‘achï – *yong‘oq daraxti* deyilishi ana shu ma’nodandir. By ma’noda qo‘llanganda daraxtni يِغاجْ *yïg‘ach* deb *ā*[63] bilan aytish va yozish *yïg‘ach* deb *a* bilan aytishdan ko‘ra yaxshiroqdir[64].

---

[62] Mahmud Koshg‘ariyning bu izohiga ko‘ra, *janut* so‘zi u davr jonli tilida bir narsaning o‘rniga, baravariga bir narsa berish ma’nosida edi. Chunonchi, ot baravariga qo‘y berish kabi. Lekin bu so‘z “Qutadg‘u bilik”da shu bilan birga javob ma’nosida ham qo‘llangan:

Yanut berdi hojib ko‘r Oyto‘ldiqa,
Ayur emdi evma menga enga turboqa.

Otanni, onanni savindir tushi,
Yanut birga topgung tuman ming osig‘.

[63] Bu o‘rinda Mahmud Koshg‘ariy til orqa *a* bilan chuqur til orqa *o* orasida maxsus tovush mavjud bo‘lganligiga ishora qiladi. Ana shu tovushni ifodalash uchun *ā* shaklini qo‘lladik.

[64] Mahmud Koshg‘ariy izohiga ko‘ra, *yog‘och* so‘zi XI asr qabilalari tilida bir oz farqli qo‘llangan. Bu so‘z u davrda *daraxt, uzunlik o‘lchovi, o‘tin* ma’nolarini anglatgan. Hozirgi o‘zbek tilida bu so‘z, asosan, *yog‘och* tarzida, ba’zi birikmalarda *og‘och* tarzida (Beshog‘och kabi) qo‘llanadi. Lekin hozirgi tilda bu so‘zning birinchi ma’nosi *daraxt*dir. Shu bilan birga, *yog‘och* so‘zining ma’nosi hozirgi tilda juda kengaygan. Katta-kichik *ustun, xoda, novda* ma’nosida ham qo‘llana beradi. Ammo Navoiy asarlarida Koshg‘ariy keltipgan ma’nolapda qo‘llangan:

1. Uzunlik o‘lchovi ma’nosida:
To ko‘rindi alar qarolari ham,
Qolmadi bir yog‘och arolari ham.
2. Daraxt ma’nosida:
Yog‘ochi ustida ko‘p sabzalar fosh,
Bale ko‘k sabzasidin o‘ktarib bosh.
(U daraxt serbarg edi-yu, osmondan baland edi).
3. Ustunga yararlik katta yog‘och ma’nosida:
Kezib toptilar bir yogoch bo‘yla tuz,
Ba lekin aning moliki bir ajuz.
(Uzoq vaqt qidirib ustunga mos silliq yaxshi yog‘och toptilar. Lekin uning egasi bir qari kampir edi).

يُغَجْ y ÿ g‘ a c h – ariq va vodiyning ro‘para qirg‘og‘i, ro‘parasi, chunonchi, odam bir yerda turganda uning ro‘para tomoni يُغَجْ *jug‘ach* bo‘ladi. يُغَجْ كَجْتِمْ yÿg‘ach kechtïm – *vodiyning bu tarafidan u tarafiga o‘tdim,* demakdir.

ر *(r)*

يَغِرْ y a g‘ ï r – yag‘ir. Mollar – ot, xachir, eshaklarning egar turadigan joyida paydo bo‘ladigan yara. يَغِرْلِغْ اَتْ yag‘ïrlïg‘ at – yag‘irli, yag‘ir yarasi bor ot.

يُگُرْ y ÿ g ÿ r – don-tariq, bug‘doy. Bu so‘zning اُگُرْ *ÿgÿr* varianti ham bor.

يَمُرْ y a m y r[15] – ko‘richak. Hayvonlarning ko‘richagi.

يُلَرْ y u l a r – otning yugani, no‘xtasi. Maqolda shunday kelgan:

(2) يُندْ باشِنْ يُلارْلَبْ كَنكلْدِي

Ynd bashïn yulaplab keŋildi[16]

Otning boshini qaynatgandan keyin yemoqchi bo‘lsang, qochmasligi uchun unga avval no‘xta solib bog‘la, keyin uni yegin. Bu masalni otdan foydalanish uchun oldin uni yaxshi saqlashga, bo‘sh qo‘ymaslikka undab aytiladi.

ز *(z)*

يَتِزْ y a t ï z – har bir enli, keng narsa يَتِزْ قَدِشْ *yatïz qazïsh* deyiladi, *enli qayish* demakdir. يَتِزْ يِرْ y a t ï z y e p – keng yer.

يَغِزْ y a g‘ ï z – qizil bilan qora o‘rtasidagi bir rang. Yer rangi shunga o‘xshatilib, يَغِزْ يِرْ yag‘ïz *yer* deyiladi.

يَغِزْ y a g‘ ï z: يَغِزْ اَتْ yag‘ïz at – chovkar ot.

يَفُزْ y a f u z – har narsaning yomoni.

يُمُزْ y u m u z: يُمُزْ اَرْ *yÿmyz* er – kalta baqay, semiz, pakana kishi, yumaloq odam.

---

4. Kichik yog‘och (novda) ma’nosida:
Gohiki yog‘och olib ro‘st,
Kulgu qilibon ramidani sust.
(Goho bir novdani ot qilib minar, kulib shodlanar edi).

[15] Bu so‘z bosma nusxada يُمر shaklida berilgan (Qarang: III jild. B.7). Basim Atalay يُمُر *yumur* shaklida bergan (Qarang: III jild. 9-b.).

[16] كَنكِلْدِي so‘zi yonida bosma nusxada bir aniqsizlik belgisi bor. Arabcha ثُمَّ كُلْهُ degan ibora shu so‘zning tarjimasiga to‘g‘ri keladi. U holda bu shakl “keyin yegin” ma’nosidagi so‘z bo‘lishi kerak. Lekin bu shaklda qandaydir aniqsizlik bor.

يَمِزْ y a m ï z – ikki sonning ikki yoni, chov, sonning boshlari. Ikki sonning bosh jildonlari.

ش *(sh)*

يَرِشْ y a r ï sh – poyga, ot poygasi[17]. اَلْ اَتْ يَرِشْتِي o'l at yarïshtï – u ot bilan poyga qildi.

يَرِشْ y a r ï s h – taqsim, ikki kishi o'rtasida mol taqsimlash.

يَغِشْ y a g' ï s h – islom dinidagi odamlarning butlarga nazr qilib so'yadigan qurbonlari.

يَقْشْ y a w a s h يَقْشْ كِشِي y a w a s h kishi – yuvosh odam, yuvosh hayvonlarga ham bu so'z qo'llanadi. She'rda shunday kelgan:

[XIII]

قُلْدَشْ بِلا يَرَشْغِلْ قَرْشِبْ اَدِنْ اُدُرْما
بَكْ تُتْ يَقْشْ تَقاغُو سُقْلِنْ يَذِنْ اَدرما

Qoldash bilä yarashg'ïl qarshïb adïn udurma
Bek tÿt *yawash* taqag'u cÿwlin jazïn adïrma.

Nasihat qilib aytadi: qo'ldosh (suhbatdoshing)ni hurmat qil, yaxshi muomalada bo'l, qarshilik qilib, uni tashlab, boshqa bilan bo'lma. Uydagi tovuqni boqolmay qochirsang, durraj (sahrodagi yovvoyi qush)ni boqaman deb ovora bo'lma.

يُقْشْ y ÿ f ÿ s h – qarindoshlarga mol va kiyim bilan yordam berish. Lekin, asosan, kelinlar to'yonasiga qo'llanadi. Maqol

يُقْش لك كَلِنْ كُذاكُو يَقْشْ بُلُورْ.

Yÿfÿshlig kelin kÿzägÿ[65] yafash bolur

---

[1] Bu so'z shu ma'noda qoraqalpoq tilida hozir ham keng qo'llanadi.

[65] Basim Atalay bu maqoldagi كذاكو so'zi yozma nusxada كداكو ekani haqida izoh bergan va shu variant ham yanglish emas deb uqtirgan. Qo'lyozmaga asoslanish, albatta, yaxshi. Lekin bu so'z III jild 124-betda كذاكو shaklida berilgan. Bu diqqattalab masaladir. S h u bilan birga, Basim Atalay bu so'zning tushum kelishigi ekani, shuning uchun tushum kelishigi affiksining tushishi xato bo'lgan deb ko'rsatgan. Basim Atalayning bu fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, X I asr tilida tushum kelishigi affiksi tushib qolgan bo'lsa-da, bu so'z tushum kelishigi vazifasini bajara beradi.

Yaqinlari jildonidan to‘yanalar bilan hurmatlangan kelin kuyovi jildonidan ham hurmatlanadi.

يُمُشْ y u m u sh – ikki va undan ortiq kishi orasida elchilik. Bu so‘zdan olib, shohni يُمُشْجِي *yumushchï* deyish ham mumkin. Chunki shoh ma’nosidagi *malik* so‘zi arabcha elchilik ma’nosidagi اَلُوكَةٌ so‘zidan olingandir. Turkiy qabilalar *malik* ismini mutlaqo bilmaydilar.

يَمِشْ y e m i s h – mevalar, ko‘pincha, daraxt mevasi, ya’ni ho‘l mevaga aytiladi[66].

غ *(g‘)*

يَتَغْ yatïg‘ – uyqu va yotiladigan joy, o‘rin. اَنِي يَتَغِنْدا تُتْغِيلْ anï yatïg‘ïnda tutg‘il – uni uyquda yotganda, o‘rnida tut.

يِزِغْ y ï z ï g‘ – har bir hidli narsa.

يِزِغْ اُتْ y ï z ï g‘ ot – isiriq. Qashg‘ar tilida, uch va borsag‘onlar tilida *eldrÿk*[67] deydilar. O‘g‘uzlar يُوزْ اَرِكْ *yÿz ärlik* deydilar.

يُذُغْ y o z u g‘ – birovning gunohiga toyilish, kasriga qolish. اُلْ اَنِكْ يُذُغِي تَقُنْدِي o‘l anïŋ yozyg‘ï toqïndï – unga birovning gunohi yetti (u birov gunohining kasriga qoldi).

يُذُغْ y u z u g‘ – bolalarga aytiladigan so‘kish so‘zi (kanjaklar so‘zi). Bu so‘z يُذْتْ *yuzut* so‘zi kabidir.

يَرَغْ y a p a g‘ – vaqt, kez. **(450)** Maqolda shunday kelgan:

اِيشْ يَرَاغِنْدا سرت اسِغِنْدا
Ïsh yarag‘ïnda, sart asïg‘ïnda

Ish vaqtida, kezida, o‘rnida bajariladi, ammo savdogar faqat-gina foyda kutadi (savdogar agar foydasini bilsa, seviklisini ham sotadi).

---

[66] Bu so‘z Navoiy asarlarida “zakuska” ma’nosida ham kelgan. U davrda zakuskaga qand, novvot yeyilishini e’tiborga olganda, quruq meva ma’nosida qo‘llangan:

Menga soqiyo bodani tez etur,
Chag‘ir-la barobar *yemish* ketur.

Hozirgi o‘zbek tilida bu so‘zning ma’nosi kengaygan. *Taom* ma’nosida qo‘llanadi. Shu bilan birga, hozir, asosan, quruq meva: turshak, mayiz, qand-qurslarga qo‘llanadi.

[67] Bu so‘z bosma nusxada اُلْذرك shaklida berilgan bo‘lsa ham, III jild 304-betda اُلْدرْك shaklida berilgan; biz shu shaklga asoslandik.

يِشِغْ y ï s h ï g‘ – qayishdan to‘qilgan bog‘, bo‘yinturuq qayishi.

يَقْرْ y a w y g‘ – yuqoridan sel suvi ag‘darib tushirgan tosh bo‘laklari. Shuningdek, tog‘ cho‘qqisida odamlar, hayvonlar yurishiidan pastlarga yumalab tushgan tosh parchalari ham يَقْرْ *jawyg‘* deyiladi.

يَقِغْ y a q ï g‘ – shish va shunga o‘xshash yaralar ustiga qo‘yiladigan dori.

يِلِغْ y a l ï g‘ – toj. تَقُقْ يِلِغِي taqyq[68] yalïg‘ï – *xo‘roz toji* degan ibora shundandir.

يِلْغْ y a l ï g‘ – ot yoli. Bu so‘zning bir tilda يال *yal* varianti ham bor. To‘g‘risi ييل *yel* shaklidir.

يُلُغْ yolug‘ – fido bo‘lish. She’rda shunday kelgan:

مِنڭْ كِشِي يُلُغِي بُلُبْ اُوزُنكا **[XIV]**
بَرْكَلَرْ اُوزُنْ اَنِڭْ كُوزُنكا

Mïŋ kishi *yolug‘ï* bolub özÿŋä
Bergälär özÿŋ anïŋ közÿŋä.

Minglab odamlar unga o‘zlarini fido qiladilar, uning ko‘zlarini ko‘rish uchun jonlarini beradilar. *Öz* so‘zi bu she’rda *jon (ruh)* ma’nosidadir. Bu so‘zning xalq tilida qanday ma’nolarda qo‘llanishini o‘z o‘rnida bayon qilganman[69].

يِلِغْ y ï l ï g‘ – iliq. يِلِغْ سُوڤْ yïlïg‘ suw – iliq suv[70]. Issiq bilan sovuq orasidagi har bir narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

---

[68] XI asr tilida *xo‘roz* so‘zi yolg‘iz shu shakl bilan emas, shu bilan birga, *taqog‘u* shaklida ham qo‘llangan. Ehtimol, bular bir o‘zakdagi so‘zlarning turli dialektlarda farqli qo‘llanishi natijasi bo‘lsa.

[69] Bu yerda M.Koshg‘ariy bu so‘z haqida I jilddagi izohiga ishorat qilgan (Qarang: “Devon...” I jild. 80-b.).

[70] Bu so‘z hozir ham shunday yarim issiq ma’nosida qo‘llanadi. Lekin يِلِغْ *jïlïg‘* emas, ايلغ *ïlïg‘* shaklida qo‘llanadi. Navoiyda ham shu shaklda uchraydi:

Sovug‘ ohi kim chekarman garm o‘lub oqmoqqa ashk,
Chashmalarda suv bo‘lur *ilig‘* havo bo‘lgach sovug‘.

Ma’nosi: alamli nolamdan tortayotgan ohim sovuq bo‘lib, ko‘zimdan oqayotgan yoshning iliqligida qarama-qarshilik yo‘q. Bu tabiiy, axir havo sovuy boshlagan sari, buloq suvlari iliy boshlaydi-da.

يَلِغْ y a l ï g‘ – egarning oldingi va orqa qoshlari. Ularni bir-biridan ayirib aniqlash uchun أنكُنكي يَلِغْ öŋdyngï yalïg‘ – old qosh, كِيدنكي يَلِغْ kedingi yalïg‘ – *orqa qosh* tarzida qo‘llanadi.

يَنِغْ y a n ï g‘ – qusuq. أل يَنِغْ يَنْدِي ol yanïg‘ yandï – u ko‘p qusdi.

يِنِغْ y a n ï g‘[71] – yanish, g‘azablanish. بَكْ يَنِغِنْدا تُشْما beg yanïg‘ïnda tyshmä – bek va boshqalar yanishiga, g‘azablanishiga yo‘liqma.

ق *(q)*

يَتُقْ y a t y q – ikki xil narsadan to‘qilgan kiyimlik, arqog‘i yung, o‘rishi ipdan to‘qiladi.

يَتُقْ y a t u q: يَتُقْ نانكْ yatuq neŋ – tashlangan, unutilgan har bir narsa. Yalqovlargan يَتُقْ كِشي *yatuq kishi* deyish shundandir. O‘g‘uzlar orasida o‘z shaharlaridan boshqa yerga chiqmovchi, jang qilmovchilarni ham *yatyq* deydilar. *Yalqov,* **(451)** *tashlandiq* demakdir.

يَتِقْ y a t ï q – uyqu, uxlaydigan joy. أنى يَتِقِنْدا تُتّي anï yatïqïnda tuttï – uni uyquda, uyqu o‘rnida tutdi (ushlab oldi).

يَرُقْ y a p y q – yorug‘lik. يَرُقْ يِرْ yapyq yer – yorug‘ joy. يَبْ يَرُقْ نانكْ yap yaryq neŋ – juda yorug‘ narsa.

يَرُقْ y a r y q – yerda, devorda, tog‘larda (chinni, sopol), idishlar va boshqalardagi yoriq, darz: بُو أيَقْنِكْ يَرُقِي بارْ bu ajaqnïŋ yapyqï bar – bu idishning yorig‘i bor.

يَرِقْ y a r ï q – janglarda kiyiladigan temir ko‘ylak (zireh) va qalqonning har ikkisiga qo‘llanadigan turdosh ismdir. So‘ng ularni farq qilib temir ko‘ylakka كُبا يَرِقْ kybä yarïq, qalqonga سايْ رِقْ s a y y a r ï q deyiladi.

يُرِقْ y o‘ r ï q: يُرِقْ تِلْ yo‘rïq tïl – ochiq va aniq til.

يُرِقْ y o‘ r ï q – yo‘riq, fe’l, fe’l-u xo‘y, muomala[72]. أنِكْ يُرِقِي نَتَكْ كِشي بِلا anïŋ yopïqï netäk kishi bilä – uning odamlar bilan muomalasi qanday?

يُرِقْ y o‘ r ï q – yurish, yuramollik, yo‘rg‘alik. أتْ يُرِقِي نَتَكْ at yo‘rïqï netäk – otning yurishi qanday. Suv va boshqalarning oqishiga ham bu so‘z qo‘llanadi.

---

[71] Bu so‘zning birinchi ma’nosi yetib kelmagan. *G‘azablanish* ma’nosi hozir *yanïg‘* shaklida emas, *yanïsh* shaklida qo‘llanadi: *Yanib qo‘ydi* degandagi kabi. Demak, so‘nggi davr tilida *-ïg‘* affiksi o‘rnida *-ïsh* affiksi o‘zlashgan.

[72] Hozirgi tilda *yo‘rig‘* tarzida qo‘llanadigan *yo‘rig‘i bilan bo‘ladi-da* degandagi kabi.

يَرِقْ y a r ï q – ikki sonning bir-biriga tutashgan, bir-biridan ayriladigan ustki qismi, bosh qismi. Bu so‘z يَرِلدِي نانكْ yarïldï neŋ – narsa yorildi, ayrildi gapidagi يَرِلْدِي *yarïldï* so‘zidan olingandir. Ikki oyoqning biri o‘ngga, ikkinchisi chapga ayrilgandir.

يَزَقْ y a z a q – o‘tloq (yag‘mo va tuxsilar so‘zi).

يَزُقْ y a z ÿ q – bog‘idan yechilgan, يَزُقْ اَتْ yazyq at – boshvoqlanmagan, bog‘idan yechilgan ot. Bog‘lovdan yechilgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

يَزُقْ y a z ÿ q: يَزُقْ اَتْ yazuq et – kuzda har xil xushbo‘y o‘tlar bilan quritilib qo‘yib, bahorda yeyiladigan go‘sht. Bu يازْ اُقْ يِى yaz oq ye – *faqat bahorda yegin* iborasidan olingan. Chunki bahorda mollar oriqlab qoladi. Bu xilda go‘sht quritgan kishi bahorda ham semiz go‘sht eydi.

يَزُقْ y a z ÿ q – gunoh. Maqolda shunday kelgan:

اُوتْ تُتُنسُزْ بُلماس، يِكِتْ يازُقسِزْ بُلماس **(5)**

Ot tÿtÿnsÿz bolmas, yigit yazuqsuz[73] bolmas

O‘t tutunsiz bo‘lmaydi, bola gunohsiz bo‘lmaydi.

يَسِقْ y a s ï q – yoy idishi. Turk qabilasi tilida. Bu so‘zni o‘g‘uz va qipchoqlar bilmaydilar, ular buni “qurman” deydilar. **(452)** Maqolda shunday kelgan:

اَبْرِقْ يَسِقْدِنْ تُوزْلُغْ ياجِقارْ

Oppaq yacïqdïn tozlug‘ ja chïqar

Eski yoy idishidan buklangan yoy chiqadi. Bu arablarning

*تَرَى الرَّجُلَ النَّحِيفَ تُنَزْدَرِيهِ و فى أَثْوابِهِ أَسَدٌ مَرِيدْ

degan iborasiga to‘g‘ri keladi.

---

[73] *-siz* affiksi u davr tilida otlarga qo‘shilib, o‘zakdan anglashilgan ma’noga ega emaslik ma’nosini anglatardi. Kechiksiz (ko‘priksiz) kabi. U affiks o‘zi qo‘shilgan o‘zak xususiyatiga mos holda *-siz* yoki *-suz* shaklida kelar edi. Yuqoridagi maqolda *-suz* tarzida kelgan.

Qo‘riqchi ma’nosidagi *yasovul* so‘zi shu so‘z o‘zagidan bo‘lsa kerak. Navoiyda bu maьnoda *sog‘doq* so‘zi qo‘llangan:

Demayin nozanin hadisini yo‘q,
Chekti *sog‘dog‘inki* bir necha o‘q.

(Seviklisining og‘ir taklifiga qarshi chiqmadi-yu, o‘qdondan bir necha o‘q olib g‘alabaga erishishga kirishdi).

* O‘qilishi: *Tara-r-rajula-n-nahifa ʼfa tazdarixi va fi a’svabihi a’sadun maridun.* Tarjimasi: Ko‘rmayapsanmi, zaif odamni qanchalik himoya qilma, uning ichida qudratli sher yashiringan bo‘ladi.

يُلَقْ y u l a q – bir qancha kichik-kichik suv yo‘llari (ko‘lchalar). يُلْ يُلَقْ yul yulaq iborasi shundan olingan. Bunda ل – *l* ga ق – *q* harfi qo‘shilgandir[74]. Bu baytda ham shunday kelgan:

[XV]

أَقْتُرُرْ كُوزُمْ يُلاقْ
تُشْ قِلُرْ اُرْدَكْ يُغاقْ

Aqturur közym *yulaq*
Tush qïlur ördäk yug‘aq.

Ko‘zimdan oqqan yosh suvlari ko‘llarga aylanmoqda, unga o‘rdak va boshqa suv qushlari qo‘nayotir.

يُلَقْ y o l a q – yurishga yaroqsiz kichik yo‘l. U dashtlarda bo‘ladi.

يُلَقْ y o l a q: يُلَقْ بَرْجِنْ yolaq barchïn – yo‘l-yo‘l beqasam, shohi. Yo‘l-yo‘l chiziqlari bo‘lgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘zning asli يُولَق dir.

ك(k)

يِتُكْ y i t ÿ k – yitgan, yo‘qolgan narsa. Maqolda shunday kelgan:

يِشْتُكْلِكْ إِناسِي قُويُنْ اجارْ

Yitÿklig anasï qoyun achar

Narsasini yo‘qotgan (odam) onasining qo‘ynini ham ochib qaraydi. Ya’ni narsa yo‘qotgan kishi bunga haqli, bunda uzrli, demakdir.

يِتِكْ y i t i g – o‘tkir, qayralgan. يِتِكْ بجاكْ yitig bichäk – o‘tkir pichoq: qilich va qilichga o‘xshash o‘tkir narsalarning hammasiga ham bu so‘z qo‘llanadi.

يِتِكْ y e t i k: يِتِكْ اَرْ yetik er – yetuk odam, ishlarni o‘rniga qo‘yadigan kishi.

يُرِكْ y ÿ r ä k – yurak. يُرِكْلِكْ yÿräklig – yurakli, botir.

يُرُكْ y ö p ÿ k – yo‘yish, ta’bir. تُوشْ يُرُكِي tÿsh yöpÿgi – tushni yo‘yish, tush ta’biri.

يُرُكْ y ö r ÿ k: سُوزْ يُرُكِي söz yörÿgi – so‘zning borishi.

---

[74] Maqomga ko‘ra, بل so‘zidagi ل harfiga ق qo‘shilib, بلق shakli paydo bo‘lgandir. Bu ma’noga ko‘ra, arabcha ibora ملحقه bo‘lishi kerak. Lekin matnda محلقته shaklida yanglish berilgan. Yanglish berilganiga doir B.Atalayda ishorat ham bor (Qarang: III jild. 13-b).

يِرُكْ y i p ÿ k: يِرُكْ اِشْلارْ yirÿk eshlar – yirik xotin.

يِرُكْ y i r ÿ k: يِرُكْ نانكْ – uzunasiga yorilib bo‘lingan, shuning uchun go‘zalligini yo‘qotgan har bir narsa.

يِرُكْ y i r ÿ k – kemtik, labi siniq narsa.

يُزُكْ y ÿ z ÿ k – uzuk.

يِزاكْ y i z ä g – askarning oldinda boradigan qismi.

يَنِكْ y e n i k – yengil.

ل *(l)*

يَسُلْ y a s u l: يَسُلْ تاغْ yasul tag‘ – baland tog‘. Har bir baland va chuqur narsaga ham يَسُلْ *yasul* deyiladi.

يَشِلْ y a s h ï l – har bir yashil-ko‘k narsa. Juda to‘q yashilga ham يَبْ يَشِلْ *yap-yashïl* deyiladi. Ergash so‘z bilan يَشِلْ يُشِلْ *yashïl-yushïl* ham deyiladi.

م *(m)*

يَزِمْ y a z ï m – o‘rin, to‘shak. **(453)** تُولُكْ يَزِمْ tÿlÿg yazïm – yung to‘shak. Bu asosli so‘z emasdir.

يَرِمْ y a r ï m – yarim. يَرِمي اَلْمِلا almïla yarïmï – olmaning yarimi. Boshqa narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

يَرِمْ y a r ï m – ikkiga ayrilgan har bir narsaning har qaysi bo‘-lagi. يَرِمي بُتِقْ Butïq yarïmï – butog‘ yarmi. Buning asli *yorilmoq*dir.

يِشِمْ y i sh i m – sovuqda ikki oyoqqa o‘raladigan pocha.

يِغِمْ y ï g‘ ï m: يِغِمْ تُبْراقْ yïg‘ïm topraq – yig‘ilgan tuproq. ن – n م – m ga almashgandir.

يَلِمْ y a l ï m: يَلِمْ قَيا yalïm qaja – pishiq qattiq tog‘, tepa. Maqolda shunday kelgan

تَلِمْ سُوزُكْ اُقْسا بُلْماسْ يَلِمْ قَيا يُقْسا بُلْماسْ

Telim sözyg uqsa bolmas, yalïm qaja yïqsa bolmas

Ko‘p so‘zni tushunib bo‘lmaydi, qattiq toshni yiqitib (sindirib) bo‘lmaydi. Bu maqol so‘zni cho‘zmaslikka undab aytiladi.

يَلِمْ y e l i m – tuk va shunga o‘xshash narsalarni yopishtirishga ishlatiladigan yelim. Baliq yelimiga يَرُقْ يَلِمْ *yaruq yelim* deyiladi.

بَين b a y ï n – to‘q qizil. *Kelinchak guli* deyilgan gul rangidagi har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi[75]. Maqolda shunday kelgan:

قِلْنو بِلْسا قِزِلْ كَذارْ يِرانو بِلْسا يَشِلْ كَذارْ

Qïlnu bilsä, qïzil kezär, yapany bilsä, yashïl kezär

Xotin noz-u karashmani bilsa, qizil rang ipakli kiyadi, yoqishni bilsa, ko‘k ipakli kiyadi, ya’ni er hurmatiga sazovor bo‘lgan kiyim kiyinadi.

يَتَنْ y a t a n – yog‘ochdan yasalgan o‘q otar yoy, kamalak.

يَتَنْ y a t a n – paxtani, yungni titadigan yoy.

يَرِنْ y a r ï n – kift suyagi. Turklarda shunday bir naql bor:

يَرِنْ بُلْغِنْسا ايِلْ بُلْغَنُورْ

Yarïn bulg‘ansa, el bulg‘anur

Kift suyagiga kulfat yetsa, mamlakatga kulfat yetadi[76].

يُرُنْ y u r u n – ipak kiyimlik. يُرُنْ يُقا *yurun yÿqa* deyilishi ham shundan[77].

يَشِنْ y a sh ï n – chaqmoq. Turklarda shunday hikmat bor:

كِمِنكْ بِلا قاشْ بُلْسا يَشِنْ يَقْماسْ

Kimiŋ bilä qash bolsa, yashïn yaqmas

Qosh toshi (u bir oq, tiniq toshdir, odamlar uni uzukka ko‘z qilib taqadilar) kimda bo‘lsa, unga chaqmoq zarar bermaydi.

---

[75] Bu yerdagi maqol بَين *bajïn* so‘zi uchun keltirilgani holda maqolda بَين *bajin* so‘zi yo‘qligi biror xatodan darak beradi. Haqiqatda *qizil* so‘zi arabcha tarjimada yo‘q. Arabchada sarig‘ rang haqida gap boradi. Shuning uchun maqoldagi قِزِلْ so‘zi yoniga aniqsizlik belgisi qo‘yilgani, bu so‘z bu yerga xato tushganligini bildiradi. Bu yerdagi arabcha ibora هُوَ كُلُّ عَلىَ لَوْني الشَّقَايِقْ ning to‘mtoqligi haqida Basim Atalay وِ هُوَ كُلُّ شَيْء عَلىَ لَوْني الشَّقَايِقْ qilib to‘g‘ri tuzatish kiritgan.

[76] Bu maqoldan kutilgan maqsad haqida Mahmud Koshg‘ariy izoh bermagan. Basim Atalayning bu haqdagi izohiga ko‘ra, ilgarilar hayvonlarning orqa suyagiga qarab fol boqilar, so‘ngakda ko‘ringan narsalarga qarab fikr yuritilar ekan. Bu maqol ana shunga ishorat.

[77] يُرُنْ يُقا *yyryn yyqa* iborasi Mahmud Koshg‘ariy jildonidan izohlanmagan. يُرُنْ يُقا *yypyn yaqa* – ipakli yoqa emasmikin, degan Basim Atalay izohi ehtimolga yaqindir.

Chunki u toshning tabiati shunday. Hattoki, **(454)** u toshni bo‘zga o‘rab o‘tga tashlansa, bo‘z ham, tosh ham kuymaydi. Bu sinalgandir. Tashna odam og‘ziga qo‘ysa, tashnalikdan qutuladi.

يِغْن y ï g‘ ï n: يِغْن تُبْراقْ yïg‘ïn topraq – tuproq yig‘ini. Boshqasi ham shunday.

يَقِنْ y a q ï n – yaqin. يَقِنْ يِيرْ yaqïn yer – yaqin joy.

يَقِنْ y a q ï n: يَقِنْ اَرْ yaqïn er – do‘stlardan yaqini. She’rda shunday kelgan:

[XVI]

يَقِنْ يَغُقْ كُرْمَذِبْ نانكْنى كُذُورْ
قِذِشْ تِبا اِتْ كِبِي قِينكُرُو بَقارْ

Yaqïn yag‘uq körmäzib neŋnï közÿr
Każash taba ït kibi qïŋru baqar.

Odamlar orasidagi vafosizlikni ta’riflab shunday deydi: Odamlar yaqinlarini, birodarlarini hurmat qilmaydilar. Molu dunyoga ahamiyat berib, so‘ngakni (o‘zidan) boshqadan qizg‘angan it kabi o‘z birodarlariga yomon ko‘z bilan qaraydilar.

يِكَنْ y i k ä n – bir xil o‘simlik, undan o‘rovga (devor kabi o‘rab bekitishga) foydalanadilar.

يَلِنْ y a l ï n – yalin, yallig‘. اُوتْ يَلِنِي ot yalïnï[78] – olov yallig‘i.

يُلِنْ y y l y n – bo‘yin so‘ngagi ichidagi oq ilik, harom mag‘iz.

يِلِنْ y e l i n – baytal yelini. Shuningdek, har bir sohib changal (timoqli) hayvon yeliniga ham bu so‘z qo‘llanadi.

O‘rtasi harakatli so‘zlarning boshqa bir turi

غْ (g‘)

يِيغْ y a y ï g‘: يَيغْ كِشِي yayïg‘ kishi – hardamxayol odam.

---

[78] Hozirgi o‘zbek tilidagi *yallug‘, yallug‘lamaq* so‘zlari ana shu o‘zakdan yasalgan so‘zlar bo‘lib, juda faol qo‘llansa, *yolin* shakli juda kam, faqat adabiy asarlarda uchraydi. Ba’zan bu so‘zning ekvivalenti sifatida *yolqin* so‘zi ham qo‘llanadi. Navoiy asarlarida bu so‘z tez-tez uchraydi:

Kuyuk tang‘a *yolin* urmak ne erdi.
Mamuq uzra chaqin urmak ne erdi.

ق *(q)*

يَيْقْ y a y i q: يَيْقْ كِشي yayiq kishi – bu so‘z ham avvalgi ma’noda. Bu so‘z ham بِشغْ اَتْ bishig‘ et, بِشِقْ اَتْ bïshïg‘ et – *pishgan go‘sht* kabi (*g‘* va *q* li) variantlarga egadir.

يم y i m[79] – bir xil o‘simlik urug‘i. U kunjut donasi kabidir. Lekin undan qizilroq bo‘ladi. Yog‘idan chiroqqa foydalaniladi.

OXIRIDA UNLILAR BO‘LGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI*

يَبا y a b a – har bir nam va rutubatli narsa (o‘g‘uzcha).

يَبي y a b ï – egar ustiga qo‘yiladigan yastiq ko‘rpacha (chigilcha).

ر *(r)*

يَرُو يِلِمْ يَرُو yarÿ yelim yanÿ – baliq tarog‘i.

يُرا y y p a – har narsaning atrofi (o‘g‘uzcha).

ز *(z)*

يَزي y a z ï – bo‘shlik, ochiqlik.

س *(s)*

يَسي y a s ï – yassi. يَسي نانكْ yasï neŋ – yassi, keng narsa.

غ *(g‘)*

يَغي y a g ‘ ï – dushman.

ڤ *(w)*

يَڤا y a w a – o‘g‘uzlarning bir qabilasi. Bu so‘zning و– v bilan يوا java. ا – *a* bilan اَڤا *awa* || *ïwa* shaklida talaffuzi ham bor.

يَفا y a f a – tikanli o‘simlik.

يَفا y a f a: يَفا يِرْ yafa *yep* – sovuqdan saqlangan yer.

ق *(q)*

يَقا y a q a – yoqa.

يَقى Y a q ï: يَقى يُقى اَرْ Yaqï Yyqï er — laganbardorlik qiluvchi odam.

يَقُو Y a q ÿ – yomg‘irli joy. Bu so‘zning asli ياغْقُو *yag‘qu* edi, yengillatilgandir[80].

---

[79] Bu so‘z Basim Atalay izohiga ko‘ra, yozma va bosma nusxalarda يم yim shaklida bo‘lishi xato bo‘lib, يِتِمْ *yitim* bo‘lishi kerak emish. Chunki bu so‘z hozir ham kuzau qabilasi tilida يِتِنْ yitin tarzida qo‘llanar ekan (Qarang: III jild. 24-b). Bizningcha, yozma nusxadagi shaklni xato deb hisoblash uchun Basim Atalay dalili yetarli emas. Chunki qadimgi so‘zlarni hozirgi qo‘llanishga asoslanib tuzatishga qo‘shilib bo‘lmaydi.

* Arabcha matnda *min al-matviyy.*

ك (g)

يكي y i g i : يكي يغاچ yigi yïg'ach – yog'ochlari bir-biriga o'ralishib ketgan (455) ko'p daraxt. Ba'zan ـكـ *k* tushirilib, يى يغاچ *yi yig'ach* shaklida ham talaffuz qilinadi. يكي تيشْ yigi tïsh – *zich tish,* demakdir. تُونْ يكي تك ton yigi tik – to'nni zich qilib, tutashtirib, pishiq, qilib tik. Tikishga يى *yï* deyiladi. Buning asli يكى *yigi*dir.

ل *(l)*

يَلا y a l a – tuhmat. Birov haqida yomon fikrda bo'lish.

Bir xil qat-qat nonga يُغا يَلاجي *yalachï yyg'a* deyiladi. Ya'ni nozikligidan bir narsaga sal tegishi bilan ushalib ketadigan non, demakdir. Non yopuvchi *buni sen sindirding* deb odamga tuhmat qiladi.

يُلا yÿla – chiroq, qandil. She'rda shunday kelgan:

[XVII]

تَكْما ايقتْ اَشْقا كُرُبْ تُرْغِلْ اَلا
جَقْمَقْ جَقِبْ ايڤسا قَلى اُدِنُورْ يُلا

Tegma ïwät ashqa körÿb turg'ïl ala
Chaqmaq chaqïb iwcä qalï uzinur *yÿla.*

Ishga shoshib kirishma, uning kirish joyiga diqqat qil, ehtiyot bo'l, shoshilib chaqmoq chaqib chiroq yondirmoqchi bo'lgan kishining shoshishidan chiroq o'chadi.

يَلُو y a l ÿ – toychalarni bog'laydigan arqon. Biyalarni sog'ishda toychalar biya atrofida o'tlab turishiga moslab, bir arqonga bog'lanadi.

م *(m)*

يَمُو y e m ÿ – so'zimni qabul qildingmi, buyurganimni qilishga tushundingmi degan ma'nodagi so'zdir. سَنْ بَرْغِلْ يَمُو cen bapg'ïl yemÿ gapining ma'nosi *sen bor, xo'pmi* demakdir. Buning asli يَهْ *je – xo'p*dir. م – *m* va و – *ÿ* harflaridan tashkil topgan مو *-mÿ* so'roq affiksidir.

ن *(n)*

يِنا y a n a – yana, ikkinchi marta. يَنا كَلْدي yana keldi – *yana, ikkinchi marta keldi* kabi.

---

[80] Bu izohda Mahmud Koshg'ariyning so'zlardagi ikki variantlik sabablaridan biri ataylab yengillatish degan qarashda ekani ma'lum bo'ladi. Lekin uning qarashida ikki variantlik sabablari yolg'iz shugina emas. Ular ko'p. Ular haqida o'z joyida uqtirgan.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ي *(y)*

يَيا y a y a – dumba, faqat inson dumbasiga nisbatan qo‘llanadi.

و *(v)*

يَوا y a v a – uning suvi bilan tutmochga rang beriladigan bir xil tikanli o‘simlik (طرثوث). Yumshoq ڤ bilan يڤا *yawa* varianti ham bor.

يَوا yava – bu so‘z o‘g‘uzlarning bir qabilasida يڤا *yawa* shaklida qo‘llanadi. Shuningdek, o‘g‘uzlarda issiq yer – يڤا يِيرْ *yawa yer* deyiliad. Yuqorida aytganim kabi و harfi yumshoq ڤ ga almashadi.

فَعْلَلْ shaklidagi so‘zlar

ت *(t)*

يَتّي y e t t i[81] – yetti. يَتّي قَتْ كُوكْ yetti *(456)* qat kök – *yetti qat ko‘k* degandagi kabi.

فَوْعَل *fav’alin* shaklidagi so‘zlar

يُولِجْ y u l ï ch[82] – echkining mayin yungi, tivit.

غ *(g‘)*

يُغا y u g‘ a[83] – qat-qat non.

يَيْغُقْ jajg‘uq – baytal emchaklarining uchi. Ba’zilari يَزْغُقْ *yazg‘uq* deydilar (qipchoqcha).

---

[81] يَتي *yetti* so‘zining arabcha يَتى shaklda bo‘lishi xatodir. يَتّي bo‘lishi kerak edi. Bu bobga shundagina muvofiq bo‘ladi.

[82] *Yulïch* so‘zi jowlïch bo‘lishi kerakligi haqida Basim Atalay izoh bergan. Bizning fikrimizcha, bu izohga hojat yo‘q. *Yulïch* shakli ham فعلْ o‘lchoviga mos kela beradi. *Fa’al* o‘lchovi ikki bo‘g‘inli so‘zdir; *yulïch* ham ikki bo‘g‘inlidir.

[83] يُوغا *yug‘a* so‘zi ham bu bobga mos kelmasligini Basim Atalay ko‘rsatgan. Bizningcha, bu ham yuqorida aytganimizdek, bo‘g‘in hisobi jihatidan mosdir (Qarang: “Devon…”ning turkcha tarjimasi, III jild. 27-b).

ت *(t)*

يَنُوتْ y a n ÿ t – javob. سُوزْ يَنُوتي söz yanutï – so'zning javobi.

يَنُوتْ y a n ÿ t – o'rinma-o'rin, baho.

ج *(ch)*

يِغاچْ y ï g' a ch – yog'och. To'rt tilda يغج varianti ham bor.

ر *(r)*

يِپارْ yïpar – ipor, mushk (qattiq *b* – *p* bilan).

يُلارْ y u l a r – otning yugani.

يَمارْ y a m a r – joy nomi. Yabaqu dashtida katta bir suv oqadi, uni يَمارْ سُوڤى *yamap cywï* deydilar.

غ *(g')*

يَدَغْ y a d a g' – yayov.

يَراغْ y a r a g' – kez, vaqt, payt. اِيشْ يَراغي ïsh yapag'ï – ishning payti, xonasi[84]. Bu so'zning varianti ham bor.

يَماغْ y a m a g' – yamoq. Maqolda shunday kelgan:

بَرْچِنْ يَماغي بَرْچِنْقا قَرِشْ يَماغي قَرِشْقا

Barchïn yamag'ï barchïnqa, qarïsh yamag'ï qarïshqa

Ipaklikka ipaklik yamoq munosib bo'lsa, yungga yung yamoq loyiqdir. Bu maqol har narca o'ziga munosib bo'lishi kerak, degan ma'noda qo'llanadi.

ق *(q)*

يِراقْ yïraq – iroq, uzoq. يِراقْ يِرْ yïraq yer – iroq yer. Qarindoshlardan uzog'iga va boshqalarga ham qo'llanadi. She'rda shunday kelgan:

[XVIII]

أُغْرِغِمْ كَنْدُو يِراقْ
بُلْنَدي مانى قَراقْ

Og'rag'ïm kendÿ *yïraq*
Bulnadï meni qaraq.

Maqsadim uzoq edi, seviklimning qora ko'zi meni asir qilib yo'ldan qaytarib qo'ydi.

---

[84] اِيشْ يَراغي – ïsh yapag'ï: أُنْظُرْ فُرْسَةَ اَلْلامر و جِهَتِهْ

يَغاقْ y a g‘ a q – yong‘oq.

يَغُوقْ y a g‘ u q – yaqin. يَغُوقْ يِيرْ yag‘uq yep – yaqin yer. Qarindoshlarga يَقْ يَغُوقْ *yaq yag‘uq* deyish ham shundandir.

يُناقْ y o n a q – eshak, ho‘kiz va shunga o‘xshash yuk ortiladigan hayvonlarning yuk ostiga qo‘yiladigan to‘qimlari.

ك(g)

يِماكْ yemek – turklarning bir xili. Bizning nazarimizda, ular qipchoqlardir. Lekin qipchoqlar o‘zlarini boshqa toifadan deb hisoblaydilar[85].

ن *(n)*

يَغانْ y a g‘ a n – fil. Ikki tilning birida. Shuning uchun odam nomi sifatida يَغانْ تِكِينْ *yag‘an tegin* so‘zi qo‘llanadi.

يُغُونْ y o g‘ u n – **(457)** har bir yo‘g‘on narsa.

يِلانْ y ï l a n – ilon. أَقْ يِلانْ oq yïlan – o‘zini odam va boshqalarga otadigan ilon.

يِلانْ يِلِي y ï l a n y ï l ï – turkcha o‘n ikki yil nomlaridan biri.

يِمانْ y a m a n – yomon (har narsaning yomoni) يَمانْ اِيكْ yaman ig – yomon kasallik.

فَعَلَ FA’LA *SHAKLIDAGI O‘RTASI SUKUNLI SO‘ZLAR BO‘LIMI*

ب *(p)*

يَلْبِي y a l p ï – yassi, yalpoq يَلْبِي نانْكْ yalpï neŋ – yog‘ochdan o‘yilib yasalgan, yuzasi lagan kabi yassi narsa.

ت *(t)*

يَرْتُو y a p t y – payraxa. Shunga qiyos qilib ustiga (bir narsa) yoziladigan taxtaga ham يَرْتُو *yapty* deyiladi.

ج *(j)*

يَرْجُو y e p ch y – go‘p.

يُرْجِي y o p c h ï – hunarmand, yo‘l ko‘rsatuvchi.

يِنْجُو y ï n j y – inju, dur. Kanizaklarga يِنْجُو *yïnjy* deyish ham shundan. Maqolda shunday kelgan:

---

[85] Mahmud Koshg‘ariyning bu izohi ayrim qabilalar haqida olimlar, tarixchilar orasida turli qarashlar ham bor bo‘lganidan dalolat beradi. Bu xil qaydlar Mahmud Koshg‘ariyning har bir so‘z izohiga mas’uliyat bilan yondashgani, uning izohlari to‘la ilmiy asosda ekanini ochib berish jihatidan juda muhimdir.

أوتلك پنجو پيرْدا قلماسْ
Ötlÿg *yïnjy* yerdä qalmas

Teshilgan dur yerda qolmaydi, uni bir oladigan chiqadi.

Bu maqol kanizaklar qizligicha uzoq qolib ketmaydi, unga bir uylanadigan odam topiladi degan ma'noda qo'llanadi. O'g'uz va qipchoqlar يـ ni جـ ga almashtirib, جِنْجُو *jïnjÿ* shaklida qo'llaydilar.

يُغْدُو y o g'd ÿ – tuyalarning jag' ostidagi uzun tuklari.

يِكْدا y *i* g d ä – jiyda.

يَمْدُو y a m d ÿ – son tuki (mo'yi).

يِنْدي y u n dï – yuvyndi.

ر *(r)*

يَيْرِي y a p p ï – يَيْرِي پيرْ yappï yer – yassi va to'g'ri yer.

يَيْرِي y a p p ï: يَيْرِي قُلاقْ yappï qulaq – shalpangquloq.

يَشْرُو y a s h p ÿ – yashirin. كَلْدي اُل يَشْرُو ol yashru keldï – y yashirin keldi. يَشْرُو ايشْ yashru ïsh – yashirin ish.

يُغْرُو y u g' p ÿ – tuyaning uzun mo'ylari. Ba'zan bu so'zni يُغْرُى *yÿg'ry* tarzida ham qo'llaydilar. Bu so'zdagi ر – *r* harfi د – *d* harfi bilan almashgandir. Arab tilida bu xususiyat bor. عُكَرَةٌ va عُكَدَةٌ deyilgani kabi.

يَغْرُو y a g' r u – atrof, yaqinlik. اُلْ اَنكَرْ يَغْرُو يُرِيماسْ o'l anar jag'pÿ jypïmas – u uning atrofiga, yaqiniga bormaydi. Bu so'zning asli ق– *q* bilan, يَقْرُو yaqru edi. غ– *g'* bilan ق– *q* bir-biriga yaqin tovushlar bo'lgani uchun غ– *g'* ni ق– *q* ga almashtirgan. Bu xususiyat arab tiliga yaqindir. يَقْرُبُ *yaqrubu* so'zi يَقْرُو *yaqpÿ* shaklida ham qo'llanishi kabi. Bu so'zda ب– *b*, و– *v* ga almashgan.

يُغْرِي y o g' p ï – lagan. Maqolda shunday kelgan:

اَشْتَتِغي تُوزْ يُغْرِينْ پيماسْ

Ash tatïg'ï tuz yog'pïn yemäs

Osh tuz bilan **(458)** totli, lekin lagan bilan yolg'iz tuzning o'zi yeyilmaydi. Bu maqol ishlarda aniq maqsadli bo'lishga undab aytiladi.

يَقْرِي y a q r ï – ich yog'i. Baytda* shunday kelgan:

[XIX]

بِشْرِلُورْ يَقْرِي قِياقْ
تَشْغُرْ يُغْرِي جِناقْ

---

* Olmaota nashrida *maqol* deb berilgan. Asl matnda *she'r* so'zi uchramagani uchun biz bayt deb berdik (H.B.)

Ich yog‘i, sardaklar pishirilib, tog‘ora, kosalar to‘lg‘aziladi.

ش (sh)

يَخْشي y a x sh ï – yaxshi. Har narsaning yaxshisi. يَخْشي نانك yaxshï neŋ – yaxshi narsa, يَخْشي اِيْش yaxshï ïsh – yaxshi ish.

يَرْشي y a r s h ï – bir narsani yarimga bo‘luvchining nomi. اَنِكْ يَرْشي سى بُو aniŋ yapshïcï bu – uni yarimga bo‘luvchi budir. اُلْ مَنِكْ بِرْلا تامْ يَرْشي o‘l maning birla tam yapshï – u men bilan devor bo‘luvchi qo‘shni (uylarimiz orasida devor bor, xolos) demakdir.

غ (g‘)

يَفْغُو y a f g‘ u – xalqdan bo‘lib, xoqondan ikki daraja past o‘rinda bo‘lgan odam.

يَفْغُو y a f g‘ u – Borsag‘on shahri yaqinidagi bir shaharning nomi. Yafg‘uga yaqin bir tepalik يَفْغُو اَرْتْ *yafg‘u art* deyiladi.

يُفْغا y u f g‘ a – asrandi bola.

يَلْغا y a l g‘ a: قَرا يَلْغا qara yalg‘a – Turk diyori bilan Farg‘ona orasidagi yaqin borib bo‘lmaydigan jarlik. Maqolda shunday kelgan:

قَرا مونك كَلْمَكُنْجا قِرا يَلْغا كَجْما

Qara muŋ kelmäginchä qara yalg‘a kechmä

Xatarli kun kelmaguncha, zinhor qora jilg‘adan o‘tma, chunki u yer hech vaqt qori arimaydigan mushkul joydir.

يَلْغُو y a l g‘ u – shafqatsiz, muruvvatsiz olchoq odam (o‘g‘uzcha).

ۋ (w)

يَلْڤى y a l w ï – sehrlash, يَلْڤِيجِي yalwï sehrlovchi. Baytda shunday aytilgan:

[XX]

يَلْڤَنْ اَنِكْ كُوزِي
يَلْكِنْ اَنِكْ اُوزِي
تُولُنْ اَينْ يُوزِي
يَرْدِي مَنِنكْ يُوراكْ

Yalwïn anïŋ közi
Yelkin anïŋ özi
Yolun ajïn yÿzi
Yardï meniŋ yÿräk.

Sevgilisini maqtab shunday yozadi: uning ko‘zi kishi (ko‘nglini) ovlaydigan sehrgardir. O‘zi musofirdir, yuzi to‘lin oydir. Qarash bilan u meni otib, yuragimni yordi.

ق *(q)*

يُقا y u w q a – yupqa, har bir yupqa narsa. Maqolda shunday kelgan

اَناسی تَقْلُكْ يُقا يَپارْ. اُغْلی تَتِكْ قُشا قَبارْ

Anacï tewlÿk yywqa yapar, og‘lï tätik qosha qapar

Onasi hiyla qilib yupqa non yopsa, bolasi ziyraklik qilib qo‘sha-qo‘sha (ikkita-ikkitadan) og‘ziga soladi. Bu maqol **(459)** ikki hushyor kishi qarshiligi teng kelishiga ishorat qilib aytiladi.

يُبْقا y u p q a – yupqa. Bu so‘zning *f* lik varianti ham bor. ب harfi ف ga almashadi. Bu xususiyat arabchada ham bor. Chunonchi: اُسْرُفْ، اُسْرُبْ yusruf – yusrub (grafit), مَصْطَفَةٌ مَصْطَبَةٌ mastaba – mastafa (o‘rindiq), forscha پانِيذْ *banid* arabchalashtirilib فانِيذْ *fanid* bo‘lib keladi*.

يِلْقِي y ï l q ï – to‘rt oyoqli hayvonlarga berilgan turdosh ism.

م *(m)*

يِرْما y a r m a: يَرْما يُغا yarma yug‘a – bir xil qatlama. Uzunasiga yorilgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

يَغْما y a g‘ m a – turkiy xalqlarning bir toifasi. Ularni قَرا يُغْما *qara yag‘ma* deb ham ataydilar.

يَغْما y a g‘ m a – Taroz yaqinidagi bir qishloq. Bu so‘zning asli avvalgi so‘zdandir.

يَلْما y a l m a – paxtali to‘n, forslar buni turkiy xalqlardan olib يَلْما yalma shaklida ham talaffuz qiladilar. Arablar forslardan olib يَلْماقْ *yalmaq* shaklida qo‘llaydilar. Arablar ق – *q* ni ه – *h* ga aylantirganlar. Chunonchi: كَنْدَه *kanda*ni خَنْدَقْ xandaq, يارَه *yara*ni

---

* S.Mutallibov tarjimasida arabcha so‘zlar arab yozuvida berilgan. Ularning o‘qilishi va tarjimasi biz tomonimizdan qo‘shildi (H.B.)

يارَقٌ *yaraq* qilib olganlar. Arab shoirlaridan ذُو الرُّمةَ: كَأنَّهُ مُتَصبّي يَلْمَقٍ عَرَبُ degan edi.

Hech kim bu so‘zni turklar forslardan olganlar deb da’vo qila olmaydi. Chunki men bu so‘zni eng qirg‘oq chegaralarda yashovchi oddiy turk xalqlaridan ham eshitganman. Bular boshqa xalqlardan ko‘ra, bu xil yomg‘ir yopinchig‘iga muhtojroqdirlar. Chunki bularning yurtlarida qor, yomg‘ir ko‘pdir.

ن (n)

يَزْنا y ä z n ä – yazna, katta qiz qardoshning eri.

يِگْنا y i g n ä – nina. Katta nina juvoldizni تَمَنْ يِگْنا *temän yignä* deyiladi.

Bu bo‘limning matviy qismi

غ (g‘)

يُمْغى y ÿ m g‘ ï – to‘plangan, uyulgan. يُمْغي نانكْ yymg‘ï neŋ – uyulgan ko‘p narsa. كِشي يُمْغي كَلْدي kishi yymg‘ï keldi – odamlar to‘planib kelishdi.

فَعالي *faoli* shaklidagi so‘zlarning har qanday harakatlar bilan qo‘llangan shakllari

چ (ch)

يلاجي y a l a ch ï: اَرْ يلاجي yalachï er – har narsada odamlarga darrov tuhmat qiluvchi, badgumon odam. Bir xil qatlamaga يلاجي يُوغا *yalachï yÿg‘a* deyish ham shundandir. Chunki u biror narsaga salgina tegishi bilanoq ushalib, sinib ketadi.

غ (g‘)

يُباغُو y u p a g‘ u: ايشْ يُباغُو yupag‘u ïsh[86] – bilmaslikka solib ketilishi kerak bo‘lgan ish.

يُريغُو پيرْ y u r ï g‘ u yer– yuriladigan yer. Bu so‘z joy ismi (sifatdosh)dir. Payt ismi funksiyasida ham shu forma qo‘llanadi.

پراغُو y ï r a g‘ u – cholg‘uvchi, ashulachi. **(460)**

يَشاغُو y a s h a g‘ u – yashaydigan. بُو اَرْ اُلْ اُزُونْ يَشاغُو bu er o‘l uzun yashag‘u – bu odam uzoq-uzoq yashashga haqlidir. Joy ismi, payt ismi ham shunday.

---

[86] Basim Atalay يَباغُو *yupag‘u* so‘zi yozma nusxada بُياغُو *byyag‘y* ekani haqida ancha keng izoh bergan (Qarang: III jild. 36-b). Bizning يُباغُو *yupag‘u* shakli to‘g‘ri ekanligiga eng asosli dalilimiz shu o‘zakdan yasalgan *yupamaq, yupalmak* kabi juda ko‘p so‘zlarning har yerda shu shaklda ekanligidir.

يَماغُو y a m a g‘ u – yamaladigan. بُو تُونْ اُلْ يَماغُو bu ton o‘l jamag‘u – bu to‘n yamaladigan, yamalishi kerak bo‘lgan to‘ndir.

ق *(q)*

يَباقُو y a b a q u – bir toifa turkiy xalqlar.

يَباقُو y a b a q u – yungdan ishlangan namat. Bosh tuklari chigallashib o‘ralishib ketsa, يَباقُ بُلْدِي *yabaqu bo‘ldi* deyiladi.

يِباقُو y a b a q u: يَباقُو سُقي yabaqu cywï – Qashqar tog‘laridan chiqib, O‘zgand va Farg‘onaga oqadigan suv.

گ(g)

يُلاگُو y ÿ l ä g ÿ: يُلاگُو نانگْ yÿlägÿ neŋ – suyanadigan narsa, suyanchiq.

يِيگُو y e n ï g ÿ – tug‘adigan. بُو اُراغْتْ اُلْ يِيگُو bu ypag‘ut o‘l yenïgÿ – bu xotin tug‘adigan, tug‘ish arafasidagi xotindir.

TURLI UNLI TOVUSHLAR BILAN QO‘LLANGAN *FA’LON* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR

ج *(ch)*

يَنْجَنْ y a p c y h a n – yavshan o‘ti. Uning hidi bilan yovvoyi sichqonlarni ovlaydilar. Bu so‘zni ڤ bilan يَڤْجَانْ*jawchan* varianti ham bor. ب ning ڤ ga aylanishi haqidagi qoida yuqorida aytilgan.

يِمْشَنْ y ï m s h a n – qipchoq shaharlarida bitadigan bir sahro mevasi.

غ *(g‘)*

يَڤْغَانْ y a w g‘ a n: يَڤْغَانْ اَشْ jawg‘an ash – yovg‘on osh, go‘shtsiz ovqat.

يَلْغَانْ y a l g‘ a n – yolg‘on, yolg‘onlash. Bu so‘z ba’zan aniqlovchi funksiyasida ham qo‘llanadi. Chunonchi: يَلْغَانْ كِشِي yalg‘an kishi – yolg‘onchi kishi, يَلْغَانْ سُوزْ yalg‘an söz – *noto‘g‘ri gap* kabi.

يِلْغُونْ y ï l g‘ u n – yulg‘un, yulg‘un daraxti.

ك (k)

يِنْكِينْ y e p k i n: يِنْكِينْ نانكْ yepkin neŋ – to‘q qizil arg‘uvon rangidagi narsa.

يَلْكِنْ y e l k i n: يَلْكِنْ اَتْلِغْ yelkin atlïg‘ – otliq musofir. O‘g‘uzlar musofirni اَلْكِنْ *elkin* deydilar, ular ى harfini الف ga almashtiradilar.

ل *(l)*

يَمْلَانْ y a m l a n – bir xil kemiruvchi jonivor.

فَعِيلَانْ *FAILON* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI

يِتِيكَانْ y e t i k ä n – yetti qaroqchi yulduzi.

م *(m)*

يَسِيمَانْ y a s ï m a n – suv bo‘shatilganda, idishdan qulqullab chiqadigan ovoz.

يِلِيمَانْ y a l ï m a n – ochiq-sochiq g‘animatlar.

فَعْلِي *FA’ANLI* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI

يُنْدِي y o n ï n d ï – yo‘nilgan, talangan.

Uch harflilar bo‘limi va unga qo‘shilganlar tugadi.

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَلٍ، فَعْلَلٍ *fa’alal, fa’lol* shakllaridagi so‘zlar

ت *(t)*

يَبْغُتْ y a b g‘ u t – yung, qil bilan to‘ldirilgan to‘shak va shunga o‘xshash narsalar.

چ *(ch)*

يَبْتَجْ y a p t a c h – yomg‘irdan, qordan saqlanish uchun cho‘ponlar yopinadigan yopinchiq.

يَبْغُجْ y a p g‘ u c h – eshak va boshqa hayvonlarni haydashda ishlatiladigan hivich, cho‘p.

يَسْغاجْ y a s g‘ a c h – uvra taxta. Bu so‘zning asli يَسي يِغاجْ yasï yïg‘ach, ya’ni *yassi yog‘och, enli taxta*dir.

ر *(r)*

يَغْمُرْ y a g‘ m u r – yomg‘ir. Bu so‘zning يَمْغُرْ *yamg‘ur* varianti ham bor. Maqolda shunday kelgan

نجاما اُبْرُقْ كَذُكْ اَرْسا يَغْمُرْقا يَراْرْ

Nechätä oppaq kezÿk ersä yag‘murqa yapap

Kiyim qancha eski bo‘lsa ham, yomg‘irga yaraydi.

Bu maqol o‘z qaramog‘idagilardan birining ahmoqligi, qo‘polligi yoki zaifligi uchun uni o‘zidan chetlatmoq istagan kishiga qarata aytiladi: har qancha kamchiligi bo‘lsa ham, bir xizmatingga yarab qoladi, undan ishda foydalanib, xursand bo‘lasan, demakdir. She’rda shunday kelgan:

[XXI]

قُيْدي بُلُتْ يَغْمُرِنْ
كَرِبْ تُتارْ اَقْ تُرِيِنْ
قِرْقا قُذْتي اُلْ قَرِنْ
اَقِنْ اَقَرْ اَنْكَرْشُورْ

Quydï bulut *yag‘murïn*
Kerib tutar aq torïn
Qïrqa qoztï o‘l qarïn
Aqïn aqar aŋrashur.

Bulut oq to‘rini yoyib, osmonga yomg‘irini quydi. Qorlarini u tog‘larga tashladi. Tog‘dan hayqirib sel oqayotir.

ز *(z)*

يَرْبُزْ y a r b ÿ z – bir xil xushbo‘y o‘t – o‘simlik.

يَرْبُزْ y a r b ÿ z – ilonni o‘ldiradigan bir hayvon. Maqolda shunday kelgan:

يِلانْ يَرْبُزْدِنْ قِجارْ قَنجا بَرْسا يَرْبُزْ أَتْرُو كَلْرْ

Yïlan yarbuzdïn qachar, qancha barsa yarbuz otru kelÿr.

Ilon doim yarbuzdan qochadi. Ilon qayoqqa qochsa, u qarshisidan chiqadi.

Bu maqol yomon ko‘rgan narsasidan qochsa qutulmay, unga duch keladigan odam haqida aytiladi.

يُلْدُزْ y u l d u z – hamma yulduzlar uchun aytiladigan umumiy nom. So‘ng ular farq qilinib, Mushtariy (Yupiter) yulduzi – اَرْتُوزْ Eräntÿz, Mizon yulduzi – قَرَاقُشْ Qaraqush, Surayyo yulduzi – اُلْكَرْ Ÿlkär, Yetti qaroqchi – يَتِكَن Yetikän, Qutb yulduzi – تَمُرْقَزُقْ Temÿrqazuq, Mirrix yulduzi – بَقِرْسُقِمْ *Baqïrsoqïm* nomlari bilan ataladi.

يِلْدِزْ y ï l d ï z – ildiz. Bu so‘zni o‘xshatish qoidasi asosida odam avlodiga nisbatan ham qo‘llanadi: تُوبْلِكْ يِلْدِزْلِغْ tÿblig yïldïzlïg‘ – *tag-tugli, tag-taxtli odam* kabi.

يُلْسُوزْ y o l s u z – yo‘ldan adashgan odam. Bu so‘zning asli يُولْسُوزْ dir.

ش *(sh)*

يَرْدَشْ y e r d ä s h – hamshahar. يَرْدَشْ كِشِي yerdäsh kishi **(462)** – hamshahar odam. Bu ikki kishining bir shahardan bo‘lishidir. Bir shahardan bo‘lgan ikki kishining har biri bir-biriga يَرْدَشْ yerdäsh bo‘ladi (o‘g‘o‘zcha).

يَرْمَشْ y a r m a sh – yorma. يَرْمَشْ اُونْ yarmash un – mayda un; يَرْمَشْ yarmash – shirach, kraxmal. Bu ikki so‘z bir-biriga zid ma’nodagi so‘zlardandir. Haqiqatda, bu so‘zlarning asli birdir.

يُغْرُشْ y u g‘ r u sh – turklarcha, xalq orasidan chiqib, vazirlik darajasigacha ko‘tarilgan odam. Fors va boshqalarda har qancha katta imkoniyatga ega bo‘lsa ham, bu laqab berilmaydi. *Jug‘rush* xoqondan bir daraja past martabadir. Unga qor, yomg‘ir va issiqdan saqlanish uchun qora ipak chodir (zontik) taqdim etiladi.

غ *(g‘)*

يُنْجِغْ y u n c h ï g‘ – yunchïg‘ ïsh – chiriganligi, buzilganligi uchun qo‘lga olinmaydigan ish.

يُنْجِغْ y u n c h ï g‘: yunchïg‘ er – notavon, zaif, holi xarob odam. She’rda shunday kelgan:

[XXII]

اُذْلُكْءِ اَرِغْ كَفْرَدِي
يُنْجِغْ يَفْزْ تَفْرَدِي
اَرْدَمْ يِما سَفْرَدِى
اَزُنْ بَكِي جِرْتِلُوزْ

Özläk arïg‘ kewrädi
Yunchïg‘ jawyz tewpädi
Erdam yemä sewrädi
Ajun[87] begi chertilÿr.

Zamon ozdi, zaiflar, bemazalar kuchlandi. Zamon ahli (odamlar) Alp Erto‘nganing vafot qilishi bilan fazilatdan mahrum bo‘ldilar.

يُرْتُغْ y o‘ r t u g‘ – jang kunlarida yoki biror yerga borishda shohning atrofida boradigan soqchilar.

يَرْلِغْ y a r l ï g‘ – yo‘qsul, bechora. يَرْلِغْ اَرْ yarlïg‘ er – yorlaqangan (rahm qilingan) odam shundan olingandir.

يَرْلِغْ y a r l ï g‘ – xoqonning xati, farmoni (chigilcha). Buni o‘g‘uzlar bilmaydilar.

يَشْلِغْ y a sh l ï g‘: يَشْلِغْ كُوزْ yashlïg‘ köz – yoshli ko‘z.

يَشْلِغْ y a sh l ï g‘ – yoshlik, katta yosh, qari. يَشْلِغْ اَرْ yashlïg‘ er – katta yoshli odam. Katta yoshli hayvonlarga ham bu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘zning asli ياشْلِغْ *yashlïg‘* dir.

يَمْلِغْ y a m l ï g‘: يَمْلِغْ كُوزْ yamlïg‘ köz – cho‘p tushgan ko‘z. Bu so‘zning asli يامْلِغْ dir.

---

[87] Dunyo ma’nosidagi اَزُنْ so‘zi “Devon...”da juda ko‘p yerda uchraydi. Bu so‘zning ز – *j* bilan yozilishi qoida ekanini Mahmud Koshg‘ariy qat’iy suratda ko‘rsatgan (Qarang: I jild. 44-b). Lekin mumtoz adabiyotda har yerda اَجُنْ *ochun* shaklidagina uchraydi. Lutfiyda ham xuddi shu shaklda berilgan:

Sendek *ochun*da ko‘zlari ayni balo qani,
Mendek aning jafosi bila mubtalo qani.

ق *(q)*

يَتْغاقْ y a p g‘ a q – qush ovlaniladigan bir xil tuzoq.

يَتْغاقْ y a t g‘ a q – xonni, qo‘rg‘onni va shuning kabilarni saqlovchi, muhofaza qiluvchi odam. يَتّى يَتْغاقْ yatg‘aq yattï[88] – *muhofaza qiluvchi odam yotti* kabi.

يُذْرُقْ y u z r u q – kaf, shapaloq. Maqolda shunday kelgan:

ياتْنِكْ ياغْلِغْ تِكُوسِنْداً اُوزْنُكْ قاتْلِغْ يُذْرُقْ يِيكْ

yatnïŋ yag‘lïg‘ tegÿsindä(n) öznÿŋ qanlïg‘ yu z ruq yig

Yotning yog‘liq **(463)** ovqatidan o‘zingga yaqinlarning mushti (shapalog‘i) yaxshi.

Bu maqol yaqin odamlarning oralari buzilganda bir-birlarini kelishtirish uchun qo‘llanadi.

يَرْمَقْ y a r m a q – tanga.

يَسْتِقْ y a s t y q – yostiq.

يَقْلَقْ y a w l a q – yomon, past, jun. يَقْلَقْ كِشِي yawlaq kishi – fe’li yomon odam.

يَقْلاقْ y a w l a q – har narsaning yomoni, tubani (o‘g‘o‘zcha va qipchoqcha). She’rda shunday kelgan:

[XXIII]

كُلْسا كِشِي يُزِينكا كُرْكُلْكْ يُزِنْ كُرُنْكُلْ
يَقْلَقْ كُذْزَ تِلِكْنِي اَذْكُو سَقْغ تشلَنْكِلْ

Kÿlsa kishi yÿziŋä körklÿg yÿzin körÿngil
Yawlaq kÿzäz tïlïŋnï ezgÿ cawïg‘ tilängil.

Biror kishi senga kulib qarasa, sen ham unga juda ochiq va kulgan yuz bilan boq, shirin so‘z va yoqimli muomala qil, tilingni tiy.

يَقْلاقْ y a w l a q[89]: يَقْلاقْ سَرِغْ yawlaq capïg‘ – bir bekning oti bo‘lgan. يَقْلاقْ *yawlaq* aslida har bir narsaning qattig‘i

---

[88] Basim Atalay يَتْغاقْ يَتّى borasini يَتْغاقْ اَرِيْتّى bo‘lishi kerak edi deb izoh bergan (Qarang: III jild. 42-b). Ammo يَتْغاقْ *jatg‘äq* so‘zining o‘zidan ham shu ma’no anglashiladi.

ma'nosidadir. Chunonchi, يَڤلاقْ قَتِغْ يِغاجْ yawlaq qatïg' yïg'ach – *juda kattiq yog'och* demakdir.

يُمْغاقْ y u m g' a q[90] – yumaloq, har bir yumaloqlanadigan, girdak narsa. Uch tilida kashnich urug'ini تَنا يُمْغاقْ *jymg'aq tana* deydilar.

تَنا t a n a – dona. Bu so'z fors tilidan olinib, turkiy talaffuzga moslashtirib, تَنا *tana* qilib olingan, turkchalashtirilgan deb gumon qilaman[91].

يُمْشاقْ y u m sh a q – har bir yumshoq narsa.

يَنْدَقْ y a n d a q: يَنْدَقْ تِكانْ yandaq tikän – yantoq tikan.

يَنْدَقْ y a n d a q: يَنْدَقْ جَكَرْ yandaq chekär – havodan daraxtlar ustiga yog'adigan (bolga o'xshash) shira.

يَنْدِقْ y a n d ï q: يَنْدِقْ اَتْ yandïq at – oddiy, yaratilishda kamchiligi bo'lgan ot.

يُنْدَقْ y u n d a q – ot tezagi. Bu faqat otnikiga xosdir. Maqolda shunday kelgan:

يَغِينكْ اَرْسا كَرَلْ يُنْدَقي تِكِيرْ

Yag'ïn ersä kerel[92] yundaqï tegir

Dushmaningda bo'lsa ham mol* bo'lsin, eng kami dushman otining tezagi tegadi, undan yoqib foydalanasan.

يَنْغَقْ y a n g' y q – ildizi sovunga o'xshab ko'piradigan bir xil o'simlik. Bilgilki, ق – *q* harfi fe'l o'zaklariga qo'shilib, qurol oti

---

[89] Bizning fikrimizcha, bu so'z ism emas, zolim va yovuz bek ma'nosidagi beklar laqabidur. Chunki يَڤلاقْ ning asl ma'nosi har bir yomon narsa ekani yuqorida aytilgan. Mahmud Koshg'ariy izohida ham shunga ishorat bor.

[90] *Yumg'oq* so'zi bizga yumaloq tarzida yetib kelishi tilshunoslar diqqatiga sazovordir. Chynki ayrim so'zlar faqat *g'* tushib yetib kelgan. Chunonchi, *o'rg'oq* – o'roq, *qulg'oq* – quloq kabi.

[91] Mahmud Koshg'ariyning *tana* so'zi haqidagi izohi uning so'z etimologiyasini aniqlashdagi qarashlaridan namuna sifatida juda muhimdir. "Devon..."dagi faktlarga ko'ra, Mahmud Koshg'ariy so'z etimologiyasini aniqlashda juda ehtiyot va nihoyatda puxta ilmiy usul qo'llagan.

[92] Arabcha كَرَلْ shaklidagi so'z haqida Basim Atalay izoh bergan (Qarang: III jild. 44-b), uning izohiga ko'ra, bu so'z qo'lyozmada ham shu shaklda ekan. Basim Atalay كَرَكْ bo'lishi to'g'ri deb uqtirgan. Bizningcha, by masala yana ham kengroq tekshirishni talab qiladi. Shuning uchun biz oiimlar diqqatini tortish uchun o'zicha qoldirdik.

* Olmaota nashrida: *otning tezagi.*

yasaladi. Chunonchi, اُرْغاقْ *org'aq* qurol oti اُوْرْدي *ordï* fe'lidan yasalgandir. يُنْغاقْ *yung'aq* so'zi ham shu xilda يُودي *yudï* fe'liga ق qo'shilib yasalgan qurol otidir[93].

يَنْلِقْ y a n l ï q – cho'pon to'rvasi.

يَنْجُقْ y a n c h u q – hamyon. Pul solinadigan hamyon.

يُدْرُكْ y ÿ d r ÿ k – ustiga kiyim va boshqalar **(464)** taxlab qo'yiladigan taxmon qutisi (sandiq).

يُزْلُكْ y ÿ z l ÿ g: اَرْ يُزْلُكْ اِكي iki yÿzlÿg er – ikki yuzlama, munofiq odam.

يُكْزُكْ y ÿ z l y g: اِكي يُزْلُكْ كُزْنُكو iki yÿzlug közÿngÿ – ikki yuzli oyna.

يُكْرُكْ y ÿ g r ÿ k: اَتْ يُكْرُكْ yÿgrÿk at – yugruk ot. Poygada o'zib ketadigan chopqir ot. O'g'uzlar bilag'on, donishmand, ziyrak va fozil kishilarni بِكا يُكْرُكْ *yÿgrÿk bilgä* deydilar.

يُكْسَكْ y ÿ k s ä k: تاغْ يُكْسَكْ yÿksäk tag'. Har bir baland va uzun narsaga ham يُكْسَكْ *yüksäk* deyiladi. Bu qush pari ma'nosida يُوكْ *yÿk* so'zidan olingandir. Chunki yuksalish uning tabiiy xususiyatidir. Shuning uchun har bir baland narsa ham shunday atalgan. Baytda shunday kelgan:

[XXIV]

اُسْ اَسْ كُرُبْ يُكْسَكْ قَلِقْ قودى جَقار
بِلْكا كِشي اُكْتْ بَرْبْ تَقْرَقْ اُقارْ

Us ec körÿb yÿksäk qalïq qodï chaqar
Bilgä kishi ögÿt berib tawraq uqar.

Karkas qushi yirtqich hayvonlardan qolgan go'shtni (ovni) ko'rib, o'zini osmondan tashlaydi. Shuningdek, donishmand kishilarni qiziqtiradigan ov o'gut-nasihatdir. Ular o'gutni eshitish bilanoq quloqqa oladilar.

---

[93] يَنْغُقْ *yang'uq* so'zi haqida Basim Atalay shunday izoh bergan. Uning izohiga ko'ra, bu so'z yozma nusxada ham يَنْغُقْ *yang'uq* shaklida ekan, shu usul bilan yasalgan اُرْغاقْ *org'aq* so'ziga muvofiq. يُنْغَقْ *yung'uq* emas, يُنْغَقْ *yyng'aq* bo'lishi muvofiq deb uqtirgan. Haqiqatda shu xilda yasalgan so'zlarda, asosan, so'z yasovchi affiks *-g'aq* shaklidadir. *Targ'aq – taraq, qapg'aq – qopkoq* kabi. Bu yerda Mahmud Koshg'ariy fe'l o'zagiga ق – *q* qo'shilib yasaladi deb uqtirgan. Aslida ق emas. غاقْ – *g'aq* qo'shilib yasalgan emasmi?

يُكْسَكْ y ÿ k s ä k – angishvona. O‘q otadiganlarning barmoqlariga kiyadigan barmoq qopi kabidir. Uni misdan yoki teridan yasaydilar. Uni tikuvchilar barmoqlariga nina botishidan saqlanish uchun barmoqlariga kiyib ishlaydilar.

يِلْبِكْ y e l p i k – el tegishi. اَرْكا يِلْبِكْ تَكْدِي ergä yelpik tegdi – odamga yel tegdi.

ل (l)

يِبْكِلْ y e p k i l – arg‘uvon rangi. يِبْكِلْ تُونْ jepkil ton – arg‘uvon rangli to‘n. ل – *l* harfi ن – *n* bilan almashgandir.

م (m)

يَرْتِمْ y a r t ï m – ayrilgan. بِيرْ يَرْتِمْ بُذُونْ bir yartïm bozun – xalqdan, jamoadan ayrilgan bir toifa.

يُغْرُمْ y u g‘ r u m: بِيرْ يُغْرُمْ اُنْ bïp yug‘rum un – bir xamirlik un.

يَتْرُمْ y e t r ÿ m: بِيرْ يَتْرُمْ سَجْ yetrÿm sach – avvalgi qo‘yilgan sochdan so‘ng qo‘shilgan soch.

يَرْشِمْ y a r sh ï m: بِيرْ يَرْشِمْ بِيرْ bïr jarshïm yer – poygada bir choparlik yer.

يُگْرُمْ y ÿ g r ÿ m: بِيرْ يُگْرُمْ بِيرْ bïr yÿgrÿm yer – bir chopish bilan o‘tarlik yer.

يِبْكِنْ y e p k i n: يِبْكِنْ تُونْ yepkin ton – arg‘uvon rangli to‘n. Bu so‘z ل – *l* bilan ham talaffuz qilinadi.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

يَيْلاغْ y a y l a g‘ – yozda turiladigan yer.

فَعالِلْ *faolil* shaklidagi so‘zlar (465)

يَلاڤْچْ y a l a w a c h – payg‘ambar. Bu so‘zning يَلاوَچْ *jalavach* varianti ham bor.

ر (r)

يِلافَرْ y a l a f a r – shohlarning elchilariga beriladigan ot (uy-g‘urcha). Maqolda shunday kelgan

يَشْ اُتْ كُيْماسْ، يِلافِرْ اُلْماسْ

Yash o‘t kÿymäs, yalafar o‘lmäs

Yosh (ho‘l) o‘t yonmaganidek, xabari har qancha og‘ir va dahshatli bo‘lsa ham elchiga o‘lim yo‘q. Chunki bu achchig‘ xabar shohdandir. Bu maqol ulug‘ Tangrining

مَا عَلَى الرَّسُولِ إِلاَّ الْبَلاَغُ

degan oyati* kabidir.

ق *(q)*

يَبِيتَقْ y a b ï t a q: يَبِيتَقْ اَتْ jabïtaq at – ustida egari, to‘qimi yo‘q yaydoq ot. اَلْ اَتِغْ بِيتَقْ مُنْدِي ol atïg‘ yabïtaq mïndi – u otni yaydoq mindi.

ك (k)

يَماجُكْ y e m ä ch ÿ k – bug‘doy tashiladigan kichik qop.

فَعَلُو *FA’ALLU* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR

غ *(g‘)*

يَفْشْغُو y a f ï s h g‘ u – qizilcha yoki gun deyiladigan tog‘ daraxti va uning mevasi. Bu so‘zning يُمْشْغا yumushg‘a varianti ham bor.

م *(m)*

يِكْرْما y i g i r m ä – yigirma. Bu so‘zning يِكْرْما *yigipmi* shaklidagi talaffuzi ham bor.

To‘rt harfli so‘zlar bo‘limi tugadi.

---

* Oyati karimaning o‘qilishi va tarjimasi: *Ma’la-r-rasuli illa-l-balag‘* – Rasulning vazifasi faqat xabar berish (Qur’oni karim, 5:99).

BESH HARFLILAR BOBI

فَعْلَعِلْ *faal'alin* shaklidagi turli harakatlar bilan talaffuz qilinadigan so'zlar bo'limi

غ *(g')*

يِرَلْغْ y ï p a r l ï g': يِرَلْغْ كُسُرْكُو yïparlïg' kesÿrgÿ – mushkli, mushk saqlanadigan idish. Maqolda shunday kelgan

يِرَلْغْ كُسُرْكُودِنْ يِرَرْ كِشسا يِدِي قِلِيرْ

Yïparlïg' kesÿrgÿdin yïpap ketsä jïzï qalïr

Mushk idishidan mushk olinsa ham, hidi qola beradi.

Bu maqol boyligi qo'ldan ketib, yuqi-yurunigina qolgan bo'lsa ham biror narsa so'ralsa, undan topila beradigan kishi haqida aytiladi.

يَغِرْلِغْ y a g' ï r l ï g' – yag'irli. يَغِرْلِغْ تَفى yag'ïrlïg' tewäj – yag'iri bor tuya. Boshqasi ham shunday.

يُلَرْلِغْ yu l a r l ï g' – no'xtali. يُلَرْلِغْ اَتْ yularlïg' at – no'xtali ot.

يَيِغْلِغْ y a p ï g' l ï g' – yopiq. يَيِغْلِغْ قَبُغْ yapïg'lïg' qapug' – yopiq eshik.

يَذِغْلِغْ y a z ï g' l ï g' – yoziqliq. يَذِغْلِغْ تُشاكْ yazïg'lïg' töshak – yoziqlik to'shak.

يَرَغْلِغْ y a p a g' l ï g' – يَرَغْلِغْ اِيشْ yapag'lïg' ïsh – mumkin bo'lgan, yaraydigan ish.

يَزِغْلِغْ y a z ï g' l ï g' – yechik, bo'shatilgan. يَزِغْلِغْ اَتْ jazïg'lïg' at – arqonidan bo'shatilgan, yechik ot. Boshqasi ham shunday.

يِشِغْلِغْ y ï sh ï g' l ï g' – arqonli. يِشِغْلِغْ اَرْ yïshïg'lïg' er – arqoni bor odam.

يُلُغْلُغْ y u l u g' l u g': يُلُغْلُغْ كِشِي yulug'lug' kishi – pul to'lab ajratib olingan kishi.

يَمَغْلِغْ y a m a g' l ï g' – yamoqli, yamog'i bor. يَمَغْلِغْ تُونْ jamag'lïg' ton – yamoqli to'n.

يَرَغْلِغْ y a r a g' l ï g' – yarog'li. يَرَغْلِغْ اَرْ yarag'lïg' er – yarog'i bor odam.

يَزُقْلُغْ y a z u q l u g' – gunohkor, gunohli.

يِشِقْلِغْ y ï sh ï q l ï g' – dubulg'a (mis yoki po'lat qalpoq)li. (466) يِشِقْلِغْ اَرْ yïshïqlïg' er – dubulg'a kiygan odam.

يَسِغْلِغْ y a s ï g' l ï g' – yoy saqlanadigan sadoq. يَسِغْلِغْ يا yasïg'lïg' ja – sadoqli yoy.

يَغَقْلِغْ y a g‘ a q l ï g‘ – yong‘oqli. يَغَقْلِغْ يغاچْ yag‘aqlïg‘ yïg‘ach – yong‘oqli daraxt.

يُرُنْلُغْ y u r u n l u g‘: يُرُنْلُغْ اُراغْتْ yyrunlug‘ urag‘ut – ipak kiyimlik bo‘laklar (otrez)i bor xotin.

يَشِنْلِغْ y a s h ï n l ï g‘ – chaqmoqli. يَشِنْلِغْ بُلِتْ yashïnlïg‘ bulït – chaqmoqli bulut.

يَغَنْلِغْ y a g‘ a n l ï g‘ – fili bor, filli. يَغَنْلِغْ اَرْ yag‘anlïg‘ er – fili bor odam.

Bu bo‘lim bir necha vazifani bajaradi. Birinchi اسم مفعول *ismi maf’ul* vazifasida keladi. Chunonchi: يَزِغْلِغْ تُشَاكْ yazïg‘lïg‘ töshäk – yozilgan to‘shak, يَزِغْلِغْ اَتْ yazïg‘lïg‘ at – *yechilgan ot* kabi.

Boshqasi atalgan narsaning egasi ma’nosida kelishidir. Chunonchi, يِنَرْلِغْ اَرْ yïnarlïg‘ er – iporli, ipori bor odam. Buning e*galik* ma’nosidagi misollari yuqorida o‘tdi. اَيَقْلِغْ تَقْى ayaqlïg‘ tewat – quloqli idish, اَيُغْلُغْ اَقْ uyug‘lug‘ ew – *toqili uy* kabi.

ق *(q)*

يَرِنْدَقْ y a r ï n d a q – turklarning qayishi, tasmasi. U echki terisidan qilinadi.

يَبْشْغَاقْ y a p u s h g‘ a q – kamon g‘ulasi kabi dumaloq, tikanli bir xil o‘t. Usti tukli bo‘ladi. Ot dumlari va boshqalarga yopishib qoladi. Har bir so‘zlangan narsaga aralasha beradigan kishiga ham bu so‘z qo‘llanadi.

يَبْرُغَاقْ y a p u r g‘ a q[94] – daraxt yaprog‘i, bargi. Kitob varag‘iga ham bu so‘z qo‘llanadi.

يِغَجْلِقْ y ï g‘ a c h l ï q – daraxtzor. Yog‘och uy ham shunday.

يَذْغْلَقْ y a z a g‘ l ï q – yayov yurish.

يذغلغ y ï z ï g‘ l ï q[95] – sasigan, buzilgan.

---

[94] Bu so‘z juda ilgarilardanoq يِبْراقْ *yaproq* shaklida qo‘llana boshlangan. Navoiyda ko‘p yerda يَبْراقْ emas, يَغْراقْ shaklida berilgan:

Tushmasa *yafrog‘*idin o‘t bog‘ aro,
Shox o‘tundek nega bo‘ldi qaro.

Rang-u safo qolmadi *yafrog‘* uza,
Yotti o‘luklar kibi tufrog‘ uza.

[95] Bosma nusxada bu so‘zlarning har ikkisi ham harakatsiz يذغلق shaklda berilgan. Biz yuqorida o‘tgan shunday so‘zlarga muvofiq, birinchisini *yazag‘liq,* ikkinchisini *yïzïg‘liq* shakllarida berishni muvofiq topdik.

يَمَغْلِقْ y a m a g‘ l ï q – yamoqqa mo‘ljallangan, yamoqliq. يَمَغْلِقْ بُوزْ yamag‘lïq böz – yamoqqa mo‘ljallangan bo‘z.

يِلِغْلِقْ y ï l ï g‘ l i q[96] – issiqlik.

يَغَقْلِقْ y a g‘ a q l ï q – yong‘oqzor.

يَقْلُقْ y a p y q l u q – yorug‘lik, nur.

يِرَقْلِقْ y ï r a q l ï q – yiroqlik, uzoqlik.

يَلِنْدَقْ y a l ï n d a q – yalang‘och. يَلِنْدَقْ اَرْ yalïndaq[97] er – yalang‘och odam.

ك (k)

يِكِتْلِكْ y i g i t l i k – yigitlik. Shundan olinib, اَسِزْ اَنِكْ يِكِتْلِكِي esiz anïŋ yigitligi – *hayf uning yigitligiga* deyiladi.

يُرَكْلِكْ y ÿ p ä k l i g – dovyurak, yurakli. يُرَكْلِكْ اَرْ yÿpaklig er – yurakli, botir odam.

يِتِزْلِكْ y e t i z l i k – kenglik, narsaning eni.

يُلَكْلِكْ y ö l ä k l i k – suyaladigan. يُلَكْلِكْ يِغاجْ yöläklik[98] yïg‘ach – bir narsaga suyangan yog‘och.

يِلِكْلِكْ y i l i k l i k – ilikli. يِلِكْلِكْ سُنْكُوكْ yilik1ik söŋÿk – ilikli so‘ngak.

فَعَلْعان *FAALON* SHAKLIDAGI TURLI HARAKATLAR BILAN TALAFFUZ QILINADIGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI

ت *(t)*

اَيِتْغانْ a y ï t g‘ a n[99]: اَلْ كِشي اَلْ تِلِمْ سُوزْ اَيِتْغانْ o‘l kishi ol telim söz ayïtg‘an – u kishi har vaqt so‘z so‘raydigan kishidir.

يِرِتْغانْ y a r a t g‘ a n – yarattan. تَنكْرِي اَلْ يِيرِكْ يِرِتْغانْ Teŋri o‘l yerig yaratg‘an – yerni yaratgan Tangridir. Boshqasi ham shunday.

يَرِتْغانْ y a r ï t g‘ a n – yoritgan. كُونْ اَلْ اَرْتُغْ kÿn ol ayunug‘ yapytg‘an – har vaqt olamni yoritgan quyoshdir.

---

[96] Bu so‘z shu jildning 11-betida ilig‘lik – *chala issiqlik* deb berilgan.

[97] Bu ma’noda u davr tilida يَلِنَكْ *jaliŋ* so‘zi ham qo‘llangan.

[98] Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni *yog‘ochga suyalish* deb izoh bergan. “Qutadg‘u bilik”da bu so‘z odamlar suyanadigan yo‘l ko‘rsatuvchi rahbar ma’nosida ham qo‘llangan:

Saningdin adin yo‘q *yo‘lakim* manga

(Mening sendan boshqa suyanadigan rahbarim yo‘q, demakdir).

[99] *Aytmoq* u davr tilida *so‘ramoq* ma’nosida qo‘llangan.

يُرتْغانْ y o r u t g‘ a n[100]: يُرتْغانْ گشِى yorytg‘an kishi – o‘sirgan odam.

يَغُتْغانْ y a g‘ u t g‘ a n – yaqin qilib ko‘rsatgan. اُلْ كِشِي اُلْ اُوزِنْ يَغُتْغانْ o‘l kishi o‘l özin yag‘utg‘an – u yoqimliligi bilan har doim o‘zini odamlarga yaqin qilib ko‘rsatgan.

يَغِتْغانْ y a g‘ ï t g‘ a n – yog‘dirgan. تنگرِي اُلْ يَغْمُرْ يَغِتْغانْ teŋri o‘l yag‘mur yag‘ïtg‘an – yomg‘ir yog‘dirgan Tangridir.

يَغِتْغانْ y a g‘ ï t g‘ a n – dushmanlik qiladigan. اُلْ كِشِي اُلْ تُتْجِي يَغِتْغانْ o‘l kishi o‘l tutchï yag‘ïtg‘an – u odam yarashgandan keyin (ham) doim dushmanlik qiladigan.

يُمِتْغانْ y y m ï t g‘ a n – to‘planadigan. اُلْ كِشيلارْ اُلْ يُمِتْغانْ o‘l kishilär o‘l yymïtg‘an – u odamlar doimo bir ishda to‘planadigandir.

ر *(r)*

يَبُرْغانْ y a p u r g‘ a n – yopadigan, berkitadigan. بُو اَرْ اُلْ يَبُرْغانْ اِيشِنْ er ol ïshïn yapurg‘an – bu odam ishini doimo berkitadigan kishidir. Har narsani berkitib ham shunday.

يَشُرْغانْ y a s h y r g‘ a n – yashiradigan. اُلْ اَرْ اُلْ نَنِكِنْ يَشُرْغانْ o‘l er o‘l neŋin yashyrg‘an – u odamning odati molini va boshqalarni yashirishdir.

يَبُشْغانْ y a p u s h g‘ a n – yopishadigan. اُلْ اَرْ اُلْ اِيشْقا يَبُشْغانْ o‘l er o‘l ïshqa yapyshg‘an – ishlarga yopishish u odamning odatidir. Har qanday ishlarga bog‘lanadigan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

بُو باشْ اُلْ قانى لـيُشْ غَنْ غَنْلـيُشْ bu bash ol qanï yyshylg‘an – bu yaraning doimo qoni oqadigandir.

بُشُلْغانْ b u s h u l g‘ a n – بُو اَرْ اُلْ اِيشْقا بُشُلْغانْ bu er o‘l äligi ïshqa bushulg‘an[101] – bu odamning qo‘li doim ishni do‘ndiradigan, ishga qo‘li qovushimli.

---

[100] يُرتْغانْ *yopytg‘an* so‘zi bosma nusxada يُرتْغانْ yoptg‘an shaklidadir. Basim Atalay buning to‘g‘risi يُرتْغانْ *yopytg‘an* deb tuzatish kiritgan. Biz ham shuni muvofiq ko‘rdik.

[101] Bu so‘z بُشُلْغانْ *bushulg‘an* emas, يُشُلْغانْ *yushulg‘an* bo‘lishi kerakligi haqida Brokkelman izoh bergan. Basim Atalay ham bu izohni ma’qul ko‘rgan. Darhaqiqat, hozir ham, asosan, Andijon atroflarida ishni *do‘ndirmoq, boplamoq* ma’nosidagi *eshmoq*, *eshib yubormoq* so‘zi ana shu o‘zakdan bo‘lishi yaqin ehtimoldir. Bu jihatdan ham يُشْلَماقْ varianti muvofiqdir.

يِغْلْغانْ y ï g‘ ï l g‘ a n – yig‘iladigan. بُو يِيرْ مُنْدا كِشي يِغْلْغانْ bu yer ol munda kishi yig‘ilg‘an – bu yer doim odamlar yig‘iladigan yerdir.

يِقْلْغانْ y ï q ï l g‘ a n – yiqiladigan, ag‘anaydigan. اُلْ تامْ اُلْ تُتْجي يِقْلْغانْ o‘l tam ol tutchï jïqïlg‘an – bu devor doim yiqiladigandir. Boshqasi ham shunday.

ق *(q)*

يُغُرْقانْ y o g‘ u r q a n – yo‘rmalgan, qavilgan.

گ *(g)*

يُكُرْكانْ y ÿ g ÿ r g ä n – Chin savdogarlarining **(468)** musulmon shahriga savdo uchun chiqqan karvonlaridan oldin xat-xabarlarini yetkazuvchi chopar.

يُكُرْكانْ y ÿ g ÿ r g ä n – اَتْ يُكُرْكانْ yÿgÿrgän at – yuguruk, chopar ot. Boshqasi ham shunday.

يُكُرْكُونْ y ÿ g ÿ r g ÿ n – tariqqa o‘xshash tanasi qizil bir xil o‘simlik, turkmanlar uni iste’mol qiladilar.

يَمُرْكانْ y e m ÿ r g ä n – ag‘daradigan, qo‘poradigan. بُو سُوڤْ اُلْ يِغاچِغْ يَمُرْكانْ bu cyw ol yïg‘achïg‘ yemÿrgän[102] – bu so‘z doim daraxtni ag‘daradigan; ildizni qo‘poruvchi har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

يِرلْكانْ y i r i l g a n – yorilgan[103]. بُو بُتِقْ اُلْ تُتْجي يِرلْكانْ bu butïq ol tutchï yipilgan – bu shox har vaqt yoriladigandir.

يُمُلْكانْ y ÿ m ÿ l g ä n – yumiladigan. بُو اَرْ اُلْ كُوزي يُمُلْكانْ bu er o‘l közi yÿmÿlgän – bu odam doim ko‘zi yumiladigan odamdir.

---

[102] Bu so‘z *yamurmoq* emas, *yimurmoq* shaklida klassik adabiyotlarda tez-tez uchraydi:

Yimrulur boshimga go‘yokim falak xumxonasi,
Ul quyosh hamxonam erkanin qachon yod aylasam (Navoiy).

[103] U davr tilida *yorilmoq* so‘zi ham aynan *yirilmoq* ma’nosida sinonimlar sifatida qo‘llanar edi. Bizda hozir bu so‘zlar ma’nosi farqlanadi. *Yorilmoq*, asosan, bo‘lak-bo‘lak bo‘lib ketish, *yirilmoq* esa bo‘laklanish emas, narsaning haddan ortiq kengaytirilishi ma’nosidadir.

Bu bo‘limning matviylari[104]

يزغچى y a z ï g‘ c h ï – qudalar orasida xat-xabar tashib yuruvchi (sovchi, o‘g‘uzcha).

غ *(g‘)*

يَيلْغانْ y a y ï l g‘ a n[105]: يَيلْغانْ كِشى jajïlg‘an kishi – qarorsiz, tarqoq fikrli odam.

---

[104] *Matviy* – oxirgi harfi illat bo‘lgan so‘zlar, demakdir.

[105] يَيلْغانْ *yajilg‘an* so‘zi matviy bo‘limga kirmaydi. Bu so‘zning o‘rni avvalgi bo‘limdadir.

HAR XIL HARAKATLAR BILAN TURLI SHAKLLARDA QO‘LLANILGAN فَعْلَلْ *FAALLAL* VAZNIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI

ج *(ch)*

يُرْكَمَجْ y ÿ r g ä m ä ch – qorin va ichak ingichka ichak ichiga solinib, qizdirilib yoki qaynatilib yeyiladi.

ق *(q)*

يَتْعَشُقْ y a t g‘ a sh u q[106] – bir yerda boshqa biri bilan yotgan.

يَتْعَشُقْ yatg‘ashuq og‘rï – yotar vaqt.

ن *(n)*

يَقْرِقَنْ y a q r ï q a n – kamon g‘ulagi kattaligiday (orindiqday) mevasi bor bir xil o‘simlik. Shamollab yorilgan labga uning po‘stini surtilsa, tuzaladi.

يَقْرِقَانْ y a q r ï q a n – muz yog‘ining nomi. Muz maydalanganda undan yoqqa o‘xshab sochiladigan bir narsa.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

يُبَاقْلَقْ y u b a q u l a q – isitma titratishi (yaboqu va yamaklar tilida).

يَبَاقْلَقْ y a b a q u l a q – boyqush qushi (yaboqu va yamaklar tilida).

[106] Bu yerda bosma nusxada bir aniqsizlik bor: بلغةٍ kabi.

غ *(g‘)*

يَرْسِنْغِچْ y a r s ï n c h ï g‘ – يَرْسِنْغِچْ نانك yarsïnchïg‘ neŋ – jirkaniladigan, yirganadigan yomon, nopok narsa.

ل *(l)*

يَغْمُرْچِلْ y a g‘ m u r c h ï l – seryomg‘ir. يَغْمُرْچِل yag‘murchïl yer – seryomg‘ir yer.

Bu bir qoidadir. Bir narsa ustidagi harakat uzoq davomli bo‘lganligini, mo‘lligini bildirgan so‘zga *-chil* qo‘shiladi. Chunonchi: تُبْچِلْ يِرْ tupchïl yer – *sershamol yer* iborasida shamol ma’nosidagi تُبِي *tupï* so‘ziga چِلْ *chïl* qo‘shilib, bu so‘z davomlilikni anglatuvchi sifatga aylangan. Uzoq kasallanuvchi kishiga ايگْچِلْ *igchil* deyish ham shu qoida asosidadir. Lekin bu qoida uncha keng emasdir.

Xudoga shukur, boshida harfi illat bo‘lgan so‘zlarning misol bo‘limi tugadi.

Bismillohi-r-rahmoni-r-rahim

BU BO‘LIM BOSHIDA HARFI ILLAT BO‘LGAN FE’LLAR BO‘LIMI

IKKI HARFLILAR

ب *(p)*

يَبْتي y a p t ï – yopdi, berkitdi. اَرْ قَبُغْ يَبْتي er qapug‘ yaptï – odam eshikni yopdi.

يَبْتي y a p t ï – qo‘ydi. اَرْ تُورْ يَبْتي er tor yaptï – odam qush va boshqalarga tuzoq qo‘ydi.

يَبْتي y a p t ï – yopishtirdi. ايلارْ أتْماكْ يَبْتي eshlär etmäk yaptï – xotin tandirga non yopishtirdi.

يَبْتي y a p t ï – qurdi. اَرْ تامْ يَبْتي er tam yaptï – odam devor qurdi. (يَبْماقْ .يَبارْ yapap, yapmaq)*.

ر *(r)*

يَرْدي y a r d ï – yordi. اَرْ يِغاجْ يَرْدي er yïg‘ach yardï – odam yog‘och yordi. Boshqalarga ham bu so‘z qo‘llanadi. Yer darz bo‘lib yorilsa ham, shunday deyiladi. (يَرْماقْ .يَرارْ yarar, yarmaq).

يُرْدي y ö r d i – yechdi. اُراغْتْ اُوغْلِنْ بَشِكْتِنْ يُرْدي urag‘ut og‘lïn beshiktin yördi – xotin o‘g‘lini beshikdan yechdi (يُرْماكْ .يُرارْ yörap, yörmäk).

يَرْدي y e r d i: اُلْ بُتِقْ يَرْدي o‘l butïq yerdi – butoqni yordi. Bu – ho‘l narsani tesha, bolta bilan yormay, uzunasiga ayirishdir. (.يَرارْ يَرْماكْ yepäp, yermäk).

Birinchi gapdagi *yarmaq* bir narsani qattiq kesib yormoqdir, yermäk – ayirib, *yirib yormoq*dir.

Maqolda shunday kelgan:

تَبُغْ تاشْ يَرارْ. تاشْ باشِغْ يَرارْ

Tabug‘ tash yarap, tash bashïg‘ yarap
Xizmat toshni yoradi, ammo tosh boshni yoradi.

---

* Yuqoridagi so‘zlarning hammasi Olmaota nashrida bir so‘zning variantlari tarzida bitta raqam bilan bir o‘rinda berilgan.

Bu maqol xo‘jayinidan yaxshilik ko‘rsa-da, unga yaxshilik qilmaydigan yoki uning dushmanlariga yordam beradigan kishi haqida aytiladi[107].

ز (z)

يَزْدي y a z d ï – yechdi. يَزْدي تُكُونْ اُلْ o‘l tÿgÿn jazdï – u tugunni yechdi.

يَزْدي y a z d ï – yozdi, bitdi. يَزْدي بِتِكْ اُلْ o‘l bitig[108] yazdï – u xat yozdi (o‘g‘uzcha).

يَزْدي y a z d ï – adashdi. يَزْدي سُوزِنْدا اُلْ o‘l sözinjdä yazdï – u so‘zida adashdi, xato qildi.

يَزْدي اُرُوْ u r u v y a z d ï – urayozdi. يَزْدي اُرُو اَنِي اُلْ **(470)** o‘l anï uruv yazdï – u uni urayozdi.

يَزْدي y a z d ï – xato qildi. يَزْدي كَيِكْنِي اُلْ o‘l keyikni yazdï – u ovni otishda xato qildi.

Maqolda shunday kelgan:

يَزْماسْ اَتِمْ بُلْماسْ. يَنكِلْماسْ بِلْكا بُلْماسْ.

Yazmas atïm bolmas, yanïlmas bilgä bolmas

O‘q otishda xato qilmaydigan ovchi, yanglishmaydigan bilimdon bo‘lmaydi. (يَزْماقْ .يَزارْ yazar, yazmaq).

يُوزْدي y ÿ z d i – suzdi. يُوزْدي اَرْ سُفْدا er suwda yÿzdi – odam suvda suzdi.

يُزْدي y ÿ z d i – yoyildi, siljidi. يُزْدي ارِنكْ irinj jÿzdi – yiring badanda, yarada yoyildi.

يُزْدي y ÿ z d i – shildi. يُزْدي اَرْ تُغُمْ er tog‘um yÿzdi – odam so‘yilgan hayvon terisini shildi (يُزْماقْ .يُزارْ yÿzär, yÿzmäk).

---

[107] Bu maqoldan kutilgan maqsad haqidagi iborada bir oz chalkashlik bor. U iboraga ko‘ra, xo‘jayin xizmatchisiga yaxshilik qiladi. Ammo xizmatchi xo‘jayinning dushmanlariga yordam beradi, demakdir. Lekin bu maqol Navoiy asarlarida boshqacharoq mazmunda qo‘llanadi:

Ushaldi tosh birla u qatig‘ bosh,
Masaldurkim *ushotur* boshin tosh.

[108] *Bitik* so‘zi Navoiyda tez-tez uchraydi:

Ish kayfiyatin solib arog‘a,
Topshirdi *bitik*ni benavog‘a.

س *(s)*

يَسْدِي y a s d ï – tarqatdi. بَكْ سُوسِنْ يَسْدِي beg sÿsin yasdï – bek askarini yurtlariga tarqatdi. Bu so‘zning asli اَرْ ياسِنْ يَسْدِي er yasïn yasdï – odam yoyidan kamonni chiqardi gapidan olingandir.

يَسْدِي y a s d ï – yozdi, echdi. خانْ جُواجْ يَسْدِي xon chuvach yasdï – shoh o‘z boshiga qo‘yadigan chodirining tugunini yozdi (.يَسارْ يَسْماقْ yasar, yasmaq).

ش *(sh)*

يَشْدِي y a sh d ï – yashirindi. اُلْ مَنِي كُرُبْ يَسْدِي o‘l meni körÿb yashdï – u meni ko‘rib yashirindi.

Maqolda shunday kelgan:

تَفى مُنْبْ قُوىْ اَرَ يَشْماسْ

Tewäy mÿnÿb qoj apa yashmas

Tuya mingan odam qo‘y orasiga yashirinmaydi.

Bu maqol mashhur bo‘lib qolgan ishni so‘ngra yashirmoqchi bo‘lganlarga nisbatan qo‘llanadi (يَشْماقْ .يَشارْ yashar, yashmaq).

يُشْدِي yÿshdï – oqizdi. اُلْ بَكْنى يُشْدِي o‘l bekni yÿshdï – u bo‘zani qumg‘on jo‘mragidan oqizdi. Bo‘za bug‘doy, arpa, tariqdan qilingan ichimlikdir (يُشْماكْ .يُشارْ yÿshär, yÿshmäk)[109].

غ *(g‘)*

يَغْدِي yag‘dï – yog‘di. يَغْمُرْ يَغْدِي yag‘mur jag‘dï – yomg‘ir yog‘di.

Maqo‘lda shunday kelgan:

قُتْلُغْقا قُشا يَغْدِي

Qutlug‘qa qosha yag‘ar

Baxtli odamga davlat qo‘sha-qo‘sha (ustma-ust) keladi.

(يَغْماقْ .يَغارْ yag‘ap, yag‘maq). Qor, do‘l yog‘ishiga ham bu so‘z qo‘llanadi.

يِغْدِي y ï g‘ d ï – qaytardi. اُلْ مَنِي اَشْقا يِغْدِي o‘l meni ashqa jïg‘dï – u meni ovqatdan qaytardi. Boshqasi ham shunday.

---

[109] Bu so‘zning *qalin* varianti to‘g‘risida Basim Atalay izoh bergan (Qarang: II jild. 60-b).

يغْدي y ï g‘ d ï – yig‘di, to‘pladi. يغْدي اُلْ تَرِغْ o‘l tarïg‘ yïg‘dï – u bug‘doy va boshqalarni to‘pladi. Har narsani to‘plagan kishiga nisbatan ham bu so‘z qo‘llanadi. (يغْماقْ .يغارْ yïg‘ar, yïg‘maq).

يُقْدي y u w d ï – yumalatdi. يُقْدي اَرْ تُبِقْ er topïq yÿwdï – odam to‘pni yumalatdi. Boshqasi ham shunday (يُقْماقْ .يُقارْ yywap, yywmaq). Baytda shunday kelgan:

[XXV]

تَقَرْ يِغِبْ سُقْ اَقِنْ اِنْدي سَقِنْ
قُرِمْ كِبي ايذِشِنْ قُودي يُقارْ

Tawar yïg‘ïb cyw aqïn indi saqïn[110]
Qurum kibi izishin[111] qudï yÿwar.

Mol to‘plashni anglatib, shunday deydi: to‘plagan molni sel keldi deb hisobla, sel toshni yumalatganday egasini yumalatadi.

يُقْدي y y w d ï – qochdi. يُقْدي اَشْياكْ ashjak yywdï – eshak tez qochdi.

يُقْدي y y w d ï – aldadi[112]: يُقْدي اَنِي اَرْدي اُلْ o‘l anï ardï yywdï – y uni aldadi, g‘azab qilish ham shunday.

يُقْدي y u w d ï – yetishdi. يُقْدي قَرْدي قَداشِنْ اَرْ er qadashïn qurdï yuwdï – odam yaqinlariga yetishdi, unga mol berib ko‘nglini oldi (يُقْماقْ .يُقارْ yywap, yywmaq).

ق (q)

يَقْدي y a q d ï – malham qo‘ydi. يَقْدي يَقَغْ بَشْقا اَرْ er bashqa yaqïg‘ jaqdï – odam yaraga malham qo‘ydi.

يَقْدي y a q d ï – yaqinlashdi, birlashdi. يَقْدي اُلْ اَنَكَرْ o‘l aŋar yaqdï – u unga yaqinlashdi.

يَقْدي y a q d ï: يَقْدي اَنِكْ كَلْماكي aniŋ kelmägi yaqdï – uning kelishi yaqinlashdi deyish ham shundandir.

---

[110] Bu bayt haqida va uning tarjimasi haqida Basim Atalay izoh bergan (Qarang: II jild. 62-b). Haqiqatda, *hisobla, gumon qil* ma’nosidagi سقن *saqïn* so‘zi قُلِيطْنْ *gumon qilsin* deb yanglish tarjima qilingan.

[111] Shu baytdagi ega*sini* ma’nosidagi ايذسن izisin so‘zi ايذشن *izishin* shaklida yanglish berilgan.

[112] Basim Atalay izohiga ko‘ra, يُقْدي so‘zining yozilishida yozma nusxada bir oz aniqsizlik bor ekan (qarang: “Devon...” tarjimasi. III jild. 62-b).

يَقْدِي y a q d ï – tegizdi. اَنكَرْ اِلِكْ يَقْدِي اُلْ o‘l aŋar ilik yaqdï – u unga qo‘lini tegizdi. Boshqasi ham shunday (يَقَارْ .يَقْماقْ yaqar, yaqmaq).

يُقْدِي y u q d ï – yuqdi, اِلِكْ كا ياغْ يُقْدِي elikka jag‘ juqdï – qo‘lga yog‘ yuqdi.

يُقْدِي y u q d ï – yuqdi, o‘tdi. اَنكَرْ يُقْدِي اَنِكْ اُزُوزِي aniŋ uzuzï aŋar juqdï – uning qichimasi unga o‘tdi. Har bir narsa boshqa bir narsaga yuqsa ham bu so‘z qo‘llanadi. (يُقَارْ .يَقْماقْ yyqar, yuqmaq).

يِقْدِي y ï q d ï – yiqitdi, ag‘dardi. اُلْ اِقْنْ يِقْدِي o‘l ewin yïqdï – u uyini yiqitdi. Boshqasi ham shunday (يِقَارْ .يِقْماقْ yïqar, yïqmaq).

ل *(l)*

يَلْدِي y a l d ï – yondi. اُوتْ يَلْدِي ot yaldï – olov yondi.

يَلْدِي y a l d ï – yallig‘landi. باشْ يَلْدِي bash yaldï – yara yallig‘landi.

يَلْدِي y a l d ï – aynitdi, o‘zgartdi. كُونْ يُوزُكْ يَلْدِي kÿn yÿzÿg yaldï – kun yuzni aynitdi, qoraytirdi. (يِلَارْ .يَلْماقْ yalar, yalmak).

يُلْدِي y u l d ï – bo‘shatdi, qutqardi. اَرْ بُلُنُقْ يُلْدِي ep bylunuq[113] yuldï – odam asirni bo‘shatdi.

يُلْدِي y u l d ï – qutqardi. اَرْ تُتُغْ يُلْدِي yer tutug‘ yuldï – odam garovni ajratib oldi.

يُلْدِي y u l d ï – yuldi. اَرْ قُشْ يُلْدِي er qush yuldï – odam qush tuklarini yulish uchun qaynoq suvga soldi. Teridan tuk yulsa ham shunday. Boshqasi ham shunday.

يُلْدِي y u l d ï: اُراغْتْ بَشِنْ يُلْدِي urag‘ut bashïn yuldï – xotin mehridan va boshqa narsadan kechib, boshini qutqardi (يُلَارْ .يُلْماقْ yular, yulmaq)

يُلْدِي y u l d ï – ko‘chirib yozdi. اُلْ بِتِكْ يُلْدِي o‘l bitik yuldï – u kitobni ko‘chirib yozdi.

يَلْدِي y e l d ï – eldi. اَتْلِغْ يَلْدِي atlïg‘ yeldi – otliq yelib yurdi (يَلَارْ .يَلْماكْ jelar, jelmak).

يِلْدِي y e l d i – yeyildi. اَشْ يِلْدِي ash yeldi – ovqat yeyildi. Boshqasi ham shunday (يِلُورْ .يِلْماكْ yelyp, yelmäk).

---

[113] Bu gapdagi بُلُنُقْ *bulunuq* so‘zi tushum kelishigi vazifasidadir, bu *acip* ma’nosidagi o‘zakka tushum kelishigi affiksi *-uq* qo‘shilgan so‘zdir. XI asr tili ustidagi kuzatishlarimizga ko‘ra, tushum kelishigi affiksi boshqa yerda *-ug‘, -ug* shaklida qo‘llangan. Demak, bu variant ustida ham tekshirish o‘tkazish zarur bo‘ladi.

م (m)

يُمْدِي y ÿ m d i – yumdi, berkitdi. اَرْ كُوزْ يُمْدى er köz yÿmdi – odam ko‘zini berkitdi (يُمَّكْ .يُمارْ yÿmar, yÿmmak)[114*].

ن (n)

يَنْدِي y a n d ï – qaytdi, yondi. اَرْ يُولْدَنْ يَنْدِي er yo‘ldan yandï – odam yo‘ldan qaytdi. Boshqasi ham shunday.

يَنْدِي y a n d ï – qo‘rqitdi. بَكْ اَنِي يَنْدِي beg anï jandï – bek uni qo‘rqitdi. Boshqasi ham shunday. Maqolda shunday kelgan:

يَلْنكُقْ مَنكُو تِرلْماسْ. سِينْقا كِرُبْ كُرو يَنْماسْ

Yalŋuq meŋgu tirilmäs, sïnqa kirÿb kirÿ yanmas[115]

Odam abadiy yashamaydi, go‘rga kirgan qaytib kelmaydi.

يَنْدِي y a n d ï – yondi. اُوتْ يَنْدِي ot yandï – o‘t yondi. Bu so‘zning يَلْدِي yaldï varianti ham bor (qipchoqcha).

يَنْدِي y a n d i – qusdi. اَرْ يَنْدِي Er yandi – odam qusdi (يَنارْ. يَنْماقْ yanar, yanmoq). She’rda shunday kelgan:

[XVI]

يَنْدِي اَرِنجْ اُغْرَغى
كَلْدِي بَرُو تِغْرغي
اُوزِي قُيِي اُغْرَغى
اَلْبْلارْ قَمُغْ تِرْكَشُورْ

Yandi erinch og‘rag‘i
Keldi bero‘ tig‘rag‘i
Ozi qyji og‘rag‘i
Alplar qamug‘ tirkasho‘r[116].

Dushmanni ta’rif qilib aytadi: u zora o‘z istagidan qaytgan bo‘lsa, chunki uning chopari keldi. O‘zi vodiy ichkarisidadir. Bahodirlar urush uchun saf tortayotirlar.

---

[114] Bu so‘z يُمَاكْ *yÿmmäk* emas, يُمَاقْ *yummaq* bo‘lishi kerakligi haqida Basim Atalay izoh bergan. Haqiqatda bu so‘z boshqa yerda qattiq shaklda berilgan.

[*] Olmaota nashrida bu so‘zning harakat nomi: *yumak.*

[115] Bu maqol اَرْ يُولْدَنْ يَنْدِي er joldan jandï – *odam yo‘ldan qaytdi* gapiga oid misol bo‘lsa ham yanglish ravishda ikkinchi o‘ringa tushgan.

[116] Bu she’r bundan oldingi *janmaq – qaytmoq* so‘ziga oiddir.

يُنْدي y u n d i – yuvindi. اَرْ سُڤدا يُنْدي Er suwda yundi – odam suvda yuvindi.

يُنْدي y u n d i – tahorat qildi. اَرْ يُنْدي er yundi – odam tahorat qildi (o‘g‘uzcha). (يُنْماقْ .يُنارْ yunar, yunmaq).

يِنْدي y i n d i – qidirdi. اُلْ اَنِكْ اَڤْنْ يِنْدي o‘l aniŋ ewin yindi – y uning uyini qidirdi. Bu so‘zning asli يِندتىjindti bo‘lib, u yengillatilgandir (يِنْداڑْ .يِنْماكْ yindar, yindmak).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

يُودي y u d i – yuvdi. اَرْ تُونْ يُودي er ton yudï – odam to‘nni yuvdi. Boshqasi ham shunday (يُوْماقْ .يُوْرْ yur, yumaq).

Maqolda shunday kelgan:

قانِغْ قانْ بِلا يُوماسْ

Qanig‘ qan bïla yumas

Qon qon bilan yuvilmaydi, ya’ni to‘polon to‘polon bilan bostirilmaydi, kelishuv bilan bostiriladi.

يِيدي yedi – yedi. اَرْ اَشْ يِيدي er ash yedi – odam osh, ovqat yedi (يِماكْ .يِيرْ yer, yemak).

O‘RTASI HARAKATLAR BILAN فَعْلدى *FAALIÏ (FAULDÏ, FUULDÏ, FAÏLDÏ)* SHAKLIDA KELGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI

ر (r)

يَبْرْدي y a p u r d ï – tekisladi. اُلْ يِيرِكْ يَبْرْدي o‘l yerig yapurdï – u yerni yaraqlatdi, tekisladi.

يَبْرْدي y a p u r d i – yashirdi. اَرْ سُوزْكْ يَبْرْدي er sözo‘g yapurdï – odam gapni yashirdi (يَبْرْماقْ .يَبْرُرْ yapurur, yapurmaq).

يِتْرْدي y i t u r d i – yo‘qotdi. اَرْ يَرْماقْ يِتْرْدي er yapmaq yitÿrdi – odam pul (dirham)ni yo‘qotdi (يِتْرْماكْ .يِتْرُرْ yitypyp, yiturmak).

يُذْرْدي y u z u r d i – yukladi. اُلْ تَڤى كا يُكْ يَذْرْدي o‘l teweyga yo‘k yuzurdi – u tuyaga yuk ortdi. Boshqalari ham shunday (.يُذْرُرْ يُذْرْماكْ yo‘zo‘ro‘r, yo‘zo‘rmak). She’rda shunday kelgan:

اَغْرُقْ اَغِرْ اِشِنكْنى اَذْ ناغُقا يُذُرْما
اَجْرُنْ اُذْنكْ اُشارِبْ اَذْناغُنى تُذُرْما

Ag‘ruq ag‘ir ishiŋni aznag‘uqa* *yo‘zo‘rma*
Ajpyn o‘znak osharib aznaguni** tozurma.

O‘zingning og‘ir yukingni boshqalarga yuklama, ko‘zing tinar darajada o‘zingni och qoldirib, boshqalarni to‘ydirma.

يَشَرْدِي y a s h a r d i – ko‘kardi. اُوتْ يَشَرْدِي ot yashardï – o‘t ko‘kardi (يَشَرْماقْ .يَشَرُرْ yasharÿr, yasharmaq).

يَشُرْدِي y a s h u r d i – yashirdi. اُلْ نانكْ يَشُرْدِي o‘l neŋ yashurdï – y narsani yashirdi (يَشُرْماقْ .يَشُرُرْ yashurur, yashurmaq).

يَقُرْدِي y a q u r d ï – yaqinlashtirdi. اُلْ اَتِغْ مَنكا يَقُرْدِي o‘l atïg‘ meŋa yaqurdi – u otni menga yaqinlashtirdi. Boshqalari ham shunday (يَقُرْماقْ .يَقُرُرْ jaqurur, jaqurmaq).

يَقُرْدِي y a q u r d ï – tez-tez nafas oldi. كِشى يَقُرْدِي kishi jaqurdï – odam tez-tez nafas oldi (يَقُرْ .يَقُرُرْ jaqurur, jaqurmaq).

يُكُرْدِي y o‘ g o‘ r d ï – yugurdi. اَرْ يُكُرْدِيEr jugo‘rdï[117] odam qattiq chopdi. (يُكُرْماكْ .يُكُرُرْ jygypyp, jygo‘rmak).

She’rda shunday kelgan

[XVIII]

اُنْدَبْ اُلْغْ تِبارُو تَقْرقْ كَلِبْ يُكُرْكِلْ
قُرْغاقْ يِلِنْ بُذُنْ كُرْ قَنْدا تُشَرْ قُودى اِلْ

Undab ulug‘ tabaru tawraq kelib yÿgÿrgïl
Qurgaq yïlïn buzun kör qanda to‘shar qudï ïl.

Seni katta yoshli odam chaqirsa, unga chopib bor. Ochlik yillarida xalqing qayerga borishini kuzat, u qayerga borsa, sen ham o‘sha yerga bor. Xalqingga kelgan har qanday musibatlarda birga bo‘l.

يُكُرْدِي y o g u r d i* – اُلْ بُوزْء يُكُرْدِي o‘l böz yogurdi – u bo‘z to‘qidi.

---

* V.Radlovda: *adnavi//abnavi.*
** V.Radlovda: *ösärip.*
[117] Navoiyda ham *yugurdi* so‘zi *qattiq chopmoq* ma’nosida qo‘llangan:
Yugurdi hiylagar devonalardek,
Yiqilgan sham’ uza parvonalardek.
*** Olmaota nashri: *yukurdi.*

يَمُرْدِي y a m u r d ï – kesdi. اَرْ يِغاجْ يَمُرْدِي er yïg‘ach yamurdï – odam yog‘och kesdi. Boshqalari ham shunday (.يَمُرُرْ يَمُرْماكْ yamurur, yamurmaq).

يَبِشْدِي y a p i s h d ï* – yopishdi. يَلِمْ يُوكا يَبِشْدِي yelim yo‘kka[118] yapïshdï – yelim patga yopishdi, shuningdek, har narsaga yopishsa ham bu so‘z qo‘llanadi. **(474)**

ش (sh)

يَبِشْدى y a p i s h d i – yopishdi. اِتْ كَيِكّا يَبِشْدِي ït keyïkka yapïshdï – it ovga yopishdi (.يَبِشُرْ يَبِشْماكْ yapïshyp, yapishmaq).

يَذِشْدِي y a z ï s h d ï[119] – yozishdi. اُلْ اَنكارْ تُشاكْ يَذِشْدِي o‘l anar töshak yazïshdï – u unga to‘shak (o‘rin) yozishda yordam qilishdi. Bahslashish uchun ham bu so‘z qo‘llanadi (.يَذِشُرْ يَذِشْماقْ yazïshyr, yazïshmaq).

يُذُشْدِي y u z u s h d i – yuvishdi. اُلْ قِلِجْ تِنْ قانْ يُذُشْدى o‘l qïlïchtïn qan yuzushdi – qilichdan qonni ketkazishda yordam berdi. Kitobdan biror xatni qarash, har bir suyuq narsaning izini ketkazishga ham bu so‘z qo‘llanadi (.يُذُشُرْ يُذُشْماقْ yuzushur, yuzushmaq).

يِدِشْدِي y i d i s h d ï: يِدِشْدِي نانك yïdïshdt nes – biror narsaning bo‘laklari bir-birining ichida irib-chirib kirlandi, sasidi (يِدِشُرْ يِدِشْماقْ yïdïshyp, yïdïshmaq).

---

* Olmaota nashri: *yabushdi.*

[118] *Yo‘kka* so‘zi ustida bir oz aniqsizlik bor. Bu so‘z “Devon...”da يُوكّا shaklida berilgan. *Yo‘k* so‘zi har uch jildda ham جِمِلْ deb izohlangan. Brokkelmann buni ham shunday olgan (Qarang: Brokkelmann, 99-b. 18-satr). Holbuki, Koshg‘ariy bu so‘zga bu yerda بالريش deb ma’no bergan. Shu holda bu so‘zning shaklida ham farq bo‘lsa kerak deb taxmin qilamiz.

[119] Yozdi shakli u davr tilida keng tarqalgan variant edi. Hozirgi o‘zbek tilida faqat *yoymoq* shaklida qo‘llanuvchi so‘z ham u davr tilida *yozmoq* shakli bilan ifodalangan. Chunonchi, *xamir yoyish, kir yoyish* iboralari ham u davr tilida *yozmoq* so‘zi bilan ifodalangan. U davrda bu so‘zning *jatti* shaklidagi varianti ham yuzaga kelgan (Qarang: II jild. 253-b). Bu ham *yozmoq* variantining u davrda keng tarqalganini isbotlaydi. Hozirgi o‘zbek tilida *yoymoq* ham *yozmoq* maxsus mustaqil so‘zlar sifatida aniq farq qilinadi. Chunonchi, *xamir, gul hidi, kir, shuhratlanish* kabi so‘zlar bilan, albatta, *yoyilmoq* shakli qo‘llansa ham, tugunni yozish kabi maxsus iboralarda *yozmoq* varianti qo‘llanadi. Navoiyda ham “Devon”dagicha:

Oq sochini *yoydi* navha tuzdi,
Har nechaki urdi borin uzdi.

يِدِشْدي y e d ï s h d ï* – o‘l meŋa yenak yedishdi – y menga to‘n chalmasini tikishda yordam qildi. Bo‘xcha va boshqa shunday narsalar chetini tikishga ham bu so‘z qo‘llanadi (.يِدِشُرْ يِدِشْماكْ yedishur, yedïshmak). Oldingi fe’l masdari *q* li يدشماق *yedïshmaq*dir.

يُذُشْدي y u z u s h d i – yuklashdi. يُذُشْدي تَرِغْ اِكّى اُلْ o‘l ikki tarig‘ yuzushdi – ular ikkovi bug‘doy yuklashda bir-biriga yordam mavqeyi. Boshqalari ham shunday. Bahslashish uchun ham qo‘llanadi (يُذُشُرْ يُذُشْماكْ yyzÿshÿp, yuzo‘shmak).

يَرَشْدي y a r a s h d ï – kelishdi. يَرَشْدي اِكّي اُلارْ o‘lar ikki yarashdi – ular ikkovi bir ishda bir-biri bilan kelishdi (.يَرَشُورْ يَرَشْماقْ yarashyr, yarashmaq).

Quyidagi bayt kelishgandan so‘ng vafosizlik qilgan kishi haqida aytilgan:

[XIX]

أُرْتَقْ بُلْبْ بِلِشْدي
مَنِكْ تَقْرْ سَتِشْدي
بِستا بِلا يَرَشْتي
كِزْلَبْ تُتارْ تايِمى

Ortaq bolub bïlishdi
Meniŋ tawar satishdi
Bista bïla *yarashti*
Kizlab tutar tajïmï.

U men bilan tanishib o‘rtoq bo‘ldi. Tovarlarimni sotishga yordam berdi, so‘ng Bista saroybon bilan so‘z biriktirib, mendan toyimni yashirib qo‘ydi.

Bista – savdogarlarni uyi (saroyi)ga qo‘ndiradigan odam ismi. U savdogar molini sotishga yordam beradi, uni mehmon qiladi, uning mollari (qo‘ylari)ni to‘playdi, ularni boqadi. Savdogar ketar vaqtida yigirma qo‘y hisobiga xizmat haqiga bir qo‘y oladi. Tuxsiy, jag‘ma, chigil qabilalarida ham shunday. Ularda buni o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim (يَرَشْماقْ .يَرَشُورْ yarashyr, yarashmaq) deydi.

يَرِشْدي y a r i s h d i – poyga qildi. اُلْ اَنِكْ بِرْلا o‘l aniŋ birla at yarïshdï – u bilan **(475)** ot poyga qildi // ot choptirishdi.

---

* Olmaota nashrida: *yidishdi.*

يَرِشْدي y a r ï s h d ï – bo‘lishdi. اُلْ اَنِكْ بِرْلا تَقْرْ يَرِشْدي o‘l anïŋ birla tawar yarïshdï – u uning molini yarim-yarim qilib bo‘lishib oldi. Shuningdek, bu so‘z merosni bo‘lishga ham qo‘llanadi (يَرِشْماقْ .يَرِشُرْ yarïshyp, yarïshmaq).

يُرِشْدي y y r ï s h d ï – yurishda bahslashdi. اُلْ مَنِكْ بِرْلا يُرْتِشْدى o‘l menin birla yurïshdï – u men bilan yurishda bahslashdi.

يُرُشْدي y o r i s h d i* – تُرْقُو يُرُشْدي torqu yorïshdï – ipak kiyimlik yo‘l-yo‘llik bo‘ldi. Boshqasi ham shunday. Bu ipak kiyimlik buzilib qolganda bo‘ladi (يُرُشْماقْ .يُرُشُرْ yўnўshyp, yorўshmaq).

يِرِشْدي y i r i s h d i – يِرِشْدي نانكْ yirishdï neŋ – narsa yirildi, yorildi, bu ajralishdir.

يِرِشْدي y ï r i s h d i: اَرْ يِرِشْدي er yïrishdi – odam jilmaydi, yorishdi. Boshqalari ham shunday (يِرِشْماكْ .يِرِشُرْ yirishyr, yïrishmak).

يِرِشْدي y i y i s h d i – zaiflandi. اُلْ اِتْ تِيِشي يِرِشْدي o‘l it tishi yirishdi –itning tishi zaiflandi. Boshqalari ham shunday.

يَزِشْدي y a z ï s h d ï – yechishdi. اُلْ اَنكارْ تُكُونْ يَزِشْدي o‘l anar to‘go‘n yazishdï – u unga tugunni yechishda yordam berdi. Bahslashish ham shunday. (يَزِشْماقْ .يَزِشُرْ yazishyp, yazishmaq).

يَزِشْدي y a z ï s h d i: اُلْ مَنكا يا يَزِشْدي o‘l mena ya yazïshdï – u menga yoyni kamondan olishda yordam berdi. Boshqasi ham shunday (يَزِشْماقْ يَزِشُرْ yazishur, yazïshmaq).

يَغُشْدي y a g‘ u s h d i – yaqinlashdi. يَغُشْدي بِرْكا بِرْ نانكْ bir neŋ birga yag‘ushdï – bir narsa boshqasiga yaqinlashdi (يَغُشْماقْ يَغُشُرْ. yag‘ushyp, yag‘ushmaq).

يِغِشْدي y ï g‘ ï s h d i – yig‘ishdi, to‘plashdi. اُلْ مَنكا بُغْداىْ يِغِشْدي o‘l meŋa byg‘day yig‘ishdi – u menga bug‘doy yig‘ishga yordam qildi. Boshqalari ham shunday (يِغِشْماقْ .يِغِشُرْ yïg‘ïshyr, yïg‘ïshmaq).

يُفُشْدي y u f u s h d ï**: اُلارْ اَكي يُفُشْدي olar ikki jufushdi – ular ikkovi bir-biriga yordamlashib yaqinlashdilar (يُفُشْماقْ .يُفُشُرْ yufushur, yufushmaq).

---

* Olmaota nashri: *yurishdi.*

** V.Radlov va Olmaota nashrida: *yuvush – juvuš // juvüš.*

يۇشْدي y y w y s h d i – yumalatishdi (dumalatishdi). اَلارْ بِيرْ يۇشْدي بِيرگا تُبِقْ olar bir-birga topïq yywyshdï – ular ikkovi bir-biriga koptok yumalatishdi[120] (يۇشْمَاقْ .يۇشُرْ yywyshyr, yushushmaq).

يَقِشْدي y a q ï s h d ï: اُلْ اَنگَرْ يَقغْ يَقِشْدي o'l anar jaqïg' jaqïg' – u yaraga malham qo'yishda unga yordam qildi.

يَقِشْدي y a q ï s h d ï – yaqinlashdi. اَنِڭْ كَلْماكي يَقِشْدي aniŋ kelmagi yaqishdï – uning kelishi yaqinlashdi. Har narsaning mavjud bo'lishi, kelishi, yaqinlashishiga ham bu so'z qo'llanadi. So'zga chaqqon (so'zamol) odam so'zlaganda اَنِڭْ ايرْنِي يَقِشْماسْ *aniŋ irni yaqïshmas* deyiladiki, tez so'zlaganidan, so'zamolligidan lablari bir-biriga tegmaydi, demakdir (يَقِشْمَاقْ .يَقِشُرْ yaqïshur, yaqïshmaq)*. **(476)**

تُقُشْدي t o q u s h d ï – yoyildi, tarqalib ketdi. اُزُنْ تُقُشْدي uzuz toqushdï – yara yoyildi. Namlik sababli yara badanning bir yeridan ikkinchi yeriga yuqib ketdi (تُقُشْمَاقْ .تُقُشُورْ toqushur, toqushmaq).

يِقِشْدي y ï q ï s h d ï – yiqitishdi. اُلْ اَنگَرْ تَامْ يِقِشْدي o'l anar tam yïqïshdï – u unga devor yiqitishda yordam berdi. Boshqalari ham shunday (يِقِشْمَاقْ .يِقِشُورْ yïqïshur, yïqïshmaq).

يِلِشْدي y ï l ï s h d ï – ilidi. سُوْلارْ قَمُوغْ يِلِشْدي suwlar qamug' yïlïshdï – hamma suvlar ilidi. Boshqalari ham shunday (.يِلِشُرْ يِلِشْمَاقْ yïlïshur, yïlïshmaq).

يِلِشْدي y ï l ï s h d ï[121]: اُلارْ بِيرْ اِكِنْدِيكا اُغْرِي يِلِشْدي olar bir ikindiga og'rï jïlïshdï – ularning har ikkisi bir-biriga o'g'ri deb tuhmat qilishdi (يِلِشْمَاقْ .يِلِشُورْ yïlïshur, yïlïshmaq).

يُلُشْدي y u l u s h d i – talashdi, yulishdi. بُذُوْنْ بِيرْ اِكِنْدِيني يُلُشْدي buzun bir ikindini yulushdï – jamoa bir-birini talon-taroj qildi (يُلُشْمَاقْ يُلُشُورْyulushur, yulushmaq).

---

[120] Hozirgi o'zbek tilida *to'p* shaklida shu ma'noda qo'llanuvchi so'z, shubhasiz, *to'piq* so'zining qisqargan variantidir. Lekin ayrim lahjalarda bu ma'noda *koptok* so'zi qo'llanadi.

[121] Basim Atalay يِلِشْدي *jïlïshdï* shakli yanglish ekani, يَلَشْدي *jalashdï* bo'lishi kerakligi haqida izoh bergan. Haqiqatan bu so'z اُلْ اَنگَرْ اُغْرِي يَلَشْدي ol anar og'ri jaladi – *u unga o'g'ri deb tuhmat qildi* gapidagi يَلَدي *jaladi* va قُرُغْ يَلا يَلَدي *qurug' jala jalaldi – unga yolg'on tuhmat qilindi* gapidagi يَلَدي *jalaldi* so'zlari bir o'zakdandir. Bu misol shu fe'lning birgalik shaklidir. Shuning uchun to'g'risi يَلَشْدي *jalashdï* bo'lishi kerak.

يَمَشْدِي y a m a s h d i: اُلْ اَنگَرْ تُونْ يَمَشْدِي o'l aŋar ton yamashdï – u unga to'nni yamashga yordam qildi. Boshqalari ham shunday (يَمَشُورْ. يَمَشْماقْ yamashur, yamashmaq). Bahslashish uchun ham shunday.

يُنُشْدِي y o n u s h d ï – yo'nishdi, randalashdi. اُلارْ بِيرْ بِيرْكا اُقْ يُنُشْدِي o'lar bir-birga oq jonushdï – ular bir-biriga o'q yo'nishda yordam qildilar. Boshqalari ham shunday (يُنُشُورْ. يُنُشْماقْ yo'nushur, yonushmaq). Bahslashish ma'nosida ham qo'llaniladi.

ق *(q)*

يَتِقْتِي y a t ï q t ï – yot bo'ldi. يَغُقْ كِشِي يَتِقْتِي jag'uq kishi yatïqtï – yaqin odam begonalashdi (يَتِقْمَاقْ. يَتِقَارْ yatïqar, yatïqmaq).

يُتِقْتِي y u t ï q t i – qirildi. يِلْقِي يُتِقْتِي yïlqï yutïqtï – yilqi sovuqdan qirildi (يُتِقْمَاقْ. يُتِقَارْ yutïqar, yutïqmaq).

يَزِقْتِي y a z ï q t ï – yoz bo'ldi*. يِيلْ يَزِقْتِي jïl yazïqtï – vaqt yoz bo'ldi (يَزِقْمَاقْ. يَزِقْتَارْ yazïqar, yazïqmaq).

يَشِقْتِي y a sh ï q t ï: كُوزْ يَشِقْتِي köz yashïqtï – ko'z quyoshdan, uning tig'idan yoshlanib qamashdi (يَشِقْمَاقْ. يَشِقَارْ yashïqar, yashïqmaq).

يَغِقْتِي y a g' ï q t ï – dushmanlashdi: بَگْلارْ بِيرْ بِيرْكا يَغِقْتِي beglar bir-birgä yag'ïqtï – beklar bir-biriga dushmanlashishdi (يَغِقَارْ. يَغِقْمَاقْ yag'ïqap, yag'ïqmaq).

ل *(l)*

يَبُلْدِي y a p u l d ï – yopildi. قَبُغْ يَبُلْدِي qabug' yanuldï – eshik bekildi. Har bir bekilgan narsaga ham bu so'z qo'llanadi (يَبُلُورْ. يَبُلْمَاقْ yaplyr, yapulmaq).

يُبُلْدِي y u p a l d ï: اِيشْ يُبُلْدِي ïsh jupaldï – ish o'z holiga tashlab qo'yildi, e'tibor berilmadi (يُبُلْمَاقْ. يُبُلُورْ yupalur, yupalmaq).

يِتِلْدِي y e t i l d i – yetib olindi. اُلْ سُكا يِتِلْدِي o'l so'gä jetildi – u askarga yetib oldi. Boshqalari ham shunday (يِتِلْمَاكْ. يِتِلُورْ yetilyp, (477) yetilmäk).

يَزِلْدِي y a z ï l d ï – yoyildi. سُو يَزِلْدِي su yazïldï – askar yoyildi. Boshqalari ham shunday.

يَزِلْدِي y a z ï l d ï: تُونْ كُونكا يَزِلْدِي ton ko'nga yazïldï – to'n quyoshga yeyildi, yozildi. Yoyilgan har bir narsaga ham bu so'z qo'llanadi.

---

* V.Radlov va Olmaota nashrida: *bahorlashdi.*

يُذْلدي y a z ï l d ï – yoyildi. يَاغْ تُوشدا يَذِلْدي yag‘ tonda yazïldï – to‘nga yog‘ yoyildi. Boshqalari ham shunday (يُذْلَماقْ .يُذْلُوزْ yazïlur, yazïlmaq).

يُذْلدي y u z u l d ï – yuvildi. قانْ قِلِجْتِنْ يُذْلدي qan qïlïchtïn yyzuldï – qon qilichdan yuvildi, ketkazildi.

يُذْلدي y y z u l d ï: اَنِكْ اَتي اَيْدِنْ يُذْلدي anïch atï ajdïn[122] juzuldï – uning nomi xon daftaridan o‘chirildi. Ketkazilgan, yo‘q qilingan har narsaga[123] ham bu so‘z qo‘llanadi (يُذْلَماقْ .يُذْلُوزْ yuzlur, yjuzulmaq).

يَذِلْدي y a z ï l d ï: يُتْكاكْ يَذِلْدي jo‘tgäk[124*] yazïldï – bo‘xcha tiqildi, ichiga narsa qo‘yildi (يَذِلَماقْ .يَذِلُوزْ yazïlur, yazïlmaq)[125].

يَرِلْدي y a p ï l d ï – yorildi. قاب يَرِلْدي qap yarïldï – qop yorildi. Boshqalari ham shunday (يَرِلَماقْ .يَرِلُوزْ yarïlur, yarïlmaq).

يَرِلْدي y a r ï l d ï – sindirildi**. بُتَقْ يَرِلْدي butiq yarïldï – shox sindirildi. Har bir narsa sindirilsa ham bu so‘z qo‘llanadi. (.يَزِلُوزْ يَرِلَماقْ yarïlyp, yarïlmaq).

يُرُلْدي y o r u l d ï – yechildi. اُغْلْ بِشْكِتِنْ يُرُلْدي og‘ul beshiktin jopyldï – bola beshikdan yechildi (يُرُلَماقْ .يُرُلُوزْ yorulyp, yorulmaq).

يَزِلْدي y a z ï l d ï – yechildi[126]. تُكُونْ يَزِلْدي to‘go‘n yazïldï – tugun yechildi. Boshqalari ham shunday.

---

[122] اَيْدِنْ so‘zi qo‘lyozmada اندن qilib tuzatilgani haqida Basim Atalay izoh bergan (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 77-b).

[123] Hozirgi tilda bu ma’no bir qancha so‘zlar bilan, chunonchi, *yuvmoq, sidirmoq, supurmoq, o‘chirmoq, izini yo‘qotmoq, ketkazmoq, yo‘q qilinmoq, artib tozalamoq* iborasi bilan ifoda etiladi.

[124] Bu so‘z bosma nusxada يُتْكاكْ shaklida berilgan. Basim Atalayda يَتْكاكْ shakli noaniq qoldirilib, *uetdek* shaklida transkriptsiya qilingan. Lekin bu haqda Basim Atalay izoh bermagan. Shu so‘z III jildning 320-betida aniq ravishda يُتْكاكْshaklida keltirilgan. Basim Atalay ham u yerda shu aniq shaklni keltirgan. Biz ham shuning uchun bosma nusxaga o‘zgartirish kiritdik.

* Bu so‘z V.Radlovda: *jetdäk;* Olmaota nashrida: *yitkak* shaklida. V.Radlov *jetdäk jebïldi*ni *to‘rva tikildi* deb, Olmaota nashri esa *to‘rva tugildi* deb tarjima qilishgan.

[125] Bu so‘z qo‘lyozmadan so‘ng o‘zgarganligi haqida Basim Atalay izoh bergan (Qarang: III jild. 77-b). Lekin biz bosma nusxaga asoslandik va *q* bilan berdik. يَذِلَماقْ *yazilmak* so‘zi yuqoridagi gaplarda *yoyilmoq* ma’nosida qo‘llangan, faqat shu gapda uning teskari ma’nosi *tugmoq* ma’nosidadir. Demak, bu so‘zning shu ma’nosi zid qo‘yish asosida yuzaga kelgandir. Mahmud Koshg‘ariy so‘zlardagi yangi ma’no ziddiyat asosida ham yuzaga kelishini o‘sha davrdayoq uqtirgan.

** V.Radlov va Olmaota nashrida: *ayirildi, ajraldi, tarmoqlandi* deb olingan.

يَسِلْدي y a s ï l d ï – e'tiborsiz qoldirildi. ايش يَسِلْدي ïsh yasïldï – ish tashlandi, asboblari tarqatib yuborildi.

يَسِلْدي y a s ï l d ï – olindi. يا يَسِلْدي ja yasïldï – yoy sadoq (o'qdon)dan olindi.

يَسِلْدي y a s ï l d ï – tarqalib ketdi[127]. سو يَسِلْدي so' yasïldï – askar tarqalib ketdi. Boshqalari ham shunday. Har narsa tarqalib ketishiga ham bu so'z qo'llanadi (يَسِلْماقْ .يَسِلْورْ yacïlur, yacïlmaq).

يُشُلْدي y u s h u l d ï: قانْ يُشُلْدي qan yushuldï – qon yaradan vishillab chiqdi[128*]. Boshqalari ham shunday. (يُشُلْماقْ .يُشُلْورْ yushulur, yushulmaq).

يِشِلْدي y e s h i l d i – qovushdi, kelishdi. آنِكْ اِلِكي اِيشْقا يُشُلْدي aniŋ eligi ïshqa jeshildi – uning qo'li ishga qovushdi.

يُشِلْدي y u s h i l d i – sirka, bo'za kabi narsalar qumg'on jo'mragidan oqizilishiga ham bu so'z qo'llanadi[129] (يُشِلْماكْ .يُشِلْورْ yushilyr, yushilmak)[130].

يَغِلْدي y a g' ï l d ï – yog'dirildi[**]. يَغْمُرْ يَغِلْدي yag'myp yag'ïldï – yomg'ir yog'dirildi. Boshqalari ham shunday (يَغِلْماقْ .يَغِلْورْ yag'ïlur, yag'ïlmaq).

يِغِلْدي y ï g' ï l d ï – chekindi. اَرْ اِيشْتِنْ يِغِلْدي er ïshtïn yïldï – odam ishdan chekindi. Boshqalari ham shunday. Birov chekintirsa ham shu so'z qo'llanadi. Bu fe'l o'timli va o'timsiz ko'rinishlarda qo'llanadi (يِغِلْماقْ .يِغِلْورْ yïg'ïlur, yag'ïlmaq). **(478)**

يِغِلْدي y ï g' ï l d ï – yig'ildi. بُتُنْ يِغِلْدي buzun yïg'ïldï – jamoa to'plandi.

---

[126] *Yechilmoq* ma'nosida yuqoridagi gapda يُزُلْدي *yoruldi* so'zi qo'llangan edi. Bu gapda يَزِلْماقْ *yazïlmaq* qo'llangan. Demak, bu davr tilida ob'ektga nisbatan farqli qo'llanuvchi sinonim so'zlar bor bo'lgan.

[127] *Yeyilmoq, siljimoq, sizib ketmoq, tarqalib ketmoq* ma'nolarida yuqorida *jazïlmaq* so'zi qo'llangan edi. *Tarqalmoq* ma'nosidagi يَسِلْماقْ yasïlmaq so'zi ana shu *yozilmoq* o'zagidandir: *z s* ga almashgan.

[128] Qonning ovoz bilan chiqishini anglatuvchi bu ibora u davr tilining alohida xususiyatini ko'rsatish uchun xarakterli misoldir.

[*] Olmaota nashrida: *oqdi.*

[129] Bu so'z haqidagi arabcha izoh كذلك اومن المرى tarzida berilgan, المرى so'zi المرز bo'lishi kerak.

[130] يُشِلْماكْ so'zi qo'lyozmada so'ng يُشِلْماقْ shaklida tuzatilgani haqida Basim Atalay izoh bergan.

[**] Olmaota nashri va V.Radlovda: *yog'di.*

يِغِلْدِي y ï g‘ ï l d ï: يَرْماقْ يِغِلْدِي yarmaq yïg‘ïldï – tanga to‘plandi. Boshqalari ham shunday.

يِغِلْدِي y ï g‘ ï l d ï – uyildi. تُبْراقْ يِغِلْدِي topraq yïg‘ïldï – tuproq uyildi. Boshqalari ham shunday (يِغِلْماقْ . يِغِلُورْ yïg‘ïlyr, yïg‘ïlmaq).

يُقْلْدِي y u w u l d ï: أَغْلانْ يُقْلْدِي og‘lan yuwuldï – bolaning beboshligi tinchitildi (يُقْلْماقْ . يُقْلُورْ yuwulur, yuwulmaq).

يُقْلْدِي y u w y l d ï – dumalatildi. تُبِقْ يُقْلْدِي topïq yuwuldï – to‘p, koptok dumalatildi. Boshqalari ham shunday (يُقْلْماقْ . يُقْلُورْ yuwlur, yuwulmaq):

[XX]

اَيْدِمْ اَنكَرْ سَقْلْما
قُلْبَقْ اُذُو يُقْلْما
يُقْرا سقْن سقْلْما
قَبْتي مَنِكْ قايِمي

Aydïm aŋar sawulma
Qulbaq* uzu *yywylma*
Yywg‘a co‘win säwulma
Qaptï meniŋ qajïmï.

Bevafolik qilgan odam haqida aytadi: unga, Qulbaqqa yaqinlik ko‘rsatma (bu bir odamning nomi), uning atrofida o‘ralashma, tagi yo‘q suvga havaslanma, u mening qay qabilasidan keltirilgan qulimni olib qochdi.

يِغِلْدِي y ï g‘ ï l d ï[131]: سُو يِغِلْدِي so‘ yïg‘ïldï** – askar yetishdi.

يَقْلْدِي y e w o‘ l d i – etildi. بَكْنِي يَقْلْدِي bekni jawyldi – bo‘za yetildi (u bug‘doy va tariqdan qilingan ichimlikdir).

يِغِلْدِي y ï g‘ ï l d ï[132]: بِلِكْ يِغِلْدِي bilig yig‘ildï – aqli to‘lishdi. Har bir narsa yetishsa, vaqtini topsa, keti avvaliga yetishsa ham shunday deyiladi (يِغِلْماكْ . يِغِلُورْ yewylyr, yewylmäk)[133]

---

* Olmaota nashrida: *suvulma.* Misraning ma’nosi: “notanish buloqdan suv olma” deb berilgan.

[131] يِغِلْدِي *jig‘ildï* so‘zini Basim Atalay يَقْلْدِي *jewyldi* bo‘lishi kerak deb izoh bergan (Qarang: II jild. 81-b).

** Olmaota nashrida: *askar sipohlandi.*

[132] Bu gapdagi يِغِلْدِي *yigildï* so‘zi haqida ham Basim Atalay yuqoridagi so‘z shakliga ko‘ra يُقْلْدِي *yuwuldi* bo‘lishi kerak deb izoh bergan (Qarang: III jild. 81-b). Haqiqatda bu so‘zlarning masdar va kelasi zamon formalari shunday berilgan.

يَقِلْدي y a q ï l d ï – tegildi. اَنكَرْ يَقِلْدي anar yaqïldï – unga tegib ketdi (يَقِلْماقْ .يَقِلُورْ yaqïlur, yaqïlmaq).

يُقُلْدي y u q u l d ï – yuqtirildi. تُونقا قَرا يُقُلْدي tonqa qara yuquldï – to‘nga qora yuqtirildi. Boshqalari ham shunday (يُقُلْماقْ .يُقُلُورْ yuqulur, yuqulmaq).

يِقِلْدي y ï q ï l d ï: تامْ يِقِلْدي tam yïqïldï – devor yiqildi. Boshqalari ham shunday (يِقِلْماقْ .يِقِلُورْ yïqïlur, yïqïlmaq).

يَمَلْدي y a m a ld ï: تُونْ يَمَلْدي ton yamaldï – to‘n yamaldi. Boshqalari ham shunday (يَمَلْماكْ .يَمَلُورْ yamalur, yamalmaq).

يَنُلْدي y a n u l d ï – qayraldi. بِجاكْ يَنُلْدي bichak yanuldï – pichoq qayraldi. Qo‘lda o‘tkirlangan hamma narsaga bu so‘z qo‘llanadi (يَنُلْماقْ .يَنُلُورْ yanylyp, yanulmaq).

يُنُلْدي y o n u l d ï: يِغاچْ يُنُلْدي yig‘ach yonuldi – yog‘och yo‘nildi. Boshqalari ham shunday (يُنُلْماقْ .يُنُلُورْ yonulur, yonulmaq).

Bu bo‘limning muzoaflari

يَلَلْدي y a l a l d ï – tuhmat qilindi. اَنكَرْ قُرُغْ يِلا يَلَلْدي anar qurug‘ jala yalaldï – unga quruq tuhmat qilindi (يَلَلْماقْ .يَلَلُورْ jalalyy, yalalmaq).

يُلَلْدي y u l a l d ï: تامْ يُلَلْدي tam yylaldï – devor ustun bilan tirgaklandi (يُلَلْماك .يُلَلُورْ yylälyr, yo‘lälmäk). **(479)**

يُلِلْدي y o‘ l ï l d i – qirib olindi. سَجْ يُلِلْدي sach jylildi – soch olindi. يُلِلْماكْ .يُلِلُورْ yo‘lïlo‘r, jo‘lïlmak).

ن (n)

يَبِنْدي y a p ï n d ï – اَرْ قَلْقَنْ يَبِنْدي er qalqan yapïndï – odam qalqon bilan yashirindi.

يَبِنْدي y a p ï n d ï: اُلْ قَبَغْ يَبِنْدي o‘l qanug‘ yapïndï – u eshikni o‘zi bekitdi (يَبِنْماكْ .يَبِنُورْ yapïnyr, yapïnmaq).

يُبَنْدي y y p a n d ï – tortindi. اَيشْتِنْ يُبَنْدي اَرْer ïshtïn yupandï – odam ishdan chetlashdi (يُبَنْماقْ .يُبَنُورْ yypanyr, yupanmaq).

يَجَنْدي y a c h a n d ï: اُلْ مَنْدِنْ يُبَنْدي o‘l mendin yachandï – y mendan ishni o‘rinlatmagani uchun uyaldi (يُبَنْماقْ .يُبَنُورْ yachanyp, yachanmaq).

---

[133] Bu shakl bosma nusxada shu yerga noo‘rin tushgan. Asli bu shakl yuqoridagi *yewo‘ldi* so‘ziga taalluqlidir.

يَزِنْدِي y a z ï n d ï اُلْ تُونِونِنْ كُونْكا يَزِنْدِي o‘l tonin ko‘nga yazïndï – y to‘nini kunga yoymoqchi bo‘ldi. To‘ndan boshqaga ham bu so‘z qo‘llanadi (يَزِنْماقْ .يَزِنُورْ yazïnur, yazïnmaq).

يُزُنْدِي y u z u n d ï: اُلْ كُوزْدِنْ ياشْ يُزُنْدِي o‘l közdin yash yuzundï – y ko‘zdan yoshni artdi. Har narsani bir narsaga bir o‘zi artib surishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (يُزُنْماقْ .يُزُنُورْ yuzunyp, yuzunmaq).

يَرَنْدِي y a r a n d ï: اُلْ اَتْ يُزُنْدِي o‘l at yarandï – ot poyga maydonida o‘rganguncha chopishga o‘rgatildi.

يَرَنْدِي y a r a n d ï – xushomadgo‘ylik, tilyog‘lamalik qildi. اُلْ مَنْكا يَرَنْدِي o‘l menä yarandi – u menga tilyog‘lamalik qildi (يَرَنُورْ. يَرَنْماقْ yaranyp, yaranmaq).

يَرِنْدِي y a r ï n d ï: اُلْ بُتِقْ يَرِنْدِي o‘l butïq jarïndï – u o‘zi uchun shox yorishga kirishdi. Boshqalari ham shunday (يَرِنُورْ. يَرِنْماقْ yarinyr, yarïnmaq).

يَزِنْدِي y a z ï n d ï: اَرْ قُورِنْ يَزِنْدِي er qorïn yazïndï – odam belbog‘ini o‘zi yechmoqchi bo‘ldi. Boshqalari ham shunday (يَزِنُورْ. يَزِنْماقْ yazïnyr, yazïnmaq).

يِغِنْدِي y i g‘ ï n d ï – yig‘ishga kirishdi. اَرْ اُوزِنكا يَرْماقْ يِغِنْدِي er özinä yarmaq yig‘ïndï – odam o‘zi uchun tanga (pul) yig‘ishga kirishdi (يِغِنُورْ. يِغِنْماقْ yig‘ïnnur, yig‘ïnmaq).

يُكُنْدِي y u k u n d i: قُلْ تَنكْرى كا يُكُنْدِي qul tenrigä yykundi – qul Xudoga sajda qildi. تُيُنْ بُرْخَنْقا يُكُنْدِي tojïn[134] burxanqa yukundi – To‘yin (budda dinining boshlig‘i) butga cho‘qindi.

يُكُنْدِي y u k u n d i – bosh egdi. اُلْ مَنْكا يُكُنْدِي o‘l menä yukundï – u menga hurmat yuzasidan bosh egdi (يُكُنُورْ. يُكُنْماكْ yukunur, yukunmak). She’rda shunday kelgan:

---

[134] تُيُنْ *tojïn* so‘zi “Devon”da bir necha yerda uchraydi. Har yerda *budda boshlig‘i* ma’nosida qo‘llangan. Bu so‘z Navoiy asarlarida ham uchraydi. Unda terisidan qimmatbaho savsar qilinadigan ov hayvoni ma’nosida uchraydi:

*To‘yin*ning o‘z tuki uq bo‘ldi boshiga ofat,
Furaysaning paridin keldi o‘z boshiga balo.

Ma’nosi: to‘yinni ovchilar doim payida bo‘lib, ovlashlariga sabab, uning terisining po‘stinbopligi bo‘lsa, furaysa qushini ham ovlashlariga sabab uning o‘z patidir. Uning pati ko‘kyo‘tal bolalarga davodir. Patini kuydirib, ko‘kyo‘tal bolalarga ichirish odat edi. V.Radlovda Tojïn // tojun – *buddaviy dini rohibi*; Olmaota nashrida: *g‘ayriddin.*

[XXI]

يُكْنُبْ مَنْكا اِمْلَدِي
كُزُمْ ياشِنْ يَمْلَدِي
بَغْرِمْ باشِنْ اَمْلَدِي
اَلْكِنْ بُلُبْ اُلْ كُجارْ

Yo'kino'p mena imlädi
Közo'm yashïn jamladï
Bag'rïm* bashïn emlädi
Elkin bolup ol kechär[135].

Seviklisining kechasi uyga kelish orzusini ta'riflab aytadi: u meni qaytadan tiriltirdi. Menga ta'zim qilib ishorat qildi. Uni ko'rish bilan yoshlangan ko'zim shifo topdi, dilim yarasi sog'aydi, u musofir edi, o'z yo'liga ketdi.

يَلَنْدِي y a l ï n d ï – yechindi, yalang'ochlandi. اَرْ يَلَنْدِي er yalïndï[136] – odam yechindi. Boshqalari ham shunday (يَلَنُورْ. يَلَنْماقْ jalïnur, jalïnmaq).

يَلَنْدِي y u l u n d ï: سَجْ يَلَنْدِي sach yulundï[137] – soch yulindi.

يُلَنْدِي yulundï – ozod qilindi قُلْ يُلَنْدِي qul yulundï – qul xo'jayinga o'z qiymatini to'lagani uchun ozod qilindi.

يُلَنْدِي y u l u n d ï – qutqarildi. بُلُنْ يُلَنْدِي bolun yulundï – asir pul to'lab qutqarildi.

يُلَنْدِي y u l u n d ï – ajraldi. اُراغْتْ يُلَنْدِي urag'ut yulundï – xotin eriga pul to'lab ajraldi (يُلَنْماكْ .يُلَنُورْ yulunur, yulunmaq).

---

* Olmaota nashrida: *yag'rim.*

[135] B.Atalay ko'rsatishicha, yozma nusxada كَجار ekan, biz shunga muvofiq tuzatdik (Qarang: "Devon…" tarjimasi, III jild. 84-b).

[136] يَلَنْماقْ *yalïnmaq* so'zi hozir bizda *yalinmoq, o'tinib so'ramoq* ma'nosida qo'llanadi. Lekin bu so'zning u davrdagi ma'nosi *yalang–yalang'och* so'zlaridagina saqlanib qolgan: Chunonchi: *yalangoyoq, bosh yalang, yalang er* va boshqalar. Bu misol so'zlar ma'nosidagi o'zgarish juda ko'p shakllarda yuzaga kelishini ko'rsatish jihatidan muhimdir.

[137] يُلَماقْ *yulmaq* so'zi hozirgi o'zbek tilida shu ma'noda qo'llansa ham, *soch* so'ziga nisbatan emas, asosan, *o'tga, patga* nisbatan qo'llanadi. Lekin *soch*ga nisbatan maxsus sharoitdagina, ya'ni g'azabli, alamli holatlardagina qo'llanadi. Shu bilan birga, bu so'z hozirgi tilda *tortib olmoq, noto'g'ri yo'l bilan o'zlashtirmoq* ma'nolarida ham qo'llanadi.

يَمَنْدِي y a m a n d ï – yamamoqchi bo‘ldi. اَرْ تُونِنْ يَمَنْدِي er tonïn yamandï – odam to‘nini yamamoqqa kirishdi (يَمَنْمَاقْ. يَمَنُورْ yamanyr, yamanmaq).

يُمُنْدِي y u m u n d ï: اُلْ كُوزِنْ يُمُنْدِي o‘l kozin yumundi[138] – u ko‘zini yumadiganday ko‘rindi. (يُمُنْمَاقْ. يُمُنُورْ yumïnur, yumïnmaq).

يُنُنْدِي y o n u n d ï: اُلْ يِغاجْ يُنُنْدِي o‘l yïg‘ach yonundï – u yog‘och yo‘nayotganday ko‘rindi. Boshqalari ham shunday (يُنُنُورْ. يُنُنْمَاقْ yonunyp, yonunmaq).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

يَيِنْدِي y a y i n d ï: اُلْ سُقْدا تُونِنْ يَيِنْدِي o‘l suvda tonin yayindï – u to‘nini suvda o‘zi yuvdi. Boshqalari ham shunday (يَيِنُورْ. يَيِنْمَاقْ yayinyp, yayinmaq).

---

[138] XI asr tilida *tozundï, bichindi, tïtïndï* kabi o‘zak bilan o‘tgan zamon fe’l affiksi orasiga *n* qo‘shilib, yasaladigan fe’l shakli ko‘p qo‘llanar edi. Bu fe’l shakli maxsus mustaqil fe’l bo‘lib, bir necha xil ma’nolarni ifodalar edi. Shulardan biri bo‘lmagan ishni qilgandek ko‘rsatish ma’nosidir. Chunonchi, يُمُنْدِي jumundï – *yumayotgandek ko‘rindi, aslida u yummagan edi,* demakdir. Bu fe’l shakli jonli tilda juda siyrak uchraydi, qashïndï – *qashinayotgandek ko‘rindi* kabi. Hozirgi o‘zbek tilida bu ma’no murakkab fe’l shakli orqali o‘zakka *yotgandek ko‘rindi* iborasining qo‘shilishi bilan ifoda etiladi: *yozayotgandek ko‘rindi, o‘qiyotgandek ko‘rindi* kabi.

OXIRI HARFI ILLAT BO‘LGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI

ب *(p)*

يُبادي y u p a d ï: اَرْ ايشغْ يُبادي er ïshïg‘ yynadï – odam ishga e’tibor bermadi, ketiga tushmadi (يُباماقْ .يُبارْ yypap, yupamaq).

ذ *(z)*

يِذِيدي y ï z ï d ï – hidlandi. اَتْ يِذِيدي et yïzïdï – et hidlandi. Har narsa hidlansa ham shu so‘z qo‘llanadi (يِذِيماقْ .يِذِيرْjïzïr, jïzïmaq).

ر *(r)*

يَرُودي y a r u d ï – yoridi. كُونْ يَرُودي kun jarudï – kun yorishdi. Qorong‘i joy yorisa ham shu so‘z qo‘llanadi (يَرُورْماقْ .يَرُورْ yarur, yarumaq).

يَرادي y a r a d ï – yaradi, mos keldi. اُلْ نانكْ اَنْكَرْ يَرادي o‘l neŋ anar yaradï – u narsa unga yaradi, muvofiq bo‘ldi (يَراماقْ .يَرارْ yapap, yapamaq). Yarashgan, muvofiq kelgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

Maqolda shunday kelgan:

اَتا تونى اُغُلْقا يَراسا اتاسِنْ تِلامَسْ

Ata tonï og‘ulqa yarasa atasïn tilämäs

Otaning to‘ni o‘g‘ilga mos kelsa, undan so‘ng o‘g‘il meros olish uchun otasining tirikligini istamaydi. Buning yana boshqa bir ma’nosi bor: so‘ng o‘g‘ilning otaga ehtiyoji qolmaydi.

O‘g‘uzlar shu so‘z ma’nosidan kelib chiqib, يُولْ يَراسِنْ yol jarasun, deydilarki, yo‘l maqsadingga muvofiq bo‘lsin, demakdir.

يَريدي y u r ï d ï – yurdi. اَرْ يَريدي er yypïdï **(481)** – odam yurdi. Boshqasi ham shunday. Har narsaning yurishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (يَريماقْ .يَريرْ y u r ï r, yypïmaq). Maqolda ham shunday kelgan:

تُنْلا يُرُبْ كُنْدُزْ سَقْتُورْ كِچِكْدي اذلنب اُلْغَدُو سَقْتُورْ

To‘nlä[139] yypyp ko‘ndo‘z sewnyr, Kichikdä ezlanib[140] ulg‘azu sewnur.

---

[139] Bu so‘zdagi *-la* affiksi vosita kelishigining bir variantidir. Vosita kelishigi u davr tilida *-in, -un* affikslari bilan ham qo‘llangan. Bu kelishik vazifasiga bilan yordamchisi ham mos keladi. Nima uchundir Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida bu affiksning ikki varianti haqidagina izoh bergan:

يرْلا حَرْفٌ و مَعْناهُ مَعَ يُقالُ: اُلْ مَنِنْكْ يرْلا اَرْدي. اَىْ اَنَهُ كانَ مَعي

Kech bilan yurib kunduz sevinadi, chunki u yo‘lni ko‘rmasdan bosadi. Yoshlikda uylangan kishi qariganda sevinadi, chunki uning bolalari unga yordam beradilar, u rohat ko‘radi.

پرادي y ï r a d ï: پرادي نانكْ yïradï neŋ – narsa uzoqlashdi (پراڑ. پراماقْ yïrar, yïramaq).

ز *(z)*

يَزَادي y a z a d ï: اَڑْ قِشْلاغدا يَزَادي er qïshlag‘da yazadï – odam yoz[141], bahorni qishloqda o‘tkazdi (يَزَاماقْ .يَزَارْ yazar, yazamaq).

يُزَادي y u z a d ï: قُويْ يُزَادي qoy yuzadï – qo‘y qisir qoldi. Shuningdek, har bir hayvon ayg‘ir chopgan bo‘lsa ham, bo‘g‘oz bo‘lmay qisir qolsa, shunday – يُزَادي *yuzadï* deyiladi. Faqat baytalga bu so‘z qo‘llanmaydi. Baytal haqida[142] بِى قِسِرْ بُلْدي bi qïsïr boldï – biya qisir qoldi deyiladi (يُزَارْ .يُزَاماقْ yuzar, yuzamaq).

يَزادي y e z ä d i – kuzatib chiqdi. يَزاكْ قَمُغْ بِيرِكْ يَزادي jezak qamug‘ jïpir jezädi – ayg‘oqchi* birorta dushman bor emasmi deb, hamma yoqni kuzatib chiqdi (يَزاماكْ .يَزارْ yezar, yezämäk). Bu so‘z kam qo‘llanadigan so‘zlardandir.

ش *(sh)*

يَشادىَ y a s h a d ï – yashadi. اَڑْ اُزُونْ يَشادىَ er uzun yashadï – odam uzoq yashadi (يَشاماقْ .يَشارْ yashar, yashamaq) يَرُودي يَشُودي y a r y d ï, yashudï** – rohatlandi, shodlandi.

Tarjimasi: birla so‘zi birga, sherik ma’nosidadir: *ol menin birla erdi* kabi. Yengillik uchun ba’zan *r* tushirilib, *bila* shaklida qo‘llanadi. Bu qo‘shimcha XI asr adabiy tilida, asosan, *birla, bilan, birlan* shakllarida uchraydi:

Bilik birla yozlur qamug‘ ters tugun.
Bilishti, ko‘rushti kishilar bila.
Bilik *birlan* etlur qamug‘ turluk ish.

[140] Maqoldagi اذلنبْ shaklida berilgan so‘z اَڤلَنْبْ deb tarjima qilingan. Demak, اذلنبْ shakli yanglishdir. Basim Atalay bu so‘z yozma nusxada oldin unutilib, so‘ng اَلغَدو so‘zi ustiga اَڤلَنْبْ shaklida ingichka qilib yozilgani haqida izoh bergan (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 88-b).

[141] Yoz so‘zi XI asr tilida yoz va bahor ma’nolarida qo‘llangan. Bizda hozir faqat *yoz* ma’nosidagina etib kelgan. Folklorda *bahor* ma’nosida uchraydi. *Laylak keldi – yoz bo‘ldi* iborasida kelgani kabi.

[142] بى *bi* so‘zi qo‘lyozmada ham shu shaklda bo‘lganiga qaramay, Basim Atalay Radlovning “Chig‘atoy lug‘ati”da *bija* ekani haqida izoh bergan. Bizda ham *bija* shaklida qo‘llanadi. Demak, bu so‘z ko‘p tillarda ancha ilgarilar o‘zgargandir.

* V.Radlovda va Olmaota nashrida *yezäk* – qo‘shinning ayg‘oqchi ilg‘ori (dozor). Eski o‘zbek tilida keyinroq bu tushunchani *qaraqo‘l* va *ilg‘or* (qoraqo‘l) so‘zlari ifodalagan.

** Olmaota nashrida faqat shu so‘z asosiy so‘z qilib berilgan.

اَرْ يَرُودِي يَشُودِي er yarudï yashudï – odam rohatlandi, shodlikdan sevindi. يَشُودِي so‘zi yolg‘iz o‘zi qo‘llanmaydi, يَرُودِي bilan birga qo‘llanadi (يَرُوماقْ يَشُورْ. يَرُورْ yaryr, yashur, yarumaq. yashumaq[143])

غ *(g‘)*

يَغُودِي y a g‘ u d ï – yaqinlashdi. بَكْ كَلْماكِي يَغُودِي beg kelmägi jag‘udï – bekning kelishi yaqinlashdi. Boshqalari ham shunday (يَغُوماقْ. يَغُورْ yag‘yr, yag‘urmaq).

يَلادِي y a l a d ï – tuhmat qildi. اُلْ اَنكَرْ أغْرِي يَلادِي o‘l anar og‘rï jaladï – u unga o‘g‘ri deb tuhmat qildi. Boshqalari ham shunday (يَلاماقْ. يَلارْ yag‘up, yag‘urmaq).

يُلادِي y u l ä d ï – tirgovich qo‘ydi. اُلْ تامِغْ يُلادِي o‘l tamïg‘ jo‘lädï – u devorga tirgovich qo‘ydi. Boshqalari ham shunday (يُلاماكْ. يُلارْ yylär, yo‘lämäk). She’rda shunday kelgan:

[XXII]

اُلْغْنِي تِلارْمانْ
تَقْارِنْ يُلارْمانْ
تِلَكْنِي بُلارْمَنْ
يِلْقِمْ اَنكَرْ اُبْلَنُورْ

Ulug‘nï[144] tilarman
Tawarïn *yulärmän*

---

[143] Mahmud Koshg‘ariyning qo‘sh(al)oq so‘zlar haqidagi bu xil alohida qaydlari ham uning o‘ta sezgirligidan, yetukligidan dalolat beruvchi faktdir. Bizda bu xil xususiyatlar hanuz qat’iyatsiz qolmoqda. Chunonchi, hozirgi o‘zbek tilida *aralash-quralash, chalkash-chulkash* so‘zlari ana shu xildagi qo‘sh(al)oq so‘zlardandir. Bu nihoyat qattiq *aralashlik, chalkashlik* ma’nosida mubolag‘ali mazmunda, faqat qo‘sh(al)oq holda qo‘llanadigan maxsus so‘zlardandir.

[144] Mahmud Koshgariy اُلغْ *ulug‘* so‘zini *ilm* deb tarjima qilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Basim Atalay bu haqdagi arabcha iboraga tuzatish kiritmoqchi bo‘lgan. Basim Atalay fikriga ko‘ra, M.Koshg‘ariyning اطلب الغلم iborasi اطلب المجد bo‘lishi kerak ekan. Agar shunday bo‘lsa ham اطلب المجداى tarzida bo‘lishi kerak bo‘ladi. Bu yerda Mahmud Koshg‘ariy to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulug‘likni *ilm* deb izohlagan bo‘lishi – so‘zga istiora asosida ma’no bergan bo‘lishi, albatta, mumkin. Basim Atalayga ko‘ra, واجدالمراد bo‘lishi kerak, darhaqiqat, *tiläkni bularmen* so‘zi shunday tarjima qilinishi kerak edi. Lekin Mahmud Koshg‘ariy iborasidan bu jumlasiz ham shu maqsad anglashiladi.

Bizning izoh: Menimcha, bu yerdagi ulug‘ so‘zida ikkinchi و noto‘g‘ri tushgan. Aslida *ulug‘* bo‘lsa kerak. *Ulig‘ // ulag‘* so‘zlarining “ulov” ma’nosi ham, “aloqa” vosita ma’nosi ham matnga to‘g‘ri keladi.

Tilakni bularman
Yïlqïm anar öplänoʻr.

Bilimni istayman, molga suyanaman, ya'ni maqsadim ulugʻlik uchun molni dastak qilib, tilagimni topaman. Buning uchun molu holim sarf boʻladi. **(482)**

يُلِيدِي y y l i d i – qirdi. اَرْ سَجْ يُلِيدِي er sach yylidi – odam sochni oldi (يُلِيماكْ .يُلِيرْ yylip, yylimäk).

يُلَيدِي y u l a j d ï*: بَكْ بُذُنُوغْ يُلَيدِي beg buzunugʻ yulajdï[145] – bek jamoaga yordam etdi (يُلَبماقْ .يُلَيرْ yylajïr, yulaymaq).

يِلِيدِي y ï l ï d ï – ilidi. سُقْ يِلِيدِي cyw yïlïdï – suv ilidi. Boshqalari ham shunday (يِلِيماقْ .يِلِيرْ yïlir, yïlïmaq).

م *(m)*

يَمادِي y a m a d ï – yamadi. اُلْ تُونْ يَمادِي oʻl ton yamadï – u toʻnni yamadi. Boshqalari ham shunday (يَماماقْ .يَمارْ yamar, yamamaq).

ن *(n)*

يَنُودِي y a n y d ï – qayradi. اَرْ بِجاكْ يَنُودِي er bichäk yanudï – odam pichoq qayradi. Qilich va shunga oʻxshash narsalarni qayrashga ham bu soʻz qoʻllanadi. Qoʻlda surtilib qayralgan har narsaga ham bu soʻz qoʻllanadi (يَنُوماقْ .يَنُورْ yanyr, yanumaq)[146].

يَنِيدِي y e n i d i – tugʻdi. اُراغُتْ يَنِيدِي urag'ut yenidi – xotin tugʻdi, yukidan boʻshandi (يَنِيماكْ .يَنِيرْ yenir, yenïmak).

Bu soʻz faqat xotin-qizlarga xosdir, ularga nisbatangina qoʻllanadi. Hayvonlar xususida tuqqan narsaning oti olinib, unga *لادى ladï* qoʻshib, tuqqanlik ifoda etiladi. Chunonchi, sigir tugʻsa *inäk buzagʻuladï* إنكاكْ بُزاغُلادِي deyiladikim, *sigir buzogʻ tugʻdi* demakdir. Ya'ni *buzoq* بُزاغُو *buzagʻu* soʻziga *-ladï*

---

* Olmaota nashrida: *yulidi.*

[145] Basim Atalay bu soʻzning turkchasi va arabcha tarjimasida xato bor deb toʻgʻri izoh bergan. Haqiqatda, ibora shundaydir: يُلِيدِي اي اعان الا مير على القوم يُلِيرْ يُلِيماقْ Bu iborada dastlab يُلَيدِي shakli yanglishdir. Bunday soʻz hech uchramaydi. Bu soʻz III jildning 54-betida, II jildning 255-betida berilganicha, يُلَماقْ .يُأرْ يُلَدِي shaklida boʻlishi kerak. Bu soʻzga u yerlarda berilgan izohga koʻra, arabcha اعانَ emas, اَغارَ boʻlishi kerak. U holda gapning ma'nosi *bek jamoaga hujum qildi, uni talon-toroj qildi* tarzida boʻladi.

[146] Kelajak zamon va masdar *shakllari* bosma nusxada berilmagan. Basim Atalay nusxasiga muvofiq orttirdik.

qo‘shib, bola tug‘ilgani ifodalangan. Qush bolasiga بَلا *bala* deyiladi.

Agap *qush tug‘di* deyilmoqchi bo‘linsa, yuqoridagi qoidaga muvofiq قُشْ بَلالادي *qush balaladï* deyiladi, *qush bola tug‘di* demakdir. Faqat biya haqida bunday deyilmaydi. Chunki biya bolasiga قُلُنْ *qulun* deyiladi. Agar biya tug‘sa قِسْرَقْ قُلُنادي *qïsraq qulnadï* deyiladi, *biya tug‘di* demakdir.

Bu yerda qoidaga ko‘ra قُلُنْلادي qulunladï – *qulunladi* deyish kerak edi. Lekin قُلُنادي qulnadï – *qulnadi* deyiladi. Chunki ن – *n* bilan ل – *l* mahrajdan chiqadigan tovushlardandir. Bular bir-biri bilan o‘rin almashadi[147]. Shuning uchun bir harf tushirilib yengillatilgandir. Yana: أَرسْلانْ أَنوكْلادي *arslan enukladi* deyiladi, *arslon bola tug‘di* demakdir. Boshqalari ham shunday.

أُراغُتْ يَنِيدي *urag‘ut yenidi* gapidagi يَنِيدي *yenidi* so‘zining yasalishiga ikki xil qarash mumkin. Birinchi: bu gapdagi يَنِيدي so‘zi يَنِكْ نانكْ yenig neŋ – yengil narsa iborasidan olingandir. Xotin bolani tug‘ish bilan yengil bo‘ldi, demakdir. Bu so‘zda ن – *n* kasra qilingan. Qoidaga ko‘ra ن – *n* و – *u* ga o‘tishi kerak edi, biroq ى – *i* ga o‘tgan.

Ikkinchi: *badan* ma’nosidagi بِينْ *jin* so‘zidan olingandir. Xotin o‘z badanidan yana bir **(483)** gavda (vujud) chiqardi, demakdir. Bu so‘zning yasalishida har ikki usul ham qoidaga mosdir.

Uch harflilar bo‘limi tugadi.

---

[147] Mahmud Koshg‘ariyning bu izohida kichik aniqsizlik bor. Bu so‘zda harf almashish hodisasi emas, harf tushish hodisasi bor. فَجُفِّفَ هَذاَ لِذٰلِكَ shuning uchun qisqartirilgan jumlasining o‘zi qolib, يُهما بِالاجرى tushirilishi kerak edi.

فَعْلَلْدِي *FA’LALDI* SHAKLIDAGI TURLI HARAKATLARDA TALAFFUZ ETILADIGAN SO‘ZLAR BOBI

ر (r)

يِلْبِرْدِي y e l p i r d i – esdi. يَلْ يِلْبِرْدِي yel yelpirdi[148] – shamol esdi.

يِلْبِرْدِي y e l p i r d i: اَرْ يِلْبِرْدِي er yelpirdi – odam (jin tekkanday) o‘ngga, chapga qaradi.

يِلْبِرْدِي y e l p i r d i – namlandi. كَبَكْ يِلْبِرْدِي kepäk yelpirdi* – kepak namlandi. Yerga tomchi tomsa ham shu so‘z qo‘llanadi.

يِلْبِرْدِي y e l p i r d i: يَغْمُرْ يِلْبِرْدِي yag‘mur yelpirdi – yomg‘ir yerni namladi (يِلْبِرْماكْ .يِلْبِرارْ yelpipap, yelpirmak).

يَبْتُرْدِي y a p t u r d ï – yoptirdi. اُلْ اَنكَرْ قَبْغْ يَبْتُرْدِي o‘l anar qapug‘ yanturdï – u unga eshikni yoptirdi.

يَبْتُرْدِي y a p t u r d ï – qurdirdi. اُلْ اَنكَرْ تامْ يَبْتُرْدِي o‘l anar tam yaptypdï – u unga devor qurdirdi.

يَبْتُرْدِي y a p t u r d ï – yoptirdi. اُلْ اَنكَرْ اَتْماكْ يَبْتُرْدِي o‘l anar etmak yapturdï – u unga non yoptirdi (يَبْتُرْمَقْ .يَبْتُرُورْ yaptyryp, yapturmaq).

يَتُّرْدِي y a t t u r d ï – yozdirdi. اُلْ اَنكَرْ تُشاكْ يَتُّرْدِي o‘l anar töshäk yatturdï – u unga tushak yozdirdi. Yozilgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi (يَتُّرْمَقْ .يَتُّرُورْ yattyryp, yatturmaq). Bu so‘zning asli يَبْتُرْدِي yazturdï edi, so‘ng (tovushlar) singdirilgandir.

يَتُّرْدُمْ y a t t u r d u m: مَنْ اَنكَرْ سُوسِنْ يَتُّرْدُمْ men anar susin yatturdum – men unga askarlarni tarqatishga, bo‘lib yuborishga buyurdim. Boshqalari ham shunday.

يُتُّرْدُمْ y u t t u r d u m – o‘chirtirdim. مَنْ اَنكَرْ بِتِكْ يُتُّرْدُمْ men anar bitik yutturdum – man unga xatni o‘chirtirdim. Bu so‘zning asli yuzturdumdir. Har narsani izi qolmaguncha artib tozalashga ham bu so‘z qo‘llanadi (يُتُّرُورْمَنْ. يُتُّرْمَقْ yuttururmen, yutturmaq).

---

[148] يِلْبِرْدِي so‘zi qo‘lyozmada يِلْبِرْدِي shaklida ekani haqida يِلْبِرْماقْ so‘zining yoniga tuzatish kiritilganligi to‘g‘risida Basim Atalay izoh bergan (Qarang: III jild. 93-b).

* Olmaota nashrida: *yilbiradi.*

يِتُّرْدي y i t t o‘ r d i – yo‘qottirdi. يَرْماقِنْ يِتُّرْدي اَلْ اَنكَرْ o‘l aŋar yarmaqïn yitto‘rdi* – y uning tangasini yo‘qottirdi. Boshqalari ham shunday (يِتُّرْماكْ .يِتُّرُرْ yitto‘ro‘r, yitto‘rmak).

Birovga biror buyumni bo‘xcha yoki bo‘xchaga o‘xshash narsada saqlashga topshirishga ham bu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘zning asli يِتْتُرْدُمْ *yizto ‘rdo ‘m*dir. So‘ng singdirilgandir[149].

يَرْتُرْدي y a r t u r d i – yordirdi. اَنكا يِغاجْ يَرْتُرْدي اَلol ana jïg‘ach yaptypdï – y unga yog‘och yordirdi. Boshqalari ham shunday (يَرْتُرُرْ .يَرْتُرْماقْ yartyryr, yarturmaq).

يَرْتُرْدي y e r t o‘ r d i**: بَتِقْ يَرْتُرْدي اَلْ اَنكَرْ o‘l aŋar butiq yer-to‘rdï – y unga butashni buyurdi (butatdi). (يَرْتُرْماكْ .يَرْتُرُرْ yäpto‘ro‘r, yäpto‘rmak).

يَرْتُرْدي y a z t u r d ï – yechtirdi. يَرْتُرْدي تُكُونْ اَلْ اَنكَرْ o‘l aŋar to‘go‘n yazturdï – u unga tugun yechtirdi. Boshqalari ham shunday.

يَرْتُرْدي y a z t y r d ï – adashtirdi. يَرْتُرْدي اَقْتا اَنيِ اَلْ o‘l anï oqta yazturdï – u uni o‘q otishda adashtirdi. So‘zda adashtirishga ham bu so‘z qo‘llanadi (يَرْتُرْماقْ .يَرْتُرُرْ yazturur, yazturmaq).

يُرْتُرْدي y o‘ z t o‘ r d i: يُرْتُرْدي قُوىْ اَلْ اَنكَرْ o‘l aŋar qoy yo‘zto‘rdi – u unga qo‘y terisini shildirdi***. Boshqalari ham shunday.

يُرْتُرْدي y o‘ z t o‘ r d i – suzdirdi. يُرْتُرْدي سُقْدا اَنيِ اَلْ o‘l anï suwda yo‘zto‘rdï – u uni suvda suzdirdi (يُرْتُرْماكْ .يُرْتُرُرْ yo‘zto‘ro‘r, yo‘zto‘rmak).

يَغْتُرْدي y a g‘ t u r d ï – yog‘dirdi. تَنكْرِي يَغْمُرْ يَغْتُرْدي Teŋri yag‘mur[150] yag‘turdï – Tangri yomg‘ir yog‘dirdi. Boshqa narsa yog‘dirsa ham shunday. (يَغْتُرْماقْ .يَغْتُرُرْ yo‘zto‘ro‘r, yo‘zto‘rmäk).

يِغْتُرْدي y ï g‘ t u r d ï – yig‘dirib uydirdi. يِغْتُرْدي تَرِغْ يِغْتُرْدي اَلْ اَنكَرْ o‘l aŋar tarïg‘ yïg‘turdi – u unga bug‘doy yig‘dirib uydirdi. Boshqa-

---

* Olmaota nashrida: *Uni dirhamidan mahrum qildi.*

[149] Bu so‘z *jatturmaq* fe’liga oid ekani haqida Basim Atalay izoh bergan (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 24-b).

** Olmaota nashri: *yarturdi.*

*** Olmaota nashri: *qo ‘yni so ‘yib ichak-chavog ‘ini chiqardi.*

[150] *Yog‘mur* so‘zi Navoiyda ham, jonli tilda ham yomg‘ir tarzida o‘zgargan: *yer yuzin yomg‘ir suvi birla yuvdi*. Shuningdek, *yog‘turmaq* so‘zi Navoiy asarlarida va jonli tilda *yog‘durmaq* shaklida uchraydi.

Chu borsam qal’a sori zulm etib fosh,
Boshimga *yog‘dururlar* o‘q bilan tosh.

lari ham shunday. Shuningdek, odamni yeyishdan va boshqa narsadan qaytarishga ham bu so‘z qo‘llanadi. (.يِغْتُرُرْ يِغْتُرْماقْyïg‘turyp, yïg‘turmaq).

يِغْتُرْدي y ï g‘ t u r d ï*: يِغْتُرْدي نانكْ قَداشِنكا اُلْ o‘l qadashïŋa neŋ yïg‘turdï[151] – u yaqinlariga yoki birodariga yaxshi muomala qilish yo‘li bilan yaxshi munosabatda bo‘ldi** (يِغْتُرْماكْ .يِغْتُرُرْ yïg‘turur, yïg‘turmak).

يُقْتُرْدي y u w t u r d ï: يُقْتُرْدي تُبِقْ اُلْ o‘l topïq yywtypdï – y to‘p yumalattirdi. Har bir yumalatilgan narsa ham shunday (.يُقْتُرُرْ يُقْتُرْماقْ yuwturur, yuwturmaq).

يَقْتُرْدي y a q t u r d ï: يَقْتُرْدي يَقَغْ باشْقا اُلْ o‘l bashqa yaqïg‘ yaqturdï[152] – u yaraga malham qo‘ydirdi.

يَقْتُرْدي y a q t u r d ï: يَقْتُرْدي اُوتْ اَقِنكا اَنِكْ اُلْo‘l anïŋ ewïŋa ot yaqturdï – u uning uyiga o‘t yoqtirdi va olov yondi (.يَقْتُرُرْ يَقْتُرْماق yaqtyryr, yaqturmaq). Shuningdek, birov bir narsaga tegib ketsa ham bu so‘z qo‘llanadi.

يُقْتُرْدي y y q t u r d ï – surdirdi. يُقْتُرْدي تُونِكا اَنِكْ اُلْ o‘l anïŋ toniŋa yïpap yuqturdï – u uning to‘niga ipor (mushk) surdirdi. .يُقْتُرُرْ يُقْتُرْماقْyuqturur, yuqturmaq).

يِقْتُرْدي y ï q t u r d ï: يِقْتُرْدي اَقِنْ اَنِكْ اُلْ o‘l anïŋ ewin yïqturdï – u uning uyini yiqittirdi. Boshqalari ham shunday (.يِقْتُرُرْ يِقْتُرْماقْ yïqtypyp, yïqturmaq).

يِكْتُرْدي y i g t o‘ r d i: يِكْتُرْدي اَذاقِغْ تارْ اَتْكْ tar eto‘g azaqïg‘ yigto‘rdi – tor etik oyoqni qisdi (.يِكْتُرُرْ يِكْتُرْماكْ yigto‘ro‘r, yigto‘rmak).

---

* Olmaota nashrida: *yuvturdi.*

[151] Basim Atalay يِغْتُرْدي *jïg‘turdï,* يِغْتُرْماكْ *jïg‘turmak,* يِغْتُرُرْ *jïg‘turur* so‘zlari bosma va qo‘lyozma nusxalarda shunday berilgan bo‘lsa ham, bu xatodir, chunki bu so‘z bundan oldin berilgan, to‘g‘risi يِكْتُرْدي. يِكْتُرُرْ. يِكْتُرْماكْ bo‘lishi kerak, deb izoh bergan. Bu izohga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki يِغْتُرْماقْ ikki marta berilgan bo‘lsa ham, ikki mustaqil ma’noda izohlangan. Demak, izoh yanglish berilgan.

** Olmaota nashrida: *qarindoshlarini ovutishga (taskin berish)ga buyurdi.*

[152] Hozirgi o‘zbek tilida *dori surmoq*, *dori qo‘ymoq* ma’nosida *yoqmoq* so‘zi qo‘llanmaydi. Lekin bu so‘z Navoiy asarlarida “Devon” dagidek qo‘llangan:

Ishq o‘ti axgarlari taskin berur chun jonima
Yoqqali malhamdek oni dog‘i pinhonimg‘a o‘q.

يَلْتُرْدِي y a l t y r d ï – yolqinlatdi. أُوتُغْ يَلْتُرْدِي to‘bi otug‘ yalturdï – shamol o‘tni yolqinlatdi (يَلْتُرْماقْ .يَلْتُرُرْ yalturur, yalturmaq).

يُلْتُرْدِي y u l t u r d ï: أَلْ بُلْنُغْ يُلْتُرْدِي o‘l bulunug‘ yulturdï – u asirga qutulish fidyasi bergizdi. **(485)**

يُلْتُرْدِي y u l t u r d ï: أَلْ تَقَاغُونِى يُلْتُرْدِي o‘l taqag‘unï julturdï – u tovuq patini yuldirdi. Boshqalari ham shunday. Har qanday tukli narsani yulishga ham bu so‘z qo‘llanadi.

يُلْتُرْدِي y u l t u r d i: أَلْ قُلِنْ يُلْتُرْدِي ol qulïn yulturdï – u qulini pul barobariga ozod ettirdi (يُلْتُرْماقْ .يُلْتُرُرْ yulturur, yulturmaq).

يُمْتُرْدِي y o‘ m t o‘ r d i – yumdirdi. أَلْ أَنِكْ كُوزِنْ يُمْتُرْدِي o‘l aniŋ kozin jo‘mto‘rdi – u uning ko‘zini yumdirdi (يُمْتُرْماكْ .يُمْتُرُرْ yo‘mto‘ro‘r, yo‘mto‘rmak).

يَبْجُرْدِي y a p c h u r d ï – yopishtirdi. أَلْ أُوقًا يُكْ يَبْجُرْدِي o‘l oqqa yo‘k[153] japchurdi – u o‘qqa pat yopishtirdi. Bu so‘zning ف-*li* يَفْجُرْدِي yawchypdï varianti ham bor. (يَبْجُرْماقْ .يَبْجُرُرْ yapchurur, yapchurmaq).

يُنْجِرْدِي y u n c h ï r d ï: أَرْ ايشى يُنْجِرْدِي er ïshï yunchïrdï – odamning ishi yomonlikka yuz tutdi (يُنْجِرْماقْ .يُنْجِرارْ yunchïrar, yunchïrmaq).

يِلْدِرْدِي y e l d i r d i – esdi. يِلْ يِلْدِرْدِي yel yeldïrdi[154] – shamol esdi (يِلْدِرْماكْ .يِلْدِرارْ yeldirär, yeldirmäk).

يُمْدَرْدِي y u m d a r d ï: أَلْ كِشى نِي يُمْدَرْدِي o‘l kishini yymdardï – u odamlarni to‘pladi. Boshqalari ham shunday (يُمْدَرْماقْ .يُمْدَرُرْ yumdapyp, yumdarmaq).

يُنْدُرْدِي y o n d u r d ï:* أَلْ أَنِي أَفْكا يُنْدُرْدِي o‘l ani ewga yondurdï – u uni uyga qantardi*. Boshqalari ham shunday.

---

[153] Basim Atalay يُكْ *yo‘k* so‘zi haqida izoh bergan. Uning izohiga ko‘ra, bosma nusxada ham, qo‘lyozmada ham bu shakl xato bo‘lib, يُنْكْ *yo‘n* bo‘lishi to‘g‘ri emish. Bunga dalil qilib, Basim Atalay hozirgi uyg‘ur tilida *qush pati* ma’nosida يُنْكْ *yun* so‘zi qo‘llanishi, Radlovda ham shunday berilganini ko‘rsatgan. Bizningcha, bu izoh xatodir, يُكْ *jo‘k* so‘zi qush pati ma’nosida devonning III jild, 34-bet, 11-satrida berilgan. Demak, يُكْ *jo‘k* so‘zining o‘zi to‘g‘ridir.

[154] Basim Atalay يَلْدِرْدِي *yeldirdi* so‘zining birinchi harfi ustiga qo‘lyozma hamda bosma nusxalarida zabar, ostiga zer qo‘yilgani haqida izoh berib, shuning uchun bu harfni noaniq harf hisoblab, *e* ustiga belgi qo‘yib qo‘llagani (yo) haqida izoh bergan. Shuningdek, يَلْدِرْماكْ .يَلْدِرارْ so‘zlari haqida ham yuqoridagidek maqsad uchun alohida izoh bergan (Qarang: III jild. 98-b).

يُنْدُرْدِي y o n d u r d ï: اَرْ يُنْدُرْدِي er yondurdï – odam qusdi. Bu so‘zni يُنْدِي *yondï* shaklida qo‘llovchilar ham bor. Bu so‘z *qo‘rqitmoq* ma’nosida ham keladi (يُنْدُرْماقْ .يُنْدُرْرْ yondurur, yondurmaq).

يِنْدُرْدِي y i n d o‘ r d ï – qidirtirdi. اَنِكْ اَقِنْ يِنْدُرْدِي anïŋ ewïn yïndo‘rdï – u yo‘qolgan narsani undan gumon qilib uning uyidan qidirtirdi (يِنْدُرْماكْ .يِنْدُرْرْ yindo‘ro‘r, yindo‘rmak).

يَبْشُرْدِي y a p s h u r d ï: اُوقًا يِلِمْ يَبْشُرْدِي oqqa yelim yapshurdï – o‘qqa yelim bilan pat yopishtirdi. Bu so‘z ج – *ch* bilan ham qo‘llanadi. (يَبْشُرْماقْ .يَبْشُرْرْ y a p sh y r y r – yapshurmaq).

Bu xususiyat arabchada ham bordir. Chunonchi, بَهْرامْ چُوبِين Bahrom Chupïnni arabchalashtirib, شُوبِينْ *shubïn* deyiladi.

يَتْغُرْدِي y a t g‘ u r d ï: اُلْ اَنى يَتْغُرْدِي o‘l anï yatg‘urdï – u uni yotqizdi, uxlatdi (يَتْغُرْماقْ .يَتْغُرْرْ yatg‘urur, yatg‘urmaq).

يَلْقُرْدِي y a l w a r d ï: اُلْ مَنكا يَلْقُرْدِي o‘l mana yalwapdï – u maqsadi ro‘yobga chiqishi uchun menga yolvordi[155] (يَلْقُرْماقْ .يَلْقُرْرْ yalwaryr, yalwarmaq).

يِلْقُرْدِي y a l w ï p d ï: تُلْقُرْ يِلْقُرْدِي tulwïr yalwïrdï – (kelin uyining) to‘rlari hilpiradi (يِلْقِرْماقْ .يِلْقِرارْ yalwirar, yalwirmaq)[156].

---

* Basim Atalay bosma va yozma nusxalardagi يُنْدُرْماقْ .يُنْدُرْدِي .يُنْدُرْرْ shaklida berilgan so‘zlarning يِنْدُرْماكْ .يِنْدُرْرْ .يِنْدُرْدِي bo‘lishi to‘g‘riligi haqida izoh bergan. Bu so‘z ana shu ma’noda “Devon...”da berilgan يانغ yanïg‘ so‘zidan olingani to‘g‘ri izohlangan. Radlovda (III jild. 85-b) يَنِمَقْ yanimaq shaklida berilganini ko‘rsatgan. Darhaqiqat, بَكْ يَنِغْدا يَنِشْما bek yanïg‘ïnda jatishma – *bekning qo‘rqitishiga uchrama* degan gapda ham mana shu o‘zak bor. Lekin qo‘lyozmada shunday berilgan so‘zni darrov xatoga chiqarish juda ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. U davrda fe’l formasi shunday shaklda qo‘llangan bo‘lishi, albatta, mumkin. Bu so‘z hozirgi o‘zbek tilida ham يَنْماقْ *yanmaq* shaklida qo‘llanadi. Chunonchi, *hap sanimi deb yanib qo‘ydi* gapidagi kabi. Lekin bu qulyozmani shubha ostiga olishga asos bo‘la olmaydi.

* V.Radlovda: u uni uyga yo‘naltirdi degan tarjima bilan bir qatorda jandur – shakli *er yandurdi* gapini “u uni uyga qaytardi” tarzida tarjima qilgan.

[155] Hozirgi o‘zbek tilida shu ma’noda *yalinmoq* va *yolvormoq* so‘zlari qo‘llanadi. Ma’noni kuchaytirish uchun har vaqt ikkisi birlikda *yalinib-yolvormoq* shaklida qo‘llanadi. Holbuki, XI asr tilida *jalïnmaq* so‘zi *yechinmoq* ma’nosida qo‘llangan. Bu ma’no siljishi ma’lum qonuniyat asosida kelib chiqqan. Tilshunoslar uchun bu xil qonuniyatlarni aniqlash juda muhimdir.

[156] Basim Atalay يَلْقُرْماقْ so‘zining يَلْقُرْماكْ bo‘lishi kerakligi, chunki bu so‘zning o‘zagi يِلْ ingichka so‘z ekani haqida izoh bergan. Shu bilan birga, qo‘lyozmada oldin يَلْقُرْماقْ shaklida yozilgan bo‘lsa ham, so‘ng qizil siyoh يَلْقُرْماكْ bilan shaklida tuzatilgani uqtirilgan (Qarang: III jild. 100-b).

يِلْمِرْدِي y i l m i r d i – iliyozdi. سُوڤْ يِلْمِرْدِي cyw yilmirdi – suv iliyozdi (يِلْمِراڭْ .يِلْمِرار yilmirar, yilmirmäk).

Bu bo‘limning boshqa bir turi (486)

يَيْتُرْدِي y a y t u r d ï – chaydirdi. اُلْ تُونِنْ سُڤدا يَيْتُرْدِي o‘l tonïn cywda yayturdï – u to‘nini suvda chaydirdi. Chaydirilgan, chayqatilgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi (يَيْتُرْماقْ .يَيْتُرْرْ yayturur, yayturmaq).

ش *(sh)*

يِيشْدِي y e l p i s h d i: اَنكَرْ سِنكاكْ يِيشْدِي اُلْ o‘l anar ciŋak yelpishdi – y unga pashsha haydashga yordam berdi. *Yelpitish, silkitish*ga ham bu so‘z qo‘llanadi. (يِيشْماكْ .يِيشُورْ yelpisho‘r, yelpishmäk).

يِلْبِشْدِي y e l p i s h d i – namiqdi*. كَباكْ يِلْبِشْدِي kepak yelpishdi – kepak namiqdi (kepak bo‘laklari bir-biriga yopishdi). (.يِلْبِشُورْ يِلْبِشْماكْ yelpishur, yelpishmak).

يِرْتِشْدِي y ï r t ï s h d ï: اُلْ اَنكَرْ بُوزْ يِرْتِشْدِي o‘l anar böz jïrtïshdï – u unga bo‘z** yirtishda yordam berdi. Boshqalari ham shunday (يِرْتِشْماقْ .يِرْتِشُورْ jïrtishur, jïrtishmaq).

يُرْتُشْدِي y o r t u s h d ï: اُلْ مَنِكْ بِلا يُرْتُشْدِي o‘l meniŋ bilä yortushdï – y men bilan ot yo‘rtish (yurgizish)da bahslashdi (يُرْتُشْماقْ .يُرْتُشُورْ yortushur, yortushmaq).

يَبْرُشْدِي y a p r u s h d ï: اُلْ اَنكَرْ يِيرْ يَبْرُشْدِي o‘l anar yer yaprushdï – u unga yer tekislashda yordam qildi. (يَبْرُشْماقْ .يَبْرُشُورْ yapryshyp, yaprushmaq).

يَتْرُشْدِي y e t r o‘ s h d i: اُلارْ اَكّي يِيرْ يِيركا يَتْرُشْدِي olar ikki bir birgä at yetrushdi – ular bir-biriga otni yetkazishda yordam qildi***. Boshqalari ham shunday (يَتْرُشْماكْ .يَتْرُشُورْ yetro‘sho‘r, yetro‘shmak).

---

* Olmaota nashrida: *yalbishdi; kabak yalbishdi* – qipiq bir-biriga zichlandi.

** Olmaota nashrida: *kiyim.*

*** V.Radlovda: *ular bir-biriga otda yetib olishdi.* Olmaota nashrida: *ular bir-biriga ot haydab kelishda yordamlashdi.*

يَشْرُشْدي y a s h r y s h d ï: اُلارْ سُوزُكْ يَشْرُشْدي olar sözo‘g yashrushdï[157] – ular so‘zni yashirishda birlashishdi. Boshqalari ham shunday (يَشْرُشْماقْ .يَشْرُشُورْ yashrushur, yashrushmaq).

يُغْرُشْدي y u g‘ r u s h d ï: اَنكارْ اُونْ اُلْ يُغْرُشْدي o‘l aŋar un yug‘rushdï – u unga xamir qorishda yordam qildi.

يُغْرُشْدي y u g‘ r u s h d ï: suzuq ag‘ïzda jug‘rushdï – og‘izda tupuk quridi*. Boshqalari ham shunday. (يُغْرُشُورْ .يُغْرُشْماقْ yyg‘ryshyp, yug‘rushmaq).

يُكْرُشْدي y ÿ g r ÿ s h d i – yugurishdi. اُغْلانْ يُكْرُشْدي og‘lan yo‘gro‘shdi – bolalar yugurishdi. Boshqalari ham shunday (يُكْرُشْماقْ .يُكْرُشُورْ yo‘grusho‘r, yugrushmaq[158]).

يَمْرَشْدي y a m r a s h d ï – aralashishdi. قُوزي يَمْرَشْدي qozï yamrashdï[159] – qo‘zilar onalari bilan aralashishdi. She’rda shunday kelgan:

[XXIII]

قُجِنكارْ تَكا سَشِلْدي
سَغْلِقْ سُرُكْ قُشْلْدي
سُوتْلَرْ قَمَغْ يُشْلْدي
اُغْلَنْ قُزي يَمْرَشُورْ

Qochïngar tekä seshildi
Sag‘lïq so‘ro‘g qoshuldï
Sutlär qamug‘ yushuldï
Og‘laq qozï *yamrashur*.

---

[157] XI asr tilida *yashirmoq* ma’nosida *kizlamak* so‘zi ham sinonim sifatida qo‘llanar edi. “Devon”ning II jildida so‘zni yashirmoq ma’nosida *kizlamak* so‘zi qo‘llangan. Mumtoz adabiyotda har ikki shakl uchrasa ham, jonli o‘zbek tilida *kizlamak* siyrak uchraydi:

Ne uchun *kizlarman* o‘zni g‘ayrdin,
Ijtinob etmak kerakdur mordin.
Bu damki erur mahalli padrud,
Qissamni yashirmog‘imda ne sud.

Hozirgi o‘zbek tilida *yashirmoq* bilan *bekitmoq* so‘zlari sinonim sifatida qo‘llanadi. Bu hol sinonimlar tarixidagi rang-barang xususiyatlardan bir namunadir.

* Olmaota nashri: *og‘izda so‘lak to‘plandi.*

[158] يُكْرُشْماقْ *yugrushmaq* so‘zi يُكْرُشْماكْ *yo‘gro‘shmäk* bo‘lishi to‘g‘ri ekanligi haqida Basim Atalay izoh bergan. Haqiqatda, bu so‘z “Devon”da har yerda يُكْرُشْماكْ *yo‘gro‘shmäk* shaklida berilgani holda bu yerda xato ko‘rsatilgan.

[159] Basim Atalay bu so‘z يَمْرَشْماكْ emas, يَمْرَشْماقْ bo‘lishi to‘g‘riligi haqida izoh bergan. Bunga dalil qilib, Radlov (IV jild. 63-b)da جمرشماق so‘ziga shunday ma’no berilganini ko‘rsatgan.

Yozni ta'riflab aytadi: yoz kelgani uchun, qo'chqor va takalar urg'ochilaridan ayrildi. Sog'ilish uchun sovliq qo'ylar to'planishdi, yelinlaridan sutlar to'lib oqdi. Qo'zilar onalari bilan aralashishdi.

يَمْرُشْدِي y e m r o' s h d i: اُلْ اَنگَرْ يِغاجْ يَمْرُشْدِي o'l aŋar yïg'ach yemro'shdi – u unga daraxt qo'porishda yordam etdi (يَمْرُشُورْ. يَمْرُشْماكْ yemro'sho'r, yemro'shmäk).

يَتْغَشْدِي y a t g' a sh d ï: اُلْ اَنِكْ بِرْلا يَتْغَشْدِي o'l aniŋ birlä yatg'ashdï – y, y bilan birga yotdi (يَتْغَشُورْ. يَتْغَشْماقْ yatg'ashyp, yatg'ashmaq).

يَلْغَشْدِي y a l g' a s h d ï – yalashdi. اُلارْ بالْ يَلْغَشْدِي olar bal yalg'ashdï – ular bol yalashdi. Boshqalari ham shunday (يَلْغَشُورْ. يَلْغَشْماقْ yalg'ashur, yalg'ashmaq).

يُلْقَشْدِي y u l q a s h d ï – shilindi. يُلْقَشْدِي نانكْ yulqashdï neŋ – narsa shilindi (يُلْقَشُورْ. يُلْقَشْماقْ yulqashur, yulqashmaq).

يُلْقُشْدِي y u l q u s h d ï: اُلارْ بِيرْ اِكِنْديدِنْ نانكْ يُلْقُشْدِي o'lar bir ikindidin neŋ yulqushdï – ular bir-biridan narsa yulishdilar, yulqishdilar* (يُلْقُشُورْ. يُلْقُشْماقْ yulqushur, yulqushmaq).

يُرْگَشْدِي y o r g a s h d i – o'ralishdi. يِغاجْقا يِبْ يُرْگَشْدِي yïg'achqa yïp yörgashdi – daraxtga ip o'ralishdi. Boshqalari ham shunday.

Bir narsa ikkinchi bir narsaga o'ralishsa ham bu so'z qo'llanadi (يُرْگَشُورْ. يُرْگَشْماكْ yörgashÿr, yorgäshmäk).

يِپْلَشْدِي y ï p l a s h d ï: اُراغْتْلارْ يُوزِنْ يِپْلَشْدِي urag'utlar jo'zin yïplashdï[160] – xotinlar bir-birlarining yuz tuklarini ip bilan yuldilar (يِپْلَشُورْ. يِپْلَشْماقْ yïplashur, yïplashmaq).

يِذْلَشْدِي y ï z l a s h d ï – hidlashdi. يِلْقِي يِذْلَشْدِي yïlqï yïzlashdi – poda hidlashdi. Boshqalari ham shunday (يِذْلَشُورْ. يِذْلَشْماقْ jizlashur, yïzlashmaq), maqolda shunday kelgan:

(29) كَشِي سُوزلَشُو. يِلْقِي يِذْلَشُو

Kishi sözlasho' yïlqï yïzlashu

Odamlar bir-birlarini so'zlashib bilganlaridek, hayvonlar bir-birini hidlashib biladi.

---

* Olmaota nashrida: *ular bir-biridan foyda chiqardilar*; V.Radlovda: *ular bir-birining narsalaridan yulg'ichlik qildilar.*

[160] *jïplashmaq* – ip bilan yuz tuklarini tozalash demakdir. Buning uchun ipni chiyrab, ikki qavat qilib, yuzga tutib buraladi. Bu tartib so'nggi vaqtlarda ham mavjud bo'lib, *ip solmoq* deb atalar edi.

يَذْلِشْدي y a z l ï s h d ï: سُو يَذْلِشْدي so‘ yazlïshdï – askar har tarafga tarqaldi. Shuningdek, har narsa bir narsaga yoyilsa ham, bu so‘z qo‘llanadi. Chunonchi, suyuq siyoh yomon qog‘ozga yoyilib ketishi kabi (يَذْلِشْماق .يَذْلِشُورْ yazlïshur, yazlïshmaq).

يُذْلُشْدي y u z l u s h d ï: بِتِكْلارْ يُذْلُشْدي bitiklär yuzlushdï – xatlar o‘chirildi. Boshqalari ham shunday (يُذْلُشْماقْ .يُذْلُشُورْ yuzlushur, yuzlushmaq).

يَزْلِشْدي y a z l ï s h d ï – yechildi. تُكُونْلارْ يَزْلِشْدي to‘go‘nlär yazlïshdï – tugunlar yechildi. Boshqalari ham shunday (.يَزْلِشُورْ يَزْلِشْماقْ yazlïshur, yazlïshmaq).

يِغْلِشْدي y u f l u s h d ï: سُو قَمُغْ يِغْلِشْدي so‘ qamug‘ yïg‘lïshdï – hamma askarlar to‘planishdi (يِغْلِشْماقْ .يِغْلِشُورْ yuflushur, yuflushmaq).

يُفْلُشْدي y u f l u s h d ï: قُرُمْلارْ قَمُغْ يُفْلُشْدي qurumlar* qamug‘ yuflushdï – hamma katta toshlar yumaladi. Boshqalari ham shunday (يُفْلُشْماقْ .يُفْلُشُورْ yuflushur, yuflushmaq).

يَمْلَشْدي y a m l a sh d ï: اُلْ اَنكَرْ اَقْ يَمْلَشْدي o‘l aŋar ew jamlashdï[161] – u unga uy supurishda** yordam etdi. Boshqalari ham shunday (يَمْلَشْماقْ .يَمْلَشُورْ yamlashur, yamlashmaq).

يُمْلُشْدي y y m l u s h d ï – yumildi. كُوزْلارْ يُمْلُشْدي közlar yumlushdï – ko‘zlar yumildi (يُمْلُشْماقْ .يُمْلُشُورْ yumlushur, yumlushmaq).

ق (q)

يَرْسِقْدي y a r s ï q d ï – ajraldi اَرْ اُغْلِنْدِنْ يَرْسِقْدي er og‘lundïn yarsïqdï – odam o‘g‘lidan ayrilib yolg‘izlandi. Bu o‘g‘il bilan ota sahroda adashib, biri bir yerga, ikkinchisi boshqa yerga tushishi yoki dushman qo‘liga tushishidir (يَرْسِقْماقْ .يَرْسِقارْ yarsïqar, yarsïqmaq).

ك (k)

يَتْسِكْتي y e t s i k t i – yetib olindi. اَرْ يَتْسِكْتي er jetsikti – odam ko‘p yoshga yetdi. قَجِغي اَرْ يَتْسِكْتي qachïg‘aj er[162] yetsikti – qochgan odamga yetib olindi (يَتْسِكْماكْ .يَتْسِكارْ yetsikar, yetsikmäk).

---

* V.Radlovda: Qorum – *qoyalar parchalanishidan hosil bo‘lgan toshlar*; Olmaota nashrida: *qarum.*

[161] *Supurmoq* ma’nosida u davr tilida ikki so‘z *supurmoq* va *jamlamaq* so‘zlari sinonim sifatida qo‘llanar edi. Bizga faqat birinchi so‘z yetib kelgan.

** V.Radlovda: *yig‘ishtirishda.*

ل *(l)*

يِرْتِلْدِي y ï r t ï l d ï – yirtildi. تُونْ يِرْتِلْدِي t o n yïrtïldï – to‘n yirtildi. She’rda shunday kelgan:

[XXIV]

اَتسا اُقِنْ كَزْ كَرِبْ كِمْ تُرْ اَنِي يِغْدَجِي
تَاغِغْ اَتِبْ اُغْراسا اُوزِي قُيِي يِرْتِلُورْ.

Atsa oqïn kez kerib kim tur anï* yïg‘dachï
Tag‘ïg‘ atïp og‘rasa özi qujï *yïrtïlur*.

Zamonani ta’rif qilib aytadi: zamon o‘qini poylab otsa, uni qaytaradigan kim bor, u agar tog‘ni nishonga olsa, tog‘ning yalang yeri va qoq beli pora-pora bo‘lib yirtilib, parchalanib ketadi (يِرْتِلْمَاقْ .يِرْتِلُورْ yirtïlur, yïptïlmaq).

يَسْتَلْدِي y a c t a l d ï: يَسْتُقْ يَسْتَلْدِي yactyk yastaldï – yastiq suyab qo‘yildi.

يَسْتَلْدِي yastaldï: اُقْ اَمَجْقا يَسْتَلْدِي oq amachqa yastaldï – o‘q nishonning bir tarafiga tegdi**. (يَسْتَلْمَاقْ .يَسْتَلُورْ yastalur, yastalmaq).

يَنْجِلْدِي y a n ch ï l d ï: قاغُونْ يَنْجِلْدِي qag‘un yanchïldi*** – qovun ezildi. Qovunga o‘xshash narsalar ezilishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (يَنْجِلْمَاقْ .يَنْجِلُورْ yanchïlur, yanchïlmaq).

يَبْرُلْدِي y a p r u l d ï – yopishdi. بِيرْ نانكْ بِيرْكا يَبْرُلْدِي bir neŋ birgä yapruldï – bir narsa bir narsaga qattiq yopishdi. تُونْ يَبْرُلْدِي ton yapruldï – to‘n o‘rtasi qattiq yopishdi, ya’ni eskirdi (يَبْرُلْمَاقْ .يَبْرُلُورْ yaprulur, yaprulmaq).

يَتْرُلْدِي y e t r o‘ l d i: سُنكُقْ بُرُنْقا يَتْرُلْدِي sonuq burunqa yetro‘ldi – (biror) narsaning oxiri oldiga yetkazildi (يَتْرُلْمَاكْ .يَتْرُلُورْ yetrÿlÿr, yetrÿlmäk).

يُغْرُلْدِي y u g‘ p y l d ï: اُونْ يُغْرُلْدِي un yug‘pyldï – xamir qorildi (يُغْرُلْمَاقْ .يُغْرُلُورْ yug‘rulur, yug‘rulmaq).

---

[162] قَجِغَيْ qachïg‘ay so‘zining to‘g‘risi قَجْغِنْ qachg‘ïn ekani haqida Basim Atalay to‘g‘ri izoh bergan. Bu gap fe’l yasalishiga misol sifatida I jildda shunday ko‘rsatilgan (Qarang: I jild. 20-b. Bizning tarjimamizda I jild. 59-b).

* Olmaota nashrida: ... *kazkarib kim turani*.

** V. Radlovda: *o‘q nishonga tegdi*.

*** Olmaota nashrida: *qovun parchalandi, sindirildi*.

يِغْرِلْدِي y i g‘ r ï l d ï: اَرْ تُمْلُغْقا يِغْرِلْدِي er tumlug‘qa yïg‘rïldï – odam sovuqdan **(489)** qaltiradi*.

يِغْرِلْدِي y i g‘ p ï l d ï – cho‘zildi. تُونْton يِغْرِلْدِي jïg‘rildï – to‘n yuvishdan cho‘zildi (يِغْرِلْماقْ .يِغْرِلْورْ yïg‘rïlur, yïg‘rïlmaq).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ل (l)

يَيْقَلْدِي y a y q a l d ï – chayqaldi. سُوقْ يَيْقَلْدِي cyw yayqaldï – suv chayqaldi. Har bir suyuq narsaning chayqalishiga ham bu so‘z qo‘llanadi. Har bir narsaga mayl qiluvchi kishi ham bunga o‘xshatilib, اَرْ كُنكُلي يَيْلْدِي يَيْقَلْدِي *er konli yayïldï yayqaldï* deyiladi. Bu so‘z zaifdir (يَيْقَلْماقْ .يَيْقَلْورْ ayqalur, yayqalmaq).

يَلْبِنْدِي yelpindi – اُغْلانْ يَلْبِنْدِي og‘lan yelpindi – bolaga yel ** tegdi. اَلْ اُوزنكا بِيلْ يَلْبِنْدِي ol öziŋa ye1pindi – y o‘zini yelpitdi (.يَلْبِنُورْ يَلْبِنْماكْ yelpinyr, yelpinmak).

يِرْتِنْدِي y ï r t ï n d ï: اَلْo‘l تُونشنْ يِرْتِنْدِي tonïn yïrtïndï – y to‘nini yirtayotgandek ko‘rindi. Boshqalari ham shunday (يِرْتِنُورْ. يِرْتِنْماقْ yïrtïnur, yïrtïnmaq).

يَبْجُنْدِي y a p c h u n d ï – اُقّا بِلِمْ يَبْجُنْدِي oqqa yelim yapchundï – o‘qqa yelim bilan qush pati yopishtirildi. Bir narsa bir narsaga yopishtirilsa, bog‘lansa ham bu so‘z qo‘llanadi (يَبْجُنُورْ. يَبْجُنْماقْ yapchunur, yapchunmaq). Bu so‘zning ش – sh bilan يَبْشُنْدِي yapshundi va ڤ – w bilan يَڤْشُنْدِي yawchyndï variantlari ham qo‘llanadi.

يِكْرَنْدِي y i g r ä n d i: اَنِكْ يِيني يِكْرَنْدِي anïŋ yini yigpändi[163] – uning terisi qo‘rquvdan hurpaydi.

يِكْرَنْدِي y i g r ä n d i: اَرْ اَتني يِكْرَنْدِي er etni yigrändi – odam go‘shtni xom hisoblab, yeyishdan voz kechdi (.يِكْرَنُورْ يِكْرَنْماكْ yigranur, yigränmäk).

يَخْسِنْدِي y a x s ï n d ï: اَرْ قَفْتانْ يَخْسِنْدِي er qaftan[164] yaxsïndï – odam qaftan (kiyim)ni kiftlariga soldi, bog‘ichini (tugmasini) ham

---

* V.Radlovda: *jovruldï.*

** Bu yerda “yel” *yomon ruh* yoki *kasallik* ma’nosida.

[163] Bu so‘z bosma nusxada تُكْرُنْدِي *to ‘gro ‘ndi* shaklida edi. Basim Atalay qo‘lyozmaga muvofiq يِكْرَنْدِي yigpändi qilib tuzatgan. Biz ham shunga asosan tuzatdik.

[164] Navoiyda *qaftan* so‘zi xuddi shu ma’noda qo‘llangan:

bog‘lamadi, qo‘llarini ham yengiga kirgizmadi. Bu so‘z faqat yelkaga tashlanadigan hirqa va boshqalarga (unga o‘xshash narsalarga) qo‘llanadi (يَخْسِنُورْ . يَخْسِنَماقْ yaxsïnyp, yaxsïnmaq).

يَرْسِنْدِي y e r s i n d i: اَرْ يِيرِكْ يَرْسِنْدِي er yerig yersindi – odam bir yerga joylashib oldi, u yerga o‘rgandi, ya’ni o‘troqlashdi (يَرْسِنُورْ . يَرْسِنَماكْ yersino‘r, yersinmäk).

يَمْسِنْدِي y e m s i n d i: اَرْ اَشْ يَمْسِنْدِي er ash yemsindi – odam osh yeyayotgandek ko‘rindi, aslida u yemagan edi (يَمْسِنُورْ . يَمْسِنَماكْ yemsino‘r, yemsinmäk).

يَلْغَنْدِي y a l g‘ a n d ï – yaladi. اَرْ جَنَاقْ يَلْغَنْدِي er chanaq yalg‘andï – odam idish yaladi. Boshqalari ham shunday.

يَلْقَنْدِي y a l w a n d ï: اَرْ آغْزِنْ يَلْقَنْدِي er ag‘zin jalwandi – odam tilini chiqarib, labini yaladi (يَلْقَنُورْ . يَلْقَنَماقْ yalwanur, yalwanmaq).

*يُلْقُنْدِي y u l q u n d ï: يُلْقُنْدِي نانكْ yulqundï neŋ – narsa yulindi (يُلْقُنُورْ . يُلْقُنَماقْ julqunur, julqunmaq).

يُرْكَنْدِي j ö r g ä n d i – o‘raldi. اُرُقْ بِغاحْقا يُرْكَنْدِي oruq yïg‘achqa yörgändi **(490)** – ip, arqon va boshqalar daraxtga o‘raldi. اَرْ يُغُرْقانْقا يُرْكَنْدِي er jug‘urqanqa yörgändi – odam adyolga o‘raldi. Boshqalari ham shunday (يُرْكَنُورْ . يُرْكَنَماكْ yörgäno‘r, yörgänmak).

يِذْلَنْدِي y ï z l a n d ï – hidlandi. اَتْ يِذْلَنْدِي et yïzlandï – et hidlandi. Boshqalari ham shunday (يِذْلَنُورْ . يِذْلَنَماقْ yizlanur, yïzlanmaq).

يَزْلِنْدِي y a z l ï n d ï – yechildi. تُكُونْ يَزْلِنْدِي to‘go‘n yazlïndï – tugun yechildi. Boshqalari ham shunday (يَزْلِنُورْ . يَزْلِنَماكْ yazlïnur, yazlïnmaq).

يُزْلَنْدِي y o‘ z l ä n d i: اُلْ مَنكا يُزْلَنْدِي o‘l menä yo‘zländï[165]** – u menga yuzlandi.

يُزْلَنْدِي y o‘ z l ä n d i: اَرْ يُزْلَنْدِي er yo‘zländi – odam xalq nazdida hurmatga ega bo‘ldi. Odamlardan hurmat talab qilishga ham bu so‘z qo‘llanadi (يُزْلَنُورْ . يُزْلَنَماكْ yo‘zläno‘r, yo‘zlänmäk).

Hirqa aning jismida *qaftan* bo‘lub.
Qaftani to‘n jismi aning jon bo‘lub.

* Olmaota nashrida bu so‘z yo‘q

[165] Bu so‘z bosma nusxada يَزْلِنْدِي*iaziindi* shaklida berilgan. Basim Atalay izohiga ko‘ra, qo‘lyozmada ham يَزْلَنْدِي ekan, keyingi shakllariga muvofiq يُزْلَنْدِي*iuziandi* bo‘lishi to‘g‘ri deb ko‘rsatgan. Biz ham shunday tuzatdik.

** Olmaota nashrida: *ol meŋä yazlindi.*

يَغْلَنْدي y a g‘ l a n d ï: نانكْ يَغْلَنْدي yag‘landï neŋ – narsa yog‘landi (يَغْلَنْماقْ .يَغْلَنُورْ yag‘lanur, yag‘lanmaq).

يُقْلُنْدي y u w l u n d ï: نانكْ يُقْلُنْدي yyshlundï neŋ – narsa yumaladi. (يُقْلُنْماقْ .يُقْلُنُورْ yuwlunur, yuwlunmaq).

يَرْمَنْدي y a r m a n d ï – o‘rmalab chiqdi. اَرْ تامْقا يَرْمَنْدي er tamqa yarmandï – odam tomga* o‘rmalab chiqdi. Boshqalari ham shunday (يَرْمَنْماقْ يَرْمَنُورْ yarmanur, yarmanmaq).

Qoida. Har bir ikki tovushli o‘timli fe’lda ل – *l* orttirilsa, o‘zlik yoki majhul fe’lga aylanishini yuqorida aytgan edik. O‘timli fe’lga ن – *n* orttirilsa, o‘zlik fe’l hosil bo‘ladi. Bu hol arabchaga muvofiqdir. Chunki arab tilida e*shikni ochdi* ma’nosida فتح البابَ deydilar. Bu iboradagi فَتَحَ so‘zi o‘timli fe’ldir. So‘ng اِنْفَتَحَ اَلبابُ deydilar, e*shik ochildi* demakdir. Demak, ن– *n* orttirilib, arab tilida o‘timli fe’l o‘timsiz fe’lga aylantiriladi. Shuningdek, arab tilida birov bir narsani sindirsa, كَسَرَ الرَجُلُ الشيء deydilar, bu o‘timlidir. Singach اِنكَسَرَ deydilar; bu o‘timsiz fe’ldir. Bu til (turkiy til)da اَرْ تُكُونْ يَزْدي e*r to‘go‘n jazdï* deydilar. Odam tugunni yechdi, demakdir. So‘ng bu fe’lga ن– *n* orttirib, تُكُونْ يَزْلِنْدي *to‘go‘n jazlïndï* deydilar, tugun yechildi, demakdir. Demak, o‘timli fe’l ن qo‘shish[166] bilan o‘zlik fe’lga aylandi. Fe’lga ل – *l* orttirilib, تُكُونْ يَزْلْدي *to‘go‘n yazïldï* deydilar, *tugun yechildi* demakdir. O‘z-o‘zidan yechildi ma’nosini ifodalash uchun ن – *n,* ل – *l* qo‘shib يَزْلِنْدي *jazlïndï* deydilar.

Yana shunday **(491)** اَرْ تَبِقْ يُقْدى *er topïq yywdï* deydilar. So‘ng تَبِقْ يُقْلْدي *topïq juwïldï* deydilar, to‘p yumalatildi, demakdir. Bunda fe’l majhuldir, ya’ni to‘p noma’lum birov tomonidan yumalatilgan, demakdir. Bu fe’lga bir ن orttirilib, يُقْلِنْدي *yuwlïndï* deyiladi, to‘p o‘z-o‘zidan yumalandi, demakdir. ل ga ن qo‘shilmasidan oldin bu fe’l ikki tomonlama o‘timsiz edi.

Birinchisi: ish-harakat noma’lum bir odam tomonidan bajarilgani uchun bu fe’l o‘timsiz edi. ن harfini qo‘shish bilan ish boshqa birovning ta’sirisiz o‘z-o‘zidan bajarilgani uchun fe’l o‘timsiz bo‘lgan edi. Bu haqda يُقْدي *yywdï* fe’li misolida ko‘rsatib

---

* Olmaota nashrida: *devorga.*

166 Mahmud Koshg‘ariy ن qo‘shib yasalishi haqida izoh bergan bo‘lsa ham, misolda ن emas, لن *-lin* qo‘shib yasalgan so‘z keltirilgan; muvofiq misol tushib qolgan bo‘lsa kerak.

o‘tildi. Bu fe’l ikki undoshli o‘timli fe’l edi. Bunga ل orttirilib, يُقُلْدِي *yuwuldï* deyiladi, noma’lum odam tomonidan yumalatildi yoki o‘z-o‘zidan yumaladi, demakdir. Bu holda fe’l uch undoshli bo‘lib ikki jihatdan o‘timsizdir. So‘ng ل ustiga ن orttirilib, يُقُلْنْدِي *yywlundï* deyiladi, o‘z-o‘zidan yumaladi, demakdir. Fe’l to‘rt undoshli o‘timsiz fe’lga aylanadi. Ya’ni bu fe’l ikki undoshdan uch undoshliga, uch undoshlidan to‘rt undoshliga aylanadi.

Qoidalarning ko‘plari solim bo‘limida bayon qilingandir. Bu fe’llarning hammasida buyruq, bo‘lishsizlik va boshqa qoidalar yuqorida izohlaganim kabidir.

To‘rt harflilar bo‘limi tugadi.

فَعْلَدِي *FAAL’ALDI* SHAKLIDAGI BESH HARFLILAR BO‘LIMI

چ (ch)

يِغَجْلَنْدِي y ï g‘ a c h l a n d ï: اَرْ يِغَجْلَنْدِي yer yïg‘achlandï – yerda yog‘och (daraxt) ko‘paydi. Bu yerda yog‘ochning ko‘payishi, demakdir (يِغَجْلَنْماقْ . يِغَجْلَنُورْ yïg‘achlanur, yïg‘achlanmaq).

ر (r)

يَغِرْلَنْدِي y a g‘ ï r l a n d ï – yag‘iri ko‘paydi*. تَڤى يَغِرْلَنْدِي tewej yag‘ïrlandï – tuyaning yag‘iri ko‘paydi. Boshqalari ham shunday (يَغِرْلَنُورْ . يَغِرْلَنْماقْ yag‘ïrlanur, yag‘ïrlanmaq). Yag‘irdan qashinishga ham bu so‘z qo‘llanadi.

يُمُرْلَنْدِي y u m u r l a n d ï: سُو يُمُرْلَنْدِي so‘ yumurlandï – askar to‘plandi (o‘g‘uzcha). Boshqalari ham shunday (يُمُرْلَنُورْ . يُمُرْلَنْماقْ yumurlanur, yumurlanmaq).

يُلَرْلَنْدِي y u l a r l a n d ï – yuganlandi. اَتْ يُلَرْلَنْدِي at yularlandï – ot yuganlandi (يُلَرْلَنُورْ . يُلَرْلَنْماقْ yularlanur, yularlanmaq).

ز (z)

يَڤْزْلَنْدِي y a w u z l a n d ï: اُلْ اَتِغْ يَڤْزْلَنْدِي o‘l atïg‘ yawuzlandï – otni yomon deb hisobladi. Shuningdek, boshqa narsani yomon deb tushunishga ham bu so‘z qo‘llanadi. (يَڤْزْلَنُورْ . يَڤْزْلَنْماقْ yawuzlanur, yawuzlanmaq).

---

* V.Radlovda: *ag‘ir paydo bo‘ldi.*

ش *(sh)*

يَوشْلَنْدي y a w a sh l a n d ï: اَرْ يَوشْلَنْدي er yawashlandï **(492)** – odamda yuvoshlik paydo bo‘ldi, odam yuvoshlandi (.يَوشْلَنُورْ يَوشْلَنْماقْ yawashlanyr, yawashlanmaq).

يَمِشْلَنْدي y e m i sh l ä n d ï: يِغاچْ يَمِشْلَنْدي yïg‘ach yemishländi – daraxt meva berdi (يَمِشْلَنْماكْ .يَمِشْلَنُورْ yemishläno‘r, yemishlänmäk).

غ *(g‘)*

يَلِغْلَنْدي y a l ï g‘ l a n d ï: تَقُقْ يَلِغْلَنْدي taquq yalïg‘landi – xo‘rozning toji o‘sdi. Ot yolli bo‘lsa ham shu so‘z qo‘llanadi (يَلِغْلَنْماقْ .يَلِغْلَنُورْ yalïg‘lanur, yalïg‘lanmaq).

ق *(q)*

يَرَقْلَنْدي y a r a q l a n d ï[167*]: اَرْ يَرَقْلَنْدي er yaraqlandï – odam sovut (temir kiyim) kiydi. Sipar taqishga ham bu so‘z qo‘llanadi (يَرَقْلَنْماقْ .يَرَقْلَنُورْ yaraqlanur, yaraqlanmaq).

يِراقْلَنْدي y a r a q l a n d ï – yiroq deb hisobladi. اَرْ يِيراكْ يِراقْلَنْدي er yerig yïraqlandï – odam bir yerni yiroq deb hisobladi (.يِراقْلَنُورْ يِراقْلَنْماقْ yïraqlanur, yïraqlanmaq).

يُلَقْلَنْدي y u l a q l a n d ï: يِيرْ يُلَقْلَنْدي yer yulaqlandï – yer bo‘laklandi, yerning bo‘laklari ko‘paydi[**] (يُلَقْلَنْماقْ .يُلَقْلَنُورْ yo‘laqlanur, yulaqlanmaq).

ك (k)

يُرِكْلَنْدي y o‘ r ä k l ä n d i: اَرْ يُرِكْلَنْدي er yo‘rägländi – odam shijoatli, yurakli bo‘ldi. Boshqalari ham shunday (يُرِكْلَنْماكْ .يُرِكْلَنُورْ yo‘räkläno‘r, yo‘räklänmäk).

م *(m)*

يَرِمْلَنْدي y a r ï m l a n d ï: يَرِمْلَنْدي نانكْ yarïmlandï neŋ – narsa yarimlandi (يَرِمْلَنْماقْ .يَرِمْلَنُورْ yarïmlanur, yarïmlanmaq).

يِشِمْلَنْدي y e s h ï m l ä n d i: اَرْ يِشِمْلَنْدي er yeshïmländi – odam oyog‘iga فراهيجان (issiq kiyim) kiydi (يِشِمْلَنْماكْ .يِشِمْلَنُورْ yeshimlänur, yeshimlänmäk)[168].

---

[167] يَرَقْلَنْدي jaraqlandï so‘zi bosma nusxada shunday berilgan bo‘lsa ham, yozma nusxada يَرِقْلَنْدي *jarïqlandi* shaklida berilgani haqida Basim Atalay izoh bergan. Darhaqiqat, bu so‘zning ot shakli III jild, 12-betda يَرِقْ *japïq* tarzida berilishi – to‘g‘risi shunday ekanini tasdiqlaydi.

[*] V.Radlovda: *jaraq// jarïq.*

[**] V.Radlovda va Olmaota nashrida: *yer buloqlandi*, ya’ni *buloqlari ko‘paydi.*

[168] يِشِمْ *jishim* so‘zi Radlov (III jild. 529-b)da *paypoq* deb izohlangan.

يِلِمْلَنْدِي y e l i m l ä n d i: اُقْ يِلِمْلَنْدِي oq yelimländi – o‘q yelimlandi (يِلِمْلَنُمَاكْ .يِلِمْلَنُورْ yelimlänur, yelimlänmäk). Boshqa bir narsa yopishtirilsa ham bu so‘z qo‘llanadi.

Bu bo‘limning olti harflilari

ر *(r)*

يَلْغَنْدُرْدِي y a l g‘ a n d u r d ï – yolg‘onga chiqardi. اَرْ يَلْغَنْدُرْدِي er yalg‘andurdï – odam (y xabarni) yolg‘onga chiqardi (.يَلْغَنْدُرُرْ يَلْغَنْدُرْمَاقْ yalg‘andurur, yalg‘andurmaq).

ز *(z)*

يِلْدِزْلَنْدِي y ï l d ï z l a n d ï – ildiz otdi. يِغاچْ يِلْدِزْلَنْدِي yïg‘ach jïldïzlandï – daraxt ildiz otdi. Shuningdek, odam bir yerga joylashsa yoki joylashishga hozirlansa ham shu so‘z qo‘llanadi. Chunonchi, اَرْ يِلْدِزْلَنْدِي er yïldïzlandï – odam xuddi daraxt ildiz otgandek, ildiz yoydi, qattiq joylashdi yoki nasl-nasabli, tag-taxtli bo‘ldi (يِلْدِزْلَنْمَاقْ .يِلْدِزْلَنُورْ yïldïzlanur, yïldïzlanmaq).

ق *(q)*

يُدْرُقْلَنْدِي y u d r u q l a n d ï: اَرْ يُدْرُقْلَنْدِي er yudruqlandï – odam qo‘lini mushtum qildi (يُدْرُقْلَنْمَاقْ .يُدْرُقْلَنُورْ yudruqlanur, yudruqlanmaq).

يَرْمَقْلَنْدِي y a r m a q l a n d ï: اَرْ يَرْمَقْلَنْدِي er yarmaqlandï – odam pulli, tangali bo‘ldi (يَرْمَقْلَنْمَاقْ .يَرْمَقْلَنُورْ yarmaqlanur, yarmaqlanmaq).

يُمْشَقْلَنْدِي y u m sh a q l a n d ï: اَرْ مَنكا يُمْشَقْلَنْدِي er menä yumshaqlandï – odam menga yumshoqlik, xushomadgo‘ylik, yalinchoqlik qildi (يُمْشَقْلَنْمَاقْ .يُمْشَقْلَنُورْ yumshaqlanur, **(483)** yumshaqlanmaq).

يُمْغَقْلَنْدِي y u m g‘ a q l a n d ï: نانكْ يُمْغَقْلَنْدِي yumg‘aqlandï neŋ – narsa yumaloqlandi (يُمْغَقْلَنْمَاقْ .يُمْغَقْلَنُورْ yumg‘aqlanur, yumg‘aqlanmaq).

ن *(n)*

يَقْعَنْلَنْدي y a w g‘ a n l a n d ï: اَرْ اَشِغْ يَقْعَنْلَنْدي er ashïg‘ jawg‘anlandï – odam oshni yovg‘on (go‘shtsiz) hisoblab, oz edi* (يَقْعَنْلَنْمَقْ .يَقْعَنْلَنُوْرْ yawg‘anlanur, yawg‘anlanmaq).

يِلْغَنْلَنْدي y ï l g‘ u n l a n d ï: يِيرْ يِلْغَنْلَنْدي yer yïlg‘unlandï – yerda yulg‘un undi (يِلْغَنْلَنْمَقْ .يِلْغَنْلَنُوْرْ yïlg‘unlanur, yïlg‘unlanmaq).

Xudoga shukur. Misol bo‘limi tugadi.

* Olmaota nashrida: (oz edi emas) *to‘ymadi.*

Bismillohi-r-rahmani-r-rahim

UCH HARFLI SO‘ZLAR[169]
(Oltinchi kitob)

Ikki harfli otlar

ت *(t)*

تاهْ تاهْ t a h-t a h – lochinni uchirilgandan so‘ng chaqiriladigan so‘z. Bu so‘zdagi ه – *h* nafas olish uchun xizmat qiladigan *h* dir.

ج *(ch)*

جُوهْ جُوهْ c h u p-c h u p – otni yurgizish uchun aytiladigan, unga ta’zir beriladigan so‘z.

ك **(k)**

كاهْ كاهْ k a h-k a h – itni chaqirish uchun qo‘llaniladigan so‘z.

م *(m)*

ماهْ mah – mana, u yerda, ol ma’nolaridadir. Bu so‘z bir narsa taklif qilinganda aytiladi.

Bu bo‘limning misol qismi

ياهْ y ă h – *xuddi, shunday, ha* ma’nolaridagi so‘zdir. Bu اَتْ تُتْ at tut deb aytgan kishining so‘ziga javoban aytilgan ياهْ yăh – xo‘p ma’nosida ham qo‘llanadi.

Tez so‘zlaganda, bu so‘zlardan yumshoq harfligi tushib, تَهْ تَهْ، يَهْ، مَهْ، كَهْ كَهْ، جَهْ جَهْ deyiladi. Shuning uchun biz bularni manqus[170]

---

[169] Mahmud Koshg‘ariyning bu bo‘limni ikki xil: uch harflb so‘zlar, ikki harfli ismlar deb ko‘rsatishida dastlabki qarashda aniqsizlik bordek ko‘rinishi mumkin. Shuning uchun Basim Atalay bu haqda izoh bergan (Qarang: III jild. 117-b). Izohga ko‘ra, bu bo‘lim كاهْ، تاهْ، جُوهْ، ماهْ shaklida bo‘lganda uch harfli, كَهْ، تَهْ، جَهْ، مَهْ shaklida bo‘lganda ikki harfli bo‘ladi, so‘zlanishda esa bu so‘zlar ikki harfliga kiradi. Basim Atalayning bu izohiga bir necha jihatlardan qo‘shilib bo‘lmaydi: Basim Atalay كاه shaklini uch harfli, كه shaklini esa ikki harfli deb tushungan. Chunki كاه *kah* so‘zi uch harfli bo‘lsa, كه *käh* so‘zi ham uch harflidir. Birida uzun unli, ikkinchisida qisqa unlidir. Basim Atalay, izohiga ko‘ra, Mahmud Koshg‘ariy bu farqni tushunmagan bo‘lib chiqadi. Holbuki, Mahmud Koshg‘ariy unlilardagi bu xil farqlarni ko‘p yerlarda ko‘rsatgan. Demak, birmuncha kengroq tekshirish kerak.

[170] *Manqus – biror harf tushish bilan nuqsonlanuvchi so‘zlar bobi* demakdir.

bobida ko‘rsatdik. Chunki bu boblarda yumshoq harflar yozuvda emas, talaffuzda tushib qoladi.

Bu so‘zlardagi ه– h harfi nafas olishga xizmat qiluvchi harflardir.

فَبِهُد يَهُمُ اَقْتَدِهْ وَ | لَمْ يَتْسَنَّهْ

oyatlaridagi* kabi. Bu iboralarda so‘z oxiridagi ه – *h* dam olish uchun xizmat qiladi.

Haqiqiy ه – harfi asl turk tillarida yo‘qdir. Faqat اَرْ اَهْلَدِي er ahladï – *odam oh urdi* gapidagina qo‘llanadi. Shunda ham bu so‘zdagi ه – h ko‘krakdan chiqadigan tovushdir. Boyqushni اُوهِي *o‘hi* deguvchilar bor bo‘lsa ham, asl turklar اُوكِي *o‘ki* deydilar. Xo‘tan va kanjak tillarida ه qo‘llansa ham, bular asl turklar **(494)** emas, turklar o‘lkasiga so‘ng kelganlardir.

O‘RTASI SUKUNLI فْعَلْ. فِعْلْ. فَعْلْ *FA’L, FU’L VA FE’L* SHAKLLARIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI

ب *(p)*

تُوبْ t o‘ p – har qanday daraxtning asosi, ildizi. يِغاجْ تُوبِي yïg‘ach to‘pi – yog‘och tubi, ildizi.

تُوبْ t o‘ b – asos. تَامْ تُوبِي tam to‘bi – devor asosi (poydevor). Odam asliga ham bu so‘z qo‘llanadi. تُوبْلُغْ اَرَنْ to‘blo‘g erän – taglitaxtli odamlar.

تُوبْ t o p – to‘p, koptok. Bu so‘z تُبِقْ *topïq*ning qisqarganidir.

جُوبْ c h ö p – har narsaning siqilgandan so‘ng qolgan tashlandig‘i, chiqindisi. اُزُمْ جُوبِي o‘zo‘m chöpi – uzum turupi. يِاغْ جُوبِي jag‘ chöpi – yog‘ quyqasi. بُورْ جُوبِي bor chöpi – bo‘za turpi. Boshqalari ham shunday.

جُوبْ c h ö p: تُتْماجْ جُوبِي tutmach chöpi** – tutmoch (ovqat) qilish uchun maydalab kesilgan yupqa bo‘laklarning har biri.

قُوبْ قِلْدِي q o p q ï l d ï – sevinmoq. اُلْ مَنِي كُرُبْ قُوبْ قِلْدِي o‘l meni köro‘p qop qïldï – u meni ko‘rib shodlandi, sevindi.

---

* Oyati karimalarning o‘qilishi va tarjimasi: *Fa bi hudahumu qtadix* – va Unga ergashing... (Qur’oni karim, 6:90); *Lam yatasannah* – bu buzilmagan... (Qur’oni karim, 2:259)

** Olmaota nashrida bu o‘rindagi ko‘b – *katta ko‘za, bochka*, deb berilgan. Izoh noto‘g‘ri.

كُوبْ k o‘ p – k o‘ p*.

كِيبْ k i p – har narsaning qolipi. كَرْبِچْ كِيبِي kerpich kipi – kirpichning – g‘ishtning qolipi.

كِيبْ k i b – kabi, o‘xshash. بُو اَرْ اَنِكْ كِيبِي Bu er aniŋ kibi[171] – bu odam unga o‘xshashdir (o‘g‘uzcha).

ت *(t)*

بُوتْ b u t[172] – son.

بُوتْ b u t – kattalarning o‘g‘il-qizlari peshanalariga taqiladigan har bir qimmatbaho firuza tosh. قِزْ بُوتْ اُرِدِي qïz but o‘ridi – qiz firuza taqdi.

بُوتْ b u t – katta bir odam tomonidan yuborilgan sovg‘ani keltirgan kishiga beriladigan mukofot. Chunonchi, birovga sovg‘a tariqasida yuborilgan otni keltiruvchi otboqarga pul yoki qo‘y berish kabi. Shu tartibda berilgan qo‘y بُوتْ *but* deb ataladi. **(495)**

تِيتْ t ï t – sanubar daraxti, tog‘larda bitadi.

چِيتْ c h i t – ola-bula gullari bor chit gazlama**.

سُوتْ s o‘ t – sut

شُوتْ s h o‘ t – urug‘. Xo‘tan lahjasida.

تُوچْ t u c h – mis***.

كُوچْ k o‘ c h – kuch.

---

* Olmaota nashrida bu o‘rindagi *ko‘b – katta ko‘za, bochka,* deb berilgan.

[171] *Kibi* so‘zi “Devon”da ikki xil: كِيبْ *kib* va كِيبِي *kibi* shaklida berilgan bo‘lsa ham, ikki xillik haqida Mahmud Koshg‘ariy tomonidan biror izoh berilmagan. Shuning uchun bu so‘zning u davrda ikki xil qo‘llanishi yoki bir xil qo‘llanib, bu yerda xato bo‘lgani bizga noma’lum qoldi. Chunki bu so‘z “Devon”ning boshqa betlarida ham bir xil – *kibi* shaklida uchraydi. Bu so‘z hozirgi o‘zbek tilida, asosan, *kabi* shaklida qo‘llanadi. Lekin Navoiy asarlarida “Devon...”dagicha, kibi shaklida qo‘llangan:

O‘g‘ul *kibi* qullug‘ungni qilsam...
Tanglagi kavsar uchun der sen bukun may ichmagil,
Tek tur, ey zohid, Navoiy sen *kibi* loshimudur.

Izohi: Ey zohid, keyingi kavsar umidida meni may ichishdan qaytarayotirsan, nasihatingni qo‘yib tinchlan, axir Navoiy sen kabi nodon emas-ku.

[172] Hozir *but* so‘zi ko‘pgina shevalarimizda oyoq ma’nosida qo‘llanadi.

** Olmaota nashrida: *guldor xitoy parchasi* deb berilgan; B.Radlovda *čit – ola-bula gulli chit* deb berish bilan birga čit II ni qamishdan qurilgan chodirni keltiradi va bu o‘zbek tilidagi *chiy* so‘zi (qamishdan ip bog‘lab to‘qilgan qurilish ashyosi) xalqda o‘zbekcha *chiylamoq* fe’li bilan qiyoslash orqali *chit* asl turkiy so‘zligini ko‘rsata oladi.

*** V. Radlovda: *bronza* (tunch); Olmaota nashrida: *sariq mis.*

كُوچْ k o‘ ch – zulm qilish. Maqol:

كُوچ ايلْدِنْ كِرْسا تُرُو تُنكْلُكْتِنْ چِقارْ

Ko‘ch eldin kirsä töro‘ to‘ŋlo‘ktin[173] chïqar

Zulm, zo‘ravonlik eshikdan* kirsa, insof tuynukdan chiqadi.

Zulm qiluvchi odamga كُچَمْچِي ko‘chämchi, zo‘r odamga كُوچْلُكْ*ko‘chlug* deyiladi.

كُوچْ k o‘ ch – kunjut. كُوچْ ياغِي ko‘ch yag‘ï – kunjut yog‘i (chigilcha). Kunjut o‘tining urug‘iga ham كُوچِي اِنكاكْ e*ŋäk ko‘chi* deyiladi.

كِيچْ k e c h – kech. Shundan olinib, كِيچْ كَلْدِي kech kelDi – kelishda kechikdi, *kech keldi* deyiladi.

ذ *(z)*

بُوذْ b o‘ż – bo‘y. اُزُونْ بُوذْلُغْ كِشِي uzun bozlug‘ kishi – uzun bo‘yli odam.

بُوذْ b o‘ ż – tuyaqush (tuyaga o‘xshash bo‘yni uzun, orqa oyoqlari kalta bir jonivor).

بُوذْ b o‘ ż: بُزْذْ مُنْچُقْ boz munchuq – xotinlar taqadigan bir xil munchoq.

ر *(r)*

بُورْ b o‘ r – bo‘za. Maqolda shunday kelgan:

بُورْ بُلْماذِبْ سِرْكا بُلْما (30)

Bor bolmazïp sirkä bolma

Sharob bo‘lishdan oldin sirka bo‘lma. Bu maqol o‘zini qarilarga o‘xshatadigan yoshlarga nisbatan qo‘llanadi.

بِيرْ b i r – bir. بِيرْ يُرْماقْ bir yarmaq – bir tanga.

تُورْ t ö r – uyning to‘ri. تُورْكا كَچْ törga kech – to‘rga o‘t.

تُورْ t o‘ r – qattiq *o* bilan; qush va baliq tutiladigan to‘r, ov to‘ri, matrap va yoyma kabi.

---

[173] Bu so‘z hozirgi jonli tilda *tuynuk* shaklida talaffuz qilinsa ham, Navoiyda aynan “Devon”dagicha *to‘nlo‘k* shaklida uchraydi:

Zindonki tanimdur anda mahbus,
Ham *tungluki*, ham eshigi madrus.

* V. Radlov bu gapdagi *el* so‘zini “eshik oldi” deb, Olmaota nashrida esa “hovli” deb olishgan, bizningcha, bu so‘z *ostona* yoki *bo‘sag‘a* so‘zlari ma’nosiga mosdir. Ayni paytda, bu maqol o‘troq turklar tomonidan ijod qilingani ham ko‘rinib turadi.

جُوْرْ c h o‘ r: جُوْرْ أُراغُتْ chor urag‘ut – bitov xotin (avrat eri bitov xotin), o‘g‘uzlar o‘ralgan o‘tga ham جُوْرْ آتْ *chor ot* deydilar. Birinchi so‘zning asli shundandir.

سُوْرْ سُوْرْ s u r-s u r – shap-shap. آرْ سُوْرْ سُوْرْ مُوْنْ اُبْتِي er sur-sur, mo‘n ōpti[174] – odam xo‘r-xo‘r qilib, xo‘rillatib sho‘rva ichdi.

قُوْرْ q u r – ziyon. آرْ قُوْرْ قِلْدِي er qur qïldï – odam ziyon qildi. **(496)**

قُوْرْ q o‘ r – qatiq tomizg‘isi. Bu – xurmachada ivitilgan qatiq yo achigan qimizdan idish tagida qoldirib, ustiga sut qo‘shib, qatiq yoki qimiz qilishdir.

قُوْرْ q u r[175] – quruq (o‘g‘uzcha). Bu قُرُغْ *qurug‘* so‘zining qisqarganidir. Maqol:

قُلانْ قُدُغْقا تُشْسا قُرْبَقا آيْغِرْ بُلُوْرْ

Qulan qudug‘qa to‘shsa qur baqa* ayg‘ir bolur

Quduqqa yovvoyi eshak – qulan tushsa, cho‘l qurbaqasi ayg‘ir bo‘ladi. Bu arablarning اِنّ الْبُغاثَ بارْ ضِنا يَسْتَنْسُر degan** iborasiga o‘xshaydi.

ز *(z)*

بُوْزْ b o‘ z – kulrang. بُوْزْ آتْ bo‘z at – kulrang ot***. Bu nozik, nafis, yoqimli emas[176]. Oq va qizil rang orasidagi rangda bo‘lgan

---

[174] XI asr tilida *ichmoq* ma’nosida ikki so‘z *ichmoq* va *o‘pmoq* so‘zlari sinonim sifatida teng qo‘llanar edi. Bizda *ichmoq* varianti saqlanib qolgan. Oz-oz *ichmoq* ma’nosidagi *ho‘plamoq* so‘zi “Devon”dagi shu *o‘pmoq* so‘zining *h* orttirilgan variantidir.

[175] *Qur* so‘zi haqida Basim Atalay izoh bergan. Uning izohiga ko‘ra, yozma nusxada قُوْرْ shaklida ekan. Shunga ko‘ra, bu so‘zning boshqa bo‘limga o‘tishi haqida uqtirgan (qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 122-b).

* XI asr tilimizda *qurbaqa* yaxlit bir so‘z sifatida emas, hali so‘z birikmasi xususiyatini yo‘qotmagan holatda ekanligidan darak beradi.

** O‘qilishi va tarjimasi: *Inna’-l-bug‘asa bi-ardina ta-stansiru* – Bizning zaminda qushcha ham burgut bo‘lib yetishadi.

*** Olmaota nashrida ushbu ma’nodagi tarjimadan keyin “unchalik to‘g‘ri emas” degan izoh bor.

[176] Bu kichik izohni bir necha xil tushunish ham mumkin. Bizningcha, bu rangni odamlar yoqtirmasliklari ma’nosida bo‘lsa kerak. Bizda ham hozir yoqimsiz ko‘rinmoq, ayniganlik, oqarib ketganlik ma’nosida *bo‘zarmoq* so‘zi qo‘llanishida ana shu ma’no bor.

har bir hayvonga ham bu so‘z qo‘llanadi. بُوزْ قُوی boz qoy – bo‘z, kulrang qo‘y.

بُوزْ b ŏ z – bo‘z (yumshoq unli bilan).

بُوزْ b u z – muz (qattiq unli bilan) Maqolda shunday kelgan:

بُوزْدَنْ سُوفْ تَمارْ

Buzdan cyw tamar

Muzdan, albatta, suv tomadi. Bu maqol xulqi otasining xulqiga o‘xshaganlar haqida aytiladi.

بِيزْ b e z – et bilan teri orasida (ma’lum sabab bilan) paydo bo‘ladigan shish.

تُوزْ t o‘ z – to‘zon (qattiq unli bilan).

توز t o‘ z – qayish yoki kamarga taqiladigan va bog‘lanadigan halqa.

تُوزْ t o‘ z: اِلْ تُوزْ نَتَكْ el to‘z netäk – mamlakat, el qanday.

تُوزْ t o‘ z – asl, tag, asos. اَنِكْ تُوبی تُوزی كِيمْ äniŋ to‘bi, to‘zi kim – uning tagi, asli kim? Kimga borib taqaladi?

تُوزْ t o‘ z: تُوزْ يِيرْ to‘z yer – to‘g‘ri yer, tekis yer.

تُوزْ t o‘ z* – tuz.

تِيزْ t i z – tiz, tizza.

تَيِزْ t a y i z[177] – baland yer. Forslar shaharlari nomidagi shu so‘zni دِزْ dïz shaklida o‘zgartirib olganlar.

---

* V.Radlovda: *tuz.*

[177] Bu so‘z haqida Basim Atalay izoh bergan. Uning izohiga ko‘ra, yozma va bosma nusxalarda تَيِزْ shaklidagi so‘z تِزْ bo‘lishi kerak emish. Lekin bu fikrga bir necha sababdan qo‘shilib bo‘lmaydi:

1. Bu izohga ko‘ra, berilgan so‘zda juda katta o‘zgarish bo‘ladi. Shuncha katta farqli so‘z haqida Mahmud Koshg‘ariyning izoh bermasligi g‘ayri tabiiydir.

2. Bu so‘zni o‘zgartirib tuzatishda Basim Atalay forslarning bu so‘zni دِزْ *diz* shaklida qo‘llashlariga moslashtirishni asosga olgan. Holbuki, forslar bu so‘zni turklardan olgach, xuddi turklar kabi qo‘llashlari shart bo‘lmaydi. Aksincha, ular o‘z tillariga moslab o‘zgartirib olishlari albatta mumkin. Boshqa tildan kirgan so‘zlarni, ko‘pincha, o‘sha til xususiyatiga moslashtirib o‘zgartirish qoida holiga kirgandir. Chunonchi, arab tilidan kirgan *sham* so‘zi Toshkent shevasida *shag‘am* shaklida o‘zlashgan. Bundan tashqari, bir so‘zni ikki variantda qo‘llash har bir tilda ham o‘zlashgan qoidadir. *Xurshid*ni forslar ba’zan *shid* shaklida, *Jamshid*ni *jam* shaklida, *koshki* o‘rnida *kosh* qo‘llashlari haqiqat-ku. Umuman, har bir tilda ikki variantli so‘zlar ko‘pdir. Ikki

تِيزْ t a y i z – Qashqar yaqinidagi bir yaylov. Balandligi uchun uni تَرِغْ اَرتْ تِيزْ *tarïg‘ art tayïz* deyiladi.

تَيزَنك تِيزْ t a y z a ŋ tajïz* – boshqa bir yaylov oti.

تيز t a y ï z: ييز اڤى تيز yiz ew tayïz – Barsag‘on yaqinidagi bir yaylov oti.

خيژْ c h e j** – (ikki jag‘ orasidagi *j* bilan) ilmoq yoki uchi qayrilgan temir kabi narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi.

سُوزْ s ŏ z – so‘z***. **(497)**

سِيزْ s i z – kattalarni hurmatlash uchun sen ma’nosida aytiladigan so‘z (chigilcha). Aslida buning ma’nosi sizlar demakdir. Kichiklarga سَنْ *sen* deyiladi. O‘g‘uzlar buning teskarisini qo‘llaydilar.

قُوزْ ****q u z: قُوزْ تاغْ quz tag‘ – quyosh tushmaydigan tog‘, tog‘ning quyosh tushmaydigan joyi.

ب *(p)*

بُوسْ p u s***** – qoplanish. كُوكْ بُوسْ بُلْدِي kök pus boldï[178] – osmon chang, to‘zon va boshqa shuning kabilar bilan qoplandi.

بُوسْ p u s: اَرْ كُوزِي بُسْ بُلْدِي er közi pus boldï – me’dada paydo bo‘lgan bug‘(dam)dan odamning ko‘zi xiralandi.

تُوسْ تُوسْ t u s-t u s: اَنِي تُوسْ تُوسْ اُرْدِي anï tus tus[179] yrdï – uning to‘ni ustidan tez-tez (tarsillatib) urdi.

---

variantlilikka qarshi qo‘lyozmani o‘zgartirish, qo‘lyozmaga zid fikr yurgizishdan ko‘ra, qo‘lyozmadagi shaklni saqlashga diqqat qilish zarur va muhimdir.

* V.Radlovda bu so‘zning o‘qilishi *tizäŋ tiz*; Olmaota nashrida: *tiziŋ, tayiz.*

** V. Radlovda *čiz* – mix; mix qalpoqchasi.

*** V.Radlovda: *so‘z; nutq;* Olmaota nashrida: *nutq.*

**** Olmaota nashrida bu so‘z yo‘q.

***** Olmaota nashrida: *bus;* V.Radlovda *rus//bus.*

[178] Mahmud Koshg‘ariy *bus bo‘ldi* so‘zini bu gapda دَجَنَتْ *qoplandi* deb tarjima qilgan. So‘nggi gapda bu so‘zni اَظْلَمَ *qorong‘ilandi, qorong‘i bosdi, xiralandi* deb tarjima qilgan. Har ikki holda ham Mahmud Koshg‘ariy buni analitik qo‘shma fe’l sifatida tarjima qilgan. Darhaqiqat, XI asr tilida bu xil qo‘shma fe’llar yuzaga kelgan edi. Lekin bular oz edi. Bu misollar yana shuning uchun muhimki, bularda bu fe’l stilistik xususiyat talabi bilan yangi-yangi ma’nolarda qo‘llangan. Bu hol u davr tilida bu xususiyat ancha keng singiganidan ham darak beradi.

[179] Basim Atalay izohiga qo‘ra, تُوسْ تُوسْ shaklidagi bu so‘z, yozma nusxada avval بُوسْ بُوسْ shaklida berilgan bo‘lib, so‘ng qizil siyoh bilan تُوسْ تُوسْ

ش *(sh)*

بُوشْ b o‘ s h – ozod, erkin. بُوشْ كَشي bo‘sh kishi – ozod odam.

بُوشْ b o‘ s h – ajralgan, erdan chiqqan. بُوشْ أراغْتْ bo‘sh urag‘ut – ajralgan xotin.

بُشْ b o‘ s h: بُوشْ اِلِكْ bosh elik – ishdan bo‘shagan qo‘l; quruq qo‘l

بُوشْ b o‘ s h: بُوشْ آتْ bosh et – yumshoq go‘sht; yumshoq yerga ham bu so‘z qo‘llanadi.

بُوشْ b o‘ s h – bo‘shatilgan, bo‘sh qo‘yib yuborilgan. بُوشْ آتْ bo‘sh at – bo‘s h qo‘yib yuborilgan ot.

بُوشْ b o‘ s h – holi qilingan, bo‘shatilgan. بُوشْ آفْ bo‘sh ew – bo‘shatilgan uy. Shuningdek, narsadan bo‘shatilgan idish yoki jildlarga ham bo‘sh so‘zi qo‘llanadi.

بِيشْ b e s h – besh (son).

تُوشْ t o‘ s h – teng[180]. آنِكْ تُوشي anïŋq to‘shi – uning tengi.

تُوشْ t o‘ s h – to‘g‘risi, ro‘parasi. آقِمْ تُوشي ewim to‘shi – uyimning to‘g‘risi, uyimning ro‘parasi[181].

تُوشْ t ö s h – to‘sh*. Ko‘krakning boshi, ingichka *ö* bilan.

تُوشْ t o sh[182**] – qush (qalin *o* bilan) tilla yoki kumushdan yasalib, kamar uchiga taqiladigan halqa.

تُوشْ t o‘ s h – kun chiqqandan keyingi vaqt. تُوشْ أودي to‘sh ödi – tush vaqti***.

تُوشْ t o‘ s h – uyqudagi aldanish, ihtilom bo‘lish. تُوشْ كُرْمِشْ اُغْلانْ to‘sh körmish og‘lan – ihtilom bo‘lgan bola****.

تُوشْ t o‘ s h – tush. تُوشْ يُورْدي to‘sh yordï – tushni yo‘ydi.

تِيشْ t ï s h – tish. Odam va boshqalar tishi.

---

qilib tuzatilgan ekan. Basim Atalay fikricha, bu er *b* harfi bilan boshlangan so‘zlar o‘rni bo‘lib, bu so‘z so‘ng berilishi kerak edi.

[180] Navoiyda tush shu ma’noda: O‘ziga dardu g‘ussa *tush* ko‘rsa, (dardu g‘ussani teng ko‘rish, dardu alamga giriftor bo‘lish demakdir).

[181] Navoiyda shu tomon ma’nosida:

Xong‘a magar dasht sori erdi bazm,
Otlanibon shahr *tushi* qildim azm.

* Olmaota nashrida: *to‘sh.*

[182] Navoiyda bu ma’noda:

Uyumish erdi bir tosh uzra Shopur
Yomon *tush* ko‘rmakidin erdi ranjur.

** V.Radlov va Olmaota nashrida: *tuš; tush.*

*** Olmaota nashrida: *kun yarmidagi dam olish.*

**** Olmaota nashrida: *voyaga yetgan bola.*

تِيشْ t ï s h – omoch tishi.

تِيشْ t ï s h: تِيشْ أَتْ tïsh at – peshanasidagi oqlig‘i (qashqasi) ko‘zlari yonigacha borib, quloqlariga yetib kelmagan, burnigacha (ham) cho‘zilib tushmagan ot.

Bu *muborka* (osilgan) deb nomlanadigan yoki *usfur* (bezalgan) emas, balki ularning o‘rtachasidir*.

سِيشْ s ï s h – tutmoch sixi**.

سِيشْ s ï s h – shish.

سيشْ s e j i s h – (imola[183] bilan) to‘lov. مَنْ أَنكَرْ سِيشْ بِيرْدِمْ men aŋar ceyish berdim – men **(498)** unga kerakli to‘lovimni*** berdim.

قُوشْ q o‘ s h: قُوشْ أَتْ qosh at – shoh yonidagi yetov ot.

قُوشْ q o‘ s h – har bir juft narsa. Shundan olinib, qaychiga قُوشْ بِحاكْ qo‘sh bichăk deyiladi, juft pichoq demakdir (arg‘ucha). Maqolda shunday kelgan:

قُرقْمِشْ كِشيكا قُويْ بَشى قُوشْ كُرْنُورْ
Qorqmïsh kishiga qoj bashï qosh köro‘no‘r

Qo‘rqqan odamga har qo‘yning boshi juft ko‘rinadi.

Bu maqol har narsadan qo‘rqqan, hatto u narsani xayol qilganda ham, har vaqt qo‘rqadigan kishiga nisbatan aytiladi.

كَيشْ k i s h – samur mo‘ynasidan suvsar po‘stin qilinadigan yirtqich hayvon. كَيشْ قُذْرُقِي kish quzruqï – kish quyrug‘i birikmasi ham shundan.

كِيشْ k i y i s h* – (imola bilan) o‘qdon. O‘g‘uzlar va o‘g‘uzlarning birodari bo‘lgan qipchoqlar bu so‘zni bilmaydilar[184].

لِيشْ l i s h – so‘lak, tupuk (chigilcha).

لِيشْ l i s h – balg‘am. لِيشْ اَقْتِي lish aqtï – tupuk yoki balg‘am oqdi demakdir (chigilcha).

مُوشْ m u s h – mushuk (chigilcha). O‘g‘uzlar جَتُكْ cheto‘k deydilar.

---

[183] *Imola* – tovushning cho‘zilishidir.

* Olmaota nashrida: *kafolat (puli).*

** V.Radlovda: *keš;* Olmaota nashrida: *kish.*

[184] U davrdagi harbiy qurollardan bo‘lgan bu so‘zni o‘g‘uzlar bilmasliklari o‘g‘uz qabilasida bu ma’noda boshqa bir so‘z qo‘llanishi bilan bog‘liqdir. Chunki biror qabilada bu so‘zning bo‘lmasligi, u davrning jangovar talabiga ko‘ra, urug‘ning juda ahamiyatsiz o‘rin tutganidan darak beruvchi bir ishoratdir. Holbuki, o‘g‘uzlarning u davrda katta o‘rin tutgan qabilalardan ekani ma’lum.

غ *(g‘)*

بُوغ b o‘ g‘ – narsalar solingan bo‘xcha, xurjin.

تُوغ t u g‘* – ot oyoqlarining tepinishidan chiqqan chang, to‘zon.

تُوغ t u g‘ – xon huzurida chalinadigan nog‘ora va dovul.

Chunonchi, جانْ تُوغ اُرْدي xan tug‘ urdï – *xon dovul (nog‘ora) qoqdi*, demakdir.

تُوغ t u g‘ – tug‘, bayroq. تُقُوزْ تُغْلُغْ خانْ toquz tug‘lug‘ xan – to‘qqiz tug‘luq xon yoki xoqon. Qaramog‘idagi shahar va o‘lkalar oshib ketsa ham, tug‘ to‘qqizdan oshirilmaydi. Xonning yuqori martabasi (bo‘lgani uchun) to‘qqiz (raqami) bilan fol qilinadi. Bu xon tug‘lari to‘q sarg‘ish rangli shohi yoki ipakli matodan qilinadi. Bu ham yaxshi fol uchundir.

تُوغ t u g‘ – to‘g‘on. سُقْقا تُوغ اُرْ cywqa tug‘ yr – suvga to‘g‘on qur.

تُوغ t u g‘ – har narsaning tiqini, qopqog‘i. Shundan olinib, تُنكْلُكْ تُوغ *to‘ŋlo‘k tug‘ï* deyiladiki, bunga uy devorlari va boshqa yerlardagi tuynuk qopqog‘lari kiradi.

تِيغْ t i g‘: تِيغْ اَتْ tïg‘at – yoli va dumi qizil, tanasi qizil bilan qora orasida bo‘lgan qo‘ng‘ir ot.

جاغْ جُوغْ c h a g‘- c h u g‘: جاغْ جُوغْ قُبْتي chag‘- chug‘ qoptï – shovqin-suron, bag‘-bug‘ qo‘zg‘oldi. Ba’zan جُوغي قُبْدي *chug‘ï qopdï* tarzida qo‘llanadi, *shovqin qo‘zg‘oldi* demakdir.

جُوغْ c h u g‘ – (tor u bilan) narsalar joylab **(499)** qo‘yiladigan bo‘xcha.

جُوغْ c h o‘ g‘ – kun tig‘i, quyosh shokilasi. كُونْ جُوغي ko‘n chog‘ï – kun tig‘i.

جُوغْ c h o‘ g‘ – o‘tin yonib bo‘lgandan keyin hosil bo‘lgan olov cho‘g‘i.

چِيغْ c h ï g‘ – savat to‘qiladigan novda. U qamishdan ingichka va yumshoq bo‘ladi; ko‘chmanchilar o‘tov qurish uchun undan foydalanadilar.

چِيغْ c h ï g‘ – turklar o‘lchovi nomi. U gazning uchdan ikkisiga tengdir. Ko‘chmanchilar u bilan bo‘z o‘lchaydilar.

---

* V.Radlovda: *tov.*

سِيغْ s ï g‘ – o‘xshatish qo‘shimchasi. Narsani biron bir boshqasiga o‘xshatish uchun ismlarning so‘ngiga qo‘shiladi. Chunonchi, قُلْسِغْ اَرْ qulsïg‘ er – xulqi qullar xulqiga o‘xshash odam kabi. بُو قَرِي اُلْ اُغْلانْسِغْ bu qarï ol og‘lansïg‘ – bu qarining qilig‘i yosh bolalar qilig‘iga o‘xshaydi. Tarkibida yumshoq tovushlari bo‘lgan so‘zlarda غ o‘rniga ك qo‘llanadi. Chunonchi, بُو اَرْ اُلْ بَكْسِكْ bu er o‘l begsig – bu odamning fe’li beklar fe’liga o‘xshaydi.

Yana بُو اُغْلْ اُلْ اَرْسِكْ bu og‘ul o‘l ersig – bu bola katta odamlarga o‘xshaydi. U kattalar qilig‘ini qiladi.

قُوغْ q o‘ g‘ – ko‘zga yoki taomga tushgan xas, cho‘p.

قاغْ قُوغْ q a g‘-q u g‘: قازْ قاغْ قُوغْ اَتّي qaz qag‘-qug‘ etti – g‘oz qag‘-qug‘ deb g‘ag‘illadi.

قِيغْ q ï g‘ – yerni bo‘shatish, yumshatish uchun foydalaniladigan go‘ng.

ڤ *(w)*

ثُوفْ s u f[185*] – yungdan qo‘lda to‘qilgan kamar.

سُوڤْ c y w – suv. Maqolda shunday kelgan:

سُوڤْ بِيرْماسْكا سُوتْ بِيرْ

Syw bermasga so‘t ber

Suv bermaganga sut ber. Bu maqoldan maqsad – senga yomonlik qilganga sen yaxshilik qil. Chunki sening yaxshiliging uni senga qul qiladi, demakdir.

قاڤْ قُوڤْ q a w q y w: ثُونْ قاڤْ قُوڤْ بُلْدِي ton qaw qyw boldï – to‘n tikishda tortilib buzildi, so‘kildi.

بُوڤْ b y w[186**] – uzoq turib qolish yoki hidlanishdan non yuzida paydo bo‘lgan ko‘kimtirlik, mog‘or.

ق *(q)*

بُوقْ b o q – bo‘q (o‘g‘uzcha).

---

[185] Bu o‘rinda ث harfining ishlatilishi Mahmud Koshg‘ariyning turk tilida bu tovush ishlatilmasligi haqidagi ko‘rsatmasiga ziddir (Qarang: “Devon”, I jild. 49-b).

* Olmaota nashrida: *-to‘v;* V.Radlovda har ikki ko‘rinish ham shu ma’noda uchratilmadi.

[186] Basim Atalay izohiga ko‘ra, bu so‘z qo‘lyozmada بُوقْ emas, بُوڤْ ekan (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 129-b).

** Olmaota nashrida: *bo‘k.*

بُوقْ b u q: قاغُونْ بُوقْ بِيرْكا تُشْدِي qag‘un buq yergä to‘shdi – qovun yerga tushdi. Ichi kavak har narsa yerga **(500)** tushib yorilsa ham بُوقْ اَتّي *buq ettï* deyiladi. Bu chiqqan ovozga taqliddir.

جُوقْ c h u q: جُوقْ اَرْ chuq er – yomon, past odam (o‘g‘uzcha).

چِيقْ c h ï q: چِيقْ اَتْ كُرايِنْ chïq et kopäjin – churq etchi, men sening mardligingni ko‘ray. Bu so‘z ozor bergan kishiga qarshilik ko‘rsatmaydigan kishiga aytiladi.

سُوقْ s u q: سُوقْ اَرْ suq er – suq, ochko‘z, past odam. Shahodat barmog‘ini سُوقْ اَرْنكاكْ suq ernäk – *suq barmoq* deyish ham shundan. Chunki u ovqatga oldin uzaluvchi ochko‘z barmoqdir.

سِيقْ s ï q – oz[187]. اَلارْدا قُوىْ سِيقْ اَلْ ularda qoj sïq o‘l – ularda qo‘y ozdir.

قاقُوقْ q a q q u q: قازْ قاقُوقْ اَتّي qaz qaqquq[188] etti – g‘oz qoq-quq deb g‘ag‘illadi.

قاقُوقْ q a q u q – qoqi. Har xil mevalar yorib quritiladi.

ب *(p)*

بُوكْ p o‘ k* – o‘yinda oshiqning orqasi bilan tushishi, pukkasi. Buni چِكْ بُوكْ *chik-po‘k* deyiladi.

بُوكْ p o‘ k** – bir xil o‘rgimchak. Ikki tilning birida.

كُوكْ k ö g – (yumshoq كى bilan) she’rning vazni, o‘lchovi. بُو بِيرْ نا كُوكْ اُزا اَلْ bu jïp ne kög o‘zä ol – bu she’r qaysi vaznda.

كُوكْ k ö g – kuy[189], maqom, ashulada maxsus qoidaga muvofiq ovozni baland-past qilish. اَرْ كُوكْلَنْدِي er kögländi – odam ovozini baland-past qilib, ma’lum maqomda ashula aytdi.

---

[187] Bu so‘z bu bo‘limga to‘g‘ri kelmasa ham, bosma nusxada shunday berilgan, deb Basim Atalay izoh bergan (Qarang: “Devon…” tarjimasi, III jild. 130-b). *Oz, kam* ma’nosida u davr tilida *sïq* va oz so‘zlari sinonim sifatida qo‘llangan. Ammo *kam* so‘zi u davrda *oz* ma’nosida qo‘llanmagan. Kamchilikli ma’nosida *kemtuk* so‘zi qo‘llangan. Bizda bu so‘zning hozir eng aktiv qo‘llanishi, *siq* so‘zi esa bu ma’noda mutlaqo qo‘llanmasligi xarakterlidir.

[188] Basim Atalay izohiga ko‘ra, قاقُوقْ *qaqquq* so‘zi yozma va bosma nusxalarda قاقُوقْ *qaquq* shaklida ekan. Basim Atalay buning yanglish ekanini, to‘g‘risi قاقُوقْ *qaqquq* ekanini ko‘rsatgan. Lekin bosma nusxada قاقُوقْ shaklida to‘g‘ri berilgan (Qarang: III jild. 95-b). Darhaqiqat, Mahmud Koshg‘ariyning عَلىَ طَرِيق الاَتْبَاع degan izohi ham bu so‘z *qaqquq* shaklidagi juft so‘z ekanini isbotlaydi.

* Olmaota nashrida: *bo‘k.*

** V.Radlovda: *bög//bi//böj.*

[189] Navoiyda ham aynan qo‘llangan:

Soqiyo may ber to‘la arbada istar ko‘ngil,

كُوك k ö g – bu bir xil kulgili hazilki, har shahar xalqi orasida mashhur bo‘lib aytib yuriladi. بُو يِلْ بُو كُوك كَلْدِي bu jil bu kög keldi – *bu yil bu kulgi hazil chiqdi,* deyilishi kabi.

كُوك k ö g: كُوك يِلْقِي kög yïlqï – boshvog‘i olinib, qo‘yib yuborilgan hayvon*. She’rda shunday kelgan[190]:

[XXV]

كُوكلَرْ قَمُغْ تُنْلْدِي
اَقْرِقْ اِنْشْ تِزْلْدِي
سَنْسِزْ اُزُمْ اُزَلْدِي
كَلْكِلْ اَمُلْ اُيْنَلِمْ

*Kög*lär qamug‘ to‘zo‘ldi,
Sensiz özo‘m o‘zaldi
Ywrïq[191] izish tizildi
Kelgil amul oynalïm.

Kuylar bir-biriga moslashtirildi, may idishlari qatorlashtirildi, ko‘nglim sensiz seni istab beqarordir. Kel, ko‘ngilni tinchitib shodlanaylik.

كُوك k ö g **(501)** – kuyikish bu echki va boshqa hayvonlarning qishda bir-biriga oshadigan (juftlashadigan) vaqti قُوىْ كُوكِي بُلْدِي ko‘y kögi boldï – qo‘ylarning qo‘shiladigan, kuyikish vaqti bo‘ldi. Boshqa hayvonlarga ham bu so‘z qo‘llanadi.

كُوك k ö g – oyna yuziga tushadigan dog‘, zang. كُوزْنكْزكا كُوك تُشْدِي közo‘ŋo‘ga* kög to‘shdi – *oynaga dog‘ tushdi, zang bosdi* deyilgandagi kabi.

كُوك k ö g – xotinlar yuziga tushadigan dog‘. Boshqalari ham shunday.

Ey qalandar chala boshla o‘kuzu *ko‘k*ta qo‘buz.
Ey mug‘anni sen navo ohangida *ko‘k*la qo‘buz.
Firoq sori tuzub o‘lturur *ko‘k*i cholding.

* Olmaota nashri: *o‘tlab yurgan poda.*

[190] Bu she’r bundan uch so‘z oldin berilgan kök so‘ziga misoldir. Basim Atalay izohiga ko‘ra, qo‘lyozmada ham shunday oldin-keyin tushgan ekan.

[191] اِقْرِقْ so‘zi qo‘lyozmada اقْرَقْ shaklida ekani haqida Basim Atalay izoh bergan (qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 131-b). Navoiyda ابرق shaklida berilgan: Non iki qurs edi, su bir *ibriq.* (Bu misrada gap juda hunarmandligini ko‘ra olmagan xasadchilar tuhmati bilan zindonga tashlangan zargar haqida borayotir. Ya’ni unga beriladigan kunlik ovqat ikkita kuyik kulcha bilan bir ibriq suv edi).

* Olmaota nashrida: *ko‘zquka.*

كُوكْ k ö k – (qattiq *k* bilan) osmon. Maqolda shunday kelgan:

كُوكًا سُڈسا يُوزكا تُشُورْ **(31)**
Kökkä so‘zsä yo‘zgä to‘sho‘r

Osmonga tupirgan kishining tupugi yuziga tushadi. Bu maqol birovga yomonlik qilgan kishining o‘ziga yomonlik qaytishiga ishorat qilib aytiladi.

كُوكْ k ö k – ko‘k rang. كُوكْ تُونْ kök ton – ko‘k to‘n. Shuningdek, osmon rangli har bir narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

كُوكْ k ö k: كَنڈْ كُوكِي kend köki – *shahar qorasi**, ya’ni shahardagi *ko‘k daraxtlar.*

كُوكْيُوقْ k ö k y u q – qishloqcha va turkman kattalariga beriladigan unvon nomi.

ل *(l)*

بِيلْ b e l – bel. اَنِي بِيلِنْدا تُتْ anï belindä tut – uni belidan ushla, اُلْ اَنكَرْ اَنجا اَشْ بِيرْدِي بِيلْ قِلْدِي o‘l aŋar ancha ash berdi bel qïldï – u unga bellari (qorni) to‘lguncha taom berdi. Har bir odamga tilagidan ortiq taom berishga ham bu so‘zni qo‘llab, بِيلْ قِلْدِي *bel qïldï* deyiladi (chigilcha).

تُولْ t u l – tul: تُولْ اُراغْتْ tul[192] urag‘ut – beva xotin. Maqolda shunday kelgan:

---

* Olmaota nashrida: *shahar tevaragi.*

[192] Mahmud Koshg‘ariyning *tul* so‘zi haqidagi izohi bu so‘z u davrda hamma qabilalar uchun umumiy bir so‘z ekanidan darak bersa, ikkinchidan, buni تُولْ اُراغْتْ *tul urag‘ut* tarzida berishi, u davr tilida bu so‘z faqat xotinlargagina xos so‘zligidan ham darak beradi. Hozirgi o‘zbek tilida ham, asosan, xotinlarga nisbatan qo‘llanadi. Navoiyda ham xotinlargagina qo‘llangan:

Bor edi men *tul*g‘a jigar go‘shaiy,
Bal jigarim mazraidin xo‘shaiy.

Shuningdek, Navoiyda *tul* so‘ziga sinonim sifatida *qolma* so‘zi ham qo‘llangan:

Xasm kush keldi falak zoli, bil, ey shayx manga
Paz qizi borida ul *qolma*ni qilma nikoh.

(Falakning odamlar uchun ajal ekani aniqlandi, ey shayx, sen ham bu haqiqatni tushunda, tok qizi (may) turganda menga o‘zgarib yangilanmagan, o‘sha eski holida qolib ketgan xunxo‘r falakni nikoh qilishdan tortin.)

Shu bilan birga, juda ilgarilardayoq o‘zbek tilida bu so‘zning sinonimi sifatida *beva* so‘zi qo‘llana boshlagan. Lekin, *beva* so‘zi erkak va ayollarga nisbatan ham teng qo‘llanadi.

يَڤلاقْ تِيلّغْ بِيكْداً كَرُو يَلِنكُوسْ تُولْ يِيكْ **(32)**

Yawlaq tïllïg‘ begdän kero‘ yalïŋus* tul yeg

Tili yomon, so‘kag‘on erli bo‘lgandan ko‘ra bevalik yaxshi.

تُولْ* t u l – qo‘zilash vaqti (o‘g‘uzcha). Bolaga nisbatan ham shu so‘z qo‘llanadi.

تِيلْ t ï l – til, nutq. Maqolda shunday kelgan:

اَرْدَمْ بَشِي تِيلْ **(33)**

Yordam bashï tïl

Yaxshi xulqning boshi tildir. Bu maqol arabcha:

اَلْمَرْءُ مَخْبُوٌّ تَحْتَ لِسانِهِ

deyilgan ibora** kabidir.

تِيلْ t ï l – lug‘at. Chunonchi: اُيْغُرْ تيلى yyg‘yp tïlï – uyg‘ur lug‘ati, خِتاى تِلى xïtay tïlï – *xitoy lug‘ati* kabi.

تِيلْ t ï l – so‘z. اَلْ بَككا تِيلْ تَكُرْدِي ol beggä tïl tego‘rdi – u bekka so‘z tegizdi, haqoratomiz so‘z so‘zladi. **(502)**

تِيلْ t ï l – josus***. يَغِيدِنْ تِيلْ تُتِي yag‘ïdan tïl tuttï – dushman josusini tutib oldi.

چِيلْ ch i l – yomonlik (o‘g‘uzcha)****

چِيلْ ch i l – badanda qolgan kaltak zarbining izi.

سُولْ s ö l***** – go‘sht va yog‘ochda bo‘lgan namlik. سُولْ لُكْ اَتْ söllo‘k et – yaxshi pishmagan, yuzida qon asarlari ko‘rinib turgan go‘sht. Maqolda shunday kelgan:

سُكُتْ سُولِنكا قَزِنكْ قاسِنكا **(34)**

So‘go‘t söllina qazïŋ qasïna

Tol daraxti uchun namlik qancha yaxshi bo‘lsa, qayin daraxtiga qattiqlik shuncha munosibdir.* ** ***

---

* V.Radlovda: *jalaŋuz*; Olmaota nashrida: *yalŋus.*

** V.Radlovda: *töl*; Olmaota nashrida: *to‘l.*

*** Iboraning o‘qilishi va tarjimasi: *Al-mar’mahbuv taxta lisanihi* – Inson o‘z tiliga yashiringandir.

**** V.Radlovda: *asir.*

***** V.Radlovda: *sepkil, dog‘.*

****** V. Radlovda: *sül.*

سُولْ s o l – chap. سُولْ اَلِكْ sol elig – chap qo‘l.

سِيل c i l: سِيلْ كِشِي cil kishi – har qanday taomni yeyishdan tortinadigan chimxo‘r kishi سِيلْ اَتْ cil at – oz yem yeydigan ot.

قُولْ q o l – qo‘l.

قُولْ q o l – tog‘dan pastga to‘g‘ri tushgan qiyalik. اُوبْرِي قُولِي oprï qolï – vodiy qo‘li.

قُولْ q o l – qilich yoki pichoqlar tig‘i qirg‘og‘ida o‘yma chiziq. Bu, ko‘pincha, oltin suvi berib qilinadi. Uni قِلِجْ قُولِي qïlïch qolï – *qilich qo‘li* deyiladi.

كُولْ k ö l – hovuz, ko‘l.

كُولْ k ö l – to‘planib qolgan suv; ko‘lmak.

اِسِكْ كُولْ i s i g k ö l – Barsag‘on shahri yaqinidagi ko‘l, uzunligi o‘ttiz, eni o‘n farsaxdir.

كُرْنكْ k ö r o‘ ŋ – Qashqar tog‘larida[193] بيز *bïjïz*da bo‘lgan bir ko‘l nomi. Aylanasi o‘ttiz farsaxdir.

سِڭنكْ كُولْ s i z i ŋ k ö l – yuqoridagiga o‘xshagan قُجنكارْ qochïŋar bashïga yaqin bir ko‘l.

يُلْدُزْ كُولْ y u l d u z k ö l – kujo, kingut[194] va uyg‘urlar chegarasida bo‘lgan bir ko‘l nomi.

ايْ كُولْ a j k ö l – Uch shahri yaqinidagi bir ko‘l nomi.

تَرِنكْ كُولْ t a p ï ŋ k ö l – اِكِى اُكُوزْ iki öko‘z chegarasidagi boshqa bir ko‘l nomi. Bu ko‘llarning aylanasi qirq (40), yoki o‘ttiz (30) farsaxdir. Bular turk yerlaridagi ko‘llardir. Men faqat musulmon yerlaridagi (ko‘llarning) eng kattalarini bayon qildim.

كُولْ k ö l – dengiz. **(503)** Dengiz ko‘pigiga تَنكِزْ كُبُكِي teŋiz köpo‘gi deyilmay, كُولْ كُبُكِي köl köpo‘gi deyish shundandir.

تِيمْ t i m – ichimlik to‘la sanach. Ichimlik tayyorlovchi ma’nosidagi تِيمْجِي *timchi* so‘zi shundandir. Ba’zilar تِيمْ *tim* so‘ziga *ichimlik sotuvchi* deb ma’no beradilar. Avvalgisi (qo‘shimchaligi yasovchi) to‘g‘riroqdir. Chunki جِي *-chi, -chï* hunarmandni anglatadi[195].

---

[193] Basim Atalay izohiga ko‘ra, bu so‘z qo‘lyozmada ham بِيزْ shaklida bo‘lib, bu so‘zning o‘qilishi ham, yozilishi ham noma’lumdir. Basim Atalay بِزْ *jiz* bo‘lishi muvofiq deb ko‘rsatgan (“Devon...” tarjimasi, III jild. 135-b).

[194] Bu so‘z bosma nusxada كِيكت shaklida xato berilgandir. Bu so‘z juda ko‘p yerlarda كِنكت *kino‘t* shaklida uchragan qabila nomidir.

[195] Bu yerda Mahmud Koshg‘ariy so‘z yasovchi *-chi, -chï* affiksini izoh qilayotir. Mahmud Koshg‘ariyning bu izohiga ko‘ra, *-chï, -chi* affiksi faqat

سيم سيمراق s ï m – s ï m r a q* – bir xil ovqat. Kalla qaynatilib pishirilgach, mayda qilib to‘g‘raladi, so‘ng dorivorlar bilan birga idishga solinadi va ustiga achigan qatiq solinib, u singigach, yeyiladi (chigillar so‘zi).

قُومْ q u m – tuya poloni, yuk ortiladigan egari. tuyaning yopig‘i, yelpo‘shi olinib, ichiga somon tiqilib, atrofi tuya o‘rkachiga yetgancha ko‘tarilib, so‘ng tuya ustiga qo‘yiladi. Uni تَقْى قُومي *tawej*** *qumï* deyiladi, *tuya poloni* demakdir.

قُومْ q u m – suv to‘lqini. She’rda shunday kelgan:

[XXVI]

كُلُمْ قُومي قُبْسا قَلي تامِغْ اِتارْ
كُرْسا آني بِلْكا كِيشى سُوزْكا بُتارْ

Kölo‘m qumï qo‘psa qalï tamïg‘ itär,
Körsä anï bilka kishi sözgä bo‘tär.

Agar ko‘lim to‘lqinlansa, uylarim devorlariga urilib, joyidan qo‘zg‘atib yiqitib yuboradi, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan esli odam so‘zimga ishonadi.

نُومْ n o‘ m – din va shariat. Bundan olinib تَنكْري نُومي Tenri nomï deyiladi, Xudoning dini va shariati demakdir. Hamma dinlarga ham نُومْ *nom* deyiladi. Bu chinliklar so‘zidir.

ن (n)

تُونْ t o‘ n – to‘n.

---

hunarmand ma’nosinigina anglatadi degan fikr kelib chiqadi. Darhaqiqat, *-chï, -chi* affiksi u davrda bu ma’noda ko‘p qo‘llangan. Ehtimol, bu affiks dastlab shu funksiyanigina bajargandir. Lekin so‘ng uning funksiyasi kengaygan bo‘lsa kerak. Hatto, “Devon...”ning II jildida Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi bu affiksning sotuvchi ma’nosida qo‘llanganini izoh qilgan: Chunonchi: *börkchi – bosh kiyim sotuvchi* kabi (Qarang: “Devon”, II jild. 47-b).

“Qutadg‘u bilik”da bu affiks shu ma’noda keng qo‘llangan:

Temur*chi*, tog‘a*chi*, o‘tuk*chi*, suv*chi*,
Chag‘ir*chi*, pada*chi* yo o‘q*chi*, yo*chi*.

Ag‘i*chi* ulug‘ bo‘lsa ish o‘rtamaz.
Idish*chi* boshi ko‘r o‘shandag‘ kerak.

Bitik*chi* kerak oz qamug‘ xat bilir.

* Olmaota nashrida: *sim samdaq*; V.Radlovda: *sïmsïmcha.*

** V.Radlov: tevä// teväj// tevi; Olmaota nashrida: *tavi.*

تُونْ t u n* – tinchlanish. كُنْكُلْ تُونْ بُلْدِي köŋo‘l tun boldï – ko‘ngil tinchlandi.

تُونْ t o‘ n**: تُونْ أُغْلْ ton og‘ul – to‘ng‘ich bola. Birinchi tug‘ilgan bola, xoh o‘g‘il, xoh qiz bo‘lsin *to‘n* deyiladi. To‘ng‘ich qizni تُونْ قِيزْ *ton qïz* deyiladi. Xotinning birinchi eriga تُونْ بَكْ *to‘n beg* deyiladi.

تِينْ t i n: تِينْ كِيشِي tïn kishi – biror ish bilan shug‘ullanmovchi, bekorchi kishi. Shuningdek, bu so‘z bir necha kun dam olib, yalqovlashgan hayvonga ham qo‘llanadi.

تِينْ t i n – no‘xta, yugan, tizgin.

چِينْ c h ï n: چِينْ سُوزْ chïn söz – chin so‘z.

چِينْ c h ï n: چِينْ كِيشِي chïn kishi – ishonchli, to‘g‘ri odam.

خُونْ h u n: جون ايش xun ïsh – yoqimsiz, qo‘pol ish**.

خُونْ خَرا ايشلَما xun xara ïshlama – yoqimsiz ish qilma.

سُونْ s u n: سُونْ كِيشِي sun kishi – yumshoq fe’lli, toza yurak odam.

سُونْ s u n سُونْ أَلْتُونْ sun altun – yaxlit oltin. Bu bir barmoq uzunligidan bir gaz uzunligicha bo‘lishi mumkin.

سِينْ s ï n – qomat, gavda. Bu so‘zdan olib, بُوذْلُغْ سِينْلِغْ كِشِي bozlug‘ sïnlïg‘ kishi – *bo‘yi uzun odam* deyiladi. Go‘rni سِينْ *sïn* deyish ham go‘rning bo‘yi, uzunligi – odam bo‘yiga tengligidandir.

سِينْ s ï n – go‘r.

قاتُونْ سِينِي q a t u n s ï n ï – Chin bilan tangut orasidagi bir shahar nomi.

سِينْ s e n – sen (kanjak qabilasi tilida). Turklar سَنْ *sen* deydilar. Kanjaklar ko‘p so‘zlarni kasrali qilib so‘zlaydilar. Shuning uchun ular so‘zlarida noaniqlik bor.

Yuqori Chingacha bo‘lgan qabilalar: chigil, yag‘mo, tuxsi tillarida so‘zlarni ko‘proq *peshli* talaffuz qiladilar. O‘g‘uzlar, qipchoq, suvorin va Rumga qadar bo‘lgan joylarda yashovchilar *fatha* qilib so‘zlaydilar. Chunonchi, turklar tuyani *kasra* bilan تَقْى

---

* Olmaota nashrida: *to‘n*

** V.Radlovda: *tun*.

*** V.Radlovda: *befoyda, keraksiz ish.*

tewi[196] deydilar. O‘g‘uzlar va yuqorida ularga qo‘shib aytilgan qabilalar تَوا *tewe* deydilar. Turklar *d* harfini *kasra* qilib, بَرْدِمْ *bardïm* deydilar. Bu qoidaga muvofiqdir. O‘g‘uz va boshqalar *d* ni *fatha* qilib, بَرْدَمْ *bardam* deydilar. Bu qoidaga teskaridir. Lekin arg‘ular *d* harfini *o‘tru (pesh)* qilib, كَلْدُمْ بَرْدُمْ *keldo‘m, bardum* deydilar. Bularning hammasi o‘tgan zamon fe’lidandir. Bu qoidadan uzoqroqdir. Bu toifalar orasidagi farq shundaydir.

شِينْ s h ï n – taxt (chigillar so‘zi).

قُونْ q o‘ n – qo‘y (arg‘ular so‘zi). Bu so‘zda ن – n ى – y o‘rniga almashgan. Bu xil qoida yuqorida bayon qilingan edi.

قِينْ q ï n – qilich va pichoq qini.

كُونْ k ö n – asosan, *ot terisi* ma’nosida. Chunonchi, اَتْ كُونِي *at köni* deydilar. Ba’zan bu so‘z odam terisiga ham qo‘llanadi. Chunonchi, اَنِكْ كُونِي قُرِيدِي *anïŋ köni qurïdï* deyiladiki, *u o‘ldi* demakdir. Bu so‘z istiora asosida tuya terisiga ham qo‘llanadi: تَفْى كُونِي tewej köni – *tuya terisi* kabi. Bu – teriga ishlov bermasdan oldingi nomlanishidir. Ishlov berilgach, قُغُوشْ *qog‘ush* **(505)** deb ataladi.

م ***(m)***

مُونْ m u n* – kasallik, kamchilik. مُونْ كِشِى mun kishi – toza yurak odam[197]. Maqolda shunday kelgan:

يَلِنكُقْ اُغْلِي مُونْ سُزْ بُلْماسْ
Yalïnuq og‘lï munsuz bo‘lmas

Odam bolasi kasallik va kamchiliksiz bo‘lmaydi.

---

[196] B.Atalay تَفْى *täwäj* so‘zini Mahmud Koshg‘ariy turklar *kasra* bilan تِفْى *tewäj* deydilar degan iborasi كما تُقول التُرك تَفْى بِكَسِر التَا ga qarshi yanglish deb izoh bergan. Juda ko‘p yerlarda bu so‘z kasra bilan emas, fatha bilan berilganiga misollar keltirib izohlagan (Qarang: “Devon...” tarjimasi, III tom. 139-b.

* V.Radlovda: mun//mün

[197] Bu so‘zning o‘zi اَلْداءُ *kasallik, kamchilikli* deb izohlangani holda, misolda shu so‘z السَلِيمُ القَلْب *toza yurak* deb tarjima qilingan. Bundagi qarama-qarshilikka qaramay, biz o‘zicha berdik (Qarang: “Devon...” bosma nusxasi, III jild. 02-103-b). Olmaota nashrida *mo‘n (suz)* tarzida berilgan.

Bu bo‘limning matviy xili

ب *(b)*

بُوىْ b o‘ y – yeyiladigan bir o‘simlik (o‘g‘uzlar so‘zi)**

بُوىْ b ö y – bir xil o‘rgimchak. Bu so‘zni *bög* ko‘rinishi ham bor. to‘g‘risi shudir.

بُوىْ b o‘ y – (qattiq *o* bilan) xalq, qabila, zurriyot, nasl (o‘g‘uzcha). Bir-birini tanimagan ikki odam uchrashib qolishsa, dastlab bir-birlariga salom berishadi, so‘ng بُوىْ كِيمْ *boy kim* deb so‘rashadi – e*lating, qabilang kim, qaysi elatdansan,* demakdir. So‘ralgan odam bunga javoban: سَلْغُرْ ya’ni, e*latim salg‘ur qabilasi* deydi yoki kitob boshida (I jildda) zikr qilingan qabilalarning birortasi nomini aytib javob beradi. So‘ng ular so‘zlasha boshlaydilar yoki o‘z yo‘llariga ketadilar. Shunday qilib, ular bir-birlarining urug‘-aymoqlarini bilishadilar.

تُوىْ t o‘ y – askarlarning turar joyi, shundan olinib, خانْ تُوىْ x a n t o y – xonning askargohi deyiladi. Bu (so‘z)ni o‘g‘uzlar bilmaydilar.

تُوىْ t o‘ y: تُوىْ اُتِي toy otï – dori qilinadigan bir xil o‘t nomi*.

تُوىْ t o‘ y – sopol idish qilinadigan loy. Shundan olinib, qozon tuvog‘iga ham تُوىْ اَشِجْ *toy ashïch* deydilar.

تُوىْ t o y – tuy deyilgan qush. Bu ذ ni ى ga almashtiruvchilar tilidadir. Bu so‘z تُوذْ *toz* shaklida ham talaffuz qilinadi (chigilcha).

قُوىْ q o‘ y – qo‘y.

قُوىْ يِتِي q o y y ï l ï – turklarning o‘n ikki yil nomlaridan biri.

قُوىْ q o‘ y – qo‘yin, qo‘yni. اَلِكْ قُويْقا سُقْ elik qoyqa suq – qo‘lingni qo‘yningga suq.

قُوىْ q o‘ y – vodiyning tekislik joyi***.

Bu bo‘limning misol turi

ب *(p)*

يانْ يُوبْ y a p y y n – hiyla, aldov. يُوبْ *yup* so‘zi ayrim holda qo‘llanilmaydi, faqat birga qo‘llanadi. Biroq o‘g‘uzlar اَلْ اَنِي يُوبْلادِي *o‘l anï yupladï* deydilar, *u uni aldadi* demakdir.

---

* V.Radlovda: *Trigonella foenum graecum.*

** V.Radlovda: *arslonquyruq.*

*** V.Radlovda: *vodiyning tagi.*

ت *(t)*

يُوتْ y u t – qish sovug‘ida hayvonlarga keladigan tabiiy ofat, yut.

ر *(r)*

يارْ y a r – sel o‘yib ketgan chuqur er, jar.

يِيرْ y e r – yer.

يِيرْ y e r – en (mato)ning bir yuzi, bir tomoni **(506)** yoki arqog‘*ning bir yuzi. Undagi ranglardan biri quyuq bo‘lib, boshqasi unga qo‘shimcha holida bo‘ladi. Chunonchi: يَشِلْ يِيرْلِكْ بَرْچِنْ yäshil yeplir barchïn – yashillik rangi quyuq bo‘lgan ipak kiyimlik. Bunda yashillik ustun, boshqa rang shunga tobe bo‘ladi.

يِيرْ y ï r** – g‘azal, maqom, kuy.

ز *(z)*

يُوزْ y o‘ z – yuz. Maqolda shunday kelgan:

يُوزْكا كُورْما اَرْدَمْ تِلا

Yo‘zga körma erdäm tilä

Yuzning chiroyli, xunukligiga qarama, odamning odobiga, xulqigae ’tibor ber. Bu maqol عصامْ Isomning

اِنَّما الْمَرْءُ باصْغَرَيه بِقَلْبِهِ وَلِسانِهِ

degan iborasi** kabidir.

يِيزْ y ï z – bir xil o‘t***. Bu qamishdan ingichka, unga qaraganda yumshoq bo‘ladi. Ko‘chmanchilar bundan o‘tov tepasini yopishda foydalanadilar.

ش *(sh)*

ياشْ يُوشْ y a s h-y u s h: ياشْ يُوشْ y a s h-y u s h – sabzavot. Bu so‘zlar juft – qo‘shoq holda qo‘llanadi. يُوشْ yyshning bir o‘zi ayrim qo‘llanmaydi.

---

* Olmaota nashrida: *jer, jïr* so‘zlari bir xil yir shaklida berilgan.

** Iboraning o‘qilishi va tarjimasi: *Innama’-l-marbi-a’sg‘arayhi bi-qalbihi wa lisanihi* – Har qanday odam o‘zining ikki kichik bo‘lagi: yuragi va tili bilandir.

*** V.Radlov va Olmaota nashrida: *qamish.*

يِشْ y i sh – tushish. اَرتْ يِشْ art yish esa chiqish va tushish demakdir.

غ *(g‘)*

يُوغْ y y g‘ – o‘lik ko‘milgandan so‘ng qaytganlarga uch yoki yetti kungacha beriladigan ovqat.

ق *(q)*

ياقْ يُوقْ y a q-y u q – idish yuqi. اَياقْ يُقِي ajaq yuqï – idish yuqi. Uzoq qarindoshlarga ياقْ يُوقْ قَداشْ *yaq-yuq qadash* deyish ham shundan olingan.

يُوقْ y o q – yo‘q. اُلْ مُنْدا يُوقْ o‘l munda joq – u bu yerda yo‘q.

ك **(k)**

يُوكْ y ÿ k – qush pati.

يِيكْ y i g: [151]يُكُونْ يِيكِي yugun yigi – yugan so‘lig‘i.

يِيكْ y e g – yaxshi*. Qiyosda narsaning boshqasidan ortiqligi ma’nosini anglatadi. Chunonchi: بُو اَتْ اَندا يِيك bu at anda(n) yeg – bu ot undan yaxshi, demakdir.

يِيكْ y ï g: اَتْ يِيكْ yig et – xom go‘sht. Har bir xom narsaga ham يِيكْ *yig* deyiladi.

يِيكْ y i k[198] – (qattiq ك bilan) dug. Alif bilan ايكْ *ik* shakli ham bor. Bu arab tili اَلْمَعىٌّ وَ يَلْمَعىٌّ قَالَنْدَدّ وَ يَلَنْدَدّ so‘zlaridagi tovush almashinishi kabidir. **(507)**

ل *(l)*

يُولْ y o‘ l – yo‘l. Bu so‘z safar qilish ma’nosida ham qo‘llanadi. اَنكَرْ يُولْ جِقْتِي aŋar yo‘l chïqtï – u yo‘l, safarga chiqib qoldi. Bu to‘satdan safar qilish lozim bo‘lganda so‘zlanadi.

يُولْ y u l – buloq ko‘zi**.

يِيلْ y e l – shamol*.

يِيلْ y e l – jin. اَرْ يِلْيِنْدِي er yelpindi – odamga shamol tegdi, jin tegdi.

---

[151] Bosma nusxadagi يكون so‘zini Basim Atalay yozma nusxada يُكُونْ shaklida ekani, to‘g‘risi يُكُونْ bo‘lishi haqida izoh bergan. Lekin biror dalil ko‘rsatmagan.

* Olmaota nashrida: *yaxshiroq* ma’nosidagi yuklama.

[198] Bu so‘z Farg‘ona shevasida hozir ham “Devon...”dagicha اك *ik//ig* shaklida qo‘llanadi. Lekin Toshkent va uning atroflarida *dug* tarzida talaffuz qilinadi.

** V.Radlovda: *buloq;* Olmaota nashrida: *suv manbai//bulog‘i.*

* Olmaota nashrida: *yengil shamol, shabada.*

م *(m)*

يِمْ y e m – yemak, taom[199] .يِمْ كَلْدُرْ yem keldur – taom keltir.

ن *(n)*

يُونْ y u n: يُونْ قُشْ yun qush – tovus.

يُونْ اَرِقْ y o n a p ï q – Bolasag‘un yaqinidagi bir yaylov nomi.

يِنْ y i n – odam gavdasi.

و (vov) LI SO‘ZLARNING BOSHI VA O‘RTASI HARAKATLI BO‘LGAN فَعَلْ *FA’AL* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR

ب *(p)*

تابْ t a p – teridagi yara yoki kaltak izi.

تابْ t a p: اَلْ اَنِي تابْ تابْ اُرْدِي o‘l anï tap-tap ypdï – u uning har tomoniga tez-tez (tapillatib) urdi.

سابْ s a p – qilich yoki pichoq sopi. Maqolda shunday kelgan:

أُغْلانْ اِيشِي اِيشْ بُلْماسْ، أُغْلاقْ مُنكُزِي سابْ بُلْماسْ

Og‘lan ïshï ïsh bolmas, og‘laq mo‘ŋo‘zi sap bolmas

Bolalar ishini ish deb bo‘lmas, uloq shoxi yaxshi sop bo‘lmas.

سابْ s a p – (biror) so‘zga beriladigan javobdagi navbat; tegirmon tortish, yer sug‘orishdagi navbatga ham bu so‘z qo‘llanadi. سابْ بِيرْماسْ[200] اَلْ سُوزْكالِي o‘l sözgäli sap bermäs – u so‘zlashga navbat bermaydi. Tegirmon tortish va boshqalarga qo‘llanadigan سَنِكْ سابْ كَلْدِي seniŋ sap keldi – *sening navbating, sening galing keldi* shundandir.

شابْ شابْ s h a p – s h a p: اَنِي شابْ شلبْ بُيُنْلَدِي anï shap-shap buyunladï – uning bo‘yniga shap-shap urdi. اَلْ قاغُونْغْ شاب شاب بِيدِي ol qag‘unug‘ shap-shap yedi – u qovunni shapillatib yedi. Shaftoli

---

[199] *Jem* so‘zi hozir faqat otga beriladigan kundalik arpa normasi ma’nosida qo‘llanadi. Demak, so‘z ma’nosi bizga torayib yetib kelgan.

[200] Basim Atalay bu gap bosma va yozma nusxalarda shunday berilgan bo‘lsa ham, bir oz xatolik bor deb izoh bergan. Unga ko‘ra سُوزْكالِي dagi لى ortiqchadir. Bu fikrga ko‘ra, *-ga* affiksi sabab ma’nosida bo‘ladi. Bu holat XI asr tilida bor edi. Shu bilan birga, bu so‘z سُوزْلاكالِي shaklida bo‘lib, لا *-la* tushgan bo‘lishligi ham mumkin.

va boshqa suvli narsalarni yeyishga ham bu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘z arabchaga muvofiqdir. الشيب arabcha so‘z bo‘lib, lablardan shipillab chiqadigan tovushni aks ettiradi.

قابْ q a p – mesh, sanach.

قابْ q a p – g‘ilof, jild. Har qanday ustki o‘rov ham قابْ *q a p* deyiladi. Bu so‘z arabcha الْفَرْسُ so‘zi kabidir. Aslida gardanga urish ma’nosida bo‘lgan bu so‘z, so‘ng har qanday urishga qo‘llanib ketgan.

قابْ q a p – ona qornida bola o‘ralib turgan parda, xalta. Agar bola shu parda bilan tug‘ilsa *qutlug‘* deb fol qilinadi. U قابْلِغْ أُغْلْ *qaplïg‘ og‘ul* deb ataladi.

قابْ qap: أُلْ مَنِڭْ بِرْلا أُيا قابْ أُلْ o‘l meniŋ birlä yja qap o‘l – u men bilan bir qorindan tug‘ilgandek yaqin.

ت *(t)*

جاتْ c h a t – quduq (o‘g‘uzcha).

قاتْ q a t – tikanli bir daraxtning mevasi. افلغو قاتى afilg‘u* qatï – bir dengiz daraxtining mevasi; سِنْجغانْ قاتي sïnchg‘an qatï – *tikanli daraxt mevasi*dir. Uni siqib qatiqqa aralashtiriladi. So‘ng tutmochni rangdor qilish uchun unga qo‘shiladi. Yamaq, qipchoq, qay, tatar, jumul qabilalari tilida har qanday daraxt mevasiga ham قاتْ *qat* deyiladi.

ج *(ch)*

ساجْ s a ch – tova.

ذ *(z)*

قاذْ q a z – odamni o‘ldiradigan qattiq bo‘ron. قاذْ بُلْدي qaz boldï – bo‘ron qo‘zg‘aldi. Bu bo‘ron tog‘larda kuzu qishlarda bo‘lib, ochiq yerlarda (sahrolarda) qishda bo‘ladi. She’rda shunday kelgan:

[XXVII]

كَلْدي اَسِنْ اَسْنَيُو
قاذْقا تُكَلْ اسْنَيُو
كِرْدي بُذُنْ قَسْنَيُو
قَرا بُلِيتْ كُكْرَشُورْ

---

* V.Radlovda: *avïlqu* – chinorlar oilasiga mansub daraxt.

Keldi esin esnajo‘,
Qazqa to‘gäl o‘snayo‘.
Kirdi buzun qasnayu,
Qara bulït kökräsho‘r.

To‘polon bilan shamol esdi. U sovuqligidan xuddi bo‘ronga o‘xshadi. Odamlar undan qaltirashdi. Qora bulutlar guldiradi.

ر (r)

بارْ b a r – bor. Narsaning borligini, o‘z joyida ekanini anglatuvchi so‘z. Chunonchi, birov-birovga سنْدا يَرْماقْ بارْمُو sendä yarmaq barmu – senda pul-tanga bormi desa, unisi بارْ bar deb aytadi, ha, menda u bor demakdir. Bu so‘z arabcha لَيْسَ ning, turkcha يُوقْ yoqning ziddidir.

بارْ b a r: بارْ يِكْدا bar yigdä – katta jiyda*.

تارْ t a r – tor. Har bir tor narsa. تارْ اَفْ tar ew – tor uy. Boshqalari ham shunday.

تارْ t a r – kichik suvlarda qo‘llanadigan oddiy qayiq. Bu shundayki, bir necha meshlar damlanib shishiriladi, **(509)** so‘ng og‘zi bog‘lanib, bir nechasi bir-biriga birlashtiriladi. Suv ustida tomga o‘xshash bir narsa hosil qilinadi. So‘ng uning ustiga o‘tirilib, suvdan o‘tiladi. Shuningdek, qamish va shoxlardan ham shunday narsa yasaladi (yaboqu va tatarlar so‘zi).

تارْ t a r – yog‘ quyqasi. Bu yog‘ eritilib olingach, qozon tagida cho‘kib qolgan quyqadir.

تارْ t a r – ish haqi. Muzdga ishlovchini تَرْجِي *tarchi* deyish shundandir.

تَرْجِي** t e r c h i[201] – ter.

جارْجَرْماقْ c h a r - c h a r m a q – bola-chaqalar.

قارْ q a r – qor.

---

* Olmaota nashrida: *chetan.*

** Olmaota nashrida: *tär – ter.*

[201] Basim Atalay izohiga ko‘ra, yozma nusxada ham تَرْجِي ekan. Yuqorida qo‘llanganicha تَرْجِي terchi – *muzdga ishlovchi* ma’nosida edi (qarang: "Devon..." tarjimasi, III jild. 148-b). Shunga ko‘ra, bu yerda تَرْ *ter* bo‘lishi to‘g‘ri edi.

ز *(z)*

بازْ b a z – begona, yot, g‘arib (ayanchli). يات بازْ يَذْلُدي yat baz yăzildi – begonalar tarqalishdi.

تازْ t a z – kal, tos.

تازْ t a z: تازْ اَتْ taz at – terisi yo‘l-yo‘l, olacha ot.

تازْ t a z: تازْ قُوىْ taz qoy – shoxsiz qo‘y.

تازْ t a z: تازْ يِرْ taz yer – o‘simligi oz, oriq yer.

Maqolda shunday kelgan:

(38) تازْ اَتْ تَفارْجي بُلْماسْ

Taz at tafarchï bolmas

Terisi yo‘l-yo‘l olacha ot yuk tashiydigan bo‘lmaydi. Chunki uning tirnog‘i yomondir[202].

قازْ q a z – g‘oz.

قازْ Q a z – Alp Erto‘nga qizining nomi. قَزْوِينْ *Qazvïn* shahrini shu qurgandir. Bu so‘zning asli قازْ اُيْنِي qaz oynï – *g‘oz o‘ynaladigan joy* demakdir. U shu yerda turar va shu yerda o‘ynar edi. Shuning uchun ba’zi turklar قَزْوِينْ *Qazvïn*ni turk shaharlaridan hisoblaganlar. Shuningdek, قُمْ *Qum* shahri ham chegara hisoblanadi. Chunki قُمْ *qum* turkcha so‘zdir. Alp Erto‘nganing qizi bu yerda ov qilar va o‘ynar edi. Ba’zilar turk shaharlari chegarasi مَروَالشاهِجان Marvash – Shohijondan boshlanishini so‘zlaydilar. Chunki Qazning otasi تُنكا اَلْبْ اَرْ To‘nga Alp Er – Afrosiyobdir. U Tahmurasdan uch yuz yil keyin مَرْوْ *Merv*ni bino qilgandir.

Ba’zilar butun ماوَراعلنَّهْر Maveraunnahrni turklar o‘lkalaridan deb hisoblaganlar. U يَنْكَنْدْ *Yankand*dan* boshlanadi. Uning bir oti دزروِيِنْ *Dïzruyïn*dir. U sariqligiga** ko‘ra, *mis shahri* demakdir. Bu Buxoroga yaqindir. Bu yerda Alp Erto‘nganing qizi – Qazning eri سِياوُشْ *Sïyavush* o‘ldirilgandir. Majusiy – otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, سِياوُشْ *Sïyavush* o‘lgan joy atrofida yig‘-laydilar. **(510)** Mollar so‘yib, qurbonlik qiladilar. So‘yilgan mol qonini uning mozori tepasiga to‘kadilar. Ularning odatlari shunday. Butun ماورالنَهْر Mavoraunnahrni, يَنْكَنْدْ Yankanddan Sharqqacha bo‘lgan o‘lkalarni turk yerlaridan deb hisoblashning

---

[202] Bu maqol bundan oldingi تازْ اَتْ *taz at* so‘ziga misoldir. Yanglish ravishda pastga tushib qolgan.

* Olmaota nashrida shu o‘rinda *Baykand* yozilgan.

** Olmaota nashrida shu o‘rinda: *mustahkamligi uchun.*

asosi shuki, سَمَرْقَنْدْ Samarqand, سَمِزْكَنْدْ Semizkänd, تَشْكَنْدْ Tashkand – شَاشْ Shash. اُوزْكَنْدْ Özkänd, تُنْكَنْدْ To'nkänd nomlarining hammasi turkchadir. كَنْدْ *känd* turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharlarni qurdilar va shunday nom qo'ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular Ajam shaharlari kabi bo'lgan. Hozir turk o'lkalarining chegarasi اَبِسْكُونْ Äbisgun* dengizi bilan o'ralgan. Rum o'lkasidan va اُوزْجَنْدْ Özjänddan Chingacha cho'ziladi. Uzunligi besh ming farsax, eni uch ming farsax, hammasi sakkiz ming farsaxdir.

ز *(z)* **

قَازْ سُقْلَى Q a z c y w ï – اِيلا *yla* daryosiga quyiladigan katta bir irmoq. Bunday atalishining sababi – Alp Erto'nganing qizi uning qirg'og'iga bir shahar qurgani va bu nom unga nisbat berilganidandir.

قَازْ q a z – daraxtning po'stlog'i. Maqolda shunday kelgan:

قازِنكْ قاسِنكا

Qazïŋ qasïna

Qayinning (quvvati) po'stlog'i*.

Bu yerda ز – z س – s ga almashgandir. Chunki ز so'zda o'zidan oldin o'z hissasini olgan bo'lsa ham, o'zidan keyin س kelgach, so'zda ز *z* ga o'rin qolmagandir. ز ning س ga almashinishi arabchada ham bordir. Chunonchi, keman بُوزِي *buzi* va بُصِي *busi* ataydilar yoki لزق *laziqa* va لصق *lasiqa,* yoki بُزاق *buzoq* va بَصاقٌ *busoq* so'zlari kabi[203].

ش *(sh)*

باشْ b a s h – bosh.

باشْ b a s h – yara. Maqolda shunday kelgan:

---

* V.Radlovdan kelib chiqilsa, bu maqolning bir qismi tushirib qoldirilgan: *sügüt süliŋä, qasïn, qasïŋa* (B.I)

[203] Bu yerdagi arabcha iborada bir oz aniqsizlik bor. Buni Basim Atalay tuzatgan. Uning tuzatishicha, arabcha shunday bo'lishi kerak:
إنّما قُلِبَتِ الزّاءُ بالسِينْ لانّ الزّا سَبَقَتْها فَاستَوْفَتْ حَظَّها مِنَ الكَلامِ. فَلَمّا تَلَتْها السِينَ لَمْ يَبْقَ مَجالٌ فى الكلامِ. وَقَدْ تُبْدَلُ الزّاءُ بالصادِ فى العَرَبِيّةِ

كُني بَرِرْ كَيِكْنِكْ كُوزِنْدا آذِنْ باشي يُوقْ

Köni barïr keyikniŋ közindä(n) azïn bashï yoq

Hech qayoqqa qaramay, to‘g‘ri ketayotgan kiyikning ko‘zidan boshqa yarasi yo‘q. Ya’ni haqiqatda *ko‘zi yara emas* demakdir. Ishi og‘irlashib, har kimning malomatiga yo‘liqqan (kishi haqida aytiladi).

تاشْ t a s h – tosh.

تاشْ t a s h: تاشْ تُونْ tash ton – (tashqaridan) kiyiladigan to‘n, ustki to‘n.

تاشْ يِرْ t a s h y e r – keng yer. Begona joy.

ساشْ s a s h: ساشْ آتْ sash at – hurkovich ot.

قاشْ q a s h – qosh.

قاشْ q a s h – oq yoki qora, tiniq toza tosh. Buning oqini chaqmoqdan, chanqoqlikdan, yashin urishdan saqlanish uchun uzukka ko‘z qilib taqadilar.

قاشْ أُكُوزْ q a s h ö k o‘ z: Xo‘tan shahrining ikki tomonidan oqadigan ikki nahr, ularning birini أُرُنكْ قاشْ أُكُوزْ *o‘ro‘ŋqash öko‘z* deyiladi. Oq toza tosh shu yerda bo‘ladi. Bu nomda ham shu toshga nisbatan berilgandir; (yana) biri قَرا قاشْ أُكُوزْ *qara qash öko‘z* deyiladi, Qora toza tosh shu yerda bo‘ladi. Bu toshlar dunyoda biror yerda topilmaydi. Faqat shu yerdagina bo‘ladi.

قاشْ q a s h – har narsaning cheti, yoqasi, yoni يارْ قاشْ yap qashï – jar yoqasi. Boshqalari ham shunday.

غْ *(g‘)*

باغْ b a g‘ – tok*.

باغْ b a g‘ – o‘tin va shunga o‘xshash boshqa narsalarning bog‘i. Shundan olinib أُتُنكْ باغي otuŋ bag‘ï – *o‘tin bog‘lami* deyiladi.

تاغْ t a g‘ – tog‘. Maqolda shunday kelgan:

تاغْ تاغقا قَقْشْماسْ كِشي كِشيكا قَقْشْماسْ

Tag‘ tag‘qa qawushmas, kishi kishigä qawushur

Ikki tog‘ bir-biriga qovushmaydi, chunki ular joylarida turg‘undirlar. Odamlar, ko‘p vaqt o‘tib ketsa ham, bir-birlariga qovu-

* V.Radlovda: *bog‘, tokzor*; Olmaota nashrida faqat *bog‘*.

shadilar. Bu maqol uzoq vaqtdan so‘ng do‘stini ko‘rgan odam haqida aytiladi.

داغ *dag‘ – qoramol va boshqalarga bosilgan tamg‘a. Forslar bu so‘zni turklardan olganlar. Chunki forslarda turklardagidek qoramol yo‘q. Shuning uchun bu so‘zga ularda zarurat ham bo‘lmagan. Men bu so‘zni musulmonlar chegarasida eshitdim.

داغ ذاغ d a g‘, zag‘ – yo‘q, emas ma’nosidadir (arg‘ucha). اَلْ اَنْدَغْ داغْ اَلْ o‘l andag‘ dag‘ o‘l – u unday emas. So‘ng o‘g‘uzlar yo‘q, emas ma’nosidagi bu so‘zni arg‘ulardan olib, ذاغْ اَلْ *zag‘ ol* ni تَكُلْ *tego‘l* deb o‘zgartirganlar. Chunki o‘g‘uzlar **(512)** arg‘ularga qo‘shni turadilar. So‘zlarida aralashish bor.

ساغْ s a g‘ – aql (o‘g‘uzcha).

ساغ s a g‘ – ziyraklik, tiyraklik, zehni o‘tkirlik (o‘g‘uzcha). سَنْدا ساغْ يُوقْ senda sag‘ yoq – senda ziyraklik yo‘q**.

ساغ s a g‘ – sog‘lik, sog‘lomlik. يِينك ساغمُو yiniŋ cag‘mu – taning sog‘mi?

ساغْ سُوقْ s a g‘ s u w – toza, chuchuk suv.

ساغْ اَلِكْ s a g‘ e l i k – o‘ng qo‘l. Bu so‘zlar hammasi o‘g‘uzcha. Ayrim turkiy qabilalar bu so‘zlarni bilmaydilar.

ساغْ s a g‘ – yung savaydigan savag‘ich.

ساغْ ياغْ s a g‘ y a g‘ – sariyog‘.

ساغْ كُنكُلْ s a g‘ k ö ŋ o‘ l – ko‘nglida kiri yo‘q, oq ko‘ngil odam.

ڤ *(w)*

ساڤْ s a w – otalar so‘zi. Chunonchi, ساڤدا مُنْدَغْ كَلِرْ sawda mundag‘ kelir – otalar so‘zida shundoq keladi***.

---

* Bu so‘z forslarniki emas, chunki forslar hayotida chorvaning mavqei kam. Shuning uchun ularda uning ismiga ehtiyoj ham yo‘qdir. Demak, Mahmud Koshg‘ariy qarashida tildagi so‘zlar turmush bilan bog‘liq, turmushda so‘zga bo‘lgan ehtiyoj natijasida bor narsani ifodalash uchun paydo bo‘ladi. So‘zlar turmushdagi taraqqiyot talabiga muvofiq paydo bo‘ladi, so‘zlar turmushda yuzaga kelgan yangiliklarni ifodalash uchun har doim turmush talabiga mos ko‘payib, boyib borishi mumkin, degan nazariya ham kelib chiqadi. Mahmud Koshg‘ariyning so‘zlar kelib chiqishi haqidagi bundan ming yil ilgari bunday puxta va to‘la ilmiy ko‘rsatmasi, uning qanchalik yetuk tilshunosligini ko‘rsatuvchi muhim hujjatdir.

** Olmaota nashrida: *senda aql yo‘q.*

* V.Radlovda va Olmaota nashrida: *Maqolda shunday deyiladi*

ساڤْ s a w – qissa. Qadimgi voqealardan xabar berish, aytish[204].

ساڤْ s a w – hikoya. Biror voqeani aytib berish[205].

ساڤْ s a w – risola, xat, kichik kitobcha.

ساڤْ s a w – so‘z, nutq.

ساڤْ s a w – ilgarigi xabarlar, yangiliklarni yetkazuvchi. Shundan olib, نبي nabi – payg‘ambarga ساڤْجى *sawchï* deyiladi. Chunki u bir qancha xabarlar eshittiradi, yozilgan narsalarni yetkazadi.

ساڤْجى cs a w ch ï – kelin va kuyovlar orasida, yuqorida aytganimcha, bir-biriga xat-xabarlar eltuvchi sovchi. She’rda shunday kelgan:

[XXVIII]

بِلْكا اَرَنْ سَڤْلَرِنْ اَلْغِلْ اُكْتْ
اَدْكُو سَوْغْ اَدْلَسا اُوزْكا سِنكارْ

Bilka erän sawlapïn alg‘ïl ögo‘t
Ezgo‘ cewïg‘ ezlasa özgä sinjär**.

Bilag‘on odamlarning so‘z, nasihatlaridan foydalan. Chunki yaxshi so‘z ta’sir qilgach, dilga joylashadi.

شاڤْ s h a w – cho‘g‘on deyiladigan ishqor kabi bir o‘t. Uchlarda[206] u bilan kiyimlar tozalaniladi.

قاڤْ q a w – chaqmoq chaqilganda yondiriladigan pilik.

قاڤْ قُوڤْ q a w q y w: تُونْ قاڤْ قُوڤْ بَلْدِي ton qaw qyw boldï – yomon tikilishdan to‘n tortishib qoldi.

لاڤْ l a w – muhr bosish uchun foydalaniladigan mum.

ق *(q)*

قاقْ q a q – shaftoli qoqi. Boshqalari ham shunday.

قاقْ q a q: قاقْ سُوڤْ qaq cyw – ko‘lmak, to‘plangan suv.

ك (k)

باكْ b e g – bek.

---

[204] Ehtimol, *nazm bilan so‘z aytish* ma’nosini anglatar.

[205] Hikoya nazm bilan aytilishi va faqat o‘tganlar haqida aytilishi shart emas.

** Bu she’riy parcha bundan oldingi – *saw* – so‘ziga tegishlidir (B.I)

[206] Asl nusxada ج أ ب shaklida berilgan. Buni أَجْ بْلَغْdeb o‘qish ham mumkin, بُڤِيتِ بُ أَجْ shaklida o‘qish ham mumkin.

باك b e g – uylangan erkak. **(513)** U uyida beklarga o‘xshatilgani uchun shunday atalgan,

تاك t ä k – o‘xshatish qo‘shimchasi. اَندغْ تاكْ اُلْ o‘l andag‘ tak* – u o‘shandoq, unga o‘xshaydi.

جاك c h e k – burd (ipaklik) shaklidagi yopinchiq qilinadigan bir bo‘z to‘qilma. Uni yamaklar kiyadilar.

ناك n e k – timsoh.

ناكْ يِلانْ n e k y ï l a n – ajdaho.

ناكْ يِلي n e k y ï l ï – turklarning o‘n ikki yillaridan biri. Bu kitobni yozgan yilimiz to‘rt yuz oltmish to‘qqizinchi yil, ya’ni ناكْ يلي *nek yïlï* edi.

ل *(l)*

بالْ b a l – bol, asal. Suvorin va qipchoqlar tilida. O‘g‘uzlar va turklar اَري ياغي apï jag‘ï deydilar. She’rda shunday kelgan:

---

* *Tak* so‘zi – hozirgi atama bilan aytganda o‘xshatish ko‘makchisi – o‘g‘uzcha deb izohlangan. Shu bilan birga “Devon…”da o‘xshatish ko‘makchisi sifatida *cha, sïg‘* kabi *sig, bojla, yanglig‘* ko‘makchilari ham berilgan. O‘rxun yodgorliklarida *chïg‘ (cïg‘* o‘rnida) *tak* va *cha* ko‘makchilari qo‘llangan. Demak, o‘xshatish ko‘makchilari o‘sha davrdayoq bir necha sinonimlar bilan ifodalangan.

O‘xshatish ko‘makchilarini Navoiy ham, bir qancha sinonimlar bilan boyitgan. Navoiy yuqoridagilar bilan birga *misl, monand, qadar* va *-qa* o‘xshatish ko‘makchilarini ham qo‘llagan. Bu hol o‘xshatish ko‘makchilarining tilda tutgan alohida rolini ochib beruvchi faktlardir.

XI asr tilida bularning har biriga misollar ko‘p. “Devon…”dagi parchalarda *kibi* shakli ko‘proq, “Qutadg‘u bilik”da esa *yanglig‘* shakli ko‘proq uchrashi xarakterlidir.

Yaqin yog‘uq ko‘rmadib nangin kudur
Kardash tobo it *kibi* qingru boqor

Qushlar *kibi* uchtimiz

Sava bersa mundog‘ bu *yanglig‘* talim
Bu yanglig‘ kishi bilgi ortuq aning.

Demak, bular u davrda shevalar asosida kelib chiqqan so‘zlar bo‘lsa kerak. Navoiyda ifoda ko‘rkamligi, til san’atkorligi maqsadida bu ko‘makchilarning har ikkisi to‘liq sinonimlar sifatida bir baytning birinchi misrasida biri va ikkinchi misrasida ikkinchisi qo‘llangan:

Qul *yanglig‘* o‘g‘ulligingni qilsam,
O‘g‘ul *kibi* qullig‘ingni qilsam.

[XXVII]

بَرْدي سەنكا ياڭ اُوترُو تُتُبْ بالْ
بَرْجِنْ كَذِبَنْ تَلُو يُقْعا بُلْبْ قالْ

Bardï seŋäa yer otru tutup bal,
Barchïn kezibän talu yywg‘a bolup qal.

Shayton seni uchratdi, senga asal tutib, dunyo shirinligi – rohatini berdi. Mag‘rur bo‘lib ipakli kiyimlar kiyding. Agar uning aldovini tushunmaydigan bo‘lsang, shunday qolib rohatlana ber.

تالْ t a l – ho‘l novda. Odam ham qomati va yumshoqlikda tolga o‘xshatilib, تالْ بُوذْلُغْ tal bozlug‘ deyiladi. Bu so‘z ko‘pincha nozik va xushqomat kanizaklarga qo‘llanadi.

جالْ قُوىْ c h a l q o y – ola-bula qo‘y*.

سالْ s a l – novda yoki meshlardan yasalgan yengil qayiqcha[207], sol**. *Ïar* so‘zi ham shu ma’nodadir.

سالْ s a l – yelim va boshqa narsalardan tayyorlanadigan lak. Chin idishi va boshqalarga surtilib, so‘ng uning ustidan naqsh beriladi.

م *(m)*

تامْ t a m – devor.

اَمْ سامْ e m – s ä m – davo. säm so‘zi yolg‘iz qo‘llanmaydi. Har vaqt qo‘shaloq holda qo‘llanadi.

قامْ q a m – fusungar, kohin.

تانْ t a n – tongdagi va kechki sovuq shamol.

جانْ x a n – turklarning eng katta boshliqlari. Alp Erto‘nganing bolalari ham جانْ *xan* deb yuritiladi. Alp Erto‘nga جاقانْ xoqondir. Bu nom bilan atalish voqeasi haqida uzun hikoya bor.

---

* Olmaota nashri: *ko‘ziga oq tushgan qo‘y.*

[207] Bu so‘z Navoiy asarlarida tez-tez uchraydi:

Bahri ashkim ichra kim topmas zarar ko‘z mardumi.
Go‘yo kirpik nayistonidin oning *soli* bor.

Mazmuni: odatda suvga g‘arq bo‘lgan narsa halok bo‘ladi. Lekin ko‘z yoshim daryosiga g‘arq bo‘lgan ko‘zim qorachig‘i halok bo‘lmay, omon kelayotir. Chunki ko‘zim qorachig‘i kiprigim qamishzoridan sol yasab olgan. Shuning uchun salomat kelmoqda. Navoiy asarlarida bu ma’noda *pul* so‘zi ham uchraydi:

Kirpik ermaskim Navoiy o‘tgay ul chobuk debon,
Ko‘z qoro so‘yiga bog‘labtur qamishlar birla pul.

** V.Radlovda: *meshlardan qurilgan sol, ko‘prik.*

سانْ s a n – son, adad. قُوىْ ساني نَجا qo‘y sanï nechä – qo‘yning soni, sanog‘i qancha.

قانْ q a n – qon. Maqolda shunday kelgan:

قانِغْ قانْ بِرْلا يُوماسْ
Qanïg‘ qan birlä yumas

Qonni qon bilan yuvilmaydi, ya’ni to‘polon kelishuv bilangina tinchitiladi, demakdir.

مانْ قِشْلاغْ M a n q ï s h l a g‘ – o‘g‘uz o‘lkalarida bir yerning nomi. مانْكَنْدْ M a n k ä n d – Koshg‘ar yaqinidagi bir shahar nomi, so‘ng xarob qilingandir.

مانْ man: مانْ ياشْلِغْ قُوىْ man yashlïg‘ qo‘y – to‘rt yashar qo‘y. Bu so‘z qo‘ydan boshqaga qo‘llanmaydi.

OXIRGI HARFI ILLATLI BO‘LGAN SO‘ZLAR

ب *(b)*

بايْ b a y – boy بايْ يِغاجْ b a y y ï g‘ a ch – Uch shahri yaqinida كُجا Kyjä bilan أُجْ Uch orasidagi bir joy nomi.

ت *(t)*

تايْ t a y – toy, toycha. She’rda shunday kelgan:

[XXVIII]

تَكُرْ مَنِكْ ساقْمي بِلْكالكا اَىْ
تِنَرْ قَلي اَتَنْسا قِسْرَقْ سِني تاي
Ïego‘r meniŋ cawïmï bilgäligä* ay[208]
Tïnar qalï atatsa[209]** qïsraq sini[210] tay.

---

* Olmaota nashrida: *bilkalaka.*

[208] Bosma nusxada بِلْكالكا so‘zi بِلْكالكا shaklida yanglish tushgan. Aslida arabcha tarjimaga ko‘ra, بِلْكالارْكا bo‘lishi kerak edi, arabchasi (بَلَغْ لِلْمُغْلاء) shaklida berilgan.

[209] *Atatmoq* – ot so‘ziga *-at* affiksi qo‘shilib, fe’l yasalgan so‘zdir. *Atatmoq* – ot bo‘lmoq demakdir. XI asr tilida har qanday so‘z turiga *-ar, -az, -at* affikslari qo‘shilib, fe’l yasalishi keng qo‘llanar edi: kölarmak – ko‘l bo‘lmoq, eräzmäk – erlik darajasiga yetmoq, atatmoq – *ot bo‘lmoq* kabi. Maqollarda qo‘llanishiga ko‘ra, bu xususiyat juda qadimgi hodisa edi.

Mening so‘zimni aqllilarga etkaz. Agar biyaning toychasi ot bo‘lsa, biya tinadi. Chunki onasi o‘rniga uni minadilar.

س *(s)*

سايْ s a y – qora toshli yer.* سايْ يَرِقْ c a y y a r ï q – badanga kiyiladigan sovut.

قايْ q a y – bir toifa turkiy qabilalar.

Bu bo‘limning misol turi

ب *(p)*

يابْ يُوبْ y a p y y p – hiyla, aldov. يابْ يُوبْ قِلْدي yap yyp qïldï – hiyla qildi, aldadi.

ت *(t)*

ياتْ كِشي y a t k i sh i – yot odam. Shundan olinib, ياتْ بازْ يَذِلْ yat baz yazïl[211] – yot begonalar tarqalishsin, deyilgandagi kabi.

ياتْ y a t – Yomg‘ir va shamol chaqirish uchun toshlar bilan qilinadigan fusungarlik.

ز *(z)*

يازْ y a z – yoz. Maqolda shunday kelgan:

يازنْ قَتِغْلَنْسا قِيشِنْ سَفْنُورْ

Yazïn qatïg‘lansa qïshïn sewno‘n

Yozda tirishgan kishi, qishda sevinadi.

س *(s)*

ياسْ y a s – zarar, ziyon. اَنِكْ تَلِمْ ياسي تَگْدي aniŋ telim yacï tegdi – unga ko‘p zarar yetdi.

ياسْ y a s – o‘lim, halokat. اَنِكْ أُغْلي ياسْ بُلْدي aniŋ og‘lï yac boldï – uning o‘g‘li o‘ldi (o‘g‘uzcha).

Chunonchi: tay atatsa at tinur, o‘g‘ul ärāzsā ata tinur (“Devon…”dan) – toy otlik darajasiga yetsa, ot dam oladi, o‘g‘il erlik darajasiga yetsa, ota tinadi.

* Olmaota nashri: *atitsa.*

210 سنى so‘zini Basim Atalay *sipi* shaklida tuzatgan. Darhaqiqat, bu so‘z noaniqdir. Lekin *sipi* shaklida tuzatish bizga aniq bo‘lmadi.

** V.Radlovda: *toshloq; quruq tekislik*, Olmaota nashri: *toshloq.*

211 يَذِلْ *jazil* so‘zi ikkinchi shaxs buyruq shaklidir. Holbuki, bu so‘zga nima uchundir arabcha uchinchi shaxs tarzida ma’no berilgan.

ش *(sh)*

ياشْ y a sh – ko‘z yoshi. كُوزُمْ ياشِي اَقْدِي közo‘m yashï aqdï – ko‘zimning yoshi oqdi[212].

ياشْ y a sh – ko‘kat. ياشْ يِيدِمْ yash yedim – ko‘kat* yedim.

ياشْ y a sh – yangi, sof. ياشْ اَتْ yash ät – yangi go‘sht.

غ *(g‘)*

ياغْ y a g‘ – yog‘. Urug‘ va o‘simliklar yog‘i.

ق *(q)*

ساغْ ياغْ s a g‘ y a g‘ – sariyog‘. O‘g‘uzlar charvini** yog‘ deydilar.

ياقْ يُوقْ y a q - y u q – idish*** yuqi. Uzoq qarindoshlarga ياقْ يُوقْ قَدَشْ yaq-yuq qadash deyish ham shundan olingan. Uning bizga yaqinligi idish yuqi kabidir.

ك (k)

ياكْ j e k – shayton. Maqolda shunday kelgan:

بِلْمِشْ ياكْ بِلْمادُكْ كِشِيدا(ن) يِيكْ

Bilmish yer bilmäzo‘k kishidä(n) jig****

Notanish kishidan tanish shayton yaxshi.

Bu maqol tanishlar hurmatini saqlashga undab aytiladi.

ل *(l)*

يالْ y a l – yol. Hamma turkiy tillar (qabilalar tillari)da yol bitadigan joy, a’zo ma’nosidadir. آتْ يالِي *at yalï* deganda shu ma’noda qo‘llanadi.

---

[212] Ko‘rinadiki, *yosh* so‘zi u davr tilida ko‘p ma’noli so‘z edi. Lekin bizga, asosan, birinchi ma’nosi bilan yetib kelgan. Uchinchi ma’nosi bir oz o‘zgargan: *yosh bola* deganda hayotga yangi kelgan ma’nosi bordir. Shu bilan birga, bu so‘zga necha yosh umr ko‘rganlik ma’nosi ham yuklangan: *yashadi – uzoq umr ko‘rdi* fe’li ana shu ma’nodagi *yosh* so‘zidan yasalgan. Holbuki, *yashamoq* fe’li XI asrda ham qo‘llangan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, u davrda bu ma’noda *yosh* so‘zi ism holida qo‘llanmagan. Faqat *fe’l* holidagina qo‘llangan. Bu hol tilshunos olimlarning so‘z ma’nosiga alohida ahamiyat berishlarini talab qiluvchi masaladir.

* Olmaota nashri: *meva.*

** Olmaota nashrida: *jonivor yog‘i.*

*** Olmaota nashrida: *qozon.*

**** Olmaota nashrida: *iyik.*

م *(m)*

يامْ y a m – ko‘z va boshqa narsalarga tushgan xas-cho‘p.

يانْ y a n – son suyagining bosh qismi. Son suyagiga ham يانْ *yan* deyiladi.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

يايْ y a y – bahor. Maqolda shunday kelgan:

كُوزْ كِلِكِي يايِنْ بَلْكُولُكْ

Ko‘z keligi yayïn belgo‘lo‘g

Kuzning kelishi bahordan ma'lum. Bu maqol oxiri avvalidan bilinadigan ishlar haqida qo‘llaniladi. She’rda shunday kelgan:

[XXIX]

يايْ كُرْكِنكا اِنَنْما
سُقَلْرْ أزا تَيَنْما
اَسِزْلِكِكْ اَنَنْما
تِلْدا جِقارْ اَذْكُو سُوزْ

Yay körkiŋä ïnanma,
Suwlar o‘zä tajanma.
Esizligig anunma,
Tilda(n) chïqar ezgo‘ söz.

Bahor ko‘rkiga, uning rang-barang gullariga chiroyliligiga ishonma, undan yaxshilik umid qilma. Suvga tayanma, chunki dunyo ne’matlarining shirinligiga, bahor go‘zalligiga suyangan kishilar suvga suyanganlar kabidir. Yomonlikka otlanma. Tilingdan doim xalq sendan minnatdor bo‘ladigan yaxshi so‘zlar chiqar.

Qoida. Bu bob va boshqalarni (shunga o‘xshashlarni) *manqus* deb atadik. Chunki bu bobdagi so‘zlarning o‘rtasidagi yumshoq tovush – *harfi lin* tushadi. U vaqt yozilishda emas, talaffuzda ikki undoshli so‘zga aylanadi. **(516)** Chunonchi, *qo‘l* ma’nosidagi قُلْ *qol* so‘zi aslida قُولْ *qo‘l* shaklida talaffuz qilinishi kerak edi. Lekin bu so‘zni اَنِكْ قُلِنْ اَلْدِي aniŋ qolïn aldi – *uning qo‘lini ushladi* deganda, و – y tushib قُلْ *qul* so‘ziga o‘xshab talaffuz qilinadi.

Shamol ma'nosidagi يِيلْ *yel* so'zi ham اَنِكْ يِلِي كُوجْلُكْ anïŋ yeli ko'chlo'g – *uning shamoli quvvatli** gapidan so'zlashda ى– j tushiriladi. Bu gapdagi *jïl* so'zi *yil* ma'nosidagi يِلْ ga o'xshaydi. Bu manqus bo'limidagi har bir ism va fe'llarga xos umumiy qoidadir. Bu xususiyat arabcha so'zlarda ham uchraydi. Arabcha يُكيِلُ. كالَ. يَزِينُ. زانَ fe'llaridan buyruq كِلْ. يَزِنْtarzida yasalib, o'rtadagi yumshoq unli tushiriladi. Turkchada bu xususiyat yolg'iz fe'llarga emas, ismlarga ham xosdir. Arab tilida bu holat ismlarda emas, faqat fe'llarda uchraydi. Buni yaxshi bil.

فَعَل *FA'AL* O'ZAGIDAN YASALGAN و (VOV)LI SO'ZLAR

ت *(t)*

قِزِلْ جُوتْ q ï z ï l j o' v o' t** – qizil rang, qizil bo'yoq.

اَلْ جُوتْ a l o' v o' t – malla rang.

كُوكْ جُوتْ k ö k j o' v o' t – to'q ko'k.

ياشِلْ جُوتْ y a s h ï l j o' v o' t – yashil rang, zangori.

سارِغْ جُوتْ s a r ï g' j o' v o' t – zirnix. جُوتْ *yo'vo't* so'zi yumshoq ڤ – w bilan جڤت *yo'wo't* shaklida ham talaffuz qilinadi. Bilgilki, جُوتْ *yo'vo't* so'zi bu ranglarning hammasi uchun umumiy so'z bo'lib, so'ng unga ayrim ranglarni anglatuvchi so'zlar qo'shilib, farq qilinadi.

قَوتْ q a v u t: (قاغُوتْ *qag'ut* shakli ham bor.) Yangi tuqqan xotinlar ovqati. Qovurilgan tariq*** uni yog' va shakarga qorib yeyiladi.

چ *(ch)*

قُوجْ q o v u c h – jin tegish asari****. Bunday odamlar yuziga sovuq suv sepilib, قُوجْ قُوجْ *qovuch-qovuch* deyiladi. So'ng *o'zärlik***** deyiladigan *o't* va *ud* deyilgan xushbo'y o'simlik tutatiladi. قُوجْ قُوجْ *qovuch-qovuch* so'zi قَچْ قَچْ *qach-qach* so'zidan

---

* Olmaota nashrida: *uning nafasi kuchli.*

** V.Radlovda: *čüvit// čüvüt* – bo'yoq; Olmaota nashrida: *jo'vit.*

*** Olmaota nashrida: *bug'doy.*

**** V.Radlovda: *qovuč// qovuz* – kishi tanasidan jinni haydashda ishlatiladigan so'z.

***** *Paganum harmala* – isiriq.

olingan bo‘lsa kerak. *Ket, daf bo‘l* degan ma’noda deb hisoblayman[213].

كُوْچْ k o‘ v o‘ ch: كُوْچْ يُكُونْ ko‘vo‘ch* jo‘go‘n – no‘xta.

(چ) ز

قُوْزْ q o v u z: قُوْچْ *qovuch* so‘zi o‘rnida o‘g‘uzlar قُوْزْ *qovuz* so‘zini qo‘llaydilar. Chunonchi, يِلْ قُوْزْ بِتِكِي je1 *qovuz bitigi* deyiladiki, jin tegishga qarshi duo tumori, demakdir.

قُوْزْ q o v u z – sharvatga tushgan xas-cho‘p. قُوْزْ سُجِكْدَنْ كَتارْ qovuz so‘chikdän ketär – sharbatdan xas-cho‘pni ketkaz, olib tashla[214].

كُوْزْ k o‘ v o‘ z – yungdan to‘qilgan, yerga solinadigan har qanday palos, gilam, sholcha, namat.

يُوْغْ j y v y g‘ – sellar tog‘dan yumalatib, yuvib tushirgan katta tosh bo‘laklari. Bu so‘zning يُقْغ *juwug‘* shakli ham bor.

ق (q)

سُوْقْ s u v u q – har bir suyuq narsa, chunonchi, suyultirilgan qatiq, suzma, shirinliklar. سُوْقْ يُغُرِي suvuq jog‘ypt** – suyuq qatiq.

سُوْقْ s u v u q***: سُوْقْ قُذْرُقْ suvuq quzruq – uzun, lekin qili kam dum, chunonchi, xachir dumi kabi. Daraxt va boshqalar ham shunday (qipchoqcha).

قُوْقْ q o v u q[215]**** – har bir ichi bo‘sh narsa. Bu so‘zning قُقْقْ qowyq shakli ham bor.

قُوْقْ q a v u q – siydik qopi. Bu so‘zning قُقْقْ *qawyq* shakli ham bor.

---

[213] Basim Atalay izohiga ko‘ra قُوْچْ *qovuch* so‘zi yozma nusxada قُوْجْ *qo‘ch* shaklida ekan. Basim Atalay shu xilda tuzatgan. Darhaqiqat, o‘rtasi و li so‘zlar bo‘limi uchun bu tuzatish muvofiqdir.

* Olmaota nashrida: *kuvaj*; V.Radlovda: *küvüč// küväč.*

[214] Basim Atalayning yozma nusxada قُوْز shaklida berilgan so‘zni قُوْز*qavuz* deb tuzatishiga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki bu tuzatishda u hozirgi talaffuzga asoslangan (Qarang: “Devon...” tarjimasi, III jild. 164-b). Bizningcha, bu so‘z *qovuz* bo‘lib, bir pesh tushgan bo‘lsa kerak.

** Olmaota nashrida: *yugurt.*

*** Olmaota nashri: *suvik.*

[215] Hozirgi o‘zbek tilidagi kovak so‘zi ana shu o‘zakdandir. Lekin hozirgi tilda bu so‘zning ma’nosi bir oz o‘zgargan. Bu so‘z hozir asosan *teshik* ma’nosida qo‘llanadi.

**** Olmaota nashrida: *kuvuk.*

قَوْق q a v u q – tariq qipig‘i. Bu so‘zlardagi ۆ *v* bilan ف *w* o‘rin almasha oladi.

كُوْك k o‘ v o‘ k: مُوشْ كُوْك ko‘vo‘k mush – erkak mushuk.

كُوْك k o‘ v o‘ k – poxol (o‘g‘uzcha).

ل *(l)*

تُوِلْ t o‘ v ï l* – ovda lochin uchun chalinadigan dovil – nog‘ora. Men bu so‘zni arabchadan olingan va ت ط ga almashtirilgan deb hisoblayman. Chunki bu tovushlarning mahraji bir-biriga yaqindir. Chunonchi, arab tilida قَطَّرَ. قَطَّرَ ham deyiladi, غَلَطَ. غَلِتَ ham deyiladi. Ular ثابِتْ desalar, bular تُبْتْ qilib olganlari kabidir. Lekin men bu so‘zni turklar o‘lkalarining eng quyi qirg‘oqlarida asl turklardan eshitdim**.

Bu bo‘limning ى *– j* harfi bilan kelgan so‘zlari

ر *(r)*

قَيِرْ q a j ï r – turklar tilida yumshoq yer. O‘g‘uzlar qumni قَيِرْ *qajïr* deydilar.

ش *(sh)*

تَوْشْ t a v u sh – sezish va qimirlash. Bu so‘zning تَوْشْ tawïsh[216] varianti ham bor.

غ *(g‘)*

تَيِغْ t a y ï g‘ – toyg‘oq. تَيِغْ يِرْ tayïg‘ yer – toyg‘oq yer.

تُيَغْ t u y a g‘ – tuyoq. اَتْ تُيَغِي at tujag‘ï – ot tuyog‘i[217].

قُيُغْ نانكْ q y y y g‘ n e ŋ – oqadigan narsalarning quyug‘i. Uzum sharbatiga قُيُغْ سُجِكْ *qojug‘ so‘chik* deyish shundandir.

قَيِغْ q a y ï g‘ – o‘g‘uzlarning bir toifasi.

قُيُغْ q u y u g‘ – quduq. Bu so‘zning قذغ *quzug‘* shakli ham bor.

---

* V.Radlovda: *tovil//tovul;* Olmaota nashrida: *tuvul.*

** Bu gap M.Qoshg‘ariy *tovïl* so‘zi arabchadan olingan deb hisoblayman, degan fikri uzil-kesil emasligini bildiradi hamda o‘z fikriga o‘quvchida shubha uyg‘otish bilan fikrining ilmiyligi qiymatini oshiradi (B.I)

[216] Hozirgi o‘zbek tilidagi *tuymoq* so‘zi ana shu o‘zakdandir.

[217] تُيَغْ *tyjag‘* so‘zini *tirnoq* yoki *tuyoq* deya tarjima qilish mumkin.

قَيِغْ q a j ï g‘: قَيِغْ يِرْ[218] qayïg‘ yer – yo‘ldan chetda qolgan yer*. Boshqalari ham shunday.

ك (k)

بَيِقْ b a y ï q: بَيِقْ سُوزْ bajïq söz – to‘g‘ri so‘z (o‘g‘uzcha).

تَيُقْ اَرْ t a y u q e r – sezgir, tiyrak yosh yigit. **(518)**

تَيَقْ t a y a q – tayoq, suyanchiq. كُزاكُو تَيَقْ يِرْدِي közägo‘ tayaq berdi – kelin otdan tusharda, suyansin deb kuyov joriya yoki qulga tayoq berdi. Bu boylarning odatidir. Bu joriya yoki qullar kelinning moli bo‘ladi. Maqolda shunday kelgan:

تَيَقْ بِلا تَيْماسْ تَنُقْ سُوزُنْ بُتْماسْ

Tayaq bilä taymas, tanuq sözo‘n bo‘tmäs

Tayanchiq bilan odam toyg‘oq yerda toymaydi, guvohning so‘zi guvohlik bergandagina bilinadi.

تُيُقْ t u y u q: تُيُقْ كِشِي tuyuq kishi – siqilgan, siqiqqa tushgan odam.

تُيُقْ t u y u q: تُيُقْ كُونْ tuyuq ko‘n – tumanli, bulutli kun.

تُيُقْ t u y u q: تُيُقْ قَبُغْ tuyuq qapug‘ – yopiq eshik.

قَيَقْ q a y a q – qaymoq. She’rda shunday kelgan:

[XXX]

سَذَرْمِشْ اُلْغُنْ قُيَاقْ. سَرْمَمِشْ سُوتُّنْ قَيَاقْ

Sezrämish olg‘un qoyaq**,
Sarmamish so‘ttän qayaq.

Tariq donlari siyrak bo‘lib qolgan. Sutdan qaymoq suzuldi, yemoq uchun ikkovini birga pishirish kerak.

قِيِقْ q ï y ï q – va’daga vafo qilmovchi. Odam ba’zan shunday tavsif qilinadi. قِيِق كِشِي qïyïq kishi – so‘zida turmaydigan odam kabi.

---

[218] Basim Atalay bu so‘zning qo‘lyozmada ham noaniqligini ko‘rsatib, bu bo‘lim xususiyatiga ko‘ra, o‘rtada ى kelishi kerakligini to‘g‘ri qayd qilgan (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 166-b).

* V.Radlovda: *(yo‘lning) yuvilib ketgan joyi*; Olmaota nashrida: *kiyig yir* – katta yo‘ldan chetda qolgan yer.

** Olmaota nashrida: *kuyaq*.

قِيقْ q ï y ï q قِيقْ نانكْ qïyïq neŋ – egri-bugri narsa. Egri kesilgan qalam uchiga ham shu so‘z qo‘llanadi. Boshqalari ham shunday.

مَيَقْ m a y a q – tuya tezagi. Bu so‘z tuya tezagiga xos bo‘lsa ham, so‘ng istiora asosida qo‘ynikiga ham qo‘llangan. قُوىْ مَيَقِي qo‘y mayaqï – *qo‘y qumalog‘i* kabi. Ot tezagiga faqat يُنْدَقْ *yundaq* deyiladi. Maqolda shunday kelgan:

تَڤى بَدْكْ اَرْسا مَيَقِي بَدْكْ اَرْماسْ

Tewey bedo‘k ersa mayaqï bedo‘k** ermäs

Tuya katta bo‘lsa ham, tezagi katta emas.

Bu maqol kattaning shogirdi bo‘la turib, o‘zini katta tutadigan odamga nisbatan qo‘llanadi. Kattalik senga emas, senga xo‘jayin bo‘lgan odamga munosib demakdir.

ك (k)

كَيِكْ k e y i k – aslida yovvoyi bo‘lgan har narsa. Bu so‘z eti yeyiladigan: *ohu, bug‘u, arxar*larga nisbatan qo‘llanadi.

كَيِكْ k e y i k: كَيِكْ كِشِي keyik kishi – suvda yashashiga ishoniladigan odam shaklidagi bir oyoqli hayvon.

كَيِكْ k e y i k: كَيِكْ سُكُتْ keyik sögo‘t – yovvoyi daraxt***. Har bir narsa ikki xil bo‘ladi: yovvoyi, xonaki. Yovvoyisiga كَيِكْ *keyik* deyiladi.

كُيُكْ k e y o‘ k **(519)** – namat va kigizlardan qilingan yomg‘ir yopinchig‘i*. ذ ni ى ga aylantiruvchilar tilida shundaydir.

كُيُكْ k ö y o‘ k: كُيُكْ نانكْ köyo‘k**** neŋ – kuygan narsa.

ل *(l)*

مَيِلْ m a y ï l: مَيِلْ يَمِشْ mayïl yemish – pishgan shaftoli va qovun kabilarning vaqtidan o‘tib, irishga yaqinlashishi.

م *(m)*

قِيمْ q ï y ï m – dushman kelishi sababli mamlakat xalqlarida paydo bo‘lgan qo‘rqinch va tashvish. Chunonchi, قُرْقُنجْ قِيم بُلْدِي qorquncḥ qïyïm boldï – *qo‘rqinchli va dahshatli bo‘ldi* deyilgandagi kabi.

---

* Olmaota nashrida: *yaduk.*

** V.Radlovda va Olmaota nashrida: *tol.*

*** Olmaota nashrida: *namat qalpoq.*

**** Olmaota nashrida: *kuyuk.*

كيم كيم k i m-k i m[219] اُلْ كيم كيم كُونْ كَجُرْدي o‘l kim-kim ko‘n kecho‘rdi – u na ishladi, na dam oldi, xullas, yalqovlik bilan kun o‘tkazdi.

ن (n)

بُيِنْ b o‘ y ï n* – bo‘yin. Odam bo‘yni. Qilich dastasiga قِلِجْ بُيْنِي *qïlïch bo‘ynï* deyiladi. Shuningdek, pichoq dastasiga بِجاكْ بُيْنِي *bichïk bo‘ynï* deyiladi.

بُيُنْ b o‘ y y n – jamoa**. ذ ini ى ga almashtiradiganlar tilida.

تُيِنْ t u y ï n: تُيِنْ اَرْ tuyïn er – baxil, pastkash, siqiq odam.

تُيِنْ t o‘ y i n[220]*** – islom dinida bo‘lmaganlarning boshlig‘i. U bizlarning olimlarimiz, muftilarimiz darajasidagi odamdir. U doim butxona yonida bo‘ladi, kufr kitoblar qoidalarini o‘qiydi. Uning sharridan Xudodan panoh tilaymiz. Maqolda shunday kelgan:

بِيرْ تُيِنْ بَشِي اَغْرِيسا قَمو غْ تُيِنْ بَشِي اَغْرِيماسْ

Bir to‘yïn bashï ag‘rïsa qamug‘ to‘yïn bashï ag‘rïmas

Bir din boshlig‘ining boshi og‘risa hamma din boshliqlarining boshi og‘rimaydi. Bu maqol o‘rtoqlari orasida ular yegan bir narsani yeyishdan tortingan kishilarga nisbatan qo‘llanadi.

Bu bo‘limning matviylari

قَيا q a y a – tog‘lardagi katta qattiq tosh[221], qoya.

---

[219] Bosma nusxada bu so‘zning yozilishida aniqsizlik bor.

* V.Radlovda: *vojup.*

** V.Radlovda, Olmaota nashrida: *xalq.*

[220] “Devon…”da ikki xil ma’noda izohlangan تُيِنْ *to‘yïn* so‘zi Navoiy asarlarida ham uchraydi. Lekin Navoiy asarida tamom boshqa ma’noda – terisidan qimmatbaho po‘stin qilinadigan ov hayvoni ma’nosida qo‘llangan:

*To‘yin*ning o‘z tuki o‘q bo‘ldi boshiga ofat,
Furaysaning paridan keldi o‘z boshig‘a balo.

Tarjimasi: To‘yinni ovchilar doim payidan bo‘lib ovlashlariga sabab – terisining po‘stinbopligi bo‘lsa, furaysa qushini ham ovlashlariga sabab – uning o‘z paridir. Uning parini ko‘kyo‘tal bo‘lgan bolalarga kuydirib ichirar edilar.

*** Olmaota nashrida: *tuyin;* V.Radlovda: *toĭn// tojun.*

[221] Navoiyda bu so‘z xuddi shu ma’noda uchraydi:

To‘kub Farhodning ul holig‘a yosh,
Qungardi ul *qoya*din bir og‘ir tosh.
Eshittim bu *qoya* uzra vatan goh,
Tutub sen ul sifatkim taxt uza shoh.

قِيا q ï y a – tarkibida غ– *g‘*, ق– *q* harflari bo‘lgan va umuman, qattiq so‘zlarda qo‘llanuvchi kichraytish qo‘shimchasi. Chunonchi: أُغْلَقِيا og‘ulqïya – *o‘g‘ilcham,* قِيزْقِيا qïzqïya – *qizcham* kabi.

ك(k)

كُيا k o‘ y ä – namat va boshqalarni yeydigan kuya qurti.

كِيا k i y ä – tarkibida ك – *k*, گ – *g* harflari bo‘lgan va, umuman, yumshoq, yengil tovushli so‘zlarda qo‘llanuvchi kichraytish qo‘shimchasi. Chunonchi: أَرْكِيا er-kiyä – *ergina,* يِيرْكِيا y e r k i y ä – *ercha* kabi[222].

ن(n)

يَنا y a n a – qaytib kelish ma’nosini anglatadi. يَنا كَلْدِمْ yana keldim – *qaytdim, ikkinchi qayta keldim*, demakdir[223]

Bu bo‘limning boshqa bir turi (520)

يَيا y e y a – inson dumbasi. Faqat odamlarga xosdir. Ismlardan bu bo‘lim talaffuzda ham, yozuvda ham qisqartirilmaydi. Chunki bu so‘zlardagi o‘rta tovushlar harakatlidir. Faqat o‘rtasi sukunli so‘zlardagina qisqartiriladi.

Mujarrad so‘zlar bo‘limi tugadi.

---

[222] Mahmud Koshg‘ariyning bu affiks ikki variantini ko‘rsatishi ham bu affiksning, bir tarafdan, juda qadimgiligini ko‘rsatsa, ikkinchidan, uning o‘sha davr tilida keng qo‘llanganligidan ham dalolat beradi. Darhaqiqat, bu qo‘shimcha O‘rxun yodgorliklarida ham uchraydi. “Kutadg‘u bilik”da ham tez-tez uchraydi. Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra, bu qo‘shimcha u davr tilida kichraytish bilan birga, erkalash ottenkalarida ham qo‘llangan.

Hozirgi o‘zbek tilida uni kichraytish ma’nosida qo‘llash toraygan bo‘lsa ham, erkalash va boshqa ma’nosi ancha kengaygan:

a) jonlilarga nisbatan muhabbat ottenkasi: *bolaginam, onaginam* kabi.

b) jonsizlarga nisbatan suyush, erkalash ottenkasi: *oppoqqina, yumshoqqina* kabi.

c) ta’kid ottenkasi: *birgina, undagina, quloqqagina* va boshqalar.

Navoiy asarlarida bu qo‘shimcha keng qo‘llangan:

Usru yolg‘on va’dasidin ko‘ymish erdi *jonginam.*
Ongdibon bir necha tushti ilgima *usrukgina.*
Tashlabon yumruqqina qildi ko‘zimni *ko‘kgina.*

[223] Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni lug‘at ma’nosi jihatidan izohlagan. Grammatik nuqtai nazardan bu so‘z biriktiruvchi vosita bo‘lib, gaplarni ham bir-biriga bog‘lagan. Gapdagi so‘zlarni ham bir-biriga bog‘lashga xizmat qilgan. “Qutadg‘u bilik”da bu so‘z tez-tez uchraydi:

Yana jang‘u ermäs jigitlik chag‘i.

Buning *yemä* shakli ham uchraydi:

Bilär epcä sag‘ïsh *yema* handasa.

فاعَلْ FA'EL SHAKLIDAGI ZIYODALILAR BO'LIMI

ن (n)

تادُنْ t a d u n – bir yoshli buzoq.

تُوذُونْ t u z u n – suvni qishloq ahllariga taqsimlovchi kishi (mirob).

تِيذِينْ t ï z ï n – vaqtida, chog'ida, paytida. بُو تِيذِينْ كَلْدِي bu tïzïn keldi – ayni vaqtda keldi*.

فَعالْ FA'OL SHAKLIDAGI SO'ZLAR BO'LIMI

ت (t)

بَياتْ b a y a t – ulug' Tangrining nomi (arg'ular tilida).

بَياتْ b a y a t – o'g'uz qabilalaridan birining nomi.

ر (r)

قُيارْ q u y a r – hayvonlar va qullarga nisbatan qo'llanadigan so'kish so'zi. بُو قُيارِي bu qyyapï – bu og'zidan so'lak oqizadigan tuyadir**. سُوقْ قُيْدِي *cyw quydï* gapidagi quydï so'zi – suv va boshqa suyuqliklarni to'kdi, degan ma'noni anglatadi[224].

س (s)

قَياسْ q a y a s – to'xsi va chigillarda shaharlar nomi*. Uch shahar shunday ataladi. Birinchisi – سابْلِغْ قَياسْ Saplïg' Qayas, ikkinchisi – اُرُنكْ قَياسْ Öro'n Qayas, uchinchisi – قرا قياسْ Qara Qayas.

قُياشْ q u y a sh – qattiq issiq, oftob urishi.[225]

---

* V.Radlovda: *u ana shu vaqtda keldi;* Olmaota nashrida: *u taxminan falonchi vaqtda keldi.*

** Olmaota nashrida: uning qizi to'kish bilan birga tupuradi ham.

[224] Basim Atalay (arabcha matn) بو قُيارى اَىْ هَذا صابٌّ وَ ماجٌّ بِنْتُهُ iborasining بُو قُيادِي اَىْ هَذا صابٌّ وَ ماجٌّ بغيه shaklda bo'lishi to'g'ri deb izoh bergan. Darhaqiqat, بِنْتُهُ degan so'z bu yerda o'rinsiz tushgan. Basim Atalay bu so'z o'rniga بغيه bo'lishini muvofiq topgan. Lekin ماجٌّ so'zining o'zidan shu ma'no anglashiladi. Og'zidan suv oqadigan tuya demak. Demak, بغيه dan ko'ra yana boshqa biror so'z muvofiq bo'lar edi.

*** Olmaota nashri: tuxsi va chigillar mamlakati nomi. Unda uch qal'a ... bor.

[225] Hozirgi tilda quyosh kun so'ziga sinonim sifatida qo'llanadi. Demak bizga quyosh so'zining ma'nosi o'zgarib yetib kelgan. Bu o'zgarish Navoiy davridayoq yuzaga kelgan edi. Navoiy bu so'zni seviklilar yuziga o'xshatib ham qo'llagan. Lekin Navoiyda buning sinonimi sifatida mehr, xurshid, shams va boshqa so'zlar ham qo'llangan.

غ *(g‘)*

اَياغْ a y a g‘ – laqab, so‘ng qo‘yilgan ot**. She’rda shunday kelgan:

[XXXI]

قُذْغِلْ مَنكا اَقيلِقْ بُلْسُنْ مَنكا اَياغا
إذغِلْ مَنى تُقشْغا يُقْكِلْ مَنكا اَلاغا

Qözg‘il meŋä aqïlïq[226] bolsun meŋä ayag‘a
Izg‘il meni toqïshg‘a yo‘wril meŋä ulag‘a.

Meni o‘z holimga qo‘y, toki birovlarga foyda beruvchi saxiy nomi menga qolsin. Meni jangga eltuvchi ot ber. U meni jangga eltsin.

ن *(n)*

مُيانْ m u y a n – yaxshilik, yaxshi ishlar. Yo‘lovchilarning suv ichishlariga mo‘ljallab qilingan “suvxona”ni مُيانْلِقْ muyanlïq deyish ham shundandir.

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلِي *fa’lo* shaklidagi so‘zlar

ج *(j)*

بُوجي b o j ï**: بُوجي قُبْزْ bojï qobuz – qilli cholg‘ulardan biri. Bu barbat – g‘oz ko‘krak nomi bilan ataluvchi cholg‘ularning bir xilidir.

د *(d)*

قَيْدا q a y d a – qayerda. قَيْدا سَنْ qaydasan – qayerdasan? Bu so‘zning قَنْدا *qanda* tarzida ن li shakli ham bor. Shu bilan birga, قَيُودا *qayuda* shakli ham bor.

كُيْدا k ö y d ä*** – tilla, kumushlar eritilib tozalanadigan, ko‘ra xizmatini bajaradigan maxsus idish.

---

* Olmaota nashri: *unvon.*

[226] *Aqi* – birovlarga foyda yetkazuvchi saxiy ma’nosidadir. Aqiylik – saxiylik demakdir. Navoiyda *axiy* shaklida uchraydi:

Qoida mundoqmu bo‘lur, de axiy,
Bir o‘z ishingning g‘amini e axiy.

** V.Radlovda: *bučï* (qo‘bizning bir turi).

*** Olmaota nashrida: *kuydä.*

ق *(q)*

قَيْقا q u y q a – teri. Bu so‘z aslida teriga qo‘llansa ham, ba’zan po‘stinga ham qo‘llanadi. اَلْ قُوبُغْ قُيْقالَدِي o‘l qoyug‘ quyqaladï – u qo‘y terisini qaynoq suvda tozaladi. Teri tukdan tozalandi va terisi ochiq ko‘rindi.

قِيْما q ï y m a قِيما أكْرا qïyma o‘grä – xamir chumchuqlar tili kabi yupqa va qing‘ir qilib kesiadi, so‘ng قِيْما أكْرا qïyma o‘grä deb ataladi.

قُيْما q u y m a – bir xil yog‘li non nomi. Sharbat bilan qorilgan xamir yupqa qilib kesiladi. So‘ng qozonda qaynayotgan yoqqa solib, aralashtirilib, keyin ustiga shakar sepib yeyiladigan yemak.

قُيْما q u y m a – har bir ma’dan moddalaridan bolg‘a bilan urish natijasida emas, balki quyish yo‘li bilan yasalgan (hovoncha, shamdon va bolg‘a kabi) narsalar *quyma* deyiladi.

TURLI HARAKATLAR BILAN QO‘LLANGAN فُعلٰى *FA’OLU* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI

ك**(g)**

تَيَاغُو t a y a g‘ y – tezak va kesak parchalar*.

تُريغا t o r ï g‘ a – to‘rg‘ay.

سُيَاغُو s u y a g‘ u – xo‘rozlar oyog‘idagi pix.

ك**(k)**

بِتِيكُو b i t i g o‘ – turklar va boshqalarning siyohdoni.

كُلِيكا k ö l i k ä – quyuq ko‘lanka.

م ***(m)***

قَلِيما q a l ï m a – to‘rt ustunli ochiq shiypon**.

اَكاما e g ä m ä – cholg‘ularning bir xili.

ك**(g)**

كُشْيكا k ö s h i g ä – kichik, yengil soya.

Bu bo‘limning misol turi

غ ***(g‘)***

يُريغا y o r ï g‘ a: يُريغا اَتْ jopïg‘a at – yo‘rg‘a ot.

ك**(g)**

يُلِيكُو y o‘ l i g o‘ – ustara. O‘g‘uzlar buni bilmaydilar. Uni گراى geräj* deydilar.

اَياگُو e y ä g o‘ – hayvon va boshqalarning ko‘krak suyagi***.

فَعْلانْ *FA’LON* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI

غ ***(g‘)***

تَيْغانْ t a y g‘ a n – chopqir it, tozi. Maqolda shunday kelgan:

تَيْغانْ يُگْرُكِنْ تِيلْگُو سَمْسانْ

Tayg‘an yo‘gro‘gin**** tilko‘ sewmäc

---

* V.Radlovda: *loy va tezak qumaloqlari*; Olmaota nashrida: *yoy o‘qi; o‘qi* (masalan aravaning)

** V.Radlovda: *uyning to‘ri*; Olmaota nashrida: *xona.*

*** V.Radlovda: *kegäj;* Olmaota nashrida: *karay.*

**** V.Radlovda: *yon;* Olmaota nashrida: *hayvonning qovurg‘asi.*

*** Olmaota nashrida: *yukurkun.*

Tulki yuguruk tozini yaxshi ko‘rmaydi. **(522)**

Bu maqol bir-biridan o‘zini katta olib, xusumat qiladigan ikki olimga tegizib aytiladi.

ك(g)

كَيْكَانْ k e y g ă n – Qajasdan Ilaga oqadigan ikki soy nomi. Ularning biriga كِچِكْ كَيْكَانْ Kichik Keygan, ikkinchisiga اُلُغْ كَيْكَانْ Ulug‘ Keygăn deydilarki, kichik, katta anhorlar demakdir.

HAR XIL HARAKATLAR BILAN فيعل *FAY'AL* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI

ج *(ch)*

قِيْمَجْ q ï y m a ch*: قِيْمَجْ بُرِكْ qïjmach börk – uzun, mayin, oq echki yungidan qilingan oq qalpoq. Uni chigillar kiyadilar.

ق *(q)*

بَيْنَقْ b a y n a q – irkitlik, go‘ng (o‘g‘uzcha) **.

بُيْنَقْ b o y n a q – tog‘ bo‘yni***.

بُيْنَقْ b o y n a q – kirtangkala deyilgan jonvor*.

قَيْغِقْ q a y g‘ ï q – qayiq.

مَيْغُقْ m a j g‘ u q – tuksiz odam yoki tuksiz, qisqa tukli hayvon**

ك(k)

كَيْلِكْ k e y l i k – maymun*** Har tarafga qarab yuradigan hushsiz yoki yovvoyi odamlar ham bunga o‘xshatilib, كَيْلِكْ كِشِى *kejlik kishi* deyiladi.

بُيْمَلْ b o y m a l****; بُيْمَلْ اَتْ bojmal at – bo‘ynida oqi bor ot. Shuningdek, qo‘y va boshqalarga ham bu so‘z qo‘llanadi.

م *(m)*

بَيْرَمْ b a y r a m – bayram || mayram[227] (o‘g‘uzcha). Men o‘ylayman, xalq tilida shodlik va xursandlik kuni ma’nosidagi بَذْرَمْ

---

* V.Radlov va Olmaota nashrida: *kaltakesak.*

** V.Radlovda: *mauvuq:* 1) oyog‘i qiyshiq; 2)tez yugura olmaydigan hayvon; Olmaota nashrida: *maymoq* yoki *tuyoqli hayvon.*

*** Olmaota nashrida: *nasnas* (bir oyoqli odam).

**** V.Radlov va Olmaota nashrida: *vuumul;* V.Radlovda buning ma’nosi: *qo‘lga o‘rgatilgan lochin.*

bazram so‘zi ana shu so‘z bilan bog‘lanadi, bu o‘rinda ma’no o‘zgarishi ro‘y bergan. Chunki johiliyat davrida bunday bir so‘zning kelib chiqishini talab qiladigan diniy bayramning o‘zi bo‘lmagan. Agar bo‘lganda edi, turkiy xalqlar uni bilgan bo‘lur edilar. Holbuki, uni bilmaydilar. Faqat ذ – *z* ni ى – *y* ga aylantirib talaffuz etuvchilargina biladilar.

جَيْدَمْ c h a y d a m – uy tiklanadigan, yomg‘irga qarshi yopinchiq ham qilinadigan bir turli yengil namat[228].

سَيْرَمْ s a y r a m – Oq shahar (مدينة البيضا) ham deb ataladigan, اِسْبِيجاب Ïcpïjab deb ham ataladigan shahar nomi[229]. Bu so‘zning سَرْيامْ *Capjam* shaklidagi talaffuzi ham bor.

سَيْرَمْ c a y p a m: سَيْرَمْ سثوفْ sayram cyw – to‘piqdan past oqadigan, oz suvli soy.

Har xil harakatlar bilan qo‘llanadigan فِعالِلْ *fa’olil* shaklidagi so‘zlar

ق *(q)*

بَقانَيقْ b a q a n a q[230*] – ayri tuyoqlilarning ikkita tirnog‘i orasi va ikki tirnoqdan biri**.

بَقانُيقْ b a q a n u q*** – yilqi tirnoqlarining ustidagi va ostidagi et parchasi.

تُقِيمَقْ t o q ï m a q – kir yuvuvchining kirni uradigan tayog‘i.

---

[227] Basim Atalay Brokkelmanning بَيْرَمْ so‘zini بَدْرَمْ shaklida olganini, bu hozirgi talaffuzga xilof ekani haqida izoh bergan (qarang: “Devon” tarjimasi, III tom, 175-bet).

[228] Basim Atalay bu so‘z bosma va yozma nusxalarda جِيْدَمْ shaklida noaniq yozilganini qayd qilgan.

[229] Basim Atalay negadir Ispijobni hozirgi *Chimkent* deb izoh bergan.

[230] *Baqanak* va *baqanuk* ning yozilishidagi aniqsizlik haqida Basim Atalay izoh berib har ikki xil o‘qilish ham to‘g‘riligini, ular hozir Turkiyada *boqanak* degan so‘zga to‘g‘ri kelishini aytgan.

* Olmaota nashrida: *bakayak, bakayuk.*

** B.Radlovda: vaqanaq – juft tuyoqlilar tuyog‘i orasidagi ochiqlik. *Baqauuq* – ot tuyoqlari orasidagi et parchasi.

*** Olmaota nashrida unvon so‘z sifatida *yabitaq* olingan.

[231] Bu so‘z bosma nusxada يُبِيقْ shaklida, Basim Atalayda esa boshqa shaklda berilgan (Qarang: „Devon...” tarjimasi, III jild. 177-b). Bizda hozir bu so‘z يَيْداقْ shaklida qo‘llanadi.

قِيَاجَقْ q a y a c h u q – hushbo‘y **(523)** bir xil tog‘ o‘simligi. Men sukud yaprog‘iga yoki turfa yaprog‘iga o‘xshaydigan bir o‘t yoki za’faron bo‘lsa kerak deb hisoblayman.

Bu bo‘limning misol turi

مُنْدِي m o‘ n d i – mindi. اَرْ اَتِنْ بِيِتَنْ مُنْدِي ep atïn yapitaq[232] mundi – odam otini yaydoq, egarsiz, to‘qimsiz mindi.

BESH HARFLILAR

Har xil harakatlar bilan qo‘llanadigan فَعْلَعِلْ *fa’al’al* shaklidagi so‘zlar

قِيرْلِغْ q a y ï r l ï g‘*: قِيرْلِغْ يِيرْ qajïrlïg‘ yer – ko‘pchigan yer.

قُيَسْلِغْ q u y a s l ï g‘: قُيَسْلِغْ اَرْ qujaslïg‘ er – Quyas shahrilik odam.

تُيَغْلِغْ t u y a g‘ l ï g‘: تُيَغْلِغْ يِلْقِي tujag‘lïg‘ jïlqï – tirnoqli hayvon.

ق *(q)*

قُيُغْلُغْ q u y u g‘ l u g‘ – quyuqlik.

O‘rtasi sukunli bo‘lgan so‘zlar

سَنْدُواجْ s a n d u v a ch – bulbul. She’rda shunday kelgan:

[XXXII]

سَنْداً فَجَرْ سُنْدلاجْ
مَنْدا تِنَرْ قَرْغِلاجْ
تَتْلِغْ اُتَرْ سَنْدُواجْ
اَرْكَكْ تِشِي اُجْرُشُورْ

Sendän** qachar sundïlach,
Mendä tïnar qarg‘ïlach.
Tatlïg‘ ötär sanduvach,
Erkäk tishi uchrushur.

---

* Olmaota nashrida: *kirlig* – toptalgan yer

** Olmaota nashrida: *sandä.*

Yoz bilan qish tortishuvini ta'riflab, shunday deydi: yoz qishga aytadi: sa'va[233] sendan qochadi. Qaldirg'och va boshqa qushlar menda bo'ladi. Menda bulbul yoqimli sayrashi bilan odamlarni shodlantiradi. Butun yoz nor va moda qushlar juft-juft bo'lib qo'shilishadi.

ق *(q)*

بُلْغَيُقْ b u l g' a y u q: بُلْغَيُقْ سُوفْ bulg'ayuq cyw – loyqa[234], bo'tana suv.

سَرْقَيِقْ s a r q a y i q* – har narsaning ichi. Bu so'zning ن – *n* bilan سَرْقَنِقْ *sarqanïq* shakli ham bor. Bu xususiyat arab tilidagi ميزابٌ و مِنْزابٌ. مِيشارٌ و مِنْشارٌ *minshar* tarzida ikki xil qo'llashga mosdir.

قُدُوجَقْ q u d u c h a q[235] – quyruq so'ngagi.

Bu bo'limning boshqa bir turi

بَيْبَيُقْ b a y b a y u q – sayrashi bilan kishini shodlantiruvchi qushlardan bir xili. U inini daraxt butoqlari orasiga zanbil shaklida quradi, bir chekkasidan kichik teshik qo'yib, undan kirib-chiqib turadi.

OLTI HARFLILAR BO'LIMI

ق *(q)*

بُيُنْدُرُوقْ b o y u n d u r u q – bo'yinturuq. U yog'ochdan maxsus shaklda yasalib, qo'sh ho'kizlarning bo'yinlariga solinadi.

مُيَنْجِلِقْ m u y a n ch ï l ï q – vositalik, ikki kishi orasida kelishtiruvchilik qilish. سَنْ مُيَنْجِلِقْ قِلْ sen myyanchïlïq qïl – sen bizlarning oramizda vosita bo'l, o'rtaga tush. Bu so'zning asli yaxshilik ma'nosidagi مُيانْ *muyan*dir.

Manqus bo'limidan ismlar bobi tugadi. **(524)**

---

[233] *Yund qushi* deb ataladigan kichik bir qush.

[234] Bu ma'noda bizda hozirgi lahjalarda *loyqa,* ayrim lahjalarda *bo'tacha* va *bulg'onchiq* so'zlari ham qo'llanadi.

* Olmaota nashrida: *sarkiyik;* Bu so'zning ma'nosi V.Radlov va Olmaota nashrida *ichak-chovoq* deb berilgan.

[235] Bu so'z haqida Basim Atalay izoh bergan, uning izohiga ko'ra, bu so'z yozma va bosma nusxalarda shunday قُدُوجَقْ *quduchaq* shaklida yozilgan bo'lsa ham xato emish, قُدْرُوجَقْ *qudruchaq* bo'lishi to'g'ri emish? (Qarang: "Devon" tarjimasi, III jild. 179-b).

MANQUS FE'LLAR BOBI
Ikki harfli fe'llar bo'limi

چ (ch)

كِيجْتي k e c h t i – kechikdi. اَرْ كِيجْتي er kechti – odam ishdan kechikdi* كِيجْماكْ .كِيجارْ kechar, kechmak).

ر (r)

بُرْدي b u r d ï – hidi chiqdi. پِيارْ بُرْدي yïpar burdï – iporning hidi chiqdi. سُوفْ بُرْدي suw burdï[236] – suv bug'i ko'tarildi, bug'landi. Har bir narsa yaxshi hid chiqarib, bug'lansa ham, shunday deyiladi. (بُرارْ .بُرْماقْ burar, burmaq).

بِيرْدي b e r d i – berdi. اُلْ مَنْكا يَرْماقْ بِيرْدي o'l mena jarmaq berdi – u menga tanga (pul) berdi. (بِيرُرْ .بِيرْماك bero'r, bermäk).

تارْدي t a r d ï – taratdi. بَكْ سُوسِنْ تارْدي beg susin tardï – bek askarini taratdi. Shuningdek, biror narsasini taratgan har kimga ham bu so'z qo'llanadi. (تارارْ .تارْماقْ tarar, tarmaq)

تُرْدي t u r d ï: اَرْ يُقارُو تُرْدي er yuqaru turdï – odam yuqori turdi**. Boshqalari ham shunday. (تُرُورْ .تُرْماقْ turur, turmaq).

تُورُرْ t u r u r – o'tgan zamon va masdar shakllari bo'lmagan kelasi zamon fe'lidir. Bu so'z arabcha يَدَعُ *yada'u* va يَذَعُ *yaza'u* so'zlariga mos keladi. So'zlanayotgan narsa vaqtda o'z o'rnida barqaror ekanini anglatadi. Chunonchi: اُلْ اَقدا تُورُرْ ol ewdä turur, ya'ni u uyda bor, demakdir. Bu gapda bu so'z tik turmoq ma'nosida emasdir yoki اَرْ سُكَلْ تُورُرْ er sögäl turur – odam kasaldir, demakdir. Bu yerda *tik turmoq* ma'nosida emasdir.

تُورْدي t u r d ï – oriqladi. اَتْ تُورْدي at turdï – ot oriqladi. Boshqalari ham shunday. (تُورارْ .تُورْماقْ turar, turmaq).

تِيرْدي t e r d ï – to'pladi. اُلْ تَفْ تِيرْدي o'l tawap terdi – u mol to'pladi. Boshqalari ham shunday. (تِيرارْ .تِيرْماكْ terär, termäk).

---

* Olmaota nashrida: *kechiktirdi.*

[236] Hozirgi o'zbek tilida *chang, tutun, bug' va hidlarga* nisbatan qo'llanuvchi *burqiramoq* so'zi ana shu o'zakdandir. To'zon *burqirab* ketipti. Oshxonadan tutun burqirab chiqmoqda edi va boshqalar.

** Olmaota nashrida: *odam o'rnidan turdi; odam tik turdi.*

سارْدي s e r d i: اُلْ اَني سارْدي o'l anï serdi – u unga qo'pol muomala qildi, dag'al so'z so'zladi. (سَرْماكْ .سَرارْ (serär, sermäk)[237].

سُرْدي s o' r d ï – so'rdi, emdi. كَنْجْ سُوتْ سُرْدي kench so't sördï – bola sutni emdi. Boshqalari ham shunday.

سُرْدي s o' r d ï – so'radi. اَرْ سُوزْ سُرْدي er söz so'rdï – odam bir xabarni so'radi[238*].

سُوْرْدي s o' r d ï – qidirdi, so'roqladi, istadi. اَرْ يِتْكْ سُوْرْدي er yito'k sordï – odam yo'qolgan narsasini qidirdi, izladi. Bu ikki so'z o'g'uzchadir (سُورارْ .سُوْرْماقْ so'rar, so'rmaq).

قارْدي q a r d ï اَرْ سُقْقا قارْدي er cywqa qardï – odam suvdan nurlandi (suv vositasi bilan tozalandi)[**].

قارْدي q a r d ï – toshdi. سُوقْ اَرِقْتِنْ قارْدي **(525)** cyw arïqtïn qardï[***] – qishda suv ariqdan toshdi. Bu anhordagi qor va suvlar muzlab, suv muz ustiga chiqib toshishidir (قارْماقْ .قارارْ qarar, qarmaq).

ز *(z)*

تُوزْدي t ö z d ï – ochiq(di), och qol(di) اَرْ تُمْلُغْقا تُوزْدي er tumlug'qa tözdi – odam sovuqdan ochiqdi (.تُوزارْ تُوزْماكْ tözär, tözmäk – qipchoqcha).

سِيزْدي s ï z d ï – eridi. ياغْ سِيزْدي yag' sïzdï – yog' eridi.

سِيزْدي s ï z d ï – sizdi. اُلْمادِنْ سُوقْ سِيزْدي olmadïn cyw sïzdï – ko'zadan (va boshqa idishlardan) suv sizdi.

---

[237] Basim Atalay izohiga ko'ra, سُرْماكْ qo'lyozmada aniq shu shaklda yozilgan bo'lsa ham, so'ng tuzatish kiritilib, سُرْماقْ shakli hosil bo'lgan ekan (Qarang: "Devon" tarjimasi, Sh jild. 181-b).

[238] Ko'rinadiki, XI asr tilida *so'rmoq* so'zi ko'p ma'noli so'zlardan edi. Hozirgi o'zbek tilida ham bu so'zning shu ma'nolari to'la saqlangan. Shu bilan bu so'zga yangi ma'no ham yuklangan. Lekin o'zbek tilida ikki xil shakl – *so'rmoq* va *so'ramoq* shakllarida qo'llash odatlangan. Balki hozirgi tilda shu asosda differentsiatsiya qilingan: *emmoq* ma'nosida asosan *so'rmoq;* savol qilmoq, izlamoq ma'nosida *so'ramoq* qo'llana boshlagan. Lekin bu hol Navoiydan so'ng yuzaga kelgan. Chunki Navoiyda har uch ma'noda ham *so'rmoq* qo'llangan:

Yor dardim *so'rmayin* ko'nglimni mahzun qildila.
Adashqan, yo'lda qolg'an zoru hayronini *so'rmasmu.*

[*] Olmaota nashrida: *kishi yangiliklarni surishtirdi.*

[**] Olmaota nashrida: *suvga tikildi; ichiga suv ketdi.*

[***] Olmaota nashrida: *sovqotdi: kishi rosa sovqotdi.*

سِيزْدِي s ï z d ï: كُونْ سِيزْدِي ko‘n sïzdï – kun ko‘rindi. Bu – quyoshning sharqdan ko‘rina boshlashidir. (سِيزارْ. سِيزْماقْ sïzar, sïzmaq).

ش *(sh)*

قِيشْدِي q ï s h d ï – qiyshaydi. اَرْ يُولْدَنْ قِيشْدِي er yo‘ldan qïshdï – odam yo‘ldan qayrildi, chekildi. Shuningdek, quyosh osmon o‘rtasidan og‘sa ham shu so‘z qo‘llanadi[239].

تُوغْدِي t u g‘ d ï – ko‘tarildi. تُوغْدِي تُوغْ tug‘ tug‘dï – to‘zon ko‘tarildi. (تُوغْماقْ. تُوغارْ tug‘ar, tug‘maq).

She’rda shunday kelgan:

[XXXIII]

اَغْدِي قِزِلْ بَيْراقْ
تُوغْدِي قَرا تُبْراقْ
يِتْشُو كَلِبْ اُغْراقْ
تُقْشِبْ اَنِنْ كَجْتِمِزْ

Ag‘dï qïzïl bayraq*
Tug‘dï qara topraq
Yetsho‘ kelïb og‘raq
Toqshïp änin kechtimiz.

Musulmon askarlarining qizil bayroqlari ko‘tarildi. Qora tuproq yuqori ko‘tarildi. Bizlarga o‘g‘roq otliqlari ham kelib qo‘shildilar. Hammamiz qo‘shilishib jang qildik**. Shuning uchun qaytishda kechikdik.

---

[239] Basim Atalay izohiga ko‘ra, bu so‘zlar yozma nusxada قِيشارْ قِيشْماقْ. قِيشْدِي shaklida ekan. Basim Atalay bularning hammasining ham xato ekanini, to‘g‘risi قَيْدِي. قَيارْ. قَيْماقْ *qaydï,* qayar, *qaymaq* bo‘lishi kerakligini uqtirgan. Unga ko‘ra, bu bob, birinchidan, *-shli* birgalik daraja bobi emas, balki ikki harfli fe’llar bobidir, ikkinchidan, bu so‘z devonning III jild 142-betida berilgan ekan. Shu bilan birga, bu so‘z Radlov lug‘atidan usmonlilarga oid so‘zligi ma’lum bo‘lsa ham, *dog‘u* (“dog‘u” tili yo‘q, u sharqiy tillar degani) tilida *qiyshaymoq* ekanini keng izohlagan. Bizningcha, bir bob orasiga boshqa bir bob so‘zi ba’zan tushib qolishi uni butunlay yanglish deyishga asos bo‘la olmaydi. 142-betda berilgan قِيشْماقْ. قِيشارْ. قِيشْدِي fe’li tamoman boshqa ma’noda, ya’ni *g‘amxo‘rlik qilmoq* ma’nosidadir.

* Olmaota nashrida: *baträk.*

** Olmaota nashrida: *o‘g‘roq otliqlari bizga yetib kelib, barchasi bizga qarshi jang qilishdi.*

ۋ *(w)*

ايۋدي e w d i – shoshildi, اَر ايۋدي er ewdi – odam shoshildi. (ايۋماك ايۋار. ewar, ewmäk).

قُويدي q u w d ï – haydaldi, choptirdi. اَر اَتِنْ قُويدي er atïn quwdï – odam otini haydadi. Boshqalari ham shunday[240].

جِيقدي j ï q d ï – namlandi. تُونْ جِيقدي ton jïqdï – to‘n namlandi. Shuningdek, har narsa o‘ziga yerdan nam shimsa ham, bu so‘z qo‘llanadi. (جِيقماق جِيقار. jïqar, jïqmaq).

قُوقدي q o q d ï: اَتْ قُوقدي at qoqdï – go‘shtning hidi baland ko‘tarildi. Chiroq o‘chirilganda tutuni ko‘tarilishiga ham bu so‘z qo‘llanadi.

قُوقدي q o q d ï – cho‘kdi. سُوۋْ قُوقدي suw qoqdï – suv avvalgi holidan cho‘kdi va tindi.

قُوقدي q o q d ï: سِيشْ قُوقدي sïsh qoqdï – shish bosildi, tuzaldi (قُوقماقْ قُوقارْ. qoqar, qoqmaq).

ك *(g)*

تُوكدي t o‘ g d i – tuydi, maydaladi. اَرْ تُوزْ تُوكدي er to‘z to‘gdi – odam tuz tuydi. Boshqalari ham shunday[241]. (تُوكماكْ تُوكارْ. to‘gär, to‘gmäk). **(526)**

سُوكدي s ö k d i – so‘kdi. اُلْ اَنى سُوكدي o‘l anï sökdi – u uni so‘kdi. (سُوكماكْ سُوكارْ. sökär, sökmäk).

---

[240] Bu so‘zning kelasi zamon va masdar shakllari bosma nusxada berilmagan. Basim Atalay izohiga ko‘ra, qo‘lyozmada ham yo‘q ekan. II jild 13-14-betda berilganicha, قَقْوَپ قَقْوَرْ. *qywap, quwmaq* bo‘lishi kerak deb uqtirgan. Darhaqiqat, 14-betda bu so‘z bor.

[241] Hozirgi o‘zbek tilida ko‘pchilik shevalarda bu so‘z XI asrda qo‘llanganicha *tugmak* emas, *tuymak* tarzida qo‘llanadi. Shu bilan birga, bu so‘z ma’nosi hozirgi tilda bir oz kengaygan. Hozir faqatgina maydalamoq ma’nosida emas, shu bilan birga, *tozalamoq* ma’nosida ham qo‘llanadi. Chunonchi, *bug‘doy tuymoq* deganda *bug‘doy maydalamoq* ma’nosida bo‘lsa, *sholi tuymoq* deganda sholining po‘stini shilib tozalash ma’nosidadir. Demak, bu so‘z bizga, bir tomondan, bir tovush o‘zgarib yetib kelgan bo‘lsa, ikkinchidan, ma’nosi ham bir oz o‘zgarib yetib kelgandir. Bu izohdan *tuymoq*ning hozirgi o‘zbek tilidagi *sezmoq* ma’nosi u davr tilida yo‘q edimi, degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Chunki u davrda *sezmoq* hozirgi tildagiday *tuymoq* shakli bilan ifodalangan. Demak, *tugmak* va *tuymoq* so‘zlari ayri-ayri mustaqil so‘zlar sifatida qo‘llangan bo‘lsa, hozirgi tilda ular omonim holga ko‘chgan. Omonimlar tarixi uchun bu xususiyat ham xarakterlidir.

ن (n)

تانْدي t a n d ï – tondi. اُلْ اِلمْني تانْدي ol alïmnï tandï – u qarzini inkor qildi. Biror narsadan tonuvchi har bir kishiga ham bu so‘z qo‘llanadi. (تانْماقْ .تانَرْ tanar, tanmaq).

تُونْدي t ö n d i – qaytdi. اُلْ اَوْنْكا تُونْدي o‘l ewinğä töndi – u uyiga qaytdi (تُونْماكْ .تُونارْ tönar, tönmak – o‘g‘uzcha).

قانْدي q a n d ï – qondi. اُلْ سُوقْدِنْ o‘l suwdïn qandï – u suvga qondi. (قانْماقْ .قانَرْ qanar, qanmaq).

قُونْدي q o n d ï – qo‘ndi, biror narsaga joylashdi. قُشْ قُونْدي qush qondï – qush qo‘ndi, biror narsaga joylashdi. بُذُونْ قُونْدي buzun qondï – qabila (biror yerga) ko‘chgandan so‘ng qo‘ndi. (.قُونارْ قُونْماقْ qonar, qonmaq).

Bu bo‘limning misol turi

يِيرْدي y ï r d ï – yirgandi, jirkandi. اَرْ اَشِغْ يِيرْدي er ashïg‘ yïrdï – odam oshdan yirgandi, jirkandi.

*يِيرْدي y e r d ï – jerkdi[242], ta’zir berdi. اُلْ اَرِكْ يِيرْدي o‘l erig yerdi – u odamni jerkdi. (يِيرْماكْ .يِيرارْ yerär, yermäk – o‘g‘uzcha).

يُورْدي y ö r d i – yechdi. اُراغُتْ اُغْلِنْ بَشِكْتِنْ يُورْدي urag‘ut og‘lïn beshiktin jördi – xotin bolasini beshikdan yechdi. Bog‘lovidan yechilgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi. (يُورْماكْ .يُورارْ yörär, yörmäk).

ل (l)

يِيلْدي y e l d i – yeyildi. اَشْ يِيلْدي ash jeldi – osh yeyildi. Boshqalari ham shunday. (يِيلْماكْ .يِيلُورْ yelo‘r, yelmak).

Bu bo‘lim faqat ikki harfli *yo* uch harflilar bobi bo‘lmagani uchun bunga ikki undoshlilardan ham keltirib qo‘shdik. Chunki ular talaffuzda qisqaroq va ravshanroqdir. Bunday so‘zlar arab harflari bilan yozilganda, ikki harf bilan yoziladi. Turkiy harflar bilan yozilganda, yuqorida ko‘rilgandek, cho‘zg‘i harflar orttiriladi.

---

* Olmaota nashrida *yïrdï* va *yerdï* ning har ikkalasi ham *yir* shaklida berilgan.

[242] Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida ى harfini ج - *J* ga aylantirish o‘g‘uzlar bilan turk qabilasi orasidagi qabilaviy farq deb ko‘rsatgan edi (Qarang: “Devon...” tarjimasi, I jild. 6-7-b). Bir qancha so‘zlar bizga *j* lashib yetib kelishi tilshunoslar diqqatiga loyiqdir. Chunonchi, *jermak* > *jerkmak, jap* > *jap* tarzida yetib kelishi kabi.

UCH HARFLILAR

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعَلْدِي fa’aldi shaklidagi so‘zlar

ر (r)

بُيُرْدِي b u y u r d ï – buyurdi. اَنكَرْ اَيْلا بُيُرْدِي اُلْ o‘l aŋar ayla buyurdi – u unga shunday buyurdi** (بُيُرْماقْ .بُيُرْرْ byyypyp, buyurmak – o‘g‘uzcha).

باقِرْدِي b a q ï r d ï – bo‘kirdi. تَفْى باقِرْدِي tewey baqïrdï – tuya bo‘kirdi* – o‘g‘uzcha). (باقِرْماقْ .باقِرارْ baqïrar, baqïrmaq).

تاتُرْدِي t a t u r d ï – tottirdi. اُلْ مَنكا اَشْ تاتُرْدِي o‘l meŋa ash taturdï – u menga oshni tottirdi. Boshqalari ham shunday (.تاتُرْرْ تاتُرْماقْ taturur, taturmaq).

تِيتُرْدِي t e t o‘ r d ï: اُلْ اَندَغْ تِيتُرْدِي o‘l andag‘ teto‘rdi – u shunday dedirdi, shunday so‘z so‘zlatdi (تِيتُرْماكْ .تِيتُرْرْ teto‘rur, teto‘rmak).

تُوزَرْدِي t o‘ z a r d ï – to‘zon ko‘tarildi. تُوزْ تُوزَرْدِي to‘z **(527)** tozardï – to‘zon ko‘tarildi[243] (تُوزَماقْ .تُوزارْ to‘zar, to‘zmaq).

ساتُرْدِي s a t u r d ï – sanatdi. اُلْ اَنكَرْ قُوىْ ساتُرْدِي o‘l aŋar qoy saturdï – u unga qo‘y sanatdi. Boshqalari ham shunday (.ساتُرْرْ ساتُرْماق saturur, saturmaq).

سِيتُرْدِي s ï t u r d ï – kestirdi. سِيتُرْدِي اُل اُتُنكْ o‘l otun sïturdï – u o‘tin kestirdi (سِيتُرْماقْ .سِيتُرْرْ sïturur, sïturmaq).

قِيجُرْدِي q ï ch u r d ï: اُلْ اَنكَرْ قِيجُرْدِي o‘l aŋar qïchurdï – u unga malomat qildi, qoraladi, unga tushgan tashvish uchun shodlandi (قِيجُرْماقْ .قِيجُرَرْ qïchurar, qïchurmaq).

---

* Olmaota nashrida: *u unga u-bularni buyurdi*. V.Radlovda va Olmaota nashrida: *buyurur, buyurmak.*

** Hozirgi o‘zbek tilida *baqirmoq* faqat insonlar uchun *bo‘kirmoq* hayvon va insonlarga qo‘llanishiga e’tibor bering (B.I)

[243] Yuqorida shu gap (تُوزْ تُوزَرْدِي toz tozardi) ma’nosida تُوغْ تُوغدِي *tug‘dï* gapi berilgan edi. Bu hol u davr qabilalari tilini o‘rganish uchun muhimdir (Qarang: 99-b). Bu fe’lning kelasi zamon va masdar shakllari haqida Basim Atalay تُوزْماقْ .تُوزارْ emas, تُوزَرْماقْ .تُوزَرَرْ bo‘lishi to‘g‘ri deb izoh bergan (Qarang: “Devon...” tarjimasi, III jild. 186-b). Bu masala ham o‘rganishni talab qiladi.

كُوتُرْدِي k o‘ t t o‘ r d i – boqtirdi. اَنكَرْ قُوىْ كُوتُرْدى o‘l aŋar qoy ko‘tto‘rdi – u unga qo‘y boqtirdi[244]. Boshqalari ham shunday (كُوتُرْمَاكْ. كُوتُرْرْ ko‘tto‘ro‘r, ko‘tto‘rmäk).

كِيتَرْدِي k e t ä r d i – ketkizdi. اُلْ تَاشِغْ يُولْدَنْ كِيتَرْدِي o‘l tashïg‘ yoldan ketärdi – u toshni yo‘ldan jildirdi, olib tashladi. Har narsani o‘rnidan jildirishga ham bu so‘z qo‘llanadi (كِيتَرْمَاكْ. كِيتَرْرْ ketaro‘r, ketarmak).

كِيجُرْدِي k e c h u r d i – kechiktirdi. اُلْ تَاشِغْ كِيجُرْدِي o‘l ïshïg‘ kechurdi – u ishni kechiktirdi (كِيجُرْمَاكْ. كِيجُرُرْ kecho‘ro‘r, kecho‘rmäk).

كُيتُرْدِي k ö y t o‘ r d i* – kuydirdi, yondirdi. اَرْ اُتُنكْ كُيتُرْدِي er otuŋ köyto‘rdi – odam o‘tinni kuydirdi. Boshqalari ham shunday (كُيتُرْمَاكْ. كُيتُرْرْ köyo‘ro‘r, köyo‘rmak[245]).

ش *(sh)*

تَيشْدِي t a y ï sh d ï: اُلْ اَنِكْ بِرلا تَيشْدِي o‘l anïŋ birla tajïshdï – u u bilan toyishda bahslashdi (تَيشُورْ. تَيشْمَاقْ tayïshur, tayïshmaq).

سُيُشْدِي s o y y sh d ï – shilib olishdi. اُلْ مَنكا تَرى سُيُشْدِي o‘l meŋa teri soyushdï – u menga qo‘y terisini shilishga yordam berdi. Boshqalari ham shunday. Shuningdek, bu so‘z tuxum po‘chog‘ini archish, daraxt po‘stlog‘ini ajratishga ham qo‘llanadi (سُيُشُورْ. سُيُشْمَاقْ soyyshyp, soyushmaq[246]).

---

[244] Hozirgi o‘zbek tilida bu so‘zning ma’nosi ancha kengaygan. *Kutmak, poylamoq, mehmon qilmoq, kutib olmoq, qarshilamoq, tergatmak* va boshqalar.

* Olmaota nashrida: *kuyur.*

[245] Basim Atalay bu so‘z كُيُرْدِي *koyo‘rdi* bo‘lishi kerak deb izoh bergan (Qarang: “Devon...” tarjimasi, III jild. 187-b). Darhaqiqat, bosma nusxada bu so‘zlarda bir yanglishlik borligi haqida bir ishorat bor. Ammo arabcha ibora اَحْرَقَ الْحِطَبْ ga ko‘ra, so‘nggi fe’l shakllari ham كُيتُرْمَاكْ. كُيتُرْرْ *köto‘ro‘r, köturmak* bo‘lishi to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi.

[246] *So‘ymoq* so‘zi hozirgi o‘zbek tilida, asosan, *kesmoq* ma’nosida qo‘llanadi. *Qovun so‘ymoq, qo‘y so‘ymoq* va boshqalar. Faktlardan ma’lum bo‘lishicha, bu so‘zning qadimgi ma’nosi *shilmoq, yechib olmoq* ma’nolarining arxaik holga o‘tishi Navoiydan so‘ng paydo bo‘lgan. Chunki Navoiyda bu so‘z ana shu qadimgiday *shilib olmoq, yechib olmoq* ma’nolarida keng qo‘llangan:

O‘g‘ri to‘nin *so‘yg‘an* emas erdi bas,
Qolg‘anin ihdod olib ham asas.

Mazmuni: to‘nlarini o‘g‘rilar shilib olgani yetmaganday, qolgan-qutganlarini qorovul va mirshablar ham olib jazo berarlar edi. Yana bir misol:

To‘nini eltib yana bir rohizan,
O‘ylaki *so‘ygaylar* o‘lukdin kafan.

قَيِشْدي q a y ï sh d ï – achindi. اُلارْ اكّى بِيرْ بِيرْكا قَيِشْدي olar ikki bir-birga qayïshdï – ular ikkovi bir-biriga achinishdi, g‘amxo‘rlik qilishdi. (قَيِشْماقْ .قَيِشُورْ qayïshyr, qayïshmaq). She’rda shunday kelgan.

[XXXIV]

نَلُكْ اَنكَرْ بِلِشْتِمْ
قُجْشُنْ تقى قَقْشْتُمْ
تُزُنْلُكِنْ قَيِشْتِمْ
اَلْقْتي مَنِكْ يايِمي

Nelo‘k aŋar bïlïshtim
Quchshup[247] taqï qawushtum
To‘zo‘nlo‘g‘in qayïshtïm
Alqtï meniŋ yayïmï.

O‘ziga yomonlik qilgan birov haqida shoir shunday deydi: nega u bilan tanishdim, nega u bilan o‘rtoqlashib, apoq-chapoq bo‘ldim, unga yumshoqlik ko‘rsatib, mehribonlik qildim. U butun yoz vaqtimni bekorga ketkazdi.

قُيُشْدي q u y u sh d ï: اَلْ اَنكَرْ سُوقْ قُيُشْدي o‘l aŋar cyw qujushdï – y unga suv quyishda yordam berdi. Boshqalari ham shunday (قُيُشْماقْ .قُيُشُورْ quyushur, quyushmaq).

قِيِشْدي q ï y ï sh d ï: اُلْ مَنكا يِغاجْ قِيِشْدي o‘l meŋä jïg‘ach qïjïshdï – u menga yog‘ochni egib, bukib sindirishda* yordam berdi. Shuningdek, **(528)** bahslashish uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (قِيِشْماقْ .قِيِشُورْ qïyïshyp, qïyïshmaq).

مَيُشْدي m a y u s h d ï**: اَرْ بِيرْكا مَيُشْدي er yergä mayushdï[248] – odam o‘jarlik va yalqovligidan yerga yopishdi. (مَيُشْماقْ .مَيُشُورْ

Mazmuni: To‘nini yana bir yo‘lto‘sar, o‘likdan kafanni shilganday, yalang‘och qilib shilib olgan edi.

[247] *Quchushmoq, quchmoq* shakllari hozirgi o‘zbek tilida kam qo‘llanadi. Bu so‘z o‘rnida hozirgi tilda ko‘pincha *quchoqlamoq, quchoqlashmoq* shakllari qo‘llanadi. Lekin Navoiyda asosiy shakl qo‘llangan:

Zor yig‘lab ko‘rushtilar laxti,
Bir-birisin *quchushtilar* laxti.
Quchub etdi ko‘p iltifot anga,
Yangi boshdan berib hayot anga.

* V.Radlov va Olmaota nashrida: *u menga yog‘och qirqishdi.*

** V.Radlov va Olmaota nashrida: *majïshdï.*

majushur, majushmaq). Bu bir ish buyurilganda, u ishni qilishdan tortinishdir. Bu so‘zning metatezaga uchragan ko‘rinishi يَمَشْدِي *yamashdï* shakli* ham bor (مَيْشُورْ. مَيْشْماقْ yamashur, yamashmaq).

ق *(q)*

سُيُقْتِي s o y u q t ï**: اَرْ سُيُقْتِي er soyuqtï – odamning moli tortib olindi. (سُيُقْارْ. سُيُقْماقْ soyuqar, soyuqmaq).

سَيِقْتِي s a y ï q t ï: يِيرْ سَيِقْتِي yer sayïqtï – er (qora)*** toshli bo‘ldi. (سَيِقْارْ. سَيِقْماقْ sayïqar, sayïqmaq).

ل *(l)* ****

سُيُلْدِي s u y u l d ï بُلُتْ سُيُلْدِي bulut suyuldï – bulut siyraklashib taraldi, havo ochildi.

سُيُلْدِي soyuldï – shilindi. قُوىْ تَريسى سُيُلْدِي qoy terïsï soyuldï – qo‘y terisi shilindi.

سُيُلْدِي soyuldï***** – yechib olindi. اَرْدِنْ تُونْ سُيُلْدِي erdin ton soyuldï – odamdan to‘n yechib olindi. (سُيُلْمَاقْ. سُيُلْورْ soyulur, soyulmaq).

قُيُلْدِي q o y u l d ï – quyuldi. يُغُرتْ قُيُلْدِي yog‘yrt quyuldï – qatiq quyuldi. Har bir suyuq narsaning quyulishiga ham bu so‘z qo‘llanadi. (قُيُلْمَاقْ. قُيُلْورْ qoyulur, qoyulmaq).

قِيِلْدِي q ï y ï l d ï: كُونْ قِيِلْدِي ko‘n qïyïldï – kun og‘di.

قِيِلْدِي q ï y ï l d ï – o‘tdi. اُوزْ قِيِلْدِي öz qïyïldï****** – zamon o‘tdi.

قِيِلْدِي q ï y ï l d ï – kesildi*******. يِغاجْ قِيِلْدِي yïg‘ach qïyïldï – yog‘och egib, bukib kesildi.

قِيِلْدِي q ï y ï l d ï – (so‘zdan) qaytildi. سُوزْ قِيِلْدِي söz qïyïldï – so‘zdan, va’dadan qaytildi. (قِيِلْمَاقْ. قِيِلْورْ qïyïlur, qïyïlmaq).

مَيِلْدِي m a y ï l d ï – buzildi. قَاغُونْ مَيِلْدِي qag‘un mayïldï – sersuv qovun buzildi. Bu qovunning irib ishdan chiqishidir.

---

[248] Bu so‘z yozilishida aniqsizlik borligi, Basim Atalay uni tuzatgani haqida izoh bergan (Qarang: “Devon...” tarjimasi, III jild. 189-b). Bosma nusxada aniqsizlik yo‘q.

* Olmaota nashrida bu so‘z shakliga mustaqil so‘z sifatida qarab xatboshiga chiqargan.

** Olmaota nashrida: *suyukti.*

*** Bu yerda *qora* so‘zi juda ko‘p “katta” ma’nosida (B.I)

**** Olmaota nashrida buni *k* harfi bilan belgilagan, lekin matnda *k* harfi ishlatilgan so‘zning o‘zi yo‘q.

***** Olmaota nashrida bu uch so‘z bir shaklda olingan: *suyul.*

****** To‘g‘risi: اوز – *o‘z.*

******* V.Radlovda: *qiyshaytirib kesmoq.*

Boshqa mevalarga ham bu so‘z qo‘llanadi. (مَيِلْماقْ .مَيِلُورْ mayïlur, mayïlmaq).

ن *(n)*

تَيَنْدِي t a y a n d ï – tayandi. أَلْ مَنكا تَيَنْدِي o‘l meŋa tayandï – u menga tayandi. Har narsaga tayanish, suyanishga ham bu so‘z qo‘llanadi. (تَيَنْمَاقْ .تَيَنُورْ tayanur, tayanmaq).

قَيْنَدِي q a y n a d ï[249*] – qaynadi. أَشِجْ قَيْنَدِي ashïch qaynadï – qozon qaynadi. Boshqalari ham shunday. (قَيْنَمَاقْ .قَيْنَارْ qaynar, qaynamaq). Maqolda shunday kelgan:

قَيْنَارْ أُكُزْ كَجِكْ سِيزْ بُلْمَاسْ **(50)**

Qaynar öko‘z kechiksiz bolmas

To‘lib-toshadigan suv kusuvsiz bo‘lmaydi. Bu maqol – qayg‘uli, tashvishli ishning albatta bir shodligi bor, degan ma’noda qo‘llanadi.

قُيُنْدِي q u y u n d ï – quyundi. أَلْ أُوزُنكا سُوقْ قُيُنْدِي ol özo‘nä syw quyundï – u o‘z-o‘ziga **(529)** suv quydi (قُيُنْمَاقْ .قُيُنُورْ quyunur, quyunmaq).

Bu bo‘limning misol turi

ق *(q)*

يَيِقْتِي y a y ï q t ï – bahor bo‘ldi. أُوذْ يَيِقْتِي öz yayïqtï – vaqt bahor bo‘ldi. (يَيِقْمَاقْ .يَيِقَارْ yayïqar, yayïqmaq).

ل *(l)*

يَيِلْدِي y a y ï l d ï – qimirladi, silkindi. يِغَاجْ يَيِلْدِي yïg‘ach yayïldï – shamol va boshqa sabablardan daraxtlar qimirladi. Har bir narsa o‘z-o‘zidan harakatga tushib, qimirlab egilsa ham shu so‘z qo‘llanadi.

يَيِلْدِي y a y ï l d ï: سُو يَيِلْدِي yayïldï so‘ – askar va boshqalar taraldi. Bu so‘zning ذ bilan يَيِذْلْدِي *yazïldï* shakli ham bor (.يَيِلُورْ يَيِلْمَاقْ yayïlyr, yayïlmaq).

Bu bo‘limda o‘rtasi sukunli fe’llar yozuvda to‘rt harfli kabi ko‘rinsa ham, haqiqatda ular uch undoshlidir. Chunonchi, أَلْ قُويُغْ

---

[249] Bu so‘z bosma nusxada قَيْنَدِي *qaynadï* shaklida berilgan. Lekin bu shakl bu bo‘limga uyg‘un emasdir. Aslida قَيِنْدِي *qayïndï* bo‘lishi kerak edi. Basim Atalay izohiga ko‘ra, bu so‘z yozma nusxada ham xato shaklda berilgan ekan (Qarang: Basim Atalay tarjimasi, III jild. 191-b).

* V.Radlovda: *qayna //qayïna*; Olmaota nashrida: *qayina.*

باتُرْدي o‘l qoyug‘ baturdï – u qo‘yni bog‘latdi. ساتُرْدي saturdï – u qo‘yni sanatdi kabi. Boshqalari ham shunday.

TO‘RTLIKLAR BO‘LIMI

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَدي *fa’laldi* shaklidagi so‘zlar bo‘limi

تَيْتُرْدي t a y t u r d ï – toydirdi. اُلْ اَنى سُقْطا تَيْتُرْدي o‘l anï sywqa tayturdï – u uni suvga toydirdi. Boshqalari ham shunday (.تَيْتُرْرْ تَيْتُرْماقْ taytypyr, tayturmaq[250]).

تُيْتُرْدي t u y t y r d ï – tuydirdi. اُلْ مَنكا سُوزْ تُيْتُرْدي o‘l meŋa söz tuyturdï – u menga so‘z tuydirdi, so‘zni tushuntirdi (.تُيْتُرْرْ تُيْتُرْماكْ tyytypyp, tuyturmak).

قَيْتُرْدي q a y t u r d ï: اُلْ اَنكَرْ قَيْتُرْدي o‘l aŋar qayturdï – u birodariga yordam berib g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi (.قَيْتُرْرْ قَيْتُرْماقْ qayturur, qayturmaq).

قَيْتَرْدي q a y t a r d ï – qaytardi. اُلْ اَتىغْ قَيْتَرْدي ol atïg‘ qajtardï – u otni o‘z yo‘lidan qaytardi (.قَيْتَرْرْ قَيْتَرْماقْ qaytarur, qaytarmaq). Bu so‘z o‘g‘uzlar so‘zidir. Turklar قَتَرْدي *qatardï* deydilar.

قُيْتُرْدي q u y t u r d ï – quydirdi. اُلْ مَنِكْ اَلِككا سُوقْ قُيْتُرْدي o‘l meniŋ elikka cyw quyturdï – u mening qo‘limga suv quydirdi (.قُيْتُرْرْ قُيْتُرْماقْ quyturur, quyturmaq).

قِيْتُرْدي q ï y t u r d ï: اُلْ اَنكَرْ قَمِشْ قِيْتُرْدي o‘l aŋar qamïsh qïyturdï – u unga qamishni bukib kestirdi. Boshqalari ham shunday (.قِيْتُرْرْ قِيْتُرْماقْ qïytypyr, qïyturmaq).

كُيْتُرْدي k o‘ y t o‘ r d i – kuydirishga buyurdi. اُلْ اَنِكْ تُونِنْ كُيْتُرْدي o‘l anïŋ tonïn ko‘yto‘rdi – u uning to‘nini kuydirishga buyurdi. Boshqalari ham shunday. (.كُيْتُرْرْ كُيْتُرْماكْ ko‘yto‘ro‘r, ko‘yto‘rmäk). Bu so‘z fasih emasdir.

سَيْغِرْدي s a y g‘ ï r d ï: يِرْ سَيْغِرْدي yer sayg‘ïrdï – yer qora toshli bo‘layozdi (sayg‘ïpap, sayg‘ïrmaq).

قَيْغُرْدي q a y g‘ u r dï – qayg‘urdi. اَرْ قَيْغُرْدي er qayg‘urdï – odam qayg‘urdi. Bu so‘z ر bilan ham talaffuz qilinadi (.قَيْتُرارْ قَيْتُرْماقْ qayg‘urar, qayg‘urmaq).

---

[250] Bu so‘zlarning تَيْتُرْ .تَيْتُماقْ shakllarida yanglishlik bor. To‘g‘risi .تَيْتُرْرْ تَيْتُرْماقْ bo‘lishi haqida Basim Atalay izoh bergan (Qarang: “Devon...” tarjimasi, III jild. 192-b).

ش *(sh)*

بُيْمَشْدِي b u y m a s h d ï – chalkashdi, chuvalashdi . اِيشْ قَمُغْ بُيْمَشْدِي ïsh qamug‘ buymashdï – ish butunlay chuvalashdi. Boshqalari ham shunday (بُيْمَشْماقْ .بُيْمَشْوُرْ buymashur, buymash-maq).

سَيْرَشْدِي s a y r a s h d ï: اُلارْ تِلِمْ سَيْرَشْدِي لارْ o‘lar telim sayrashdïlar – ular xayolparastlardek ko‘p so‘zlar so‘zlashdilar. Yana: قُشْلارْ سَيْرَشْدِي kushlar sayrashdï – qushlar sayrashdi. She’rda shunday kelgan:

[XXXVI]

يَرُقْ يُلْدُزْ تُغَرْدا
اُذْنُو كَلِبْ بَقَرْمَنْ
ساتولَيُو سَيْرَشْبْ
تَتْلِغْ اُونُنْ قُشْ اُتارْ

Yaruq yulduz tug‘arda
Uznu kelip baqarmän
Satulayu sayrashïp
Tatlïg‘ o‘no‘n qush ötär.

Yorug‘ yulduz tug‘ar vaqtida uyqumdan uyg‘onib, daraxtlarga qarayman, qushlarning shodlantiruvchi yoqimli sayrashlarini tinglayman. (سَيْرَشْماقْ .سَيْرَشْوُرْ sayrashur, sayrash-maq).

قَيْرِشْدِي q a y r ï s h d ï: اُلارْ اِكّي بُيُونْ قَيْرِشْدِي olar ikki boyun qayrïshdï – ular ikkovi bir-birlari bilan bo‘yin qayirishda bahslashdilar. Boshqalari ham shunday (قَيْرِشْماق قَيْرِشْوُرْ qayrïshur, qayrïshmaq[251]).

قُيُلْشْدِي q u y u l u s h d ï*: تاغْدِنْ سُوقْلارْ قَمُغْ قُيُلْشْدِي tag‘dïn suwlar qamug‘ quyulushdï – butun suvlar tog‘dan quyilishdi, oqib keldi. Har bir suyuq narsa to‘kilishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (قُيُلْشْماقْ .قُيُلْشُوُرْ quyulushur, quyulushmaq).

---

[251] Basim Atalay bu so‘zlarning قَيْرِشْدِي. قَيْرِشْوُرْ. قَيْرِشْماقْ shakllari yanglish ekani, to‘g‘risi قَيْرِشْماقْ .قَيْرِشْوُرْ. قَيْرِشْدِي ekani haqida izoh bergan (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 195-b).

* V.Radlovda: *qujluš*.

قُيُلْشْدِي q o y u l u s h d ï** – quyulishdi, quyuqlashdi. سُوتْ لارْ قُيُلْشْدِي sutlär qoyulushdï – sut quyuqlashdi. Boshqa har bir oqadigan narsaning quyulishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (قُيُلْشُورْ. قُيُلْشْماقْ qoyylushur, qoyulushmaq[252]).

قِيْتِشْشْدِي q a y t ï sh d ï: اُلارْ اِكِي قِيْتِشْشْدِي olar ikki qaytïshdi – ular ikkovi bir-birining ketidan bordi* (قِيْتِشْشُورْ. قِيْتِشْشْماقْ qaytïshyp, qaytïshmaq).

ق *(q)*

تُيْسُقْدِي t u y s u q d ï: اَرْ تُيْسُقْدِي er tuysuqdï – odam (o‘ziga qilingan hiylani) tushunib oldi, bilib oldi (تُيْسُقْمَاقْ. تُيْسُقارْ tuysuqar, tuysuqmaq).

ل *(l)*

كِيجِلْدِي k e c h i l d i: اِيشْ كِيجِلْدِي ïsh kechildi – ishda kechikildi**.

(كِيجِلْماك. كِيجِلُورْ kechilo‘r, kechilmäk). Qilich bilan urdi. (قِلِجْلارْ. قِلِجْلاماقْ qilïchlar, qilïchlamaq).

بِيلَّدِي b e l ä l d i – belandi. اَرْ تَرْكا بِيلَّدِي er terga beläldi – odam terga belandi, g‘arq bo‘ldi.

بِيلَّدِي b e l ä l d i – belandi. اُغْنْ بِيلَّدِي og‘lan beläldi – bola beshikka belandi. (بِيلَّماكْ. بِيلَّلُورْ belälo‘r, belälmäk). Bu fe’l o‘timli, oldingisi o‘timsizdir.

بِيلَّدِي b e l ä l d i – bo‘yaldi, g‘arq bo‘ldi. اَتْ قانْقا بِيلَّدِي at qanqa belädi[253] – ot qonga belandi. Bu otlarning ko‘p so‘yilishiga nisbatandir***. Bu fe’lning masdari bundan oldingi fe’l masdari kabidir.

** Olmaota nashrida: *kuyulushdi.*

252 قُيُلْشْدِي *quyulushdï* shakli قُيُلْشْدِي *quylushdï* bo‘lishi kerakligi haqida Basim Atalay to‘g‘ri izoh bergan. Chunki bu bo‘lim o‘rtasi sukunli so‘zlar bo‘limidir.

* V.Radlovda: *ular ikkalasi birin-ketin qaytishdi*; Olmaota nashrida: *ular bir-birini almashtirdi.*

** V.Radlov: *ish kechikdi.*

253 Basim Atalay bu fe’llarning kelasi zamon va masdar shakllari كِيجِلْدِي. كِيجِلُورْ. كِيجِلْماكْ *kechildi, kechilur, kechilmäk* بِلَّدِي. بِلَّلُورْ. بِلَّلْماكْ *belädi, belälur, belälmäk* bo‘lishi to‘g‘riligi haqida izoh bergan. Birinchilarining o‘zi shunday berilgan, ikkinchi fe’llarning kelasi zamon va masdar shakllari kitobda berilmagan.

*** Olmaota nashrida: *ko‘p kishilar o‘ldirildi.*

ن *(n)*

كُيْفَنْدِي k o‘ y f ä n d i: اَرْ اِيشْقا كُيْفَنْدِي er ïshqa ko‘yfändi – odam ishda sustlik ko‘rsatdi, sustlandi, berilmadi*. (كُيْفَنُورْ. كُيْفَنْماكْ ko‘yfänur, ko‘yfänmäk). Bu so‘zning كُفَيَنْدِي *ko‘fyändi* tarzidagi metatezaga uchragan shakli ham bor.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ن *(n)*

قاتْلَنْدِي q a t l a n d i: يِغاچْ قاتْلَنْدِي yïg‘ach qatlandï – daraxt meva qildi. Bu ug‘raq, qipchoq, yamoqlar so‘zidir (قاتْلَنُورْ. قاتْلَنْماقْ qatlanur, qatlanmaq).

Boshqa qabilalar tilida bu so‘z bir xil tikanli daraxtlar mevasiga nisbatan qo‘llanadi. Xonaki daraxtlar mevasi uchun يَمِشْلَنْدِي *yämishländi* so‘zi qo‘llanadi.

ر *(r)*

قارْلَنْدِي q a r l a n d ï: اَرتْ قارْلَنْدِي art qarlandï – tog‘ning bel qismi ichidagi yo‘l qorlandi (قارْلَنُورْ. قارْلَنْماقْ qarlanur, qarlanmaq).

قُورْلَنْدِي q o r l a n d ï: اَرْ تَقارِنكا قُورْلَنْدِي er tawarïŋa qorlandï – odam moli ketgani uchun xafa bo‘ldi, achindi.

قُورْلَنْدِي q o r l a n d ï: قِمِزْ قُورْلَنْدِي qïmïz qorlandï – qimiz achitqi bo‘lgani sababli achidi. Qatiqning quyilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُورْلَنُورْ. قُورْلَنْماقْ qorlanur, qorlanmaq).

ASOSIY O‘ZAKDAN YASALGAN FE’LLAR

تَيَقْلَنْدِي t a y a q l a n d ï – tayoqli bo‘ldi. اَرْ تَيَقْلَنْدِي er tayaqlandï – odam tayoqli bo‘ldi (تَيَقْلَنُورْ. تَيَقْلَنْماقْ tayaqlanur, tayaqlanmaq).

تَيُقْلَنْدِي t a y u q l a n d ï: يِگِيتْ تَيُقْلَنْدِي yigit tayuqlandï – yigit ziyrak odamlarga o‘xshadi. Ular darajasiga yetdi* (تَيُقْلَنُورْ. تَيُقْلَنْماقْ tayuqlanur, tayuqlanmaq).

قَيُقْلَنْدِي q a y u q l a n d ï: سُوتْ قَيُقْلَنْدِي so‘t qajuqlandï – sut qaymoqli bo‘ldi** (قَيُقْلَنُورْ. قَيُقْلَنْماقْ qayuqlanur, qayuqlanmaq).

Qoida. Uch harfli ismlardan yasalgan bu xil fe’llar bu kitobda bir necha xil ma’nolarni anglatadi:

---

* V.Radlov, Olmaota nashrida*: yigit yasan-tusan qildi.*

** Olmaota nashrida: *sut ko‘piklandi.*

Birinchisi – so‘zlangan narsa bilan birgalik yoki unga egalik ma’nosini anglatadi. Chunonchi, اَرْ تَيڤْلَنْدي er tayaqlandï – odam tayoq egasi bo‘ldi. سُوتْ قَيڤْلَنْدي so‘t qajuqlandï – *sut qaymoqli bo‘ldi* kabi.

Ikkinchi: so‘zlovchi bir narsani so‘zlangan narsaning qatorida hisoblaganlik ma’nosini anglatadi. Chunonchi, اَرْ اَتَغْ قِزْلَنْدي er atïg‘ qïzlandï – odam otni qimmat hisobladi. Shuningdek, اَلْ اَني قَيزْلَنْدي o‘l anï qïzlandï **(532)** – *u joriyani o‘z qizlari qatorida hisobladi* kabi.

Uchinchi: majhul fe’l ma’nosini anglatadi. Chunonchi, تَڤي چُغْلَنْدي tawap choglandi – mol to‘planildi. بُوزْ چِغْلَنْدي böz chïg‘landï* – bo‘z o‘lchanildi. Boshqalari ham shunday.

To‘rtinchi: oti aytilgan narsaga o‘xshaganlik ma’nosini anglatadi. Chunonchi, اَرْ تَيڤْلَنْدي er tajuqlandï – odam ziyrak va shunga o‘xshash odamlarga o‘xshadi, ular darajasiga yetdi. Bu yerda yana ikki xususiyatni yuqoridagiga qiyos qilib aytish mumkin.

Birinchi: so‘zlovchi so‘zlanilgan narsa bilan birgaligi yoki unga egaligini anglatishdir, Chunonchi, تَاغْ تِڭْلَنْدي tag‘ tïtlandï – tog‘ sanubar daraxtli bo‘ldi. اَرْ قَاڤْلَنْدي er qaplandï – *odam qopga ega bo‘ldi* kabi.

Ikkinchi: so‘zlovchi bir narsani so‘zlangan narsaning qatorida hisoblashi ma’nosida kelishi. Chunonchi, اَلْ نانگْني قِسزْلَنْدي o‘l neŋni qïzlandï – u narsani qimmatsiradi, *hisobladi* kabi. Bundan boshqalari yuqorida so‘zlaganimiz kabidir. Kimdir so‘zni boshqa yo‘llar asosida qo‘llashi mumkin. Chunki har bir ism turli ma’nolar anglatuvchi qo‘shimchalarni qo‘shib, har xil ma’nolarda qo‘llanishiga monelik qiladigan qoidalar yo‘q. Lekin shuni yaxshi bilish kerakki, turk tillarining barchasida xohlagan har bir ismdan fe’l turi yasash mumkin emas. Chunonchi, *kishi otalar so‘zini so‘zlandi* yoki *unga ega bo‘ldi* ma’nosida اَرْ ساڤْلَنْدي *er sawlandi* deyishi mumkin bo‘lmaganidan sha’nu shuhrat egasi bo‘ldi ma’nosida اَرْ جاڤْلَنْدي *er chawlandï* deb ham qo‘llanmaydi. Holbuki, qoidaga ko‘ra, hamma ismdan fe’l yasab qo‘llash mumkin. Shuning uchun biror odam uni shunday qo‘llasa, hech kim ayblay olmaydi.

---

* Olmaota nashrida: *yuglandi.*

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ب *(b)*

كُرْبالَنْدي k ö r p ä l ä n d i: اُتْ كُرْبالَنْدي ot körpäländi – o‘rilib olingandan so‘ng yana o‘t o‘sib chiqdi (كُرْبالَنُورْ. كُرْبالَنْماكْ körpälänur, körpälänmäk).

كِرْبِيلَنْدي k i r p i l ä n d i: كِرْبِيلَنْدي كِشي kishi kirpiländi – odam g‘alizlikda kirpi kabi qattiq yuzli bo‘ldi (كِرْبِيلَنُورْ. كِرْبِيلَنْماكْ kirpilänur, kirpilänmäk).

ت *(t)*

بَرْتَلَنْدي b e r t l ä n d i*: اَرْ بَرْتَلَنْدي er bertländi – odam kalta paxtalik to‘nli bo‘ldi** (بَرْتَلَنُورْ. بَرْتَلَنْماكْ bertlänur, bertlänmäk[254]).

بُرْتَلَنْدي b o r t u l a n d ï[255]***: بُرْكْ بُرْتَلَنْدي börk bortulandï – qalpoq oltin parchalari bilan ziynatlandi(بُرْتَلَنُورْ. بُرْتَلَنْماقْ bortulanur, bortulanmaq).

ر *(r)*

بُغْرَلَنْدي b o g‘ r a l a n d ï**** تَقْي بُغْرَلَنْدي tewey bog‘ralandï – tuya ayg‘irlik darajasiga yetdi (بُغْرَلَنُورْ. بُغْرَلَنْماق bog‘ralanur, bog‘ralanmaq).

غ *(g‘)*

تُزْغُلَنْدي t u z g‘ u l a n d ï – ovqat taqdim etdi اُلْ مَنكا تُزْغُلَنْدي o‘l menga tuzg‘ulandï – u menga ovqat taqdim etdi. Boshqalari ham shunday (تُزْغُلَنُورْ. تُزْغُلَنْماقْ tuzg‘ulanur, tuzg‘ulanmaq).

قَذْغُلَنْدي q a z g‘ u l a n d ï – qayg‘ulandi. اُلْ بُو اِيشْقا قَذْغُلَنْدي o‘l bu ïshqa qazg‘ulandï – u bu ishga qayg‘ulandi. Boshqalari ham shunday (قَذْغُلَنُورْ. قَذْغُلَنْماقْ qazg‘ulanur, qazg‘ulanmaq).

قُذْغُلَنْدي q u z g‘ u l a n d i: اَتْ قُذْغُلَنْدي at quzg‘ulandï – ot pashshani o‘zidan haydadi (قُذْغُلَنُورْ. قُذْغُلَنْماقْ quzg‘ulanur, quzg‘ulanmaq).

---

* Olmaota nashrida: *bartulan.*

** V.Radlov va Olmaota nashrida: *kishi to‘n kiydi.*

[254] بَرْتَلَنْدي shaklida berilgan so‘zni Basim Atalay بَرْتُلَنْدي*bartulandï* shaklida olish to‘g‘riligi va Brokkelmann ham shunday olgani haqida izoh bergan (Qarang: “Devon...” tarjimasi, III jild. 200-b).

[255] بُرْتَلَنْدي shaklida berilgan bu so‘zni Basim Atalay بُرْتَلَنْدي *börtäländi* bo‘lishi to‘g‘ri deb izoh bergan

*** V.Radlov va Olmaota nashrida: *burtalan // burtulan.*

**** V.Radlov va Olmaota nashrida: *buuralan.*

قُرْغُلَنْدِي q u r g‘ u l a n d ï: اَرْ قُرْغُلَنْدِي er qurg‘ulandï – odam quruqlik qildi, o‘zidagi yengillikni bildirib qo‘ydi (قُرْغُلَنُورْ. قُرْغُلَنْماقْ qurg‘ulanur, qurg‘ulanmaq).

ق (q)

تَلْقِلَنْدِي t a l q ï l a n d ï: اُزُمْ تَلْقِلَنْدِي o‘zo‘m talqïlandï[256] uzum g‘o‘ralandi (تَلْقِلَنُورْ. تَلْقِلَنْماقْ talqïlanur, talqïlanmaq).

ك (k)

بُرْكَلَنْدِي b ö r k ä l ä n d i*: تَمَرْ بُرْكَلَنْدِي tamar börkäländi[257] – odam tomiri qonga to‘ldi. Boshqalari ham shunday.

بَرْكَلَنْدِي b e r k ä l ä n d i**: اَرْ بَرْكَلَنْدِي er berkäländi – odam mol haydaydigan qamchiga ega bo‘ldi (بَرْكَلَنُورْ. بَرْكَلَنْماكْ berkälänur, berkälänmak).

بُرْكَلَنْدِي b ÿ r g ä l ä n d i: اَرْ بُرْكَلَنْدِي er bÿrgäländi – odam achchig‘idan burga[258] kabi sakradi. بُرْكَلَنُورْ. بُرْكَلَنْماكْ bÿrgälänur, bÿrgälänmak).

بِلْكَلَنْدِي b i l g ä l ä n d i: اَرْ بِلْكَلَنْدِي er bilgäländi – odam aqllilandi*** (بِلْكَلَنُورْ. بِلْكَلَنْماكْ bilgälänur, bilgälänmak). Bu so‘zni بِلْكِمْسِنْدِي *bilgimsindi* tarzida olish yaxshiroqdir. Ya’ni odam o‘zini aqlli ko‘rsatdi demakdir.

Shuningdek, boshqa fe’llarda ham bo‘lmagan ishni bo‘lgandek qilib, ko‘rinishini anglatish uchun fe’l o‘zagiga – مسن م، س، ن *-msin* qo‘shilib ifoda qilinadi.

تِلْكُولَنْدِي t i l k ÿ l ä n d i: ار تِلْكُولَنْدِي er tilkÿländi – odam laganbardorlik qildi. (تِلْكُولَنُورْ. تِلْكُولَنْماكْ tilkÿlänо‘r, tilkÿlänmäk).

---

[256] Devonning I jildida bu so‘zning تَرْقا *tarqa* shakli ham berilgan va yerda تَلْقا *talqa* shakli borligi ham ko‘rsatilgan edi (Qarang: “Turkiy so‘zlar devoni”, I jild. 402-b)

* V.Radlovda: *burkälän;* Olmaota nashrida: *barkalan.*

[257] بُرْكَلَنْدِي *börkäländi* so‘zi بَرْكَلَنْدِي *bärkäländi* bo‘lishi to‘g‘riligi, chunki bu ma’noda hozirgi usmonli turk tilida بَرْكا *barka* so‘zi borligi haqida Basim Atalay izoh bergan (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 201-b). Ammo biz aslini berdik.

** V.Radlov: *bergälän.*

[258] *Burga* so‘zi “Devon...”da بَرْكا deb berilgan. Burg‘us so‘zi “G‘iyosu-l-lug‘at”da *qiyiq,* “Axtari kabir” lug‘atida *nupa deyiladigan mashhur jonvor* deb izohlangan.

*** V.Radlov va Olmaota nashrida: *aqlli bo‘lib ko‘rinmoq.*

سِرْكَلَنْدِي s i r k ä l ä n d i: أُغْلانْ سِرْكَلَنْدِي og‘lan sirkäländi – bolaning boshiga sirka tushdi. Boshqalari ham shunday (سِرْكَلَنُورْ. سِرْكَلَنْماكْ sirkälänur, sirkälänmak).

م *(m)*

تُكْمَلَنْدِي t ÿ g m ä l ä n d i: اَرْ تُكْمَلَنْدِي er tygmäländi – odam ko‘ylak tugma (bog‘ich)larini ildi, taqdi (تُكْمَلَنُورْ. تُكْمَلَنْماكْ tygmälänur, tygmälänmak).

كَسْمَلَنْدِي k e s m ä l ä n d i: قِيزْ كَسْمَلَنْدِي qiz kesmäländi – qiz kokil gajak **(534)** qo‘ydi. (كَسْمَلَنُورْ. كَسْمَلَنْماكْ kesmälänur, kesmälänmäk).

Bu bo‘limning misol turi

ر *(r)*

يَقْرِلَنْدِي y a q r ï l a n d ï: قُوىْ يَقْرِلَنْدِي qo‘y yaqrïlandï – qo‘yning yog‘i ko‘paydi. Yog‘li bo‘lib semirdi (يَقْرِلَنُورْ. يَقْرِلَنْماقْ yaqrïlanur, yaqrïlanmaq).

غ *(g‘)*

يُغْلَنْدِي y u w g‘ a l a n d ï: أُغُلْ يُغْلَنْدِي og‘ul yuwg‘alandï – bola beboshlandi* (يُغْلَنُورْ. يُغْلَنْماقْ yuwg‘alanur, yuwg‘alanmaq).

يُفْقَلَنْدِي y u f q a l a n d ï: اُلْ مَنكا يُفْقَلَنْدِي o‘l meŋa yufqalandï – u menga laganbardorlik, xushomadgo‘ylik qildi (يُفْقَلَنُورْ. يُفْقَلَنْماقْ yufqalanur, yufqalanmaq).

م *(m)*

يَغْمَلَنْدِي y a g‘ m a l a n d ï: اَرْ يَغْمَلَنْدِي er yag‘malandï – odam kiyim-kechakda, yurish-turishda, xulq-atvorda yag‘molarga o‘xshadi (يَغْمَلَنُورْ. يَغْمَلَنْماقْ yag‘malanur, yag‘malanmaq). Bu arab-chadagi

وَقِيسُ عِيلانْ وَ مَنْ تَقَيَّسا

iborasi** kabidir. Buning ma’nosi ularning xulq-atvorini qabul qildi, ularga o‘xshadi, demakdir. Yana shunga o‘xshash arab iborasi***

---

* Olmaota nashrida: *bola xushomad qildi, erkalandi.*

** Iboraning o‘qilishi va tarjimasi: *Ba Qaysa a’ylana va man taqayyaso* – Qays, Aylan va kim undan keyin kelsa...

*** Iboraning o‘qilishi va tarjimasi: Tama’ dada-r-rajul – u o‘zini ma’ddlik qilib ko‘rsatdi.

ham shundaydir. Ya'ni *odam o'zini ma'od qabilasi kabi ko'rsatdi,* demakdir. Bu xil fe'llar yozuvda emas, talaffuzda oxiridan beshinchi tovush tushirilgan to'rt harfli ismlardan yasaladi[259]. Chunonchi, قُوىٌ يَقْرِلَنْدِي qo'y yaqrïlandï – qo'y yog'li bo'lib semirdi va اَرْ يُفْقَلَنْدِي er yufqalandï – *odam laganbardorlik qildi* gaplaridagi يَقْرِي yaqrï – *yog'* so'zidan ى tushirilib, mayin narsa ma'nosidagi يُفقا *yo'fka* so'zidan *alif*[260] tushirilgani kabi.

Bu bo'limning olti harflilari

ج *(ch)*

سَراغُجْلَنْدِي s a r a g' y c h l a n d ï: أُراغُتْ سَراغُجْلَنْدِي urag'ut sapag'uchlandï – ayol yopinchiqli bo'ldi سَراغُجْلَنُور سَراغُجْلَنْماقْ sarag'uch-lanur, sarag'uchlanmaq).

ك(k)

بلازُكْلَنْدِي bilazÿklandï – bilaguzukli bo'ldi. إِشْلارْ بلازُكْلَنْدِي ishlär bilazÿklandï – xotin bilaguzuk taqdi (بلازُكْلَنُورْ. بلازُكْلَنْماكْ bilazÿklanur, bilazÿklanmak).

Bu xil fe'llar to'rt harfli ismlardan yasalgandir. Besh, olti harfli ismlardan yasalishi ham mumkin. Qoida hamma turkiy shevalar uchun birdir. Chunonchi, اَرْ سَقَلْدُرُقْلَنْدِي er saqalduruqlandï – odam soqolturuqni bog'ladi. Yana اَرْ اَلاجُولَنْدِي er alachulandï[261] – odam kichik chodir tikdi. Yana اَرْ خُمارُولَنْدِي er xumarulandï –

---

[259] Basim Atalay Mahmud Koshg'ariyning quyidagi izohiga وَ هَذا لنوعُ مِنَ الافعالِ مُرَكَّبَةٌ مِنَ الاسماءِ الرُباعيةِ فَيُنْقَصُ مِنْهُ اخِرِ الكلمةِ خُما سَبَّةِ فى اللفظِ دُونَ الجَطِّ نَحْوُ قُوى يَقْرِلَنْدِي اَىْ تَمَلَّقَ الرَجُلُ اَرْ يُفْقَلَنْدِي to'g'ri tuzatish kiritib quyidagicha yozgan: وَ هذ النوعُ مِنَ الافعالِ تَكُونُ مُرَكَّبَةٌ مِنَ الاسماءِ الثَلاثِيَّةِ فَيُنْقَصَ مِنْهُ اَخِرِ الكلمةِ رُباعيةٌ

Boshqacha aytganda, Mahmud Koshg'ariy iborasida *ruboiya,* ya'ni to'rt harfli so'z o'rniga, *xumosiya*, ya'ni besh harfli so'z almashib yozilgan, shuningdek, *sulosiya,* ya'ni uch harfli so'z o'rniga, *ruboiya,* ya'ni to'rt harfli so'zlar almashib yozilgan.

[260] يُفْقَا *jufqa* so'zidan alif tushirilishi arab yozuvi tufaylidir. يُفْقَلَنْدِي *jufqalandï* deb arabcha yozganda alif tushgandir.

[261] Navoiyda bu so'z umuman boshpana ma'nosida qo'llangan:

Ichi kuygan yog'och kovogi ochuq
Bo'lib g'ulu shayotingga *alachuq.*

odam do‘sti yoki boshqaning molidan g‘animat oldi*. اَرْ كَراطُولَنْدِي ep kerägÿländï[262] – odam o‘ziga chodir tikdi va unga kirdi.

سَيْرَمْلَنْدِي s a y r a m l a n d ï: سُوڤْ سَيْرَمْلَنْدِي syw sayramlandï – suv to‘piqdan kelar darajada ozaydi (سَيْرَمْلَنُورْ. سَيْرَمْلَنْماقْ say-ramlanur, sayramlanmaq).

قاتُوْلَنْدِي q a t u n l a n d ï: اُراغُتْ قاتُوْلَنْدِي urag‘ut[263] qatunlandï – xotin xonimlarga o‘xshadi. Ular darajasiga yetdi (قاتُوْلَنُورْ. قاتُوْلَنْماقْqatunlanur, qatunlanmaq).

قاغُونْلَنْدِي q a g‘ u n l a n d i – qovunli bo‘ldi. اَرْ قاغُونْلَنْدِي er qag‘unlandï – odam qovunga ega bo‘ldi (قاغُونْلَنُورْ. قاغُونْلَنْماقْ qag‘unlanur, qag‘unlanmaq).

Tangriga shukur uch harflilar bo‘limi tugadi.

---

* V.Radlovda: *er kishi meros oldi.* Olmaota nashrida: *kishi yaqin odamidan hadya oldi.*

[262] *Kerägÿ* ham *chodir* ma’nosidadir. Lug‘atlarda *olachuq – kichik chodir* deb izohlangan bo‘lsa, *karago‘* quyidagicha izohlangan: *sahroyilarning ikki yoki uch tirgov ustiga namat yopib qurgan chodirlaridir. Tirgov uchtadan ortsa uy* deyiladi.

[263] “Devon”da ko‘rsatilishicha, XI asr tilida *xotin* ma’nosida اُراغُتْ *urag‘ut* so‘zi qo‘llanib, قاتُونْ *qatun* so‘zi “Afrasiyob avlodidan bo‘lgan qizlar” ma’nosida ishlatilgan. Shuning uchun bizning *xonimlar* degan so‘zimizni “xonzoda xotinlar” deb tushunish to‘g‘ri bo‘ladi.

Bismillohi-r-rahmoni-r-rahim

IKKI HARFLI ISMLARDAN YASALGAN TO‘RTLIKLAR BO‘LIMI
(Yettinchi kitob)

[Ikki harfli ismlar]

ب *(b)*

با b a – qo‘yning ma’ragan ovozi. قُوئ بالادي qoj baladï – qo‘y ma’radi.

بُو b u – bug‘. اَشِجْ بُوسى ashïch busï – qozon bug‘i. Boshqalari ham shunday.

بُو b u – bu. بُو اَرْ bu er – bu odam.

بي b i – biya. Turklarda, ammo o‘g‘uzlarda emas.

بِي b i – bu so‘zning بُوئ *boj* shakli ham bor. Zaharli o‘rgimchak (o‘g‘uzcha).

ت *(t)*

تُو t ÿ – tuk. بِيرْ تُو سَجْ bir to‘[264] säch – sochning bir tuki.

تُو t ÿ – rang. تُودَشْ تُونْلارْ tÿdäsh tonlar – rangi bir xil to‘nlar.

تُو t ÿ – ot rangi, turi. اَتِنكْ نا تُولُكْ atïŋ ne tÿlÿk – oting qaysi rangda, otingning turi qanday.

تُو to – (qalin *o* bilan) Bulamochda undan pishirilgan taomning bir xilidir. U bir idishga solinib achitiladi, so‘ng yeyiladi.

ج *(ch)*

جا ch a – o‘xshatish ko‘makchisidir. Bu arab tilidagi *kofi tashbih*ga o‘xshaydi. Chunonchi, اُلْ مَنِكْجا o‘l menïŋchä – u menday. بُو اَنِكْجا bu anïŋcha – bu uning kabidir.

جي j i – namlik, zax. جِى يِيرْ ji er – nam er. جُو ch o‘ – bo‘lishli, bo‘lishsiz fe’lga qo‘shilib, buyruq ma’nosini

---

[264] Bizda hozir *tuk* shaklida qo‘llanadi. Aftidan, bu o‘zgarish Navoiyga qadar yuzaga kelgan. Navoiyda har yerda faqat tuk shaklidagina uchraydi.

A’zosida unda-munda bir *tuk*,
Ul ham bo‘libon anga og‘ir yuk.

So‘zlardagi bu xil to‘liq-qisqalik xususiyati ko‘p so‘zlar etimologiyasini ochib berishga xizmat qiluvchi va tilshunoslar diqqatiga sazovor muhim hodisadir.

kuchaytiradigan qo‘shimcha. Chunonchi, كَلْ جُو kelcho‘ – albatta kel. بَرْماجُو barmachu – zinhor borma kabi[265].

س *(s)*

سا s a – shart ma’nosini bildiradigan qo‘shimchadir.

اُلْ اَگَا بَرْسا ol ewgä barsa – u agar uyga borsa, qachon borsa demakdir. سَنْ قَجانْ بَرْسا سَنْ sen qachan barsa sen – *agar sen borsang* kabi. Bu faqat fe’llarga qo‘shiladi.

سا s a – sen ma’nosidagi so‘zdir. اَيْرْمَنْ سا sa ayyrmän – senga aytaman. So‘z oxiridagi alif سَنْ *sen* so‘zidagi ن o‘rniga almashgandir yoki سنكا *senä* so‘zidan نكا ga tushirilgandir ن – *n* o‘rniga الف almashinishi arabchada ham bor. Chunonchi, ulug‘ Tangrining لَنَسْفَعاً *la-nasfa’an* so‘zidagi va اعشىَ A’shaning* وَاللّهَ رَبُّكَ فَاعْبُدا *vallahu Rabbuka fa’ubudo* iborasidagi kabi.

سُو s o‘ – askar. Maqolda shunday kelgan:

أُتاغْقا أَبْكَلابْ سُوكا سُوزْلامادُكْ

Otag‘qa öpkäläb so‘gä sözlämädük[266]

---

[265] Bu qo‘shimcha hozirgi o‘zbek tilida ham ayni ma’noni anglatadi. Lekin hozirgi o‘zbek tilida *-chu* emas, *-chi* shaklida qo‘llanadi. *Borchi, kelmachi* degandagi kabi. Bunga Navoiyda ham misollar ko‘p:

Ey vodiyi ayman ichra *qo‘ychi,*
Itmen senga o‘z qoshingda *qo‘ychi.*

Bu baytda 1 – *qo‘ychi* – qo‘y boquvchi, 2 – *qo‘ychi* – albatta, meni it hisoblab zinhor yoningda qoldir (zora, Layli qo‘ylar tomoshasiga kelganda, uni ko‘rib qolsam).

* *A’sha* (530–629) – johiliyya davri arab shoirlaridan biri. To‘liq ismi: Abu Bashir Maymun b. Qays al-Bakriy. She’rda may mavzusini kuylagan shoir sifatida adabiyot tarixlaridan o‘rin olgan. Islomni qabul qilgandan so‘ng Muhammad (s.a.v.) haqida qasida bitgan. Uning an’analari abbosiylar davrida Bashshar ibn Burd (714-814), Abu Nuvas (762-813), Muslim ibn Balid (714-823) kabi shoirlar tomonidan davom ettirilgan. “Kitobu-l-Og‘oniy”da she’rlaridan namunalar bor. Mahmud Koshg‘ariy uning iborasini keltirgan.

Ushbu shoirning yana bir bayti 1-jildda keltirilgan: *Mahmud Koshg‘ariy.* Devonu lug‘oti-t-turk. 1-jild. T.: Fan, 1961; U haqda qarang: *Haffner A.* A’Şa. / Islam Ansiklopedisi. 2-cild. Istanbul, 1993. S.694-95; *Xodjaeva R.* Mamluklar davri arab adabiyoti (XIII-XV asrlar). T., 2013 (H.B.)

[266] Ko‘rinadiki, maqoldagi سُوزْلامادُكْ *sözlamaduk* so‘zi *so‘zlamadi* ma’nosidadir. Bu o‘g‘uzlar tilida o‘tgan zamon fe’lining affiksi *-di* o‘rnida *-duk* qo‘llash xususiyatiga mosdir. Ma’lumki, o‘g‘uzlar tilida *yozdim* o‘rnida ham *yozduq, yozdi* o‘rnida ham *yozduq, yozdik* o‘rnida ham *yozduq* qo‘llanishining bir necha jihatlardan kamchilikli ekanini Mahmud Koshg‘ariy II tomda keng izohlagan edi. “Devon…”da faqat shu yerda, bir martagina uchrashi u xususiyat

Chodirdagi hamrohlaridan xafa bo‘lib, so‘ng askarlar bilan so‘zlashmadi. Bu maqol birov qilgan bir ishdan achchiqlanib, do‘stlaridan xafalanuvchi, ular bilan so‘zlashmovchi kishiga aytiladi. She’rda shunday kelgan.

[XXXVII]

سُو كَلْدِي يِيرْ يَنا
قرار قَر ..... سا
قَجْتِي أَنكَرْ أَلبْ أَيا
أُفُتْ بَلَبْ أُلْ يَشارْ

So‘ keldi yer yara
Qarar qar .....sa.[267]
Qachtï aŋar Alp Aya
Ufut bolup ol yashar.

Yer yuzini bosib, askar keldi. Otning tuyoqlaridan chiqqan chang-to‘zonlar qorli tog‘ tepalarini qopladi. أَلبْ أَيا Alp Aya degan kishi qochdi. U yengilganidan uyalib yashirindi.

سِى s i – unlilar bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladigan izofat belgisi. Undoshlar bilan tugaganda faqat ى keladi. Chunonchi, اتا *ata* so‘zi oxiri unli bilan tugagan so‘zdir. Bu so‘z izofat vazifasida qo‘llanganda, أَنِڭْ اتاسِى *anïŋ atasï* shaklida so‘z oxiriga qo‘shiladi. انا *ana* so‘zi ham shunday oxiri unli bilan bitgan so‘zdir. Bu ham izofat vazifasida qo‘llaganda أَنِڭْ اناسِى *anïŋ anasï* shaklida سى *si* orttirib qo‘llanadi. Ammo أَنِڭْ اتاسِى *anïŋ atajï* deyilmaydi. Chunki unda uch yumshoq tovush **(537)** bir yerda ketma-ket kelgan bo‘ladi. Holbuki, bu so‘zlash uchun yoqimsizdir. Shuning uchun, so‘zlashganda yoqimlilik va yengil bo‘lsin deb, o‘rtadagi yumshoq tovush *s* ga almashtiriladi.

Oxiri undoshlar bilan bitgan so‘zlardan أُغُلْ *og‘ul* so‘zini olaylik. O‘g‘il so‘zi izofat vazifasida qo‘llaganda أَنِڭْ أُغْلِي *anïq og‘lï* deyiladi. Bu so‘zning oxirgidagi ل izofat tarkibida kelib, o‘ziga

---

tilda ozayib, o‘g‘uzlar bu masalada sharqiy gruppa qabilalar tillari xususiyatini o‘zlashtirganlaridan dalolat beradi.

[267] Parchadagi ikkinchi misrada bir qancha joy ochiq qoldirilgan. Basim Atalay bu xususda bir necha xil mulohazalar yuritgan, birortasiga qaror bera olmagan. Denkoff va Kelli inglizcha lug‘atda bu she’r satrini shunday bo‘lsa kerak deb taxmin qilishgan: *Qazar qarlig‘ tag‘ taba.* Qarang: 3-jild. 258-b.

unlini qabul qilgan. Bu yerda س ni orttirishga zarurat qolmagan. Shuningdek, *ot* so‘zi ham izofat vazifasi bajarganda اَتِي اَنِكْ *anïŋ atï* shaklida qo‘llanadi. Bu so‘z oxiridagi ت undoshi izofat tarkibida qo‘llanishi natijasida o‘ziga unlini qabul qiladi; س orttirishga ehtiyoj qolmaydi.

Izofat qo‘llashda hamma turkiy shevalar uchun ham qoida shudir. Ya’ni ismlarning oxiri unli yoki undosh bilan tugashiga qarab ish ko‘riladi.

ش *(sh)*

شا s h a – ola-bula yo‘lli bir xil qush. مالِكَ الخَرين deb ataluvchi qushga o‘xshaydi. Bu ba’zi odamlarga laqab sifatida ham qo‘llanadi. اَرْدَمْ سِزْشا erdämsïz sha – ko‘rimsiz, foydasiz qush* demakdir. U har vaqt yerga yaqin uchadi.

شُو s h u – fe’llar o‘zagiga qo‘shilib, buyruq ma’nosini kuchla-tuvchi جُو-*chu* qo‘shimchasi o‘rnida qo‘llanuvchi qo‘shimcha. Chunonchi: بَرْغِلْ شُو barg‘ïl shu – albatta bor, borsang-chi! كَلْ شُو kel shu – albatta kel, *kelsang-chi* kabi.

شِي s h i – Chin xoqonlari sog‘-salomatligini so‘rash uchun qo‘llanadigan so‘zdir. Bu so‘z arablarning اَبَيْتَ اللَعْنَ *Xudo falokatlardan saqlasin* degan iboralari kabidir.

غ *(g‘)*

غُو g‘ u – fe’l o‘zaklariga qo‘shilib, joy, payt yoki qurol ismlari yasaydigan qo‘shimchadir. Chunonchi: بَرْغُو يِرْ barg‘u yer – boriladigan yer, تُرْغُو يِرْ turg‘u yer – *turiladigan yer*** deyilgandagi kabi.

ق *(q)*

قا q a – idish, qop. Lekin bu asosan suyuq narsalar idishiga qo‘llanadi. Chunonchi, bu so‘z juft holda قاقَجا *qa-qacha* tarzida qo‘llanadi, *qop-qanor, qop-qopchiq*[219] demakdir.

قا q a – o‘rin-payt ma’nolarini ifoda etuvchi qo‘shimcha. Bu tarkibida *q* bo‘lgan ismlar yoki, umuman, qattiq talaffuzli ismlar

---

* Olmaota nashrida: *orsiz qush.*

** Qo‘lyozmada: *vaqt az-zahab*. Tarjimasi: Ketish (jo‘nash) vaqti.

[219] قاقَجا so‘zi Mahmud Koshg‘ariy ko‘rsatishicha, ikki so‘z bo‘lib, har ikkisi qo‘shoq holda qo‘llanib, *idish-oyoq* ma’nosini anglatar edi.

va yoki yumshoq[220] talaffuzli ismlar oxiriga qo‘shiladi. Chunonchi, باغْقا كِرْ bag‘qa kir – boqqa kir. تاغْقا يُقْلا tag‘qa yuqla – *toqqa chiq* deyilgandagi kabi. Harakatning yo‘nalishini ifodalovchi qo‘shimcha.

قا q a – yo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *-ga* vazifasida qo‘llanadi. Bu qo‘llanish arg‘uchadir. Chunonchi, اتامْقا بِيرْدِمْ يَرْماقْ atamqa berdim yarmaq – otamga pul berdim. انامْقا تَقَارْ بِيرْدِمْ anamqa tawar berdim – *onamga mol berdim* kabi. Ba’zan bu qo‘shimcha izofatdagi ل (lom) ma’nosida ham keladi. Chunonchi, اتامْقا سُوزْ اَيْدِمْ atamqa söz aydim* – otam uchun so‘z aytdim[268].

قِى q ï – hey ma’nosini beruvchi undov so‘zdir. Chunonchi, قى بَرُو كَلْ qibero‘ kel – hey, beri kel. Bu so‘zdagi ق bilan ى orasi cho‘zilib talaffuz qilinadi.

قِى q ï – yaqinlik, qarindoshlik ma’nosida ismlar oxiriga qo‘shilib, sevgi va xayrixohlik ma’nosini anglatuvchi qo‘shimcha**. اَتاقِى ataqï – *otaginam*, اَناقِى anaqï – *onaginam* kabi.

---

[220] Basim Atalay bu yerda الرَكِيكَة degan so‘zni ortiqcha deb izoh bergan. Lekin Mahmud Koshg‘ariy ingichka so‘zlarda كا qo‘shiladi demoqchi bo‘lsa kerak. U holda ويُلْحق "كا" الاسماءِ الركيكة tarzida bo‘ladi. Chunki quyida (130-betda) *-ga* haqida shunday izoh bergan.

* Olmaota nashrida bu gap “Otam bilan gaplashdim” deb izohlangan.

[268] Bu yerda Mahmud Koshg‘ariy *-qa* yoki *-ga* affikslarining sabab ma’nosida ham kelishini izohlagan. Ilgarigi tilshunoslar uni *mafulo‘nlah* der edilar. U arab tilida ل orqali yasaladi. Chunonchi, صربت اِبنى للتاء ديبْ *o‘g‘limni adab berish uchun urdim*, deganda *l* uchun ma’nosidadir. *-qa, -ga* ham ana shu vazifada keladi demoqchi. *-ga, -qa* qo‘shimchalarining bu ma’noda qo‘llanishiga “Devon...”da ham, “Qutadg‘u bilik”da ham misollar ko‘p: Ol jazuqig‘a achindi – u qilgan jinoyati uchun achindi (“Devon”, I jild. 210-b).

Neko‘ga o‘zäto‘rsän qïlg‘u ishing (“Qutadg‘u bilik”).

Bu yerda shuni ham aytish kerakki, bundan ming yillar oldin bu masalaning butun xususiyati keng izohlab berilishi to‘la tahsinga sazovordir. Ibn Muhanna bundan bir qancha asrlardan so‘ng yozilgan. “Arabskiy filolog o turetskom yazыke” asarida (15-bet) bu masalani ancha mujmal, shu bilan birga tamoman arab tili asosida yoritgan. Chunonchi, *-ga* ni arabcha اِلَى *ilaga, -g‘a* ni arabcha عَلَى *a’laga* xoslab ko‘rsatgan.

“Devon”ning II tom, 125-betida *-ga* ning ana shu ma’noda kelishi izohlangan.

و اذآ كانَ عَلَىَ هَذَ المعنى يذكرفيه النفس و هو قولهم اوزنكا اى لنفسه اوزى نفسه و الكاف تركب معه بمعنى اللام

O‘ziga degan iboradagi *-ga* uchun ma’nosidadir.

** Olmaota nashrida: *erkalash, taltaytirish* ma’nosidagi yuklama.

ك (g)

كا g ä – tarkibida ك *k* || *g* tovushlari bo‘lgan va, umuman, yumshoq so‘zlar oxiriga qo‘shilib, jo‘nalish ma’nosini bildiruvchi qo‘shimcha. Chunonchi, أَلْ أَفْكا بَرْدِي ol ewgä bardï – *y uyga kirdi* kabi.

Bu qo‘shimcha ba’zan o‘rin-payt ma’nosini bildiradi. أَلْ أَفْكا كَرْدِي ol ewgä kirdi – *u uyga kirdi* kabi. Ba’zan *izofa lomi* (ل) ma’nosida ham qo‘llanadi.

أَلْ تَرْكا كَرْدِي ol tergä kirdi – u muzdli ishga, muzd uchun ishga kirdi*.

كُو k o‘ – izzat, hurmat. كُولُكْ بِلْكا kўlўg bilgä – izzatli, bilag‘on.

ل *(l)*

لا l a – o‘g‘uzlar qilingan ishning aniq va qat’iyligini anglatish uchun fe’llar oxiriga qo‘shib qo‘llaydigan ta’kid qo‘shimchasi. Chunonchi: أَلْ بَرْدىلا ol bardïla – u albatta bordi, uning borgani haqiqatdir. أَلْ كَلْدىلا ol keldilä – u keldi, uning kelgani aniq bo‘ldi. Bu ishning bo‘lganligini bilmagani uchun uni inkor qilayozgan tinglovchiga nisbatan qo‘llanadi. Boshqa turklar buni bilmaydilar[269].

م *(m)*

ما m a – fe’lning buyruq shakli oxiriga qo‘shilib, bo‘lishsizlik ma’nosini ifodalovchi qo‘shimchadir. Chunonchi, قِلْ – qil, قِلما qilma – *qilma* kabi. Bu qoida har qanday fe’l turlari uchun umumiy bo‘lgan bo‘lishsizlik qoidasidir.

ما m a – *ma ol* ma’nosidagi bir so‘zdir. ما ma–ma, *mana ol* demakdir. Bu so‘zni ba’zan ه va *alif* bilan مَهْ *mah* shaklida ham

---

* Olmaota nashrida: *u maosh olishni boshladi.*

[269] O‘tgan zamon fe’llarining oxiriga *-la* qo‘shib qo‘llash xususiyatiga Navoiy asarlarida misollar ko‘p:

Jismimni qatil qildingiz-*la,*
Jonimni zalil qildingiz-*la.*

Labing fikri bag‘rimni qon qildi-*la,*
Chuqon qildi ko‘zdin ravon qildi-*la.*

Hozir Farg‘ona shevalarida fe’l oxirlarida qo‘llanib, paqqos, butunlay, tamoman ma’nolarini ifodalovchi *-la* ana shundan kelib chiqqanligi yaqin ehtimoldir. Navoiyda ana shu hol namunalari uchraydi:

Umrdin no umid bo‘ldim-*la,*
Mehnati hajr ichinda o‘ldum-*la.*

talaffuz qiladilar. Bu hol arabcha اِبْرِيَةٌ وَ هِبْرِيَةٌ وَ اَراقَ وَ هَراقَ kabi qo‘llanishi singaridir.

ما m a – bu so‘z echki va qo‘zilarning ma’rash ovozlari ma’nosida ham qo‘llanadi. Bunda arabchaga moslik bor. Chunonchi, (539) Zur Rumoyning

باسِمِ الماءِ مَبْغُوْمْ

iborasida* ham kelgandir.

مُو m u – ism va fe’llar oxiriga qo‘shilib, biror narsa haqida so‘rash ma’nosini anglatuvchi qo‘shimcha. Chunonchi, بُو اَتْمُو bu atmu – bu otmi? بُو اِتْمُو bu ïtmu – *bu itmi* kabi.

Fe’llarda qo‘llanishiga misol: بَرْدِنگْمُو bardïŋmu – bordingmi? كَلْدِنگْمُو keldinmÿ – *keldingmi* kabi. O‘g‘uzlarning ba’zilari fe’lning III shaxsiga so‘roq qo‘shimchasini qo‘shishda turklardan farqlanadilar. Ular م ni kasra qilib, و ni ى ga almashtiradilar: اَلْ بَرْدِيمِي o‘l bardïmï – *u bordimi* deydilar. Bu farq faqat fe’llarda bo‘lib, ismlarda ular ham turklar bilan mos qo‘llaydilar. Chunonchi, ular ham بُو اَتْ سَنِكْمُو bu at seniŋmÿ – bu ot senikimi, بُو اُغُلْ سَنِكْمُو bu og‘ul seninmÿ – *bu sening o‘g‘lingmi* tarzida qo‘llaydilar[270].

---

* Iboraning o‘qilishi: *Bismi-l-ma’i mabg‘umu.* Tarjimasi: *Ma’* deb aytuvchilar.

[270] Mahmud Koshg‘ariy o‘zining bu izohi bilan *-ma* qo‘shimchasining u davr tilida tutgan mavqeini har tomonlama keng izohlab bergan.

Hozirgi o‘zbek tilida ham bu qo‘shimcha keng qo‘llanadi. Lekin hozirgi o‘zbek tilida bu qo‘shimchada ma’lum o‘zgarish ham yuzaga kelgan. Hozir *-mu* emas, *-mi* shaklida qo‘llanadi. Bu o‘zgarish Navoiydan so‘ng yuzaga kelgan. Navoiyda “Devon”dagicha *-mu* shaklida uchraydi. Shu bilan birga, hozirgi o‘zbek tilida bu qo‘shimchaning ma’nosi ancha kengaygan. Bu so‘roq qo‘shimchasining ma’nosidagi o‘zgarish Navoiy davridayoq yuzaga kelgan edi. Navoiy va, umuman, mumtoz adabiyotda bu qo‘shimcha bir necha xil ma’nolarda uchraydi:

1) so‘roq ma’nosida:

Xolim g‘ami yeb to‘yar*mu* erkin,
Ko‘z mardumini o‘yar*mu* erkin.

2) so‘roq-inkor:

Bo‘lg‘ay*mu* edim nazarda ma’zur,
Qilg‘ay*mu* edim kishini manzur.

3) so‘roq-tasdiq:

Ruxsoring o‘tida xoli hindu, O‘zidek ulusni kuydurur*mu*.

ن *(n)*

نا n e – nima. نا تيرْسَنْ ne ter sän – nima dersan[271].

نا n e – arab tilida taajjubni anglatuvchi ما *-ma* qo‘shimchasi vazifasida qo‘llanuvchi qo‘shimcha. نا ما اَذْكُو كِشي اُلْ ne mä ezgo‘ kishi o‘l – qanday yaxshi odam u. Boshqalari ham shunday. ناما يَقّْ نانكْ اُلْ بُو nemä jawyz neŋ ol bu – bu qanday yomon narsa.

نُو n o‘ – *na* qo‘shimchasi o‘rnida qo‘llanadigan qo‘shimcha. نُو يرْ سَنْ no‘ ter sän – nima deysan. Bu so‘zning asli ناكُو *nego* ‘dir; so‘zdan ا ،ك *a-g* lar tushirilgan.

Bu bo‘limning misol turi

و *(v)*

وا v a – so‘zlovchi buyrug‘ini inkor etishni anglatadigan so‘z. Chunonchi, وا نا تيرْسينْ va ne tersen – nima deyapsan, noto‘g‘ri gapirayapsan, demakdir[272].

وا v a – qayg‘u alam ma’nosini anglatadi[273].

ي *(j)*

يا j a[274] – yoy. Maqolda shunday kelgan

قُرْمِشْ كِرِشْ تُكْلْماسْ اُقْرُقْنْ تاغْ اَكِلْماسْ

Qurmïsh kirish to‘go‘lmäs, oqruqun tag‘ egilmäs

Qurigan yoyni bog‘lab bo‘lmaydi, shuningdek, arqon bilan tog‘ni egib bo‘lmaydi. Bu maqol arzimagan bir bahona bilan katta ishga kirishishni istagan odamga nisbatan qo‘llanadi.

---

[271] Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zning lug‘at ma’nosini izohlagan. Bu so‘z grammatik jihatdan u davr tilidagi so‘roq olmoshidir.

[272] Bu so‘zni grammatik jihatdan inkor undovi deyish mumkin. Hozirgi o‘zbek tilida *vay* yoki cho‘ziq *a* bilan talaffuz qilinib, so‘zlangan so‘zga norozilikni anglatadi.

[273] Bu so‘z hozirgi o‘zbek tilida *voy* tarzida qo‘llanadi. Bu so‘zga Navoiy xuddi shunday ma’no berib izohlagan:

Har kima bir dard etishsa noiloj der *voy, voy.*

Navoiyda afsus va alam ma’nolarida ham kelgan:

Gar tarahhum qilibon qaytmasa *voy* manga:
Sening visoling uchun dayr ichinda nolu *voy*.

[274] يا *ya* so‘ziga keltirilgan misolda ya so‘zi yo‘q. كرش *kirish* so‘zi bor. Qirish ham yoy ma’nosidadir. Shuning uchun bu anglashilmovchilik kelib chiqqan bo‘lsa kerak.

يا y a – yuqorida bayon qilingan inkorni anglatuvchi وا va so‘zi ma’nosidadir.

يو y u – xotinlar biror narsadan uyalganlarida so‘zlanadigan so‘z.

يى y i – kiyim choki. Tikuvchiga يجى *yichi* deyish ham shundandir.

يِ y i – tog‘dagi kichikkina chuqur.

يِ y i: يى يغاچ yi yïg‘ach – bir-biriga o‘ralashib, chuvalashib ketgan yog‘och. Asli يِيكِ yigi – ning ma’nosi zich edi, so‘ng qisqartirilgandir. Zich tishga يِيكِ تيشْ *yigi tïsh* deyish ham shundandir.

فَعَلْ. فُعَلْ. فَعِلْ *FA’AL, FA’UL, FA’IL* SHAKLLARIDA O‘RTASI HAR XIL HARAKATLAR BILAN TALAFFUZ QILINADIGAN SO‘ZLAR

ب *(b)*

تَبا t a b a – yo‘nalish ma’nosini ifoda etishda qo‘llanuvchi qo‘shimcha. مَنِڭ تَبا كَلْدِي Meniŋ taba keldi – *u mening yonimga keldi* degandagi kabi.

تَبا t a b a – qarshi, teskari. اُلْ اَنِڭ تباسي قِلْدِي o‘l anïn tabasï qïldï – u unga teskari ish qildi.

تَبِى t a b ï – bir narsaga rozi bo‘lish. بُو ايشْنا اَنِڭ تَبسي كَراكْ bu ïshta ăniŋ tabïsï kerăk – bu ishda uning roziligi kerak.

تَبِي t a p i – o‘rta. بُوذى تَبِي اَرْ bozi tapï er – bo‘yi o‘rta (o‘rta bo‘yli) odam.

تُبُو t o‘ p o‘ – tepa. تاغْ تُبُوسي tag‘ to‘po‘si – tog‘ tepasi.

تُبُو to‘po‘ – odam boshining tepasi.

تُوبِى t o‘ p i – qor bo‘roni. Maqolda shunday kelgan:

قَلِنْ بَلَتَغْ تُبي سُرارْ. قَرَنكُقُو ايشِغْ اُرُنجْ اَجارْ

Qalïn bulutug‘ to‘pi so‘rÿr, qaraŋqu ïshïg‘ urunch achar

Osmonni qorong‘i qilgan qora bulutdan kuchli bo‘ron paydo bo‘ladi. Shuningdek, shohlar eshigidagi qorong‘i ishni pora hal qiladi. Bu maqol zarurat tug‘ilganda pora berishiga undab aytiladi.

سُبِي s ÿ b i – har bir uzun, uchi chiqqan narsa. Odam boshi yumaloq bo‘lmasa سُبِى باشْ *sÿbi bash* deyiladi.

قُبا q u b a: قُبا اَتْ quba at – qo‘ng‘ir rangli ot. Shu xildagi har bir rangga ham shunday deyiladi.

قَبا q a p a – har bir baland narsa. قَبا يُوكْلك اُقْ qapa jo‘glo‘g oq – pati baland o‘q.

كُبا k o‘ p ä – zirak, isirg‘a.

كُبا k o‘ b ä: كُبا يَرُقْ ko‘ba yaruq* – zirh, sovut (temirdan qilingan ko‘ylak).

كِبا k i b ä – oz vaqt, qisqa zamon (o‘g‘uzcha)**. كِبا بُلْدى kiba boldi – ozgina vaqt o‘tdi.

بِتِى b i t i – osmondan izdirilgan (nozil bo‘lgan) kitoblar: Tavrot, Injil, Zabur, Qur’onlardan biri.

ت *(t)*

بُتا b o‘ t ä*** – ko‘p, mo‘l. مَنْ اَنكَرْ بُتا يَرْماقْ بِيرْدِمْ men anar bo‘tä yarmaq berdim – men unga ko‘p tanga berdim. Bu ïshqa bo‘tä boldï – bu ish bo‘lganidan ancha vaqt o‘tdi. Bu so‘z o‘g‘uzlarning كِبا kibä – oz vaqt ma’nosidagi so‘zlari kabidir.

بُتُقْ b o t u q – tuya bo‘talog‘i.

جَتُقْ c h a t u q – Chindan keltiriladigan bir xil dengiz balig‘ining shoxi****. Ba’zilar aytishicha, pichoq sopi uchun foydalaniladigan bir daraxt ildizidir. U bilan taomda zaharning bor-yo‘qligi sinaladi. Shundayki, bu shoxni sho‘r va boshqa taom ustiga qo‘yilsa, taomda o‘z-o‘zidan harakat paydo bo‘ladi. Olov yoqilmagan holda taom qaynay boshlaydi. Yoki idishga u shox qo‘yilsa, idishdan bug‘ chiqmagan holda ko‘pikcha paydo bo‘ladi.

ستا s a t a – marjon[275] (taqiladigan ziynat).

---

* V.Radlovda: *kübä jariq*.

** Olmaota nashrida: *bir necha kun*.

*** V.Radlovda: *buta// bütä*.

**** V.Radlovda: *satuq* – dengiz karkidonining shoxi; yoki noaniq bir daraxt ildizi; Olmaota nashrida: *jutuk* – chindan keltiriladigan dengiz balig‘ining mo‘yi.

[275] Bu so‘zni arabcha البصَد deb izoh qilingan. Yoniga aniqsizlik belgisi qo‘yilgan. Basim Atalay izohiga ko‘ra bu so‘z qo‘lyozmada ham shu xilda shaklida berilgan ekan (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 218-b). Marjon ma’nosidagi so‘z البسَد bo‘lishi kerak edi. Aniqsizlik belgisi, ehtimol, ana shu yanglishlikka qarshi qo‘yilgan bo‘lsa.

شُتي s h u t i – o‘rgimchak, chayon kabi hasharotlar*. Bu so‘z turkiy so‘z emas[276].

قَتا q a t a – marta, qayta. بِيرْ قَتا آيْدِمْ bir qata aydïm – bir marta aytdim.

قَيُو q a y u – qaysi. Bu so‘zning خَيُو *xayy* shakli ham bor; ق bunda خ bilan almashgandir: o‘g‘uz va qipchoqlar ق ni خ ga almashtiradilar. Ular xalachlarning bir toifasidir. Turklar يزمْ *yqïzïm* desalar, ular خِيزِمْ *xïzïm* deydilar. Turklar قَنْدا آرْدِنكْ qanda erdiŋ – *qayerda erding* desalar, ular خَنْدا آرْدِنكْ *xanda erdiŋ* deydilar.

كُتُو k ö t o‘* – tom.

كَتُو k e t o‘ – mayib, majruh, cho‘loq**.

ج *(ch)*

بُجي b u ch ï – torli cholg‘i.

سَجا s e c h ä – chumchuq (o‘g‘uzcha)***.

سَجُو s a c h u – to‘n, ro‘mol va shu kabilarning hoshiyasi, shokilasi.

قُجُو q o c h u – uyg‘ur shahrining nomi. U yerdagi shaharlarning hammasi shunday ataladi.****

گجا k e c h a – namat (o‘g‘uzcha).

گجي k e c h i – echki (o‘g‘uzcha).

گجا k e c h ä – kech, kechqurun. She’rda shunday kelgan:

[XXXVIII]

كِجا تُورُبْ يُرِرْ آرْدَمْ
قَرا قِزِلْ بُرِي كُرْدُمْ
قَتِغْ يانِي قُرا كُرْدُمْ
قَيا كُورُبْ بَقُو آغْدِي

---

* Olmaota nashri: *shivit.*

[276] Bu so‘z bosma nusxada الشر shaklida izoh qilingan. Yoniga aniqsizlik belgisi qo‘yilgan. Basim Atalay bu haqda hech qanday izoh bermay, *qirqoyoq, o‘rgimchak, chayon* kabi hasharotlar, deb izoh bergan, Bu izohga ko‘ra, arabcha izoh الشبث bo‘lishi kerak. Qo‘lyozmada shunday bo‘lsa kerak deb taxmin qilib, biz ham shunday oldik.

* Olmaota nashri: *kutu.*

** V.Radlovda: *qo‘li yo‘q, bir qo‘lli*; Olmaota nashrida: *shol.*

*** Olmaota nashri: kichkina qushcha

**** Bu so‘z bilan butun mamlakatni ham ataydilar.

Kechä turup yorïr erdim
Qara, qïzïl böri kördo‘m
Qatïg‘ yani qura kördo‘m
Qaya köro‘p baqu ag‘dï.

Kechasi turib kezar edim. Qora, qizil bo‘rilarni ko‘rib qoldim. Kuchli, qattiq yoyimni otishga hozirlandim. Bo‘rilar menga o‘girilishdi, meni ko‘rish bilan orqasiga – tepalikka ko‘tarildi.

كجا k e y ä – qovun, bodring va shunga o‘xshashlarni tashishda foydalaniladigan zambil, qop, kajava.

نَحا n e c h a – qancha ma’nosidagi bir so‘z. نَجا يَرْماقْ بِرْدِنكْ nechä yarmaq berdiŋ – qancha tanga (pul) berding. Ba’zan bu so‘z so‘roq qo‘shimchasi ma’nosida, ya’ni *qanday* ma’nosida ham keladi.

تَدُو t a d u – inson tabiati.

تَدا تَتا t a d a // t a t a – manzara, bu o‘n qadam yerdan ko‘rinarlik yer bo‘lagi.

دَدا d ä d ä – dada, ota (o‘g‘uzcha).

قُذِى q u z ï – har narsaning quyisi. اُلْ قُذِى اَلْدِى ol quzï ïldï – u quyiga tushdi, demakdir.

بُرِى b ö r ï – chiya bo‘ri*. Maqolda shunday kelgan:

(54) بُورِى قُشْنشِيسِنْ يِيماسْ
Börï qoshnïsïn yemäs –

Chiya bo‘ri qo‘shnichilik haqiga rioya qilib, qo‘shnisini yemaydi. Bu maqol qo‘shnichilik hurmatiga rioya qilishi zarur bo‘lgan kishilarga aytiladi.

بُرِى b ö r ï** – o‘q uchiga o‘tkazilgan temir halqa. Bu بَشَقْ بُرسى *bashaq borïsï* deyiladi.

بُرِى b o r ï – ichimlik idishlaridan ichimlik oqib ketmasligi uchun uning og‘ziga tiqib qo‘yiladigan tiqin, po‘kak***.

---

* V.Radlov, Olmaota nashrida: *bo‘ri.*

** V.Radlovda: *borï.*

*** V.Radlov va Olmaota nashrida: *suv manbai (buloq)ning ko‘zi tiqilib qolmasligi uchun qilingan yog‘och ixota.*

تُرِی t ÿ r i: تُرِی نانكْ tÿri neŋ – ta'mi mozi ta'miga o'xshash* qo'lansa, taxir bo'lgan har bir narsa. Qattiq, qo'pol xulqli odamga تُرِی كِشی *tÿri kishi* deyish ham shundandir.

تُرا t u r a: تُرا قَلْقَنْ tura qalqan – dushmandan saqlanish uchun qo'llaniladigan qalqon, sipar.

تُرا t ö r a – (ingichka ö bilan) to'r, uyning to'ri, yuqorisi. تُرا يُقْلادِی töra juqladï – to'rga chiqib o'ltirdi. Bu so'z تُوْر tör shaklida ham qo'llanadi.

تُرُو t ö r o' – rasm, odat*. Maqolda shunday kelgan:

(55) ايلْ قَلِيرْ تُرُو قَلْماسْ
El qalïr töro' qalmas.

Mamlakat tashlanadi-yu, odat tashlanmaydi**. Bu maqol oldingilarning odatlarini saqlashga undab aytiladi.

تَرِی t e r i – teri.

سَرُو s e r o' – uyda eshik ustiga qilinadigan raf, unga har xil buyumlar qo'yiladi.

قَرا q a r a – har bir qora narsa. Xoqoniya shohlari قَرا *qara* deb ataladi. بُغْرا قَرا خاقانْ *Bog'ra qara xaqan* deyilgani kabi. Buning maxsus hikoyasi bor.

قَراقُشْ q a r a q u sh – qirg'iy.

قَراقُشْ q a r a q u sh – Mushtariy yulduzi. Bu tong vaqtida chiqadi. Ba'zan buni قَرا قُشْ يُلْدُزْ *Qaraqush yulduz* deb ham **(543)** ataydilar.

قَراقُشْ q a r a q u sh – tuya oyog'ining teg atroflari.

قَرا أرُنْ q a r a o r u n – go'r. She'rda shunday kelgan:

[XXXIX]

بَرْمِشْ سَنِكْ بِلْ
بِلْنْكُوْ تَبَرْ قَرِنْقا
قَلْمَشْ تَقْرْ اَذِنَكْ
كِرْسا قَرا اُرُنْقا

---

* V.Radlovda: *tartib, qoida, qonun.*

** V.Radlovda: *el qaldi törü qalmas – mamlakat saqlanadi, odat saqlanmaydi;* Olmaota nashrida: *er saqlanadi, odat saqlanmaydi.*

Bermish senïŋ bil
Yalïŋuq tapar qarïnqa
Qalmïsnish tawar azinnïŋ
Kïrsa qara orunqa.

Bilgilki, birovlarga berganing yoki o‘zing yeganinggina seniki, chunki odam qorni uchun xizmat qiladi. Odam go‘rga kirgach, qolgan moli boshqanikidir. قَرا اُرُنْ *qara orun*ning asli ma’nosi qorong‘i yer demakdir.

قَرا باشْ q a r a b a sh – qullarga berilgan nom. Erkak bo‘lsa ham, ayol bo‘lsa ham bir xilda aytila beradi. Ma’nosi *boshi qora* demakdir.

قَرا باشْ q a r a o t – zaharli o‘t – parpi, parpigul. U odamni halok qiladi.

قَرا یاز q a r a y a g‘ – qora yog‘, neft.

قَرا سَنگِز q a r a s e ŋ i r – Barsag‘on o‘lkasidagi bir joy nomi.

قَرا اِتْماكْ q a r a e t m ä k – bu bir xil nondir. Shundayki, go‘sht hil-hil pishib, so‘ngaklari ayrilib ketguncha qaynatiladi. So‘ng ustiga un, yog‘, shakar solinadi, bir-biriga aralashtirilib quyilguncha qaynatiladi, so‘ng yeyiladi. Bu قَرا قُرا *qara-qura* tarzida ham qo‘llanadi.

قَرِی q a r ï – har bir qari, keksa, ko‘p yashagan narsa. Chunonchi: قَرِی اَرْ qarï er – qari odam. قَرِی اَتْ qarï at – katta yoshli ot demakdir. Boshqalari ham shunday.

قَرِی q a r ï – qo‘l o‘lchovi, tirsak uzunligidagi o‘lchov*.

قَرِی q a r ï – bo‘z o‘lchaydigan o‘lchov, gaz. Bu so‘z avvalgi so‘zdan olingan. Bu so‘zda arabchaga muvofiqlik bor. Chunki qo‘l o‘lchovi bilan kiyim o‘lchovi har ikki tilda birgina so‘z bilan ifoda qilingandir[277].

---

* V.Radlovda: 1. Qo‘lning tirsakdan boshlanadigan qismi; 2. Tirsak, arshin; Olmaota nashrida: *tirsak, qo‘l.*

[277] XI asrda bu so‘z ikki xil, lekin bir-biriga yaqin o‘lchov ma’nosida qo‘llangan. Navoiyda ham bu so‘z uchraydi. Lekin Navoiy davrida birgina ma’nodadir.

Etib a’do sipohi ming qaridin...
Toshig‘a ming qari erdin nishona.

قُرِی قُرِی q u r ï - q u r ï – toycha biya (onasi)dan orqada qolganda yetib olishga undab chaqiriladigan so‘z*. Ba’zan so‘z oxiridagi e ga almashtirilib, قُرِه قُرِه *qurreh-qurreh* shaklida ham talaffuz qilinadi.

قُرُو q u r u – temirdan qilingan uch butoqli bir xil jang asbobi*. Qipchoqlar tilida.

نَرُو n a r u – tomon ma’nosidagi bir so‘z. نَرُو بارْ naru bar – u tomonga bor demakdir[278].

ز *(z)*

بِزِی b i z i** – kuyish natijasida non yuzida paydo bo‘ladigan qoralik. اَتْماكْ بِزِی بُلْدِی etmäk bizi boldï – non yuzi kuydi.

قَزِی q a z ï – odam qornining buklami, ot qornining yog‘i.

يُنْدْ قَزِيسِی ياغْ yund kazïsï yag‘ – ot qornining yog‘i. Turklarning eng yoqimli **(544)** ozuqasi shudir.

قُزِی q o z ï – qo‘zi, qo‘zichoq.

س *(s)*

بَسا b a s a – so‘ng ma’nosidagi so‘z. مَنْ اَنْدا بَسا كَلْدِمْ men anda(n) basa keldim – men undan so‘ng keldim.

---

* V.Radlov: qoru – tikan, tikanak

[278] Mahmud Koshg‘ariyning bu so‘zning o‘ziga va bunga bergan misol izohida bu so‘zga jo‘nalish kelishigi sifatida yondashganligi ham anglashiladi. Bu so‘z II tomdagi bir she’rda ham shu ma’noda – u tomonga ma’nosidadir: نارو قُوذْغِيلْ كوازْ qozrïl go‘waz naru – *takabburlikni nariga ot* kabi. Shunisi ham borki, bu so‘z “Qutadg‘u bilik”da bu ottenkalardan uzoqlashib, boshqa ma’noda qo‘llangan: اِكِدَنْ نارو برجا يِلقِی سانِی ikidän naru – barcha jïlqï sanï. Navoiyda bu so‘z nari shaklida qo‘llanib, “Devon…”dagicha tomon va uzoqlik ma’nolarida qo‘llangan:

Nari yuzda Doroyi anjum sipoh,
Boshi uzra gardun kibi bor goh.

Dema mendin bo‘l yiroq kim tushmisham – andin yiroq,
Kim emas mumkin yana bo‘lmog‘lig‘im mundin *nari*.

Gar topsa bu so‘zidin nadomat,
Ul *nari*yu, biz beri salomat.

Hatto, Navoiyda bu so‘z so‘ng ma’nosida ham qo‘llangan:

Debon boshimni yanch, ey charxi zarkor,
Kim ul ermas bukundin nari darkor.

Demak, hozirgi o‘zbek tilida nari so‘zining uzoq va boshqa ma’nolarda aktiv qo‘llanishi Navoiy davridayoq boshlangan edi.

** Olmaota nashri: *buzi*.

بَسُو b a s u – to‘qmoq[***]. Shevalarning birida.

تُسُو t u s u – foyda, davo. أَلْ آتْ مَنكا تُسُو قِلْدِي ol ot menä tusu qildï – bu o‘t (dori) menga foyda qildi.

قَسِى q a s ï – qo‘y va boshqalarni sovuqdan saqlash uchun yog‘ochdan qilingan og‘ilxona. Boshqalari ham shunday. قَسِى بادِمْ qasï badïm – og‘ilxona soldim.

تُشُو تُشُو q a s ï – bizlarga tegishli bo‘lgan bir joy (nomi) t u s h u – t u s h u – eshakni to‘xtatish uchun qo‘llanadigan so‘z. Ba’zan ت bilan ش orasiga ر ham orttiriladi. Lekin u hech vaqt yozuvda aks ettirilmaydi. تِشِى t i sh i – har qanday jonivorning urg‘ochisi[279].

كِشِى k i s h i – odam. Bu so‘z birlikka ham, ko‘plikka ham, erkakka ham, ayolga ham farqsiz qo‘llana beradi.

كِشِى k i s h i – xotin. Men yag‘molarda quyidagicha eshitdim: أَلْ كِشِى أَلدِيمُو ol kishi aldïmu – *u xotin oldimi* demakdir.

غ *(g‘)*

بُغا b u g‘ a – Hindistondan keltiriladigan bir dorivor.

Buning sarig‘iga سارِغْ بُغا sarïg‘ bug‘a, kul rangiga بُوزْ بُغا *boz bug‘a* deyiladi. U to‘q sariq va qo‘ng‘ir rangli ham bo‘ladi.

تُغا t u g‘ a – kasallik, ruh og‘irligi. ايگ تُغا ig tug‘a – *xastalik, ruh og‘irligi,* demakdir.

جُغِى c h o g‘ ï – bir shahardan ikkinchi shaharga sotish uchun olib borilgan mol*. Bu so‘z hamma turkiy tillarda جُغِى *chug‘ï* shaklida, faqat arg‘ularda جَغِى *chag‘ï* shaklidadir.

قُغُو q u g‘ u – bir qushning nomi**.

سَغُو s a g‘ u – o‘lchov.***

*** V.Radlovda: *hovoncha,* Olmaota nashrida: *temir tayoq.*

[279] Bosma nusxada bu so‘z izohida يَقْ degan bir fe’l bor, lekin bu fe’lga tegishli boshqa so‘z yo‘q. Shuning uchun kitobning o‘zida ham aniqsizlik ishorati qo‘yilgan: تشى اللانشى ا من كل تشى يقع Basim Atalay bu haqda hech qanday izoh bermagan. Demak, qo‘lyozmada ham shunday bo‘lsa kerak.

* V.Radlovda: *čoγï – janjal, bahs, to‘polon*; Olmaota nashrida: *jugi – shovqin-suron.*

** V.Radlovda va Olmaota nashrida: *oqqush.*

*** V.Radlov va Olmaota nashrida: *g‘alla kabi donli narsalarning o‘lchov birligi.*

ڤ *(w)*

تَڤِى t e w e y**** – tuya. Bu so‘z birlikni ham ko‘plikni ham ifodalaydi. Ikki mahraj orasidagi ڤ ya’ni *w* bilan qo‘llanadigan shakli ham bor. Lekin o‘g‘uzlar دَوا *dewa* deydilar.

جَڤا c h a w a – yoshlardan birining ismi.

جُڤُى c h u w ï – xo‘tanliklar tartibida xoqondan ikki daraja quyidagi kishi unvoni. Turklarda bu boshqachadir.

جِڤِى c h ï w ï – bir toifa jinlar nomi. Bu shundayki, ikki guruh turklar bir-birlari bilan urushganda, har qaysi guruh jinlari o‘z yurti odamlari oldida yurib, bir-birlari bilan jang qiladilar. Qaysi yurt jinlari yengsa, ertasiga o‘sha yurt shohi ham g‘alaba qilgan bo‘ladi. Qaysi yurt jinlari yengilsa, u yurtdagi shoh ham yengilgan hisoblanadi. Jang qiluvchi guruhlar askarlariga jinlar o‘qlari tegishidan qo‘rqib, chodirlariga kirib yashirinadilar. Bu turklar orasida tarqalgan urf-odatdir.

قُڤِى q o w ï: قُڤِىْ يِغاجْ qowï yïg‘ach – quruq, churuk yog‘och. Bu so‘zning قُوِى qovï shaklidagi talaffuzi ham bor.

قُڤِى q o w ï: اَرْ قُڤِى qowï er – baxtsiz odam (arg‘ucha). Maqolda shunday kelgan. قُڤِى اَرْ قُدُغْقا كِرْسا يِلْ اَلِيرْ qowï er qudug‘qa kirsä yel alïr – baxtsiz odam quduqqa tushsa ham, (qiynash uchun) shamol uni quduqdan chiqarib oladi.

ق *(q)*

بَقا b a q a – qurbaqa, toshbaqaga مُنْكُرْ بَقا mo‘ŋo‘z baqa deyish ham shundan olingan.

بَقاجُقْ b a q a ch u q – baqa o‘zining kichraytirish shakli. Bu so‘z bilan kiftu qo‘l oralig‘idagi go‘sht ham ifodalanadi.

بَقُو b a q u – tepa, balandlik.

بُقا b u q a – buqa.

تَقِى t a q ï – yana ma’nosidagi so‘z. تَقِى يَرْماقْ بِيرْ taqï yarmaq ber – yana tanga (pul) ber. Bu so‘z ba’zan o‘g‘uzlarda *ham* (birga) ma’nosida keladi. اُلْ تَقِى اَنِدا o‘l taqï anda – u ham u yerda.

تُقُو t o q u – kamar to‘qasi.

سَقا s a q a – tog‘ etagi.

سُقُو s e q u – hovoncha. Bu so‘zning asli ikki *q* li edi, yengillatilgan, balandlik ma’nosidagi بَقُو *baqu* so‘zi ham ikki *q* li

---

**** Olmaota nashrida: *tavā.*

edi, u ham yengillatib olingan. Shuningdek, yomg‘ir yopinchig‘i ma’nosidagi يَقُو *yaqu* so‘zining asli ham ياغْقُو *yag‘qu* edi, qisqartirilgan. Bu Tangrining

فَظَلْتُمْ تَفَكَّهُونْ

oyatidagi* kabidir. Buning asli فَظَلِلْتُمْ تَفَكَّهُومْ edi, qisqartirilgan-dir. Bunda ham shundaydir.

اُرِى قِقِى u p ï q ï q ï – shovqin-suron.

بُكا b ÿ ka – katta uzun ilon. Maqolda shunday kelgan:

يِتّى بَشْلِغْ يِلْ بُكا

Yetti** bashlïg‘ yil bo‘kä

Yetti boshli uzun ilon.

Yaboqularning eng ulug‘laridan birini بُكا بُدْرَجْ *Bo‘kä budraj* deb ataganlari kabi ba’zan bahodirlarini ham shu so‘z bilan ataydilar. Yaboqular yetti yuz ming askar bilan qirq ming askarga ega bo‘lgan Arslon Tegin Foziyga qarshi qilgan jangda Xudo ularni mag‘lubiyatga uchratdi. Mahmud Koshg‘ariy aytadi: “Men bu jangda ishtirok etganlardan***: kofirlar shuncha ko‘p bo‘lganlari holda nega yengildi? **(546)** Urushda kofirlar shuncha ko‘p bo‘lgan holda nega qochishdi?” – deb so‘radim. U aytdi: “Biz ham bunga hayron qoldik-da, kofirlardan so‘radik, ularga shuncha ko‘pchilik bo‘la turib, qanday qilib yengildingizlar”, – dedik. Ular aytdilar: “Jang nog‘orasi chalinib, hamla boshlangach, boshlarimiz tepasida osmonni to‘sib turgan yashil tog‘ ko‘rdik. Uning sanoqsiz eshiklari bor edi, har bir eshik ochiq edi. U yerdan bizga do‘zax o‘tlarini yog‘dirishar edi. Biz undan xavfda qoldik, sizlar yengdingizlar. Bu payg‘ambarning musulmonlar himoyasi yo‘lidagi mo‘jizalaridandir”, – dedim.

بَكِى B e g i – erkaklarning nomlaridandir.

---

* Oyati karimaning o‘qilishi va tarjimasi*: Fa-zaltum tafakkahuna* – Siz ajablanmadingiz... (Qur’oni karim, 56:65)

** Olmaota nashrida: *yiti;* V.Radlovda: *yeti.*

*** Olmaota nashrida: *ko‘rganlardan.*

بُگُو b ö g o‘ – bilag‘on, donishmand, aqlli. Bu so‘zni *bilgä* so‘zi bilan birga بِلْگا بُگُو *bögo‘ bilgä* deb qo‘llaydilar. She’rda shunday kelgan:

[XL]

بِلْگُنِى اِرْدَدِمْ
بُگُونِى اُذُرْدُمْ
اُزُمْنِى اَدْرْدِمْ
يَلْغِلْ اَتِمْ يَزْلِنُورْ

Biligni irdädim
Bögo‘ni uzurdum
Özo‘mni azïrdïm
Yalg‘ïl atïm yazlïnur.

Ilmu donishni istadim. Ilmli, donishmandlarni qidirdim*. O‘zimni odamlar orasidan ayirdim. Buning uchun oq yolli otim yechiladi.

تَكا t ä k ä – erkak kiyik. Uning shoxidan yoy qilinadi.

تَكا t ä k ä – taka. Ko‘sa** odamga تَكا سَقالْ *täkä saqal* deyish ham shundandir. Bunda uning soqoli takaning soqoliga o‘xshatiladi.

تُكا t o‘ k ä – ikki yoshli buzoq. Urg‘ochi buzoq ham تُكا *to‘kä* deyiladi[280].

تِكُو t i k u – bo‘lak. بِيرْ تِكُو اَتْ bir tiko‘ et – bir bo‘lak go‘sht. Aslida ك ikki qayta takrorlangan edi. Yuqorida aytilganlaridek yengillashtirilgandir.

جِكِى j i g i – pishiq. جِكِى پِى – pishiq chok. Bu so‘zdagi جِكِى ج tikti – *pishiq tikdi* iborasidagi يِكِى *yigi* so‘zidagi ى bilan almashgan. Bu xususiyat kitobning boshida aytganimdek, qipchoq va boshqalar tilida ج ni ى bilan almashish hodisasidir. Chunonchi, ular يِنْجُو *yinju*ni چِنْجُو *chinjo‘* der edilar. **(547)**

---

* Olmaota nashrida: *ustun ko‘rdim boshqalardan ajralib turdim, oq yolli otimni qo‘yib yuboraman.*

** Olmaota nashrida: *siyrak, uzun soqolli.*

280 Bu so‘zning arabcha izohida bir aniqsizlik bor: تكا والانثى تسمى deb berilganki, *urg‘ochisi* تُكا deyiladi, demakdir. Basim Atalayning bu haqdagi izohiga ko‘ra, qo‘lyozmada ham shunday ekan. U kishi تِشِى *tishi to‘ka* bo‘lishi kerak, deb izoh bergan.

تُكُو t o‘ k o‘ t o‘ k o‘ – kuchukni chaqirishga qo‘llaniladigan so‘z.

تُكِى t o‘ g i – tariqning po‘sti olinib, tozalangandan keyingi mag‘zi (o‘g‘uzcha).

تِكِى t i g i – kechasi eshitiladigan guvullagan ovoz. Turklar tushunchasida o‘liklarning ruhlari o‘zlari yashagan shaharga har yil bir kechasi to‘planadilar, u shahar xalqlarini ziyorat qiladilar. Kechasi guvullagan ana shu tovushni eshitgan kishi o‘ladi. Turklarda bu tushuncha keng tarqalgan. Bu so‘z tilda تِكِى tigi shaklida qo‘llansa ham, mening nazdimda تَكِى *tagi* bo‘lishi to‘g‘riroqdir. Chunki xotinlar o‘z oilasini ko‘rishga borib, uyiga qaytganda تَكْدِى كَلْدِى *tegdi keldi*[281] deyiladi, ziyoratchi keldi, demakdir (bu so‘z ana shundandir).

سَكُو s e k o‘ – do‘kon, hunarxona*.

سُكا s ö k ä**: أَرْ سُكا اُلْتُرْدِى sökä olturdï – odam cho‘kkalab o‘ltirdi. She’rda shunday kelgan:

[XLI]

أَرَنْ ايِذِبْ سُكا تُرْدِى
بَشِى بُيُنِنْ سُكا تُرْدِى
أُفُتْ بُولُبْ بُكا تُرْدِى
أُذُو قَما تَبِنْ تِغْدِى

Erän ïzïp sökä turdï
Bashï boynïn söka turdï***
Ufut bolup bo‘kä turdï
Uzu qama tiben tïg‘dï.

Yengilgan odam haqida shunday deyiladi: u menga bir qancha odamlarni yubordi. Ular yonimda tiz cho‘kib o‘tirdilar. U boshliqlari qilgan ishiga uyalib, boshini quyi soldi, bo‘ynini egdi,

---

[281] Bu o‘rinda yuqoridagi mulohazaga muvofiq تَكِى كَلْدِى bo‘lishi kerak edi.

* V.Radlovda: *sekü* – o‘tirish yoki yotish uchun qilingan to‘r, balandlik.

** V.Radlovda bu so‘zning asosi *sök* deb olingan. Demakki, bu so‘z ism emas, balki fe’ldir; *so‘ka* esa uning ravishdosh shaklidir. Keltirilgan misol ham Radlov to‘g‘riligini tasdiqlaydi (B.I)

*** V.Radlovda: *Baši bojnïn sökä turdï* – u ularning boshi va bo‘ynini chopdi.

xalqdan uyalib yashirindi. Shoshilib menga kelib: *meni ta'qib qilma*, dedi. Men ham muvofiq topdim.

كُكُو k ö k o‘**** – xola. Bu so‘zning كُكُوي *köko‘j* shaklida ham talaffuzi bor. To‘g‘risi shudir. كُكُويِمْ كَلْدِي köko‘yo‘m keldi – xolam keldi, kabi.

بَلا b a l a – qush bolasi. Shuningdek, yirtqich va boshqa hayvonlarning yosh bolasiga ham istiora ravishda bu so‘z qo‘llanadi. قُشْ بِلاسِى قُسِنْجِغْ اِتْ بَلاسِى اَخْشَنْجِغْ qush bolasï qusïnchïg‘, it balasï oxshanchïg‘ – qush bolasini pat chiqarmasdan oldin ko‘rgan odam jirkanadigan bo‘ladi, ammo it bolasi o‘yinchoqday yoqimli bo‘ladi. Katta bo‘lgach, aksi bo‘ladi.

بَلُو b a l y – arg‘ularda kichik bir shahar nomi.

بَلُو بَلُو b a l u-b a l u – onalar bolasini beshikda uxlatish uchun qo‘llaydigan hozirgi tilimizdagi alla o‘rnidagi so‘z.

بَلا b a l a – ishlarda odamga ko‘mak beradigan yordamchi. **(548)** Bu so‘z ko‘pincha dehqonchilik ishlarida yordam berishga qo‘llanadi.

تَلُو t e l u – telba[282], tentak (o‘g‘uzcha).

تَلُو t a l u: تَلُو نانكْ talu neŋ – tanlangan narsa.

تُلُو t o l u – to‘la. تُلُو اِنِشْ tolu izish – to‘la idish.

Har bir to‘la narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

تُلِى to l ï – osmondan yog‘adigan jala, do‘l*.

تِلِى t i l i – o‘q temiri ustiga chulg‘angan qayish.

چِلا c h i l ä – og‘ilxonadagi otning ho‘l holdagi yangi tezagi.

سَلِى s a l ï – andava.

**** V.Radlovda: *kükü – amma.*

[282] Bizdagi hozirgi *telba* so‘zi ana shu o‘zakdandir. Navoiyda *telba* shaklida uchraydi:

Bazmdag‘i qari-yu gar xud yigit,
Maydin o‘lub har biri bir *telba* it.

(Shoh bazmiga ishtirok etgan qariya ham, yigit ham mastlikdan telba it holiga tushgan edi).

* O‘rxon yozuvlarida bu so‘z *taluy* shaklida “dengiz” deb berilgan. Qarang: S.E.Малов. Памятники древнетуркской письменности. M., 1951. S. 27, 34.

سُلِی s ÿ l i – qullarga beriladigan nomlardandir. Bu سُلَيْمانْ *syläjmän* so‘zining qisqargani bo‘lishi mumkin.

قُلا q u l a: قُلا اَتْ qula at – za’faron rangli ot.

قَلِی q a l ï – qanday, agar, basharti ma’nosidagi yordamchi so‘z. She’rda shunday kelgan:

[XLII]

كَلْسا قَلِی قَتِقْلِقْ اَرْتَرْ تَيُو سَرِيڭِلْ
اَڈْلِكْ اِيڭْ بِلِبْ تُرْ اَنْجا اَنْكَرْ تِرَڭِلْ

Kelsä qalï qatïg‘lïq ertär teyo‘ seriŋil*
Özlÿk ïshïn bilip tur ancha aŋar tiräŋil**.

Senga qattiq tashvish va alam etsa, o‘tib ketar deb sabr qil. Dunyo ishlarini bilib turishga tirish. Har qanday kulfatni o‘zingga olib, joningni qiynama. بُو سَنْ بُو اِيشِغْ قَلِی قِلْدِشِنْكْ bu sen bu ïshïg‘ qalï qïldïŋ – sen bu ishni qanday qilding? سَنْ قَلِی بَرْسا سَنْ sen qalï bapca sen – agar sen borsang kabi.

كُلِی k ÿ l i – yormay, danagi bilan quritilgan o‘rik, shaftoli qoqi.

م ***(m)***

تَمُو t a m u – do‘zax, tamug‘. Maqolda shunday kelgan:

تَمُو قَبْغِنْ اَجارْ تَڤارْ
Tamu[283] qapug‘in achar tawar

---

* Olmaota nashrida bu so‘z quyidagicha ko‘rinishda: *Kalsā kali katiglik ār tartayu sarinkil*

** Olmaota nashrida: *tarinkil.*

283 Bu so‘z hozir bizda tamug‘ shaklida qo‘llanadi. Navoiyda ham shunday qo‘llangan:

Afvin aning tutmasang ummidsan,
Bilki *tamug‘* o‘tida jovid san.

(Ey shoh, agar bu gunohlaringni kechirishdan umid qilmasang, qilmishlaring uchun do‘zax olovida abadiy kuyishga loyiqsan).

Navoiyda bu ma’noda ko‘proq *do‘zax* so‘zi qo‘llanadi:

Kimki bo‘lur bir shararing fosh anga,
Do‘zax o‘ti bo‘lg‘usi podosh anga.

(Birovga biror zararing, yomonlig‘ing tegsa, o‘zing ham do‘zax o‘tida jazolanasan).

Pora do‘zax eshigini ochadi, nega boshqalar ochmas ekan[***]. *Bu maqol ish bitishini istagan odam pora berishi kerak* degan ma’noda qo‘llanadi.

تُما t u m a: تُما بُخْسُنْ tuma buxsun – tariqdan qilingan ichimlik (bo‘za)ning xum tepasiga vijillab ko‘pirib chiqqan qismi.

جُغِى c h u g‘ ï – baqiriq, chaqiriq. جُغِى جَمِى قِلْدِي chug‘ï chamï qïldï – *u baqirdi, chaqirdi*, demakdir. *Chamï* yolg‘iz holda qo‘llanmay, جُغِى *chug‘ï* bilan birga juft holdagina qo‘llanadi.

سُما s u m a – ivitilgan bug‘doy nomi. Uni quritib tuyiladi. So‘ng undan ugra osh va non qilinadi. Sharbat uchun qilingan, undirilgan arpa uchun ham bu so‘z qo‘llanadi.

كَمِى k e m i – kema. O‘g‘uz va qipchoqlar tilida.

كُمِى k ÿ m i: كُمِى تَلاسْ Kÿmi talas – uyg‘urlarning chegara o‘lkasidagi bir joy nomi.

كِمِى k i m i – kema. **(549)** O‘g‘uzlardan boshqa turk qabilalarida qo‘llanadi. She’rda shunday kelgan:

[XLIII]

كِمِى اِجْرا اَلْدُرُبْ
الا سُقْنْ كَجْتِيمِزْ
أَيْغُرْ تَبا بَشْلَنِبْ
مِنكُلَقْ اشِيلِنْ اَجْتِمِيزْ

Kimi ichrä oldurup
Yla suwïn kechtimiz
Uyg‘yr taba bashlanïp
Mïŋlaq elin achtïmïz.

Kemaga o‘tirib, Ila suvidan o‘tdik (Ila – katta bir nahrdir). So‘ng uyg‘urlar tomonga yuzlandik, hattoki, Minglaq yurtini ochdik (bosib oldik).

مَما m a m a – g‘alla yanchish vaqtida o‘rtaga qo‘yilgan ho‘kiz. Xirmonda boshqa ho‘kizlar buning atrofida aylanadi.

مَمُو m a m u – nikoh kechasi kelin bilan birga yuboriladigan xotin, yanga. Bu so‘z aslida turkcha emasdir.

[***] V.Radlovda: *boylik (mulk) do‘zax eshigini ochadi.* Olmaota nashrida: *rishvat (pora) do‘zax eshigini ochadi.*

نَما n e m ä – bilmadim, degan ma'nodagi so'z. نَما نا قِلْدِی nema ne qïldï – bilmayman, nima qildi, kabi[284].

ن (n)*

تَنا t a n a – kunjut va boshqa har xil urug' turlari. Uch va arg'ular tilida.

تَنُو يَمُو...[285] – "ko'rarsan" ma'nosidagi ikki so'z. مَنْ بَرْغايْ مَنْ يَمُو men barg'ay men yamu – men albatta boraman, ko'rarsan.

سُنِی s u n ï – uyning yog'ochi, to'sini.

قَنُو q a n u: قَنُو كِشِی qanu kïshi – qaysi odam. Arg'ular so'zi. ن bilan ی ga almashgan.

قَنِی قانِی q a n ï-q a n ï – qayerda ma'nosidagi so'z. أُغْلُمْ قَنِی og'lum qanï? – o'g'lim qani?

كُنِی köni: كُنِی نانكْ köni nen – to'g'ri narsa*. Ishonchli kishiga ham كُنِی اَرْ köni er deyiladi.

كُنِی k ÿ n i – quma***.

Maqolda shunday kelgan:

(58) كُنِينكْ كُلِينا تَكُو يَغِی

Kuniniŋ kÿlinä tyogo' yag'ï

Qumaning kuligacha dushmandir. Hattoki, kuli ham bir-birining ko'ziga tushadi.

مُنُو m u n u – mana ma'nosidagi so'z. Bu so'z قانِی qanï – *qayerda* degan so'zning javobidir.

---

[284] Mahmud Koshg'ariyning bu izohidan faqat biror holatga, ya'ni so'zlovchi bilolmagan narsaga xos bo'lib qolgan. Holbuki, u davr matnlarida so'zlangan yoki ishlangan ishni bilmasligigagina emas, umuman, noma'lum narsa ma'nosida uchraydi.

* Olmaota nashrida chalkashlik bor. Xuddi shu harfdan boshlab to *köni:* so'zining izohiga qadar qayta bosilgan. So'zlarning raqamlanishi ham, tabiiyki, orttirib yuborilgan (H.B.).

[285] Bosma nusxada bu so'zlarning yozilishida aniqsizlik bor. Basim Atalay izohiga ko'ra, bu so'zlarda qo'lyozmada ham aniqsizlik bor ekan (Qarang: III jild tarjimasi. 238-b).

** Olmaota nashrida: *kuni* - tekis narsa.

*** V.Radlovda: *cho'ri, nikohsiz xotinlarning bir-biriga munosabati*; Olmaota nashrida: *xotinlardan biri, kundosh.*

د *(d)*

دَوا d a v a – yulg‘un yog‘ochining mevasi. Uni buyoqchilar ishlatadilar.

دَوا d a v a – yung bo‘lagi. Yungning kalava qilinib, yigirilishga tayyorlangan bo‘lagi.

قُوا q o v a**** – qovg‘a (o‘g‘uzcha).

قُوا q o v a – turkcha yuganlarda ot burniga **(550)** tegib turadigan qayish.

Har xil harakatlar bilan qo‘llanadigan فاعلْ *fa’il* shaklidagi so‘zlar

لبتُو ...[286*] – bir xil taom. Suv, qor, muz kabi narsalar qo‘yib sovitiladi. So‘ng ichiga ko‘katlar solinadi. Sovuqlik emish sifatida eyiladi.

قاجا q a c h a – qop, xalta. Asli قاقاجا qaqacha deyiladi. Ba’zan qisqartib قَجا qacha tarzida ham talaffuz qiladilar.

قُوجُو q o j u – uyg‘ur shaharlaridan birining nomi**.

جُوجُو c h u c h u – turk shoirlaridan birining ismi.

قِيچِى q ï c h ï – hardal.

ن *(n)*

اُونُو u n u – uni. مُونُو munu – muni[287].

سُونُو s u n u – shuniz.

قانِى q a n ï – qayerda ma’nosidagi so‘z***.

**** Olmaota nashrida: *kuvä.*

[286] Bosma nusxada bu so‘zlarning yozilishida aniqsizlik bor. Basim Atalay izohiga ko‘ra, bu so‘zlarda qo‘lyozmada ham aniqsizlik bor ekan (Qarang: III jild tarjimasi. 238-b).

* B.Radlovda: *letü;* Olmaota nashrida: *litu.*

** Olmaota nashrida: *Uyg‘ur mamlakatining nomi.*

[287] Mahmud Koshg‘ariy bu erda ko‘rsatish olmoshlarini turli xillarga bo‘lib bergan. *Uni* olmoshini ذاك ma’nosida deb izohlagan bo‘lsa, *bu* olmoshini هذا deb izohlagan. U davr tilida yaqinni ko‘rsatishga *bu, mana* so‘zlari qo‘llangan, uzoqni ko‘rsatishga *u* shakli qo‘llangan. Bularning birlik, ko‘plik shakllari ham bor edi: *u, bu, ular, bular* kabi. “Qutadg‘u bilik”da *by* olmoshi, asosan, *mu* shaklida uchraydi: *Tïlasan munï tut, tïlasan anï.*

*** Olmaota nashrida shu o‘rinda qo‘shimcha sarlavha berilgan: [Bdvoyne slabые] tarzida.

لِيُو l i y o‘ – quriganda quruq balchiqqa aylanadigan qum bilan aralash loy[****].

أوهى o‘ h i – boyqush. Ko‘pchilik turklar أوكى *ÿki* shaklida talaffuz qiladilar.

Har xil harakatlar bilan qo‘llanuvchi فَعالْ *fa’ol* shaklidagi so‘zlar

ت *(t)*

خِتَايْ x ï t a y – yuqori mansab nomi[*****].

غ *(g‘)*

تِغَايِ ta g‘ a y – amaki[*].

چِغَايْ c h i g‘ a y – kambag‘al. She’rda shunday kelgan:

[XLIII]

كُنْكُلْ كِمِنكْ بُلْسا قَلِى يُوقْ چِغَايْ
قِلْسا كُجُنْ بُلْماسْ آنِى تُقْ بَايْ

Könÿl kimiŋ[**] bolsa qalï yoq chïg‘ay[288]
Qïlsa ko‘cho‘n bolmas anï toq bay.

Ko‘ngli och, yo‘qsul bo‘lgan kishini kuch bilan to‘q, boy qilish mumkin emas.

[****] V.Radlovda: *qumli qattiq va quruq loy;* Olmaota nashrida: *qurishida qotib qoladigan loy.*

[*****] V.Radlovda: *Xitoy;* Olmaota nashrida: *Yuqori Chin nomi.*

[*] V.Radlovda: *amaki, tog‘a;* Olmaota nashrida: *tog‘a (ona tomon).*

[**] Olmaota nashrida: *kimnik.*

[288] XI acp tilida kambag‘al ma’nosida, asosan, *chigay* so‘zi qo‘llangan. Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni ayrim qabilalarning *chïg‘an* tarzida, ayrim qabilalarning *chïg‘ay* tarzida talaffuz qilishlarini ko‘rsatgan. Shuning o‘zi bu so‘z u davrda hamma qabilalarda ham qo‘llanganini ko‘rsatadi. Bu so‘z Navoiyda ham uchraydi:

Tindurur boyu *chig‘ayni* hokimi ravshan zamir,
Uyni yoritmas ko‘sov o‘n qatla yorutsang ani.

Har xil harakatlar bilan qo‘llanuvchi فَعْلِى *fa’lo* shaklidagi so‘zlar

ر *(r)*

تُرْنا t u r n a – turna.

قَرْوَى q a r v a y***: قَرْوى يا qarvay ja – ingichka yoy. Nozik qoshli kishiga قَرْوى قَشْلِغْ كِشِى *qarvaj qashlig‘ kishi* deyish shundandir. Bu so‘z arabchaga mosdir. قَرْوَ *qarva* arab tilida har bir yoy kabi egilgan narsaga nisbatan aytiladi. SHoir she’rida shunday:

[XLIV]

رُوبَهُ يَذْكُرُ بَعِيرَهُ***
قرواءِ مَنْ جانبن

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلال *fa’lol* shaklidagi so‘zlar

ب *(b)*

شَنْبُوىْ s h a n b u y – ziyofatdan so‘ng kechasi hozirlangan boshqa bir ichkilik ziyofatining nomi (kanjakcha).

بُخْتَايْ b o x t a y – kiyim bo‘xchasi. Bu so‘zning بُخْتوىْ boxtuj shakli ham bor.

لُخْتَايْ l o x t a y – Chinning bir xil qizil ipak kiyimligi, ustida sariq xollari bo‘ladi.

ج *(ch)*

قُنْجُوىْ q u n c h u y – sayyida xotin, xon bilan qondosh kichik malika. U خاتُونْ xatundan bir pog‘ona pastdir. قاتُونْ قُنْجُوىْ *qato‘n qunchuj* deyish shundandir.

د *(d)*

بُغْدايْ b u g‘ d a j **(551)** – bug‘doy. Maqolda shunday kelgan:

بُغْدايْ قَتِنْدا سَرْفَجْ سُقْاُور

Bug‘day qatïnda sarfach[289]* suwalur

*** V.Radlov, Olmaota nashri: *qarvï* – egri yoy.

**** Arab tilidagi she’rning o‘qilishi: *Rubau yazkuru ba’irau: qarva’ min jonibin.* Tarjimasi: *O‘z tuyasini tasvirlab shunday deydi: beli bukchaygan.*

[289] Bu so‘z bosma nusxada سَرْفَجْ *sarfach* shaklida berilgan bo‘lsa ham, aslida سَرْقَجْ *sarqach* bo‘lishi kerak. I jildda shaklida to‘g‘ri berilgan edi.

Bug‘doy orqasidan qoramug‘ ham suv ichadi. Bu maqol birovga hamsuhbat bo‘lish natijasida yaxshilikka erishgan kishiga aytiladi. Barsag‘onliklar بُغْداىْ *bug‘daj* deb talaffuz qila olmaydilar, ular بُدْغاىْ *budg‘ay* deydilar. “Barsag‘onlik emasman” degan kishiga shu so‘zni ayttirib sinaladi.

جِلْداىْ c h ï l d a y** – otlarning ko‘kragiga chiqadigan bir yara. Uni dog‘lab tuzatadilar.

سَمْدُوىْ s a m d u y – issiq, sovuqlikda o‘rtacha bo‘lgan, barchaning tabiatiga yoqadigan taom nomi***.

قُرْداىْ q o r d a y – bir xil qush (pelikan). She’rda shunday kelgan:

[XLV]

قُرْدَىْ قُغُو اَنْدا اُجُبْ يُمْغِنْ اُتارْ
قُزْغُنْ ينكان سَيْرَبْ اَنِنْ اُنِى بُتارْ

Qorday[290] qug‘u anda uchup yumg‘in ötär
Quzg‘un yanan cayrap anïn uni bo‘tär.

Joy go‘zalligini ta’riflab aytadi: bu yerda qorday, qug‘u va boshqa qushlar suv atrofida har xil yoqimli ovozlar bilan sayrashadilar, quzg‘unlar, olaqarg‘alar sayray berib, tovushlari bitadi.

ش (sh)

قُمْشُوىْ q o m s h u y – qon bilan to‘lgan kana. Bu so‘z siydigi tutilib, siyalmay qolgan odamga ham masal tariqasida so‘zlanadi.

---

* V.Radlovda: *sarqai;* Olmaota nashrida: *sarkij.*

** Olmaota nashrida: *jilray (jilday?)*

*** V.Radlovda: *biroz sovigan ovqat;* Olmaota nashrida: *issiq ham, sovuq ham bo‘lmagan tabiiy holdagi ovqat*

[290] *Qurday* so‘zi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan حواصل *havasïl qushi* deb izohlangan. *Qog‘u* ham shunday izohlangan edi (Qarang: III jild. 170-b). *Quzg‘un* – katta qora qarg‘a deb izohlangan. Bizda ham hozir *qora qarg‘a* ma’nosida qo‘llanadi. Navoiyda *quzg‘un* – qora qarg‘a ma’nosida uchraydi. Hatto, Navoiyda ko‘chma ma’noda – *qorong‘i tun* ma’nosida ham qo‘llangan:

Chunki tun *quzg‘uni* havo qildi,
Tong qushi navha ibtido qildi.

غ *(g‘)*

بُورْغُوىْ b o r g‘ u y – burg‘u.

جِرْغُوىْ c h ï r g‘ u y – yoy o‘qining qalin, shishgan joyi.

جِرْغُوىْ c h ï r g‘ u y – to‘nning o‘mrovi.

جَلْغَاىْ c h a l g‘ a y – qush qanotining uchlari.

قِرْقُوىْ q ï r q u y – qirg‘iy. يُوءْ يُوءْ *ju’, ju’* deb sayraydigan qush.

Shunga o‘xshagani uchun (dushman kelganini bildirish uchun) چِبِكْ قِرْغُوىْ *chepäk qïpg‘yy** deyiladi.

قَرْغُوىْ q a r g‘ u y – tog‘ cho‘qqisiga yoki baland yerlarga mayoqqa o‘xshatib qurilgan inshaot. U yerda o‘t yoqilishi bilan dushmandan xabar beriladi va odamlar jonlarini ham, mollarini ham qutqarishga harakat qiladilar.

مِنْغُوىْ m ï n g‘ u j – qog‘oz yopishtirishda foydalaniladigan bir xil xamir. Yaxshi yopishishi uchun uni suv bilan qaynatilib quyiltiriladi.

ق *(q)*

جُلْقُوىْ c h u l q u y – جُلْقُوىْ اَتْكْ chulquy eto‘k – to‘pig‘ining bir tomoni yorilib ketgan etik. Qo‘li nogiron yoki beso‘naqay odamga جُلْقُوىْ اَلِكْ *chulquy elig* deyish ham shundandir.

BESH HARFLILAR BO‘LIMI

چ *(ch)*

تَرِغْچِى t a r ï g‘ c h i – don ekuvchi dehqon.

سُرُغْچِى s o r u g‘ c h ï – yo‘qolganni so‘roqlovchi.

قُرُغْچِى q o r u g‘ c h ï – qo‘ruvchi. Narsani qo‘riqlovchi.

قُرُنْچِى q u r u n c h ï – chodirda yoki boshqa yerda tutundan qoraygan namat. Boshqalari ham shunday.

---

* Olmaota nashrida: *jibak kirgo‘y* – bo‘z lochin.

Yashirin narsa kelinda bo‘ladi, chunki u yaxshi narsani eri uchun yashirib qo‘yadi. كَسْلِنْجُو k e s l i n c h ÿ – boshi kichik, dumi uzun bir maxluq*.

فَعُوللى *faullï* shaklidagi so‘zlar

حُقُبَرِى h u q u b a r ï[291]** – ma’dan moddalari eritiladigan gilvata idish.

قَراغُنِى q a r a g‘ u n ï – bolalarning kechasi o‘ynaydigan bir xil o‘yinining nomi.

فَعْلَالْ *fa’lal*[292] shaklidagi so‘zlar

تِرمْتاىْ t u r u m t a y[293] – yirtqich qushlardan birining nomi. Odamga ham تُرُمْتاىْ *turumtay* deb laqab beriladi.

To‘rt harfli ismlar kitobi tugadi.

---

* V.Radlov va Olmaota nashrida: *kaltakesak*.

[291] Bu so‘z ح harfi bilan berilgan. Holbuki, bu harf turkchada yo‘qdir. Shuning uchun Basim Atalay va Brokkelmanlarning bu to‘g‘ridagi shubhalari juda to‘g‘ridir (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 243-b).

** V.Radlov va Olmaota nashrida: *čuqubarï*.

[292] Bu so‘z فَعْلَالْ emas, فَعْلَالْ bo‘lishi kerak.

[293] تُرُمْتاىْ *turumtaj* II jildda *qul nomi* ma’nosida izohlangan: اَلْتِى تُرُمْتايْمْنِى *altï turumtajïmnï* – Turumtoy nomli qulimni olib qochdi (Qarang: II jild. 88-b).

Bismillohi-r-rahmoni-r-rahim

FE'LLAR BOBI

Ikki harflilar

ت *(t)*

تَيْدِى t a y d ï – toydi. اَرْ تَيْدِى ep taydï – odam toydi. Shuningdek, har bir hayvonning oyog'i yomg'ir yoki loyda toyishiga ham bu so'z qo'llanadi (تَيْماقْ .تَيارْ tayar, taymaq).

تُيْدِى t u y d ï: اَرْ ايشِنْ تُيْدِى er ïshin tuydï – odam ishida o'ziga noma'lum (yashirin bo'lgan) bir narsani sezdi. (تُيْماقْ .تُيارْ tyyar, tuymaq).

تِيْدِى t ï y d ï – tiydi. اُلْ اِنى تِيْدِى o'l anï tïydï – u uni tiydi, biror ishdan qaytardi. Bu so'zning asli تِدْتِى tïztï edi, so'ng yengillatilgandir. (تِيْماقْ .تِيارْ tïyar, tïymaq).

تُيْدِى t o y d ï – to'ydi. قَرِنْ تُيْدِى qarïn toydï – qorin to'ydi. Bu so'zning asli ذ bilan تُذْتِى toztï edi, yuqorida aytganimizdek, ذ ni ى ga aylantiruvchilarning til xususiyatiga muvofiq harflar almashtirilgandir. (تُيْماقْ .تُيارْ toyar, toymaq).

س *(s)*

سُيْدِى s o y d ï اَرْ قُويُغْ سُيْدِى er qoyug' soydï – odam qo'y terisini shildi. Boshqalari ham shunday (سُيْماقْ .سُيارْ coyar, **(553)** soymaq). Maqolda shunday kelgan:

بِيرْ تِلْكُو تَرِيسِنْ اِكِيلا سُيْماسْ
Bir tilku terisin ikilä soymas

Bir tulki terisi ikki martalab shilinmaydi.

Bu maqol odamdan bir marta yaxshilik ko'rib ikkinchi marta ham yaxshilik istagan kishi haqida aytiladi.

ق *(q)*

قَيْدِى q a y d ï: قَداشِنكا قَيْدِى qadashïŋa qaydï – yaqiniga mehribonlik qildi. Boshqalari ham shunday. Maqolda shunday kelgan:

قَذْشْ تِمِشْ قَيْمادُقْ. قَذِنْ تِيمِشْ قَيْمِشْ
Qazash temish qaymaduq, qazïn temish qaymïsh

"Birodar" desa, "yaqin" desa, "mehribonlik qilmapti, qaynata" degandagina mehribonlik ko'rsatipti.

Bu maqol sovchilarni hurmatlashga rioya qilishi zarur bo'lgan odamga nisbatan aytiladi. She'rda shunday kelgan:

[XLVI]

بَرْدِنكْ نَلَكْ اَيْمَدِنكْ
كِيرُو كُرُبْ قَيْمَدِنكْ
كنكل برو يَيْمَدِنكْ
بُلْدُنكْ اَرِنجْ بُلْمَغُو

Bardïn neläk* aymadïn
Kery köro'p qaymadïŋ
Köŋul bero' yaymadïn
Bolduŋ erinch bolmag'u.

Ketding, ammo ketishingni nega aytmading? Nega mehribonlik qilmading? Orqangdagilarga e'tibor bermading, nega ko'ngling bizlarga moyil bo'lmaydi? Hozir endi o'zingga noloyiq shunday bir holga tushding.

قَيْدِى q a y d ï: كيرو kero' qaydï – orqasiga qaradi (قَيارْ. قَيْماقْ qayar, qaymaq).

قُيْدِي q u y d ï: اَرْ كُبْكا سُوڤْ قُيْدِي er ko'bga cyw quydï – odam kubga suv quydi va suvni unda chayqatdi. Shuningdek, boshqa har bir suyuq narsaga ham bu so'z qo'llanadi. (قُيارْ. قُيْماقْ quyar, quymaq).

قُيْدِي q o y d i: اَتْ قُيْدِي at qoydï – ot hurkib qochdi**. Boshqalari ham shunday (قُيارْ. قُيْماقْ qoyar, qoymaq).

قِيْدِي q ï y d ï: اَرْ سُوزِنْ قِيْدِي er sözin qïydï – odam so'zidan, va'dasidan aynidi.

قِيْدِي q ï y d ï – kesdi. اُلْ يِغاجْ قِيْدِي o'l yïg'ach qïydi – u yog'ochni qayirib kesdi (قِيارْ. قِيْماقْ qïyar, qïymaq).

ك *(k)*

كُيْدِي k ÿ y d i – yondi, kuydi. اُتُنكْ كُيْدِي otuŋ kuydi – o'tin yondi. Boshqalari ham shunday (كُيارْ. كُيْماكْ kÿyar, kÿymäk).

---

* Olmaota nashrida: *naluk.*

** Olmaota nashrida: *ot chopdi.*

Bu bo‘limning boshqa bir turi

يَيْدِى y a y d ï: اُلْ سُوڤدا تُونُغْ يَيْدِى o‘l suwda tonug‘ yaydï – u to‘nini suvda silkitdi, chayqadi.

يَيْدِى y a y d ï: اُلْ مَننكْ كُنْكُلْ يَيْدِى o‘l menïŋ köŋo‘l[294] yaydï – u mening ko‘nglimni rag‘batlantirdi. Boshqalari ham shunday.

يَيْدِى y a y d ï – qimirlatdi. يِيلْ يِغاچِغْ يَيْدِى yel yïg‘achïg‘ yaydï – shamol daraxtni qimirlatdi (يَيْماقْ .يَيارْ yayar, yaymaq).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

بادِى b a d ï – bog‘ladi. اُلْ اَتِغْ بادِى o‘l atïg‘ badï – u otni bog‘ladi. Boshqalari ham shunday. **(554)** Har bir narsa ip, arqon bilan bog‘lansa ham, shu so‘z qo‘llanadi (بارْ .باماقْ bar, bamaq).

تُودِى t u d ï – yumdi. اُلْ اَغْزِنْ تُودِى ol og‘zïn tudï – u og‘zini yumdi. Har bir teshik bekitilishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (.تُورْ تُورماقْ tur, turmaq).

تِيدِى t e d i: اُلْ مَنْكا اَنْداغْ تِيْدِى o‘l menä andag‘ tedi – u menga shunday dedi* (تِيرْ .تِيرْماكْ ter, temak).

سادِى s a d i – sanadi. اَرْ قُويُغْ سادِى er qoyug‘** sadi – odam qo‘yni sanadi. Boshqalari ham shunday. (سارْ .ساماقْ sar, samaq). She’rda shunday kelgan:

[XLVIII]

قَرا تُونُكْ كَجُرْسادِمْ
اَغرْ اُونِى اُجُرْسادِمْ
يَتِيكانِكْ قَجُرْسادِمْ
سَقِشْ اِچرا كُنُمْ تُغْدِى

Qara to‘no‘g kechursädim
Ag‘ïr unï uchursadïm.
Yetikänig qachursadïm
Saqïsh ichra ko‘no‘m tug‘dï.

Qorong‘i kechaning o‘tishini istadim. Og‘ir uy-quni[295] qochirishni istadim, bir necha marta Etti qaroqchi yulduzining

---

[294] Bu so‘z bosma nusxada كُنْكا yozilib qolgan (Qarang: III jild. 186-b), to‘g‘risi كُنْكُلْ dir.

* Olmaota nashrida: *u menga buni aytdi.*

** Olmaota nashrida: *ko‘nug.*

aylanishini sanadim[296*]. Sanamoqda edim, kunduz quyoshi porlab chiqdi.

سُودِی s u d ï: اَنکَرْ بُیُونْ سُودِی اَلْ o'l aŋar boyyn sudï – u unga bo'ysundi, itoat etdi.

سُودَی s u d ï: مَنْکا یُونکْ سُودِی اَلْ o'l mena yÿn sudï – u menga to'qish uchun yung yubordi. (سُورْ .سُوماقْ sur, sumaq)

سِیدِی s ï d ï – sindirdi. سُیْدِی اُتُنکْ اَلْ o'l otun sïdï – u o'tinni yordi. Boshqalari ham shunday.

سِیْدِی s ï d ï – engdi (sindirdi). سِیْدِی سُونی اَلْ o'l suni sïdï – u askarni engdi. (سِیرْ .سِیماقْ sir, sïmaq).

ق *(q)*

قادِی q a d ï قادِی اَشِجْکا اَلْ o'l ashichka otun qadï – u qozon atrofiga o'tin qaladi.

قادِی q a d ï: تُونُغْ قادِی اَلْ o'l tonug' qadï – u to'nni sandiqqa taxladi. (قارْ .قاماقْ nar, qamaq). Bu yag'molar so'zidir. To'g'rirog'i قالادِی *qaladïdir.*

Bu bo'limning boshqa bir turi

یُودِی y u d i – yuvdi. تُونْ یُودِی اَلْ o'l ton yudi – u to'nni yuvdi. Boshqalari ham shunday (یُورْ .یُوماقْ yyr, jumaq).

یِیدِی y e d i – edi. اَشْ یِیدِی اَلْ o'l ash yedi – y osh edi. Boshqalari ham shunday. Yaboqu qabilasi tilida بَکْ کِشِنِی یِیدِی beg

---

[295] Basim Atalay bu so'zning اوذی bo'lishi kerakligi haqida izoh bergan (Qarang: turkcha tarjimasi, III jild. 248-b).

[296] یتیکانیگ قَجُرْسادِمْ *yatïkanïg qachursadïm* gapini Mahmud Koshg'ariy فَعَدَدْتُ دَورانْ بَناتِ بَعْشِ مرلاراً deb bergan, ya'ni Etti qaroqchi yulduzining aylanishini bir necha marta sanadim demakdir. Demak, قَجُرْسادَمْ *qachursadïm*ni bir necha marta sanadim deb izohlagan. Holbuki, "Devon..."ning har uch jildidagi *qachurmaq, qachmaq, qachturmaq* so'zlari tamom boshqa ma'noda izohlangan. Demak, bu so'z qancha ma'nosidagi قَجْ *qach* so'zidandir. Shu holda, qachurlagi ur so'zi *marta* ma'nosida kelgan bo'ladi.

* Ushbu izohga sharh: agar ushbu she'riy parchadagi belgisini hisobga olib o'girilsa

Qara tÿnÿg kechÿr sadïm.
Ag'ïr unï uchur sadïm.
Jetikänig qachur sadïm,
Saqïsh ichrä kÿnÿm tug'dï

tarzida o'qiladi va mazmuni: Qora-qorong'i tun o'tib ketadi deb hisoblardim, qo'rqinchli tushni nari ketkaza olaman deb hisoblardim. Etti qaroqchining osmondagi hukmron-ligini ketkaza olaman deb o'ylaganimda quyosh o'zi porlab chiqdi, deb berilsa bo'ladi.

kishini jedi deydilar – bek odam molini nes-nobud qildi, demakdir. (يِيمَاكْ .يِيرْ yer, yemak). Bu fe'l turini biz to'rtli deb atadik. Chunki birinchi shaxsni ifodalovchi so'z to'rt harflidir. أَتْ بادِمْ at badim – otni bog'ladim yoki قُوىْ سادِمْ qoy sadim **(555)** – *qo'yni sanadim* degandagi kabi. Bunday fe'llar arabchada ham دَعَوْتْ .غَدَوْتْ to'rt harflidir. Bular orasidagi o'xshashlikka muvofiq shunday ataldi.

فَعْلِدِى *FAALDI* SHAKLIDA O'RTASI UCH XIL HARAKATLAR BILAN QO'LLANADIGAN SO'ZLAR BO'LIMI

ب *(b)*

اَبِيدِى a b i d ï – yashirdi. اَبِيدِى كِشِيدَنْ اَنِى اُلْ o'l anï kishidan abidï – u uni odamlardan yashirdi. Har bir narsani birovdan yashirishga ham bu so'z qo'llanadi (اَبِيمَاقْ .اَبِيرْ abïr, abïmaq).

اَتادِى atadï اُلْ اَنكَرْ اَتْ اَتادِى o'l aŋar at atadï – u unga bir laqab* berdi. Ot qo'yib atashga ham bu so'z qo'llanadi (اَتَامَاقْ .اَتَارْ atar, atamaq).

ت *(t)*

اُتادِى o' t a d ï: اُلْ تَرِغْ اَتادِى o'l tarïg' otadï – u ekinni o'tadi. Bu ekin buzilmasligi uchun yaproqlarini chilpishdir. Ba'zan boshlari (uchlari) kesilgan ekinga ham bu so'zni qo'llaydilar. (اُتَارْ .اُتْمَاقْ otar, otamaq).

اُتادِى ö t ä d i: اُلْ اَنِكْ اَلِمِنْ اُتادِى o'l anïŋ alïmïn ötadi – uning qarzini to'ladi (اُتَامَاكْ .اُتَارْ ötar, ötamak).

[XLIX]

بُلْسا كِمِنكْ اَلْتُنْ كُمُشْ اَرْلا اِتارْ [297]
اَنْدا بُلُبْ تَنكْرىبُكْروا تَبْغِنْ اُتارْ [298]

---

* Olmaota nashrida: *unvon.*

[297] Bu misradagi اَرلا so'zi bosma nusxada aniqsiz qolgan. Basim Atalay bu so'z xususida bosma nusxadagi tuzatishga muvofik. اِرْ *er* deb to'g'ri izoh bergan (Qarang: "Devon" tarjimasi, III jild. 251-b). Arabcha tarjima ham shuni tasdiqlaydi.

[298] Ikkinchi misradagi تنكربكروا so'zida yanglishlik bor. Basim Atalay ko'rsatishicha, تنكرقكروا shaklida ekan, to'g'risi تنكربكرو bo'lishi kerak deb tuzatgan. Arabcha تَقْضِى حِينَئِذٍ عِبادةً لِلّٰهِ تَعالى iborasi ham shuni talab qiladi. Bu erda *-garu* jo'nalish kelishigi funktsiyasidadir.

Bolsa kimiŋ* altun ko‘mo‘sh ïrla** etär,
Anda bolup teŋribÿkrÿ*** tapg‘ïn ötar.

Kimning oltin, kumushi bo‘lsa, uy-joy quradi. Joyidan xotirjam bo‘lgach, u yerda Xudoga ibodat qiladi.

أتيدى ö t i d i – dazmol qildi. أل توڤغ أتيدى o‘l tonug‘ ötidi – u to‘n choklarini**** temir (dazmol) bilan silliqladi. (أتيماك .أتيرْ ötir, ötimäk).

أتادى o t a d ï: أل أتتك أتادى o‘l otuŋ otadi – u o‘tin yoqib isindi. Bu nozik bir so‘z bo‘lib, yag‘mo va yamaklar so‘zidir.

أتادى o t a d ï – davo qildi. أمچى أنكرْ أت أتادى emchi aŋar ot otadï – tabib unga davo qildi*****. (أتماقْ .أتارْ o‘tar, o‘tamaq. O‘g‘uzcha).

چ *(ch)*

أچيدى a c h ï d ï – achidi. سرْكا أچيدى sirka achidi – sirka achidi, nordon bo‘lib qoldi. Yara og‘rib achishiga ham bu so‘z qo‘llanadi. (أچيماقْ .أچيرْ achïr, achïmaq).

ر *(r)*

أريدى a r ï d ï: أريدى نانكْ arïdï neŋ – narsa tozalandi.

(أريماقْ .أريرْ arïr, arïmaq).

أرُودى e r ÿ d i – eridi. ياڤْ أرُودى yag‘ erÿdi – yog‘ eridi. Boshqalari ham shunday (أرُوماكْ .أرُورْ ero‘r, ero‘mak).

ايريدى i r i d i: يڤاچْ ايريدى yïg‘ach iridi – yog‘och uzoq zamon o‘tishi natijasida chiridi. Boshqalari ham shunday. So‘ngak chirisa ham shunday (ايريماكْ .ايريرْ irir, irimak).

ز *(z)* *******

أزيدى a z ï d ï – terladi. كُبْ أزيدى kup azïdï – kub terladi (ko‘bdagi narsa sizdi, kub terladi). Har xil sopol idishdan sizgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

أزيدى a z ï d ï: قُلاقْ أزيدى qulaq azïdï – shovqin-so‘rondan quloq kar bo‘layozdi. (أزيماقْ .أزيرْ azïr, azïmaq).

---

* Olmaota nashrida: *kimnik.*
** Olmaota nashrida: *avla;* B.Radlovda: *erla* (uchastok).
*** Olmaota nashrida: *tanrikaru.*
**** Olmaota nashrida: *tuklarini, yungini.*
***** Olmaota nashrida: *tabib uni uyqudori bilan davoladi.*
****** Olmaota nashrida ushbu harfga negadir “n” belgisini qo‘ygan.

س *(s)*

اِسِيدِى i s i d i – isidi. مُونْ اِسِيدِى mo‘n isidi – sho‘rva isidi. Boshqalari ham shunday.

اِسِيدِى i s i d i: تَمُرْ اِسِيدِى temo‘r isidi – temir qizidi. Boshqalari ham shunday (اِسِيماكْ .اِسِيرْ isir, isimak).

اَشادَى a s h a d ï: اَرْ اَشْ اَشادَى er ash ashadi – odam taom edi. Xoqoniylar bu so‘zni faqat kattalarga xoslab qo‘llaydilar. Boshqa turklar farqsiz har kimga ham qo‘llay beradilar. Bularniki qoidaga muvofiqdir. (اَشاماقْ .اَشارْ ashar, ashamaq).

اُشادِى ushadi: اُلْ بِيرِكْ اُشادِى o‘l yerig ushadi – u erni qidirdi, yerda bir narsani axtardi. Boshqalari ham shunday (اُشارْ .اُشاماك o‘shar, o‘shamak).

اَشُودِى e s h ÿ d i: اُلْ اَنكَرْ يُغُرْقانْ اَشُودِى o‘l anar yyg‘yrqan eshÿdi – y unga yopinchiq yopdi. Har bir narsa ustiga bir narsa yopilib bekitilsa ham bu so‘z qo‘llanadi. (اَشُومَاكْ .اَشُورْ esho‘r, esho‘mak).

اُشِيدِى ÿ s h i d i – ushidi, junjikdi. اَرْ اُشِيدِى er ushidi – odam sovuqdan ushidi, junjikdi. (اُشِيمَاكْ .اُشِيرْ ÿshir, ÿshimak).

ق *(q)*

اُقِيدِى o q ï d ï – chaqirdi. اُلْ مَنِي اُقِيدِى o‘l meni oqïdï – u meni chaqirdi.

اُقِيدِى o q ï d ï – o‘qidi. اَرْ بِتِكْ اُقِيدِى er bitik oqïdï – u kitob, xat o‘qidi (اُقِيمَاقْ .اُقِيرْ oqïr, oqïmaq).

اُقِيدِى u q ï d ï – qusdi. اَرْ اُقِيدِى er uqïdï – odam qusdi (.اُقِيرْ اُقِيمَاقْ o‘qïr, uqïmäq)[299].

ك *(g)*

اُكِيدِى ÿ g i d i: اَرْ بُغْدَايْ اُكِيدِى er bug‘day ÿgidi – odam bug‘day tortdi, tegirmon qildi. Boshqalari ham shunday (اُكِيمَاكْ .اُكِيرْ ÿgir, ÿgimak).

اِكادِى i g ä d i اُلْ بِجاكْ اِكادِى o‘l pichäk igädi – u pichoqni egovladi. Boshqalari ham shunday.

اِكادِى i g ä d i – g‘ijirlatdi. بُغْرا تِيشِنْ اِكادِى bog‘ra* tishin igädi – nor tuya tishini g‘ijirlatdi (اِكاماكْ .اِكارْ igär, igämäk).

---

[299] Bu so‘z haqida arabcha هَذا ركَّةُ الكافِ و degan jumla bor. Ya’ni ق bilan emas ك bilan qo‘llanadi, demakdir. Basim Atalay fikricha, bu ibora boshqa so‘zga daxlli bo‘lib, bu erga yanglish tushgan bo‘lsa kerak (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 254-b).

* B.Radlov: *buγra.*

إكادِى i g ä d i: أنكَرْ إكادِى o'l aŋar igädi – u unga o'jarlik qildi, haddan ortiq takabburlik qildi (إكاماڤْ .إكارْ igär, igämäk).

ل *(l)*

أُلادِى ÿ l ä d ï – ulashdi. أُلْ يَرْماڤْ أُلادِى o'l yarmaq ÿladi – y tanga (pul) ulashdi. Boshqalari ham shunday (أُلاماڤْ .أُلارْ ulär, ulämäk).

أُلادِى u l a d ï – uladi, bir-biriga bog'ladi. أُلْ يِبْ أُلادِى o'l yïp uladï – u ipni uladi. Boshqalari ham shunday.

أُلادِى u l a d ï: أُلْ يَغُوقْ أُلادِى o'l yag'uq uladi – y yaqinlariga, yurtiga etishdi*. (أُلاماقْ .أُلارْ ular, ulamaq).

أُلِيدِى u l ï d ï: بُرِى أُلِيدِى böri ulïdï – bo'ri ulidi. Kechasi it dahshatli ulisa ham **(557)** shu so'z qo'llanadi. Shuningdek, odam qattiq alamdan, og'riqdan bo'riga o'xshab uvlasa ham, bu so'z qo'llanadi (أُلِيماقْ .أُلِيرْ ulïr, ulïmaq). Maqolda shunday kelgan:

يَزِيدا بُرِى أَڤدا اِتْ بَغْرِى تَرْتِشُورْ

Yazïda böri ulïsa ewda ït bag'rï tartïshur

Sahroda bo'ri o'lisa, (unga achinib, mehribonlik qilib), uydagi itning ko'ngli achiydi. Bu maqol yaqinlarning bir-birlariga yordam qilishlariga undab aytiladi.

أَلِيدِى öldi – ho'l bo'ldi. تُونْ أُلِيدِى ton ölidi – to'n ho'l bo'ldi. Boshqalari ham shunday. (أُلِيماڤْ .أُلِيرْ ölir, ölimäk). Maqolda shunday kelgan:

كَدْكُلْڤْ أُلِيماسْ كُفَجْ لِڤْ كُرِيماسْ

Kezÿklÿg ölimas, ko'fäachlig kÿrimäs

Yopinchiqli odam yomg'irdan ivimay, u bilan saqlanib qoladi, shuningdek, yugan so'liqli bo'lsa, ot sarkashlik qila olmaydi. Bu maqol har qanday ishda hozirlik ko'rishga undab aytiladi.

---

* Olmaota nashrida: *U qarindoshlik munosabatlarini yo'lga soldi.*

ن *(n)*

أَنُودِى a n u d ï: أَنُودِى نانكْ anudi neŋ – narsa tayyorlandi. Bu fe'l o'timsiz fe'ldir. Agar arabcha gapirishga to'g'ri kelsa, إِنْعَدَّ deyilar edi. Lekin arabchada bunday qo'llanilmaydi (أَنُوماقْ .أَنُورْ anur, anumaq).

أُنادِى u n a d ï – unadi. أُنادِى أُلْ بُو إِيشِغْ o'l bu ïshïg' unadï – u bu ishga unadi. سَنْ أُنادِينگُمُو sen unadïŋmu – sen rozi bo'ldingmi? (.أُنارْ أُناماقْ unar, unamaq).

إِنادِى e n ä d i – belgi, nishon أُلْ قُوِينْ إِنادِى o'l qoyïn enädi – taniqli bo'lsin deb, u qo'y qulog'ining bir qismini kesdi.

(إِناماكْ .إِنارْ enär, enämäk).

ب *(p, b)*

سَبِيدِى s a p ï d ï – qimirladi, liqilladi أَتْ قُدْرُقِى سَبِيدِى at qudruqï sapïdï – otning dumi qimirladi. Boshqalari ham shunday. (.سَبِيرْ سَبِيماقْ sapïr, sapïmaq).

سُبِيدِى s u b i d ï – so'poqlandi سُبِيدِى نانكْ subidï nen – narsa uzaydi, uchlari ingichkalandi. (سُبِيماقْ .سُبِيرْ subïr, subïmaq).

كَبِيدِى k e p i d i: تُونْ كَبِيدِى ton kepidi – to'nning ust tarafidagi nam quridi. Narsaning ba'zi yerlari qurishiga ham bu so'z qo'llanadi (كَبِيماكْ .كَبِيرْ kepir, kepimak).

كُبِيدِى k o' b i d i: أُلْ تُونْ كُبِيدِى o'l ton ko'bidi – u to'nni zichlab tiktirdi*. (كُبِيماكْ .كُبِيرْ ko'bir, ko'bimäk).

ت *(t)*

تَتِيدِى t a t ï d i: أَشْ أَغزْدا تَتِيدِى ash ag'ïzda tatïdï – taom og'izda totli ko'rindi, lazzat berdi**. (تَتِيماقْ .تَتِيرْ tatïr, tatïmaq). Maqolda shunday kelgan:

كِشِى أَتِى تِرِكْلا تَتِيدِى **(64)**

Kishi eti tiriglä tatïr

Odam etining shirinligi faqat sog'ligida bo'ladi. Ya'ni odam **(558)** sog'ligidagina ishlab mol topadi, shirin taomlar qilib, undan lazzatlanadi, demakdir***.

---

* Olmaota nashrida: *u to'nini qoqdi.*

** Olmaota nashrida: *ovqat lazzatli edi.*

*** Olmaota nashrida: *Kishini tanasi unini tirikligida lazzatlidir*. Bizning taxmini-mizga ko'ra, matndagi so'z asli bo'lishi kerak. Shunda maqolning mazmuni: *Kishi mulki, dunyosi tirikligida shirindir* bo'ladi.

ج *(ch)*

سُچِيدِى s o‘ c h i d i: سُچِيدِى نانڭ suchidi neŋ – narsa chuchidi, yaxshilandi. (سُچِيماڭ .سُچِيرْ so‘chir, so‘chimäk).

سُچِيدِى s u c h ï d ï – sakradi. اَتْ سُچِيدِى at suchidi – ot sakradi. Boshqalari ham shunday (سُچِيماقْ .سُچِيرْ suchir, suchïmaq).

كُجادِى k o‘ c h ä d i: اُلْ اَنِڭْ تَڤارِنْ كُجادِى o‘l aniŋ tawarïn kÿchädi – y uning molig‘a zo‘rlik qildi. (كُجاماڭْ .كُجارْ ko‘chär, ko‘chämäk). Yana: اُغْلانِغْ كُجادِى og‘lanïg‘ ko‘chädi – qul yoki joriyaga yomonlik qildi, zulm o‘tkazdi. She’rda shunday kelgan:

[L]

اُذِكْ مَنِى كُجايُرْ
تُنْ كُنْ تُرُبْ يِغْلَيُو
كُرْدِى كُزُمْ تَڤْرَقِنْ
يُرْتِى قَابْ اَغْلَيُو

O‘zik meni ko‘chäyo‘r
To‘n ko‘n turup yïg‘layu
Kördi közo‘m tawraqïn
Yyrtï qalïn ag‘layu

Sevgi menga zo‘r kelayotir, kecha-kunduz yig‘layman: yurtini bo‘sh qoldirib uzoqlashganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim.

د *(d)*

كِچِيدِى k i c h i d i* – qichidi. اَتِمْ كِچِيدِى etim kichidi – badanim qichidi. Hayvonlar etining qichishiga ham shunday deyiladi. (.كِچِيرْ كِچِيماڭ kichir, kichimäk).

بَدُودِى b e d ÿ d i – ulg‘aydi. اُغْلانْ بَدُودِى og‘lan bedudi – bola katta bo‘ldi, ulg‘aydi. Har bir narsa kichikdan katta bo‘lishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (بَدُوماڭ .بَدُورْ bedo‘r, bedo‘mak).

بُذِيدِى b ÿ z i d i: قِيزْ بُذِيدِى qïz bo‘zïdi – qiz o‘ynadi. Boshqalari ham shunday (بُذِيماڭ .بُذِيرْ bo‘zir, bo‘zimak). Maqolda shunday kelgan:

قُرتْغا بُذِيڭْ بِلْماسْ پِيرِمْ تارْ تِيرْ **(65)**
Qurtg‘a bo‘zïg bilmäs jepim tar ter

---

* Olmaota nashrida: *kajidi*.

Kampirning o‘zi o‘yin bilmaydi-yu, er tor deydi. Bu maqol bir ishda bilag‘onlik qilib maqtangan kishidan ish qilish so‘ralganda, bajarmay, yolg‘on bahonalar ko‘rsatadigan kishiga aytiladi.

ذ *(ž)*

أُذِيدِى u ż ï d ï – uxladi. أَرْ أُذِيدِى er użïdï – odam uxladi. Boshqalari ham shunday (أُذِيماقْ .أُذِيرْ uzïr, użïmaq).

بُذُودِى b o ż y d ï – bo‘yadi. أُلْ تُونُغْ بُذُودِى o‘l tonug‘ bożudï – u to‘nni bo‘yadi. Boshqalari ham shunday.

بُذُودِى b o ż u d ï: أُلْ أُقِنْ أُرْدِى كَيِكْنِى يِغاجْقا بُذُودِى o‘l oqïn urdï kejikni jïg‘achqa bożudï – u ovni otdi, uni yog‘ochga yopishtirdi**. Boshqalari ham shunday (بُذُورْماقْ .بُذُورْ bożur, bożurmaq)[300].

قَذُودِى q a ż u d i: أُلْ تُونُغْ قَذُودِى o‘l tonug‘ qażudï – u to‘nni siyraklab tikdi (قَذُوماقْ .قَذُورْ qażur, qażumaq).

يِذْيِدِى y i ż ï d ï: يِذْيِدِى نانكْ yïżïdï neŋ – narsa hidlandi. Bu asossiz so‘zdir.

ر *(r)*

تَرادِى t a r a d ï – taradi. قِيزْ سَچِنْ تَرادِى qïz sachïn taradï – qiz sochini taradi.

تَرادِى t a r a d ï: أَنِكْ سُوسِنْ تَرادِى aniŋ sÿsin taradï – uning askari tarqatildi. Bu so‘zning asli تَرْدِى *tardï,* ya’ni narsani ajratdi.

Ko‘rasanki, ular kelasi zamon fe’lida bir xillashadi. Ayirdi ma’nosidagi تَرْدِى *tardï* fe’lining kelasi zamon shakli ham تَرارْ *tarar*, تَرادِى *taradï*ning kelasi zamon shakli ham *tarar* bo‘ladi. Lekin bu tartib hamma fe’llar uchun umumiy emasdir. Ikki va uch undoshli fe’llarda kelasi zamon shakllari bir xilda bo‘lib, o‘tgan zamon shaklida farqli qo‘llanadi. Chunonchi, أَرْ أَرتْ اَشْدِى er art ashdï – odam daradan o‘tdi gapida va أُلْ اَشْ اَشادِى o‘l ash ashadï – *u taom edi* gapida o‘tgan zamon shakli ikki xil bo‘lgan. اَشْدِى *ashdï* va اَشادِى *ashadï* fe’llarining kelasi zamon shakli bir xil اَشارْ ashardir. Yana أُلْ سُقْقا قَنْدِى o‘l cywqa qandï – *u suvga qondi*

---

* B.Radlovda: u ovni otib daraxtga yopishtirib qo‘ydi (o‘q ov tanasidan o‘tib, daraxtga kirdi)

[300] Bu so‘z aslida بُذْماقْ *bozumaq* bo‘lishi kerak edi. Bosma nusxada bu so‘zning yozilishida aniqsizlik borligi haqida ishorat bor (Qarang: III jild. 195-b).

gapidagi قَنْدِى *qandï* fe'lining kelasi zamon shakli قَنارْ *qanar* tarzida kelsa, *u otidan qon oldi* ٱلْ اَتِنْ قَنادِى *o'l atïn qanadï* – gapidagi o'tgan zamon fe'li قَنادِى *qanadï*ning kelasi zamon fe'li ham oldingi fe'lga o'xshash قَنارْ *qanar* shaklida – bir xil qo'llanadi. Oldingisining masdar shakli قَنماقْ *qanmaq* shaklida kelsa, ikkinchisining masdari قنماماق *qanmamoq*dir[301]. Boshqacha aytganda, bu fe'llarning kelasi zamon shakllari bir xil, o'tgan zamon va masdar shakllari farqlidir.

تَرُودِى t a r u d ï – toraydi. اَفْ تَرُودِى ew tarudï – uy toraydi*. Ko'krak va boshqa narsalarning torayishiga ham bu so'z qo'llanadi. اَرْ بُشْدِى تَرُودِى er pushdï tarudï – odam bezor bo'lib siqildi, fe'li toraydi (تَرُومَاقْ .تَرُورْ tarur, tarumaq).

تُرُودِى t ö r ÿ d i – yaratildi. يِلِنْكُنْ تُرُودِى alïnuq törudi – odam yaratildi. Bu fe'l o'timsizdir (تُرُومَاكْ .تُرُورْ töro'r, töro'mak).

تَرِيدِى t a r ï d ï – ekdi**. ٱلْ تَرِغْ تَرِيدِى o'l tarïg' tarïdï – u ekin ekdi. Boshqalari ham shunday (تَرِيمَاقْ .تَرِيرْ tarïr, tarïmaq).

تِرادِى t i r ä d i – tirgov qo'ydi, tiradi. ٱلْ قَبُغْ تِرادِى o'l qapug' tirädi – y eshikka tirgov qo'ydi. Har bir narsaga tirgov qo'yishga ham bu so'z qo'llanadi (تِرامَاكْ .تِرارْ tirär, tirämäk).

سِرِيدِى s ï r ï d ï: اِتْ سِرِيدِى it sïrïdï – it bulg'atdi, siydi.

سِرِيدِى s ï r ï d ï: ٱلْ كِزِنْ سِرِيدِى o'l kiziz sïrïdï – u namatni turkmanlar chodirining ustki yopig'idek yoki ko'chish kunidagi o'rovlari kabi zich qilib, pishiqlab tikdi (سِرِيمَاقْ .سِرِيرْ sïrïr, sïrïmaq). **(560)**

سَرُودِى s a r u d ï – o'radi. ٱلْ سُولُقْ سَرُودِى o'l suluq sarudï – u salla o'radi. Har bir narsaning ustiga biror narsa o'ralsa ham, shu so'z qo'llanadi (سَرُومَاقْ .سَرُورْ sarur, sarumaq)[302].

قَرِيدِى q a r ï d ï – qaridi. اَرْ قَرِيدِى er qarïdï – odam qaridi. Boshqalari ham shunday (قَرِيمَاقْ .قَرِيرْ qapïp, qarïmaq). Maqolda shunday kelgan:

اَرسْلانْ قَرِيسا سِجْغانْ اَتِنْ كُذارُورْ **(66)**

---

[301] Bosma nusxada *qanamoq* so'zi قنماماق bo'lsa ham, aslida قناماق bo'lishi kerak.

* Olmaota nashrida: *uy tor edi.*

** Olmaota nashrida: *(er) haydadi, chopdi; u er haydadi.*

[302] Bu fe'lning kelasi zamon shakli bosma nusxada berilmagan.

Arslan qarïsa, sïchg‘an ötin közazo‘r
Arslon qarisa, sichqon inini poylaydi.

Bu maqol katta ish qilishga kuchi etmay, kichik ishga rozi bo‘lgan qariyalarga nisbatan qo‘llanadi.

قُرِيدِى q u r ï d ï تُونْ قُرِيدِى qurïdï ton – to‘n quridi. Boshqalari ham shunday. (قُرِيمَاقْ .قُرِيرْ qurïr, qurïmaq).

قُرِيدِى q o r ï d ï* – qo‘riqladi. اَتْغُ قُرِيدِى qorïdï – u ko‘k o‘tni qo‘riqladi. Boshqalari ham shunday. (قُرِيمَاقْ .قُرِيرْ qorïr, qorïmaq).

كُرَادِى k ÿ r ä d i: قُلْ كُرَادِى qul ko‘rädï – qul qochdi. Boshqalari ham shunday (كُرَامَاكْ .كُرَارْ ko‘rär, ko‘rämäk).

كُرِيدِى k ÿ r i d i – depsindi. اَتْ كُرِيدِى at kÿridi – ot oldingi oyoqlari bilan erni o‘ydi.

كُرِيدِى k ÿ r i d i – kuradi. اُلْ قَارِغْ كُرِيدِى o‘l qarïg‘ kÿridi – u qorni kuradi (كُرِيمَاكْ .كُرِيرْ kÿrir, kÿrimäk).

ز *(z)*

بِزَادِى b e z ä d i: اُلْ اَفْنْ بِزَادِى o‘l ewin bezädi – u uyini bezadi, bo‘yadi. Boshqalari ham shunday (بِزَامَاكْ .بِزَارْ bezär, bezämäk).

تُزَادِى t u z a d ï – tuzladi. اُلْ اَتْ تُزَادِى o‘l et tuzadï – u go‘sht tuzladi تُزَادِى *tuzadï* so‘zi تُزْلَادِى *tuzladï* o‘rnida[303] qo‘llanadi.

قَذِيدِى q a z ï d ï – qazidi. اُلْ بِيرِكْ قَذِيدِى o‘l yerig qazïdï – u erni qazidi. Shuningdek, yara va boshqa shunga o‘xshashlarni kovlashga ham bu so‘z qo‘llanadi (قَذِيمَاقْ .قَذِيرْ qazïr, qazïmaq).

قُرِيدِى q u r ï d ï: اَنِكْ بُغْزِى اَشْقَا قُرِيدِى anïŋ bog‘zï ashqa qurïdï – uning tomog‘i oshga (etolmay) quridi*. Qo‘llaniladigan shakl shudir. Lekin to‘g‘rirog‘i, qoidaga muvofig‘i nuqtasiz, ya’ni ر – r bilan qo‘llashdir. Bunday qo‘llash سُوتْ اَمْزِدِى *so‘t emo‘zdi* gapidagi اَمْزِدِى *emÿzdi* kabidir. (قُرِيمَاقْ .قُرِيرْ qurïr, qurïmaq)[304].

قِزُودِى q ï z u d ï: تَقَارْ قِزُودِى tawap qïzudï – molning bahosi ko‘tarildi, qimmatlashdi (قِزُومَاقْ .قِزُورْ qïzur, qïzumaq).

---

* Bu ikki so‘z Olmaota nashrida bir xil – omonim shaklida berilgan.

[303] Bu so‘zning masdar va kelasi zamon shakli ko‘rsatilmagan.

** Olmaota nashrida: *uning tomog‘i ovqatdan quridi.*

[304] Bu erda arabcha iborada bir oz aniqsizlik bor. Iboraga ko‘ra, قُزِيدِى .قُزِيرْ قُزِيمَاقْ *quzïdï, quzïr, quzshaq* bo‘lishi kerak. Holbuki, *qurïmaq, qurïdï, qurïr* shaklida berilgan.

قِوادِی q ï z a d ï: أَلْ قِیزُغْ قِوادِی o‘l qïzïg‘ qïzadï – u qizning qizligini oldi (قِواقْ .قِوارْ qïzar, qïzamaq).

کُزادِی k ö z ä d i: أَلْ أَتْ کُزادِی o‘l ot közädi – y olovni kosov bilan jo‘nashtirdi, kovladi (کُزاماقْ .کُزارْ közär, közämäk).

کُزادِی k ö z ä d i*: أَلْ أُزمْنِی کُزادِی o‘l uzumni közädi – u uzum boshidan g‘ujumlarini ayirib oldi.

کُزادِی k ÿ z ä d i – kuzladi, kuzlab qoldi. أَلْ یَیْلاغْدا کُزادِی ol yaylag‘da kÿzädi – u mol boqiladigan joyda (yaylovda) kuzladi (کُزاماقْ .کُزارْ ko‘zär, ko‘zämäk).

س *(s)*

سَسِیدِی s a s ï d ï – sasidi. سَسِیدِی نانقْ sasïdï neŋ – narsa sasidi (سَسِیماقْ .سَسِیرْ cacïp, sasïmaq).

کُسادِی k ÿ s ä d i – istadi, kusadi. أَلْ أَنِی کُرْماکِنْ کُسادِی o‘l anï körmäkin kÿsädi – u uni ko‘rmoqni, unga yo‘liqmoqni istadi, kusadi. Har bir narsani ko‘rishni istalsa ham bu so‘z qo‘llanadi (کُساماقْ .کُسارْ ko‘sär, ko‘sämak).

ش *(sh)*

بَشادِی b a s h a d ï: أَلْ یِغاچْغْ بَشادِی o‘l jïg‘achïg‘ bashadï – u daraxtni kesib, belgilar qildi. Boshqalari ham shunday. Shuningdek, yog‘ochlar bir-biriga suyab, tirab qo‘yilsa ham, shu so‘z qo‘llanadi (بَشاماقْ .بَشارْ bashar, bashamaq).

بُشُودِی b o s h u d ï: أَنِقْ أُوزِي بُشُودِی anïŋ özi boshudï – uning ichi bo‘shaldi, ravonlashdi.

بُشُودِی b o s h u d ï: تُکُونْ بُشُودِی to‘go‘n boshudi – tugun bo‘shabroq qoldi.

بُشُودِی b o s h y d ï – echildi. بُشُودِی أَتْ at boshudï – ot bog‘lovidan echildi, bo‘shaldi.

بُشُودِی b o s h u d ï – ruxsat etdi. جانْ یَلاوَچِغْ بُشُودِی xan jalavachïg‘ boshudï – xon mamlakatiga qaytish uchun elchiga ruxsat etdi.

بُشُودِی b o s h u d ï: أَرْ أُراغُتِّنْ بُشُودِی ep urag‘uttïn boshudï – er xotinini taloq qildi, ajrashdi (arg‘ucha). Bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsizdir (بُشُورْ .بُشُوماقْ boshur, boshumaq).

---

* Olmaota nashrida bu va keyingi so‘z omonim sifatida berilgan.

تَشُودِى t a s h u d ï – tashidi. اُلْ اَفكا يَرْماقْ تَشُودِى o'l efgä jarmaq tashudï – u uyiga tanga (pul) tashidi. Boshqalari ham shunday. (تَشُورْ. تَشُوماقْ tashur, tashumaq).

تُشادِى t ÿ s h ä d i: اُلْ تُوشْ تُشادِى o'l to'sh tushadi – u tush ko'rdi. Uyquda ihtilom bo'lsa ham shu so'z qo'llanadi (.تُشارْ تُشاماكْ to'shar, to'shamak).

تُشادِى t ö s h ä d i – to'shadi. تُشاكْ تُشادِى töshak töshadi – to'shak soldi, yozdi. Boshqalari ham shunday.

تِشادِى t i s h ä d i – qayradi. تِكِرْمانْ تِشادِى tegirmän tishädi – tegirmon toshini qayrab, o'tkir qildi.

Bu gapda muzof (aniqlanmish) tushirilib, uning o'rniga muzofunilayh (aniqlovchi) qo'yilgandir. Chunki تِكِرْمانْ butun tegirmonning nomidir. Tegirmon o'tkir qilinmaydi, faqat uning toshi o'tkir qilinadi. Bu gapda ana shu tosh so'zi tushirilgan.

تِشادِى t i s h ä d i: اُلْ اُرْغاقْ تِشادِى o'l org'aq tishadi – y o'roqni o'tkirladi (تِشارْ. تِشاماكْ tishär, tishämäk).

چِشادِى c h i s h ä d i: اُغْلانْ چِشادِى og'lan **(562)** chishädi – bola chush qildi, bulg'atdi. Bu so'z faqat yosh bolalarga nisbatan qo'llanadi.

سَشُودِى s e s h ÿ d i: تُكُونْ سَشُودِى tugo'n seshÿdi – tugun bo'shadi, hattoki, echilayozdi (سَشُورْ. سَشُوماكْ sesho'r, sesho'mak).

قَشِيدِى q a sh ï d ï – qashidi. اُلْ مَنِي قَشِيدِى o'l meni qashïdï – u mening badanimni qashidi (قَشِيرْ. قَشِيماقْ qashïr, qashïmaq). Maqolda shunday kelgan

اُلْدَچِى سِچْغانْ مُوشْ تَشَقِنْ قَشِيرْ

Öldächi sïchg'an mush tashaqin qashïr

Sichqonning o'limi yaqinlashsa, mushukning tashag'ini qashiydi. Bu maqol faqatgina bekorga ketadigan ishga qo'l urgan kishi haqida aytiladi.

كُشِيدِى k ö s h i d i: تامْ كُونُكْ كُشِيدِى tam ko'no'g köshidi – devor kunni to'sdi. Shuningdek, yorug'likni to'sgan har qanday narsaga ham shu so'z qo'llanadi (كُشِيرْ. كُشِيماكْ köshir, köshimäk).

كِشادِى k i s h ä d i: اُلْ اَتِغْ كِشادِى o'l atïg' kishädi – u otni bog'ladi

كِشادِى k i s h ä d i – bog'ladi. اَرْ قُولِنْ كِشادِى er qulïn kishädi – odam qulini bog'lab qo'ydi (كِشارْ. كِشاماكْ kishär, kishämäk).

غ *(g‘)*

سُغِيدِى s o g‘ ï d ï – sovudi. سُوڤْ سُغِيدِى cyw sog‘ïdï – suv sovudi. Boshqalari ham shunday (سُغِيماقْ .سُغِيرْ sog‘ïr, sog‘ïmaq).

ق *(q)*

تَقِيدِى t o‘ q ï d ï – taqillatdi. أَلْ قَبْغْ تَقِيدِى o‘l qapug‘ toqïdï – u eshikni taqillatdi.

تُقِيدِى t o‘ q ï d ï – urdi. أَلْ قُولِنْ تُقِيدِى o‘l qulïn toqïdï – u qulini urdi (o‘g‘uzcha). Boshqa turklar *urdi* ma’nosida أُرْدِى‌قِيدِى *urdi-to‘qïdï* shaklida juft holda qo‘llaydilar.

تُقِيدِى t o‘ q ï d ï – yasadi. تَمُرْجِى قِاجْ تُقِيدِى temurchi qïlich to‘qïdï – temirchi qilich, pichoq va boshqa narsalarni yasadi.

تُقِيدِى t o‘ q ï d ï – to‘qidi. أَرْ بُوزْ تُقِيدِى er böz to‘qïdï – odam bo‘z to‘qidi. Boshqalari ham shunday.

تُقِيدِى t o‘ q ï d ï – cho‘ktirdi. أَنِى سُوڤْ تُقِيدِى anï cyw to‘qïdï – uni oqar suv cho‘ktirdi.

تُقِيدِى t o‘ q ï d ï: أَرْنِى يِلْ تُقِيدِى erni yel to‘qïdï – odamga el tegdi (تُقِيماقْ .تُقِيرْ toqïr, toqïmaq).

سَقِيدِى s a q ï d ï: أَلْ مَنِڭْ كُوزُما سَقِيدِى o‘l menиŋ közo‘mä saqïdï – u ko‘zimga ko‘rindi.

سَقِيدِى s a q ï d ï: سَقِيدِى ساقِغْ saqïg‘ saqïdï – Ko‘kat ko‘ziga suv bo‘lib ko‘rindi (سَقِيماقْ .سَقِيرْ saqïr, saqïmaq).

سُقِيدِى s u q ï d ï – qitiqladi. أَلْ أَنِى سُقِيدِى o‘l ani suqïdï – u uni barmog‘i bilan qitiqladi (سُقِيماقْ .سُقِيرْ suqïr, suqïmaq).

سِيقَادِى s ï q a d ï – siladi. أَلْ أَنِڭْ بَشِنْ سِيقَادِى o‘l anïŋ bashin sïqadï – u unga achinib, rahm qilib, qo‘li bilan boshini siladi. Har narsaning ustiga qo‘l yuborib timirskilashga ham bu so‘z qo‘llanadi (سِيقاماقْ .سِيقارْ sïqar, sïqamaq).

قَقِيدِى q a q ï d ï: أَلْ أَنِدِنْ قَقِيدِى ol andïn qaqïdï – u undan achchiqlandi, qilgan ishidan xafa bo‘ldi (قَقِيماقْ .قَقِيرْ qaqïr, qaqïmaq). Bu so‘z arg‘ular tilida قَقِيُورْ *qaqïjyr* shaklida qo‘llanadi. Arg‘ular bu bobdagi hamma kelasi zamon fe’llarini ham, o‘sha qo‘shimcha bilan so‘zlashga zarurat bo‘lmagani holda, shunday so‘zlaydilar. Bu qoidaga muvofiq emas, balki kamchilikdir.

ك *(k, g)*

بَكُودِى b e k ÿ d i: تُكُونْ بَكُودِى to‘go‘n bekÿdi – tugun mustahkamlandi. Biror narsa bekilsa, mustahkamlansa ham shu so‘z qo‘llanadi (بَكُومَاكْ .بَكُورْ beko‘r, beko‘mak).

تُكادِى t o‘ g ä d i – tugadi. ايشْ تُكادِى ïsh tÿgädi – ish qolmadi, tugadi.

تُكادِى t ÿ g ä d i – etdi. بُو اَشْ قَمُغْقا تُكادِى bu ash qamug‘qa tugadi – bu taom hammaga etdi. Bu so‘z qarama-qarshi ma’noli so‘zdir.

ل *(l)*

بَلادِى b e l ä d i – ba’ladi, ma’radi. قُوىْ بَلادِى qo‘y belädi – qo‘y ba’ladi, ma’radi (بَلامَاقْ .بَلارْ belär, belämak).

بُلادِى b u l a d i: قُزِي بُلادِى qozï buladï – qo‘zini pishirdi. Boshqalari ham shunday (بُلامَاقْ .بُلارْ bular, bulamaq).

بِلادِى b i l ä d i: اُلْ بِجاكْ بِلادِى o‘l bichak bilädi – u pichoqni bilagiga surdi*.

بِلادِى b i l ä d i – qayradi. اُلْ تِيشْ بِلادِى o‘l tïsh bilädi – u tishlarini qayradi** (بِلامَاكْ .بِلارْ bilär, bilämäk).

بِلادِى b e l ä d i – beladi. اُلْ كَنْچِنْ بِلادِى o‘l känchin belädi – u bolasini beshikka yotqizib bog‘ladi, beladi.

بِلادِى b e l ä d i: اُلْ اَنِى قانكا بِلادِى ***o‘l anï qanïga beladi – u uni qoniga yotqizdi, beladi (بِلامَاكْ .بِلارْ belär, belämäk).

تُلادِى t ÿ l ä d i: اَتْ تُلادِى at tÿlädi – ot tÿlädi, qishki tukini to‘kdi. Yangi tuk chiqardi. Boshqalari ham shunday (تُلامَاكْ .تُلارْ tÿlär, tÿlämäk). Bu so‘zning asli تُولادِى *tÿlädi* edi, so‘ng و tushirilgan.

تُلادِى t ö l ä d i: قُوىْ تُلادِى qo‘y tölädi – qo‘y qo‘ziladi (o‘g‘uzcha) (تُلامَاكْ .تُلارْ tölär, tölämäk).

تِلادِى t i l ä d i – so‘radi. اُلْ اَنِى تِلادِى o‘l anï tilädi – u uni so‘radi, surishtirdi.

تِلادِى t i l ä d i – xohladi. تَنكْرِى اَنداغْ تِلادِى Täŋri andag‘ tilädi – Xudo shunday xohladi. (تِلامَاكْ .تِلارْ tilär, tilämäk).

چِلادِى c h i l ä d i: تُونُغْ چِلادِى tonug‘ chilädi – to‘nni nam qildi. Boshqalari ham shunday (چِلامَاكْ .چِلارْ chilär, chilämäk). Bu so‘zning asli چِيلادِى edi, ى tushirilgan.

سُلادِى s ÿ l ä d i: بَكْ يَغِبقا سُلادِى beg jag‘ïqa sÿlädi – bek dushmanga (qarshi) jangga **(564)** askar yubordi. Bu so‘zning asli

---

* Radlov va Olmaota nashrida: *u qayroqda pichog‘ini qayradi.*

** Bu erda *tish* so‘zi ko‘plikda qo‘llanishi bilan hozircha o‘zbek tilidagi kabi biror narsa yoki kishiga g‘azab qilish ma’nosini bergan ko‘rinadi (B.I).

*** Bu hol juda siyrak uchraydigan hodisadir.

سُولادِى edi, so‘ng و tushirilgan. (سُلاماڤْ .سُلارْ cÿlär, sÿlämäk). She’rda shunday kelgan:

[LII]

يَغناڤْ تَبا تِتْرُو بَقبْ بُكْدَناڤْ بِلا
أُغْرَبْ قَلِى كَلْسا سَنكا قَرْشُو سُلا

Yag‘ïŋ taba titrÿ baqïp bÿkdaŋ bilä
Og‘rap* qalï kelsa seŋä qarshu cÿlä.

Dushmaningni diqqat bilan kuzat, bek nayzasini bilagingda tut. Bekqa qarshi dushman kelsa, unga qarshi jang qil.

قَلِيدِى q a l ï d ï: اَتْ قَلِيدِى at qalïdï – ot sakradi, boshini bermay chopdi** (قَلِيماقْ .قَلِيرْ qalïr, qalïmaq).

كُلِيدِى kölidi***: أُلْكْ كُلِيدِى ölÿg kölidi – o‘lik ko‘mildi****. Boshqalari ham shunday (كُلِيماڤْ .كُلِيرْ kölir, kölimäk).

م *(m)*

قَمادِى q a m a d ï: كُوزْ قَمادِى köz qamadï – quyosh tig‘idan ko‘z qamashdi (قَماماقْ .قَمارْ qamar, qamamaq)

قَمادِى q a m a d ï: اَنِكْ تِيشِي قَمادِى anïŋ tïshï qamadï – nordon, qimizak bir narsa eyishdan uning tishi qamashdi. Maqolda shunday kelgan:

(68) اَتاسِى اَناسى اَجِغْ اَلِملا يِيسا أُغْلِى قِيزى تِيشى قِمارْ

Atasï, anasï achïg‘ alïmla yesä, og‘lï qïzï tïshï qamar

Ota yoki ona biror nordon, qimizak olma esa, bolalarining tishi qamashadi.

Bu maqol ota-onaning qilgan jinoyati uchun bolalarini ushlash, ularni so‘roq qilishga ishora qilib aytiladi*****.

قُمِيدِى q u m ï d ï اَرْ اَقْتكا قُمِيدِى er ewiŋä qumïdï – odam uyiga intildi, qumsadi, uyini sog‘inib shodlandi. Shuningdek, har bir kishi biror narsani istab, dili unga etishishga intilsa ham shu so‘z qo‘llanadi (قُمِيماقْ .قُمِيرْ qumïr, qumïmaq).

---

* Olmaota nashrida bu erda *kajan* so‘zi bor.

** B.Radlov va Olmaota nashrida: *ot seskandi va chopib ketdi.*

*** B.Radlovda: *küli.*

**** Olmaota nashrida: *u o‘likni ko‘mdi.*

***** Olmaota nashrida: *Ota-ona qilmishi uchun bolalari javob berishiga majbur bo‘lganda...*

ن (n)

تَنُودِی t a n u d ï: سُوزْ تَنُودِی مَنکا اُلْ o‘l meŋä söz tanudï – u menga bir so‘z aytdi, buyurdi*. Bir narsa tavsiya etilsa ham shu so‘z qo‘llanadi (تَنُوماقْ .تَنُورْ tanur, tanumaq). تُنادِی t ÿ n ä d i: مَنْدا اُلْ تُنادِی o‘l meŋdä tÿnädi – y mening yonimda tunadi (تُناماكْ .تُنارْ tÿnär, tÿnämäk).

سِنادِی s ï n a d ï – sinadi. سِنادِی آنِي اُلْ o‘l anï sïnadi – u bir ishda uni sinadi (سِناماقْ .سِنارْ sinar, sïnamaq).

قَنادِی q a n a d ï: اَتِنْ قَنادِی اُلْ o‘l atïn qanadï – u otidan qon oldi (قَناماقْ .قَنارْ qanar, qanamaq). qo‘yini sanadi (سَناماقْ .سَنارْ sanar, sanamaq). Bu so‘zning asli سانادِی *sanadï e*di, so‘ng alif tushirilgan.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ی (y)

بَيُودِی b a y u d ï – boyidi. اَرْ بَيُودِی er bayudï – odam boyidi. Boshqalari ham shunday (بَيُورْ .بَيُوماقْ bayur, bayumaq).

تَيادِی t a y a d ï: اُلْ آنِی تَيادِی o‘l anï tayadï – u unga tirgovich qo‘ydi, egdi (تَيارْ .تَياماقْ tayar, tayamaq).

Uch harflilar bo‘limi tugadi.

TO‘RT HARFLILAR BO‘LIMI

فَعْلَلْدِی *FA’LALDI* SHAKLIDAGI O‘RTA HARFI SUKUNLI BO‘LGAN SO‘ZLAR BOBI

ب (b)

بُرْبادِی b u r b a d ï: اَرْ اِيشِغْ بُرْبادِی er ïshïg‘ burbadï – odam ishga beparvolik qildi, paysalga soldi (بُرْباماقْ .بُرْبارْ burbar, burbamaq).

تُرْبِيدِى t ö r p i d i: اَرْ يِغاجْ تُرْبِيدِى er yïg‘ach törpidi – odam yog‘och yo‘ndi*. Boshqalari ham shunday (تُرْبِيماكْ .تُرْبِيرْ törpir, törpimäk).

ت *(t)*

سِغْتادِى s ï g‘ t a d ï – yig‘ladi, sig‘tadi. اُغْلانْ سِغْتادِى og‘lan sïg‘tadï – bola yig‘ladi (سِغْتاماقْ .سِغْتارْ sïg‘tar, sïg‘tamaq). Bu so‘z خ bilan ham talaffuz qilinadi. Bu hol arabchada ham shunday: وَ جُمارُ هُمْ و غَدارٌ و خَتّارٌ deyilishi kabi. Bunday almashinish faqat fe’llardagina bo‘lishi mumkin. Ismlarda سِخِتْ *sïxït* shaklida غ o‘rniga خ qo‘llab talaffuz qilinmaydi.

ج *(ch)*

تُرْچِيدِى t ÿ r c h i d i: اَرْ ايِشْ تُرْچِيدِى er ïsh tÿrchidi – odam ishni boshladi (تُرْچِيماكْ .تُرْچِيرْ tÿrchir, tÿrchimak).

تَفْجِيدِى t e w c h i d i – tepchidi. اُلْ تُونُغْ تَفْجِيدِى o‘l tonug‘ tewchidi – u to‘nni tepchidi. Bu biror narsani zichlab emas, siyraklab tikishdir (تَفْجِيماكْ .تَفْجِيرْ tewchir, tewchimäk).

تِنْجِيدِى t ï n c h ï d ï: اَتْ تِنْجِيدِى et tïnchïdï – go‘sht o‘tda qizdirildi** (تِنْجِيماقْ .تِنْجِيرْ tïnchïr, tïnchïmaq).

قَرْجادِى q a r c h a d ï – qattiqlashdi. يُمشاقْ نانكْ قَرْجادِى yumshaq neŋ qarchadï – yumshoq narsa qattiqlashdi (.قَرْجارْ قَرْجاماقْ qarchar, qarchamaq).

قِرْجادِى q ï r c h a d ï: اُلْ اُقْ اَماجْقا قِرْجادِى o‘l oq amachqa qïrchadï – o‘q nishonchaga urilib, yalab o‘tib ketdi (قِرْجاماقْ .قِرْجارْ qïrchar, qïrchamaq).

قَفْجِيدِى q a w c h ï d ï: اَرتْ كِشِيكا قَفْجِيدِى arï kishiga qawchïdï – ari chaqish uchun odamga otildi. **(566)** Shuningdek, odam birovdan achchiqlanib, unga hujum qilsa ham bu so‘z qo‘llanadi (قَفْجِيماقْ .قَفْجِيرْ qawchïr, qawchïmaq).

د *(d)*

بَغْدادِى b a g‘ d a d ï: اُلْ اَنِكْ اَذاقِنْ بَغْدادِى o‘l aniŋ azaqïn bag‘dadï – u uning oyog‘ini kurashda chaldi, qayirdi. (بَغْداماقْ .بَغْدارْ bag‘dar, bag‘damaq).

---

* Olmaota nashrida: *kishi daraxt (yog‘och)ga pona urdi.*

* V.Radlov, Olmaota nashrida: *go‘sht buzildi.*

قُنْدِيدِى q u n d ï d ï – yaltiradi. اُلْ قِلِچْ قُنْدِيدِى o‘l qïlïch qundïdï – u qilichni sayqalovchi asbob bilan yaltiratdi (قُنْدِيمَاقْ .قُنْدِيرْ qundïr, qundïmaq).

ر (r)

تَبْرَادِى t e b r ä d i تَبْرَادِى نَانَكْ tebrädi neŋ – narsa tebrandi, qimirladi (تَبْرَامَاكْ .تَبْرَارْ tebrär, tebrämäk).

تُبْرَادِى t o‘ p r a d ï* – quridi. اَتْ تُبْرَادِى ot topradi – o‘t quridi (تُبْرَامَاقْ .تُبْرَارْ to‘prar, to‘pramaq).

تَبْرِيدِى t a p r ï d ï – تَبْرِيدِى تَفْى tewej taprïdï – tuya sakradi, xatladi. Bu so‘z tuyadan boshqaga qo‘llanmaydi (تَبْرِيمَاقْ .تَبْرِيرْ taprïr, taprïmaq).

سَذْرَدِى s e z r a d i: كِشِى سَذْرَدِى kishi sezradi – xalq siyraklashdi, تُونْ سَذْرَدِى ton sezrädi* – to‘n to‘zdi eskirdi (.سَذْرَارْ سَذْرَامَاكْ sezrär, sezrämäk).

بُغْرَادِى b o‘ g‘ r a d ï: اُلْ يِغَاچْغْ بُغْرَادِى o‘l yïg‘achïg‘ bog‘radï – u quruq yog‘ochni yordi**. Boshqalari ham shunday (بُغْرَامَاقْ .بُغْرَارْ bo‘g‘rar, bo‘g‘ramaq).

تِغْرَادِى t ï g‘ r a d ï: اَرْ تِغْرَادِى er tïg‘radï – odam dadil bo‘ldi. (تِغْرَامَاقْ .تِغْرَارْ tïg‘rar, tïg‘ramaq).

تُغْرَادِى t o‘ g‘ r a d ï: اَتْ تُغْرَادِى et tog‘radï – tutmoch uchun go‘sht to‘g‘radi. Boshqalari ham shunday (تُغْرَامَاقْ .تُغْرَارْ to‘g‘rar, to‘g‘ramaq).

يَقْرَادِى y a w r a d ï: اَرْ يَقْرَادِى er yawyadï – odam quvvatli bo‘ldi, demakdir[305]***. Bu so‘z تَغْدَادِى *tag‘dadï so‘zi* kabidir (.يَقْرَارْ يَقْرَامَاقْ jawpap, jawpamaq). She’rda shunday kelgan:

[LIII]

قِشْ يَايغرو سَقْلَنُورْ
اَرْ اَتْ مَنن يَقْرِيُور

---

* Olmaota nashrida: *tubradi.*

** V.Radlovda *to‘n sezräshdi* ko‘rinishi ham bor.

*** Olmaota nashrida: *u yog‘ochni kertdi, yo‘ndi.*

[305] Bu so‘z tarjimasida bir necha aniqsizlik belgilari qo‘yilgan. Basim Atalay izohiga ko‘ra, qo‘lyozmada ham bu erda aniqsizlik bor ekan. She’rda kelgan يَقْرِيُور *yawpïjyp* so‘zi *kuchlanmoq, pishimoq, dadillanmoq* ma’nosidadir. Shu asosda biz ham ma’no berdik. Shunga ko‘ra, تَغْدَادِى *tag‘dadï* so‘zi تِغْرَادِى *tïg‘radï* bo‘lishi kerak. Chunki *dadillanmoq* ma’nosida bundan oldin izohlangan so‘z تَغْدَادِى emas تِغْرَادِى*tïg‘radï*dir.

اِڭلَرْ يَما سَڤْرِيُور
اتْ بِنْ تَقِى بكرشور
Qïsh yayg‘ary cywlänyr
Er et menin yawryyyp****
Yglär yema taqï cawpïjyp
Et yin taqï bekrishÿr.

Yoz bilan qish tortishuvi (munozarasi) tasvirida qish yozga shunday deydi: odamlar va mollar tanasi (eti) menda pishadi, mustahkamlanadi. Kasallar qishda ozayadi. Odamlarning badanlari ham, paylari ham qishda toblanib, kuchga to‘ladi.

تُڤْرادِى t u w r a d ï: اُشاقْ نانكْ تُڤْرادِى ushaq neŋ tywpadï – kichik narsa katta bo‘ldi. Chunonchi, kichik qo‘zi kattalashgani kabi (تُڤْراقْ. تُڤْرارْ tywrar, tuwramaq). Bu so‘z katta marvarid – g‘alton ma’nosidagi تُڤّزْ يُنْجُو *tywyz* yo‘njo‘* iborasidagi تُڤّزْ *tywyz*[306] so‘zidan olingandir.

بُڤْرِيدِى b u q r ï d ï**: اَتْ سُچِيدِى بُڤْرِيدِى at suchïdï buqrïdï – ot boshini bermay sakradi. Bu so‘z yolg‘iz qo‘llanmay, faqat juft holdagina qo‘llanadi (بُڤْراقْ. بُڤْرارْ buqrar, buqramaq).

تِكْرادِى t i k r ä d i: اَتْ اَذاقِى تِكْرادِى at azaqï tikrädi – otning tuyog‘i ovoz chiqardi. **(567)**

تِكْرادِى t i k r ä d i: اُغْلانْ تِكْرادِى og‘lan tikrädi – bola katta bo‘ldi***. (تِكْراقْ. تِكْرارْ tikrär, tikrämäk).

جِغْرُودِى c h ï g‘ r u d ï يِرْ جِغْرُودِى yer chïg‘rudï – ustida ko‘p yurilganidan, ko‘p tepkidan er pishidi, qotib ketdi. Shuningdek, har bir yumshoq narsa pishitilishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (جِغْرُوماقْ. جِغْرُورْ chïg‘rur, chïg‘rumaq).

جُڤْرادِى c h o q r a d ï – qaynadi. اَشِجْ جُڤْرادِى ashïch choqradï – bo‘tqa kabi (biron) quyuq narsa pishirilayotgan qozon qaynadi.

**** V.Radlovda: *javra* – dag‘allashdi, qotmoq; *tavra* – jonlanmoq, qimirlamoq; *javri* – kuchsizlanmoq.

* Olmaota nashrida: *tuvur.*

[306] تُڤّز *tuwuz* so‘zi تُڤّز *tywyp* bo‘lishi, ya’ni oxirgi harf ز emas, ر bo‘lishi to‘g‘riligi haqida Basim Atalay to‘g‘ri izoh bergan (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 279-b).

** Olmaota nashrida: *bukrä.*

*** Olmaota nashrida: *bola emakladi.*

Suyuq taomning qaynashiga bu so‘z qo‘llanmaydi; bu ma’noda قَيْنَدِى *qajnadï* so‘zi qo‘llanadi.

جُقْرادِى c h o q r a d ï مِنْكَرْ جُقْرادِى mïŋar choqradi – buloq suvi qozon qaynaganday qaynadi (جُقْراماقْ .جُقْرارْ choqrar, choqramaq).

جِقْرادِى j ï q r a d ï – g‘ijirladi. تِيشْ جِقْرادِى tïsh jïqradï – tish g‘ijirladi. قَپُغْ جِقْرادِى qapug‘ jiqradi – eshik g‘ijirladi. Shuningdek, odam dushmanlikdan va boshqa shunday biror sababdan to‘ng‘illasa ham shu so‘z qo‘llanadi (جِقْراماقْ .جِقْرارْ jïqrar, jïqramaq).

چِكْرادِى c h i k r ä d i: اَتْماكْتا تاشْ چِكْرادِى etmäktä tash jikrädi – nondan chiqqan toshdan tish g‘ijirladi (چِكْراماكْ .چِكْرارْ jikrär, yikrämäk).

چَلْدادِى c h a l d a d ï[307]: اُقْ كِيشْ تا چَلْدادِى oq kïshta chaldadi* – o‘q sag‘doqda shildiradi. Shunga o‘xshash boshqa tovushlarga ham bu so‘z qo‘llanadi (چَلْداماقْ .چَلْدارْ chaldar, chaldamaq)[308].

سَفْرادِى s a f r a d ï: اِيشْ سَفْرادِى ïsh safradï – ishdan chetlashildi**. Har bir ishlovchi ishlashni tashlasa ham bu so‘z qo‘llanadi (سَفْراماقْ .سَفْرارْ safrar, saframaq).

سَفْرادِى s a f r a d ï سُكَلْ اِيكْدِنْ سَفْرادِى sögäl igdin safradï – bemor yarasi bitdi, undan qutuldi.

سَكْرِيدِى s e k r i d i: اَرْ سُقْتا سَكْرِيدِى er suwqa sekridi – odam suvga sakradi. Boshqalari ham shunday (سَكْرِيماكْ .سَكْرِيرْ sekrir, sekrimäk).

---

[307] Basim Atalay bu so‘zni *chïldadi* shaklida olishni muvofiq ko‘radi (Qarang: “Devon” tarjimasi, III jild. 281-b).

* V.Radlovda: *oq kešta čaldïr čaldïr etti;* Olmaota nashrida: *ÿk kūsh tā yalrādū.*

[308] Alisher Navoiyda *kish*, asosan, *oq rangli mo‘yna, po‘stin* ma’nosida keladi:

Ko‘r yuzi ikki qulog‘i durlarin kiyganda *kish*...
Qo‘ydi to *kish* bo‘rkini ul sembar bosh ustina...

Zulfi jismingg‘a rangu noziklik,
Ko‘rinur ul sifatki qoqumu *kish.*

Navoiyda *o‘q idishi, o‘qdon* ma’nosida *sag‘dog‘* so‘zi qo‘llangan:

Demayin nozanin hadisini yo‘q,
Chekti *sag‘dog‘dinki* bir necha o‘q.

** V.Radlovda: *iš sevrädi* – ishdan ajraldi, qutuldi. Olmaota nashrida: *ish savradi* – ish nihoyasiga etkazildi.

سَمْرِيدِى s e m r i d i: قُوىْ سَمْرِيدِى qoy semridi – qo‘y semirdi. Boshqalari ham shunday (سَمْرِيماكْ .سَمْرِيرْ semrir, semrimäk).

سَنْرِيدِى s a n r ï d ï: اَسْرُكْ سَنْرِيدِى esrÿk sanrïdï – mast aljidi. Asli سندريدى *sanrïdï*dir (سَنْرِيماقْ .سَنْرِيرْsanpïp, sanrïmaq).

تَنْرِيدِى t e n r i d i: اَنِكْ بَشِى تَنْرِيدِى anïŋ bashï tenridi – uning boshi aylandi. Bu – bexosdan uyqudan uyg‘ongan paytda uyqusirashdan boshida chumoli yurganday tuyulishdir (.تَنْرِيرْ تَنْرِيماكْ tenrir, tenrimäk).

كُوْرادِى k ö w r ä d i*: اَنِكْ كُوچِى كُوْرادِى anïŋ kuchi köwrädi **(568)** – uning kuchi kesildi. Har bir quvvatli narsaning kuchi ketishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (كُوْراماكْ .كُوْرارْ köwpäp, köwpamak).

كُكْرادِى k ö k r ä d i: اَرسْلانْ كُكْرادِى arslan kökradi – arslon bo‘kirdi. بُغْرا كُكْرادِى bog‘ra kökradi – nor (tuya) kishnadi. بُلْتْ كُكْرادِى bulït kökrädi – osmonda bulutlar gurilladi, guldiradi, gumbirladi. Maydondagi bahodirlarning hayqiriqlari ham shunga o‘xshatiladi. Maqolda shunday kelgan:

تَكِرْمَنْدا تُغْمِشْ سِيْغانْ كُوكْ كُكْرَكِنكا قُرْقْماسْ **(69)**

Tegirmändä tug‘mïsh sïchg‘an kök kökrakiŋa qorqmas

Tegirmonda tug‘ilgan sichqon momaqaldiroq tovushidan qo‘rqmaydi.

Bu maqol qiyin ishlarda siqilgan odamni kichik bir ish bilan qo‘rqitmoqchi bo‘lgan kishiga nisbatan so‘zlanadi (كُكْراماكْ .كُكْرارْ kökrär, kökrämäk).

كُلْرادِى k ÿ l r ä d i: تاشْ قُدُغْقا كُلْرادِى tash qudug‘da kulrädi – tosh quduqda guvullagan ovoz chiqardi (كُلْراماكْ .كُلْرارْ kÿlrär, kÿlrämäk).

ز *(z)*

تَبْزادِى t e p z ä d i: اُلْ اَنِى تَبْزادِى o‘l anï tepzädi – u uni ko‘rolmadi, hasad qildi (تَبْزاماكْ .تَبْزارْ tepzär, tepzämäk).

سِيغْزادِى s ï g‘ z a d ï: اُلْ تِيشْ سِيغْزادِى o‘l tïsh sïg‘zadï – y tish kovlagich bilan tishini kovladi*. اُلْ اَتِكْ بِسِنْ سِيغْزادِى o‘l etik yisin sïg‘zadï – u etik sog‘ining choklari orasiga narsa qo‘yib tikib,

---

* V.Radlov, Olmaota nashrida: *tishini (misvoq bilan) tozalab yuvdi.*

chiziq – yo‘l qildi*. Shuningdek, ikki narsa orasiga bir narsa siqib kiritilsa ham shu so‘z qo‘llanadi (سِغْزاماقْ .سِغْزارْ sïg‘zar, sïg‘zamaq).

قُبْزادِى q o‘ b z a d ï: اُلْ قُبْزْ قُبْزادِى o‘l qobuz qobzadï – u qo‘biz cholg‘usini chaldi (قُبْزاماقْ .قُبْزارْ qo‘bzar, qo‘bzamaq).

س (s)

تَبْسادِى t e p s ä d i: اُلْ اَنى تَبْسادِى o‘l anï tepsädi – y uni ko‘rolmadi, hasad qildi (تَبْساماكْ .تَبْسارْ tepsar, tepsamak). Bu so‘zning ز – *z* li shakli ham bor (ya’ni tepzädi).

بُتْسادِى b ÿ t s ä d i: باشْ بُتْسادِى bash butsädi – yara tuzalishga yaqinlashdi (بُتْساماكْ .بُتْسارْ bo‘tsär, bo‘tsämäk).

بُخْسادِى b u x s a d ï: اُلْ اَنكَرْ بُخْسادِى o‘l anar buxsadï – y uning buyrug‘idan ranjidi, lekin ishni (istamagan holda, majburiy suratda) bajardi* (بُخْساماقْ .بُخْسارْ buxsar, buxsamaq).

جَبْسادِى c h e p s ä d i**: اُلْ سُقدا جَبْسادِى o‘l cywda chepsädi – y suvda suzmoq istadi (جَبْساماكْ .جَبْسارْ chepsär, chepsämäk).

ستْسادِى s a t s a d ï***: اُلْ اَتِنْ ستْسادِى o‘l atin satsadi – u otini sotmoq istadi. Boshqalari ham shunday (ستْساماقْ .ستْسارْ satsar, satsamaq)

سُرْسادِى s ÿ r s ä d i: اُلْ اَتِكْ سُرْسادِى o‘l atïg‘ sÿrsädi – y otda chopmoq istadi****. Boshqalari ham shunday (سُرْساماكْ .سُرْسارْ so‘rsar, so‘rsamak). **(569)**

سُقْسادِى s y w s a d ï: اَرْ سُقْسادِى er suwsadï – odam suvga tashna bo‘ldi, suvsadi. Boshqalari ham shunday (سُقْساماقْ .سُقْسارْ sywsar, sywcamaq). Bu so‘zning ma’nosida ham istash, ham xohish bor.

سُقْسدِى s y w s ï d ï: سِرْكا سُقْسدِى sirka sywsïdï – sirkada suv ta’mi paydo bo‘ldi. Suvning qo‘shilishi sirka kuchini kesdi (.سُقْسرْ سُقْسماقْ sywcïp, sywsïmaq).

** Olmaota nashrida: *u poyafzali ipini o‘tkazdi.*

* V.Radlovda ham, Olmaota nashrida ham ishni bajarish ma’nosi yo‘q.

** V.Radlovda: *čapsadi*, demak harakat nomi: *čapsamaq*.

*** Olmaota nashrida: *satisadi.*

**** V.Radlovda: *čapsadi*, demak harakat nomi: *čapsamaq.*

***** V.Radlovda: *otni haydab yuborishni istadi*; Olmaota nashrida: *otni etaklashni istadi.*

قَبْسادِی q a p s a d ï: اَنِكْ تَكْرا كِشی قَبْسادِی anïŋ tegrä kishi qapsadï – uning atrofini odamlar o‘rab oldi (قَبْساماقْ .قَبْسارْ qapsar, qapsamaq).

قَبْسادِی q a p s a d ï: اُلْ اَنِكْ تَقارِنْ قَبْسادِی o‘l aniŋ tawarïn qapsadï – u uning molini tortib olmoq istadi.

قُبْسادِی q o p s a d ï: اُلْ يُقارُو قُبْسادِی o‘l juqaru qopsadï – u yuqoriga chiqmoq istadi*****. (قُبْساماقْ .قُبْسارْ qo‘psar, qo‘psamaq).

كُرْسادِمْ k ö r s ä d i m*: مَنْ اَنِی كُرْسادِمْ men anï körsädim – men uni ko‘rishni istadim. Bu so‘zning asli كُرُكْسادِمْ *köryügsädim*dir. Tarkibida علاقه harflari bo‘lgan so‘zlardan biror narsaga istak bildirish ma’nosini ifodalash uchun fe’l o‘zagiga ك.س.ا larni orttirish qoidadir (كُرْساماكْ .كُرْسارْمانْ körsärmen, körsämäk).

كَلِكْسادِمْ k e l i g s ä d i m**: مَنْ سَنكا كَلِكْسادِمْ men seŋä keligsädim – men senga kelmak istadim. Bu so‘z *kelsädim* shaklida ham qo‘llanadi (كَلِكْسارْمانْ .كَلِكْساماكْ kelsärmän***, kelsämäk).

قَقْسِدِی q a q s ï d ï: اَتْ قَقْسِدِی et qaqsïdï – go‘sht qoq quridi****, qoq quriyozdi (قَقْسِماقْ .قَقْسِرْ qaqsïr, qaqsïmaq).

ش *(sh)*

تُشْتَدِی t ÿ w s h ä d i: اَنِكْ تَرِی تُشْتَدِی aniŋ teri tÿwshädi – ishlab qora terga botdi. تُشْتَماكْ .تُشْتَارْ tÿwshäp, to‘wshämäk).

تَشْتَادِی t e w s h ä d i: يِبْ قَمُغْ تَشْتَادِی yip qamug‘ tewshadi – ip bir-biriga aralashib, uchini topib bo‘lmas darajada chigil bo‘ldi (تَشْتَماكْ .تَشْتَارْ tewshär, tewshämäk).

جَخْشادِی c h a x s h a d i: تاشْ جَخْشادِی tash chaxshadi – tosh chaqillagan ovoz berdi. Shuningdek, ziynat narsalari va boshqa shunga o‘xshash narsalarning ovoz berishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (جَخْشاماقْ .جَخْشارْ chaxshar, chaxshamaq).

جُشْادِی chuwshadi: جَغِرْ جُشْادِی chag‘ïr chuwshadï – ichimlik (sharbat) qaynadi va ko‘pirdi. Boshqalari ham shunday.

---

*V.Radlovda: *u turmoqchi bo‘ldi*; Olmaota nashri: *u ko‘tarilmoqchi bo‘ldi*.

**Olmaota nashrida: *kurusadim – uchrashmoq istadim.*

** Olmaota nashrida: *kalisa, man saŋä kaliksadim.*

*** Infinitiv – harakat nomi shakli o‘rnida shaxs-son qo‘shimchasi bilan tuslangan *fe’l* shaklini berish qo‘lyozmada kam bo‘lsa kerak (B.I).

**** V.Radlov va Olmaota nashrida: *go‘sht qoqi qilish uchun maydalandi.*

جُفْشادِی chuwshadï: قَرِنْ جُفْشادِی qarïn chuwshadi – taom qorinni achitdi (جُفْشاماقْ .جُفْشارْ chuwshar, chuwshamaq).

سُفْشادِی s u f s h a d i ***** – shipshidi. اَلْ قُلاقّا سُفْشادِی o'l qulaqqa sufshadi – u quloqqa bir so'zni yashirib (shivirlab) gapirdi. (سُفْشاماقْ .سُفْشارْ sufshar, sufshamaq).

سُفْشادِی s u f s h a d i ****** – suflab duo o'qidi سُكَلْكا سُفْشادِی sägalga sufshadi – kasalga o'qib sufladi. **(570)** Bu so'z *sufsadï* shaklida ham talaffuz qilinadi.

قَرْشادِی q a r s h a d ï – qarichladi. اَلْ تُونُغْ قَرْشادِی o'l tonug' qarshadï – u to'nni qarichlab o'lchadi. Boshqalari ham shunday (قَرْشاماقْ .قَرْشارْ qarshar, qarshamaq).

قُرْشادِی q u r s h a d ï – bog'ladi. اَلْ قُفْتانْ قُرْشادِی o'l qaftan qurshadï – u to'n qayishini bog'ladi. Boshqalari ham shunday.

قَغْشادِی q o' g' s h a d ï: قَتِغْ نانكْ قَغْشادِی qatïg' neŋ qog'shadï – qattiq narsa bo'shashdi, yumshadi (قَغْشاماقْ .قَغْشارْ qog'shar, qog'shamaq).

قُفْشادِی q o' w s h a d ï: اَرْ اُقْنِی قُفْشادِی er oqnï qo'wshadï – odam o'qni uzoq ketadigan qildi* (قُفْشاماكْ .قُفْشارْ qo'wshar, qo'wshamak). Bu so'z غ – *g'* bilan ham qo'llanadi.

كَفْشادِی kewshädi: تَفِی اُتْ كَفْشادِی tewey ot kewshädi – tuya o't kavshadi.

كَفْشادِی k e w s h ä d i: قُرْجْ نانكْ كَفْشادِی qurch** neŋ kewshädi – qattiq narsa bo'shashdi, yumshoq bo'lib qoldi (كَفْشاماكْ .كَفْشارْ kewshäp, kewshämäk). Yaxshi etiltirib pishirilgan, to'yimli non ham نَانْ كَفْشَكْ اَتْماكْ *kewshäk etmäk* deb ataladi[309].

***** Olmaota nashrida: *suvshādū.*

****** Olmaota nashrida: *suvshādū.*

* V.Radlov va Olmaota nashrida: *kasal ustida afsun o'qidi.*

** Olmaota nashrida: *suvshādū.*

[309] Basim Atalay bu erdagi arabcha اَلْمُسَمِّنْ so'zining اَلْمُسِمِّنْ bo'lishi muvofiqligi haqida yaxshi izoh bergan. Chunki *semirtiruvchi non* o'rnida *yog'li non* deyish muvofiqroqdir (Qarang: "Devon" tarjimasi, III jild. 275-b).

غ(g‘)

تَسْغادِی t a s g‘ a d ï – tarsakiladi***. اَنی تَسْغادِی اُلْ o‘l anï tasg‘adï – u unga tarsaki urdi (تَسْغاماقْ .تَسْغارْ tasg‘ar, tasg‘amaq).

سَتْغادِی s a t g‘ a d ï اُلْ اَنِكْ بُيْنِنْ سَتْغادِی o‘l aniŋ bojnïn satg‘adï – u uning bo‘ynini bosib o‘tdi (ya’ni kamsitdi) بِيرْ يُولْ بِيرِكْ سَتْغادِی bir jol birig satg‘adï – bir yo‘l (janubdan kelgan yo‘l) boshqa bir (g‘arbdan kelgan) yo‘lga qo‘shildi. Yana اِلِمْ بيرمنی سَتْغادِی alïm berimni satg‘adï – u olasi va berasini bir-biriga qoplatdi (.سَتْغارْ سَتْغاماقْ satg‘ar, satg‘amaq). She’rda shunday kelgan:

[LIII]

اَژُنْ تُنی كُنْدُوزی يلكن كَجارْ
كِمنی قَلی سَتْغسا كُوچِنْ كَفّارْ

Ayun tyni kyndyzi yelkin kechär
Kimni qalï satg‘asa kychin kewäp.

Zamonning kecha va kunduzlari safar qiluvchilardek o‘tadi. U kimga yomon qarasa, uning kuchini sindiradi.

Bu so‘z o‘g‘uzlarda yo‘l va qarz xususida qo‘llanadi.

سِتْغادِی s ï t g‘ a d ï: اُلْ قِلِنْ سِتْغادِی o‘l qolïn sïtg‘adï – u engini shimardi (سِتْغاماقْ .سِتْغارْ sïtg‘ar, sïtg‘amaq).

بَدْغادِی b a d g‘ a d ï: اُلْ اَنِكْ اَذاقِنْ بَدْغادِی o‘l aniŋ azaqïn badg‘adï – (kurashda) u uning oyog‘ini chaldi. Bu so‘z بَغْدادی *bag‘dadï* shaklida ham talaffuz qilinadi (بَدْغارْ .بَدْغاماقْ badg‘ar, badg‘amaq).

بُلْغادِی b u l g‘ a d ï – bulg‘atdi, loyqatdi. اُلْ سُوقْغْ بُلْغادِی o‘l cywyg‘ bulg‘adï – u suvni bulg‘adi, loyqatdi.

بُلْغادِی b u l g‘ a d ï – kovladi, kovlashtirdi. اُلْ تُتْماجْ بُلْغادِی o‘l tutmach bulg‘adï **(571)** – u (qozondagi) tutmochni kovladi. Boshqalari ham shunday. Shuningdek, qozondagi bulamoch va boshqa narsaning ustki qismi bilan pastki qismi teng qaynashi uchun kovlashtirishga ham bu so‘z qo‘llanadi.

بُلْغادِی b u l g‘ a d ï: اُلْ اَرْ اَنِكْ كُنْكِلِنْ بُلْغادِی o‘l er aniŋ könlin bulg‘adï – u odam uni siqdi, xafa qildi*. Bu so‘zning asl ma’nosi nomuvofiq taom eyishdan odamning ko‘ngli aynib, qayt qilishdir (بُلْغاماقْ .بُلْغارْ bulg‘ar, bulg‘amaq).

*** Olmaota nashrida: *urdi.*

* Olmaota nashrida “g‘azabini qo‘zg‘adi” ma’nosi ham qo‘shib berilgan.

تُلْغادِی t o‘ l g‘ a d ï[310]: قِیزْ یِنْجُو تُلْغادِی qïz yïnjy tolg‘adï – qiz inju va boshqa narsalardan yasalgan zirak taqdi. Yana اُلْ یُونكْ تُلْغادِی oĭ juŋ tolg‘adï – u dukchaga yung o‘radi.

تُلْغادِی t o‘ l g‘ a d ï: اَنِكْ قَرْنِی تُلْغادِی aniŋ qarnï to‘lg‘adï – (qusish va shunga o‘xshashlardan) uning qorni og‘ridi (تُلْغارْ. تُلْغاماقْtolg‘ar, tolg‘amaq).

قَرْغادِی q a r g‘ a d ï: تَنكْرِی اَنِی قَرْغادِی Teŋri ashnï qarg‘adï – tangri uni qarg‘adi (قَرْغاماقْ .قَرْغارْ qarg‘ar, qarg‘amaq).

قُرْغادِی q u r g‘ a d ï: یِیرْ قُرْغادِی yer qurg‘adï – (yomg‘ir ozligidan) er qurg‘ab qoldi (قُرْغاماقْ .قُرْغارْ qurg‘ar, qurg‘amaq)

قِزْغادِی q ï z g‘ a d ï*: بَكْ اَنِی قِزْغادِی beg anï qïzg‘adï – bek uni uzoqlashtirdi, qo‘pol, dag‘al muomala qildi, xafa qildi (قِزْغارْ. قِزْغاماقْ qïzg‘ar, qïzg‘amaq). Turkiy tilda Xudo qarg‘ishidan farqlay-dilar-da, odamlar o‘zaro bir-birlari bilan so‘kishishlari uchun bu so‘zni qo‘llaydilar. Birini قَرْغاماقْ *qarg‘amaq,* ikkinchisini قِرْغاماقْ qïrg‘amaq shaklida qo‘llaydilar[311].

ڤ *(w)*

قِرْڤادِی q a r w a d ï: اُلْ قَرَنغُقُودا قِرْڤادِی o‘l qaraŋquda qarwadï – u qorong‘ida qo‘li bilan bir narsani paypaslab topmoqchi bo‘ldi (قِرْڤاماقْ .قِرْڤارْ qapwap, qarwamaq). Bu so‘z قَرْوادِی qarvadï shaklida ham qo‘llanadi. Har bir ڤ *w* bo‘lgan so‘zni و – *v* bilan qo‘llash ham mumkin. Bu haqda boshqa yerlarda ham aytganmiz.

بُلْغادِی b u l g‘ a d ï**: اُلْ اَتاسِنْ بُلْغادِی o‘l atasïn bulg‘adï – u otasini siqib, jonidan to‘yg‘izdi. Bu so‘z har vaqt تَلْكادِی *telgädi* so‘zi bilan birga juft holda qo‘llanadi, yolg‘iz holda qo‘llanmaydi[312] (تَلْكاماكْ .تَلْكارْ telgär, telgämäk).

---

[310] Bu so‘z bosma nusxada تُلْغادِی shaklida yozilib, aniqsizlik belgisi qo‘yilgan. Boshqa erlarda yozilishiga ko‘ra, تُلْغادِی yozilishi muvofiqdir.

* Olmaota nashrida: *kirgadi.*

[311] Mahmud Koshg‘ariyning izohiga ko‘ra, bu so‘zlarning biri *a* bilan *qarg‘amaq*, ikkinchisi *i* bilan *qïrg‘amaq* shaklida bo‘lishi kerak edi. Holbuki, keyingisi قِزْغاماقْ *qïzg‘amaq* shaklida berilgan. Bu shakl xatodir.

** Olmaota nashrida: *talkadi.*

[312] Mahmud Koshg‘ariyning izohiga ko‘ra, bu so‘z faqatgina juft holda qo‘llanishi kerak edi. Lekin keltirilgan misolda yolg‘iz holda berilgan. Holbuki اُلْ اَتاسِنْ بُلْغادِی تَلْكادِی o‘l *atasïn bulg‘adï-telgädi* tarzida berilishi kerak edi.

بَتْلادِی b a t l a d ï: اُلْ بُوزْنی بَتْلادِی ol bözni batladi – u bo‘zni quyqa bilan ohorladi*** (بَتْلاقْ .بَتْلارْ batlar, batlamaq).

بُتْلادِی b u t l a d ï: اِتْ اَرِكْ بُتْلادِی it erig butladï – it odamning oyog‘ini tishladi. Shuningdek, birov birovning oyog‘iga ursa ham bu so‘z qo‘llanadi (بُتْلاقْ .بُتْلارْ butlar, butlamaq).

بِتْلادِی b i t l ä d i: اَرْ بِتْ بِتْلادِی er bit bitlädi – odam bit qaradi (بِتْلاقْ .بِتْلارْ bitlär, bitlämak). **(572)**

بُزْلادِی b o z l a d ï: تِتِرْ بُزْلادِی titir bozladï – urg‘ochi tuya bo‘kirdi[313]. Boshqalari ham shunday (بُزْلاقْ .بُزْلارْ bozlar, bozlamaq).

بَشْلادِی b a s h l a d ï – boshladi. اَرْ اِیشْ بَشْلادِی er ïsh bashladï – odam ish boshladi (بَشْلاقْ .بَشْلارْ bashlar, bashlamaq).

بَشْلادِی b a s h l a d ï: اُلْ یُولْ بَشْلادِی o‘l yol bashladï – u yo‘l ko‘rsatdi. اُلْ سُو بَشْلادِی o‘l so‘ bashladi – u askar oldida bordi, boshchilik qildi. (بَشْلاقْ .بَشْلارْ bashlar, bashlamaq)[314]

بَغْلادِی b a g‘ l a d ï – bog‘ladi. اُلْ اُتُنكْ بَغْلادِی o‘l otun bag‘ladï – u o‘tin bog‘ladi. Boshqalari ham shunday (بَغْلاقْ .بَغْلارْ bag‘lar, bag‘lamaq).

بُغْلادِی b o‘ g‘ l a d ï – bo‘xcha qildi. اُلْ تُونْ بُغْلادِی o‘l ton bog‘ladï – u to‘nni bo‘xcha qilib tugdi* (بُغْلاقْ .بُغْلارْ bog‘lar, bog‘lamaq). To‘nni bo‘xcha qilib tugish bilan boshqa narsalarni bog‘lashni ajratish uchun farqli so‘zlar qo‘llaydilar. Birinchisini بُغْلادِی *bog‘lamaq*, ikkinchisini بَغْلادِی *bag‘lamaq* tarzida qo‘llaydilar.

بُقْلادِی b o‘ q l a d ï – tezakladi. یِلْقی بُقْلادِی yïlqï boqladï – hayvon tezakladi (o‘g‘uzcha) (بُقْلاقْ .بُقْلارْ bo‘qlar, bo‘qlamaq).

بَكْلادِی b e k l ä d i: اُلْ نانِكْ بَكْلادِی o‘l neŋin beklädi – u narsasini saqladi.

*** Olmaota nashrida: *u matoni bo‘yadi.*

[313] *Bo‘zlamoq* so‘zi *qattiq yig‘lamoq* ma’nosida Navoiyda tez-tez uchraydi:

Bo‘tam deb goh *bo‘zlab*, goh o‘kursa,
Jafo toshin sinuq ko‘ksiga ursa.

[314] Bu fe’lning kelasi zamon va noaniq formasi bosma nusxada odatdagidan tashqari ikki o‘rinda berilgan. Biz ham aslicha berdik.

* Olmaota nashrida: *u kiyimni sandiqqa taxladi.*

بَكْلادِى b e k l ä d i**: اُلْ قَبْغِنْ بَكْلادِى o'l qapug'ïn beklädi – u eshigini bekitdi. Har bir narsani qattiq bog'lashga ham bu so'z qo'llanadi (بَكْلاماقْ .بَكْلارْ beklär, beklämäk).

بَكْلادِى b e g l ä d i: اُلاُ اَشْ بَكْلادِى o'l anï beglädi – u uni bekka nisbat berdi, bek deb atadi (بَكْلاماقْ .بَكْلارْ beglär, bäglämäk).

تَبْلادِى t a p l a d ï: اُلْ تُونُغْ تَبْلادِى o'l tonug' tapladï – u to'nni qabul qildi, unga unadi. Boshqalari ham shunday (تَبْلاماقْ .تَبْلارْ taplar, taplamaq).

تُبْلادِى t ÿ b l ä d i: اُلْ اِيشِغْ تُبْلادِى o'l ïshïg' tÿblädi – u ishning tubini tekshirdi (تُبْلاماقْ .تُبْلارْ tÿblär, tÿblämäk).

تَتْلادِى t a t l a d ï: اُلْ اَنى تَتْلادِى o'l anï tatladï – u uni forslarga nisbat berdi, forslardan hisobladi (تَتْلاماقْ .تَتْلارْ tatlar, tatlamaq).

تَرْلادِى t e r l a d ï – terladi. اَتْ تَرْلادِى at terlädi – ot terladi.

تَرْلادِى t e r l ä d i: اُلْ اَتِنْ تَرْلادِى ol atïn terlädi – u otini qashlab, ter asarini va irkitlarni tozaladi (تَرْلاماقْ .تَرْلارْ terlär, terlämäk). Bu fe'l qarama-qarshi ma'nolik so'zlardan bo'lib, ham o'timli, ham o'timsizdir.

تَزْلادِى t a z l a d ï: اُلْ اَنِى تَزْلادِى o'l anï tazladï – y uni toz – kalga nisbat berdi, kal deb atadi. (تَزْلاماقْ .تَزْلارْ tazlar, tazlamaq).

تُزْلادِى t u z l a d ï – tuzladi. اُلْ اَتْ تُزْلادِى o'l et tuzladï – u go'sht tuzladi. Boshqalari ham shunday. (تُزْلاماقْ .تُزْلارْ tuzlar, tuzlamaq).

(573) تِزْلادِي t ï z l a d ï: بُغْرا اَرِكْ تِزْلادِي bog'ra erig tizladï – bo'g'ra hamla qilib, odamni ostiga oldi, tizzasi bilan ezdi. Shuningdek, kimdir biror narsaning ustidan tizzasi bilan ezsa ham bu so'z qo'llanadi (تِزْلاماقْ .تِزْلارْ tïzlar, tïzlamaq).

تَشْلادِى t a s h l a d i – tosh bilan urdi. اُلْ اِتِغْ تَشْلادِى o'l ïtïg' tashladï – u itni tosh bilan urdi. Yana اَرْ تَشْلادِى er tashladï – odam (yurtidan) tashqariga chiqdi, musofirlikka chiqdi (تَشْلاماقْ .تَشْلارْ tashlar, tashlamaq).

تُشْلادِمْ t u s h l a d ï m: مَنْ اَنى تُشْلادِمْ men anï tushladïm[315] – men uning ro'parasida, to'ppa-to'g'risida turdim (تُشْلارْمانْ .تُشْلاماقْ tushlarman, tushlamaq).

** Olmaota nashrida bu ikki so'z omonim qilib berilgan.

[315] *Tush* so'zi *ro'para* ma'nosida Navoiyda tez-tez uchraydi:
Uyub ul dayr ichida *tush* ko'rsa,
O'ziga dardu g'ussa *tush* ko'rsa.

تِشْلادِی t i s h l ä d i – tishladi. اَنی تِشْلادِی اُلْ o‘l anï tishladi – u uni tishi bilan tishladi. Shuningdek, birovning tishiga ursa ham shu so‘z qo‘llanadi (تِشْلامَاقْ .تِشْلارْ tishlär, tishlämäk).

تَغْلادِی t a g‘ l a d ï – dog‘ladi, tamg‘a bosdi. اَتِنْ تَغْلادِی اُلْ o‘l atïn tag‘ladï – u otiga tamg‘a urdi (تَغْلامَاقْ .تَغْلارْ tag‘lar, tag‘lamaq). Shuningdek, otdan boshqa hayvonlarga tamg‘a urishga ham bu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘z asl emasdir.

تُغْلادِی t u g‘ l a d ï: یارَغْ تُغْلادِی اُلْ o‘l yarag‘ tug‘ladï – u (sel o‘ygan erning) yoriqlarini bekitdi (تُغْلامَاقْ .تُغْلارْ tug‘lar, tug‘-lamaq).

تُمْلِیدِی t o m l ï d ï – muzladi*. سُوقْ تُمْلِیدِی syw tomlïdï – suv muzladi. Boshqalari ham shunday (تُمْلِیمَاقْ .تُمْلِیرْ tomlïr, tomlïmaq). She’rda shunday kelgan:

[LIV]

كُرْدِی مَنی اَمْلَیُو
بَقْتِی مَنكا اِملَیُو
قَلْدِمْ كُنْكُلْ تُمْلِیُو
قَدْغُو مَنی تُرْغُرُورْ

Kördi meni emläyu
Baqtï meŋä imläyu
Qaldïm köŋÿl tomlïyu
Qadg‘u menï turg‘urur.

Seviklim menga imladi, nazar qildi, bir boqish bilan menga davo qildi. Menga salom bilan ishorat qildi. Uning izlari ustidan alamlardan dilim qaltirab qoldi. Qayg‘u meni yaralayotir.

جَرْلادِی c h a r l a d ï – chirqirab yig‘ladi. اُغلانْ جَرْلادِی og‘lan charladï – bola chirqirab yig‘ladi.

جَرْلادِی c h a r l a d ï – bo‘kirdi. یَنكانْ جَرْلادِی yanan charladï – fil bo‘kirdi (جَرْلامَاقْ .جَرْلارْ charlar, charlamaq). Fil bo‘kirishi ma’nosida جَرْلادِی *charladï* shakli bilan birga جُغْلادِی *chug‘ladï* shakli ham qo‘llanadi (جُغْلامَاقْ .جُغْلارْ chug‘lar, chug‘lamaq).

(U dayrda uxlab tush ko‘rsa, ham tushida o‘zining kulfatlarga duchor bo‘lganini ko‘rsa...)

* V.Radlov, Olmaota nashrida: *sovimoq, qotmoq.*

جُغْلادِی c h o g‘ l a d ï: اُلْ تُونُغْ جُغْلادِی o‘l tonug‘ chog‘ladï – u to‘nni to‘pladi, tugunga tugdi, bog‘ladi. Boshqalari ham shunday (جُغْلامَاقْ .جُغْلارْ chog‘lar, chog‘lamaq).

چِغْلادِی c h ï g‘ l a d ï: اُلْ بُوزْ چِغْلادِی o‘l böz chïg‘ladï – y bo‘zni turkcha gaz bilan o‘lchadi (چِغْلامَاقْ .چِغْلارْ chïg‘lar, chïg‘lamaq).

جُقْلادِی c h u w l a d ï*: اَتْ جُقْلادِی et chuwladï – go‘sht etilib pishmay, ta’msiz, xom bo‘lib qoldi. جُقْلامَاقْ .جُقْلارْ chuwlar, chuwlamaq). **(574)**

چِنْلادِی c h ï n l a d ï: اُلْ اِیشِغْ چِنْلادِی o‘l ïshïg‘ chïnladï – u ishni tahqiqlab tekshirdi* (چِنْلامَاقْ .چِنْلارْ chinlar, chïnlamaq).

سَبْلادِی s a p l a d ï – sop qildi. اَرْ قِلِجْ سَبْلادِی er qïlïch sapladï – odam qilichga (kumush yoki temir o‘rnatilgan) sop yasadi. Shuningdek, har bir narsani soplash uchun ham bu so‘z qo‘llanadi (سَبْلامَاقْ .سَبْلارْ saplar, saplamaq).

سَرْلادِی s a r l a d ï: o‘radi اُلْ سُفْلُقْ سَرْلادِی o‘l cywluq sarladi – u boshiga salla o‘radi. اَدَاقِنكا یُرْكانجُو سَرْلادِی azaqïna yörgänchÿ sarladï – oyog‘iga paytava o‘radi. Shuningdek, har bir narsa bir narsaga o‘ralsa ham shu so‘z qo‘llanadi (سَرْلامَاقْ .سَرْلارْ sarlar, sarlamaq).

سِرْلادِی s ï r l a d ï – sirladi. اَیاقْچِی اَیاقْ سِرْلادِی ayaqchï ayaq sïrladï – kulol idish (kosa, lagan) ustini (gul solish uchun) sirladi (سِرْلامَاقْ .سِرْلارْ sïrlar, sïrlamaq).

سُوزْلادِی s ö z l ä d i: اُلْ مَنْكا سُوزْ سُوزْلادِی o‘l meŋä söz sözlädi – u menga so‘z so‘zladi (سُوزْلامَاكْ .سُوزْلارْ sözlär, sözlämäk).

سِزْلادِی s ï z l a d ï: اَنِكْ تَیشی بُوزْدُنْ سِزْلادِی aniŋ tïshï buzdun sïzladï – muzdan yoki sovuq suv ichishdan uning tishida sizlab, og‘rish paydo bo‘ldi.

سِزْلادِی s ï z l a d ï: اَرْنِكْ سُنكُوكی سِزْلادِی ernïŋ söno‘gi sïzladï – og‘riqdan odamning so‘ngagi sizlab og‘ridi (سِزْلامَاقْ .سِزْلارْ sïzlar, sïzlamaq).

سُغْلِدِی s u g‘ l ï d ï: اَرْ قُوینكا سُغْلِدِی er qojyŋa sug‘lïdï – (bir narsani qidirib) odam qo‘lini qo‘yniga tiqdi (سُغْلِیمَاقْ .سُغْلِیرْ sug‘lïr, sug‘lïmaq). Boshqalari ham shunday.

** Olmaota nashrida: *javladi.*

* B.Radlovda: *u ishda haqiqatni aniqladi;* Olmaota nashrida: *u nimanidir tasdiqladi.*

سَوْلادِى s a w l a d ï: اُلْ تَلِمْ سَوْلادِى ol telim sawladï – u ko‘p so‘z so‘zladi. Shuningdek, birov otalar so‘zini (maqolni) ko‘p so‘zlasa ham shu so‘z qo‘llanadi (سَوْلاقْ. سَوْلارْ cawlap, sawlamaq).

سُوْلادِى s u w l a d ï – suv ichdi. اَتْ سُوْلادِى at cywladï – ot suv ichdi. Boshqalari ham shunday.

سُوْلادِى s u w l a d ï – suv quydi. اَرْ تِتِكْ سُوْلادِى er titik cywladï – odam loyga suv quydi. Boshqalari ham shunday (سُوْلاقْ. سُوْلارْ cywlap, suwlamaq).

سَمْلادِى s a m l a d ï: اُلْ اَنِي اَمْلادِى سَمْلادِى o‘l anï emlädi samladi – u uni davoladi, sog‘aytirdi. Bu so‘z yolg‘iz qo‘llanmaydi, اَمْلادِى *emlädi* so‘zi bilan birga ishlatiladi (سَمْلاقْ. سَمْلارْ samlar, samlamaq).

سُمْلِيدِى s u m l ï d ï: اَرْ سُمْلِيدِى er sumlïdï – odam o‘zidan boshqa birov tushunmaydigan, turkchadan boshqa bir tilda so‘zlashdi (سُمْلِيماقْ. سُمْلِيرْ sumlïr, sumlïmaq). **(575)**

سَنْلادِى s e n l ä d i: senladi, sensiradi. اُلْ اَنى سَنْلادِى o‘l ani senlädi – u uni sensiradi (u yoshlarga, o‘zidan tubanlarga aytiladigan so‘zni unga nisbatan qo‘lladi) (سَنْلاماكْ. سَنْلارْ senlär, senlämäk). Bu ma’no sen so‘zi bilan bog‘liqdir. Ulug‘lash (hurmatlash)ni anglatish uchun سِزْلادِى *sizlädi* deyiladi. Bu esa siz so‘zi bilan bog‘liq. U bu so‘z xoqonlar bilan so‘zlashilganda qo‘llaniladi. Tangrining

اَنّا اَنْزِلْناهُ

degan* so‘zida ham hurmat maqsadida ko‘plik shakli qo‘llangandir.

قَرْلادِى q a r l a d ï: بُلْتْ قَرْلادِى bulut qarladï – bulut qor yog‘dirdi (قَرْلاقْ. قَرْلارْ qarlar, qarlamaq).

قُرْلادِى q u r l a d ï: اُلْ قَفْتانِغْ قُرْلادِى o‘l qaftanïg‘ qurladï – u belbog‘ni to‘n ustidan bog‘ladi (قُرْلاقْ. قُرْلارْ qurlar, qurlamaq).

قِرْلادِى q ï r l a d ï: اُلْ يِرِكْ قِرْلادِى o‘l yerig qïrladï – u (tarbuz va shunga o‘xshash ekinlar uchun) yerda handaq va ariqlar qazdi. Erni biror ekinga hozirlash uchun ham qo‘llanadi** (قِرْلاقْ. قِرْلارْ qïrlar, qïrlamaq).

---

* Oyati karimaning o‘qilishi va tarjimasi: *Inna anzalnahu…* – Biz yubordikki… (Qur’oni karim, 12:2).

** Olmaota nashrida: *to‘g‘on qurish uchun qo‘llanadi.*

قَشْلادِى q a s h l a d ï: اَرِقْ قَشْلادِى arïq qashladï – ariq uchun marza qildi. Birov birovning qoshiga ursa ham shu so‘z qo‘llanadi (قَشْلاماقْ .قَشْلارْ kashlar, qashlamaq).

قُشْلادِى q u s h l a d ï: بَكْ قُشْلادِى beg qushladï – bek qush ovladi. (قُشْلاماقْ .قُشْلارْ qushlar, qushlamaq).

قِشْلادِى q ï s h l a d ï: اَرْ اَقِنْدا قِشْلادِى er ewinda qïshladï – odam uyida qishladi. Boshqalari ham shunday (قِشْلاماقْ .قِشْلارْ qïshlar, qïshlamaq).

قِنْلادِى q ï n l a d ï: اُلْ بِجاقْ قِنْلادِى o‘l bïchaq qïnladï – u pichoqqa qin qildi. Boshqalari ham shunday (قِنْلاماقْ .قِنْلارْ qïnlar, qïnlamaq).

كُتْلادِى k ö t l ä d i: اُغلانِغْ كُتْلادِى og‘lanïg‘ kotladï – bolaga yomonlik qildi. Boshqalari ham shunday (كُتْلاماكْ .كُتْلارْ kötlär, kötlämäk).

كَزْلادِى k e z l ä d i: اَرْ كَزْلادِى er kezlädi – odam tirishdi. Kuchlilar ishini qildi (كَزْلاماكْ .كَزْلارْ kezlär, kezlämäk).

كَزْلادِى k e z l ä d i: اُلْ اُقِنْ كَزْلادِى o‘l oqïn kezladi – u o‘qining uchini tuzatdi* (كَزْلاماكْ .كَزْلارْ kezlär, kezlämäk). Shuningdek, qozon kirini tozalashga ham bu so‘z qo‘llanadi.

كُزْلادِى k ö z l ä d i – ko‘ziga urdi. اُلْ اَنِي كُزْلادِى o‘l anï közlädi – u uning ko‘ziga urdi. (كُزْلاماكْ .كُزْلارْ közlär, közlämäk).

كِزْلادِى k i z l ä d i – yashirdi. اُلْ كِزْلادِى نانكُنى o‘l kizlädi neŋni – u narsani yashirdi (كِزْلاماكْ .كِزْلارْ kizlär, kizlämäk).

كَسْلادِى k e s l ä d i – kesak bilan haydadi. اُلْ اِتِغْ كَسْلادِى o‘l ïtïg‘ keslädi – u itni kesak bilan haydadi. (كَسْلاما .كَسْلارْ keslär, keslämäk).

كُكْلادِى k ö k l ä d i – bog‘ladi. اُلْ اَذَزْ كُكْلادِى o‘l ezäz* köklädi – u egar qorinbog‘ichini bog‘ladi (كُكْلاماكْ .كُكْلارْ köklär, köklämäk).

كُكْلادِى k ö k l ä d i: **(576)** يِلْقى كُكْلادِى yïlqï köklädi – mollar ko‘k edi**. (كُكْلاماكْ .كُكْلارْ köklär, köklämäk).

كُكْلادِى k ö k l a d i***: اَرْ كُكْلادِى er köklädi – odam ashula aytdi. Ashulada yangi kuylar chiqardi (كُكْلاماكْ .كُكْلارْ köklär, köklämäk).

---

* B.Radlov, Olmaota nashrida: *esär.*

** Olmaota nashrida: *mol yaylovda o‘tladi.*

*** B.Radlovda: *ködlä.*

كَمْلادِى k e m l ä d i – kasallandi. اَتْ كَمْلادِى at kemlädi – ot kasallandi. Bu so‘zni كَمْلاندِى *kemländi* shaklida ham talaffuz qiladilar (كَمْلاماقْ . كَمْلارْ kemlär, kemlämäk).

مُنْلادِى m ÿ n l ä d i – sho‘rva ichdi. اَرْ مُنْلادِى er mÿnlädi – odam sho‘rva ichdi (مُنْلاماقْ . مُنْلارْ mÿnlär, mÿnlämak).

ن (n)

بُلْنادِى b u l n a d ï – asir oldi. اَرْ يَغِينى بُلْنادِى er yag‘inï bulnadï – odam dushmanni asir qildi (بُلْناماقْ . بُلْنارْ bulnar, bulnamaq).

تُگْنادِى t ÿ g n ä d i: اُلْ باشِنْ تُگْنادِى o‘l bashïn tÿgnädi – u yarasini olovga dog‘ladi (تُگْناماقْ . تُگْنارْ tÿgnär, tÿgnämäk).

چَگْنادِى c h e k n ä d i: قَيْزْ چِكِنْ چَگْنادِى qïz chekin cheknädi – qiz zar iplar bilan (ipak kiyimlik ustiga rasmlar solib) tikdi.

چَگْنادِى c h e k n ä d i: اَرْ چِگْنا چَگْنادِى er cheknä cheknädi – (odam omoch bilan haydalgan) erni tekislash uchun mola bosdi (چَگْناماقْ . چَگْنارْ cheknär, cheknämäk).

سُگْنادِى s ö g n ä d i: اَرْ سُگُلْ سُگْنادِى er sögo‘l sögnädi – odam so‘galga davo qilidi va tuzatdi (سُگْناماقْ . سُگْنارْ sögnär, sögnämäk).

قَيْنادِى q a y n a d ï*: اَرْ اَنگَرْ قَيْنادِى er aŋar qajnadï – odam uning buyrug‘idan bosh tortdi (buyuruvchiga qarshi turdi, uning so‘zini qaytardi). (قَيْناماقْ . قَيْنارْ qaynar, qaynamaq).

قَسْنادِى q a s n a d ï اَرْ تُمْلُغْقا قَسْنادِى er tomlug‘qa qasnadï – sovuqdan dir-dir titradi (aynan odamning pastki jag‘i ust jag‘iga urdi). Shuningdek, itning sovuqqa chidolmay, angillashiga ham bu so‘z qo‘llanadi (قَسْناماقْ . قَسْنارْ qasnar, qasnamaq).

قَلْنُودِى q a l n u d ï – qalinlashdi. يُفْقا نانكْ قَلْنُودِى jufqa neŋ qalnudï – yupqa narsa qalinlashdi, qalin bo‘ldi (قَلْنُوماقْ . قَلْنُورْ qalnur, qalnumaq).

قُلْنادِى q u l n a d ï: قِسراقْ قُلْنادِى qïsraq qulnadï – baytal qulunladi, tug‘di (قُلْناماقْ . قُلْنارْ qulnar, qulnamaq).

كِشْنادِى k i sh n ä d i – kishnadi. اَتْ كِشْنادِى at kishnadi – ot kishnadi. قَتِرْ كِشْنادِى qatïr kishnädi – xachir hangradi (كِشْناماقْ . كِشْنارْ kishnär, kishnämäk).

---

* Olmaota nashrida: *kaynä.*

Bu bo‘limning misol turi

ي (j)**

يَسْتادِى y a s t a d ï: اَنكَرْ يَسْتُقْ يَسْتادِى اُلْ o‘l anar yastuq yastadï – u unga suyanish uchun yostiq qo‘ydi.

يَسْتادِى y a s t a d ï: مَنْكا سُوزْ يَسْتادِى اُلْ o‘l menja söz yastadï – u menga (ochiq so‘z bilan emas) kinoya bilan tegizib gapirdi (.يَسْتارْ يَسْتاماقْ yastar, yastamaq). **(577)**

يُنْجِيدِى y u n ch ï d ï: اَرْ يُنْجِيدِى er yunchïdï — kambag‘allikdan odamning ahvoli yomon bo‘ldi. She’rda shunday kelgan:

[LV]

بِلْكا بُكُو يُنْجِيدِى
اَرْدُنْ اَتى يَنْجِدِى
اَرْدَمْ اَتِي تِنْجِدِى
يَرْكا تَكِبْ سُرْتُلُورْ

Bilgä böko‘ yunchïdï
Ajun atï* yanchïdï
Erdam eti tïnchïdï
Yepgä tegip sÿrtÿlÿr.

Zamon ahvolini tushuntirib shunday deydi: bilimdonlar ahvoli yomonlashdi. Zamon ularni tishlab azob berdi, hattoki, odob, fazilat (go‘sht)lari buzildi, sasidi. Zaiflikdan yerga tegib sudralmoqda. تَنْجَدِى *tanchadï* so‘zining asli تَنْجْغادِى *tanchg‘adï* edi. So‘ng she’riy zarurat yuzasidan غ – *g‘* tushirilgandir. غ ni tushirish o‘g‘uz va qipchoqlar tilida mumkindir. Ular ism va fe’llarning o‘rtasida kelgan غ ni tushiradilar.

ر *(r)*

يَڤْرِيدِى y a w r ï d ï: اَرْ يَڤْرِيدِى er yawrïdï – odamning ahvoli qashshoqlikdan yoki kasallikdan yomon bo‘ldi (يَڤْرِيرْ. يَڤْرِيماقْ yawrïr, yawrïmaq).

س *(s)*

يِيْسادِى y e y s ä d ï: اُلْ اَتْماكْ يِيْسادِى o‘l etmak yeysädi* – u non emak istadi. Boshqalari ham shunday (يِيْساماكْ .يِيْسارْ jejcäp, jejsämäk).

** Olmaota nashrida “b” tarzida xato ko‘rsatilgan.

يَپْسادِى y a p s a d ï: اَرْ اَتماكْ يَپْسادِى er etmäk yapsadï – odam non emoq istadi[316]** Shuningdek, bu so‘z eshikni yopishga ham qo‘llanadi.

يَپْسادِى y a p s a d ï: اَرْ تُوزاقْ يَپْسادِى er tuzaq yapsadï – odam ov qilish uchun tuzoq (yopma)ni qush ustiga yopmoq istadi (يَپْسارْ. يَپْساماقْ yapsar, yapsamaq).

يَتْسادِى y a t s a d ï: اَرْ يَتْسادِى ep yatsadï – odam yon boshlab uxlamoq istadi** (يَتْساماقْ .يَتْسارْ yatsar, yatsamaq).

يَتْسادِى y e t s ä d i: اُلْ مَنى يَتْسادِى o‘l meni yetsädi – y menga etib olmoq istadi (يَتْساماكْ .يَتْسارْ jetsär, jetsämäk).

يَدْسادِى y a z s a d ï: اُلْ تُشاكْ يَدْسادِى o‘l töshäk yazsadi – u to‘shakni yozmoq istadi, shunday qilayozdi.

يَدْسادِى y a ż s a d ï: اُلْ سُوسِنْ يَدْسادِى o‘l sÿsin yazsadï – y askarini taratmoq istadi. Boshqalari ham shunday. Xamir yoyishga ham bu so‘z qo‘llanadi. (يَدْساماقْ .يَدْسارْ yażsar, yażsamaq).

يُدْسادِى y u ż s a d ï: اُلْ بِتِكْ يُدْسادِى o‘l bitik yuzsadï – u xatni o‘chirmoq istadi, Shuningdek, bu so‘z qilichdan qonni tozalab ketkazishga ham qo‘llanadi. Boshqalari ham shunday (يُدْسارْ. يُدْساماقْ yużzcap, yużsamaq).

يَرْسِيدِى y a r s ï d ï: اُلْ يَرْسِيدِى نانكْنى o‘l jarcïdï neŋni – y bir narsadan hazar qildi, **(578)** jirkandi (يَرْسِيماقْ .يَرْسِيرْ yarsïr, yarsïmaq).

يَزْسادِى y a ż s a d i: اُلْ قُورِينْ يَزْسادِى o‘l qurïn yażsadï – y belbog‘ini echmoq istadi. Boshqalari ham shunday (يَزْساماقْ .يَزْسارْ yażsar, yażsamaq).

يَشْسادِى y a s h s a d i* – yashirmoq istadi. اُلْ مَنْدِنْ يَشْسادِى o‘l mendïn yashsadï – u mendan yashirmoq istadi (يَشْساماقْ .يَشْسارْ yashsar, yashsamaq).

---

*Olmaota nashrida: *yisädi.*

[316] Bu erda bir aniqsizlik bor. اَرْ اَتماكْ يَپْسادِي *er etmak japsadï* gapi تمنى الرجل يأكل الخبز deb berilgan. Ya’ni *odam non emak istadi* demakdir. Holbuki, turkcha iboraga ko‘ra, *yopmoq istadi* so‘zining arabchasi تمنى الرجله ان يلعق الخبزbo‘lishi kerak edi. Shuni ham aytish kerakki, u davrda bu gapdan nonni xotinlar emas, erlar yopishi ham ma’lum bo‘ladi.

**B.Radlov va Olmaota nashrida: *kishi non yopmoqchi bo‘ldi* deb berilgan.

* Olmaota nashrida: *yashisadi.*

يَغْسادِى y a g‘ s a d ï – yog‘siradi. أَرْ يَغْسادِى ep yag‘sadï – odam yog‘siradi. (يَغْساماقْ .يَغْسارْ jag‘cap, jag‘samaq).

يَغْسِيدِى y a g‘ s ï d ï: يَغْسِيدِى نانكْ yag‘sïdï neŋ – odamga mol yog‘ining ta’mi o‘rnashdi[317]. Maqolda shunday kelgan:

(70) يُقْرى ياغى يَغْسِيماسْ
Yuqrï** yag‘ï yag‘sïmas

Ich yog‘i yog‘ o‘rnini bosmaydi***.

يَغْسِيماقْ .يَغْسِيرْ yag‘sïr, yag‘sïmaq. Bu so‘zning asli ياغسادى *yag‘sadï*dir. So‘ng idg‘om qilingan[318].

يُقْسادِى y u w s a d ï: أَلْ تُبِقْ يُقْسادِى o‘l topïq juwsadï – u to‘p yumalatishni istadi. Boshqalari ham shunday (.يُقْسارْ يُقْساماقْ yywsap, yywsamaq).

يِقْسادِى y a w s a d ï: أَلْ مَنكا تَقْارْ يَقْسادِى o‘l mena tawar yawsadï – y mol bilan mening ko‘nglimni olmoq istadi (يَقْساماقْ .يَقْسارْ yawsap, yawsamaq).

يِقْسادِى y ï q s a d ï – yiqitmoq istadi. أَلْ تامْ يِقْسادِى o‘l tam yïqsadï – y devor yiqitmoq istadi. Boshqalari ham shunday. (.يِقْسارْ يِقْساماقْ yïqsar, yïqsamaq).

يُكْسادِى y ÿ k s ä d i: يُكْسادِى نانكْ yÿksädi neŋ – narsa yuksaldi, uzaydi (يُكْساماكْ .يُكْسارْ yÿksär, yo‘ksämäk).

ش *(sh)*

يُمْشادِى y u m s h a d i: يُمْشادِى نانكْ yumshadi neŋ – narsa yumshadi. (يُمْشاماقْ .يُمْشارْ yumshar, yumshamaq).

غ *(g‘)*

يَلْغادِى y a l g‘ a d ï – yaladi. اياقْ يَلْغادِى ajaq yalg‘adï – idishni yaladi*. Boshqalari ham shunday (يَلْغاماقْ .يَلْغارْ yalg‘ar, yalg‘amaq). Maqolda shunday kelgan:

---

[317] Mahmud Koshg‘ariy har erda tovush singishi, tushishi haqida ma’lumot bera boradi. Bu erda فخفف o‘rnida فادغم deb chalkash yozilgan bo‘lsa kerak. Biz yanglish bo‘lsa ham o‘zini berdik. Bu o‘rinda tovush idg‘om qilingan emas, tushirilgandir.

** V.Radlov va Olmaota nashrida: *jaqrï*.

*** Olmaota nashrida: *tavsadi* – u menga molimni berishni istadi.

[318] Bu jumlani narsaga yog‘ning ta’mi o‘rnashdi, deb tarjima etish zarur. Ammo Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni odamga nisbatan bergan.

* B.Radlovda: *idishni yaladilar*.

(71) يَقاداقى يَلْغاغالى اِلِكْداكى اِجْغِنُورْ
Yaqadaqï yalg‘ag‘alï eligdägi ïchg‘ïnur

Odam yoqada bo‘lgan yuqni yalashga ovora bo‘lsa, qo‘lidagi idish tushadi, quruq qoladi. Bu maqol bir narsani tama qilib, naqdidan mahrum bo‘lgan kishiga nisbatan qo‘llanadi. Yo‘q narsadan umid qilmaslikka, qo‘lidagini mahkam tutishga undab so‘zlanadi.

ۋ *(w)*

يَلْۋادِى y a l w a d ï – yaladi. اَرْ ياغْ يَلْۋادِى er yag‘ yalwadï – odam yog‘ yaladi. Boshqalari ham shunday. Bu so‘z avvalgidan, ya’ni يَلْغادِى yalg‘adï dan ko‘proq qo‘llanadi** (يَلْۋاماقْ .يَلْۋارْ yalwap, yalwamaq).

ك *(g)*

يُرْكادِى y ö r g ä d ï – o‘radi. اَلْ اَذاقِنْ يُرْكادِى o‘l azaqïn yörgädi – odam oyog‘ini o‘radi. Boshqalari ham shunday. Har bir narsa o‘ralsa ham shu so‘z qo‘llanadi (يُرْكاماقْ .يُرْكارْ yörgap, yörgarmak).

ل *(l)*

يِپْلادِى y ï p l a d ï: اُراغُتْ يُوزِنْ يِپْلادِى urag‘ut yÿzin yïpladï – xotin kishi yuzining tukini ip bilan terdirdi (يِپْلاماقْ .يِپْلارْ yïplar, yïplamaq).

يَتْلادِى y a t l a d ï: ياتجى يَتْلادِى yatchï yatladï **(579)** – afsunchi yomg‘ir yog‘dirish uchun yada toshi bilan duo o‘qidi.

يَتْلادِى y a t l a d ï – yot, begona hisobladi. اَلْ اَنى يَتْلادِى o‘l anï yatladï – u uni yot deb hisobladi.

يِپْلادِى y ï p l a d ï: اَرْ يِپْلادِى er yïpladï – odam arqonda o‘ynadi. (يِپْلاماقْ .يِپْلارْ yïplar, yïplamaq).

يِذْلادِى y ï z l a d ï – hidladi. اَلْ يِبارْ يِذْلادِى o‘l yïpap yïzladï – u mushk hidladi*. Boshqalari ham shunday (يِذْلاماقْ .يِذْلارْ yïzlar, yïzlamaq).

يَرْلادِى y a r l a d ï – tupirdi. اَلْ اَنِكْ يُوزِنكْ يَرْلادِى o‘l anïŋ yÿzinä yarladï – y uning yuziga tupirdi (يَرْلاماقْ .يَرْلارْ yarlar, yarlamaq).

** Mahmud Koshg‘ariyning bu izohi uning so‘z variantlarining qay biri ko‘p qo‘llanga-nini ko‘rsatganligidan ham darak beradi. Olmaota nashrida bu so‘zdagi harakat avvalgi-sidan *jalg‘adï* dan kuchliroqdir.

* B.Radlovda: *mushkdan hid chiqdi (yoki mushk hidi keldi).*

يِرْلادِى y ï p l a d ï: اَرْ يِرْلادِى er yïrladï – kishi qo‘shiq aytdi (يِرْلاماقْ. يِرْلارْ yïrlar, yïrlamaq).

يَشْلادِى y a s h l a d ï: اَتْ يَشْلادِى at yashladï – ot ho‘l o‘t edi. Boshqalari ham shunday. Bu so‘zning asli يلشْلادِى *yashladï* edi, yengillatish uchun (alif) tushirilgan. Boshqa so‘zlarda ham bu hol uchraydi (يَشْلاماقْ. يَشْلارْ yashlar, yashlamaq).

يِكْلادِى y i k l ä d i: اُلْ يِيرِكْ يِكْلادِى o‘l yerig yiklädi – u erni payxon qildi**. Bu so‘z ى harfini الف ga almashtiruvchilar so‘zidir, to‘g‘rirog‘i: اِكْلادِى *iklädi* tarzida talaffuz qilishdir (يِكْلاماكْ. يِكْلارْ yiklär, yiklämäk).

يَمْلادِى y a m l a d ï – supirdi***. اُلْ اَوِنْ يَمْلادِى o‘l ewin yamladï – u uyini supurdi (يَمْلاماقْ. يَمْلارْ yamlar, yamlamaq).

يِمْلادِى y i m l ä d i – imladi. اُلْ مَنْكا يِمْلادِى o‘l menä yimladi – u menga imladi (يِمْلاماكْ. يِمْلارْ yimläp, yimlämäk). Bu so‘zning asli اِمْلادِى imlädidir.

يَشْنادِى y a s h n a d ï: يَشِنْ يَشْنادِى yashïn yashnadï – chaqmoq chaqdi. Tos (lagan, tovoq), oyna va shunga o‘xshash narsalarning yaltirashiga ham bu so‘z qo‘llanadi (يَشْناماقْ. يَشْنارْ yashnar, yashnamaq).

يِلْنادِى y e l n ä d i – elinladi. بى يِلْنادِى bi yelnädi – biyaning elini to‘lishdi. Har bir hayvonning tug‘ish oldida elin solib, sutga to‘lishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (يِلْناماكْ. يِلْنارْ yelnär, yelnämäk).

يَغْلادِى y a g‘ l a d ï: اَرْ قُغْشْ يَغْلادِى er qog‘ush yag‘ladï – odam qayishni yog‘ladi. Boshqalari ham shunday (يَغْلاماقْ. يَغْلارْ yag‘lar, yag‘lamaq). Bu so‘zning asli ياغْلادِى yag‘ladïdir.

يُغْلادِى y o g‘ l a d ï: اُلْ اُلْكا يُغْلادِى o‘l ölukkä yog‘ladï – odam chaqirib, o‘lik uchun xudoyi berdi. Bu turklar odatidir (يُغْلارْ. يُغْلاماقْ yog‘lar, yog‘lamaq).

يِغْلادِى y ï g‘ l a d ï – yig‘ladi. أُغْلانْ يِغْلادِى og‘lan yïg‘ladï – bola yig‘ladi. Boshqalari ham shunday (يِغْلاماقْ. يِغْلارْ yïg‘lar, yïg‘lamaq). She’rda shunday kelgan:

** B.Radlovda: *u yerni toptadi.*

*** B.Radlovda: *yig‘ishtirdi, artdi.*

[LXI]

يَلْكِنْ بُلُبْ بَرْدُقِى
قَلْدِيم اَرِنجْ قَدْغُقا
كُنكُلُمْ اَنكارْ بَغْلَيو
اِيشِمْ اُزُو يِغَلَيو

Yelkin bolup barduqï
Qaldïm erinch qadg‘uqa
Köŋlÿm aŋar bag‘laju
Yshim uzu yïg‘layy.

Shoir aytadi: seviklim safarga ketdi, mening dilim unga bog‘-langan edi. Qayg‘uga botib, uning orqasidan (tinimsiz) yig‘lay-man.

يُكْلادِى y ÿ k1a d i – yukladi, ortdi. اُلْ تَفْى كا يُوكْ يُكْلادِى o‘l teweyga yo‘k yÿklädi – u tuyaga yuk ortdi, yukladi. Boshqalari ham shunday (يُكْلاماكْ. يُكْلارْ yyÿklar, yo‘k1amak).

يكْلَا yiklə - ال بيرك يكْلَادِى o‘l yerig yikladi – u yerni tepkiladi. Talaffuzda “alif”ni “ya”ga almashtirishadi. Adabiy tilde اِكْلَادِى. - ikladi يِكْلَار, yiklər, يكْلَماك yikləmək.

يَمْلَا yamla deydilar:اَفِنْ يمْلَادِى ال o‘l əwin yamladı – u almash-tırdı, uyni o‘zgartirdi. يَمْلَار yamlar, يَمْلَماق yamlamaq.

يَمْلَا – yimlə deydilar: مَنكَا يمْلَادِى ال o‘l manga yimlədi. U meni imladi.

يمْلَارْ yimlər, يمْلَماك yimləmək. Avvaliga اِمْلَادِى imlədi.

ن *(n)*

يَشْنَا yashna deydilar. يَشِن يَشْنَادِى yashın yashnadı. Har bır narsaga nisbatan ham yashin yashnadi aytıladi. Oyna va bosh-qalarga nisbatan ham u yashnaganda.

يَشْنَارْ yashnar, يَشْنَماقْ yashnamoq.

يَلْنَا yəlnə – بِي يَلْنَادِى – biy yəlnədi. U yelin osilganda ham unga nisbatan aytiladi. Yelin sutga to‘lganda. يَالْنَارْ yəlnər, يلنماك yəlnəmək.

Bu bo‘limning manqus turi

ب *(b)*

بُيْبادِى b u y b a d ï: اُلْ اِيشِغْ بُيْبادِى o‘l ïshïg‘ buybadï – u ishni cho‘zdi, beparvolik qildi (بُيْبارْ. بُيْباماقْ byybar, buybamaq).

سَيْبادِى s a y p a d ï*: اُلْ تَوارِنْ سَيْبادِى o‘l tavarïn sajpadï – u molini har narsaga sarf qildi, isrof qildi (سَيْباماقْ .سَيْبارْ saypar, saypamaq)

سَيْرادِى s a y r a d ï – sayradi. سَنْدُواجْ سَيْرادِى sanduvach sayradï – bulbul har xil ovozlar, lahnlar bilan sayradi.

سَيْرادِى s a y r a d ï – behuda gaplar so‘zladi. اَرْ تَلِغْ سَيْرادِى er telim sayradï – odam behuda gaplarni ko‘p so‘zladi. Bu so‘z qarama-qarshi ma’noli so‘zlardandir. (سَيْراماقْ .سَيْرارْ sayrar, sayramaq).

ى (j)

يَيْلادِى y a y l a d ï: اَرْ تاغْدا يَيْلادِى er tag‘da yayladï – odam tog‘da yozladi, yozni o‘tkazdi (يَيْلاماقْ .يَيْلارْ yaylar, yaylamaq).

Qoida. Bu bo‘limning buyrug‘i to‘rt harflidir. Shuning uchun bu bo‘limni biz to‘rt harfli deb atadik. Chunonchi, اَتْ تُغْرا et tog‘ra – go‘sht to‘g‘ra va اَفْكا اُغْرا awra og‘ra – *uyga bor* gaplaridagi تُغْرا tog‘ra, اُغْرا og‘ra so‘z (buyruq)lari shundaydir. So‘zlovchi bu so‘zlarni تُغْراغِلْ *tog‘rag‘il* – to‘g‘ragin, اُغْراغِلْ og‘rag‘il – *yo‘l olgin* tarzida deb aytishi ham mumkin. 3-shaxsning buyrug‘i تُغْراسُونْ *tog‘rasun* – to‘g‘rasin, اُغْراسُونْ og‘rasun – yo‘l olsindir. Bu bo‘limning bo‘lishsiz shakli buyruq oxiriga م va الف orttirib yasaladi: اُغْراما og‘rama – *borma,* تُغْراما tog‘rama – *to‘g‘rama* demakdir. Bu fe’lning 3-shaxs bo‘lishsiz shakli اُغْراماسُونْ *og‘ramasun,* تُغْراماسُونْ *tog‘ramasun*dir – *bormasin, to‘g‘ramasin* demakdir.

Ishning kelajak zamonda bo‘lishini anglatish istalganda tarkibida غ– *g‘* bo‘lgan yoki, umuman, qattiq so‘zlarda oxiriga ى. الف غ qo‘shiladi va ك bo‘lgan yoki, umuman, yumshoq so‘zlarda غ o‘rniga ك-*k//g,* الف ى orttiriladi. Chunonchi: مَنْ اَتْ تُغْراغايْ مَنْ men et tog‘rag‘ay men – men go‘sht to‘g‘rayman va مَنْ اَنگَرْ اُغْراغايْ مَنْ men aŋar og‘rag‘aymen – men unga yo‘l olaman kabi. **(581)**

Bu bo‘lim va bundan boshqa bo‘lim fe’llari ham shu xildadir. Arab tilida har xil ma’no va vazifalar so‘z oldiga qo‘shiladigan qo‘shimchalar vositasi bilan ifoda qilinadi. Chunonchi, har xil ma’nolarni anglatish uchun qo‘shiladigan qo‘shimchalar: so‘roqni anglatadigan qo‘shimcha, kelasi zamon fe’li oldiga qo‘shiladigan س – (sin) va uzik aliflar, bog‘lovchi hamda turli qo‘shimchalar va

---

* Olmaota nashrida: *sayba.*

boshqa shuning kabilarning hammasi fe'l oldiga qo'shiladi. Lekin turkiy tillarda so'z o'zagi o'z shaklini saqlaydi. Har xil vazifalarni bajaradigan turli qo'shimchalar bu tilda, yuqorida ko'rilgandek, so'z oxiriga qo'shiladi.

Shuningdek, harakatni bajaruvchini anglatuvchi so'zlarning shakllari, ya'ni yasovchilari ham arabchada so'z o'rtalariga orttiriladi. Chunonchi: غَفُورٌ. غَفَّارٌ غافِرُ kabi. Lekin turkchada, so'z o'z butun-ligini saqlagani holda, har hil qo'shimchalar quyida ko'rsatgani-mizdek, so'z oxiriga qo'shiladi.

Kelasi zamon bo'lishsizlik fe'li bo'lishsizlik qo'shimchasidan so'ng bir س orttirib yasaladi. Chunonchi: اَلْ اَتْ تُغْراماسْ o'l et tog'ramas – u go'sht to'g'ramaydi, اَلْ سَنكا أُغْراماسْ o'l sänä og'ramas – u senga bormaydi kabi.

3-shaxsning bo'lishsizligi: اَلْ اَتْ تُغْراماسُونْ o'l et tog'ramasun – u go'sht to'g'ramasun, اَلْ اَنكارْ أُغْراماسُونْ o'l anar og'ramasun – u unga bormasun kabidir.

Ko'pliklar qoidasi yuqorida ko'rsatib o'tildi. Bu qoida shundayki: o'g'uz va qipchoqlarda bo'yruqning birlik shakli oxiriga g'unnali ك – *k** orttirib yasaladi. Chunonchi: اَتْ تُغْرانكْet tog'ran – *go'sht to'g'ranglar* yoki اَفكا أُغْرانكْ efga og'ran – *uyga boringlar*, degandagi kabi. Bu to'g'ri qoidadir. Lekin turklar hurmatlilarga yoki katta yoshlilarga so'zlaganlarida, birlik buyruq shaklining oxiriga g'unnali ك – *n* orttirib qo'llaydilar.

Bu g'unnali ك – *n* ularda hurmat belgisi sifatida o'rin olgan. Ko'plikda ular تُغْرانكْلارْ *tog'ranlar,* أُغْرانكْلارْ *og'ranlar* tarzida qo'llaydilar. Shuning uchun ikki mustaqil ko'plik belgisini birga qo'shib qo'llash xato hisoblanmay, to'g'ri deb tushuniladi. O'g'uzlar bilan qipchoqlar birinchi usulni qo'llaydilar. Qoida shudir.

Harakatni bajaruvchisini anglatuvchi shakli buyruq oxiriga *-g'uchï, -guchi* qo'shimchalari qo'shilib yasaladi. **(582)** اَتْ تُغْراغُوجي et tog'rag'uchï – go'sht to'g'raydigan, اَفكا أُغْراغُوچي efgä og'rag'uchï – uyga borayotgan deyilgandagi kabi. Lekin o'g'uz (va qipchoqlar, sahro-yilar) va suvorinlar hamda ular bilan birga yashovchilar bu shaklni تُغْراداچي tog'radachï, أُغْراداچي *og'radachï* shaklida qo'llaydilar. Bu haqdagi qoida yuqorida bayon qilingan.

---

* Olmaota nashrida: *k* harfi.

Ishning davomli ekanini anglatuvchi sifatdosh shakli تُغْراغانْ tog‘rag‘an, أُغْراغانْ *og‘rag‘an*dir, ya’ni doim to‘g‘raydigan, doim boradigan, borishni mo‘ljallaydigan demakdir. Bu qoida hamma uchun umumiydir.

Ishlovchining ishni bajarish orzusida ekanligi ma’nosini anglatuvchi sifatdosh shakli qattiq va tarkibida ذَلاقَة tovushla-ridan biri bo‘lgan yoki tarkibida غ bo‘lgan so‘zlarda ق، الف، س orttiriladi, yumshoq yoki tarkibida ك bo‘lgan so‘zlarda ك، الف، س orttiriladi. Chunonchi: أُلْ اَتْ تُغْراغْساقْ أُلْ o‘l et tog‘rag‘saq o‘l – u go‘sht to‘g‘rashni istaydigan, أُلْ تَويكا يُكْ يُكْلَكْساكْ أُلْ ol tewejgä yo‘k yÿklägsäk ol – *y tuyaga yuk ortishni istaydigan* degandagi kabi. Lekin bu xususiyat boshqa bo‘limlarda bo‘lganidek kam uchraydi.

Ish-harakatni bajarishga qasd qilganini, lekin hali boshlama-ganligini anglatadigan sifatdosh quyidagichadir. أُلْ اَتْ تُغْراغْلى أُلْ o‘l et tog‘rag‘lï ol – u go‘sht to‘g‘rashga jazm qilgandir. أُلْ سَنكاأُغْراغْلى أُلْ o‘l seŋä og‘rag‘lï ol – u senga borishga jazm qilgandir kabi. Boshqalari shu qoidaga muvofiq tuziladi.

Ishni bajarish uning haqi ekanini anglatuvchi sifatdosh shakli quyidagichadir. أُلْ اَتْ تُغْراغْلِقْ اَرْدى o‘l et tog‘rag‘lïq erdi – go‘sht to‘g‘rash uning haqi edi. أُلْ سَنكا أُغْراغْلِقْ اَرْدى o‘l senä og‘rag‘lïq erdi – senga kelish uning haqi edi kabi. Lekin o‘g‘uz va qipchoqlar tilida bu sifatdoshdagi ل o‘rniga س almashtirib qo‘llanadi. Chunonchi: أُلْ اَتْ تُغْراغْسِقْ اَرْدى o‘l et tog‘rag‘sïq erdi – go‘sht to‘g‘rash uning haqi edi. أُلْ سَنكا أُغْراغْسِقْ اَرْدى o‘l seda og‘rag‘sïq erdï – u senga kelishi kerak edi kabi. Bu shaklni qo‘llashda ko‘pchilik turkiy qabilalar o‘g‘uzlardan **(583)** boshqa turklar* tiliga muvofiq ravishda qo‘llaydilar.

Bu sifatdoshlarning bo‘lishsiz shakllari buyruq oxiriga ما-*ma* qo‘shib yasaladi. Chunonchi: أُلْ اَرْ اَتْ تُغْرامَدَجى تُرُوزْ o‘l er et tog‘ramadachï turur – u odam go‘sht to‘g‘ramaydiganlardandir. أُلْ يُكْ يُكْلامَدَجى تُرُوزْ o‘l yÿk yÿklämädächi turur – u yuk yuklamaydiganlardandir. Boshqalari shu qoidaga muvofiq yasaladi.

* Bu erda turk so‘zi etnik termin sifatida qo‘llangan.

Boshqa bir shevada qattiq so‘zlarda ل، ى، م، غ‌lar qo‘shib, yumshoq so‘zlarda م، ك، ل، ى lar qo‘shib qo‘llaniladi: تُغْرامَغْلى اُلْ *tog‘ramag‘lï ol*, يُكْلامَكْلى *yÿklämäkli o‘l* shaklida qo‘llanadi.

Bajarilgan ishni anglatuvchi majhul sifatdosh quyidagichadir. تُغْرامِشْ اَتْ tog‘ramïsh et – to‘g‘ralgan go‘sht, ايرْغامِشْ يِغاجْ ïrg‘amïsh yïg‘ach – *irg‘itilgan*** *yog‘och* kabi. Buning qoidasi faqat o‘zaklardan-gina yasalgan bo‘limda bayon qilingandir.

Masdarlarning bir qanchasini asosiy fe’llarni izohlagan o‘rinlarda bayon qilganmiz. Bu yerda aslida masdar bo‘lmay, boshqa bir so‘z bilan bog‘lanish natijasida masdarga aylanganlar haqidagina so‘zlaymiz. Bu xil masdarlar o‘zak oxiriga ك yoki غ qo‘shilib yasaladi. Chunonchi: اَنِكْ تُغْراغِى كُرْ anïŋ et tog‘rag‘ï kör – uning go‘sht to‘g‘rashini ko‘r, anïŋ og‘rag‘ï kör – *uning mo‘ljalini*** *ko‘r*, gaplaridagi *tog‘rag‘ï, og‘rag‘ï* masdarlari kabi. Bu xil masdarlar ismlar o‘rnida qo‘llanadi. Bular ko‘p qo‘llangani uchun ularga (alohida) ishorat etdim.

Payt, joy, qurol ismlari bir xil usulda yasaladi. Chunonchi: بُو اَتْ تُغْراغُو bu et tog‘rag‘u – bu to‘g‘raladigan go‘sht. بُو اَتْ تُغْراغُو اُغُرْ اُلْ bu et tog‘rag‘u og‘ur o‘l – bu go‘sht to‘g‘raydigan vaqt. بُو تُغْراغُو يِيرْ اُلْbu tog‘rag‘u yer o‘l – bu to‘g‘raydigan joy. بُو تُغْراغُو نانكْ bu tog‘rag‘u neŋ – *bu to‘g‘raydigan narsa* (asbob) deyilgandagi kabi. Bo‘lishsizlik shakli quyidagichadir: بُو تُغْراغُو اُغُرْ نانكْ bu tog‘rag‘u og‘ur ermas – bu to‘g‘raydigan vaqt emas kabi. Boshqalari ham xuddi shunday hosil qilinadi.

So‘ng bilgilki, men o‘tgan zamon, kelasi zamon va masdarlarni bir yerda ko‘rsatib berish usulini qo‘lladim. Chunki o‘tgan zamon bilan kelasi zamon fe’llarining o‘rtalaridagi harakat va sukunlar ba’zan bir-biriga mos kelsa, ba’zan teskari bo‘ladi (mos kelmaydi). Ularni qoida berish bilangina tushuntirib bo‘lmaydi: faqat har birini aniq ko‘rsatib o‘tishni talab qiladi. Chunonchi: يِيرْ قُرْغادِى yer qurg‘adï – er quridi. Buning kelasi zamon va masdar shakllari قُرْغاماقْ .قُرْغازْ *qurg‘ar – qurg‘amoq* o‘tgan zamon shakliga mos kelgandir. Yana يا قُرْدِى ya qurdï **(584)** – *yoy qurdi* gapidagi *qurdï* o‘tgan zamon fe’lining kelasi zamon

** Olmaota nashrida: *silkitilgan.*
*** Olmaota nashrida: *yurishini.*

va masdar shakllari ham bir-biriga mosdir. O‘tgan zamon shaklining kelasi zamonga mos kelmaydigan shakllari yuqorida bayon qilingandir.

Bunday fe’llar bir qancha vazifalarda qo‘llanadi: birinchidan, ikki yoki uch undoshli manqus fe’llardan tuzilib, ismi zikr qilingan narsa vositasida ishlovchining biror ish qilganini anglatadi. Chunonchi: اَرْ أُقْ كَزْلادِى er oq kezladi – odam o‘qni kamonga to‘g‘riladi. Bu fe’lning asli كَزْ kez – otar joy* ma’nosidagi ism edi. لادِى *-ladï* qo‘shimchasi orttirilgach, fe’lga aylandi. Yana اَرْ تَقْارْ كِزْلادِى er tawar kizladi – odam mol yashirdi. Boshqalari ham shunday. Bu gapdagi كِزْلادِى *kizlädi*ning asli كِزْ *kiz* edi, لادى-*ladï* qo‘shilib, fe’l yasalgandir.

Manqus bo‘limiga kiradigan so‘zlar quyidagichadir. بُلِتْ قَرْلادِى bulït qarladï – bulutdan qor yog‘di. قُغُنْ يَغْلادِى qog‘ush yag‘ladï – (odam) teri yog‘ladi. Birinchi gapdagi قَرْلادِى *qarladï*ning asli قارْ *qar,* ikkinchi gapdagi يَغْلادِى *yag‘ladï* fe’lining o‘zagi ياغْ *yag‘* edi. Bu so‘zlardagi الف *alif* yengillatish uchun tushirilgan.

Uch undoshli sahih ismlardan fe’l yasash uchun faqat ism oxiriga bir alif orttirib yasaladi. Bu xil ismlarda *alif* bilan birga *l* orttirishga ehtiyoj qolmaydi. Chunonchi, *chaqmoq* ma’nosidagi يَشِنْ *jashïn* so‘zidan fe’l yasash uchun bu so‘z oxiriga bir alif orttiriladi. يَشِنْ يَشْنادِى yashïn yashnadï – *chaqmoq chaqdi* kabi. Yana قِسْراقْ قُلْنادِى qïsraq qulnadï – biya bolaladi, قِسْراقْ يِلْنادِى qïsraq jelnädi – *biya elin soldi* kabi. Bu misollardagi ismlar sahih bo‘lgani uchun birgina alif orttirish etarli bo‘ldi; *l* qo‘shmay, birgina alif orttirish bilan so‘z to‘la fe’lga aylandi.

Shuningdek, to‘rt undoshli sahih ismlarning ham oxirgisi tushirilib, o‘rniga alif orttirilib fe’l yasaladi. To‘rt undoshli ismlarning oxirgisi tushirilgach, so‘z uch undoshli bo‘lib qoladi. Unga alif orttirilsa, yana to‘rt undoshli fe’lga aylanadi. Chunonchi, yumshoq narsa ma’nosidagi يُمْشاقْ *yumshaq* so‘zidan yasalgan fe’l يُمْشادِى *jumshadï* shunga misoldir, ya’ni *narsa yumshadi* demakdir[319].

---

* B.Radlov, Olmaota nashrida: *yoy o‘qining dum qismi.*

[319] *Narsa yumshadi* tarzida لانْ الشىْء deb berilishiga ko‘ra, turkcha ibora يُمْشادِى نانكْ *jumshadi neң* bo‘lishi kerak edi.

اُلْ اَنكَرْ سُوزْ يَسْتَادِى *o'l aŋar söz yastadi* gapidagi يَسْتَادِى *yastadï* so'zi ham shundaydir. U unga so'zni yassiladi – *gap tegizdi* demakdir. Shuningdek, suyanish uchun yostiq qo'yilsa ham bu so'z qo'llanadi. Buning asli يَسْتُقْ *yastuq*dir. سُوقْ بُلْغَادِى *cyw bulg'adï* gapidagi *bulg'adï* fe'li ham shunday: *suvni bulg'atdi, loyqatdi* demakdir. Buning asli بُلْغَانُقْ *bulg'anuq**dir. Bu ismlardan ق tushirilgan. So'ng الف *alif* **(585)** orttirish bilan fe'lga aylangan.

Boshqacha aytganda, bu ismlar oxiriga tovush qo'shib, fe'ldan yasalgan ismlardir. Mening qarashimda, to'g'risi shudir**. Chunki ismlar fe'llardan yasaladi. Chunonchi: سُوذْتى suztï – tupurdi, سِذْتى sizti – *siydi* fe'llaridan سُذْقْ *suzuq*, سِذْكْ *sizïk* ismlari oxiriga *q, k* qo'shilib fe'l yasalgan; *tupuk* va *siydik* demakdir. اَتْ بِشْدِى *et pïshdï* gapidagi بِشْدِى *pïshdï* fe'li ham shundaydir. بِشِغْ اَتْ pïshïg' et – *pishgan go'sht* ma'nosidagi بِشِغْ *pïshïg'* ham *pishdi* fe'lidan yasalgan. Bu hol arab va turkiy tillardan boshqa tillarda bo'lmagan bir fazilatdir.

Ikkinchi hol – bu fe'l o'zining asl ma'nosida kelishidir. Chunonchi, اَرْ يِغَاجْ اِرْغَادِى er yïg'ach ïrg'adï – odam yog'ochni irg'itdi. Yana اَرْ يِغْلَادِى er yïg'ladï – odam yig'ladi. اَرْ اِيشْقَا اُغْرَادِى er ïshqa og'radï – odam ishga otlandi gaplaridagi fe'llar kabi.

Arab tilidagi mufoalat bobiga o'xshash ish ikki va undan ortiq kishilar sherikligida bajarilganini anglatadigan fe'l yasash uchun so'z oxiridagi kuchsiz undosh tushirilib, uning o'rniga ش orttiriladi. Chunonchi: اُلْ مَنِكْ بِرْلا يِغَاجْ اِرْغِشْدِى o'l meniŋ birlä yïg'ach ïrg'ashdï – u men bilan yog'och irg'itishdi. Bu fe'l yordamlashish, bahslashish ma'nosini ham anglatadi. Ya'ni كِشِى بَرْجا يِغْلَشْدِى kishi barcha jïg'lashdï – *odamlar hammasi yig'lashdi* ham shunday. Boshqa so'zlarning hammasi shunga o'xshab tuziladi.

Qilinmagan biror ishni bajaruvchi qilgandek ko'rinish ma'nosini anglatuvchi sifatdosh shakli so'z oxiridagi kuchsiz undosh tushirilib, uning o'rniga م،س،ن lar qo'shilib yasaladi. Chunonchi: اُلْ سَنكا اُغْرَمْسِنْدى o'l seŋä og'ramsïndï – u senga qasd qilayotganday ko'rindi, haqiqatda u qasd qilmagan edi. Yana اُلْ يُكْ يُكْلَمْسِنْدِى o'l

---

* Olmaota nashrida: *bulg'ayuq*.

** Demak, Mahmud Koshg'ariy tilshunoslikdagi asosiy nazariy masala haqida ham o'z fikrini bayon etgan.

yo‘k yўklämsindi – u haqiqatda yuk ko‘tarmagani holda *yuk ko‘targandek ko‘rindi* kabi. Bu qoidalarning boshqasini solim bo‘limida ko‘rsatgan edik. Hamma so‘zlar ana shu qoidaga muvofiq yasaladi.

Ulug‘ Tangri xohlasa, bundan chetga chiqmaydi.

فَعالادِی، فَعولادِی، فَعِیلادِی *FAOLADÏ, FAULADÏ, FAILADÏ* SHAKLIDA HAR XIL HARAKATLAR BILAN QO‘LLANGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI (586)

ب *(b)*

تَبالادِی t a b a l a d ï: اَنی تَبالادِی اُلْ o‘l anï tabaladi – u uni yomonladi, tahqir qildi, so‘kdi (تَبالاماقْ. تَبالارْ tabalar, tabalamaq).

تُبُولادِی t ö p ÿ l ä d ï*: یَغِینی تُبُولادِی اُلْ o‘l jag‘inï töpўladi – y dushmanning boshiga urdi (تُبُولاماكْ. تُبُولارْ töpўlär, töpўlämäk).

سُبِیلادِی s u b ï l a d i: نانكُنی سُبِیلادِی subïladi neŋni – keng narsaning yonlarini qirqib, uzun qildi, cho‘ziq holga keltirdi (سُبِیلاماقْ. سُبِیلارْ subïlar, so‘bïlamaq).

ت *(t)*

چِتِیلادِی c h a t ï l a d ï – shaqilladi. بَرْكا چِتِیلادِی bergä chatïladï – qamchin shaqillagan ovoz chiqardi. Shunga o‘xshash har bir tovush chiqishiga nisbatan ham bu so‘z qo‘llanadi (چِتِیلاماقْ. چِتِیلارْ chatïlar, chatïlamaq).

سَتُولادِی s a t u l a d ï: اُلْ تِلِمْ سَتُولادِی o‘l telim satuladï – u behuda gaplarni ko‘p gapirdi (سَتُولاماقْ. سَتُولارْ satular, satulamaq).

ج *(ch)*

سَجُولادِی s a c h u l a d ï: اُلْ سُقُلْقْ سَجُولادِی o‘l suwluq sachuladï – u dastro‘mol va boshqa shunga o‘xshash narsalar (cheti)ga sochuq, popuk, shokila qildi (سَجُولاماقْ. سَجُولارْ sachular, sachulamaq).

قَجالادِی q a c h a l a d ï: اُلْ نانكُنی قَجالادِی o‘l neŋni qachaladï – y narsani idishda saqladi** (قَجالاماقْ. قَجالارْ qachalar, qachalamaq). Bu so‘zning asli قاجالادِی edi, so‘ng الف *alif* tushirilgandir.

---

* Olmaota nashrida: *tubula.*

* B.Radlov va Olmaota nashrida: *u narsani idishga soldi.*

قِچِيلادِى q ï c h ï l a d ï*** – qitiqladi. اُلْ مَنى قِچِيلادِى ‘ol meni qïchïladï – u meni qitiqladi. Bu qo‘ltiq osti, oyoqning tagi kabi odam ushlasa, kulgi keladigan joylarni qashishdir (قِچِيلاماقْ. قِچِيلارْ qïchïlar, qïchïlamaq).

ر *(r)*

قَرالادِى q a r a l a d ï: اُلْ قَرالادِى نانكْنى o‘l qaraladï neŋni – u narsani qoraytirdi (قَرالاماقْ. قَرالارْ qaralar, qaralamaq).

قِرِيلادى q a r ï l a d ï: اُلْ بِيرِكْ قِرِيلادى o‘l yerïk qarïladï – U erni (tirsaklab) o‘lchadi. Boshqalari ham shunday.

قِرِيلادى q a r ï l a d ï اُلْ اَرِكْ قِرِيلادِى o‘l erig qarïladï – u u odamni qari deb hisobladi, qariga nisbat berdi (قِرِيلامَاقْ. قِرِيلارْ qarïlar, qarïlamaq).

قَرالادِى q a r a l a d ï: اِتْ قَرالادِى ït qaraladï – it bulg‘atdi.

قِرِيلادِى q a r ï l a d ï: تُبى قارِغْ قِرِيلادِى tÿpi* qarïg‘ qarïladï – shamol gurillagan ovoz bilan qor keltirdi (قِرِيلاماقْ. قِرِيلارْ qarïlar, qarïlamaq).

غ *(g‘)*

جُغِيلادِى c h o g‘ ï l a d ï: اَرْ جُغِيلادِى er chog‘iladï – odam baqirdi, chaqirdi (جُغِيلاماقْ. جُغِيلارْ chog‘ïlar, chog‘ïlamaq). Bu so‘z ba’zan جَغِيلادِى chag‘iladï shaklida ham talaffuz qilinadi.

جَغِيلادِى j a g‘ ï l a d ï**: سُوقْ جَغِيلادِى cyw jag‘iladï – suv sharilladi. Bu so‘zni ژْغِيلادِى *jag‘iladï* va شَغِيلادِى *shag‘iladï* shakllarida talaffuz qilish ham bor (شَغِيلاماقْ. شَغِيلارْ shag‘ïlar, shag‘ïlamaq). She’rda shunday kelgan:

[LVI]

قَتُنْ سِينى جُغِيلادِى
تَنْكُتْ باكِنْ يَغِيلادِى
قَنى اَقِبْ ژَغِيلادِى
بُيُنْ سُوقِنْ قِزِلْ سَغْدِى

Qatun sini chogiladï
Teŋÿt begin yag‘iladï
Qanï aqïp jag‘iladï
Boyyn cywïn qïzïl sag‘dï*. **(587)**

** Olmaota nashrida: *qajila.*

* Bu parcha juda qadimgi davrlarga oiddir.

Qatunsini – Tangut bilan Chin orasidagi bir shaharning nomi; shu joyda yashovchilar tangutlar bilan jang qildilar. Qatunsini xalqi baqirib chaqirib, tangut begi bilan dushmanlashdi, oqibatda, qonlari suvdek sharillab oqdi. Bo‘yinlaridan qizil suv, ya’ni qon sog‘ildi.

سَغُولادِی s a g‘ u l a d ï: اَرْ بُغْدایْ سَغُولادِی er bug‘daj sag‘uladï – odam bug‘doyni o‘lchadi. Boshqalari ham shunday (.سَغُولارْ سَغُولاماقْ sag‘ular, sag‘ulamaq).

ف *(f)*

چِفْلادِی c h ï f ï l a d ï: كُبْ چِفْلادِی kop* chïfïladï – xum qaynadi. Shuningdek, sharbat shaqirlab ovoz berib qaynasa ham shu so‘z qo‘llanadi (چِفْلاماقْ .چِفْلارْ chïfïlar, chïfïlamaq).

ق *(q)*

تُقُلادِی t o q u l a d ï: اَرْ قَذِشْ تُقُلادِی er qazïsh toquladï – odam qayish (kamar)ga to‘qa qildi (تُقُلاماقْ .تُقُلارْ toqular, toqulamaq).

تَقِیلادِی t a q ï l a d ï*: تَقِیلادِی نانكْ taqïladï neŋ – kavagi bo‘lmagan zich narsa ustiga bir narsa tushganda chiqargan tovush. Chunonchi, tirgovichning ekin va shunga o‘xshashlar ustiga tushishi ham shunday ovoz chiqaradi (تَقِیلاماقْ .تَقِیلارْ taqïlar, taqïlamaq).

ك *(k)*

تِكُولادِی t i k ÿ l ä d i: اُلْ مَنكا ات تِكُولادِی o‘l meŋa et tikÿlädi – u menga bir bo‘lak go‘sht berdi. Boshqalari ham shunday.

تِكُولادِی t i k ÿ l ä d i: اُلْ بَكْكا نانكْ تِكُولادِی o‘l begga neŋ tikÿlädi – y bekka biror narsani pora qilib berdi. Bu so‘z oldingi (so‘z)dan olingan (تِكُولاماكْ .تِكُولارْ tikÿlär, tikÿlämäk).

تِكِیلادِی t i k i l ä d i: تِكِیلادِی نانكْ tikilädi neŋ – narsa shildirab, mayin ovoz chiqardi**. تِكِیلاماكْ .تِكِیلارْ tikilär, tikilämäk).

ل *(l)*

تَلُولادِی t a l u l a d ï: اُلْ تَلُولادِی نانكنی o‘l taluladï neŋni – u narsani tanladi (تَلُولاماقْ .تَلُولارْ talular, talulamaq).

** V.Radlovda: *kir* – ko‘za; Olmaota nashrida: *kub* – ko‘za.

* V.Radlovda: *tïqïla;* Olmaota nashrida: *tikila.*

** V.Radlov, Olmaota nashri: gurilladi, shovqin qildi

م *(m)*

تُميلادِى t o‘ m i l a d i: اَشاڭ تُميلادِى eshjäk tymiläadi – eshak yo‘rg‘aladi. Bu uning sakrab elishidir. Bu so‘z ko‘pincha تُميلَنْدى *tymiländi* shaklida qo‘llanadi (تُميلاماڭ .تُميلارْ tymilär, tymilämäk).

تَمُولادِى t a m u l a d ï: اُلْ سُوقّغْ تَمُولادِى o‘l cywyg‘ tamuladï – u suv to‘g‘onini mahkamladi*** (تَمُولاماقْ .تَمُولارْ tamular, tamulamaq).

Bu bo‘limning misol turi

ب *(b)*

يُبيلادِى y u b ï l a d ï: اُلْ اَنى يُبيلادِى o‘l anï yubïladï – y uni aldadi. She’rda shunday kelgan:

[LVII]

تَنكُتْ خانى يُبيلادِى
اُلْمْ بِرلا تُبُولادِى
قَذَشْلارى تَبالادِى
اُلْمْ كُورُبْ يُزى اَغْدى

Teŋo‘t xanï yubïladï
Ölum birlä töpÿlädi
Qazashlarï tabaladï
Ölo‘m köro‘p yÿzi ag‘dï.

Tangut xoni Qatunsinining xonini aldadi, unga o‘lim zarbasini berdi. **(588)** Yengilganini ko‘rgan qarindoshlarining ori keldi, bu holga dushman sevindi. O‘limga yo‘liqqach, rangi o‘chdi, yuzlari o‘zgarib ketdi.

Bu – o‘g‘uz va qipchoq tilida (يُبيلاماقْ .يُبيلارْ yybïlar, yubïlamaq). Boshqa turklar ham bu so‘zning hiyla ma’nosidagi يَبْ، يُبْ yab, yyb shaklini qo‘llaydilar, lekin bundan fe’l yasamaydilar.

س *(s)*

يَسيلادِى y a s ï l a d ï: اُلْ يَسيلادِى نانكنى o‘l yasïladï neŋni – u narsani supra va shunga o‘xshash narsaga yoyilgan xamirdek yoydi. يَسيلادِى اُلْ سُوزُكْ o‘l sözÿg yasïladï – u so‘zni ochiq-oydin so‘zladi, piching, qochiriqli qilmadi (يَسيلاماقْ .يَسيلارْ yasïlar, yasïlamaq).

*** V.Radlov, Olmaota nashri: *to‘g‘on qurdi.*

غ (g‘)

يَغيلادِى y a g‘ ï l a d ï اُلْ اَنى يَغيلادِى o‘l anï yag‘ïladï – y unga dushmanlik qildi.

يَغيلادِى y a g‘ ï l a d ï: اَرْ يَغى يَغيلادِى er yag‘ï yag‘ïladï – odam dushman bilan jang qildi (يَغيلاماقْ. يَغيلارْ yag‘ïlar, yag‘ïlamaq).

Bu bo‘limning manqus turi

اَيالادِى a y a l a d ï: قِيزْ اَيالادِى qïz ayaladï – qiz ikki qo‘lining kaftlarini bir-biriga urdi (اَيالاماقْ. اَيالارْ ayalar, ayalamaq). Bu to‘g‘ri, fasih so‘zdir.

اُيالادِى u y a l a d ï: قُشْ اُيالادِى qush uyaladï – qush uya qurdi (اُيالاماقْ. اُيالارْ uyalar, uyalamaq).

كُيالادِى k ÿ y a l ä d i: اَرْ كَيزْ كُيالادِى er keziz kÿya1ädi – odam kuyani kigizdan tushirdi, qoqdi. Boshqalari ham shunday. (كُيالارْ. كُيالاماكْ kÿyäläp, kÿyä1ämäk). Bu bo‘limning qoidasi bundan oldingi bo‘limda ko‘rsatganimizchadir. Bu bo‘limda ya’na bir qancha vazifalarda qo‘llanishi kuzatiladi.

Birinchi: asli oxirgi tovush kuchsiz bo‘lgan uch harfli ismlarga لادى *ladï // - lädi* qo‘shilib, fe’l yasaladi. Bunda o‘zakda ifodalangan ma’no bilan bog‘liq harakat bajarilgani anglatiladi. Chunonchi: اَرْ تُونْ قَرالادِى er ton qaraladï – odam to‘nni qoraytirdi. يِرْ قَريلادِى yer qarïladï – *erni o ‘lchadi* degandagi kabi.

Ikkinchi: ismlarga لادى *ladï – ladi* qo‘shilib yasalgan fe’l shu fe’lda zikr qilingan harakatga nisbat berilganlik ma’nosini anglatadi. Chunonchi: اُلْ اَرِكْ اَقيلادِى o‘l erig aqïladï – u odamni saxiyga nisbat berdi. Yana اُلْ اَنى قَريلادِى o‘l anï qarïladï – u uni qari hisobladi kabi.

Uchinchi: o‘z holiga mustaqil fe’l bo‘lib, mazkur ma’nolardan hech biri ifoda qilinmaydi. Chunonchi: **(589)** اُلْ اَنى قِجيلادى o‘l anï qïchïladï – u uni qitiqladi. Yana اَشْياكْ تُميلادِى eshyäk tymiladi – e*shak yo ‘rg ‘aladi* kabi.

To‘rtliklar bo‘limi tugadi.

فَعْلَادِى *fa’al’adi* shaklidagi so‘zlarda har xil harakatlar bilan kelgan so‘zlar bo‘limi

ت *(t)*

تُبْتْلَادِى t ÿ b ÿ t l ä d i: اَنى تُبْتْلَادِى اُلْ o‘l anï tÿbÿtlädi – u uni tubutlarga nisbat berdi; ular bir toifa xalqdir (تُبْتْلَارْ. تُبْتْلَامَاقْ tÿbÿtlär, tÿbutlämäk).

كِرِتْلَادِى k i r i t l ä d i – qulfladi. قَبُغْ كِرِتْلَادِى اُلْ o‘l qapug‘ kiritlädi – u eshikni qulfladi (كِرِتْلَارْ. كِرِتْلَامَاقْ kiritlär, kiritlämäk).

ج *(ch)*

جَنَجْلَادِى c h a n a ch l a d ï: اَنى جَنَجْلَادِى اُلْ o‘l anï chanachladï – u uni kuchsiz, bo‘shashganga nisbat berdi (جَنَجْلَارْ. جَنَجْلَامَاقْ chanachlar, chanachlamaq).

قُلَجْلَادِى q u l a c h l a d ï: اُرْقْنى قُلَجْلَادِى اُلْ o‘l oruqnï qulachladï – u arqonni qulochlab o‘lchadi. Boshqalari ham shunday (قُلَجْلَارْ. قُلَجْلَامَاقْ qulachlar, qulachlamaq).

قَمِجْلَادِى q a m ï c h l a d ï: مُونْكْ قَمِجْلَادِى اُلْ o‘l mo‘no‘g qamïchladï – u cho‘michga sho‘rvani to‘ldirdi* (قَمِجْلَارْ. قَمِجْلَامَاقْ qamïchlar, qamïchlamaq).

ر *(r)*

بَغْرْلَادِى b a g‘ ï r l a d ï: اَنى بَغْرْلَادِى اُلْ o‘l anï bag‘ïrladï – u uning bag‘riga urdi.

بَغْرْلَادِى b a g‘ ï r l a d ï: ياسِنْ بَغْرْلَادِى اُلْ o‘l yasïn bag‘ïrladï – u yoy dastasini tuzatdi (بَغْرْلَارْ. بَغْرْلَامَاقْ bag‘ïrlar, bag‘ïrlamaq).

جَغْرْلَادِى c h a g‘ ï r l a d ï: اُزْمْنى جَغْرْلَادِى اُلْ o‘l uzumni chag‘ïrladï – u uzumni chag‘ir (sharbat) qildi (جَغْرْلَارْ. جَغْرْلَامَاقْ chag‘ïrlar, chag‘ïrlamaq). Kishi ichkilik ichganda ham shu so‘z qo‘llanadi.

جِغْرْلَادِى c h ï g‘ ï r l a d ï: يِرْكْ جِغْرْلَادِى yerïk chïg‘ïrladï – Bu yerda so‘qmoq ochdi. Shuningdek, erni qor bosganda, birov oyog‘i bilan yo‘l ochishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (جِغْرْلَارْ. جِغْرْلَامَاقْ chïg‘ïrlar, chïg‘ïrlamaq).

---

* V.Radlov, Olmaota nashrida: *cho‘mich bilan quymoq.*

سِغِزْلادِی s i g‘ ï r l a d ï: اُلْ اَنی سِغِزْلادِی o‘l anï sïg‘ïrladï – u uni sigir hisobladi, sigirga nisbat berdi**. (سِغِزْلاماقْ .سِغِزْلارْ sïg‘ïrlar, sïg‘ïrlamaq).

بُکُرْلادِی b ÿ k ÿ r l ä d i: اُلْ اَنی بُکُرْلادِی o‘l anï bÿkÿrlädi – u uning bukiriga urdi***. Yana اُلْ یَغِینی بُکُرْلادِی o‘l yag‘ïnï bÿkÿrlädi – y dushman safiga o‘ngdan yoki chapdan kirib engdi, yuzma-yuz bormadi (بُکُرْلاماکْ .بُکُرْلارْ bÿkÿrlär, bÿkÿrlämäk). **(590)**

س (s)

تَرَسْلادِی t a r a s l a d ï: اَلبْ جَرِکْ تَرَسْلادِی alp cherig tarasladï – bahodir askarni to‘zitdi. Yana جَغْرِی قازِغْ تَرَسْلادِی chag‘rï qazïg‘ tarasladï – qirg‘iy**** g‘ozni to‘zitdi. Har bir narsa o‘zining kuchi bilan bir narsani tarqatib, to‘zitib yuborsa ham bu so‘z qo‘llanadi (تَرَسْلاماقْ .تَرَسْلارْ taraslar, taraslamaq).

تَرُسْلادِی t a r u s l a d ï: اُلْ اَوْنْ تَرُسْلادِی o‘l ewïn tarusladï – u uy tepasini yopti, bekitdi (تَرُسْلاماقْ .تَرُسْلارْ taruslar, taruslamaq).

قُرُتْسادِی k u r u t s a d i: اَرْ قُرُتْسادِی er qurutsadï – odam qurtni orzu qildi (قُرُتْساماقْ .قُرُتْسارْ qurutsar, qurutsamaq).

بَغِرْسادِی b a g‘ ï r s a d ï: اَرْ بَغِرْسادِی er bag‘ïrsadï – odamning ko‘ngli jigar tusadi (بَغِرْساماقْ .بَغِرْسارْ bag‘ïrsar, bag‘ïrsamaq).

کَذْرْسادِی k e z ÿ r s ä d i: اُلْ مَنکا تُونْ کَذْرْسادِی ol menä ton kezÿrsädi – u menga to‘n kiygizmoq istadi. (کَذْرْساماکْ .کَذْرْسارْ kezÿrsär, kezÿrsämak).

تَتِغْسادِی t a t ï g‘ s a d ï: اَرْ تَتِغْسادِی er tatïg‘sadï – odamning ko‘ngli shirinlik tusadi (تَتِغْساماقْ .تَتِغْسارْ tatïg‘sar, tatïg‘samaq).

سَتِغْسادِی c a t ï g‘ s a d ï: sotmoq istadi. اَرْ اَتِنْ سَتِغْسادِی er atïn satïg‘sadï – odam otini sotayozdi, sotmoq istadi. She’rda shunday kelgan:

[LVIII]

اَوْنْ بَرْوِنْ سَتِغْسادِی
یُلْغْ بِیرِبْ یَرِغْسادِی
تِرِکْ اَرْسا تُرُغْسادِی
اَنکَرْ ساوِنجْ کُنی تُغْدِی

** Olmaota nashrida: *uni buqa hisobladi.*

*** V.Radlov, Olmaota nashrida: *u uning buyragiga urdi.*

**** V.Radlov, Olmaota nashrida: *lochin.*

Ewïn barqïn satïg‘sadï
Yulug‘ berïp yarig‘sadï
Tirig ersä turug‘sadï
Anar saqïnch kuni tug‘dï.

O‘zini qutqaraman deb, dushman uyini, joyini sotmoq istadi. U tiriq qolmoq istadi. Lekin unga qayg‘uli kunlar tuqqan edi. ستيغسارْ. ستيغساماقْ satïg‘sar, satïg‘samaq).

برغسادِى b a r ï g‘ s a d ï – bormoq istadi. اڭ اڤكا برغسادِى o‘l ewgä barïg‘sadï – u uyga bormoq istadi. Boshqalari ham shunday (برغسارْ. برغساماقْ barïg‘sar, barïg‘samaq).

تُرُغسادِى t u r u g‘ s a d ï – turmoq istadi. اڭ مُنْدا تُرُغسادِى o‘l munda turug‘sadï – u bu yerda turmoq istadi (تُرُغسارْ. تُرُغساماقْ turug‘sar, turug‘samaq).

قُرُغسيدِى q u r u g‘ s ï d ï – qurishga yuz tutdi. (قُرُغسيرْ. قُرُغسيماقْ qurug‘sïr, qurug‘sïmaq). Shuning uchun ham me’daga قُرُغساقْ qurug‘saq deb nom berilgan. Chunki u soatma-soat qurib, taom eyishga istak qo‘zg‘aladi.

بِلِڤسادِى b a l ï q s a d ï: اَرْ بِلِڤسادِى er balïqsadï – odamning ko‘ngli baliq tusadi (بِلِڤسارْ. بِلِڤساماقْ balïqsar. balïqsamaq).

بِلِكسادِى b i l i g s ä d i: أغلانْ بِلِكسادِى og‘lan biligsadi – o‘g‘lon bilim istadi (بِلِكسارْ. بِلِكساماكْ biligsär, biligsämäk).

بَرِكسادِى b e r i g s ä d i: اڭ مَنكا تَوارْ بَرِكسادِى o‘l meŋa **(591)** tavar berigsädi – u menga mol bermoq istadi, mol berayozdi. Boshqalari ham shunday (بَرِكسارْ. بَرِكساماكْ berigsär, berigsämäk).

كُرُكسادِى k ö r u g s ä d i: اڭ مَنى كُرُكسادِى o‘l meni köro‘gsadi – u menga yo‘liqishni istadi (كُرُكسارْ. كُرُكساماكْ köro‘gsär, köro‘g-sämäk).

كِرِكسادِى k i r i g s ä d i: اڭ اڤكا كِرِكسادِى o‘l ewgä kirigsädi – y uyga kirmoq istadi. Boshqalari ham shunday (كِرِكسارْ. كِرِكساماكْ kirigsär, kirigsämäk).

كَلِكسادِى k e l i g s ä d i – kelmoq istadi. اڭ مَنكا كَلِكسادِى o‘l meŋa keligsädi – y menga kelmoq istadi (كَلِكسارْ. كَلِكساماكْ keligsär, keligsämak).

ش (sh)

بَغِشْلادِى b a g‘ ï s h l a d ï: اڭ مَنكا اَتْ بَغِشْلادِى ol meŋä at bag‘ïshladï – u menga ot tuhfa qildi. Boshqalari ham shunday (بَغِشْلارْ. بَغِشْلاماقْ bag‘ïshlar, bag‘ïshlamaq).

تَوشْلادِی t a w u s h l a d ï: تَوشْلادِی نانكْ tawushladï neŋ – narsa qimirladi* (تَوشْلاماكْ . تَوشْلارْ tawushlar, tawushlamak.).

سُرُشْلادِی s u r u s h l a d ï: اُلْ تَرغْ سُرُشْلادِی o'l tarïg' surushladï – u (eyish uchun) bug'doy boshog'ini qovurdi (سُرُشْلاماقْ . سُرُشْلارْ surushlar, surushlamaq).

قَزِشْلادِی q a z ï s h l a d ï – اُلْ كُونكْ قَزِشْلادِی o'l köno'g qazïshladï – u ko'ndan qayish kesdi (قَزِشْلاماقْ . قَزِشْلارْ qazïshlar, qazïshlamaq).

قَرشْلادِی q a r ï s h l a d ï: اُلْ بَرْجِنْ قَرشْلادِی o'l barchïn qarïshladï – u ipak (kiyim)likni qarichlab o'lchadi. Boshqalari ham shunday. (قَرشْلاماقْ . قَرشْلارْ qarïshlar, qarïshlamaq).

غ ***(g')***

بِشغْلادِی p ï s h ï g' l a d ï: اُلْ اَتْ بِشغْلادِی o'l et pïshïg'ladï – u go'shtni pishirdi. Boshqalari ham shunday (بِشغْلاماقْ . بِشغْلارْ pïshïg'lar, pïshïg'lamaq).

سَتِغْلادِی s a t ï g' l a d ï: اُلْ اَنِكْ بِرلا سَتِغْلادِی o'l anïŋ birlä satïg'ladï – u u bilan birga sotdi (سَتِغْلاماقْ . سَتِغْلارْ satïg'lar, satïg'lamaq). Bu so'zning to'g'rirog'i سَتِغْلَشْدِی *satïg'lashdï* shaklidir. Lekin har ikki shakl ham qo'llanadi.

سَرِغْلادِی s a r ï g' l a d ï: اُلْ تُونِنْ سَرِغْلادِی o'l tonïn sarïg'ladï – u to'nini sarg'aytirdi. Boshqalari ham shunday (سَرِغْلاماقْ . سَرِغْلارْ sarïg'lar, sarïg'lamaq).

قِزِغْلادِی q ï z ï g' l a d ï: اُلْ بُرْكْ قِزِغْلادِی o'l börk qïzïg'ladï – u salla, do'ppining chetini tikdi. Boshqalari ham shunday (قِزِغْلارْ . قِزِغْلاماقْ qïzïg'lar, qïzïg'lamaq).

قُرُغْلادِی q u r u g' l a d ï*: قُرُغْلادِی نانكْنی qurug'ladï neŋni – narsani bo'shaganda ishlatdi** (قُرُغْلاماقْ . قُرُغْلارْ qurug'lar, qurug'lamaq).

قَسِغْلادِی q a s ï g' l a d ï: اُلْ قُلِنْ قَسِغْلادِی o'l qulïn qasïg'ladï – u qulining dahaniga urdi***. (قَسِغْلاماقْ . قَسِغْلارْ qasïg'lar, qasïg'lamaq).

بُتَقْلادِی b u t a q l a d ï****: اُلْ يِغاجِغْ بُتَقْلادِی o'l yïg'achïg' butaqladï – u daraxt butog'ini kesdi, butadi (بُتَقْلاماقْ . بُتَقْلارْ butaqlar, butaqlamaq). Bu so'zning to'g'rirog'i بُتَيْدِی *butïdï*dir.

---

* V.Radlovda: *shovqin qilmoq, ovoz chiqarmoq.*

* Olmaota nashrida: *kurichla.*

** V.Radlov, Olmaota nashrida: *narsani quruqlay (quruq holida) ishlatdi.*

*** Olmaota nashrida: *qulini mushtladi (mushti bilan urdi).*

**** Olmaota nashrida: *butiklä.*

تُتُقْلادِى t u t u q l a d ï: أُلْ أُغْلِنْ تُتُقْلادِى o‘l og‘lïn **(592)** tutuqladï – u o‘g‘lining tumrug‘iga urdi yoki o‘sha erga urishga nisbat berdi. (تُتُقْلاماقْ .تُتُقْلارْ tutuqlar, tutuqlamaq).

بَشَقْلادِى b a sh a q l a d ï: أُلْ سُنكُو بَشَقْلادِى o‘l söŋo‘ bashaqladï – u nayza uchiga temir o‘rnatdi (بَشَقْلاماقْ .بَشَقْلارْ bashaqlar, bashaqlamaq).

تُرُقْلادِى t u r u q l a d ï: أُلْ اَتِغْ تُرُقْلادِى o‘l atïg‘ turuqladï – u otni oriqlatdi. Oriq-turuq qildi. Boshqalari ham shunday (تُرُقْلارْ. تُرُقْلاماقْ turuqlar, turuqlamaq).

چِبِقْلادِى c h ï b ï q l a d ï – chiviq bilan urdi. أُلْ اَتِنْ چِبِقْلادِى o‘l atïn chïbïqladï – u otini chiviq (ho‘l novda) bilan urdi (.چِبِقْلارْ چِبِقْلاماقْ chïbïqlar, chïbïqlamaq).

جَرُقْلادِى c h a r u q l a d ï: أُلْ اَذاقِنْ جَرُقْلادِى o‘l azaqïn charuqladï – u oyog‘iga turkcha choriq kiydi (جَرُقْلارْ. جَرُقْلاماقْ charuqlar, charuqlamaq), جَرُقْ charuq qabilasiga nisbat berilsa ham bu so‘z qo‘llanadi.

قَبَقْلادِى q a b a q l a d ï: اَرْ قِيزِغْ قَبَقْلادِى er qïzïg‘ qabaqladï – odam qizni qizligini buzdi (قَبَقْلاماقْ .قَبَقْلارْ qabaqlar, qabaqlamaq).

قُجَقْلادِى q u c h a q l a d ï: أُلْ بَرْچِنْ قُجَقْلادِى o‘l barchïn quchaqladï – y shohi kiyimlikni o‘rab oldi (قُجَقْلاماقْ .قُجَقْلارْ quchaqlar, quchaqlamaq).

قَرَقْلادِى q a r a q l a d ï: أُلْ تَرارِغْ قَرَقْلادِى o‘l tavarïg‘ qaraqladï – u yo‘l to‘sarlik bilan molni oldi (قَرَقْلاماقْ .قَرَقْلارْ qaraqlar, qaraqlamaq). Bu yag‘molar so‘zidir.

قَشِقْلادِى q a s h ï q l a d ï: أُلْ بالِغْ قَشِقْلادِى o‘l balïg‘ qashïqladï – u bolni qoshiq bilan yaladi (قَشِقْلاماقْ .قَشِقْلارْ qashuqlar, qashuqlamaq).

قُلُقْلادِى q u l a q l a d ï – qulog‘iga urdi. أُلْ أُغْلِنْ قُلُقْلادِى o‘l ög‘lïn qulaqladï – u o‘g‘lining qulog‘iga urdi (قُلُقْلاماقْ .قُلُقْلارْ qulaqlar, qulaqlamaq).

قُمُقْلادِى q u m u q l a d ï – tezakladi. اَتْ قُمُقْلادِى at qumuqladï – ot tezakladi. Shuningdek, bu so‘z قُمُقْ Qumuq er kishining ismidir. (قُمُقْلاماقْ .قُمُقْلارْ qumuqlar, qumuqlamaq).

قُنُقْلادِى q o n u q l a d ï – mehmon qildi. بَكْ مَنى قُنُقْلادِى beg menï qonuqladï – bek meni mehmon qildi. Boshqalari ham shunday (قُنُقْلاماقْ .قُنُقْلارْ qonuqlar, qonuqlamaq).

O‘g‘uzlardan boshqa qabilalar tilida bu so‘z uy egasi yoqtirmagani holda, mehmon uning uyida turishi ma’nosidadir. She’rda shunday kelgan:

[LIX]

يَغى بَكْدِنْ اُذْقْلادِى
كُرُبْ سُونى اَيْقْلادِى
اُلْمْ اَنى قُنْقْلادِى
اَغِزْ اِجرا اَغُو سَغْدِى

Yag‘ï begdin uzuqladï
Köro‘p sÿni azïqladï*
Ölo‘m anï qonuqladï
Ag‘ïz ichra ag‘u sag‘dï.

Dushman bekni (bir o‘zini) ko‘rganda (pisand qilmay), uni mudroq bosgan bo‘lsa ham, birdan qo‘shinni ko‘rib, hayratga cho‘mdi, bu kutilmagan hodisadan shoshdi. Uni o‘lim mehmon qildi. Og‘ziga zahar solib halok qildi.

ك (k)

بِجَكْلادِى b i ch ä k l ä d i: اُلْ اَنى بِجَكْلادِى o‘l anï bichäklädi – u uni pichoqladi, pichoq bilan urdi. بِجَكْلاماكْ .بِجَكْلارْ bichäklär, bichaklämäk).

بَدْكْلادِى b e d ÿ k l ä d i: اُلْ مَنى بَدْكْلادِى o‘l meni bedo‘klädi – u meni katta deb hisobladi (بَدْكْلاماكْ .بَدْكْلارْ bedÿklär, bedÿklämäk).

بَلَكْلادِى b e l ä k l ä d i: اُلْ مَنكا بَلَكْلادِى o‘l meŋa beläklädi – u menga tuhfa, hadya qildi (بَلَكْلاماكْ .بَلَكْلارْ beläklär, beläklämäk).

تَزَكْلادِى t e z ä k l ä d i – tezakladi. تَزَكْلادِىاَت at tezäkladi – ot tezakladi. Boshqalari ham shunday (تَزَكْلاماكْ .تَزَكْلارْ tezäklär, tezäklämäk).

تَژكلادِى t ä j i k l ä d i – tojikladi**. اُلْ اَنى تَژكلادِى o‘l anï täjiklädi – u uni tojikladi, tojik hisobladi, tojiklarga nisbat berdi (تَژكلاماكْ .تَژكلارْ täjiklär, täjiklämäk).

تَشْكْلادِى t e s h ÿ k l ä d i: اُلْ اَنى تَژكلادِى o‘l anï teshÿklädi – u uni suq, ochko‘z deb hisobladi (تَژكلاماكْ .تَژكلارْ teshÿklär, teshÿklämäk).

---

* Olmaota nashrida: *azukladi.*

* B.Radlov, Olmaota nashrida: *forsladi, fors deb hisobladi.*

جُرَكْلادِى c h ÿ r ä k l ä d i*: اُلْ اُونُغْ جُرَكْلادِى o'l unug' chÿräklädi – y xamirdan churak kulcha yasadi (جُرَكْلاماقْ .جُرَكْلارْ chÿräklär, chÿraklamak).

كَرَكْلادِى k e r ä k l ä d i: اُلْ اَنى كَرَكْلادِى o'l anï keräklädi – u uni axtardi, istadi (كَرَكْلاماقْ .كَرَكْلارْ keräklär, keräklämäk).

كُرْكْلادِى k ö r ÿ k l ä d i: اُلْ اُوتُغْ كُرْكْلادِى o'l otug' körÿklädi – u olovni pufladi**. (كُرْكْلاماقْ .كُرْكْلارْ körÿklär, körÿklämak).

كُجُكْلادِى k ö ch ÿ k l ä d i: اُلْ اُغْلِنْ كُجُكْلادِى o'l og'lïn köchÿklädi – u o'g'lining orqasiga urdi*** (كُجُكْلاماقْ .كُجُكْلارْ köchÿklär, köchÿklämak).

كِچِكْلادِى k i ch i k l ä d i: اُلْ اَنى كِچِكْلادِى o'l anï kichiklädi – u uni kichik hisobladi (كِچِكْلاماقْ .كِچِكْلارْ kichiklär, kichiklämak).

م *(m)*

تُرُمْلادِى t u r u m l a d ï: اُلْ سُوقُغْ تُرُمْلادِى o'l cywyg' turumladï – u suv chuqurligini bo'yi bilan o'lchadi (تُرُمْلاماقْ .تُرُمْلارْ turumlar, turumlamaq).

تَرِمْلادِى t a r ï m l a d ï: اُلْ اُكْزْنِي تَرِمْلادِى o'l ökÿzni tarïmladï – u suvning bir tomonidan ikkinchi tomoniga (bir oroldan boshqa orolga) hatlab o'tdi (تَرِمْلاماقْ .تَرِمْلارْ tarïmlar tarïmlamaq). Bunday harakat botqoqdan o'tish uchun ham qilinadi.

ن *(n)*

بُتُنْلادِى b ÿ t ÿ n l ä d i: اُلْ سُوزُكْ بُتُنْلادِى o'l sözÿg bÿtÿnlädi – u so'zning haqiqatini tekshirdi. Boshqalari ham shunday (.بُتُنْلارْ بُتُنْلاماكْ bÿtÿnlär, bÿtÿnlämäk).

بُرُنْلادِى b u r u n l a d ï: اُلْ اَنى بُرُنْلادِى o'l anï burunladï – u uning burniga urdi (بُرُنْلاماقْ .بُرُنْلارْ burunlar, burunlamaq).

تَبَنْلادِى t a b a n l a d ï: تُوى تَبَنْلادِى tewäy tabanladï – tuya tepdi. (تَبَنْلاماقْ .تَبَنْلارْ tabanlar, tabanlamaq).

سَبَنْلادِى s a p a n l a d ï: اُلْ يِيرِكْ سَبَنْلادِى o'l yerig sapanladï – u erni haydadi, ag'dardi (سَبَنْلاماقْ .سَبَنْلارْ sapanlar, sapanlamaq).

** B.Radlovda: *čöchöklä.*

*** B.Radlovda, Olmaota nashrida: *olovga meshdan havo yuborish.*

**** B.Radlovda: *urmoq, shapatilamoq.*

ر *(r)*

يَغِرْلادِى y a g‘ ï r l a d ï: أَلْ أَتِنْ يَغِرْلادِى o‘l atïn yag‘ïrladï – u **(594)** otining yag‘irini tuzatdi*. Agar otni yag‘ir qilsa, أَلْ أَتِغْ يَغْرِتَى o‘l *atïg‘ yag‘rïttï* deyiladi. Ya’ni u otini yag‘ir qildi, demakdir. Bu – arabcha qashshoqlandi ma’nosida تَرِبَ *tariba* deb, *boyidi* ma’nosida أَتْرَبَ *atraba* deyilgani kabidir yoki *zulm qildi* ma’nosida قَسَطَ *qassata* deb, *odillik qildi* ma’nosida أَقْسَطَ *aqsata* deyish ham shunday (يَغِرْلارْ. يَغِرْلاماقْ yag‘ïrlar, yag‘ïrlamaq).

ز *(z)*

يَقْزْلادِى y a w u z l a d ï: أَلْ يَقْزْلادِى نانكنى o‘l yawuzladï neŋni – y narsani yomon deb hisobladi. يَقْزْلارْ. يَقْزْلاماقْ yawuzlar, yawuzlamaq).

ق *(q)*

يَزِقْلادِى y a z u q l a d ï: بَكْ آنى يَزِقْلادِى beg anï yazuqladï – bek uni bir ayb uchun ushladi** (يَزِقْلارْ. يَزِقْلاماقْ yazuqlar, yazuqlamaq).

ك *(k)*

يِتِكْلادِى y i t i k l ä d i: أَلْ آتْ يِتِكْلادِى o‘l at yitiklädi – u yo‘qolgan otni qidirdi. Boshqalari ham shunday (يِتِكْلارْ. يِتِكْلاماكْ yitiklar, yitiklämäk).

م *(m)*

يَرِمْلادِى y a r ï m l a d ï: أَلْ يُولُغْ يَرِمْلادِى o‘l yolug‘ yarïmladï – u yo‘lni yarimladi. Boshqalari ham shunday (يَرِمْلارْ. يَرِمْلاماقْ yarïmlar, yarïmlamaq).

يِلِمْلادِى y e l i m l ä d i – elimladi. أَلْ أُقْ يِلِمْلادِى o‘l oq yelimladi – u o‘qqa pat yopishtirdi. Yana: أَلْ يُولُغْ يِلِمْلادِى o‘l yolyg‘ yelimlädi – u yo‘lda dushmanning yashirin pistirmasi yoki ayg‘oqchisi bor-yo‘qligini bilish uchun askardan oldinroq ketdi (يِلِمْلارْ. يِلِمْلاماكْ yelimlär, yelimlämak).

يَغْرِنْلادِى y a g‘ r ï n l a d ï*: أَلْ آنى يَغْرِنْلادِى o‘l anï yag‘rïnladï – u uning yag‘riniga – kift suyagiga urdi (يَغْرِنْلارْ. يَغْرِنْلاماقْ yarïnlar, yarïnlamaq)[320].

---

* B.Radlov “tuzatdi” ma’nosini qabul qilmaydi

** B.Radlovda: *ayblamoq, gunohkor hisoblamoq.*

* Olmaota nashrida: *yarinla.*

[320] Bosma nusxada bu so‘zlar bir-biridan farqli ikki shakl bilan berilgan. O‘tgan zamon *jag‘rïnladï* shaklida, kelasi zamon va masdar formalari *jarïnlar,*

Qoida. Bu bo‘limning buyruq shakli besh harf bilan beriladi. Chunonchi: مَنِي اَغِرْلا meni ag‘ïrla – meni hurmat qil مَنكا اَتْ بَغِشْلا meŋa at bag‘ïshla – menga ot sovg‘a qil gaplaridagi اَغِرْلا ag‘ïrla, بَغِشْلا *bag‘ïshla* buyruqlari kabi.

Turli fe’l turlaridagi bo‘lishsizlik shakllari, buyruq va foillar, sifatdoshlarning ma’lum va majhul shakllari, joy, payt, qurol ismlari yuqoridagi bo‘limlarda ko‘rsatilgan qoidaga muvofiq yasaladi. Hamma bo‘limlar uchun qoida birdir. Bu bo‘limdan majhul fe’l yasash uchun buyruqqa bir ل – *l* qo‘shiladi. Bu vaqt fe’lda ikki ل – *l* paydo bo‘ladi. Chunonchi: اَرْ اَغِرْلْدِى er ag‘ïrlaldï – odam hurmat qilindi. Yana: اَتْ بَغِشْلْدِى at bag‘ïshlaldï – *ot tuhfa qilindi* kabi. Bu fe’llarda ل – *l* o‘rniga ن *n* qo‘llab, اَتْ بَغِشْلَنْدِى at bag‘ïshlandï – ot tuhfa qilindi, **(595)** اَرْ اَغِرْلَنْدِى er ag‘ïrlandï – *odam hurmat qilindi* shaklida qo‘llash ham mumkin. Lekin ko‘proq birinchi shakl qo‘llaniladi.

Ish ikki kishi orasida bajarilganini anglatish uchun fe’lga ش – sh orttirib yasalish qoidasi yuqorida tanishtirilgan edi.

Bu bo‘limda olti xil vazifa aks ettiriladi.

Birinchi: fe’l harfi illatsiz, uch undoshli ismlardan yasalgan bo‘ladi. Chunonchi: قَبُغْ كِرتْلادِى qapug‘ kiritlädi – eshikni qulfladi kabikim, bu fe’lda o‘zak كِرت kirit – *kalit* demakdir. O‘zakka لادى *lädi* qo‘shilib, fe’l yasaldi. Yoki اُلْ اَنى قَسِغْلادِى o‘l anï qasïg‘ladï – u uning jag‘iga urdi. Bu gapda o‘zak قَسِغْ *qasïg‘* ism edi, unga لادى - *ladï* qo‘shilgach, fe’lga aylandi.

Har bir ma’noni ifodalashda bu bo‘limga doxil so‘zlarda shunday qoida saqlanadi.

Ikkinchi: nomi zikr qilingan so‘z, u xoh kishi oti, xoh boshqa so‘z bo‘lsin, bir turga xoslik ma’nosini anglatadi. Chunonchi: اُلْ اَنى اُغْزْلادِى o‘l anï og‘uzladï – u uni o‘g‘uzga nisbat berdi, u o‘g‘uzlardan deb hisobladi. Yana اُلْ اَنى چِكِلّادى o‘l anï chigillädi – u uni *chigillardan hisobladi, ularga nisbat berdi* kabi.

Shuningdek, odamni istalgan narsaga nisbat berishda ham shu yusindan foydalanilmoqda. Chunonchi: اُلْ اَنى سَرَتْلادِى o‘l anï

---

jarinlamaq shaklida berilgan. Bu albatta to‘g‘ri emas, shakllar bir xil bo‘lishi kerak edi. Basim Atalayning izohiga ko‘ra, qo‘lyozmada bu so‘zlar dastlab يَرِتْلارْ *jarïnlar* shaklida yozilgan bo‘lsa ham, so‘ng يَغْرِتْلارْ *jag‘rïnlar* qilib tuzatilgan ekan (Qarang: “Devon...” tarjimasi, III jild. 343-b).

saranladï – u uni baxil deb hisobladi, baxilga nisbat berdi. Bu arabchada ظَلَّمْتَهُ zallamtahu – *zulmga nisbat berdim, fisqqa nisbat berdim* iborasi kabi.

Uchinchi: harakatning gapda zikr qilingan a'zoga o'tishlik ma'nosini anglatadi. Chunonchi: اُلْ آنى قَرنْلادِى o'l anï qarïnladï – u uning qorniga urdi. Yana: اُلْ آنى بُكْرْلادِى o'l anï bÿkÿrlädi – *u uning bukiriga urdi* kabi. Bu xususiyat arab tili bilan ikki poygachi ot kabi musobaqa qilayotgan turkiy tildagi alohida fazilatdir. Arabchada ham ismdan fe'l yasash bor. Chunonchi, son ma'nosidagi فخذ *faxz* ismidan fe'l yasab, فَخَذَهُ faxazahu – *soniga urdi* deydilar. Boshiga urdi ma'nosidagi رَاسَهُ raasahu – *siydikli joyiga urdi* ma'nosidagi مَثَّنَهُ *massanahu* va *terisiga urdi* ma'nosida جَلَّدَهُ *jalladahu* va shunga o'xshaganlar yuqorida aytib o'tilgani kabi yasalgandir. Turkiy tillarda ham shunday qilinadi. Chunonchi, ko'krak ma'nosidagi تُوشْ *tosh* ismidan yasalgan تُوشْلادِى toshladï (596) – *to'shiga urdi* demakdir. Shunday ismlardan yasaladigan fe'llar hamma turkiy lahjalarda ham qo'llanadi.

To'rtinchi: ishlovchi ishni zikr qilingan qurol bilan bajargan ma'nosini anglatadi. Chunonchi: اُلْ آنى قِلِجْلادِى o'l anï qïlïchladï – u uni qilich bilan urdi. Yana: اُلْ آتِغْ چِبِقْلادِى atïg' chïbïqladï – u otni chiviq bilan urdi kabi.

Beshinchi: gapda zikr qilingan so'z o'z turidan ajralib chiqqanlik ma'nosini anglatadi. Chunonchi: بامُقْ اُرُغْلادِى pamuq urug'ladï – paxtadan chigitini ayirdi. Yana: تَلُولادِى نانكْنى taluladï neŋni – *narsani o'z jinsi ichidan ayirdi* kabi.

Oltinchi: ushbu bo'limga oid fe'l o'z holiga mustaqil bir shakl bo'lib, yuqoridagi ma'nolardan hech biri ifoda qilinmaydi. Chunonchi: اُلْ مَنْكا آتْ بَغِشْلادِى o'l meŋa at bag'ïshladï – u menga ot hadya qildi. Boshqalari ham shunday. Yana: تَنكْرى مَنى آغِرْلادِى teŋri meni ag'ïrladï – xudo meni siyladi kabi.

So'ng bilgilki, har qanday ismdan fe'l yasalishi uchun umumiy qoida bo'lsa ham, aslida har bir ismdan fe'l yasala bermaydi. Chunonchi, o'rmon yong'og'i ma'nosidagi قُسُقْ *qosuq** so'zidan قُسُقْلادِى *qosuqladï* tarzida fe'l yasab bo'lmaydi. Holbuki,

---

* B.Radlovda: *qusïq;* Olmaota nashrida: *kusik.*

قَشُقْ *qashuq* so‘zidanقَشُقْلادِى *qashuqladï* shaklida fe’l yasash mumkindir. Shuningdek, *ot qo‘noq edi* ma’nosida اَتْ قُنُقْلادِى *at qonaqladï* deb bo‘lmaydi. Ammo اُلْ مَنى قُنُقْلادِى o‘l meni qonuqladï – *u meni mehmon qildi* tarzida qo‘llash mumkin bo‘lar edi. Chunki bu so‘zlarning har ikkisi ham bir xilda uch undoshlidir. قُنَقْ qonaq – qo‘noq, قُنُقْ qonuq – *mehmon* demakdir. Bularning biridan fe’l yasash mumkin, ikkin-chisidan mumkin emasdir. Agar birov bu ismlardan boshqalarga qiyos qilib, fe’l yasab qo‘llasa, undan qaytarib bo‘lmaydi. Bunda xato ham bo‘lmaydi. Unga kenglik beriladi. So‘ng bu bo‘lim bilan ن – *n* li bo‘lim **(597)** orasidagi farqni yuqorida so‘zladik. ن– *n* li fe’llar harakat foil bilan chegaralanishini, ishlovchi ishni o‘zi qilganini anglatadi. Bu haqda yuqorida aytildi. Bu bo‘lim fe’llariga kelsak, bunda harakat ishlovchidan boshqaga o‘tadi. Chunonchi, oldingi fe’l turi quyidagichadir: اَرْ تُكُلْنْدِى er etўkländi – odam etikka ega bo‘ldi. Yana: يِغاجْ اَرْكُلْنْدِي yïg‘ach erўkländi – *daraxt urug‘ qildi* kabi. Bu bo‘lim arabcha اِنْفِعالِ bўlimi o‘rnidadir. ل – *l* li bo‘limga keldi (men bunda لادى -*ladï* qo‘shilib yasaladigan fe’lni ko‘zda tutayotirman). Bu bo‘lim arabcha تَفْعِيل bo‘limi o‘rniga mos bo‘lib doimo o‘timli bo‘ladi. Chunonchi: اُلْ اُوتْ كُرْكُلادِى ol ot köro‘klädi – u olovni puflagich (dam) bilan pufladi. Yana: اُلْ قَبُغْ كِرِتْلادِى ol qapug‘ kiritlädi – *u eshikni qulfladi* kabi. Agar ishlovchi zikr qilingan fe’llardan birgalik ma’nosini ifodalashni lozim topsa, ن– *n* li fe’l bo‘limlarining hammasidan bu ma’noda fe’l yasashi mumkin. Buning qoidasi yuqorida aytib o‘tilgandir. Bu fe’llar shaxs qo‘shimchalari bilan qo‘shilib kelganda, u fe’llardan harfi -*lin** ifodalagan tovushlarni tushirish mumkin. Chunonchi: مَنْ اُذِقْلادِمْ men uzïqladïm – men uxladim,سَنْ اُذُقْلادِنكْ sen uzïqladïŋ – sen uxlading, اُذِقْلادِى uzïqladï – *u uxladi* kabi. Boshqa fe’llar ham shu qoidaga asoslanadi, ulug‘ Tangri xohlasa.

To‘rt undoshli fe’llar ichida bir o‘rinda ketma-ket ikki sukunli harfli fe’llar topilmaydi. Chunki bu xil fe’llarning oxiri ذلافِهِ harflarida yozilganlar bilan yonma-yon keladi. Bu yerda ma’no bo‘lmaydi. Chunonchi: اَرْمَكُورْدِى ermägўrdi – yalqovlashdi, اَرْمَكُورارْ ermägўrär – yalqovlashar, اَرْمَكُورْماكْ ermägўrmak —

* Harfi lin: *y, alif, v* lardan iborat.

yalqovlashmaq deyilgandagi kabi. Shu bilan birga, bu so‘zlardan و tushirilib, اَرْمَكْرْدِى *armägÿrdi* shaklida ham qo‘llanadi. Shu holda ikki sukun bir yerda kelmaydi. Buni yaxshi angla.

BESH HARFLILAR

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَعْدِى *fa’la’ladi* shaklidagi so‘zlar

تَڤْغاجْلادِى t a w g‘ a c h l a d ï: اُلْ اَنى تَڤْغاجْلادِى o‘l anï tawg‘achladï – u uni mochinlikka nisbat berdi, mochinliklardan hisobladi (تَڤْغاجْلارْ . تَڤْغاجْلاماقْ tawg‘achlar, tawg‘achlamaq). **(598)**

سُرْقُجْلادِى sorquchladï: اُلْ بِجاكْ سُرْقُجْلادِى o‘l bichak sorquchladï – u pichoq (sopining dastaga o‘rnatilgan) uch qismini (lukdan siqib olingan) shira bilan yopishtirib pishiqladi (سُرْقُجْلارْ . سُرْقُجْلاماقْ quchlar, sorquchlamaq).

ز (z)

قَلْبُزْلادِى q a l b u z l a d ï: اُلْ قَلْبُزْلادِى نانكْنى o‘l qalbuzladï neŋni – u narsani luqma qildi (قَلْبُزْلارْ . قَلْبُزْلاماقْ qalbuzlar, qalbuzlamaq).

ش (sh)

قِرْتِشْلادِى q ï r t ï s h l a d i: اُلْ سَغْرِينى قِرْتِشْلادِى o‘l sag‘rïnï qïrtïshladï – y teri yuzini qirtishladi[321]. Boshqalari ham shunday (قِرْتِشْلارْ . قِرْتِشْلاماقْ qïrtïshlar, qïrtïshlamaq).

بُغْمَقْلْدِى b o g‘ m a q l a d ï*: كُنكْلَكْ بُغْمَقْلْدِى kөŋläk[322] bog‘maqlaldï – ko‘ylak bog‘ichi bog‘landi. Boshqalari ham shunday (بُغْمَقْلْنُورْ . بُغْمَقْلْنماقْ bog‘maqlanur, bog‘maqlanmaq).

---

[321] *Qirtishlamoq* hozirgi o‘zbek tilida ham biror narsa yuzini, ustki qismini qirib tozalash, yuqini qoldirmay silliqlash ma’nosida qo‘llanadi. Navoiyda bu so‘z, hatto, daraxtga nisbatan ham qo‘llangan:

Naxli ayshim qo‘ng‘ordi o‘yla g‘aming,
Kim makonida qolmadi *qirtish.*

(Rohatim daraxtini g‘aming shunchalar qattiq qo‘pordiki, daraxt o‘rnida qirishga loyiq biror narsa ham qolmadi).

Lekin shuni aytish kerakki, bu yerda Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni teri yuzini qirib tozalash ma’nosida izohlagan. Holbuki, u “Devon”ning I jild 428-betida bu so‘zni *erning yuzi* ma’nosida izohlab, bu so‘z har narsaning yuzasiga nisbatan qo‘llana bermaydi, deb uqtirgan edi.

تَمْغَقْلادِى t a m g‘ a q l a d ï: اَنى تَمْغَقْلادِى اُلْ o‘l ani tamg‘aqladï (تَمْغَقْلاماقْ . تَمْغَقْلارْ tamg‘aqlar, tamg‘aqlamoq).

قَرْلُقْلادِى q a r l u q l a d ï: اَنى قَرْلُقْلادِى اُلْ o‘l ani qarluqladï – u uni qorluqqa nisbat berdi. Qarluqlar turkmanlarning bir toifasidir. (قَرْلُقْلاماقْ . قَرْلُقْلارْ qarluqlar, qarluqlamaq).

قِفْجاقْلادِى q ï f ch a q l a d ï: اَنى قِفْجاقْلادِى اُلْ o‘l ani qïfchaqladi – u uni qipchoqlardan hisobladi va ularga nisbat berdi (قِفْجاقْلاماقْ . قِفْجاقْلارْ qïfchaqlar, qïfchaqlamaq).

قُلْتُقْلادِى q o l t u q l a d ï: اَتنكْ قُلْتُقْلادِى اُلْ o‘l otuŋ qoltuqladï – u o‘tin qo‘ltiqladi. Shuningdek, bu so‘z *qo‘ltig‘iga urmoq* ma’nosida ham qo‘llanadi[323] (قُلْتُقْلاماقْ . قُلْتُقْلارْ qoltuqlar, qoltuqlamaq).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ب *(b)*

كُرْبالادِى k ö r p ä l ä d i*: اَتْ كُرْبالادِى at körpäladi – ot ko‘rpa o‘t edi (كُرْبالاماكْ . كُرْبالارْ körpälär, körpälämak).

ت *(t)*

تُرْتالادِى t ÿ r t ä l ä d i**: اُلْ بُرْكْ تُرْتالادِى o‘l börk tÿrtäladi – u qalpoqqa yupqa tilla barglar yopishtirdi. Boshqalari ham shunday. (تُرْتالاماكْ . تُرْتالارْ tÿrtälär, to‘rtälämäk).

قِفْتُولادِى q ï f t u l a d ï: اُلْ قِفْتُولادِى o‘l qïftuladï bözo‘g – u bo‘zni va boshqa (narsa)ni qaychi bilan qirqdi (qiydi). Boshqalari ham shunday. (قِفْتُولاماقْ . قِفْتُولارْ qïftular, qïftulamaq).

---

* V.Radlovda: *bovmaqlal;* Olmaota nashrida matnda *bugmaklaldi* tarzida xatoga yo‘l qo‘yilgan.

[322] *Ko‘ylak* so‘zi hozirgi zamon o‘zbek jonli tilida *ko‘ynak,* adabiy tilda *ko‘ylak* shaklida qo‘llansa ham, Navoiyda har erda “Devon”dagicha ko‘nglak shaklida qo‘llangan:

Tang‘a toshu, qo‘lga tish zaxmiki soldi, telbalik,
Fosh qildi elga *ko‘nglaksiz* badan, engsiz ilik.

Kazo majnung‘a tikmish lolalar yaprog‘idan *ko‘nglak,*
Teri birla so‘ngak, lekin so‘ngak o‘qlar, teri *ko‘nglak.*

[323] *Qo‘ltiqlamoq* hozirgi tilda ham biror narsani *qo‘ltiqda ko‘tarmoq,* ma’nosida qo‘llanadi. Lekin bu so‘z ikkinchi ma’noda qo‘llanmaydi.

* Olmaota nashrida: *kurbala.*

** B.Radlov, Olmaota nashrida: *burtala.*

كِرْتُولادِى k i r t ÿ l ä d i: اُلْ آنى كِرْتُولادِى o‘l anï kirtÿlädi – y uning aytganini tasdiqladi (كِرْتُولاماكْ. كِرْتُولارْ kirtÿlär, kirtÿlämak).

چ *(ch)*

تَنْجُولادِى t a n c h u l a d ï: اَرْ آتماكْ تَنْجُولادِى er etmak tanchuladï – odam nonni chaynadi. Boshqalari ham shunday (تَنْجُولارْ. تَنْجُولاماقْ tanchular, tanchulamaq).

قَمْچِيلادِى q a m c h ï l a d ï: اَرْ آتِنْ قَمْچِيلادِى er atïn qamchïladï – odam otini qamchiladi. Boshqalari ham shunday (قَمْچِيلارْ. قَمْچِيلاماقْ qamchïlar, qamchïlamaq).

د *(d)*

بُكْدالادِى b ÿ g d ä l ä d i: اُلْ آنى ر o‘l anï bÿgdälädi – u uni xanjar bilan urdi (بُكْدالارْ. بُكْدالاماكْ bÿgdälär, bÿgdälämak).

ر *(r)*

سَغْرِيلادِى s a g‘ r ï l a d ï: o‘l köno‘g sag‘rïladï – u **(599)** ko‘ndan sag‘ri qildi (سَغْرِيلارْ. سَغْرِيلاماقْ sag‘rïlar, sag‘rïlamaq).

غ *(g‘)*

تَمْغالادِى t a m g‘ a l a d ï: اُلْ بِتِكْ تَمْغالادِى o‘l bitik tamg‘aladï – u xatga, kitobga xon tamg‘asini urdi (تَمْغالارْ. تَمْغالاماقْ tamg‘alar, tamg‘alamaq).

ك *(g)*

سُرْكِيلادِى s ÿ r g i l ä d i: اِتْ كِيكْنى سُرْكِيلادِى ït kejikni so‘rgilädi – it kiyikni quvladi. Bu uni qo‘lga tushirish uchun izidan borishdir. Shuningdek, har narsaning orqasiga tushish, qo‘lga olish uchun unga hamla qilishga ham bu so‘z qo‘llanadi (سُرْكِيلارْ. سُرْكِيلاماكْ so‘rgilär, so‘rgilämak).

سِرْكَلادِى s i r k ä l ä d i: اُلْ أغْلَنْ بَشِنْ سِرْكَلادِى o‘l oglan bashin sirkälädi – u bolasining boshidagi sirkani tozaladi. Yana: اُلْ سُوقْغْ سِرْكَلادِى o‘l cywyg‘ sirkälädi – u suvga sirka quydi. Boshqalari ham shunday (سِرْكَلارْ. سِرْكَلاماكْ sirkälär, sirkälämak).

Bu bo‘limning qoidasi yuqorida ko‘rsatilgancha bo‘lib, unga qiyos qilinadi. Chunonchi: اُلْ قَرْمالادِى نانكْنى o‘l qarmaladï neŋni – u narsani taladi, tortib oldi kabi.

To‘rtlilar bo‘limi tugadi.

Bismillohi-r-rahmoni-r-rahim

G‘UNNALI SO‘ZLAR BO‘LIMI
[Yettinchi kitob]

Ikki harfli ismlar

Mahmud [Koshg‘ariy] aytadi: g‘unnali so‘zlar ikki xildir: ج bilan keladigan g‘unnalilar, ك bilan birga qo‘llanadigan g‘unna-lilar. So‘ng bularning har biri ham ikki turli bo‘ladi: bir xili so‘z o‘rtasida keladi, bir xili so‘z oxirida keladi.

Ularni o‘z o‘rnida bayon qilamiz.

ب *(b)*

بُنكْ b ÿ ŋ: بُنكْ كِشى bÿŋ kishi – pakana, serjahl, yo‘g‘on, beso‘naqay odam*. Bu so‘zning asli شَبَنكْ *shäbän* bo‘lib, ma’nosi temirdan yasalgan hassadir**.

بُنكْ b u ŋ: بُنكْ اَتّى buŋ ätti – og‘ir bir narsa erga tushib, bungil-lagan ovoz chiqardi, demakdir.

بَنكْ b a ŋ: اُغْلانْ بَنكْ سِغْتادِى og‘lan baŋ sïg‘tadï – bola bag‘illab yig‘ladi***.

ت *(t)*

تَنكْ t e ŋ – *teng, yaqin; teng, barobar, mos, munosib* ma’nosidagi تُوشْ تَنكْ *ten to‘sh* ham shundan olingan.

تَنكْ teŋ – payti, kezi, o‘rni. Maqolda shunday kelgan:

تَنكْسِزْدا تَكِرْمانْ تُرْغُرْسا يَرَغْسِزْدا يارْ بَرِرْ

Teŋsizda tegirmän turg‘ursa, yarag‘sïzda yar barïr

Birov tegirmonni o‘z o‘rniga emas, **(600)** noo‘rin joyga qursa, kutilmagan joyda jar paydo bo‘ladi****.

Bu maqol ishni o‘z vaqtida qilmagan odam haqida aytiladi.

تَنكْ t a ŋ – elak (arg‘ucha).

---

* V.Radlovda: *vŏp* – semiz, to‘la; Olmaota nashrida: *ulkan, barvasta.*

** Olmaota nashrida: *bolg‘a, quvalda.*

*** Olmaota nashrida: *boladay yig‘ladi.*

**** Olmaota nashrida: *tegirmon o‘rniga emas, noo‘rin qurulsa sinadi, buziladi.*

تَنگْ t a ŋ[324] – ajoyib, g‘alati, qiziq, taajjub. تَنگْ نانگْ taŋ neŋ – taajjub narsa. Shundan olinib, تَنگْ كردم taŋ kördÿm – taajjub *narsa ko‘rdim* deyiladi.

تَنگْ taŋ – tong, tong otar payt[325]. She’rda shunday kelgan:

[LX]

تَنگْ اَتا يُرْتَلِمْ
بُذْرُجْ قَنِنْ اِرْتَلِمْ
يَسْمِلْ بَكِنْ اُرْتَلِمْ
اَمْدِى يِكِتْ يُقْلسُونْ

Taŋ ata yortalïm
Buzruj qanïn irtalim
Yasmïl[326] begin örtalim
Emdi jigit yywulsun[327].

Tong otish bilan yo‘lga tushaylik. Buzrajning qonini (hunini) talab qilaylik (uning uchun o‘ch olaylik, u yabaqulardan edi, o‘ldirildi). Basmillar begini yondiraylik. Endi yigitlarning to‘planishi zarur.

تُنگْ t a ŋ: تُنگْ تُنگْ آتّى taŋ atti – og‘ir narsa qattiq bir narsa ustiga tushib, to‘ng‘illagan ovoz chiqardi.

---

[324] Bu so‘z shu ma’noda Navoiyda *tong va dang* shakllarida uchraydi:

Ey Navoiy, anda ko‘nglim mubtalo bo‘lsa ne *tong*.

Egniga solay libosi gulrang,
Kim rangi xiradni aylagay *dang*.

[325] Bu so‘z shu ma’noda hozir ham keng qo‘llanadi. Navoiyda:

Madryasa kunjini g‘am obod etib,
*Tong*din aqshomgacha faryod etib.

[326] Bu so‘zning asli *basmil* ekanligini izohlab o‘tgan edik.

[327] Bu to‘rtlikning birinchi misrasi olti bo‘g‘inli, boshqa misralari etti bo‘g‘inlidir. “Devon…”da berilgan hamma to‘rtliklar bo‘g‘inlari, albatta, bir-biriga teng, ular ko‘p yoki kam emasdir. Shuning uchun, bizningcha, birinchi bo‘g‘indan bir bo‘g‘in tushganligi yaqin ehtimoldir. Shunga ko‘ra, birinchi misradagi *tan ata* birikmasi *tan atarla* yoki *tan atarkan* bo‘lishi muvofiq edi. U holda bizning tarjimamizga to‘la mos bo‘lar edi. Bu misradagi *jortalïm* so‘zi *kezaylik, yo‘lga chiqaylik, yo‘lga tushaylik* ma’nosidadir. Adabiy tilda bu so‘z hozirgacha shu ma’noda qo‘llanib kelmoqda:

Hangoma talab bo‘lsang mahkamaga *yo‘rta* ko‘r,
Uch echkini bir lo‘li har ohangga o‘ynatur (Yusuf Saryomiy).

Ayrim manbalarda bu bayt Furqatga nisbat beriladi (H.B.)

تُنكْ t o ŋ: تُنكْ نانك toŋ neŋ – ichi bo‘sh bo‘lmay, to‘la bo‘lgan har narsa. Savagich novdasiga تُنكْ قَمِشْ *toŋ kamish* deyish shundan olingan. Ichi bo‘sh bo‘lmagan qamish, demakdir.

*تُنكْ t o ŋ[328] – to‘ng, to‘ngigan. Sovuqdan muzlab qotgan go‘shtga تُنكْ اَتْ *toŋ et* deyish ham shundan olingan. Boshqalari ham shunday.

تَنكْ t a ŋ – ilgari qurilgan bino bo‘lib, keyin yiqilib ishdan chiqqan, faqat asli baland er tusida xaroba va shunga o‘xshash bir holda saqlanib qolgan er.

تِنكْ t ï ŋ – tik, tikka. اَرْ تِنكْ تُرْدِى er tïŋ turdï – odam tik turdi.

چ *(ch)*

جَنكْ c h ä ŋ – chang, zil, muzika lagani (asbobi).

جُنكْ c h u ŋ: جُنكْ اَتْ chuŋ et – lahm go‘sht.

چِنكْ اَتّى j ï ŋ e t t i – jingilladi. قُلاقِمْ چِنكْ اَتّى qulaqïm jïŋ etti – qulog‘im jingilladi. Shuningdek, qo‘ng‘iroq, lagan-tovoq va shunga o‘xshashlar ovoziga ham bu so‘z qo‘llanadi. قُلاقِمْ چِنكْ اَتّى qulaqïm jïŋ etti – bu shakl oldingidan yaxshiroqdir[329].

چِنكْ تُلُو j ï ŋ t o l u – liq to‘la, limmo-lim. چِنكْ تُلُو كُولْ jïŋ tolu, köl – suvi limmo-lim ko‘l. Shuningdek, har narsa nihoyatigacha to‘ldirilsa ham چِنكْ تُلُو *jink tolu* so‘zi qo‘llanadi.

د *(d)*

دَنكْ دُنكْ d a n-d u n: دَنكْ دُنكْ اَتّى نانكْ dan-duŋ etti neŋ – narsa dang-dung degan ovoz chiqardi, sezildi. Bu so‘z تَنكْ تُنكْ اَتّى taŋ-to‘ŋ etti – *tang-tung qilib ovoz chiqardi* kabidir.

س *(s)*

سَنكْ s a n – qush axlati. قُشْ سَنْكى qush saŋï – qush axlati, tezagi. **(601)**

---

* Olmaota nashrida bu so‘z keltirilmagan

[328] Bizda bu so‘z hozir, asosan, *qo‘pol, sovuq* ma’nosida qo‘llanadi. Demak, bu so‘zning ma’nosi bir oz o‘zgarib etib kelgan. Bu so‘z fe’l shaklida Farg‘ona shevasida *to‘ngimoq* tarzida keng qo‘llanadi. Mumtoz adabiyotda to‘ngimoq har erda *sovuq qotmoq* ma’nosida qo‘llanishi bu so‘z ma’nosidagi o‘zgarish juda ilgarilar yuzaga kelganidan darak beradi.

[329] Bu gap bosma nusxada bir necha gapdan so‘ng berilgan. Shuning uchun nomuvofiqlik yuzaga kelgan edi. Basim Atalay nusxasida o‘z o‘rnida berilgan ekan. Biz ham shunday berdik. Lekin Mahmud Koshg‘ariy izohiga ko‘ra, bu so‘zlarning shaklida farq bo‘lishi kerak edi. Holbuki, har ikkisi bir bo‘lib qolgan.

سُنكْ s ö ŋ – odamning orqasidagilar, avrod**.

سُنكْ s ö ŋ – keyin ma'nosidagi yordamchi so'zdir. سَنْ مَنِكْ سُنكُدا كَلْ sen meniŋ söŋda kel – sen mening keynimdan kel.

سُنكْ s ö ŋ – har narsaning, har ishning oxiri, keti. بُو سُوزْ سُنكِنْدا اَيْغِلْ bu söz sönindä ayg'il – sen bu so'zni so'ngida ayt.

سِنكْ اَتّى s i ŋ e t t i: قُلاقِمْ سِنكْ اَتّى qulaqïm siŋ etti – qulog'im shang'illadi.

سِنكْ اَتّى s i ŋ e t t i – g'ing'illadi. كِمُنْجا سِنكْ اَتّى kimuncha[330] siŋ etti – pashsha g'ing'illadi. Chivin g'ing'illashiga ham bu so'z qo'llanadi.

ق *(q)*

قَنكْ اَتّى q a ŋ etti – g'ag'illadi. قازْ قَنكْ اَتّى qaz qaŋ etti – g'oz "g'ag'" deb ovoz chiqardi. Bu narsaning chiqargan ovoziga taqliddir.

كُنكْ q u n**: كُنكْ اَتْ quŋ et – muskul, mushak.

ك *(k)*

كُنكْ k ÿ ŋ – joriya[331], cho'ri.

كِنكْ k e ŋ – keng. كِنكْ نانكْ keŋ neŋ – keng narsa. Maqolda shunday kelgan:

كِنكْ تُونْ اُبْراماسْ كَنْكاشْلِكْ بِلِكْ اَرْتاماسْ

Keŋ ton obramas, kengashlïk bilig artamas

Keng to'n to'zimaydi, kengashli ish buzilmaydi.

Bu maqol ishlarni bajarishda boshqalar bilan kengashish, o'zboshimchalik qilmaslikka undab aytiladi.

م *(m)*

مَنكْ m a ŋ – qush doni, xo'ragi. U qushlar uchun ajratib olinadigan don, demakdir. Maqolda shunday kelgan:

---

* Olmaota nashrida: *insonning tovoni.*

[330] Bu so'z "Devon..."ning I jildida كُمِجا كميجا *kumichä* tarzida berilgan edi (Qarang: "Devon..." I jild. 416-b.

** B.Radlovda: *qoŋ.*

[331] Navoiyda bu so'z har erda *tilsiz, soqov* ma'nosida qo'llangan:
Tong otqucha *gungu lol* edilar,
Sarmast mayi visol edilar.

قُوشْ تُوزَقا مَنكْ اُجُنْ اِلنُورْ

Qush tuzaqa* man uchun ilinÿr

Qush tuzoqqa xo‘rak uchun ilinadi.

Bu maqol oziq izlab, qiyinchilikka yo‘liqqan kishiga nisbatan qo‘llanadi.

مَنكْ m e ŋ[332] – xol. She’rda shunday kelgan:

(LXI)

بِيرنكْ مَنكا سُوزْ كِيِيا
مَنكْلِكْ قَرا تُزْ قِيا
يَلْقُنْ تُتارْ كُزْ كِيِيا
مُنكُمْ مَنكْ بِلِنكا

Berin meŋa söz kiyä[333]
Meŋlig qara tuz qïya
Yalwïn tutar köz kiyä
Muŋum meniŋ biliŋa.

Menga birgina so‘z ber, ey qora xol, yuzlari yoqimli, ey sehrli ko‘zlari bilan ovlaydigan go‘zal. Sevgidagi mening alamlarimni tushun.

مُنكْ m u ŋ: مُنكْ تاغْ muŋ tag‘ – o‘n olti, o‘n etti yoshlarda voyaga etganda chiqqan tish. مُنكْ تاغْ اُنْدى muŋ tag‘ öndi – aql tishi chiqdi, demakdir.

مُنكْ m u ŋ – siqiq, qiyinchilik. Maqolda shunday kelgan:

اَرْكا مُنكْ تَكِيرْ. تاغْ سَنكرِينكا يِيلْ تَكِيرْ

Ergä muŋ tegir, tag‘ seŋïrïŋa yel tegir

---

* Olmaota nashrida: *turka.*

[332] Navoiyda xol ma’nosida *meng* so‘zi tez-tez uchraydi:

Mengim g‘ami eb to‘yormu erkin,
Ko‘z mardumini o‘yormu erkin.

Shuningdek, Navoyida *meng va xol* so‘zlari sinonim sifatida ham tez-tez uchraydi:

Mengim g‘ami eb to‘yormu erkin.

So‘gi asiri *men* o‘pmay hanuz xolin vah,
Ki domig‘a og‘iz urmay nasibam o‘ldi tuzog‘.

[333] Bu so‘zning yozilishi haqida shu tomning 185-betdagi izohimizga qaralsin.

Tog‘ cho‘qqisiga tekkandek, qiyinchilik odamning boshiga tushadi. **(602)** Tog‘ cho‘qqisiga urilgan el o‘tib ketib, cho‘qqi o‘z holida qolgandek, odamga kelgan qiyinchilik ham o‘tib ketadi. مِنك m ï ŋ – ming, sanoq son. Maqolda shunday kelgan:

بِيرِنْ بِيرِنْ مِنكْ بُلُورْ. تَما تَما كُلْ بُلُورْ

Bïrïn-bïrïn mïŋ bolur, tama-tama kŏl bolur

Birlar to‘plansa, ming bo‘ladi, Chunonchi, tomchilar tomchilab ko‘l bo‘lgani kabi. Bu maqol oz bo‘lsa ham, bir narsani ola berishga undab aytiladi.

ن *(n)*

نَنكْ n e ŋ – narsa. بُو نا نَنكْ أَلْ bu ne neŋ ol – bu qanday narsa.

نَنكْ n e ŋ – buyum*. She’rda shunday kelgan:

[LXII]

بُلمِشْ نَنكْنِكْ سَقْرْسَنْ
اَقْرُنْ اَنكَرْ سَقِنكِلْ
بَرْمِشْ نَنكيكْ سَقِنْما
اَزراقْ اَنكَرْ اُكْنكِلْ

Bolmïsh neŋig cewepcän
Aqrun aŋar sewingil
Bärmish neŋig saqïnma
Azraq aŋar ökungil.

Bor molingni sevasan, unga kamroq sevin, chunki u sendan (qo‘lingdan) chiqib ketishi mumkin. Qo‘lingdan ketgan narsa uchun qayg‘urma, unga ozroq achin. Chunki achinish senga (qo‘ldan ketganni) qaytarib bermaydi.

Bu bo‘limning misol turi

يَنكْ y a ŋ – qolip, andaza. Bu – biror narsaning shakli olinib, so‘ngra unga o‘xshatilib yasalgan qolipdir. Chunonchi: بُرك يَنكْ börk jaŋï – bosh kiyim andazasi. Bunda qog‘ozdan cho‘ziq yoki yumaloq shakllarda bir narsalar kesiladi yoki o‘yiladi. Yoki loydan quvur shaklida bir narsa yasalib, qalpoq shohisi unga

* Olmaota nashrida: *mulk, boylik.*

o‘lchanib, unga moslab kesiladi. Boshqa narsalarning qolipi ham shunday tarzdadir.

يُنگْ y ÿ ŋ – jigarga* yaqin yerda joylashgan, unga ulashgan bezli go‘sht. Uni erkaklar emaydilar, xotinlar eydilar.

يُنگْ y o‘ ŋ – yung, tuya yoki qo‘yning yungi.

يُنگْ y o‘ ŋ – paxta. Arg‘ular tilida. Yag‘mo va qorluqlar tilida ham shunday.

يَنگْ y e ŋ – eng. Kiyim engi.

يِنگْ y i ŋ – burun suvi.

Ikki harflilar bo‘limi tugadi.

TURLI HARAKATLAR BILAN BOSHLANGAN فَعْلْ. فُعْلْ. فِعِلْ *FA’AL, FA’UL, FA’IL* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI

ت *(t)*

تَنگْتْ t a ŋ u t – Chin yaqinida turuvchi bir toifa turklarning nomi. Ular o‘zlarini arablardanmiz deb hisoblaydilar. **(603)**

كِنگْتْ k i ŋ ÿ t – uyg‘ur chegarasidagi bir shahar nomi.

سُنگْتْ s o‘ ŋ o‘ t** – sovg‘a. Bu na qaytarib beriladigan, na uning baravariga bir narsa taqdim qilinadigan tortiqdir. Chunonchi: بُو اَتْ مَنكا سُنگْتْ بِيرْدِى bu at meŋä so‘no‘t berdi – bu otni menga sovg‘a – tortiq qildi.

ر *(r)*

تُنگُرْ t ÿ ŋ ÿ r – xotinning aka-ukalar, ota-onalari***.

سَنگِرْ s e ŋ i r – tog‘ burni. Shuningdek, devor burniga ham bu so‘z qo‘llanadi.

سِنگِرْ s i ŋ i r – pay, tomir.

قُنگُرْ q o ŋ u r: قُنگُرْ اُونْ qoŋur o‘n – bo‘g‘iq ovoz.

قُنگُرْ k o ŋ u r: قُنگُرْ قُوىْ qoŋur qoy – qo‘ng‘ir (xira, och; jigar rang) qo‘y. Bu rangdagi boshqa narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi.

---

* Olmaota nashrida: *o‘pkacha.*

** B.Radlovda: *süŋüt//siŋüt*; Olmaota nashrida: *siŋut.*

*** B.Radlovda: *quda qarindoshlar*; Olmaota nashrida: *ayolning eri tomonidagi aka-ukalari va ota-onalari.*

قِنكِزْ q ï ŋ ï r: قِنكِزْ اَرْ qïŋïr er – g‘ilay odam. Ikki ko‘zi ham g‘ilay odamni اِكى كُوزى قِنكِزْ iki közi qïŋïr – ikki ko‘zi ham g‘ilay deyiladi.

مُنكَرْ m u ŋ a r – bunga. مَنْ مُنكَرْ اَيْدِمْ men muŋar aydïm – men bunga aytdim. Bu hozir bo‘lgan kishi (ni ko‘rsatish) ma’nosida hamdir.

مُنكَرْ m ï ŋ a r – buloq, suv ko‘zi (o‘g‘uzcha).

ز *(z)*

تَنكِزْ t e ŋ i z – dengiz.

تُنكُزْ t o ŋ u z – to‘ng‘iz.

تُنكُزْ t o ŋ y z – turklarning o‘n ikki yilidan biri.

قُنكُزْ q o ŋ u z – yoqimsiz hidli qo‘ng‘iz (o‘sroq qo‘ng‘iz)

كُنكُزْ g ö n o‘ z* – xaroba o‘nqir-cho‘nqirlarda tuya va qo‘ylar qumalog‘ining bir-biriga aralashib, yopishib ketgani.

مَنكِزْ m e ŋ i z – odam rangi, mag‘iz. Chunonchi: قِزِلْ مَنكِزْ qïzïl menizlig – qizil mag‘iz odam. Bu ko‘pincha yuz yonog‘i qizilligiga nisbatan qo‘llanadi.

مُنكُزْ m ö ŋ o‘ z – shox, hamma hayvonlar shoxi.

مُنكُزْ مُنكُزْ m ö ŋ o‘ z - m ö ŋ o‘ z – *mo‘nguz-mo‘nguz* deyiladigan bir xil bolalar o‘yini. Bu shunday: bolalar tiz cho‘kib, dengiz labida o‘ti-radilar. Sonlari orasiga ho‘l qum solib to‘ldiradilar. So‘ng qo‘llari bilan qumni uradilar. Ulardan biri (ona boshisi) مُنكُزْمُنكُزْ *möŋo‘z möno‘z* deydi. Qolganlari مُنكُزْ نا na möno‘z – *nimaning mo‘guzi* (shoxi) deb so‘raydilar. U birin-ketin shoxli hayvonlarni sanab ketadi. Uning ketidan ular ham takrorlaydilar. So‘ng onaboshi shu nomlar orasiga tuya, eshak kabi shoxi yo‘q hayvonlar ismini aytib chalg‘itadi. Bolalardan birortasi uning ketidan shoxsiz hayvon nomini aytib yuborsa, u suvga itarib yuboriladi. Maqolda shunday kelgan:

سُسكانْ اُڈْقا تَنكْرى مُنكُزْ بِيرْماسْ

So‘sägän** uzqa tenri möŋo‘z bermas

Suzag‘on sigirga Xudo shox bermaydi.

---

* B.Radlovda: *yo‘q*; Olmaota nashrida: *kuŋuz.*

** B.Radlovda: *süsgän;* Olmaota nashrida: *suskän.*

Bu maqol biror ishni qilmoq istasa ham, bu ish xalqqa zarar berishi mumkinligi sababli shu ishni qilmagan odamga nisbatan aytiladi.

س (s)

كَنگَسْ k e ŋ ä s: كَنگَسْ سُوڤْ keŋäs cyw – oz suv, to‘puqdan keladigan suv. Shuningdek, oson ishga ham bu so‘z qo‘llanadi.

ش (sh)

سُنگِشْ s u ŋ ï s h[334] – surish, uzoqlatish; nayza bilan urish, jang qilish.

سُنگِشْ s u n i s h – erkak kishilarning nomlaridan.

كَنگَشْ k e ŋ ä s h – kengashish, mulohaza yuritish.

غ (g‘)

مَنگِغْ m a ŋ ï g‘ – qadam, odim. اَنِڭْ مَنگِغى كُورْ anïŋ maŋïg‘ï kör – uning oyoq bosishini ko‘r.

ق (q)

تَنگُقْ t a ŋ u q – shohlar safarga (va shunga o‘xshashlarga) chiqqanda ularga beriladigan sovg‘a. Sovg‘a taom va ipak kiyimliklardan iborat bo‘ladi.

تَنگُقْ t a ŋ u q – chavgon o‘yinida koptokni tortilgan o‘rovdan o‘tkazib yutib chiqqanga beriladigan ipak kiyimlik.

تَنگُقْ t a ŋ u q – jangda nayza va bayroqlar uchiga osiladigan ipaklik[335].

سِنگُقْ s ï ŋ u q – siniq. سِنگُقْ نانڭْ sïŋuq neŋ – siniq narsa. O‘g‘uzlar bu so‘zni burun tovushsiz سِنُقْ *sïnuq* shaklida qo‘llaydilar. Bularniki qoidaga muvofiqdir, chunki bu so‘z سِنْدِى sindi – *sindi* fe’lidan yasalgandir. Demak, so‘zning aslida burun tovushi yo‘qdir.

ل (l)

تَنگِلْ t e ŋ i l: تَنگِلْ كَيِكْ teŋil keyik – oldingi oyoqlarida yo‘l-yo‘l chiziqlari bo‘lgan kiyik. Boshqalari ham shunday.

---

[334] Bu so‘z bosma nusxada سُنگِشْ *so‘nish* shaklidadir. Basim Atalay izohiga ko‘ra, qo‘lyozmada سُنگُشْ *suŋush* shaklida ekan (Qarang: “Devon...” tarjimasi, III jild. 365-b).

[335] *Tanguq* so‘zi “Qutadg‘u bilik”da, umuman, *sovg‘a – tortiq* ma’nosida qo‘llangan: *menïŋ taŋuqum ol qutadg‘u bilik.*

چنكِلْ چنكِلْ c h i ŋ i l c h i ŋ i l: يُكُونْ چنكِلْ چنكِلْ آتّى yo‘go‘n chiŋil chiŋil ettï – yugan jingir-jingir qilib ovoz chiqardi. Shunga o‘xshagan har bir tovushga nisbatan ham bu so‘z qo‘llanadi.

سِنكِيلْ s i ŋ i l – erkaklarning o‘zidan kichik qiz qardoshi, ya’ni singlisi[336].

كُنكُلْ k ö ŋ ÿ l – yurak, ziyraklik, aqllilik. كُنكُلْ لُكْ اَرْ *köŋyl yo‘k er* iborasi shundan olinib qo‘llangan, bu aqlli, ziyrak odam, demakdir. Maqolda shunday kelgan:

كُوزْدَنْ يِراسا كُنكُلْ دَنْ يَما يِرارْ
Közdän yïnasa* köŋyldän jämä yïrar

Do‘stlar ko‘zdan uzoqlashsa, ko‘ngildan ham uzoq bo‘ladi. Yana: كُنكُلْنكْ نَتَكْ köŋlÿŋ netäk – ko‘ngling qanday**.

Bu bo‘limning muzoaflari

سُكُكْ s ö g o‘ k – havo***.

سَنكَكْ s e ŋ ä k – suv ichiladigan idish. Yog‘ochdan qilingan zarang kosaga ham bu so‘z qo‘llanadi (o‘g‘uzcha).

سِنكَكْ s i ŋ ä k – shaharliklar tilida pashsha, sahroliklar tilida chivin, demakdir. **(605)** She’rda shunday kelgan:

[LXIII]

سَنْدا قُبَرْ جَذْنْلارْ
قُذْغُو سِنكَكْ يِلَنْلارْ
دُكْ مِنكْ قُيُو تُمُنْ لارْ
قُذُرُقْ تِكِبْ يُكْرُشُورْ

Sendä qopar chazanlar
Quzg‘u sinäk yïlanlar
Do‘k mïŋ quyu to‘menlar[337]
Quzruq tikib yÿgrÿshÿr.

---

[336] Navoiyda aynan шu ma’noda:
Soz etdi ag‘olig‘u *singillik,*
Ko‘p istadi s*ingli*din bihillik.

* Olmaota nashrida: *yarasa.*

** Olmaota nashrida: *kayfiyating qalay?*

*** B.Radlovda: *tepäk* – havo, osmon; Olmaota nashrida: *taŋik* – havo.

[337] Bu so‘z “Devon”ning I jild, 336-betida تُمَنْ shaklida berilgan.

Qish bilan yoz tortishuvi ta'rifida, qish yozga aytadi: senda chayonlar, pashsha, chivinlar, xalqqa ozor beruvchi har xil hasharotlar bor. Senda ilonlar dumlarini o'rab (gajak qilib) xalqqa hamla qiladilar.

سُنگاك s ö ŋ o' k – so'ngak. Maqolda shunday kelgan

اَذگُو اَرْ سُنكوكى اَرىرْ اَتى قَلىرْ
Ezgÿ er söŋo'ki ärir ati qalïr

Yaxshi odamning so'ngagi tuproqda chirisa ham, nomi abadiy qoladi.

Bu maqol odamlarni yaxshilik qilishga undab aytiladi.

Oxiri zaif tovushli so'zlar

ك *(g)*

تُنگُو t u ŋ u – kar, garang.

تُنكا t o ŋ a – yo'lbars jinsidan bo'lgan bir xil hayvon. U filning kushandasidir. Bu so'zning asosiy ma'nosi shudir. Lekin bu so'z turklarda ma'nosi o'zgargan holda qo'llanadi. Bu so'z ko'pincha odamlarga unvon o'rnida ishlatiladi. Chunonchi: تُنكا خانْ toŋa xan, تُنكا تِكِينْ *toŋa tegin* va shuning kabilar.

Turklarning ulug' xoni Afrosiyobni تُنكا اَلْبْ *Toŋa Alp er* deb atar edilar. Yo'lbars kabi kuchli bahodir odam, demakdir.

سُنگُو s ÿ n g o' – nayza.

سَنكا s e ŋ ä – senga. سَنكا اَيْدِمْ seŋä aydim – senga aytdim.

سنكى s i ŋ i – singadigan. بُو اَشْ اُلْ سنكى bu ash ol siŋi – bu osh singadigan oshdir.

Bu bo'limning matviy turi

يَنكا y a ŋ a – daryo qirg'og'i, har qanday ariq, soy qirg'og'i (o'g'uzcha).

يَنكى y e ŋ i – yangi. يَنكى نانگ yeŋi neŋ – yangi narsa.

يُنگُو y u ŋ u: بارْمانْ Barman shaharchasidan oqib o'tadigan katta bir daryo nomi. Bu daryo bo'yiga Alb Erto'nganing Barman degan o'g'li shahar qurgan edi. Shahar ham unga nisbat berilib, uning nomi bilan ataladi.

Bu Rum o‘lkasining Ishoq payg‘ambarning o‘g‘li Isuning Rumga nisbat berilib aytilgani kabidir.

So‘z oxirida g‘unna kelgan so‘zlar

شَبِنكْ s h e b i ŋ – yo‘g‘on temir so‘yil (chigilcha).

سِدِنك كُولْ s i d i ŋ k ö l: قُجْنكارْ باشى qochŋar bashïga yaqin bir ko‘l nomi.

q a z ï ŋ – qayin daraxti. Maqolda shunday kelgan:

قَذِنكْ قاسِنكا سُكُتْ سُولِنكا

Kaziŋ qasïŋa* sögÿt so‘liŋa

(Bu maqolning ma’nosi yuqorida izoh qilingan)

قَشْنكْ q a s h a n – qulni so‘kishganda, unga قَشْنكْ *qashan* deyishadi, ya’ni e*y past, pastkash* demakdir[338]. **(606)**

ر *(r)*

بُرُنكْ b u r u ŋ: بُرُنكْ اَتّى burun atti – bir o‘q otarlik erga otdi.

بُرُنكْ b ö r o‘ ŋ – suv o‘ygan yoriqlar**.

تَرِنكْ t e r i ŋ: تَرِنكْ تَنكِزْ teriŋ teŋiz – keng, chuqur dengiz.

O‘g‘uzlar har qanday katta va chuqur narsani ham تَرِنكْ *teriŋ* deydilar. Shundan اُورى تَرِنكْ teriŋ urï – ikki tog‘ orasidagi keng dara. تَرِنكْ بِلْكا teriŋ bilka – *ilmi ko‘p, bilag‘on, hikmatshunos* deyiladi.

تِرِنكْ اَتّى t i r i ŋ e t t i: قُلاقِمْ تِرِنكْ اَتّى kulaqïm tiriŋ etti – qulog‘im tiringladi. Shunga o‘xshash har qanday ovoz ham *tiring* deyiladi.

تِرِنكْ اَتُرْدِى t i r i ŋ e t t o‘ r d i: ياسِنْ تِرِنكْ اَتُرْدِى yasïn tiriŋ ettÿrdi – y yoyini tiringlatib otdi. Bu yoy otganda kamondan chiqqan ovozdir.

جِرِنكْ j i r i ŋ – lagan, kosa va shunga o‘xshashlarning urilish ovoziga taqlidiy so‘zdir.

---

* Olmaota nashrida: *kashiŋä.*

[338] Navoiyda bu so‘z shu ma’noda uchraydi. Lekin u davrda bu so‘z faqat qulga emas, hammaga nisbatan ham tahqirlash ma’nosida qo‘llangan:

Chiq, Navoiy, qariding hurmat ila maykadadin
Sudraturlar kishi chiqmaslig‘ etib bo‘lsa *qashang.*

** Olmaota nashrida: *girdob.*

كُرُنكْ k ö r o‘ ŋ: كُرُنكْ كُولْ Köro‘ŋ köl – Qashqar yaqinidagi bir ko‘l nomi.

ز *(z)*

بِزنكْ b i z i ŋ – bizning. Bu so‘z بِزْ biz va نك qo‘shilishidan yasalgan. بِزنكْ اَفْ biziŋ ew – *bizga qarashli uy* demakdir.

ك *(g)*

تَكِنكْ t e g i ŋ – suvsar va uning mo‘ynasi.

ل *(l)*

بَلِنكْ b e l i ŋ – dushman hujumi sababli xalq orasida paydo bo‘lgan qo‘rquv. Bir narsadan qochgan kishiga بَلِنكْ جى كِشى *beliŋchi kishi* deyiladi.

بُلُنكْ b ÿ l ÿ ŋ – burchak.

تُلُنكْ t u l u ŋ – ko‘z bilan quloq orasi.

تُلُنكْ t u l u ŋ – yugandagi bir halqa. U ot qulog‘ining tagida bo‘lib, otning boshi va yuzidan o‘tgan qayishlar unga biriktiriladi, uni يُكُنْ تُلنكى yo‘go‘n tuluŋi – *yugan halqasi* deyiladi.

جَلَنكْ y a l a ŋ: جَلَنكْ باشى jalaŋ bashï – ig‘vogar, ezma odam.

جَلِنكْ y e l i ŋ: جَلِنكْ اَياقْ jeliŋ ajak – Chin idishi.

جَلَنكْ y a l a n*: جَلَنكْ يِرْ jalan yer – o‘t tushgan joy kabi qora, zarang, o‘t bitmas er.

خُلِنكْ x u l ï ŋ – Chindan keltiriladigan, turli rangli ipak kiyimlik.

قَلِنكْ q a l ï ŋ – qalin, sep. Maqolda shunday kelgan:

قَلِنكْ بِيرْسا قِيزْ اَلِيرْ. كَراكْ بُلْسا قِيزْ اَلِيرْ

Qaliŋ bercä qïz alïr, kerăk bolsa qïz alïr

Qalin bersa, qiz oladi, biror narsani **(607)** istagan kishi (u narsa) zarur bo‘lgach, qimmat bo‘lsa ham oladi, olishga majbur bo‘ladi. She’rda shunday kelgan:

(LXIV)

بَرْدِمْ سنكا قَلِنكْ
اَمْدِى مَنى اَلِنكْ
اَمْكاكْ مَنِكْ بِلِنكْ
اُغْرارْ تنكر بَرْغلى

---

* Olmaota nashrida: *jaliŋ*.

Berdim seŋä qalïŋ
Emdi munï alïŋ
Emgäk meniŋ biliŋ
Og‘rar tÿnÿr barg‘alï.

Kuyov qaynotasiga* aytadi: sizga qalin berdim, buni oling. Bu molni to‘plashdagi qiyinchiliklarimni tushuning. Qaynota aytadi: u kelish oldida turibdi (olib ketmoqchi bo‘lyapti-ku).

كُلنك k ö l ÿ ŋ – ko‘lmak suv**. Unga qushlar qo‘nadilar.

Bu bo‘limning misol turi

ب *(b)*

يِبَنك y e b ä ŋ: يِبَنك يِبز yebaŋ yer – qumli er. Bu shunday qumki, unga mollar oyog‘i botib qolib chiqarish qiyin bo‘ladi.

ت *(t)*

يَتَنك y e t i ŋ*** – yung taraladigan charx.

د *(d)*

يَدِنك y a d ï ŋ: يَدِنك سُوڤ yadiŋ cyw – er ustiga yoyilgan tarqoq suv.

ش *(sh)*

يُشَنك y o‘ sh ä ŋ: يُشَنك تاشْ yo‘shan tash – silliq tosh****.

ل *(l)*

يَلَنك y a l i ŋ – yalang‘och. يَلَنك قِلِچْ yalïŋ qïlïch – yalang‘och, qinidan chiqarilgan qilich.

يَلَنك y a l ï ŋ – yalang‘och. يَلَنك اَرْ yalïn er – yalang‘och odam. Har bir yalang‘och narsaga ham يَلَنك *yalïŋ* deyiladi[339].

---

* Olmaota nashrida: *tug‘ishganiga.*

** Olmaota nashrida: *botqoq.*

*** B.Radlovda: *jetäŋ//jetän;* Olmaota nashrida: *yataŋ.*

**** Olmaota nashrida: *qoya.*

[339] Bu so‘z hozirgi o‘zbek tilida yalang tarzida qo‘llanadi. Shu bilan birga bu so‘zning shu ma’nosi ustiga doim, har vaqt degan ma’no ham qo‘shilgan. Shu ma’noda qo‘llanuvchi *yalang‘och* so‘zi ham ana shu o‘zakdandir. Bu ikki variantlilik Navoiy davridayoq yuzaga kelgan edi:

Och to‘yg‘aribon *yalang*ni yopdim,
O‘ldim deganimda seni topdim.

Yoyar anga sufraki ul och emas,
Berur anga to‘nki, *yalang‘och* emas.

يَلِنگ y e l i ŋ* – el ko‘p bo‘ladigan erga يَلِنگ *yeliŋ* deyiladi. بُو يَلِنگ كُونْ bu yeliŋ ko‘n – bugun shamolli kun.

ج (jim) harfli g‘unnalilar

ر (r)

بِرِنجْ b i r i n c h – birinchi. بِرِنجْ نانگ birinch neŋ – birinchi narsa. Qoidaga muvofiq so‘zdir, ammo kam qo‘llanadi.

كُرُنجْ k ö r o‘ n ch – bir narsani ko‘rayotgan odamlar.

ز (z)

بزنج b e z i n c h** – ipak va yung koptok***.

بزنج b e z i n c h – tanasi va barglari qizil bo‘lgan bir xil o‘simlik. U bog‘larda bitadi. U davo uchun eyiladi.

ڤ (w)

سَڤِنجْ c e w i n c h – sevinch, shodlik. Maqolda, shunday kelgan:

أُگُوشْ سَڤِنجْ بُلْسا قَتِغْ أُخْسُنُورْ

Ögo‘sh cewinch bolsa, qatïg‘ oxsunur

Ko‘p sevingan odam qattiq qayg‘uga duchor bo‘lishi kutiladi. Bu maqol haddidan oshib hovliqishdan tiyilishga undab aytiladi. She’rda shunday kelgan:

[LXV]

مَندا بُلْنُرْ سَڤِنج اتى قَدْغُو اَتارْ
قَرْشى كُرُبْ سَغَدِغْ انى اُجْمَقْ اَتارْ

Mendä bolnur cewinch otï qazg‘u atar
Qarshï köro‘p sag‘dïch anï uchmaq atar. **(608)**

Menda sevinch, quvonchning davosi bor, u qayg‘ularni daf qiladi. Yaqinlarim mening imorat (ark)imni ko‘rsalar, yaxshiligidan uni jannat deb ataydilar.

سَقِنجْ s a q ï n c h – qayg‘u, alam.

---

* Olmaota nashrida: *yaliŋ.*

** Olmaota nashrida: *bazanj.*

*** B.Radlovda: *ipak kalava;* Olmaota nashrida: *ipak kalava.*

ل *(l)*

قِلِنچْ q ï l ï n c h – qiliq, fe'lu xo'y. Shu ma'nodan olinib, اَذْكُو قِلِنچ ezgo' qïlïnch[340] – *yaxshi qiliq* deyiladi. Buning teskarisi (yomon qiliq)ga ham shu so'z qo'llanadi.

قِلِنچ q ï l ï n c h – xotinlarning nozu istig'nosi. Shuning uchun xotinlarga اُكْشْ قِلِجْلَنْمَا *öko'sh qïlïnchlanma* deyiladi, *ko'p noz qila berma* demakdir.

كُلُنچْ k o' l o' n c h – kulgi.

Bu bo'limning misol turi

ف *(f)*

يفنج y a f ï n c h – Ila yaqinidagi bir shaharning nomi.

ك *(k)*

يُكُنچْ j o' k o' n c h – namoz (qipchoqlar tilida). تَنكْريكا يُكُنچْ teŋrigä yÿkÿnch yÿkÿndi – Xudo rizoligi uchun namoz o'kidi. اُلْ بَكَا يُكُنچْ يُكُنْدِى o'l bekkä yÿkÿnch yÿkÿndi – u bekka boshini egdi. Boshqalari ham shunday.

TO'RT HARFLILAR

ت *(t)*

تُتُنْجُو t u t u n c h u – tutingan, asrandi. تُتُنْجُو اُغُلْ tutunchu og'ul – asrandi bola.

ز *(z)*

سَزِنجى s a z ï n c h ï: سَزِنجى تاشى sazïnchï tashï – gips.

ر *(r)*

قَرنجا q a r ï n c h a[341] – chumoli (o'g'uzcha).

Bu bo'limning misol turi

ر *(r)*

يُرِنْجا y o r ï n c h a[342] – yo'ng'ichqa (o'g'uzcha).

---

[340] Bu so'z hozirgi o'zbek tilida ham shu ma'nolarda qo'llanadi. Lekin hozir *qaliq* shaklida talaffuz qilinadi. So'zning shaklidagi bu o'zgarish Navoiy davridayoq yuzaga kelgan edi:

Qilib yaxshilik birla yaxshi *qiliq*,
*Qiliq*dek boshingdin ayoq yaxshiliq.

[341] Bu so'zning قَرْنَجَقْ *qarïnchaq* varianti ham bor edi (Qarang: "Devon..." I jild. 460-b).

[342] Bu so'zning يرنجقا *jorïnchqa* varianti ham "Devon..."da berilgan.

فَعال *FA'AL* SHAKLIDAGI SO'ZLAR BO'LIMI

ر *(r)*

سنكارْ s ï ŋ a r – bir narsaning yoni, tomoni, tarafi. Chunonchi: سِنكارْدِنْ يُرى sïŋardïn yÿri – bir tomonidan yurish.

مُنْكارْ m u ŋ a r – bunga. مُنْكارْ اَيْدِمْ muŋar ajdïm – bunga aytdim.

مِنكارْ m ï ŋ a r – buloq, suv ko'zi (o'g'uzcha).

ن *(n)*

يِنكانْ y a n g a n* – faqat boshi oq bo'lgan ola qarg'a.

سَنكانْ s a n g a n: سَنكانْ نانكْ sangan neŋ – kakra ta'mli narsa.

Bu bo'limning misol turi

غ *(g')*

يُنكاغْ j o ŋ a g' – bekka chaqimchilik qilish. اَنى يُنكاغْ يُنكادِى anï yoŋag' yoŋadï – u shohga chaqimchilik qildi.

ق *(q)*

يَنكاقْ y a ŋ a q – og'izning ikki tomonidagi tishlar o'rnashgan ko'mik, milk.

ن *(n)*

يَنكاقْ y a ŋ a q – har narsaning yoni. Eshik yonidagi yondorlarga قَبُغْ يَنكاقى *qapug' yaŋaqï* deyish ham shundandir.

يَنكانْ y a ŋ a n – fil. Bu so'zni o'g'uzlar bilmaydilar.

فَعْلى *fa'li* shaklidagi so'zlarning har xil harakatlar bilan qo'llangan namunasi

ر *(r)*

تَنكْرى T e ŋ r i – ulug' Tangri. Maqolda shunday kelgan:

تُبِنْ تَبْغساقْ تَنكْرى سَفِنجْسِزْ

Toyïn tapug'saq teŋri sefinchsiz** **(609)**

Kofirlarning din boshliqlari ulug' tangriga ibodat qiladi, lekin ulug' tangri uning ishidan rozi bo'lmaydi.

Bu maqol birovlarga yoqadi, deb gumon qilgan, ammo ishi yoqmagan odamlar haqida aytiladi. She'rda shunday kelgan:

---

* Olmaota nashrida: *taŋan (yaŋan);* B.Radlovda: *jaŋan.*

** Olmaota nashrida: *tuyin tabug saktanri safinj siz*

[LXVI]

تُنْ كُنْ تَبُنْ تَنكْرِيكا بُيْنَمَغِلْ
قُرْقُبْ اَنكَرْ اَيْمَنُو اُيْنَمَغِلْ

To‘n ko‘n tapun Teŋrigä boynamag‘il
Qorqup aŋar eymäno‘ oynamag‘il.

Kecha-kunduz ulug‘ Tangriga ibodat qil, yo‘ldan ozib adashma. Xudodan qo‘rq, undan uyal, uning bilan o‘ynashmagil.

Xudo halok qilg‘ur kofirlar osmonni تَنكْرِى *Teŋri* deydilar. Shuningdek, ular ko‘zlariga katta ko‘ringan har narsani, Chunonchi, katta tog‘, haybatli yog‘ochni ham تَنكْرِى *teŋri* deb ataydilar[**]. Shuning uchun ham ular shunga o‘xshash narsalarga sajda qiladilar. Ular bilag‘on odamni تَنكْرِكَانْ *teŋrigän* deb atashlari ham shundandir. Bularning xatolaridan xudodan panoh so‘raymiz.

تُنكْرا t u ŋ r a – badanning kiri.

اُنكرا o ŋ r a – chalqancha. اَرْ اُنكرا يَتّى er oŋra yattï – odam chalqancha yotti.

تُنكرا t o ŋ r a: اَرْ تُنكرا تُشْتى er toŋra tushti – odam to‘ntarilib (yuzini erga qilib) tushti.

تُنكْشُو t o‘ ŋ sh o‘ – shamdon[**].

جَنكْشُو j e ŋ sh o‘ – kalta paxtalik to‘n.

---

[*] Mahmud Qoshg‘ariyning *Tangri* so‘zi haqidagi izohini ikki xil tushunish mumkin: 1. Bu izoh XI asrda yashagan xalqlar tiliga doir izoh bo‘lmay, ancha qadimgi davr – er, ko‘k, quyosh, o‘tlarga topinuvchi shomonlik davridagi xalqlar e’tiqodiga doir ma’lumot deb tushunish mumkin. Chunki Mahmud Koshg‘ariy *ko‘k* so‘zini izohlaganda faqat *osmon* debgina izohlagan, *Tangri* deb e’tiqod qiladilar deb uqtirmagan. 2. XI asrda ham islomni qabul qilmaganlar shunday e’tiqod qilar edilar, degan mazmunda tushunish mumkin. Ikkinchi variant yana ham yaqinroqdir, chunki O‘rxun yodgorliklarida ham biz shu e’tiqod asarini ko‘ramiz. Dastlab shuni aytish kerakki, O‘rxunda olam yaratilishi, diniy e’tiqodlarga doir ma’lumotlar kam. Unda ba’zan Tangriga qulluq qilish, o‘lim, ta’ziyalar haqidagina so‘z boradi, xolos. Lekin unda *er, ko‘k, tangri* deb izohlangan, Chunonchi: *ko‘k o‘za, asra er* ... kabilar. Mahmud Qoshg‘ariyning bu xil izohlari, bir tarafdan, diniy e’tiqod tarixi haqida muhim tadqiqot olib boruvchilar uchun hujjat bo‘lsa, ikkinchidan, bu xil ma’lumotlar Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida, uzoq tarixiy voqealarini ham hisobga olganini ko‘rsatuvchi dalildir.

[**] Olmaota nashrida: *sham.*

جَنكْشى j e ŋ s h i – Xo‘tan begining nomi. Xo‘tan u tufayli qo‘lga olingan edi. Odamlar جَنكْشى *jeŋshi* so‘zini جَمْشِيدْ *jamshid* so‘zining o‘zgargani deydilar.

ك *(k)*

مَنكُو m a ŋ g o‘ – mangu, mangulik, cheksiz, cheksizlik. Bu so‘z ham ot, ham masdardir. مَنكُو اَرَنْ meŋgÿ ajun – cheksiz dunyo. She’rda shunday kelgan:

[LXVII]

تُغْبْ تَقى قَلْمَدِى مَنكُو اَرَنْ
اَرُونْ كُنى يُلْدُزى تُتْجى تُغارْ

Tug‘up taqï qalmadï meŋgo‘ erän
Ajun ko‘ni julduzï tutchï tug‘ar.

Zamonni ta’riflab aytadi: tug‘ilgan odam doim yashamaydi. Ammo olamning quyosh, yulduz doimo yoritib turadi, hech shikastlanmaydi.

ل *(l)*

جَنكْلى j e ŋ l i: جَنكْلى مَنكْلى jeŋli meŋli – bolalarning bir xil o‘yinlarining nomi. Buning arabchasi اَلدَّوْداةُ dir.

قَنكْلى q a ŋ l ï – og‘ir yuk ortiladigan ikki g‘ildirakli arava.

قَنكْلى q a n l i – qipchoqlardan ulug‘ bir kishining nomi.

سَلْنكو s a l ŋ u – mayda tosh otiladigan sopqon, tuppaq.

شُنكْلا s h o‘ ŋ l ä – arg‘ular erida bitadigan bir o‘simlik. **(610)** Ildizi eyiladi.

قَلنكو q a l ŋ u – suv yuziga chiqish, qalqish. سُقْدا قَلنكُولادِى suwda qalŋuladï – suv yuziga chiqdi, qalqidi*.

كزنكو k ö z ŋ ÿ – ko‘zgu, oyna.

Bu bo‘limning misol turi

يَنكفُو y a ŋ q u – aks sado. Tovushning qaytishi. Maqolda shunday kelgan

يَزْماسْ اَتِمْ يَغْمُرْ يَنكِلْماسْ بِلْكا يَنكفُو

Yazmas atïm yag‘mur yaŋïlmas bilgä yaŋqu

---

* V.Radlovda: *suv yuzasida cho‘kmasdan turdi*; Olmaota nashrida: *suvda suzdi*.

Yanglishmaydigan mergan yomg‘irdir (Chunki yomg‘irning mo‘ljal o‘rni – nishonga olgan joyi butun er yuzidir; er yuzi esa juda kengdir, bunday keng joyga otilgan narsa xato ketmaydi. Qayergadir bir erga tegadi.) Eng to‘g‘ri aytadigan, bilag‘on esa aks sadodir (Chunki u sen nima desang, xuddi shunday qaytaradi).

Bu maqol bir ishda xato qilib, uzrini aytadigan kishiga nisbatan aytiladi*.

ل *(l)*

يَلنگُو y a l ŋ u – joriyalar o‘ynaydigan bir xil o‘yin nomi. Shundayki, arqonning ikki uchi daraxt shoxlariga yoki ustunlarga bog‘lanadi, so‘ng ularning biri arqon o‘rtasiga o‘ltiradi oyoqlarini erga tirab, ba’zan yuqori, ba’zan quyi tushib uchadi (arg‘imchoq).

ك *(k)*

ينجنكا y i n c h k ă – har bir ingichka, nozik narsa. ينجنكا تُرْقُو yinchkă turqu – nafis ipak kiyimlik. ينجنكا قِيزْ yinchkă qïz – nozik, o‘ynoqi qiz**. ينجنكا كِشى yinchkă kishi – Tangriga ibodatli odam.

يَنگكا y a ŋ g a – yanga. U akaning xotini.

فَعالُو *fa’alu* shaklidagi so‘zlar

تَيانگُو t a y a ŋ y – bu so‘zning asl ma’nosi حاجِبْ hayib – vositachi, pardachi ma’nosidadir. Lekin حاجب hojib so‘zi ko‘p qo‘llana boshlagach, bu so‘z iste’moldan qoldi***. Bu so‘z

---

* Mahmud Koshg‘ariy kitobga yozgan so‘z boshisida so‘zlar istishhodi o‘rnida xalqda qo‘llanadigan maqol, qo‘shiq va hikmatli so‘zlardan misollar keltirdim, deb izoh bergan (Qarang: I jild. 47-b). Bu parcha hikmatlilardandir. Mazmun va g‘oyaviy jihatdan bir-biriga yaqin turgan maqol va hikmatli so‘zlarni ajratib ko‘rsatish ancha qiyinligiga qaramay, Mahmud Koshg‘ariy ularni ajratib ko‘rsatishga intilgan va bunga asoslar topgan. Ularni ajratishda muallif, hech shubhasiz, bir qancha muhim xususiyatlarga asoslangan. Bizningcha, bu tasnifda quyidagi ikki masala ham asosiy o‘rin tutgan: 1. Hikmatli so‘zlar to‘la ilmiy qonuniyatlar asosida tuzilgan. 2. Maqollar majoziy ma’noda emas, o‘z leksik ma’nolarida qo‘llangan. Maqollar ustida tadqiqot olib boruvchi olimlar Mahmud Koshg‘ariy qarashidagi ana shu xususiyatlarga e’tibor berishlari kerak.

** V.Radlov va Olmaota nashrida: *cho‘ri, kaniz.*

*** Mahmud Koshg‘ariyning bu so‘z haqidagi izohi uning zaruriyat tufayli tilga yangidan kirib kelgan va iste’moldan chiqib ketgan arxaik so‘zlar haqidagi qarashlarini o‘rganish uchun muhimdir.

Bu izohga ko‘ra: 1) Mahmud Koshg‘ariy tildagi so‘zlar turmushdagi zarurat bilan bog‘liq bo‘lgan har xil o‘zgarishlarga duch kelishi mumkin, degan

suyanmoq, orqa qilmoq ma'nosidagi تَيَنْدِى *tayandi* fe'lidan yasalgandir. Haqiqatda, shoh ham hojiblarga ishonadi, xalq ham o'z ahvollarini shohga hojiblar orqali etkazib, undan tegishli javob olib berishlariga ishonadi.

Bu bo'limning misol turi

يَنكيلا y ä ŋ i l ä: أَلْ ايشغْ يَنكيلا قِلْدِى o'l ïshïg' janjilä qïldï[343] – u ishni yangidan qildi, ikkinchi marta boshladi.

Uch harflilar bo'limi tugadi.

BU BO'LIMNING TO'RT HARFLILAR BOBI

Har xil harakatlar bilan qo'llanadigan فَعْلَلٍ، فَعْفَعٍ shaklidagi so'zlar

چ *(ch)*

تَنكُجْ t e ŋ ÿ c h – qozon osiladigan uch oyoqli temir asbob (temir o'choq) balandligidagi, ya'ni yarim tirsak balandligidagi narsalar.

سَنكلَجْ s e ŋ l ä c h[344*] – findiq yong'og'i kattaligidagi bir turli shirin olma.

ر *(r)*

سُنكقُرْ s u ŋ q u r – yirtqich qushlardan birining nomi (shunqor). Bu طُغْرِيلْ *tug'ril*dan kichikdir[345].

---

qarashda edi. 2) So'zlarda yuzaga keladigan o'zgarishlarning bir turi tilga chetdan yangi so'zlar kirib kelishi qonuniy hol degan qarashda ekanidan dalolat beradi. 3) Yangi kirgan so'zlarning tilga singishi eski so'zning iste'moldan chiqishiga olib keladi degan xulosaga kelganidan dalolat beradi.

[343] Bu gapdagi yangila so'zi o'zakka -la affiksi qo'shilib yasalgan ravishga misoldir. Bu erda harakat ikki qayta takrorlanganlik ma'nosidadir.

Devonda -la affiksi qo'shilib, hol ma'nosida qo'llangan so'zlar ham bor. Chunonchi, *kishi eti tiriklä tatïr* – odamning eti tiriklik holida shirindir, degandagi kabi. Shu bilan birga *-la* affiksi XI asr tilida faqat, yolg'iz, -yoq yuklamalari ma'nosida ham qo'llangan:

Tirik*lä* kishi olcä ezgo' etip (Tirikligida yaxshilik qilib o'lmagan hisob)

Tïn*lä* bilän köchälim (Tundayoq ko'chaylik).

[344] Bu bo'limga ko'ra, bu so'z سَنكَجْ bo'lishi kerak edi.

* V.Radlovda: *senkäč;* Olmaota nashrida: *saŋaje.*

قُجنكارْ q o c h ŋ a r – qo‘chqor. Maqolda shunday kelgan:

اِكى قُجنكار بَشى بِيرْ اَشِجْتا بشْماسْ
Iki qochŋar bashï bïr ashïchta pïshmaz

Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda pishmaydi.

Bu maqol bir shaharda ikki bek, ikki boshliq bir-biri bilan chiqisha olmasligi, birining u erdan chiqib ketishi kerakligi haqida aytiladi.

قُجنكارْ باشى q o c h n a r b a sh ï – bir shaharning nomi.

ش (sh)

قنكدش q a n d a s h: قنكدش قدش qaŋdash qadash – otasi bir aka-ukalar*. Maqolda shunday kelgan:

قنكدش قُما اُرُورْ. اَكْدِشْ اُرُو تُرْتارْ
Qandash quma yryr, igdish** ŏro‘ tartar

Otasi bir bo‘lganlar oralaridagi adovat sababli bir-birlari bilan kelishmaydilar. Onasi bir bo‘lganlar oralaridagi do‘stlik sababli bir-birlariga yordam beradilar.

غ (g‘)

مُنكُلُغْ m u ŋ l u g‘ – siqilgan, qiynalgan, mungli. اَرْ مُنكُلُغْ muŋlug‘[346] ep – siqilgan, siqiqda qolgan odam.

---

[345] Bizda hozir *shunqor* tarzida talaffuz qilinadi. Navoiyda ham *shunqor* shaklida ko‘llangan.

Shunqor agar turnani ovlar kuni,
Yuzni olur bir dog‘i chiqmas uni.

(Shunqor turnani ovlaydigan kuni yuztasini tutsa ham, bir marta ham uni chiqmaydi). Navoiyning bu izohidan shunqor turnadek katta qushning yuztasini bir kunda ovlashga qodir, kuchli ekanligi ham ma’lum bo‘ladi. Navoiyda har erda ham bu qush benihoyat kuchli bir qush sifatida izohlangan:

Emas hudhud oyini *shunqor*ga kaj.

(Shunqor bilan o‘ynashish, unga yaqinlashish, hudhudning ishi emas, u qayda-yu bu qayda).

* V.Radlovda: *otasi bir aka-ukalar;* Olmaota nashrida: *turli xotinlardan bo‘lgan bolalar.*

** V.Radlovda: *ögdaš*; Olmaota nashrida: *ukdash.*

[346] Bu so‘z Navoiyda xuddi shu ma’noda va shu shaklda qo‘llangan.

Falak *mung* birla oning jonin olib,
Bularni dog‘i onsiz *mung*g‘a solib.

ق *(q)*

تَنكسُقْ t a ŋ s u q – tansiq. تَنكسُقْ نانكْ taŋsuq neŋ – hayron qolarli ajoyib narsa. Yaxshiligi uchun ahyon-ahyonda tortiladigan taomni تَنكسُقْ اَشْ *taŋsuq ash* deyish ham shundandir.

تِرْنكَقْ t ï r ŋ a q[347] – tirnoq.

قِنكْراقْ q ï ŋ r a q* – go‘sht va xamirlar kesiladigan dudama pichoq. U qassoblarning sotur degan asbobi kabidir.

قُزُنكُقْ q a z u ŋ u q** – qoziq. Qutb yulduzini تَمُرْ قُزُنكُقْ *temur qazuŋuq* deyish ham shundandir; ya’ni *temir qoziq* demakdir. Chunki osmon buning ustida aylanadi.

چِنكْراقْ c h ï n r a q***: چِنكْراقْ اُونْ chïŋraq o‘n – baland va tiniq ovoz.

قنكرق q a ŋ r a q – engak osti, tumshuq****.

قَنكْسِقْ q a n s ï q – o‘gay. قَنكْسِقْ اتا qansïq ata – o‘gay ota.

قَنكْسِقْ اُغُلْ q a ŋ s ï q o g‘ u l – o‘gay o‘g‘il.

قَلِنكُقْ q a l ï ŋ u q***** – bosh qasmog‘i. Shuningdek, ko‘n va terilarga yopishib to‘plangan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

ك *(k)*

تُنكُاكْ t ÿ n k l ÿ k – tuynuk.

جنكْلك j e ch l i k – sarmashiq deyilgan bir o‘simlik (Ba’zilar qarashida qoramug‘ deyilgan bir turli tog‘ emishi).

كُنكُاكْ k ö ŋ l ä k[348] – ko‘ylak.

ل *(l)*

دنكال d a ŋ a l – arpa-bug‘doylar o‘rilgach, bog‘langan bog‘i******.

---

[347] Bu so‘z hozirgi o‘zbek tilida tirnoq shaklida qo‘llanadi. Bu o‘zgarish Navoiy davridayoq yuzaga kelgan edi:

Ishq aro qazdim balo tog‘ini *tirnog‘*im bila.
*Tirnog‘*larini chu yuzga qo‘ydi,
*Tirnog‘ tirnog‘*cha erlar o‘ydi.

* B.Radlovda: *qïŋraq* – dudama pichoq; Olmaota nashrida: *kirŋäk* – go‘sht va xamir kesish uchun mo‘ljallangan uzun sopli pichoq.

** B.Radlovda: *qazuŋuq;* Olmaota nashrida: *karnuk.*

*** Olmaota nashrida: *janrak.*

**** B.Radlovda: *tanglay;* Olmaota nashrida: *qanrik.*

***** Olmaota nashrida: *kalnuk.*

****** B.Radlovda: *qamish bog‘lami.*

Bu bo‘limning misol turi

يَنگَچ y e ŋ a c h – suvda bo‘ladigan kichik bir jonivor* (o‘g‘uzcha).

س (s)

يَلْنگُوسْ y a l ŋ u s – yolg‘iz, yakka. اَرْ يَلْنگُوسْ yalnus er – yolg‘iz odam. **(612)** Boshqalari ham shunday. Maqolda shunday kelgan:

يَلْنگُوسْ قازْ اُتْماسْ
Yalŋus qaz ötmas

Birgina g‘oz tovush bermaydi, sayramaydi.

Bu maqol ishda boshqalarga yordam berishga undab aytiladi.

يَنكَرَقْ y a ŋ r a q – tog‘ning buriladigan va tagidan suv oqadigan joyi. Odam u erdan sakrab va shunga o‘xshash bir usulda o‘ta oladi.

يَنگْشَقْ y a ŋ sh a q: اَرْ يَنگْشَقْ yaŋshaq er – ezma odam.

يَلِنگُقْ y a l ï ŋ u q** – odam alayhissalomning ismi. Maqolda shunday kelgan:

يَنگْشَقْ اُغْلى سُوقاذُورْ. اَنگُو اَتى قَلِيرْ
Yalïŋuq og‘lï soqazur, ezgo‘ ati qalïr

Odam bolasi o‘lib ketadi, agar yaxshilik qilgan bo‘lsa, yaxshi nomi qoladi.

Bu maqol odamlarning yaxshilik qilishlari kerakligiga undab aytiladi.

يلِنگُقْ y a l ŋ u q – hamma odamlarga ham qo‘llanuvchi so‘z. She’rda shunday kelgan:

[LXIX]

يَغى اَرُرْ يَلِنگُقتِك نانكى تَڤار
بِلِكْ اَرى ياغِسِنْ نانك سَڤارْ

Yag‘ï erur yalŋuqïŋ*** neŋï tawar
Bilig eri yag‘ïsin nelik cewar.

---

* B.Radlovda: *qisqichbaqa.*
** Olmaota nashrida: *yalnuk.*
*** Olmaota nashrida: *yalnuknik.*

Odamning moli unga dushmandir. Aqlli odam qanday qilib uni sevadi.

يَلنگُقْ y a l ŋ u q – cho‘ri. O‘g‘uzlar, qipchoq va sahroyilar tilida.

يَنگُلُقْ y a ŋ l u q – ishda, so‘zda, harakatda va boshqa shuning kabilarda yanglishish.

Bu bo‘limning g‘unnalilari

تَبْجَنگْ t a p c h a ŋ – dasturxon kattaligida uch oyoqli narsa. Bog‘bon uning ustiga chiqib, ishkom – so‘ridagi uzumni oladi, uzadi.

جِلْبَنگْ c h a l p a ŋ – suyuq loy.

ش (sh)

جِفْشانگْ j e f s h ä ŋ: جِفْشانگْ جَغِرْ jefshäŋ chag‘ïr – o‘tkir may, musallas.

جفشانگ j e f s h ä ŋ – qo‘y yungini qirqadigan katta qaychi (chigillar so‘zi).

جَفْشانگ j e f s h ä ŋ – ko‘zidan suv oqib turadigan odam*.

كفسنگ q e f s ä ŋ** – kapsan. Xirmon yanchilgandan so‘ng kelgan kishiga beriladigan don hadyasi.

ل (l)

سُوْلانگْ s u w l a ŋ: سُوْلانگْ يِغاجْ suwlaŋ yïg‘ach – butog‘i yo‘q daraxt.

سُوْلانگْ s u w l a ŋ: سُوْلانگْ سَجْ suwlaŋ sach – yoyiq soch***.

ق (q)

قلقنگ q a l q a ŋ – qalqon. Bu so‘zning قَلْقَنْ *qalqan* shakli ham bor.

Bu bo‘limning manqus turi

تَيْلَنگْ t a y l a ŋ: تَيْلَنگْ اَرْ taylaŋ er – nozik, ko‘rkam, xushbichim, rangi porloq, kiyimlari toza odam. Bu so‘z ko‘pincha

---

* B.Radlov, Olmaota nashrida: *shabko‘r, xira ko‘ruvchi.*

** B.Radlovda: *kefšäŋ;* Olmaota nashrida: *kavsan* – tozalangan donni to‘plashga yordam berganlarga tortiladigan taom nomi

*** B.Radlov, Olmaota nashrida: *silliq soch.*

yigitlarga nisbatan **(613)** qo‘llanadi. تَيْلَنَكْ يِكِتْ taylaŋ yigit – yoqimli nozik yigit.

Bu bo‘limning ج – ح li g‘unnalisi

غ *(g‘)*

قَزْغَنْجْ q a z g‘ a n c h[349] – ishlab topish, daromad; foyda.

ق *(q)*

قُرْقُنْجْ q o r q u n c h – qo‘rquv, vahima.

ك *(k)*

تَزْكِنْجْ t e z g i n c h – tog‘larning burilish joyi. Boshqalari ham shunday. Egri-bugri yo‘lni تَزْكِنْجْ يُولْ *tezginch yol* deyish shundaydir.

Bu bo‘limning misol turi

يُرْكَنْجْ y ö r g e n c h: تَزْكِنْجْ *tezginch* ma’nosidadir: yo‘l va boshqalardagi egri-bugrilik ma’nosida.

يُرْكَنْجْ y ö r g ä n c h – daraxtlarga o‘ralib, uni quritadigan pechak o‘ti.

فَعْلُو *fa’allu* shaklidagi so‘zlar

غ *(g‘)*

قُنْكُرْغُو q o ŋ r a g‘ u – qo‘ng‘iroq.

قُنْكُرْغُو q o ŋ r a g‘ u – quloq ostidagi ko‘tarinki suyak.

ك *(g)*

سَنْكَرْكُو s e ŋ r ä g o‘: سَنْكَرْكُو اَتْ seŋrägo‘ at – boshida kasali bor ot. Uning burnidan suv oqib turadi. Har vaqt burnidan suv (mishiq) oqib turadigan bolani ham seŋrägÿ deb tahqirlaydilar, mishiqi, demakdir.

Bu bo‘limning misol turi

يِنْكَدَكُو y i ŋ d ä g ÿ – bolani koyiganda يِنْكَدَكُو *yiŋdägÿ* deyiladi, e*y mishiqi* demakdir.

---

[349] Navoiyda bu so‘z *bahra olmoq* ma’nosida ham qo‘llangan:
Jismi birla borib yonib keldi,
Do‘st haylini *qozg‘onib* keldi.

BU BO‘LIMNING BESH HARFLILARI

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلال *faanlol* shaklidagi so‘zlar

ق *(q)*

سِنكزْسُقْ c ï ŋ a r s u q – ikki kishi otga mingashganda, orqasiga o‘tirgan odam o‘rni.

ك *(k)*

مُنكزكاك m o‘ ŋ o‘ z g ä k – qo‘l qavarchig‘i. Ishlaganda qo‘lda paydo bo‘ladi.

Oxiri g‘unnali so‘zlar

قَرَنكُغُو q a r a ŋ g‘ u – qorong‘i.

قَرَنكُغُو q a z a ŋ q u*: يِبْ قَرَنكُغُو بُلْدِى yïp qazaŋqu boldï – ip qattiq o‘ralashib, echilmas darajada chigal bo‘ldi.

Bu bo‘limning misol turi

ى *(j)*

يَنكِلْغانْ y a ŋ ï l g‘ a n: اَرْ يَنكِلْغانْ yaŋïlg‘an er – o‘tgan ishni unutadigan, adashadigan odam.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

تَنكلكُجْ t e n i l g ÿ c h** – do‘langich deyilgan bir qush (o‘g‘uzcha).

تَنكلكُونْ t e q i l g ÿ n*** – o‘g‘uzlardan boshqa turkiy qabilalar tilida do‘langich deyilgan qush.

ن *(n)*

تَنكْرِكانْ t e ŋ r i g ä n – Xudoga ibodat qiluvchi, bilag‘on. Musulmon bo‘lmagan turklar tilida.

Bu bo‘limning olti harflilari

ق *(q)*

يَنكلدرق y a ŋ a l d u r u q – yomg‘irdan, quyosh issig‘idan boshni saqlash uchun qo‘llaniladigan yopinchiq. U namatdan tikiladi. Bu bo‘limda ikki sukun **(614)** yonma-yon kelmaydi.

---

* Olmaota nashrida: *kazinko‘*.

** V.Radlovda: *teŋälgüč*; Olmaota nashrida: *tanlakuj*.

*** Olmaota nashrida: *janrak*.

Chunki g‘unnaning o‘zi talaffuz uchun og‘irdir. Buning ustiga ikki sukun yonma-yon kelsa, so‘zlash mumkin bo‘lmaydigan darajada ikki og‘irlik paydo bo‘ladi. Shuning uchun so‘zlashda osonlik bo‘lsin deb, g‘unna ذلاقه harflari bilan beriladigan tovushlar qo‘shilib keladi. Bu etarli emas. Ikki sukun bilan g‘unna faqat سُوزكرى كِشى *sözeŋri kishi* iborasida kelgan, bu behuda so‘zlar so‘zlovchi odam, demakdir. Bu iborada ذلاقه dan ذ bordir. Shu bilan talaffuz osonlashgandir. Buni yaxshi bil.

G‘unnali otlar bo‘limi tugadi.

Bismillohi-r-rahmoni-r-rahim

G‘UNNALI FE’LLAR BO‘LIMI

Ikki harflilar

ت *(t)*

تِنكدِى t e ŋ d i: قُشْ تِنكدِى qush teŋdi – qush osmonga ko‘tarildi. Shuningdek, osmonga balandlatib otilgan o‘q osmonda ko‘zga ko‘rinmay qolsa ham bu so‘z qo‘llanib, أقْ تِنكدِى *oq teŋdi* deyiladi.

(تِنكمَاكْ .تِنكارْ teŋär, teŋmäk).

تَنكْدِى t a ŋ d ï – tang‘idi. اَلْ اَنِكْ باشِنْ تَنكْدِى o‘l anïŋ bashin taŋdi – y uning boshini ro‘mol bilan bog‘ladi. Shuningdek, har narsani arqon bilan siqib bog‘lashga ham bu so‘z qo‘llanadi[350]. (.تَنكارْ تَنكْماقْ taŋar, taŋmaq).

تُنكْدِى t o ŋ d ï – muzladi. سُوڤْ تُنكْدِى cyw toŋdi – suv muzladi. Boshqalari ham shunday. Yana: اَرْ تُنكْدِى er toŋdï – odam sovuqdan yaxlab qoldi, o‘layozdi (تُنكْماقْ .تُنكارْ toŋar, toŋmaq).

س *(s)*

سِنكْدِى s i ŋ d i – singdi. اَشْ سِنكْدِى ash siŋdi – osh singdi, hazm bo‘ldi*. سُوڤْ پِيرْكا سِنكْدِى cyw yergä siŋdi – suv erga singib ketdi.

سِنكْدِى s i ŋ d i – joylashdi. سُوزْ كُنكُلْكا سِنكْدِى söz könjÿlgä siŋdi – so‘z ko‘ngilga joylashdi (سِنكمَاكْ .سِنكارْ siŋär, siŋmäk).

سِنكْدِى s i ŋ d i: اُرْدَكْ قَمِشْقَا سِنكْدِى ördak qamïshqa sindi – o‘rdak va boshqalar qamishzor orasiga kirdi, u yerda yashirinib ko‘rinmay qoldi. Shuningdek, birov uy egasidan so‘ramay, uning uyiga yoki boshqa erga kirib yashirinsa ham bu so‘z qo‘llanadi[351] (سِنكمَاكْ .سِنكارْ siŋar, siŋmak).

---

[350] Bu so‘z hozirgi o‘zbek tilida xuddi shu ma’noda qo‘llansa ham, talaffuzda bir oz o‘zgarish yuzaga kelgan. Hozir tang‘ida tarzida talaffuz qilinadi. Lekin Navoiyda talaffuz ham “Devon...” dagichadir:

Noqa uza oni qo‘ydilar chust,
Ilik oyog‘ini *tong‘i*dilar rust.

Tong‘ib dardira charxi qayd payvand.

* Olmaota nashrida: *osh lazzatli edi.*

[351] Navoiyda bu so‘z abstrakt tushunchalarga nisbatan ham qo‘llangan:

*Singur*sam g‘ussadin o‘lmak kerakdur,
Ishimga barcha el kulmak kerakdur.

مُنكْدِى m ÿ n d i: أتْ مُنكْدِى at mÿndi – ot sarkashlik qildi va tepdi (مُنكْماكْ .مُنكارْ mo‘ŋär, mo‘ŋmäk).

Bu bo‘limning misol turi

يَنكْدِى y e ŋ d i: أرْ انى يَنكْدِى er ani yeŋdi – odam bir ishda uni engdi. O‘g‘uz va qipchoqlar so‘zi (يَنكْماكْ .يَنكارْ yeŋär, yeŋmäk).

UCH HARFLILAR BO‘LIMI

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلدِى *fa’aldi* shaklidagi so‘zlar

ر *(r)*

تنكردى t e ŋ ÿ r d i: أرْ أقْ تنكردى er oq teŋÿrdi – odam o‘qini osmonga balandlatib otdi, hattoki, o‘q osmonda ko‘rinmay qoldi. Shuningdek, qo‘ldan uchirilgan qush ko‘zga ko‘rinmay ketsa ham bu so‘z qo‘llanadi (تنكرماكْ .تنكرْ teŋÿrÿr, teŋÿrmäk).

سِنكُرْدِى s i ŋ ÿ r d i: أنْ تَنْجُو سِنكُرْدِى ol tanchu siŋÿrdi – y luqmani yutdi. Boshqalari ham shunday (سِنكُرْماكْ .سِنكُرْ siŋÿro‘r, siŋÿrmäk).

سِنكِرْدِى s i ŋ i r d i: ياغنى تَريكا سِنكِرْدِى jag‘nï terigä siŋirdi – yog‘ni teriga singdirdi. Boshqalari ham shunday (.سِنكِرْ سِنكِرْماكْsinirir, siŋirmak).

قُنكُرْدِى q o ŋ u r d ï: أرْ يِغاجُ قُنكُرْدِى er yïg‘ach qonurdï – odam daraxtni qo‘pordi. Boshqalari ham shunday. Shuningdek, shamol bir narsani yiqitsa ham, bu so‘z qo‘llanadi (قُنكُرْماقْ .قُنكُرْ qoŋurur, qoŋurmaq[352]).

---

[352] Bizda hozir shu ma’noda, bir narsani *tagidan ag‘darmoq* ma’nosida qo‘pormoq so‘zi qo‘llanadi. Navoiyda aynan “Devon...”dagicha *qo‘ngarmoq* va *qo‘ng‘armoq* shakllari qo‘llangan.

Balo tog‘ini mujgon birla yormoq,
Ërib tirnog‘ ila erdin *qo‘ngarmoq*.

Ey, Husayniy, charx zulmi buyla bo‘lsa men dog‘i,
Ashk to‘foni bila gardun binosin *qo‘ng‘aray*.

Qilich no‘gi bila davrini yorg‘il,
Solib bir panto o‘rnidin *qo‘ngarg‘il*.

كِنكُرْدِى k e ŋ ÿ r d i: اَرْ اِوْنْ كِنكُرْدِى er ewin keŋurdi – odam uyini kengaytirdi. Boshqalari ham shunday (كِنكُرْماكْ .كِنكُرْ keŋo‘ro‘r, keŋo‘rmäk).

ز (z)

تَنكِزْدِى t a ŋ ï z d ï: اَرْ اُبكاسِنْدا تَنكِزْدِى er öpkäsindä taŋizdï – odamning o‘pkasi shishdi, ya’ni achchiqdan g‘azabdan junbushga keldi.

تَنكِزْدِى t a ŋ ï z d ï: اُبكا تَنكِزْدِى öpka taŋizdi – o‘pka shishib etildi. Bu o‘pka yaxshi etilib pishishi uchun, uning ustiga ta’mli o‘simlik va sirka solib pishirishdir (تَنكِزْماقْ .تَنكِزَرْ taŋïzar, taŋïzmaq).

ش (sh)

تَنكَشْدِى t e ŋ ä sh d i – tenglashdi. تَنكَشْدِى نانكْ teŋäshdi neŋ – bir narsa bir narsaga tenglashdi. She’rda shunday kelgan:

[LXX]

مَنِكْ بِلا كَيْنِكَشْدِى
بِلْكِى مَنكا تَنكَشْدِى
اَرَنْ بِلا سُنكشدِى
اَلْبْلارْ بَشِنْ اُلْ يُوارْ

Meniŋ bilä kenäshdi
Bilgi meŋä teŋäshdi
Eran bilä söŋÿshdi
Alplar bashïn ol yuvar.

Jang asnosida suhbat qilgan bir kishi to‘g‘risida aytadi: men bilan kengashdi, (bu haqda) uning fikri mening fikrimga teng keldi. Jangda odamlarni uzoqlarga uloqtirdi. Botirlarning boshlarini koptok singari dumalatdi (تَنكَشْماكْ .تَنكَشُورْ teŋäsho‘r, teŋäshmäk).

تُنكُشْدِى t ÿ ŋ ÿ s h d i: اَرْ تُنكُشْدِى er tuŋushdi – odam kuchsizlanib boshini egdi (تُنكُشْماكْ .تُنكُشُورْ to‘ŋo‘sho‘r, to‘ŋo‘shmäk).

تُنكُشْدِى t ö ŋ u s h d i: تُنكُزْ تُنكُشْدِى toŋuz töŋushdi – to‘ng‘iz qattiq tikilib, odamga hamla qilishga intildi.

Shuningdek, biror ishni qabul qilishdan tortinib, bu ishni yoqtirmagani uchun ish buyuruvchiga yomon tikilgan kishiga اَرْ تُنكُشْدِى *er töŋushdi* **(616)** deyiladi (تُنكُشْماكْ .تُنكُشُورْ töŋo‘sho‘r, töŋo‘shmäk).

سِنگِشْدِی s i ŋ i s h d i -- singishdi. سُوقْلارْ قَمُغْ سِنگِشْدِی cywlar qamug‘ siŋishdi – suvlar tamom singishdi. Har bir suyuq moddalarning boshqasiga singishiga ham bu so‘z qo‘llanadi سِنگِشْمَاكْ .سِنگِشُورْ siŋishÿr, siŋishmäk).

سُنگُشْدِی s ÿ ŋ ÿ sh d i: اِكّی اَرْ بِرلا سُنگُشْدِی ikki er birlä sÿŋÿshdi – ikki odam jangda urushdi, bir-birini surishga harakat qildi. (سُنگُشْمَاكْ .سُنگُشُورْ so‘ŋo‘sho‘r, so‘no‘shmäk).

كِينگشدِی keŋäshdi – kengashdi. مَنكا كِينگشدِی اُلْ o‘l mena keŋäshdi – u men bilan kengashdi (كِينگشُورْ käŋäsho‘r, كِينگشْمَاكْ keŋäshmäk).

ق *(q)*

اُنگُقْتِی u ŋ u q t ï – unniqdi, siniqib ketdi. اَنِكْ يُوزی اُنگُقْتِی aniŋ jÿzi o‘ŋuqtï – kasallik va boshqadan uning yuzini ajin bosibdi, ajinlar paydo bo‘libdi.

اُنگُقْتِی u ŋ u q t ï بَرْچِنْ اُنگُقْتِی barchïn uŋuqtï – shohi kiyimlikning ohori ketibdi, rangi aynibdi, yaltirog‘i so‘nibdi, suvi qochibdi (اُنگُقْمَاقْ .اُنگُقَارْ uŋuqar, uŋuqmaq). Shuningdek, shunga o‘xshash har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

مُنگُقْتِی m u ŋ u q t ï: اَرْ مُنگُقْتِی er munuqtï – odam qiynaldi, qiyinchilikda qoldi, muztar bo‘ldi. مُنگُقْمَاقْ .مُنگُقَارْ munuqar, munuqmaq).

ل *(l)*

اُنگُلْدِی o ŋ u l d ï – o‘ngaldi, o‘ngraldi. سُكَلْ اُنگُلْدِی cögäl oŋuldï –kasal o‘ngraldi, tuzaldi. Yana اِيشْ اُنگُلْدِی ïsh onuldï – chigal ish o‘ngraldi, tuzaldi (اُنگُلْمَاقْ .اُنگُلُورْ oŋulur, oŋulmaq).

اُنگُلْدِی ö ŋ ÿ l d i* – o‘yildi. يِغاچْ اُنگُلْدِی yïg‘ach oŋÿldi – yog‘och o‘yildi. Boshqalari ham shunday (اُنگُلْمَاكْ .اُنگُلُورْ öŋÿlÿr, öŋÿlmäk).

تَنگِلْدِی t a ŋ ï l d ï: باشْ تَنگِلْدِی tanïldï bash – odam boshini tang‘idi. Shuningdek, ip bilan bog‘langan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi (تَنگِلْمَاقْ .تَنگِلُورْ taŋïlur, taŋïlmaq).

تُنگُلْدِی t o ŋ u l d ï – umidini uzdi. اَرْ اِيشْتِنْ تُنگُلْدِی er ïshtïn toŋuldï – odam ishdan umidini uzdi[353] (تُنگُلْمَاقْ .تُنگُلُورْ toqulur, toqulmaq).

---

* V.Radlovda: *üŋüldi.*

[353] Bu so‘z Navoiyda xuddi shu ma’noda qo‘llangan:

Ey Navoiy, sa’y ila chun vasl hosil bo‘lmadi,
Yor lutfig‘a tikil emdi-yu, g‘ayridin *to‘ngul.*

ن *(n)*

تَنكِنْدِى tanjïndï: اَرْ بَشِنْ تَنكِنْدِى ep bashïn tanjïndï – odam boshini o‘zi tang‘idi. (تَنكِنْماقْ .تَنكِنُورْ tanjïnur, tanjïnmaq).

Muzoaflar bo‘limi

تُنكُتّى t ö ŋ ÿ t t i*: اَرْ بَشِنْ تُنكُتّى er bashïn töŋÿtti – odam boshini egdi. Boshqalari ham shunday (تُنكُتْماكْ .تُنكُتُورْ töŋo‘to‘r, töŋo‘tmäk).

تَنكِتّى t e ŋ i t t i: اَرْ اَڤْنْ تَنكِتّى er oqïn teŋitti – odam o‘qini havolatib otdi (تَنكِتْماكْ .تَنكِتُورْ teŋitÿr, teŋitmäk).

كِينكِتّى k e ŋ i t t i – kengaytirdi. اَرْ اَڤْنْ كِينكِتّى keŋitti – odam uyini kengaytirdi. Boshqalari ham shunday. (.كِينكِتُورْ كِينكِتْماك keŋitÿr, keŋitmäk).

To‘rt harflilar

ك *(k)*

كِينكادِى k e ŋ a d i: اُلْ مَنكا كِينكادِى o‘l meŋä keŋädi – y men bilan kengashdi (كِينكاماكْ .كِينكارْ keŋär, keŋämäk).

كِينكُودِى k e ŋ ÿ d i – kengaydi. يِيرْ كِينكُودِى yer keŋÿdi – er kengaydi. Boshqalari ham shunday (كِينكُوماكْ .كِينكُورْ keŋÿr, keŋÿmäk).

Bu bo‘limning lafif turi

يُنكادِى y u ŋ a d ï**: اُلْ اَنى بَكّا يُنكادِى o‘l anï beggä jyŋadï – u uni bekka chaqdi. **(617)** Boshqalari ham shunday (يُنكاماقْ .يُنكارْ yyŋap, yuŋamaq).

TO‘RT HARFLILAR BO‘LIMI

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَدِى *fa’laldi* shaklidagi so‘zlar

ر *(r)*

تَنكْتُرْدِى t e ŋ t ÿ r d i اُلْ قُشْ تَنكْتُرْدِى o‘l qush teŋtÿrdi – u qushni qo‘lidan uchirdi. O‘qni havolatib otishga ham bu so‘z qo‘llanadi. (تَنكْتُرْماكْ .تَنكْتُرْرْ teŋto‘ro‘r, teŋto‘rmäk).

---

* B.Radlovda: *tüŋitti.*

** Bu ma’noda oldin ham *chaqmoq* so‘zi qo‘llangan (Qarang: II jild. 24-b).

تُنكَدَرْدِى t ö n d ä r d i – to‘nkardi, to‘ntardi. اُلْ اَياقْ تُنكَدَرْدِى ol ajaq tönḍärdi – u idishni to‘nkardi. Boshqalari ham shunday (تُنكَدَرْ. تُنكَدَرْماقْ töndäro‘r, töndärmäk).

سِنكَدُرْدِى s i ŋ d ÿ r d i – singdirtirdi*. سُجِكْ اَشِغْ سِنكَدُرْدِى sÿchik ashïg‘ sindÿrdi – ichimlik (sharob) oshni singdirdi, hazm qildirdi (سِنكَدُرْ. سِنكَدُرْماقْ sindÿro‘r, siŋdÿrmak). اُلْ اَنى اِوْكا سِنكَدُرْدِى o‘l anï ewgä siŋdÿrdi – y uni uyga singdirdi**, yashirdi.

مُنكَقَرْدِى m u ŋ q a r d ï: اُلْ اَنى مُنكَقَرْدِى o‘l anï muŋqardï – y uni iztirobga tushirdi, qiynoqqa soldi (مُنكَقَرْ. مُنكَقَرْماقْ muŋqarur, muŋqarmaq).

تَنكَرْدِى t e ŋ ä r d i*** – tenglashtirdi. اُلْ بِيرْ نانكَنى بِيرْكا تَنكَرْدِى o‘l bir neŋnï birgä teŋärdi – u bir narsani bir narsaga tenglashtirdi (تَنكَرْ. تَنكَرْماقْ teŋäro‘r, teŋärmäk).

ش *(sh)*

تَنكَلَشْدِى t e ŋ l ä s h d i – tenglashdi. بِيرْ نانكْ بِيرْكا تَنكَلَشْدِى bïr neŋ birgä teŋläshdi – bir narsa, bir narsaga tenglashdi. (تَنكَلَشْ. تَنكَلَشْماكْ teŋläshÿr, teŋläshmäk).

تِنكَلَشْدِى t ï ŋ l a s h d ï: اُلْ مَنِكْ بِرْلا سُوزْ تِنكَلَشْدِى o‘l menïŋ birlä söz tïŋlashdï – u men bilan so‘z tinglashda bahslashdi (تِنكَلَشُورْ. تِنكَلَشْماقْ tiŋlashur, tiŋlashmaq).

تَنكَلَشْدِى t a ŋ l a s h d ï: تَنكَلَشْدِى بُو اِيشِغْ كِشيلارْ kishilär bu ïshïg‘ taŋlashdï – odamlar bu ishga (ishdan) hayron qolishdi, tang qolishdi. (تَنكَلَشُورْ. تَنكَلَشْماقْ taŋlashur, taŋlashmaq). She’rda shunday kelgan:

[LXXI]

اُرْدِى بِلِتْ اِنكَرَشُو
اَقْتى اَقِنْ مُنكَرشو
قَلْدِى بُدُنْ تَنكَلَشُو
كُكَرَرْ تَقى مَنكَرَشُورْ

Ördi bulït ïŋrashu
Aqtï aqïn mo‘ŋräsho‘
Qaldï budun taŋlashu
Kökrär taqï maŋrashur[354].

---

* Olmaota nashrida: *maza berdi.*
** Olmaota nashrida: *suŋdur.*
*** Olmaota nashrida: *taŋkar.*

Yomg‘irni ta’riflab aytadi: bulutlar gurkirab yuqori ko‘tarildi. Bulutlardan sellar sharqirab oqdi. Bu holga odamlar hayron qolishdi. Bulutlar chaqmoq chaqib, momaqaldiroqlar gurillab edi.

مَنكَدَشْدِى m e n d ä sh d i*: اِكّى اُراغْتْ مَنكَدَشْدِى ikki urag‘ut meŋdäshdi – ikki xotin bir-birining yuz tuklarini olishishdi (مَنكَدَشُورْ.مَنكَدَشْماكْ meŋdäsho‘r, meŋdäshmäk).

Bu bo‘limning boshqa bir turi (618)

ش (sh)

مِنكَشْدِى m i ŋ ä sh d i** – mingashdi. اُلْ مَنِكْ بِرلا مِنكَشْدِى o‘l meniŋ birlä miŋäshdi – u men bilan birga otga mingashdi. Boshqalari ham shunday (مِنكَشُورْ.مِنكَشْماكْ miŋäshÿr, miŋäshmäk).

ن (n)

كُنكَرَنْدِى k ÿ ŋ r ä n d i: اَرْ اِيشْقا كُنكَرَنْدِى er ïshqa kÿnrandi – odam ishga kirishishdan tortinib, o‘zicha yashirin bir narsalar so‘zladi, g‘o‘ng‘illadi*** (كُنكَرَنُورْ.كُنكَرَنْماكْ ko‘ŋränÿr, ko‘ŋränmäk).

كِينكُرُنْدِى k e ŋ r ÿ n d i: اُلْ كِينكُرُنْدِى ol keŋrÿndi – odam bir oz vaqt keng-to‘q yashadi (كِينكُرُنُورْ.كِينكُرُنْماكْ keŋro‘no‘r, keŋro‘nmäk).

تَنكَلَنْدِى t e ŋ l ä n d i: اَرْ ايشِنْ تَنكَلَنْدِى er ïshïn teŋländi – odam o‘zining ishiga chora topdi (تَنكَلَنُورْ.تَنكَلَنْماكْ teŋlänÿr, teŋlänmäk).

Bu bo‘limning misol turi

يَنكُرُشْدِى y e ŋ s h ÿ r d i**** – aralashtirdi. اُلْ اِسِكْ سُوقْغْ تُمْلُغْقا يَنكُرُشْدِى ol isig cywyg‘ tumlug‘qa yeŋshÿrdi – u issiq suvni sovuqqa aralashtirdi, suv ilidi (يَنكُرُشُرْ.يَنكُرُشْماكْ yeŋsho‘ro‘r, jeŋshÿrmäk).

---

[354] Hozirgi tildagi *ma’ramoq* ana shu o‘zakdandir. Lekin hozir, asosan, qo‘zi va sigir-buzoqlarga nisbatan, majoziy usulda odamga nisbatan qo‘llanadi. Navoiyda ham shunday qo‘llangan:

Hamal *mangrab* qo‘yub savr ollida bosh,
Ki bo‘lsak ikkimiz qurbon senga kosh.

* Olmaota nashrida: *maŋrash* – sochini yulishdi

** Olmaota nashrida: *muŋash.*

*** B.Radlovda: *valdiramoq, vaysamoq, g‘o‘ng‘iladi* – kishi ishlab turib o‘zicha valdiradi.

**** V.Radlovda: *jiŋšür.*

يَنكُفُرْدِى y a ŋ q u r d ï: اَرْ يَنكُفُرْدِى er yaŋqurdï – odam g‘oyibdan bir ovoz eshitganday yoki bir narsa sezganday o‘ngu chapga qaradi (يَنكُفُرْماقْ .يَنكُفُرارْ yaŋqurar, yaŋqurmaq).

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلادِى *fa’aldi* shaklidagi so‘zlar

د *(d)*

سُنكُدادِى s o ŋ d a d ï – so‘ngidan bordi. يَغينى سُنكُدادِى اُلْ o‘l yag‘ïnï soŋdadï – y dushman so‘ngidan bordi. Shuningdek, har narsani qo‘lga olish uchun u narsani ta’qib qilish, payiga tushishga ham bu so‘z qo‘llanadi (سُنكُداماقْ .سُنكُدارْ soŋdar, soŋdamaq).

مَنكُدادى m e ŋ d ä d i: اُلْ اَنِكْ سَجِنْ مَنكُدادى ol anïŋ sachïn meŋdädi – u uning sochini yuldi. She’rda shunday kelgan:

[LXXII]

اُذُمْ بَرِبْ سُنكدادى
تكر تُرب اَنددى
سَجن قرا مَنكُدادى
اَرْزُولَيُو اَرْ اَقارْ

Uzum barïp[355] sondadï
Tegrä turup aŋdïdï
Sachïn qara[356] meŋdädi
Arzulaju er awar.

---

[355] She’r parchasining I misrasida اُذُم بَرِبْ *uzum barïp* so‘zi رَكِبَ فى عَقِبِهِ deb, tarjima qilingan. Shunga ko‘ra, to‘g‘risi ايزو بَرِبْ *izÿ barip* – ketidan borib bo‘lishi kerak. Birinchi tomdagi مَنْ اَنِنكْ اُزو كَلدُم *men anïŋ uzu keldim* iborasi ham shunga dalildir (Qarang: “Devon...”, I jild. 114-b).

Ikkinchi misradagi تكر *tägr* so‘zi arabcha حَوْلَهُ deb tarjima qilingan bo‘lib, *tomon, atrof* ma’nosidadir. Bu ma’nodagi so‘z “Devon...”ning bir necha erida kelgan, har erda تكرا *tegrä* shaklida berilgan, to‘g‘risi ham shudir. To‘rtinchi misradagi اَرزُولَيُو *arzulaju* so‘zi arabcha اَوى بِيناتْ deb tarjima qilingan bo‘lib, *shaqal* – chiyabo‘ri, demakdir. Bu ma’nodagi so‘zning ارْزُولَيُو *apjylajy* ekani “Devon...”ning birinchi tomida keng izohlangan (Qarang: “Devon...”, I jild. 147-148-b.

[356] *Qara* so‘zini Basim Atalay قِرا *qïra* bo‘lishi muvofiq deb izoh bergan. Basim Atalay fikricha, *qirib yulish* tarzida ma’no berish uchun shunday shakl muvofiq (Qarang: “Devon...” tarjimasi, III jild. 401-b). Lekin *mendämäk*ning o‘zidan ana shu ma’no anglashiladi. Shuning uchun bu so‘z kengroq tekshirilishga muhtojdir.

Bir bekni enggan odam haqida aytadi: ketidan poylab bordi, hiyla bilan qo‘lga tushirish uchun odamlar uning atrofiga to‘plandilar, o‘rab oldilar. Odamlar uning sochlarini yuldilar.

Bu yerda xalqning to‘planishini chiyabo‘ri to‘planishiga o‘xshati-layotir. Chunki chiyabo‘rilar odamni yolg‘iz topsa, uning atrofini o‘rab olib eydilar (مَنكْدارْ .مَنكْداماكْ meŋdär, meŋdämäk). **(619)**

ر (r)

جِنكرَدِى j ï ŋ r a d ï – jing‘irlatdi. جِنكرَدِى اُلْ قُنكْراغُو o‘l qonrag‘u jïŋradï – u qo‘ng‘iroqni jingirlatdi (جِنكراماقْ .جِنكرارْ jïŋrar, jïnramaq).

سُنكْرادِى s u ŋ r a d ï: اَرْ ايشْقا سُنكْرادِى er ïshqa suŋradï – odam ishga sarkashlik qildi, so‘zni qaytardi (سُنكْراماقْ .سُنكْرارْ sunrar, suŋramaq).

قُنكْرادِى q o ŋ r a d ï – do‘rilladi, g‘o‘ng‘illadi. أغْلانْ اَونى قُنكْرادِى og‘lan ÿni qonradï – bolaning ovozi do‘rilladi. Bu (ovoz o‘zgarishi) balog‘atga etganda (paydo) bo‘ladi.

قُنكْرادِى q o ŋ r a d ï: قُوىُ قُنكْرادِى qoi qonradï – qo‘yning rangi qo‘ng‘ir bo‘ldi. (قُنكْراماقْ .قُنكْرارْ qoŋrar, qoŋramaq).

مَنكْرادِى m a ŋ r a d ï: اَرْ مَنكْرادِى er maŋradï – odam baqirdi. Boshqalari ham shunday (مَنكْراماقْ .مَنكْرارْ maŋrar, maŋramaq).

مُنكْرادِى m o ŋ r a d ï: اُودْ مُنكْرادِى uz moŋradï – ho‘kiz mo‘ladi (مُنكْراماقْ .مُنكْرارْ moŋrar, moŋramaq).

مَنكْزادِى m e n z ä d i* – o‘xshadi. بِيرْ نانكْ بِيرْكا مَنكْزادِى bir neŋ birgä meŋzädi – bir narsa bir narsaga o‘xshadi. (مَنكْزاماكْ .مَنكْزارْ meŋzär, meŋzämäk).

ل (l)

تَنكْلادِى t a ŋ l a d ï: اَرْ ايشِغْ تَنكْلادِى er ïshïg‘ taŋladi – odam ishga (holatga) hayron qoldi, tang qoldi (تَنكْلاماقْ .تَنكْلارْ taŋlar, taŋlamaq).

تَنكْلادِى t e ŋ l ä d i: بِيرْ نانكْ بِيرْكا تَنكْلادِى bir neŋ birgä teŋlädi – ikki narsani bir-biriga teng qildi* (تَنكْلاماكْ .تَنكْلارْ teŋlär, tenlämäk).

تِنكْلادِى t ï ŋ l a d ï: اَرْ سُوزْ تِنكْلادِى er söz tïŋladï – odam so‘z tingladi, so‘zga quloq soldi (تِنكْلاماقْ .تِنكْلارْ tïnlar, tïnlamaq).

سَنكْلادِى s a ŋ l a d ï: قُشْ سَنكْلادِى qush saŋladï – qush chichdi (سَنكْلاماقْ .سَنكْلارْ saŋlar, saŋlamaq).

---

* Olmaota nashrida: *ikki narsa bir-biriga tenglashdi.*

ر *(r)*

يَنكْرادِى y a ŋ r a d ï: اُلْ بِيرْ سُوزْ يَنكْرادِى o‘l bir söz jaŋpadï – u yashirish kerak bo‘lgan so‘zni so‘zladi, og‘zidan gulladi (يَنكْرارْ. يَنكْراماقْ yaŋpap, yaŋramaq).

ل *(l)*

يُنكْلادِى y y n l a d ï – yungini qirqdi. اُلْ قُويْنْ يُنكْلادِى o‘l qoyun yunladï – u qo‘yining yungini qirqdi. (يُنكْلاماقْ. يُنكْلارْ yuŋlar, yuŋlamaq).

HAR XIL HARAKATLAR BILAN QO‘LLANGAN فَعِيلادِى فعِيلادِى *FA’ILDI, FI’ILDI** SHAKLIDAGI SO‘ZLAR

تِنكِيلادِى t i ŋ i l ä d i: نانكْ تِنكِيلادِى neŋ tiŋilädi – (hovonchaga o‘xshash og‘ir bir) narsa erga tushib, ting‘illagan ovoz chiqardi (تِنكِيلاماكْ. تِنكِيلارْ tiŋilär, tiŋilämäk).

جَنكِيلادِى j a ŋ ï l a d ï: اِتْ جَنكِيلادِى it jaŋïladï – it akilladi, angilladi. Bu hurish ovozidan boshqachadir. Birov haddan ortiq haqoratli so‘zlar so‘zlasa, تِلْمْ جَنكِيلادِى *talïm jaŋïladïŋ* deyiladi – ko‘p akillading, demakdir (جَنكِيلاماقْ. جَنكِيلارْ jaŋïlar, jaŋïlamaq).

سُنكُولادِى s ö ŋ u l ä d i: اُلْ اَنى سُنكُولادِى o‘l anï soŋÿlädi – y unga nayza sanchdi (سُنكُولاماكْ. سُنكُولارْ söno‘lär, söŋulämäk).

سِنكِيلادِى s i ŋ i l ä d i: اِتْ سِنكِيلادِى it siŋilädi – it (sovuq va shunga o‘xshashlar alamidan g‘ing‘ishdi. Yana: سُوغْ سِنكِيلادِى cyw siŋilädi – suv **(620)** sovidi, hatto, muzlayozdi. Yana:قُلاقِمْ سِنكِيلادِى qulaqïm siŋilädi – qulog‘im shang‘illadi. (سِنكِيلاماكْ. سِنكِيلارْ siŋilär, siŋilämäk).

تُنكالادِى t o ŋ a l a d ï: اَرْ تُنكالادِى er toŋaladï – odam jasorat ko‘rsatdi (تُنكالاماقْ. تُنكالارْ tonalar, toŋalamaq).

مَنكِيلادِى m e ŋ i l ä d i: اَرْ مَنكِيلادِى er meŋilädi – odam miya (dimog‘) ni edi. Asli, to‘g‘ri ma’nosi shudir. So‘ng bu so‘z arablarning طُوبِيلَكْ iborasi o‘rnida qo‘llangan. Miya (ni olish) uchun qo‘y so‘yish kerak degan ma’nodadir. Bu qo‘yning eng qimmatli a’zosidir. Qo‘y so‘yib, miya taqdim qilish eng buyuk

* Olmaota nashrida shu shakl tushib qolgan.

hurmatdir. So‘ng bu so‘z oldiga yaxshi taom qo‘yilgan har bir odam uchun ham ishlatiladigan bo‘ldi. She’rda shunday kelgan:

[LXXIII]

اَنى يتبْ سُنكُولادِى
بَشِنْ يَنْدُرُو يَنكيلادِى
اَرَنْ بايْبْ مَنكِيلادِى
اَنِكْ اَلْبِنْ قَرا بُغْدِى

Anï yetip söŋÿlädi
Bashïn yandyry* yaŋïladï
Erän bayyp meŋilädi
Anïŋ alpïn qara bog‘dï.

Qo‘shinni enggan bir odamni ta’riflab aytadi: u unga etib oldi, nayza sanchdi, bitgan yarasini yana yangiladi, o‘lja mollarini odamlarga tarqatdi. Dushman botirlarini bo‘g‘di.

Bu bo‘limning misol turi

يَنكيلادِى y a ŋ ï l a d ï: اَلْ تُونِنْ يَنكيلادِى o‘l tonïn yaŋïladi – u to‘nini yangiladi. Boshqalari ham shunday (يَنكيلاماقْ. يَنكيلارْ yaŋïlar, jaŋïlamaq).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

يَشانكُرْدِى y a s h a ŋ u r d ï: اَنِكْ كُوزى يَشانكُرْدِى anïŋ közi yashaŋurdï – uning ko‘zi kun tig‘idan xiralandi, yoshlandi. (يَشانكُرْماقْ. يَشانكُرْ yashaŋur, yashaŋurmaq).

Bu bo‘limning besh harflilari

ر *(r)*

تُنكُرْلَنْدِى t ö ŋ ÿ r l ä n d i: اَلْ مَنكا تُنكُرْلَنْدِى o‘l meŋä tönÿrländi – u o‘zini menga quda hisobladi (تُنكُرْلَنْماكْ. تُنكُرْلَنُورْ tönÿrlänÿr, tönÿrlänmäk).

سِنكِرْلَنْدِى s i ŋ i r l ä n d i: اَتْ سِنكِرْلَنْدِى et siŋirländi – go‘shtda paylar ko‘paydi. Yana: يا سِنكِرْلَنْدِى ja siŋirländi – o‘qqa pay o‘raldi. Boshqalari ham shunday (سِنكِرْلَنْماكْ. سِنكِرْلَنُورْ siŋirlänur, siŋirlänmak).

---

* V.Radlov, Olmaota nashrida: *jandru.*

ز *(z)*

مَنكِزْلَنْدِى m e ŋ i z l ä n d i: كِشى مَنكِزْلَنْدِى kishi meŋizländi – odamning yuzi go‘zallashdi (مَنكِزْلَنْماكْ .مَنكِزْلَنُورْ meŋizlänur, meŋizlänmak).

مُنكُزْلَنْدِى m ö ŋ ÿ z l ä n d i – shoxlandi, shox chiqardi قُزى مُنكُزْلَنْدِى qozï möŋÿzländi – qo‘zi shoh chiqardi. Boshqalari ham shunday (مُنكُزْلَنْماكْ .مُنكُزْلَنُورْ möŋÿzläno‘r, möŋÿzlänmäk).

ك *(k)*

سُنكُوكْلَنْدِى s ö ŋ ÿ k l ä n d i: أُغْلانْ سُنكُوكْلَنْدِى og‘lan söŋÿkländi – bolaning **(621)** suyaklari kattalashdi. Boshqalari ham shunday (سُنكُوكْلَنْماكْ .سُنكُوكْلَنُورْ söŋÿklänur, söŋÿklänmäk).

ل *(l)*

كُنكُلْدِى k ö n o‘ l l ä n d i – ko‘ngil berdi, ko‘ngil qo‘ydi.

اَرْ اِيشْقا كُنكُلْدِى er ïshqa köŋÿlländi – odam ishga ko‘ngil berdi, ishlashga jazm qildi. Shuningdek, bolaning aqli kirsa, ziyraklashsa ham shu so‘z qo‘llanadi (كُنكُلْنْماكْ .كُنكُلْنُورْ köŋÿllänur, köŋÿllämak).

سِنكِلْدِى s i ŋ i l l ä n d i – singil tutindi. اُلْ قِيزِغْ سِنكِلْدِى o‘l qïzïg‘ siŋilländi – y qizga singil tutindi (سِنكِلْنْماكْ .سِنكِلْنُورْ siŋillänur, siŋillänmäk).

Bu bo‘limning to‘rt harflilari

تُنكُرْلادِى t ö ŋ ÿ r l ä d i: اُلْ مَنى تُنكُرْلادِى o‘l meni töŋÿrlädi – u meni o‘zining qudasiday hisobladi, meni kudaga nisbat berdi (تُنكُرْلاماكْ .تُنكُرْلارْ töŋÿrlär, töŋÿrlämäk).

سِنكَرْلادِى s ï ŋ a r l a d ï: اُلْ اَنى سِنكَرْلادِى o‘l anï sïŋarladï – u uni yordamchisiz, yolg‘iz bo‘lgani uchun zaif hisobladi va undan o‘ch oldi (سِنكَرْلاماقْ .سِنكَرْلارْ sïŋarlar, sïŋarlamaq).

سِنكِرْلادِى s i ŋ i r l ä d i: اُلْ ياسِنْ سِنكِرْلادِى o‘l yasïn siŋirlädi – u yoyiga pay qopladi. Boshqalari ham shunday (سِنكِرْلاماكْ .سِنكِرْلارْ siŋirlär, sinirlämäk).

كَنكِرْسِيدِى k e ŋ i r s i d i: اَشِجْ كَنكِرْسِيدِى ashïch keŋirsidi – qozon tagidagi narsa kuyib, hidi chiqdi (كَنكِرْسِيماكْ .كَنكِرْسِيرْ keŋirsir, keŋirsimäk).

ك *(k)*

بَلِنكْلادِى b a l ï ŋ l a d ï: اَرْ بَلِنكْلادِى er balïŋladï – odam (o‘zida yuz bergan biror qo‘rquv sababli uyqusidan) cho‘chib uyg‘ondi.

Shuningdek, hayvon to‘satdan cho‘chib sakrasa, qochsa ham bu so‘z qo‘llanadi (بَلِنكْلاماقْ .بَلِنكْلارْ balïŋlar, balïŋlamaq).

تُلُنكْلادِى t o l u ŋ l a d ï: أُلْ قُلِنْ تُلُنكْلادِى o‘l qolïn toluŋladï – y qo‘lini qulining engagiga, qulog‘ining ostlariga urdi (.تُلُنكْلارْ تُلُنكْلاماقْ toluŋlar, toluŋlamaq).

Bu bo‘limning besh harflilari

ك *(k)*

سَرِنگُولادِى s a r ï ŋ u l a d ï*: اَرْ سَرِنگُولادِى er sarïŋuladï – odam muzga toydi. Boshqalari ham shund (سَرِنگُولاماقْ .سَرِنگُولارْ sarïŋular, sarïŋulamaq).

سَلِنگُولادِى s a l ï ŋ u l a d ï: أُزُمْ سَلِنگُولادِى ÿzÿm salïŋuladï – ishkomda uzum salanglab osilib turibdi. Har narsa balanddan pastga osilib tursa ham salinguladi so‘zi qo‘llanadi.

سَلِنگُولادِى s a l ï ŋ u l a d ï – tosh bilan urdi. اَرْ اِتِغْ سَلِنگُولادِى er ïtïg‘ salïŋuladï – odam itni tosh bilan urdi (.سَلِنگُولارْ سَلِنگُولاماقْ salïŋular, salïŋulamaq).

قَلِنگُولادِى q a l ï ŋ u l a d ï: اَرْ سُقدا قَلِنگُولادِى er cywda qalïŋuladï – odam suv ustida qalqib turdi**. Bu oyoqlari bilan tepinib, tizzalarini harakatlantirib, suvda tik turishdir (قَلِنگُولارْ .قَلِنگُولاماقْ qalïŋular, qalïŋulamaq).

يَنگُقُولادِى y a ŋ q u l a d ï; تاغْ يَنگُقُولادِى tag‘ yaŋquladï – tog‘ aks sado berdi. Bu sen chiqargan tovushning aksi aynan o‘zingga qaytib eshitilishidir.

يَنگُقُولادِى y a ŋ q u l a d ï: اَرْ قُلاقى يَنگُقُولادِى er qulaqï yaŋquladï – odam, qulog‘i biror tovush eshitganday yoki biror narsa sezganday bo‘lib, o‘ngga, chapga qaradi. (يَنگُقُولارْ .يَنگُقُولاماقْ yaŋqular, yaŋqulamaq).

يَلِنگُولادِى y a l ï ŋ u l a d ï***: قِيزْ يَلِنگُولادِى qïz yalïŋuladï – qiz ikki tomoni ikki narsaga bog‘langan arqonda (arg‘imchoqda) o‘ynadi. Boshqalari ham shunday (يَلِنگُولارْ .يَلِنگُولاماقْ yalïŋular, yalïqulamaq).

---

* V.Radlovda: *seriŋülä;* Olmaota nashrida: *sirŋÿlä.*

** Olmaota nashrida: *odam suvda suzdi.*

*** Olmaota nashrida: *yalŋÿlä.*

ئۆنجكالادِى y i n ch k ä l ä d i – ingichka deb hisobladi. ئۇ نانكنى ئۆنجكالادِى o'l neŋni yinchkälädi – u narsani ingichka deb hisobladi. Narsani ingichka qilsa ham bu so'z qo'llanadi (ئۆنجكالاماك. ئۆنجكالار yinchkälär, yinchkälämäk).

To'rt harflilarning muzoafi

ك *(k)*

تېرىڭكۈلەندى t e r i ŋ ÿ k l ä n d i*: سۇغ تېرىڭكۈلەندى cyw teriŋÿklandi – suv chuqurlashdi, ko'paydi (تېرىڭكۈلىنىماك. تېرىڭكۈلىنۈر teriŋÿklänÿr, teriŋÿklänmäk).

كۆڭكۈلەندى k ö ŋ l ä k l ä n d i: ئەر كۆڭكۈلەندى er köŋläkländi – odam ko'ylak kiydi. Boshqalari ham shunday (كۆڭكۈلەنمەك. كۆڭكۈلەنۈر köŋläklänÿr, köŋläklänmäk).

G'unnalilar bo'limi tugadi. Tangriga shukur.

---

* Radlovda: *tarŋukla* – suv er ostidan qaynab chiqdi.

Bismillohi-r-rahmoni-r-rahim

IKKI SUKUN QATOR SO‘ZLAR BO‘LIMI
[Sakkizinchi kitob]

Ismlar bobi

ك *(k)*

الدرك e l d r ÿ k – yuz erlik deyilgan bir xil o‘simlik[322] isiriq.

ن *(n)*

أرتمان ö r t m ä n – uy usti, tom.

ارتگون ö r t g ÿ n – arpa, bug‘doy g‘arami*.

ارسلان a r s l a n – arslon. Shohlar ham shu so‘z bilan ataladi. Maqolda shunday kelgan:

اَلين اَرْسْلانْ تُتارْ كُوچِنْ سِجْغانْ تُتْماسْ

Alïn arslan tutar kÿchin sïchg‘an tutmas

Hiyla-tadbir bilan arslonni tutish mumkin bo‘lsa, kuch bilan sichqonni ham tutish mumkin bo‘lmaydi. Bu maqol ishlarda zo‘ravonlik yo‘lini tutmay, yaxshi tadbir ko‘rishi lozim bo‘lgan kishilarga nisbatan qo‘llanadi.

م *(m)*

اَلْدُرُمْ o l d u r u m – odamning o‘tiradigan eri**.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

تُرْكْمانْ t ÿ r k m ä n – bular o‘g‘uzlardir. Ularning bu nom bilan atalishi borasida bir hikoya – rivoyat bor: Zulqarnayn Samarqanddan o‘tib, turklar yurtiga qarab yo‘l olgan vaqtlarda **(623)** turklar shohi شُو Shu nomli yosh bir odam edi. Uning katta qo‘shini bor edi. Balasog‘un yaqinidagi شُو Shu shahrini mazkur shoh fath qilgan, qurdirgan ekan. Bu shaharda har kun beklar uchun uch yuz oltmish marta dovul chalinar edi. Kimdir unga:

---

[322] Bu so‘z qashg‘arliklar tilida يذغ ات *chïzïg‘ öt,* uch va borsag‘onliklar tilida اَلدُرُك *eldÿrÿk*, o‘g‘uzlar tilida يُوز اَرْلِك *jÿz erlik* so‘zlari bilan ifodalangan.

* Olmaota nashrida: *g‘aram, uyum.*

** B.Radlovda: *shol bo‘lgan kishi.*

“Zulqarnayn yaqin kelib qolibdi, bizlar u bilan urushamizmi, nima chora buyurasiz?” – debdi.

Shoh Shu esa Zulqarnayn kelayotganini oldinroq eshitib, uning Xo‘jand daryosidan o‘tganini bilib xabar berish uchun خَجَنْدْ bir guruh ayg‘oqchilar yuborgan edi. Lekin ayg‘oqchilar yashirincha ketgan edilar. Shoh askarlaridan biror kishi ham (bularning ketganini) bilmas edi. Shohning ko‘ngli bu yuzadan tinch edi. Shohga Zulqarnayn bilan kurashamizmi deb savol berganlarga o‘zining kumush hovuzini ko‘rsatib: “G‘oz, o‘rdaklarga qaranglar, ular suvga qanday sho‘ng‘ishadi”, – dedi. Shohning kumushdan yasalgan katta idishi bor edi. Safarga chiqishda shoh uni o‘zi bilan eltar edi. Unga suv to‘ldirilgach g‘oz, o‘rdaklar unga sho‘ng‘ishar edi. U bilan urushamizmi, nima buyurasiz, degan savolga shoh bergan javob odamlarni o‘ylatib qo‘ydi. Ular bu gapdan: „Shoh u (Zulqarnayn) bilan urushmoqchi ham emas, biror yoqqa chekinmoqchi ham emas”, deb gumon qildilar. Zulqarnayn daryodan o‘tdi. Ayg‘oqchilar uning o‘tganini shohga kechasi kelib etkazdilar. Shoh kechasiyoq dovul chaldirdi va SHarq tomonga yo‘l oldi. Shohlari hozirliksiz yo‘lga chiqqanidan xalq orasida, biror ko‘ngilsizlik yuz bermasa edi, degan tashvish paydo bo‘ldi. Ulov topganlar shoshilgancha uning ustiga tashlanib, xoqon orqasidan yurdilar. Shoshganliklaridan u buning ulovini, bu uning ulovini olishar edi. Tong otganda lashkargoh bo‘m-bo‘sh erga aylandi. U vaqtlarda طِرازْ Tïraz, اِسْپِجابْ Ispïjab, بَلاساغُونْ Balasog‘un va boshqa shaharlar bino qilinmagan edi. Bularning hammasi so‘ng bino qilingandir. U erdagilar o‘sha chog‘da chodir-o‘tovlarda yashovchi ko‘chmanchilar edi.

Shoh va uning qo‘shinlari kechasi to‘satdan ketganda, ular bilan birga ketish uchun ulov topolmay, yigirma ikki kishi oilalari bilan u yerlarda qolib ketgan edi. **(624)** Men ularning nomlarini kitob boshida ko‘rsatganman. Ularning qora mollarining tamg‘alarini ham u yerda bayon qilganman. Chunonchi: قِنِقْ *qïnïq,* سَلْغُرْ *salg‘ur* va boshqalar shular jumlasidandir. Bu yigirma ikki oila ular orqasidan yayov borish yoki o‘z joylarida tura berish haqida maslahat qilayotgan vaqtda, bular yoniga ikki kishi kelib qo‘shiladi. Oilalari ham ular bilan birga edi. Ular yuklarini orqalariga ortib olgan holda qo‘shin orqasidan borayotgan edilar.

Ular charchab qiynalgan, og‘ir yuk ko‘tarishdan terga tushgan edilar. Bu ikki oila, qolib ketgan yigirma ikki oilaga yo‘liqqach, ular bilan so‘zlashdilar. Qo‘shin ketidan borish-bormaslik to‘g‘risida kengashdilar. Ikki oila ularga aytdi: Ey odamlar, Zulqar nayn yo‘lovchi safarga chiqqan odamdir. U bir yerda turmaydi. Bizning yerlarda qolib ketmay, o‘tib ketadi. O‘z erimizda o‘zimiz qolamiz”. Ular ikki oilaga aytdilar: قَالْ أَجْ qal ach – *shu yerda turinglar, och qolinglar*, demakdir. So‘ngroq ular خَلَجْ *xalach* deb aytilganlar. Xalachlarning asli shudir. Ular ikki qabiladir.

Zulqarnayn kelgach, bular unga idrokli odamlar ko‘rindi. Ularda turklarning nishonasi bor edi. Ulardan so‘ramasdan ilgariyoq تُرْكُمانْ أَنْدْ *tyrkmonand* dedi. Bular turklarga o‘xshashdirlar[323], demakdir. Shundan so‘ng bu so‘z hanuzgacha ularga nom bo‘lib qoldi. Aslida ular yigirma to‘rt qabiladir. Lekin xalachlardan ikki qabila ba’zi sabablardan o‘zlarini bulardan ayiradilar. Shuning uchun ular o‘g‘uzlardan hisoblanmaydi. Asli, to‘g‘risi, shudir.

Shoh Shu Chinga etdi. Zulqarnayn uning orqasiga tushgan edi. Uyg‘urlarga yaqin bir yerda Shu Zulqarnaynga askar yubordi. Bu to‘qinish اَلْتُونْ قانْ *Altunqon* deyilgan bir tog‘da bo‘lgan edi. Bu hozir اَلْتُونْ خانْ Altunxan deyilgan tog‘ nomidir. So‘ng Zulqarnayn Shu bilan sulh tuzdi. So‘ng uyg‘ur shaharlarini bino qildi. Bir qancha vaqt shu yerda turdi. Zulqarnayn qaytib ketgach, Shoh Shu Balasog‘unga qadar olg‘a bosdi. **(625)** O‘z nomi bilan atagan Shu shahrini qurdirdi. U erga bir tilsim qurishga buyurdi. Hozirga kelib, laylak u tilsimli shahar ro‘parasida to‘xtab qoladi, undan o‘ta olmaydi. Tilsim hozirga qadar buzilmay saqlangandir.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ش *(sh)*

سَنْدْرُشْ s a n d r u sh – tortishuv. Maqolda shunday kelgan:

سَبَنْدا سَنْدْرُشْ بُلْسا أُرْتَكُونْدا اِرْتاشْ بُلْماسْ

Sabanda sandrush bolsa, örtgўndä ïrtash bolmas

---

[323] *Tўrkmanänd* tarzida yozilgan so‘z turkmanlar, demakdir. Holbuki, bu so‘z هشابهون الترك deb tarjima qilingan, turklarga o‘xshovchilar, demakdir. Bu ma’nodagi so‘z تُرْكُمانَنْدْ *turkmonand* shaklida berilishi kerak edi.

Ekish davrida tortishuv (kelishish) bo‘lsa, xirmon vaqtida janjal, kelishmovchilik bo‘lmaydi.

Bu maqol, ish ustida oldin puxta tadbir ko‘rish zarur degan ma’noda qo‘llanadi.

ق (q)

بُرْسُماق [324] b u r s u m a q – kichik jonivor, bo‘rsiq. Bu so‘zni semizlarga nisbat berib qo‘llash keng tarqalgan. O‘g‘uzlar bu so‘zdan م ni tushirib بُرْسُقْ *borsuq* shaklida qo‘llaydilar. Lekin o‘g‘uzlar boshqa turkiy qabilalar tilida بَشْقْ *bashaq* shaklida qo‘llanuvchi so‘zga م orttirib, بَشْمَقْ *bashmaq* shaklida qo‘llaydilar.

قلدرق q ï l d r u q – bug‘doy uchidagi qilsimon qism. Boshqalari ham shunday.

قُرقُلُقْ q o r q l u q*: قُرقُلُقْ اَرْ qorqluq er – qo‘rqoq odam.

ل (l)

تُرْتِكُلْ t ö r t k ÿ l**: تُرْتِكُلْ اَفْ törtkÿl – to‘rt burchak uy. Har bir to‘rt burchak narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

ن (n)

بَرْسغانْ B a r s g‘ a n – Alb Erto‘nga o‘g‘lining nomi. Barsg‘an shaharini bino qilgan shudir. Mahmudning otasi shu shahardan-dir. Ba’zilar: uyg‘ur begi otboqarining nomi Barsg‘an bo‘lib, bu erning havosi yaxshi bo‘lgani uchun, u otlarini shu yerda boqar edi. So‘ng shahar unga nisbat berilib, *Barsg‘an deb ataldi*, deydilar.

بُرْسْلانْ b u r s l a n – bu so‘zning asl ma’nosi qoplon***, demakdir. Shuning uchun ham اَرْسْلانْ بُرْسْلانْ *arslan burslan* tarzida qo‘llash bor arslon va qoplon, demakdir.

بُرْسْلانْ B u r s l a n – erkak nomlaridan. *Burslan* so‘ziga (mustaqil so‘z emas) arslonning ergashma so‘zi deb qarash ham mumkin. Chunki ular اَرْسْلانْ بُرْسْلانْ– *arslan burslan* shaklida birga qo‘llanadi, بُرْسْلانْ *burslan* shaklida alohida qo‘llanmaydi. Lekin to‘g‘rirog‘i, bu so‘z ergash so‘z bo‘lmay, *qoplon* ma’nosidagi mustaqil so‘zdir. Chunki ergash so‘z bo‘lganda, بُرْسْلانْ *burslan*

---

[324] Bu so‘z bosma nusxada بُرسُمُقْshaklida berilgan. Holbuki, bu bo‘lim ikki sukunli harf yonma-yon kelgan so‘zlar bo‘limi edi. U holda *bursmaq* shaklida bo‘lishi muvofiqdir.

* Olmaota nashrida: *kurklik.*

** B.Radlov, Olmaota nashrida: *törtkil.*

*** Olmaota nashrida: *yo‘lbars.*

odam oti bo‘lishi mumkin bo‘lmas edi. Chunonchi, arabchada ham حَسَنْ بَسَنْ deyilib,

هذا شَيْءٌ بَسَنْ shaklida qo‘llamaydilar.

قِرْقُلُمْ q ï r q l u m*: قِرْقُلُمْ ساغُو qïrqlum sag‘u – sochma moddalar o‘lchov birligi, limmo-lim bo‘lganda 16,48 *l* ga to‘g‘ri keladi.

Bu bo‘limning olti harflilari

اِكِرجْكُونْ i k i r c h g ÿ n: اِكِرجْكُونْ اِيشْ ikirchgÿn ïsh – qilish-qilmaslik ustida qat’iyatsizlik, **(626)** ikkilanib qolingan ish. Chunonchi: كُنكُلُمْ اِكِرجْكُونْ بُلْدِى kөŋlum ikirchgÿn boldï – ishga kirishishga ko‘nglim ikkilanib qoldi.

كُكُرجْكُونْ k ö k ÿ r c h g ÿ n – kaptar.

Bu bo‘limning fe’llari

ق *(q)*

اَلْقْتى a l q t ï: اَلْ تَوارِنْ اَلْقْتى o‘l tavarïn alqtï – u molini yo‘q qilib yubordi. Bashqalari ham shunday (اَلْقارْ. اَلْقْماقْ alqar, alqmaq). Bilgilki, ikki sukunli undosh yonma-yon kelgan so‘zlar ozdir. Chunki ikki sukunli so‘zlarning yonma-yon kelishi faqatgina ذلادى harflari deyilgan uch harf ن، ل، ر lar bilan qo‘shilib kelgandagina mumkin. Bu hol ism va fe’llarda keng qo‘llanuvchi qoidadir.

Ikki sukunlilarning yonma-yon kelishi faqat ana shu undoshlarga bog‘liqdir. Bu undoshlar talaffuzi og‘ir so‘zlarni yengillatadi. Ikki undosh bir harf holiga o‘tadi. Shuning uchun shoirlar bularni bir undosh qatorida qo‘llashlari mumkin (vaznga zarar kelmaydi).

ك *(k)*

اُرْكْتى ÿ r k t i – hurkdi[357]. قُوىْ اُرْكْتى qo‘y ÿrkti – qo‘y kechasi yoki kunduzi chiyabo‘ri (yoki shunga o‘xshashlar)dan hurkdi. بُدُونْ اُرْكْتى budun ÿrkti – xalq dushman kelishidan cho‘chidi. Odamlar orasida vahima paydo bo‘ldi (اُرْكْماكْ. اُرْكارْ ÿrkär, ÿrkmäk).

اِرْكْتى i r k t i – to‘pladi آرْ تُوارْ اِرْكْتى er tavar irkti – odam mol to‘pladi. Boshqalari ham shunday (اِرْكْماكْ. اِرْكارْ irkär, irkmäk).

---

* Olmaota nashrida: *kirklim*.

[357] Navoiyda *hurkmoq* so‘zi aynan shunday qo‘llangan:

Farqingki emish qush oshyoni,
Kim *urkitur* erkin akdin oni.

ج *(ch)*

سُرْجْدِى s ö r c h d i – اَتْ سُرْجْدِى at sörchdi – ot cho‘chidi*. Boshqalari ham shunday (سُرْجْماكْ .سُرْجارْ sörchär, sörchmäk).

سَنْجْدِى s a n c h d ï: اُلْ اَنى بِجاكِنْ سَنْجْدِى o‘l ani bichäkin sanchdï – u uni pichoq bilan urdi. Boshqalari ham shunday.

سَنْجْدِى s a n c h d ï – engdi**. بَكْ يَغِسِنْ سَنْجْدِى beg yag‘ïcïn sanchdï – bek dushmanini engdi (سَنْجْماقْ .سَنْجارْ sanchar, sanchmaq).

س *(s)*

كُرْسْدِى g o‘ r s d i***: يِكِتْ قانْكا كُرْسْدِى yigit qaŋqa gÿrsdi – yigit qonga to‘ldi, semirdi. Undan erkaklik alomatlari ko‘rinib qoldi. Bu so‘zning dastlabki ma’nosi xamir va shunga o‘xshash narsalarni idish (tog‘ora)ga to‘ldirib solingach, bir oz vaqt o‘tishi bilan, agar xamirturush yaxshi bo‘lsa, kepchib idishdan oshib-toshishi ma’nosidadir. Buning asli takabbur, mag‘rur odam ma’nosidagi kur bo‘lib, ismga سادِى *sadï* qo‘shib yasalgan fe’ldir. Ma’nosini yuqorida bayon qilganmiz (كُرْساماكْ .كُرْسارْ gÿrsär. gÿrsämäk). **(627)**

ق *(q)*

سَرْقْدِى s a r q d ï – silqidi, sirqidi, sizdi. سُوڤْ سَرْقْدِى cyw sarqdï – suv sirqidi. Shuningdek, har bir suyuq narsa bir narsadan tomchilab sizsa ham bu so‘z qo‘llanadi.

سَرْقْدِى s a r q d ï – uyushdi. اَذاقِمْ سَرْقْدِى azaqïm sarqdï – otni minishdan charchab, oyog‘im uyushdi (سَرْقْماقْ .سَرْقارْ sarqar, sarqmaq).

قُرْقْدِى q o r q d ï – qo‘rqdi. قُلْ تَنكْرِيدَنْ قُرْقْدِى qul Teŋridän qorqdï – qul ulug‘ Tangridan qo‘rqdi. Har kim biror narsadan qo‘rqsa ham bu so‘z qo‘llanadi (قُرْقْماقْ .قُرْقارْ qorqar, qorqmaq).

Maqolda shunday kelgan

قَرى اُكُزْ بَلْدُوقا قُرْقْماسْ

Qarï ökÿz balduqa qorqmas

---

* V.Radlovda: *sürĕdi* – (ot) qoqildi.

** Olmaota nashrida: *hujum qildi.*

*** V.Radlov, Olmaota nashrida: *kürs.*

Qari ho‘kiz boltadan qo‘rqmaydi. Chunki u odatlangandir[325]. She’rda shunday kelgan:

[LXXIV]

قُرْقْما اَنكَرْ اُتْرُو تُرُبْ تَكْرا يِر
قَبْسا اَنِكْ اَلْبَغْتِنْ اَنْدَنْ يِرا

Qorqma aŋar otru turub tegra yÿrä
Qapsa anïŋ alpag‘utïn andan yyra.

Dushmandan qo‘rqma, uni qarshi o‘l, uning yonida tur, botirlarini uloqtirib tashla, qog‘ozni g‘ijimlagandek g‘ijimlab tashla.

قِرْقْدِى q ï r q d ï: اُلْ قُوئِنْ قِرْقْدِى o‘l qojun qïrdï – qo‘yning yungini qirqdi. Boshqalari ham shunday (قِرْقْماقْ .قِرْقارْ qïrqar, qïrqmaq).

سِلْكْدِى s i l k d i: اَرْ يِغاجْ سِلْكْدِى er yïg‘ach silkdi – odam daraxtni silkitdi. Boshqalari ham shunday (سِلْكْماكْ .سِلْكارْ silkär, silkmäk).

Bu bo‘limning to‘rt harflilari

ر *(r)*

اَنْدْغَرْدِى a n d g‘ a r d ï : اُلْ اَنى اَنْدْغَرْدِى o‘l anï andg‘ardï – u unga qasam ichtirdi (اَنْدْغَرْماقْ .اَنْدْغَرْرْ andg‘arur, andg‘armaq).

كُنْدْكَرْدِى k ÿ n d g ä r d i: اُلْ يِغاجْ كُنْدْكَرْدِى o‘l yïg‘ach kÿndgardi – u yog‘ochni tiklab qo‘ydi. Boshqalari ham shunday. اُغْرِينى كُنْدْكَرْدِى og‘rïnï kÿndgärdi – o‘g‘rini iqror qildirdi. اُلْ اَنى يُولْقا كُنْدْكَرْدِى o‘l anï yolqa kÿndgärdi – u uni yo‘lga boshladi. Boshqalari ham shuday (كُنْدْكَرْماكْ .كُنْدْكَرْرْ kÿndgÿrÿr, kÿndgÿrmäk).

ن *(n)*

كِرْتْكُنْدِى k i r t g ÿ n d i: قُلْ تَنكْرِيكا كِرْتْكُنْدِى qul Teŋrigä kirtgÿndi – qul ulug‘ Tangrining birligiga iqror bo‘ldi va Xudoning payg‘ambariga ham ishonch bildirdi, tasdiqladi. Shuningdek, odam aytganiga yoki qilgan ishiga iqror bo‘lsa ham bu so‘z

[325] Basim Atalay nusxasida bosma nusxada bo‘lmagan quyidagi jumlalar orttirilgan: bu maqol odatlangan narsasi bilan qo‘rqitmoqchi bo‘lgan kishiga nisbatan qo‘llanadi. Chunki u odam qari ho‘kiz boltaga odatlangani kabi, qo‘rqitilgan narsaga odatlangandir (Qarang: “Devon...” tarjimasi, III jild. 422-b).

qo‘llanadi (كِرْتْكُنُورْ. كِرْتْكُنْماكْ kirtgÿnÿr, kirtgÿnmak). Bu bo‘limdagi buyruq mayli so‘zlari besh harflidir. Chunonchi, يِغاجْ كُنْدْكُرْ yïg‘ach kÿndgÿr – yog‘ochni tikla, **(628)** تَنْكْريكا كِرْتْكُنْ Teŋrigä kirtgÿn – *ulug‘ Tangriga ishon* gaplaridagi buyruqlar kabi.

Bu fe’llardan ikkinchi bir ishlovchiga o‘tuvchi o‘timli fe’l yasash uchun o‘zakka bir ت– t orttirish usuli qo‘llanadi. U vaqt fe’lda ikki sukunli undoshning yonma-yon kelish holati paydo bo‘ladi. Chunonchi: اُلْ نانكْ بَرْكُلْتّى o‘l neŋ berklätti – u narsani saqlashga buyurdi. Yana: اُلْ يِغاجْ كُنْدْكَرْتّى o‘l yïg‘ach kÿndgartti – u yog‘ochni tiklashga buyurdi kabi. Boshqalari ham shunday.

O‘timli fe’l yasovchi ت ning ر bilan qo‘shilib hosil qilgan تُر tur, غ ning ر bilan qo‘shilib hosil qilgan غُر-*g‘ur,* ك ningر bilan qo‘shilib hosil qilgan كُر -*ko‘r//-go‘r* qo‘shimchalari bu bo‘limda ko‘rilmaydi. Chunonchi: بَرْتُرْدِى barturdï – bordirdi, اُلْ اَنى تُدْغُرْدِى o‘l anï todg‘urdï – u uni to‘yg‘izdi, تَنْكُرى اُلْكْ تِرْكُرْدِى Tenrï ö1ÿk tirgÿrdi – Xudo o‘likni tirgizdi gaplaridagi تُر-*typ,* غُر-*g‘ur,* كُر-*ko‘r//go‘r* qo‘shimchalari kabi.

Bu bo‘limning muzoaflari

ك *(g)*

تِرْسْكاكْ t i r s g ä k – ko‘z qovog‘ining chetlariga, ya’ni kiprik chiqadigan joylarga chiqadigan mayda-mayda chiqiq, husnbuzar.

تِرْسْكاكْ t i r s g ä k – tirsak.

Muzoaf ismlarida o‘rtasida sukunli undoshlar bo‘lmaydi. Faqat مَكّه*makkah* so‘zigina o‘rtasi sukunlidir. Bu so‘zda ikki ك– *k* bordir. Makkah – Chindan keltiriladigan bir xil siyohdir*. Turkiy yozuvlar shu (siyoh) bilan yoziladi. So‘z oxiridagi ه ning asli الف dir.

O‘rtasi sukunlilar to‘rttadan ortiq undoshli so‘zlarda bo‘lmaydi.

* Olmaota nashrida: *makkax, Sindan o‘zlashtirilgan va turkiy kitoblarda ishlatiladigan yozuvdir.*

Bu bo‘limning fe’llari

ت *(t)*

اَرْتِّى a r t t ï – ortdi. اَرْتِّى نانڭ arttï neŋ – narsa ortdi اَنِڭ اَياڭوسى اَرْتِّى anïŋ – äyägÿsi arttï – uning qovurg‘asi ortdi. Bu gap katta ketishga qarshi bir kinoyadir (اَرْتَماقْ .اَرْتارْ artar, artmaq).

ت *(t)*

اُرْتِّى ö r t t i – yopdi, bekitdi, yashirdi. اُرْتِّى نانڭنى اُلْ o‘l örtti neŋnï – u narsani bekitdi (اُرْتَماكْ .اُرْتارْ örtar, örtmäk).

اَرْتِّى ertti – o‘tdi. اَرْتِّى اُدْلَكْ özläk* ertti – zamon o‘tdi. اَرْ اَفْتِدَنْ اَرْتِّى er ashindän ertti** – odam uyidan o‘tdi. Biror erdan o‘tib ketgan har bir kishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (اَرْتَماكْ .اَرْتارْ ertär, ertmäk).

بَرْتِّى b e r t t i: اُلْ اَنِكْ اَلِكِنْ بَرْتِّى o‘l anïŋ eligin bertti – u uning qo‘lini mayib qildi. Birov bilmay yaralasa yoki narsani sindirsa ham bu so‘z qo‘llanadi (بَرْتَماكْ .بَرْتارْ bertär, bärtmäk).

تُرْتِّى t ÿ r t t i – surtdi. كُونكا ياغْ تُرْتِّى könä yag‘ tÿrtti – ko‘nga yog‘ surtdi. Har bir narsani surtishga ham bu so‘z qo‘llanadi (تُرْتَماكْ .تُرْتارْ tÿrtär, tÿrtmäk).

تَرْتِّى t a r t t ï – tortdi. اُلْ يَرْماقْ تَرْتِّى o‘l yarmaq tarttï – u tangani tortdi, o‘lchadi. Boshqalari ham shunday.

تَرْتِّى t a r t t ï – cho‘zdi. اُلْ پِبْ تَرْتِّى o‘l yïp tarttï – u **(629)** ipni cho‘zdi. Boshqalari ham shunday.

تَرْتِّى t a r t t ï: اُلْ تَرْتِنْ تَرْتِّى o‘l tartïn tarttï – u taom tortdi, keltirib qo‘ydi. Har narsaning tortilishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (تَرْتَماقْ .تَرْتارْ tartar, tartmaq).

تَرْتِّى t a r t t ï – tortmoq, echmoq. اُلْ اَتُوكِنْ تَرْتِّى o‘l etÿgin tarttï – u etigini tortdi.

Maqolda shunday kelgan:

سُوفْ كُرْماكِنْجا اَتَكْ تَرْتْما

Suf körmägінchä etÿk tartma

Suv ko‘rmasdan oldin etikni echma.

Bu maqol ishlarda mulohazali bo‘lishga undalgan kishilarga nisbatan qo‘llanadi.

---

* Olmaota nashrida: *o‘zluk.*

** Olmaota nashrida: *ar avdin artti.*

جَرْتّى j ä r t t i: اُلْ جَرْتّى نانكْنى o‘l jäptti neŋni – u narsani qutqardi, bo‘shatdi.

جَرْتّى j ä r t t i – sindirdi. اُلْ يَرْماقْ اُوجُنْ جَرْتّى o‘l yarmaq uchïn järtti – u tanga chetini sindirdi. Atrofi sindirilgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi (جَرْتْماكْ .جَرْتارْ järtär, järtmäk).

سُرْتّى s ÿ r t t i: اُلْ اَتْمَكّا ياغْ سُرْتّى o‘l etmäkka yag‘ sÿrtti – u nonga yog‘ surdi.

سُرْتّى s u r t t i – surkadi. اُلْ يَرْماقْغْ تاشْقا سُرْتّى o‘l yarmaqïg‘ tashqa sÿrtti – y tangani toshga surkadi. Boshqalari ham shunday (سُرْتْماكْ .سُرْتارْ sÿrtar, sÿrtmak).

كَرْتّى k e r t t i – kertdi. اُلْ يِغاجْ كَرْتّى o‘l yïg‘ach kertti – u yog‘och kerti. Boshqalari ham shunday. اُلْ قِلِنْ بُيْنى كَرْتّى o‘l qulïn bojnï kertti – u qulining bo‘ynini kertdi (tamg‘a bosdi). Bu qulni xo‘rlash, tahqirlashga ishoradir (كَرْتْماكْ .كَرْتارْ kertär, kertmäk).

Bu bo‘lim so‘zlarining buyruq shakli uch harflidir. Chunonchi: اَرْتْ ert – o‘tgil, كَرْتْ kert – *kert* kabi. Bu fe’llar aslida uch harfli bo‘lib, talaffuzda esa ikki harflidir. Har xil sarflanish (fe’l turlari) yuqorida bayon qilingan qoidaga muvofiq tuziladi.

Bu bo‘limning to‘rt harflilari

اُبْرْتُمْ ö p ÿ r t t ÿ m: مَنْ اَنكَرْ سُوغْ اُبْرْتُمْ men aŋar suf öpÿrttÿm – men uni suv ichishga buyurdim, suv ichirtirdim. Boshqalari ham shunday (اُبْرْتْماكْ .اُبْرْتُرْمَنْ öpÿrtÿrmän, öpÿrtmäk).

اَسْرْتّىe s ÿ r t t i – mast qildi. سُجْكْ اَنى اَسْرْتّى sÿchik anï esÿrtti – sharob uni mast qildi (اَسْرْتْماكْ .اَسْرْتُرْ esÿrtÿr, esÿrtmäk).

اِسِرْتّى ï s ï r t t i – tishlatdi. اُلْ اَنكَرْ اَتْماكْ اِسِرْتّى o‘l aŋar etmäk ïsïrttï – u unga non tishlatdi. Boshqa bir narsalarni tishlagan tishga ham bu so‘z qo‘llanadi (اِسِرْتْماقْ .اِسِرْتُرْ ïsïrtÿr, ïsïrtmäq).

اِكِرْتّى e g i r t t i – yigirtirdi. اُلْ كُنكا يِبْ اِكِرْتّى o‘l go‘ŋgä yïp* egirtti – u cho‘risiga ip yigirtirdi. Qo‘rg‘onni qo‘lga olish uchun qamal qilishga buyurilganda ham shu so‘z qo‘llanadi (.اِكِرْتُورْ اِكِرْتْماكْ egirtÿr, egirtmäk).

اَلَرْتّى a l a r t t ï – olaytirdi. اُلْ اَنكَرْ كُوزِنْ اَلَرْتّى o‘l aŋar közin alarttï – u unga ko‘zini yomon olaytirdi (اَلَرْتْماقْ .اَلَرْتُرْ alartur, alartmaq).

---

* V.Radlov, Olmaota nashrida: *küp*.

اِلْرْتِّى i l ä r t t i – ilashtirdi. اَلْ اَنِكْ كُوزِينكا بِيرْ نانكْ اِلْرْتِّى o‘l aniŋ koziŋä bïr neŋ ilärtti – u unga bir narsani tasavvur qildirdi. (.اِلْرْتُرْ اِلْرْتْماكْ ilärtÿr, ilärtmäk). **(630)**

اَمُرْتِّى e m ÿ r t t ï – tinchlatdi. اَلْ اَنِكْ اَبْكاسِنْ اَمُرْتِّى ol aniŋ öpkäsin emÿrtti – u bekning o‘pkasini bosdi. Shuningdek, asov ot yuvoshlatilsa, (yoki) qozon qaynog‘ini pasaytirilsa ham bu so‘z qo‘llanadi. She’rda shunday kelgan:

[LXXV]

تُسُنْ مُنُبْ سَكِرْتْسُنْ
اَسِزْلِكِنْ اَمُرْتْسُنْ
اِتقا كَيِكْ قَيْتَرْتْسُنْ
تُتْمِشْ سانى اُمْنَلِمْ

Tosun munup sekirtsÿn
Esizligin emÿrtsÿn
Ïtqa keyik qaytartsun
Tutmïsh[326]sanï umnalïm.

Bir yigitni ta’riflab shunday deydi: u minilmagan bir (asov) toyni minsin, uni rom qilsin, toy ustida ov qilsin, ov hayvonlarini tomonga haydash uchun itlarni ovga solsin. So‘ng biz ovimiz baror oldi deb go‘shtlarini eyishga umidlanaylik.

ر *(r)*

جُبَرْتِّى c h u b a r t t ï: اُغْرى اَرِكْ جُبَرْتِّى og‘rï erïk chubarttï – o‘g‘ri odamlarning mollarini shildi, yalang‘och qoldirdi* (.جُبَرْتُرْ جُبَرْتْماقْ chubartur, chubartmaq).

Bu so‘z جُبَرْتُرْسِيدِى** chubartursïdï shaklida ham qo‘llanadi.

جِبِرْتِّى y ï b ï r t t ï – xipchin bilan urdi. اَلْ اُغْلِنْ جِبِرْتِّى o‘l og‘lïn yïbïrttï – u o‘g‘lini xivich, novda bilan urdi (جِبِرْتْماقْ .جِبِرْتُرْ yïbïrtur, yïbïrtmaq).

قُبُرْتِّى q o p u r t t ï: اَلْ اَرِكْ اُرْنِنْدِنْ قُبُرْتِّى o‘l erïk ornïndïn qopurttï – y odamni o‘rnidan qo‘zg‘otdi. Boshqalari ham shunday (.قُبُرْتُرْ قُبُرْتْماقْ qopurtur, qopurtmaq).

---

[326] To‘rtinchi misradagi تِيتمش so‘zini *tutmïsh* yoki *yetmïsh* o‘qish ham mumkindir. Lekin arabcha iboraga ko‘ra *tutmïsh* o‘qish muvofiqroqdir. Bu misradagi *umidlanaylik* ma’nosidagi اُمْنَلِمْ *umnalïm* so‘zining tarjimasi فرجوا bo‘lishi kerak edi, فَرْجُوا shaklida kichik bir xatoga yul quyilgan.

* B.Radlovda: *ogrï erig čubarttï – o‘g‘ri kishini tunadi.*

** Olmaota nashrida: *čubartusï: jubartÿsïdï.*

قَبَرْتِّی q a b a r t t ï: اَتُكْ اَذاقِغْ قَبِرْتِّی etÿk azaqïg‘ qabarttï – etik oyoqni qabartib shishirdi. Bu shish qabarish oqibati demakdir (قَبَرْتُماقْ. قَبَرْتُورْ qabartur, qabartmaq).

قَبَرْتِّی q a b a r t t ï – bo‘rttirdi. اُلْ سُوزُكْ قَبَرْتِّی o‘l sözÿg qabarttï – u so‘zni bo‘rttirdi. Bo‘rttirib, oshirib-toshirib gapiradigan kishiga قَبَرْتْغانْ *qabartg‘an* deyiladi.

كُبُرْتِّی köpÿrttï – ko‘pirtirdi. اُوتْ اشجنی كُبُرْتِّی ot ashïchnï köpÿrtti – o‘t qozonni ko‘pirtirdi. Og‘iz, suv va shunga o‘x-shashlar ko‘pirsa ham shu so‘z qo‘llanadi (كُبُرْتْماكْ. كُبُرْتُرْ köpÿrtÿr, köpÿrtmäk).

قَتِرْتِّی q a t ï r t t ï: اَتِغْ قَتِرْتِّی atïg‘ qatïrttï – otni qaytartirdi, qaytarishga buyurdi (قَتِرْتْماقْ. قَتِرْتُرْ qatïrtur, qatïrtmaq).

قَجُرْتِّی q a ch u r t t ï – qochirtirdi. اُلْ اَنی قَجُرْتِّی o‘l anï qachurttï – u uni qochirtirdi (قَجُرْتْماقْ. قَجُرْتُرْ qachurtur, qachurtmaq).

قَذِرْتِّی q a z ï r t t ï – qayirdi. اُلْ اَنِكْ بُنِنْ قَذِرْتِّی o‘l anïŋ boynïn qazïrttï – u uning bo‘ynini qayirdi (قَذِرْتْماقْ. قَذِرْتُرْ qazïrtur, qazïrtmaq).

قَرِرْتِّی q a r a r t t ï – qoraytirdi. اُلْ اَنِكْ تُونِنْ قَرِرْتِّی o‘l anïŋ tonïn qarartï – y uning to‘nini qoraytirdi. Boshqalari ham shunday (قَرِرْتْماقْ. قَرِرْتُرْ qarartur, qarartmaq).

قِزَرْتِّی q ï z a r t t ï – qizartirdi. اُلْ قِزَرْتِّی نانكْنی o‘l qïzarttï nenŋi – u narsani qizartirdi (قِزَرْتْماقْ. قِزَرْتُرْ qïzartur, qïzartmaq).

سَقُرْتِّی s a w y r t t ï – sovurtirdi. اُلْ اَنكَرْ تَرِغْ سَقُرْتِّی o‘l aŋar tarïg‘ cawyptï – u unga bug‘doy sovurtirdi. **(631)** Boshqalari ham shunday (سَقُرْتْماقْ. سَقُرْتُرْ cawyrtyr, cawyrtmaq).

سَكِرْتِّی s e k i r t t i – sakratdi. اُلْ اَتْ سَكِرْتِّی o‘l at sekirtti – u otni sakratdi*. Boshqalari ham shunday (سَكِرْتْماكْ. سَكِرْتُرْ sekirtur, sekirtmäk).

كَجُرْتِّی k e ch ÿ r t t i – kechtirdi. اُلْ اَنكَرْ سُوقْ كَجُرْتِّی o‘l aŋar cyw kechurtti – y uni suvdan kechirtirdi. Boshqalari ham shunday. Shuningdek, birovning bir qilmishini kechirishga ham bu so‘z qo‘llanadi (كَجُرْتْماكْ. كَجُرْتُرْ kechÿrtÿr, kechÿrtmäk). Bu bobning buyrug‘i to‘rt harflidir. Chunonchi: سَكِرْتْ sekirt – *sakrat* kabi. Lekin bu so‘z talaffuzda uch harfli kabidir. Ismi *foil*** (ishlov-

---

* Olmaota nashrida: *otni choptirdi.*

** *Ismi foil* – fe’ldan yasalib ishning ishlovchisini bildirgan so‘zlar demakdir. Mahmud Koshg‘ariy izohiga ko‘ra, bu xil so‘zlar o‘zakka turlicha

chini anglatuvchi sifatdosh), ismi *maf'ul*[*] (ish bajarilganlikni anglatuvchi sifatdosh), *joy oti*[**], *payt oti*[***] va *qurol otlari*[****] yuqoridagi boblarda bayon qilingan qoidalarga muvofiq yasaladi. Bu qoidalar bir xil, o'zgarishsizdir.

Bu bo'limning misol turi
[Ismlar]

غ *(g')*

يَلْتْغا y a l t g' a – masxara qilish. اَنى يَلْتْغا قِلْدِى اُلْ o'l anï yaltg'a qïldï – u uni mazax qildi, masxara qildi.

ق *(q)*

يَلْدْرُقْ y a l d r u q[*****] – yaltiroq. يَلْدْرُقْ نانكْ jaldruq neŋ – tovlanadigan yaltiroq narsa. Boshqalari ham shunday. Sersavlat xotinlarga يَلْدْرُقْ اَشْلارْ *yaldruq eshlar* deyiladi, *ziynatli, yasamol xotin* demakdir. Bu so'zlarning birinchi harfi ى ni و o' (o'tru) bilan qo'llash ham bor: يُلْدْرُقْ juldruq.

يَرِيماقْ y a r ï m a q[******] – tanga (pul). Uyg'urcha. Bu so'zning يَرْماقْ yarmaq shakli ham bor.

Bu bo'limning muzoafi

يَرْسْغاغْ y a r s g' a g' – tog' va boshqa yerlardagi tirg'anchiq joy.

---

affikslar qo'shib yasalar va turlicha funktsiyalar bajarar edi. Bularning har xil turlari va har xil dialektlarda farqli bo'lgani "Devon"da keng izohlangan. Chunonchi, ishning davomini bildiruvchilar, ishning ishlash niyatida ekanini bildiruvchi so'zlar, ishning ishlash orzusida ekanini bildiruvchi so'zlar, yoki ishning ishlash uning vazifasi ekanini bildiruvchi so'zlarning har biri turli xil stilistik xususiyatlarga mos qo'llanish usullari "Devon"da mufassal izohlab berilgan. Bularning har biri *ismi foil* deb atalgan.

[*] *Ismi maf'ul* – fe'ldan yasalib, ishning ishlanganini bildirgan so'zlar. Bular o'zak xususiyatiga muvofiq o'zakka turli xil affikslar qo'shib yasaladi. Bularning turli xil funktsiyalari va yasalish usullari «Devon...»da mukammal izohlangan.

[**] *Joy oti* – Ismi makon – fe'ldan yasalib harakat o'rnini bildirgan so'zlar.

[***] Joy oti – I s m i z a m o n – fe'ldan yasalib harakatning vaqtini bildirgan so'zlar demakdir.

[****] Qurol oti – I s m i o l a t – fe'ldan yasalib ishning ishlash kurolini bildiradigan so'zlar demakdir.

[*****] Olmaota nashrida: *yaldruq*.

[******] Olmaota nashrida: *yartmaq*.

Bu bo‘limning boshqa turi

يُلْدُرْغا y u l d r u g‘ a – qilichday, uzun o‘sadigan bo‘ydor bir o‘simlik. Ba’zan bu so‘z يُلْدُرْغا yuldrg‘a shaklida ham talaffuz qilinadi.

ك *(k)*

اَيايَرْسكُو a y a y ä r s g ÿ* – ko‘rshapalak (chigilcha). Ba’zilar يَرسا yarïsa deydilar.

Oxirgi harfi illatli (*a-äli*) so‘zlar

غ *(g‘)*

يُرنجغا y u r ï n ch g‘ a** – yo‘ng‘ichqa.

يلنجغا y ï l ï n ch g‘ a: يلنجغا اشْ yïlïnchg‘a ash – yog‘i, tuzi, ta’mi bo‘lmagan taom.

يُمُرْتْغا y u m u r t g‘ a – tovuq va boshqa qushlar tuxumi. Odam va hayvonlar turmug‘iga ham يُمُرْتْغا yumurtg‘a deyiladi.

يمِرْتْغا y ï m ï r t g‘ a: يمِرْتْغا ياشْ yïmïrtg‘a yash – ismaloq, yalpiz, shivit kabi har qanday ildizsiz tar ko‘kat. Bodringga ham bu so‘z qo‘llanadi.

Bu bo‘limning fe’llari

د *(d)*

ياذْتِى y a z t ï – yozdi. اُلْ ياذْتِى نانكْنى o‘l yaztï neŋni – u bir narsani yozdi. Chunonchi, dasturxon yozish kabi (ياذْماقْ .ياذارْ yazar, yazmaq). **(632)**

يُوذْتِى y u z t ï – artdi. اُلْ تُبْراقْ يُوزِنْدِنْ يُوذْتِى o‘l tupraq yÿzindin yuztï – u yuzidan tuproqni artib tozaladi.

يُوذْتِى y ÿ z t ï – o‘chirdi. اُلْ بِتِكْ يُوذْتِى o‘l bitik yÿztï – y xatni qirib o‘chirdi. Boshqalari ham shunday (يُوذْماقْ .يُوذارْ yuzar, yuzmaq).

يُوذْتِى y ÿ z t i – yukladi. اُلْ يُوكْ يُوذْتِى o‘l yÿk yÿzti – u yukni yukladi, ortdi*** (يُوذْماقْ .يُوذارْ yÿzar, yÿzmaq).

---

* B.Radlovda: *aja jersgü;* Olmaota nashrida: *yarskÿ.*

** B.Radlovda*: jorïnčya // jorïnča // jorunča.*

*** Olmaota nashrida: *u yuk tashidi.*

يِيذْتِى y i z t i: اُلْ يَتْكاكْ يِيذْتِى o‘l yetgäk yizti – y og‘ir yuk bog‘ini biriktirdi* (يِيذْماكْ .يِيذارْ yizar, yïzmäk).

Bu bo‘limning uch harflilari

ت *(t)*

يُرْتِّى yorttï: اَتْلِغْ يُرْتِّى atlïg‘ yorttï – otliq otni yo‘rtirdi (.يُرْتُورْ يُرْتْماقْ yörtur, yortmaq). Bu so‘zning يُرْتارْ yortar shakli ham bor.

يِرْتِّى y ï r t t ï – yirtdi. اُلْ تُونِنْ يِرْتِّى o‘l tonïn yipttï – u to‘nini yirtdi. Boshqalari ham shunday (يِرْتْماقْ .يِرْتارْ yïrtar, yïrtmaq).

ج *(ch)*

يَنجْدِى y e n c h d i: اُلْ قاغُونُغْ يَنجْدِى o‘l qag‘unug‘ yenchdi – u qovunni oyoq osti qildi, payhon qildi, ezdi, yanchdi. Boshqalari ham shunday. Shuningdek, odam bir narsani chaynab, luqmaning bir qismini boshqa qismiga aralashtirsa ham shu so‘z qo‘llanadi (.يَنجْماكْ يَنجارْ yenchär, yenchmäk).

ق *(q)*

يَلْقْدِى y a l q d ï: اُلْ ياغْقا يَلْقْدِى o‘l jag‘qa yalqdï – yog‘ eyish uni lohas qildi, juda to‘yib ketdi[327] (يَلْقْماقْ .يَلْقارْ yalqar, yalqmaq).

Maqolda shunday kelgan:

يَلْقْسا يَما ياغْ اَذْكُو. كُويْسا يَما كون اَذْكُو

Yalqsa yemä yag‘ ezgÿ, kÿysä yemä kÿn ezgÿ

Odam yog‘dan lohaslansa ham u totsiz, tuzsiz taomdan yaxshidir. Quyosh agar odamni kuydirsa ham, tuman va bulutli havodan yaxshidir.

يُلْقْدِى y u l q d ï – shildi. تاشْ اَنِكْ اَذاقِنْ يُلْقْدِى tash anïŋ azaqïn yulqdï – tosh uning oyog‘ini shilib yubordi. Shuningdek, har narsa bir narsani shilsa ham bu so‘z qo‘llanadi (.يُلْقارْ يُلْقْماقْ yulqar, yulqmaq).

يُلْقْدِى y u l q d ï – yuldi. اُلْ اَنْدِنْ نانكْ يُلْقْدِى o‘l andïn neŋ yulqdï – u undan bir narsani yulib olib ketdi. Buning ma’nosi – *u undan*

---

* B.Radlovda: *u xurjunni tikdi;* Olmaota nashrida: *u narsalarni taxlab bo‘g‘cha qildi.*

[327] Navoiyda ham bu so‘z shu ma’noda *to‘yib ketmak, bezor bo‘lmoq* ma’nosida qo‘llangan.

Qulog‘im *yolqibon* el qarg‘ishidin (“Xamsa”. 245-b).

foydalandi, qo'lga kiritdi demakdir[328] (يُلْقَاقْ .يُلْقَارْ yulqar, yulqmaq).

Bu bo'limning to'rt harflilari

ت *(t)*

يَبْرُتِّى y a p y r t t ï – yopishga buyurdi. أُلْ سُوزُكْ يَبْرُتِّى o'l sözÿg yapyrttï – u so'zni yopib ketishga buyurdi. Biror ishni yopib ketishga ham bu so'z qo'llanadi (shu so'z shu yerda qolsin).

يَبْرُتِّى y a p u r t t ï: أُلْ پِيرِكْ يَبْرُتِّى o'l yerig yapurttï – u erni tekislatdi. Har qanday sochilgan bir narsaning bo'laklarini bir-biriga qo'shishga ham bu so'z qo'llanadi (يَبْرُتْمَاقْ .يَبْرُتْرْ yapurtur, yapurtmaq).

يَشْرْتِّى y a s h a r t t ï – yashnatdi. يَغْمُرْ أُتْغْ يَشْرْتِّى yag'mur otug' yashartti – yomg'ir o'tlarni yashnatdi (يَشْرْتْمَاقْ .يَشْرْتْرْ yashartur – yashartmaq).

يُغُرْتِّى y u g' u r t t i – xamir qildirdi. أُلْ اَنكَرْ أُونْ يُكُرْتِّى o'l anar un yug'urttï – u unga unni xamir qildirdi (يُغُرْتْمَاقْ .يُغُرْتْرْ yug'urtur, yug'urtmaq).

يُكُرْتِّى y ÿ g ÿ r t t i – yugurtirdi. أُلْ اَنى يُكُرْتِّى o'l anï yÿgÿrtti – u uni yugurtirdi (يُكُرْتْمَاكْ .يُكُرْتْرْ yÿgÿrtÿr, yÿgÿrtmäk).

Bu bo'limning boshqa bir turi

يَلْدْرَدِى y a l d r a d ï*: كُونْ يَلْدْرَدِى kÿn yaldradï – kun ozgina yoritdi. Chaqmoq, olov va shunga o'xshashlarning ozgina yaltirashiga ham bu so'z qo'llanadi (يَلْدْرِيمَاقْ .يَلْدْرِيرْ yaldrïr, yaldrïmaq).

يُلْدْرَدِى y u l d r a d ï – yalt etdi. قِلِجْ يُلْدْرَدِى qïlïch yuldradï – qilich yalt etdi. Har qanday bir gavhar va ma'daniy narsa yalt etsa ham shu so'z qo'llanadi. Birinchisi ى *u* (utru) li bo'lsa, gavhar yaltirog'i; agar ى *a* li bo'lsa, nur ma'nosidadir (يُلْدْرِيمَاقْ .يُلْدْرَيرْ yuldrïr, yuldrïmaq).

---

[328] Bu so'z bizda hozir, asosan, *yulmoq* shaklida qo'llanadi, *yulqimoq* shakli ozroq ishlatiladi. Ba'zan har ikki so'z qo'shoq holda ham qo'llanadi. Bu so'zlarda hozir manfiy ottenka kuchli. Navoiyda ham shunday: Sochidin *yulsa* bo'lmoq birla mahjur.

* Olmaota nashrida: *yaldrïb ko'nyaldridi* – quyosh xira yoritdi; B.Radlovda: *quyosh porladi.*

Bu bo‘limning manqus turi

ج *(ch)*

ïnch – tinch, كُنْكُلْ اَيْنْجُمُو köŋÿl inchmu – ko‘ngling tinchmi deyishi ham shu ma’nodan اِيْنْجْ كَنْدْ Inchkend – Muqanna (Allohning uni la’natlasin) safdoshlari yashagan shaharning nomi. So‘ng xarob bo‘lgan.

كانْجْ känch – bola. Bu so‘z hayvonlarning kichigiga ham qo‘llaniladi.

كانْجْ لِيُو känchliyÿ – xonlarning to‘ylarida yoki bayramlarida o‘ttiz gaz balandligida qilingan minoraday dasturxon.

Bu bo‘limning to‘rt harflilari

ر *(r)*

قافغر qafg‘ar – za’far rangidagi ipak kiyimlik.

غ *(g‘)*

بارْلِغْ barlïg‘: بارْلِغْ اَرْ barlïg‘ er – davlatmand, moldor odam.

ك *(k)*

اُوزْلَكْ özluk – xususiy ot*. Odamning o‘ziga xoslangan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

Bu bo‘limning fe’llari

ذ *(z)*

اِيذْتِى ïztï – yubordi. اُلْ مَنكا اَتْ اِيذْتِى o‘l menä at ïztï – u menga ot yubordi. Boshqalari ham shunday. تَنكْرِى يَلاوَجْ اِيذْتِى Teŋri yalavach ïztï – Xudo payg‘ambarlarni elchi qilib yubordi (.اِيذُورْ اِيذْماقïzur, ïzmaq).

يَذْتِى yeztï**: اَيكْ كُوزِى يَذْتِى anïŋ közi yezti – uning ko‘zi, ko‘rishi zaiflashdi (يَذْماكْ .يَذارْ jezär, jezmäk).

بُوذْتِى buztï: اَرْ تُمْلُغْقا بُوذْتِى er tumlug‘qa buztï – odam sovuqqa qotdi, sovuqdan o‘ldi (بُوذْماقْ .بُوذارْ buzar, buzmaq).

تُوذْتِى toztï – to‘ydi. مَنِكْ قَرِنْ تُوذْتِى meniŋ qarïn toztï – mening qornim to‘ydi (تُوذْماقْ .تُوذارْ tozar, tozmaq). توزور tozur ko‘rinishi ham bor.

---

* B.Radlovda: özlük at – *chopqir, chopog‘on ot*; Olmaota nashrida: *suyukli ot.*

** Olmaota nashrida: *biz.*

تِيدْتِى t ï z t ï – tiydi. اَنى اَشقا تِيدْتِى اُلْ o‘l anï ashqa tïztï – u uni oshdan tiydi. Har narsani tiyishga ham bu so‘z qo‘llanadi (.تِيذارْ تِيدْماقْ tïzar, tïzmaq).

سُوذْتِى s u z t ï – tupurdi. اَرْ سُوذْتِى er suzti – odam tupurdi (سُوذارْ .سُوذْماقْ suzar, suzmaq). **(634)**

Maqolda shunday kelgan:

كُوكّا سُوزْسا يُوزْكا تُشُورْ
Kökka suzsa yÿzgä tÿshÿr

Kimki osmonga tupursa, yuziga tushadi. Bu maqol martabasi o‘zidan katta odamlar bilan dushmanlashuvchi kishiga nisbatan aytiladi. Ya’ni dushmanlik va uning jafosi tupuk yuzga tushgandek, o‘zingga qaytadi, demakdir.

سِيذْتِى s i z t i – siydi. اَرْ سِيذْتِى er sizti – odam siydi. Boshqalari ham shunday (سِيذارْ .سِيذْماكْ sizär, sizmäk).

قاذْتِى q a z t ï – اَرْ قاذْتِى er qaztï – odam qor bo‘ronida qolib o‘ldi (قاذارْ .قاذْماقْ qazar, qazmaq). Tugadi.

قُوذْتِى q o z t ï – qoldirib ketdi, qo‘yib ketdi. اُلْ اِيشِنْ قُوذْتِى o‘l ïshïn qoztï – u ishini qo‘yib ketdi. Boshqa narsalarni qo‘yish, tashlashga ham bu so‘z qo‘llanadi (قُوذارْ .قُوذْماقْ qozur, qozmaq). She’rda shunday kelgan:

[LXXVI]

اُغْلُمْ سَنكا قُذُرْمَنْ اَرْدَمْ اُكْتْ خُمارُو
بِلْكا اَرِكْ بُلْبْ سَنْ بِقِّلْ اَنِنكْ تَبارُو

Og‘ulum* senä qozurmen ardam ögÿt xumaru
Bilga erig bolup sen baqqïl anïŋ tabaru.

O‘g‘lim, senga meros qilib ezgu xulq, odobni qoldiraman. Agar ilmli, aqlli odamlarga yo‘liqsang, ularga yaqinlash, ulardan foydalan.

ك *(k)*

كاذْتِى k ä z t i – kiydi. اَرْ تُونْ كاذْتِى er ton käzti – odam to‘n kiydi. Boshqalari ham shunday (كاذارْ .كاذْماكْ käzär, käzmak).

كُوذْتِى k ÿ z t i – kutdi. اُلْ مَنى كُوذْتِى o‘l meni kÿzti – u meni kutdi. اُلْ قُوىْ كُوذْتِى ol qoj kuzti – u qo‘yni kuzatdi, qo‘riqladi. Boshqalari ham shunday (كُوذارْ .كُوذْماكْ kÿzär, kÿzmäk).

---

* Olmaota nashrida: *ÿglum.*

TO‘RT HARFLILAR

ب *(b)*

زانبِی z a n b ï – chigirtkaga o‘xshash bir jonivor. U yozning issiq vaqtlarida kechasi chirillaydi.

زانبِی z a n b ï: زانبِی آرْتْ zanbï art – قُجنككارْ باشِی Qochqar bashï bilan بِلاساغُونْ Bolasag‘un orasidagi bir dara.

چ *(ch)*

ساڤْجی s a w c h ï – ulug‘ Tangri yuborgan elchilar (payg‘ambar-lar)dan biri. Bu so‘zning asli xabar, maqol va so‘z ma’nosidagi ساڤْ *caw* so‘zidan olingan. Payg‘ambar ana shularni (so‘zlarni) odamlarga etkazadi.

ساڤْجی c a w c h i – sovchi. Kuyov bilan kelin orasida xat bilan yuruvchi elchi (o‘g‘uzcha).

ج *(j)*

كارژو k ä p j o‘ – g‘o‘lak. Loydan yumshoq qilib yasalib, kamonga qo‘yib otiladi. Bu so‘z ikki maxraj orasida talaffuz qilinadigan ژ – *j* lidir.

چ *(ch)*

سالْچِی s a l c h ï – oshpaz. Aslida bu so‘z shu ma’noda bo‘lsada, so‘ng oshpaz pichog‘iga nisbatan ham qo‘llana boshlagan. سالْجی بِجاكْ salchï bïchak.

ل *(l)*

جاڤْلی j a w l ï – olov uchun yoqiladigan yong‘oq po‘chog‘i, shaftoli danaklari.

جُوڤْلی c h ö w l i – tutmoch suziladigan chovli. U ho‘l novdalardan cho‘mich shaklida to‘qilib yasaladi.

كاڤْلی k e w l i – daryo og‘zi (boshlanishi). Keyingi uch so‘z kanjakchadir.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

غ *(g‘)*

اَسُرْتْغُو a s u r t g‘ u: اَسُرْتْغُو أتْ asurtg‘u ot aksirtiradigan o‘simlik*.

اَغَرْتْغُو a g‘ a r t g‘ u** – yanchilgan bug‘doydan qilingan ichimlik (bo‘za).

---

* B.Radlovda: *verutrum;* Olmaota nashrida: *iskadigan tamaki.*

** Olmaota nashrida: *ăgritgȳ.*

ق *(q)*

اَسُرْتُغُقْ a s u r t g‘ u q*: اَرْ اَسُرْتُغُقْ asurtg‘uq er – aqlli, ziyrak odam.

ك *(k)*

اَمِيرْجكا e m i r c h k ä – quloq kemirchagi.

قَلْدُرْغا q a l d u r g‘ a: تُونْ قَلْدُرْغا qaldurg‘a ton – shaldiroq to‘n. Qog‘oz, Shuningdek, shaldiraydigan boshqa narsalarga ham bu so‘z qo‘llanadi.

Bu bobning fe’llari

ت *(t)*

اَرْتْلادِى a r t l a d ï: اَنى اَرْتْلادِى اُلْ o‘l anï artladï – u uni shapaloq bilan urdi (اَرْتْلاماقْ. اَرْتْلارْ artlar, artlamaq).

ق *(q)*

اِرْقْلادِى ï r q l a d ï – fol ochdi. قامْ اِرْقْلادِى qam ïrqladï – folbin biror narsa haqida fol ochdi. (اِرْقْلاماقْ. اِرْقْلارْ ïrqlar, ïrqlamaq).

ك *(k)*

اَرْكْلادِى e r k l ä d i: پِيرِكْ اَرْكْلادِى اُلْ o‘l yerig erklädi – u erni bosdi. Boshqalari ham shunday (اَرْكْلاماكْ. اَرْكْلارْ erklär, erklamäk). Bu so‘zning اَكْلادِى *eklädi* shakli ham bor.

اُرْكْلادِى ö r k l ä d i: اَتِغْ اُرْكْلادِى اُلْ o‘l atïg‘ örklädi – u otni molxonaga qattiq bog‘ladi (اُرْكْلاماكْ. اُرْكْلارْ örklär, örklämäk).

تُرْبْلادِى t y r b l a d ï: نانكْنى تُرْبْلادِى اَرْ er turbladï neŋni – odam narsaning andazasini, namunasini yasadi**. (تُرْبْلاماقْ. تُرْبْلارْ turblar, turblamaq).

سُرِيلادِى s ÿ r i l ä d i***: اَرْنكاكْ بِلا سُرِيلادِى اُلْ o‘l erŋäk bilä sÿrilädi – u barmoqlari bilan qur’a tashladi; qur’a tashlab, toleini sinadi (سُرِيلاماكْ. سُرِيلارْ sÿrilär, sÿrilämäk).

كُرِيلادِى k ÿ r i l ä d i****: قُزى كُرِيلادِى اُلْ o‘l qozï kÿrilädi – u qo‘ra (erda kovlangan chuqur)da qo‘zini pishirdi (كُرِيلاماكْ. كُرِيلارْ kÿrilär, kÿrilämäk).

---

* Olmaota nashrida: *asirtguk* – uni orqasidan urdi.

** B.Radlovda: *mosladi*; Olmaota nashrida: *o ‘rgandi, tadqiq qildi.*

*** Olmaota nashrida: *surblā.*

**** Olmaota nashrida: *kurbla.*

ت *(t)*

سَرْتْلادِی s a r t l a d ï: أَلْ أَنی o‘l anï sartladï – u uni savdogar deb hisobladi (سَرْتْلاماقْ . سَرْتْلارْ sartlar, sartlamoq).

سِرْتْلادِی s ï r t l a d ï پِینی سِرْتْلادِی yïpnï sïrtladï – (ot quyrug‘ini) ip bilan bog‘ladi. Shuningdek, tor vodiydan yuqoriga chiqsa ham, bu so‘z qo‘llanadi (o‘g‘uzcha) (سِرْتْلاماقْ . سِرْتْلارْ sïrtlar, sïrtlamaq).

قَرْتْلادِی q a r t l a d ï: أَلْ اَرِكْ قَرْتْلادِی o‘l erig qartladï – u uning xulqini (fe’li) yomon deb hisobladi. Shuningdek, yarani, chipqonni tuzatganda ham bu so‘z qo‘llanadi (قَرْتْلارْ . قَرْتْلاماقْ qartlar, qartlamaq).

تُرْقْلادِی t u r q l a d ï: أَلْ پِیرْ تُرْقْلادِی o‘l yer turqladï – u erning bo‘yini, enini o‘lchadi. Shuningdek, ot tanasini va boshqa narsalarni o‘lchashga ham bu so‘z qo‘llanadi. (تُرْقْلارْ . تُرْقْلاماقْ turqlar, turqlamaq).

ك *(k)*

بَرْكْلادِی b e r k l a d i: أَلْ تَوارِنْ بَرْكْلادِی o‘l tavarïn berkladi – u molini saqladi. Shuningdek, odamni tutuqlasa, narsalarni saqlasa ham, bu so‘z qo‘llanadi (بَرْكْلارْ . بَرْكْلاماكْ berklär, berklämäk). Bu so‘zning asli بَكْلادِی *bekläd*idir. Bu so‘z qo‘riqlangan, mahkam qilingan ma’nosidagi **(636)** بَرْكْ پِیرْ – *berk yer*dan olingan bo‘lishi mumkin.

تَرْكْلادِی t e r k l ä d i: أَلْ اِیشِغْ تَرْكْلادِی o‘l ïshïg‘ terklädi – u ishini tezlatdi (تَرْكْلارْ . تَرْكْلاماكْ terklär, terklämäk).

تُرْكْلادِی t ÿ r k l a d i: أَلْ مَنی تُرْكْلادِی o‘l meni tÿrklädi – u meni turklardan deb hisobladi, ularga nisbat berdi. Birovni ajam hisoblasa ham shunday (تُرْكْلارْ . تُرْكْلاماكْ tÿrklar, tÿrklämäk). Bu bo‘limga oid so‘zlarning buyrug‘i besh harf bilan beriladi. Chunonchi: بَرْكْلا نانكْنی berklä nennji – *narsani mahkam qil* degandagi بَرْكْلا *berklä va qur’a tashla* ma’nosidagi سُرِیلا s*ÿrilä* buyruq shakllari kabi. Lekin bu so‘zlar talaffuzda to‘rt harfli so‘zlarga o‘xshash bo‘lgani uchun ular qatorida berildi. Chunki ikki sukunning biri talaffuzda aniq, ochiq sezilmaydi. Shuning uchun shoir buni bir harf hisoblashi mumkindir. Men buni yuqorida bayon etganman. Bularning boshqa vazifalari yuqoridagi boblarda bayon qilingan qoidaga muvofiq qiyos qilib aniqlanadi.

Bu bobdagi fe’llar uch xildir. Birinchi: fe’l o‘zagi ifodalagan narsa qatoridan hisoblanish ma’nosini beradi. Chunonchi: تُرْكْلادِی tÿrklädi – *turklardan hisobladi* kabi.

Ikkinchi: o‘rta undoshi sukunli uch undoshli otlardan yasalgan bo‘ladi. Chunonchi: تَوَى قُرْتْلادِى täväy qurtladï – tuyadagi qurtchalarni olib tashlab tozaladi. Boshqalari ham shunday.

Uchinchi: yuqorida keltirilgan ma’nolardan hech birini ifodalamaydi va oddiy fe’l sifatida qo‘llanadi. Chunonchi:اَلْ تَوارِنْ اَلْقْدِى o‘l tavarïn alqdï – u molini nes-nobud qildi. Yana: يَلْقْدِى اَرْ er yalqdï – *odam yog‘li taomdan lohas bo‘ldi* kabi.

TO‘RT HARFLILAR

د *(d)*

تُلْدْرادِى t o l d r a d ï: بُوى تُلْدْرادِى toj toldradï – odamlar har tarafga tarqaldi (تُلْدْراقْ. تُلْدْرارْ toldrar, toldramaq).

قَلْدِرادِى q a l d ï r a d ï*: تُونْ قَلْدِرادِى ton qaldïradï – to‘n shaldiradi. Boshqalari ham shunday (قَلْدِراقْ. قَلْدِرارْ qaldïrar, qaldïramaq).

جَلْدِرادِى c h a l d ï p a d ï: تاشْ جَلْدِرادِى tash chaldïradï – tosh shaqir-shuqir qilib ovoz chiqardi. Boshqalari ham shunday. Zanjir va shunga o‘xshashlar erga tushganda chiqargan ovozi ham shunday deyiladi (جَلْدِراقْ chaldïramaq).

گُلْدُرادِى g ÿ l d ÿ r ä d i – guldiradi. تاشْ قُدُغْ اِچْرا گُلْدُرادِى tash quzug‘ ichrä gÿldÿradi – tosh (637) quduq ichida gulduragan ovoz chiqardi, quduq chuqurligini bildirdi. (گُلْدُراقْ. گُلْدُرارْ gÿldÿrär, gÿldÿrämäk).

ج (jim)li g‘unnalilar

ت *(t)*

اُتُنْجْ ö t ÿ n c h – qarz مَنْ اَنگَرْ يَرْماقْ اُتُنْجْ بِيرْدِمْ men aŋar yarmaq ötÿnch berdïm. Men unga tanga qarz berdim, qarzga tanga berdim (o‘g‘uzcha).

اُتُنْجْ ö t o‘ n c h: اُتُنْجْ اِيشْ ötÿnch ïsh – uyalinadigan ish (o‘g‘uzcha).

ج *(ch)*

اُجُنْجْ ÿ c h ÿ n c h – uchinchi. Tartib soni. Bu qoidadirki, o‘ndan quyi sonlarda tartib (ma’nosini ifoda etish)da o‘zidan oldingi sondan keyin, davom etish ma’nosi bayon etilsa, sonning o‘zagiga

---

* Olmaota nashrida: *kadra-; jaldra-; kuldrä-*

ن چ qo‘shiladi: تُورْتِنْجْ törtynch, بِيشِنْجْ *beshinch* so‘zlari kabi. To‘rtinchi, beshinchi, demakdir. Bularning asli تُورْتْ *tört*, بِيشْ *besh* edi. Tartib soni ma’nosini anglatish uchun bu so‘zlar oxiriga g‘unnali ن bilan چ orttirildi.

O‘nlik sonlarda ham tartib soni shu usulda yasaladi: اُونِنْجْ önynch, يِگِرْمِنْجْ *yigirminch* kabi; *o‘ninchi, yigirmanchi* demakdir. Chunki yigirmanchi o‘n to‘qqizning keti, davomidir. Bu qoida umumiydir.

ر *(r)*

اَرِنْجْ e r i n c h – zora, balki ma’nolaridagi so‘zdir. اُلْ بَرْدِى اَرِنْجْ o‘l bardï erinch – zora u borgan bo‘lsa, balki u borgandir.

اُرُنْچْ o‘ r o‘ n c h – pora.

اَرِنْجْ e r i n c h – oziq-ovqat mo‘l-ko‘lligi, to‘qchilik. Ba’zi tillarda bu so‘z ikki mahraj orasidagi ژ – j bilan ارِنْژْ *erinj* shaklida qo‘llanadi.

ۋ *(w)*

اَوِنْچْ a w i n c h – ko‘nikma, moyillik, mashg‘lot.

ك *(k)*

اِكِنْچِ i k i n c h: اِكِنْچِ نانكْ ikinch neŋ – ikkinchi narsa.

اُكْنْچْ ö k ÿ n c h – achinish, pushaymon bo‘lish. اُلْ اَنكَرْ اُكْنْچ قِلْدِى o‘l aŋar ö k ÿ n c h q ï l d ï – u ishga pushaymon qildi**.

اُگُنْچْ ö g o‘ n ch – maqtash.

ل *(l)*

اِلِنْجْ i l i n c h*: اِلِنْجْ يُولْ ilinch yol – egri, noto‘g‘ri yo‘l.

اِلَنْچْ i l ä n c h – kamchiligi ma’lum bo‘lib qolgan bir ishning boshlovchisini ayblash.

م *(m)*

اُمُنْجْ ÿ m ÿ n c h – umid. اُمُنْجْ تَنْگْرِيكا ymynch tenrigä – umid ulug‘ tangriga.

ن *(n)*

اِنَنْجْ i n ä n c h – ishonarli. اِنَنْجْ بَكْ inänch beg – ishonchli, ishonarli bek.

اُنُنْچْ o n u n c h – o‘ninchi. اُنُنْچْ يَرْماقْ onunch yarmaq – o‘ninchi tanga. Boshqalari ham shunday.

---

* Olmaota nashrida: *u uni pushaymon qildirdi.*

** Olmaota nashrida: *yilanj.*

ك *(k)*

يِنْجْكالَنْدِى y i n c h k ä l ä n d i: أَلْ مَنكا يِنْجْكالَنْدِى o‘l menä yinchkäländi – y menga nozik muomala qildi, egilib bukildi. أَلْ قِيزِغْ يِنْجْكالَنْدِى o‘l qïzïg‘ yinchkäländi – qizni haramga oldi. قُلْ تَنگْرِيكا يِنْجْكالَنْدِى qul Teŋrigä yinchkäländi – qul Tangriga sajda qildi, ro‘za tutdi, namoz o‘qidi; Xudodan qo‘rqdi (يِنْجْكالَنْمَاكْ .يِنْجْكالَنُوزْ yinchkälänÿr, yinchkälänmäk).

Ikki sukunli harflari yonma-yon kelgan so‘zlar bo‘limi tugadi. Bu sakkizinchi bobning oxiridir. Olamni tarbiyalovchi Tangriga maqtovlar bo‘lsin.

Husayn farzandi Mahmud aytadi: kitob boshida turkiy so‘zlar devoni tuzishga, so‘zlarning qoidalarini, asllarini bayon qilishga, ular orasidagi farqlarni qiyoslab izohlashga, ularni maxsus bo‘limlar tartibi bilan joylashtirishga umid bildirgan edik. Va’da bajarildi, tilak yuzaga chiqdi. Yozib bo‘lgach, ortiqchalarini, o‘rinsiz tushganlarini, keraksizlarini kitobdan olib tashladim. Endi kitob uzoq zamonlarga qadar keng tarqalsin, abadiy yodgorlik bo‘lsin. (Keling) kitobimiz shu yerda tugallansin.

Abadiy maqtov Tangriga, nihoyatsiz yaxshilik uning payg‘ambariga va butun avlodlariga bo‘lsin.

Sovalik, so‘ng damashqlik ulug‘ Tangrining yo‘qsil quli Muhammad ibn Abu Bakr ibn Abulfathni, Xudo uni kechirsin, bu kitobni Mahmud Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxasidan ko‘chirib yozish ishini olti yuz oltmish to‘rtinchi yil shavval oyining yigirma ettisida yakshanba kuni tamomladi.*

*Mahmud Koshg‘ariy qo‘lyozmasinig oxiridagi parchani aynan keltiraman: “Kitob yozishga to‘rt yuz oltmish to‘rtinchi yil, jumodil avvalning boshlarida** kirishgan edim. To‘rt qayta yozilib, tahrir qilinib, to‘rt yuz oltmish oltinchi yil jumodil oxirning o‘n ikkisida tugadi”.*

Kuch va quvvat ulug‘ Tangri bilandir; u biz uchun kifoya; u qanday go‘zal himoyachidir.

KITOB BITDI

---

* 1266-yilning 1-avgusti.

** 1072-yilning 25-yanvari.

"Devonu lug'oti-t-turk" asari bundan qariyb o'n asr muqaddam yozilgandir. Bu uzoq muddat davomida jamiyatda ham, tilda ham (arab tili, shuningdek, turkiy tillarda ham), ko'pgina o'zgarish sodir bo'ldi. Shuning uchun o'sha davr tilida yozilgan asarni ming yildan so'ng ikkinchi bir tilga tarjima qilish vaqtida bir qancha masalalarga izoh berish talab etiladi. Ayrim masalalarga tarjima jarayonida izoh berib borildi. Shunday bo'lsa ham, "Devon..."ning III jildi oxirida yana ba'zi izohlar berishni munosib ko'rdik. "Devon"da ulug' olim Mahmud Koshg'ariy tomonidan so'zga, so'z ma'nosiga, leksikaga, fonetika, tarixga doir juda ko'p ishoratlar berilgan bo'lib, ular juda chuqur va sermazmundir. Bu haqda tilshunoslar ham, tarixchilar ham yozishlari mumkin va zarur. Masalan, Mahmud Koshg'ariyning so'zlar jamiyat turmush talabi bilan, turmushdagi ehtiyoj tufayli yuzaga kelib, o'zgarib borishi xususidagi fikri xalq (turkiy xalq)ning qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. Lekin bizning izohlarimizda masalaning faqat bir tarafigina olingan. Shuning uchun bizning yo'l-yo'lakay bergan qisqa-qisqa izohlarimiz to'la emas. Ular faqat mutaxassislarning diqqatini bu masalaga tortish, yosh olimlarni bu sohaga jalb qilishgagina xizmat qilishi mumkin, xolos.

"Devon..."da ayrim so'zlarning harakatlari (diakritik belgilari)da turli xil nomutanosibliklar bor. Chunonchi, ayrim so'zlarga zarur nuqtalar qo'yilmay, noaniqlik yuzaga kelgan bo'lsa, ayrim so'zlarning harakatlari ikki xil berilishi tufayli talaffuzda chalkashlik kelib chiqadi. Qo'lyozma bizda yo'qligi tufayli ham qiyinchiliklar tug'ildi. Bunday o'rinlarda qo'lyozmani to'liq transkripsiya qilib chiqqan Basim Atalay ishiga asoslanishni muvofiq ko'rdik. Basim Atalayda ham ikkilanish o'rinlari uchraganda, biz ularni o'zicha qoldirdik va ayrim so'zlar imlosini noaniq qoldirishga majbur bo'ldik.

Ismi foil atamasini Mahmud Koshg'ariy keng ma'noda qo'llagan. Bu atama bilan u ishning bajaruvchisini anglatuvchi *yozg'uvchi, kelguvchi* kabi shakllarni ham, ishning davom etishini

anglatuvchi *yozg'on, kelgan* kabi shakllarni ham, ishlovchi ishni ishlash orzusida ekanini anglatuvchi *yozgisak, kelgisak* kabi shakllarni ham, ishni qilish uning orzusi ekanini anglatuvchi *yozg'ili, kelgili* kabi shakllarni ham *ismi foil* deb bergan.

Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy *ismi maf'ul* atamasini ham keng ma'noda qo'llagan. Bu atama unda ba'zan aniq sifatdosh, ba'zan majhul sifatdoshlar uchun qo'llangan.

Tapjan so'zi I jildda تبجان *tapjan* shaklida berilgan bo'lsa, shu so'z III jildda تبجانك *tapjaŋ* shaklida berilgan. Lekin bu ikki xillik haqida Mahmud Koshg'ariy hech qanday izoh bermagan. Bu hodisa so'z oxirida ***ŋ*** tovushini ***n*** ga almashtirish hodisasi yuzaga kelganidan darak beradi. Darhaqiqat, o'sha davr tilida bu fonetik hodisa yuzaga kelganligi قلقان *qalqan* so'zi قلقان *qalqan* va قلقانك *qalqaŋ* shakllarida qo'llanadi deb ko'rsatilganligi bilan tasdiqlanadi.

"Devon"da ***ŋ*** bilan qo'llangan اتنك otuŋ, ترنكاق *tirinaq* kabi bir qancha so'zlarning bizga ***n*** bilan yetib kelishi ham shunga dalildir. U so'zlar ko'pdan beri *o'tin, tirnoq* shaklida qo'llanadi.

Idg'om so'zi haqida. Bu atama so'zdagi ikki tovushning bir-biriga singishi, ya'ni assimilyatsiyani anglatadi. XI asr tilida assimilyaŋiya hodisasi keng tarqalgan ko'rinadi. Lekin Mahmud Koshg'ariy *idg'om* atamasini assimilyatsiyadan ham kengroq ma'noda qo'llagan. Chunonchi: ال انك يوزيكا سوزتردى ol anin juzika suzturdi – u uning yuziga tuplatdi. Asli *suzturdi* edi, so'ng idg'om qilingan (*susturdi*) (Qarang: II jild. B.144). Bu yerda Mahmud Koshg'ariy *idg'om* so'zini assimilyatsiya ma'nosida qo'llagan. Bu so'zda regressiv assimilyatsiya bor. Lekin Mahmud Koshg'ariy ayrim o'rinlarda *idg'om* so'zini yana boshqa ma'nolarda qo'llagan. Chunonchi: ا ل انسا سكتردى *o'l ani söqtÿrdi* asli u bilan سوكتردى edi. So'ng idg'om qilingan. Bu yerda *idg'om* so'zini Mahmud Koshg'ariy *qo'shmoq* ma'nosida qo'llagan.

"Devon..."da *idg'om* so'zi yana boshqa ma'nolarda ham qo'llangan. U haqda biz fonetikaga doir ishimizda keng izoh berganmiz.

Xotin so‘zi haqida. Bu ma’noda “Devonu lug‘oti-t-turk”da bir necha so‘zlar uchraydi:

1) *urag‘ut*, eng ko‘p qo‘llangan so‘z shudir.

2) *kishi* so‘zining *xotin* ma’nosida qo‘llanishini Mahmud Koshg‘ariy faqat yag‘mo qabilasida deb ko‘rsatgan (“Devon...”, III jild. B.170).

3) e*shlar*. Bu so‘zning aslini Mahmud Koshg‘ariy e*shilar* deb izoh bergan (qarang: (“Devon...”, I jild. B.106).

4) *tishi*. Bu so‘z odamdan boshqalarga ham qo‘llanadi, deb izohlangan (qarang: (“Devon...”, III jild. B.170).

5) *kic* – xotin (1 jild. B.276).

Mahmud Koshg‘ariy *qatun* so‘zi Afrosiyob qizlarigagina qo‘llanadi, deb ko‘rsatgan (Qarang: “Dezon...”, I jild. B.343).

Xotin so‘zi o‘rnida qo‘llangan so‘zlar ayrim qabilalar tarixini o‘rganishga yordam berish bilan birga o‘sha davr dunyoqarashi o‘ziga xosligini o‘rganish uchun ham muhimdir. Ayniqsa, so‘nggi so‘z – qizlarnig qabila boshlig‘i oilasidagi unvoni, urug‘ va qabila tarixini o‘rganish uchun alohida muhimdir.

Ko‘l erkin so‘zi haqida. Bu so‘z qorluqlar boshliqlariga berilgan unvon bo‘lib, *u to‘lib-toshgan ko‘l* kabi *aqli to‘la* degan ma’nodadir. Bu ma’lumot qorluqlarning ilg‘or bir qabila bo‘lgan davriga oid ma’lumotdir. Qorluqlar XI asrlarda yetakchilik mavqeyini yo‘qotib, tobe qabila darajasiga tushgan edi. Chunonchi, bu haqda O‘rxun yodnomalarida shunday deyilgan: Kŏltägin ottuz eshigda qarluq budun erur borur erkli jag‘ï bolg‘ï... ïkkï arïg udsharu sanchdï, qorlug‘ug‘ olurtïmïz – Ko‘ltagin yigirma yetti yoshdaligida qorluq xalqi ko‘p nufuzli mustaqil xalq edi (Ko‘ltaginga) kuchli dushman bo‘ldi (Ko‘ltagin unga qarshi urush ochdi) o‘ldirdik.

Jafg‘u so‘zi haqida. Bu so‘z «Devon»da ikki ma’noda: Barsag‘an yaqinidagi bir shahar va xoqondan ikki daraja quyi vazifadagi mansabdor ma’nosida qo‘llanadi. Bu so‘z O‘rxun yodgorliklarida vazir ma’nosida qo‘llangan: *qag‘anïnïg‘, jabg‘ug‘, shadïŋ anda olurtïm* – xon, vazirlar vazifasidagi: *yabg‘u* va *shod* ataluvchi mansabdorlarini o‘ldirdim.

"Devon..."da ***lug'ati g'ayri asliya*** degan bir ibora bor. Ayrim so'zlarni izohlar ekan, Mahmud Koshg'ariy shu iborani qayd qiladi. Chunonchi: بردز الفاليز و هذه غَيْرُ اصليته burduz poliz, bog' demakdir. Bu so'z asosli lug'at emas (Qarang, 1 jild. B.381).

Bu iborani *asosli emas, asossiz so'z, nuqsonli bir so'z* tarzida izohlash mumkin bo'lganidek, *turkiy bo'lmagan so'z* deb izohlash ham mumkin edi. Mahmud Koshg'ariyda qo'llangan tamoyillarga asoslanib biz so'nggi ko'rinishni muvofiq topdik.

BIR NECHA SO‘Z

Ushbu jildda, asosan, ي *y* harfi bilan boshlangan so‘zlar, shu bilan birga oldingi jildlarga kirmagan ayrim so‘zlar izohlangan. Shuning uchun bu kitob o‘zi qamragan so‘zlar tarkibi jihatidan o‘ziga xos mustaqil bir jildni tashkil etsa ham, bunda bayon qilingan grammatik qoidalar, qabilalar haqidagi ma’lumotlar avvalgilardagi qoida va ma’lumotlarning davomi va ularning ajralmas bir qismidir.

Ma’lumki, Mahmud Koshg‘ariyning kamtarlik bilan *lug‘at* deb atagan bu asari yolg‘iz bu kungi ma’nodagi lug‘atgina emas, balki shu bilan birga o‘sha davr tilining fonetika, morfologiya, leksika va dialektologiyasini mukammal izohlab bergan to‘la ma’nodagi filologik asar, bebaho bir qomusdir. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarini ko‘p yillar yurtma-yurt yurib, xalq og‘zidan to‘plagan materiallar asosida tuzdi. Bu usul, bir tarafdan, unga o‘sha davr tilidagi butun so‘zlarni va turli xil so‘zlarni mukammal qamrab olishga imkon bergan bo‘lsa, ikkinchidan, bu materiallar, o‘z navbatida, o‘sha davr tilining har bir sohasiga doir boy namunalar to‘plami bo‘lib qoldi. Mahmud Koshg‘ariy so‘z ma’nosini izohlar ekan, yo‘l-yo‘lakay bu so‘zlarning grammatik xususiyatlari va u so‘z qaysi qabilaga mansubligi haqida ham ma’lumot bera boradi, umumlashtirilgan qoidalar tuzadi. Lekin bu qoidalar va ma’lumotlar har uch jildda tarqoq holda bayon qilingan.

Demak, bu asar bizga birinchi marta tuzilgan yirik turkiy lug‘at kitobi sifatidagina emas, shu bilan birga, birinchi marta yaratilgan turkiy grammatik asar sifatida ham benihoyat muhimdir. Bugina emas, bu asar XI asrda shu keng va katta hududda yashagan xalqlar va qabilalarning til va tarixini bayon qilgan muhim tarixiy manba sifatida ham g‘oyat muhim asapdir.

Ma’lumki, XI asr savdo-sotiq ishlari, hunarmandchilik avvalgi davrlarga nisbatan ancha taraqqiy etgan, bir qancha katta shaharlar yuzaga kelgan bir davr edi. Shuning uchun bu davrda jamiyat a’zolarining bir-birlari bilan aloqa va munosabatlari ham ancha kuchaygan edi. Bu davr tili ijtimoiy hayotda ko‘zga ko‘rinarli siljishlap yutyqlapni akc ettirib, tapaqqiy etib bopdi.

Binobarin, bu davrni har tomonlama o‘rganish juda katta ahamiyat kasb etadi. Biroq bu davr tili, bu davrdagi qabilalar munosabati va qabilalarning tutgan mavqeyini o‘rganish qancha muhim bo‘lsa, u shuncha murakkab va chalkashdir. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining bebaho asarida ana shu masalalarning hammasini juda puxta va juda mukammal yoritdi. U o‘sha davrni o‘rganuvchi biror tilshunos, biror filolog, biror tarixchi uning merosini chetda qoldirishi mumkin bo‘lmagan yuksak bir asar yaratdi. Biroq bu ajoyib asar, bir tarafdan, onda-sonda uchraydigan noyob bir manba sifatida yetib kelgan bo‘lsa, ikkinchi tarafdan, tushunish qiyin bo‘lgan arab tilida yozilgan edi. Binobarin, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi bu asarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, keng jamoatchilikka yetkazishni muvofiq topdi. Lekin XI asrning bu ajoyib filologik asarini tarjima qilish qancha muhim bo‘lsa, u shuncha murakkab va mas’uliyatli ish edi. Buning uchun, bir tomondan, har bir so‘zni alohida diqqat va e’tibor bilan izohlash kerak bo‘lsa, ikkinchidan, har bir masalaga o‘sha davr saviyasi bilan yondashish, shuncha uzoq davrlardan bizga yetib kelgan matnlarni aniqlashda puxta ilmiy usul qo‘llash, yetuk olimning har qanday ishoratlariga alohida e’tibor berish, munozarali masalalarni to‘g‘ri hisobga olish va boshqa qator masalalarga alohida diqqat qilish lozim edn. Biz o‘z tarjimamizda qo‘ldan kelgancha bu masalalarga e’tibor berishga tirishdik. Bu haqda so‘ngso‘z (ilova qism)da kengroq ma’lumot beriladi.

ILOVALAR

XI ASRNING BUYUK FILOLOGLARI VA ULARNING NOYOB ASARLARI

XI asr davomida yashagan va ijod qilgan olimlar hamda ular tomonidan yaratilgan asarlar O‘rta Osiyo xalqlari va ularning tillari tarixida, shu jumladan, o‘zbek xalqi va o‘zbek tili tarixida alohida o‘rin tutadi.

XI asrning II yarmida Qoraxoniylar davlatining ma’muriyat chegarasi ancha kengaygan, uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy darajasi ko‘p jihatlardan mustahkamlangan edi. Bu davrda Yuqori Chindan Farg‘ona, Tarkan, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta hududning hammasi Bug‘roxon tasarrufiga o‘tgan edi.

Shuni ham alohida qayd qilib o‘tish zarurdirki, hozirgacha mavjud tarixiy asarlarda Bug‘roxon faqatgina Ispijob va Tirozning voliysi qilib ko‘rsatilgan. Bu qarashda ikki xil noaniqlik bor:

1. Tiroz bilan Ispijob ikki shahar deb berilgan, haqiqatda esa Tiroz va Ispijob ayrim-ayrim ikki shahar emas, balki birgina shaharning turli nomlaridir. Bu shahar u davrda Ispijob, Sayram, Tiroz, Madinatu-l-bayzo nomlari bilan yuritilar edi. Yuqoridagi ko‘rsatmada Bug‘roxon faqat birgina shaharning voliysi bo‘lib qoladi. Bu haqiqatga xilofdir.

2. Bu davrda Bug‘roxon yolg‘iz Ispijob yo Tirozgagina voliy bo‘lib qolmay, balki shu bilan birga Qashg‘ardan tortib Buxorogacha bo‘lgan joylar uning tasarrufida bo‘lgan. Balasog‘unda yozilgan “Qutadg‘u bilig” asariniig Bug‘roxon nomiga yozilishi, hatto u asarda bu katta hududdagi xalqlar tili Bug‘roxon tili deb atalishi, ya’ni bu davrdagi tilning uning nomi bilan atalishi ham uning bu hududlarda hukmronligini, nufuz va e’tibori qanchalnk baland bo‘lganini isbotlaydi.

Mahmud Koshg‘ariy asarida Buxoroga yaqin “Sig‘unsamur” degan joy Bug‘roxon tomonidan Chozan deb

atalgani ko‘rsatiladi. Bu xil faktlar Bug‘roxonning Qashg‘ardan tortib Buxoroga qadar cho‘zilgan katta hududda hukm surganidan darak beradi.

Bu davrda shaharlarda o‘troq hayot kechiruvchilar ko‘payib, hunarmandchilik: bo‘z, ipak kiyimlik to‘qish ishlari, bo‘yoqchilik, sirkorlik, kulolchilik, zargarlik, duradgorlik, kovushdo‘z, mahsido‘zlar o‘sha davrga mos bir tizimga tushgan, dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchilar katta qatlamni tashkil qila boshlagan edilar. Bu xil hunarmandlar uchun xomashyo tayyorlovchi kasb egalari ham yuzaga kelgan edi. Bu davrda kemasozlik hunari ham ma’lum daraja yo‘lga qo‘yiladi, savdo-sotiq ishlari ham ancha kengayadi. Mamlakat hayotida yuzaga kelgan bu o‘zgarishlar yolg‘iz bir shahar kishilarining emas, balki turli shahar xalqlarining ham bir-birlari bilan aloqa va munosabatlarini rivojlantirishga yo‘l ochdi. U davrning til qurilishida ham katta voqea yuz berdi. Mamlakatda madaniy hayot yuksala borishi natijasida bu davrda bir qancha tarixiy, tibbiy, badiiy asarlar bilan birga ikki gigant filologik asar: 1) “Qutadg‘u bilig”, 2) “Devonu lug‘oti-t-turk” asarlari maydonga keldi.

Yusuf Xos Hojib va uning didaktik asari “Qutadg‘u bilig” haqida

“Qutadg‘u bilig” Balasog‘unning ulug‘ shoiri Yusuf Xos Hojib tomonidan to‘rt yuz oltmish ikkinchi yili (hijriy hisobi bilan) yozildi. Asar qoraxoniylar davlatida yuzaga kelgan yangiliklarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, uni uzoq saqlab qo-lish, uni mustahkamlash maqsadida yozilgan. Shuning uchun muallif asarda ana shu maqsadga xizmat qiluvchi bir qancha siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy-tarbiyaviy masalalarni qamrab olishga intilgan. Chunonchi, unda davlatni idora qilish usullari, davlat arboblarining fe’l-atvori, axloqi qanday bo‘lishi, davlat qurilishi masalalari, jamiyat a’zolari orasidagi munosabat masalalari, u davrda yuzaga kelgan turli tabaqalar va shu kabilarning ahamiyatini ko‘rsatish, iqtisodni tiklash, xo‘jalikni rivojlantirish kabi

qator masalalarni o‘sha davr talabi asosida izohlab bergan. Yusuf Xos Hojib o‘zining zo‘r ilmiy qudrati tufayligina bunday gigant asarni yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Asarda berilgan ma’lumotlar Yusuf Xos Hojibning bizga o‘z zamonining yolg‘iz ulug‘ shoiri bo‘lganidangina emas, shu bilan birga u tarix, tib, riyoziyot va boshqa ko‘p fanlardan xabardor zo‘r fozili bo‘lganidan ham darak beradi.

XI asrning yetuk shoiri, olimi Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan bu asar O‘rta Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o‘zbek xalqining uzoq o‘tmishini har tomonlama ilmiy asosda yoritish uchun muhim bo‘lganidek, o‘zbek adabiyoti va tili tarixini o‘rganish uchun ham cheksiz muhimdir. “Qutadg‘u bilig” hajm jihatdan katta, janr jihatdan u davr uchun tamom yangi va birinchi asar edi. Shuning uchun bu asar muallif oldiga asar tili (adabiy til) ustida katta talablar qo‘ydi. Yozuvchi u davrda tarqoq qabilalar tilida mavjud bo‘lgan til faktlarini, til xususiyatlarini puxta hisobga olishi, kelajakdagi til taraqqiysiga xos xususiyatlarni qabul qilishi, xalq ommasining so‘z qo‘llashdagi amaliyotiga suyanib ishlashi, stilistik silliqlikka katta ahamiyat berib, unga rioya qilishi zarur edi. Bu masalalarni Yusuf Xos Hojib o‘z asarida muvaffaqiyat bilan bajardi. Uning asari o‘z davri uchun tengsiz asar darajasiga ko‘tarildi. Uni ko‘pgina xalqlar sevib o‘qidilar. Shuning uchun bu asar, bir tarafdan, o‘sha davr tilini sistemaga solishga, mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchidan, bu asar ko‘pgina yangiliklar bilan adabiy tilni rivojlantirishga ham xizmat qildi. “Qutadg‘u bilig” asarida u davrda mamlakatda yuzaga kelgan yangiliklar til faktlari asosida aks ettirilgan. Ikkinchi xil qilib aytganda, “Qutadg‘u bilig” asarining tili u davrda alohida bosqichga ko‘tarilgan yozuv tili – adabiy tildan namunadir. Ma’lumki, ayrim adabiy asar tili biror markazlashgan shahar, o‘lka yoki bir necha qabilalar orasidagi yaqinlik munosabati bilan yuzaga kelgan boshlang‘ich umumiy tilga mansub bo‘lishi mumkin. “Qutadg‘u bilig” tili nimaga, o‘sha davrdagi qanday va qaysi shevaga asoslangan? Afsuski, bu muhim

masala hanuz jiddiy o‘rganilmay keladi. Shuni ham aytish kerakki, bu muhim masala, ya’ni XI asrdagi adabiy til haqida hozirgacha turli xato fikrlar va chalkash taxminlar hukmronlik qilib kelmoqda. Ayniqsa, u davrning adabiy tiliga xoqoniy turklarning tili asos bo‘lgan degan qarashlar, taxminlar borki, bu narsa behad qo‘pol xatodir. Bu narsa fanga zid va haqiqatlan uzoqdir, chunki bu qarashga ko‘ra bir to‘da feodal ma’muriyati, saroy xodimlarining tili u davr tiliga asos solgan bo‘lib chiqadi. Bir qism feodal kanselyariya tilini puxta bir sistemaga tushgan, u davr tiliga asos bo‘lgan deb qarash tamoman tuturiqsizdir. Axir, u davrda ko‘pgina mayda hunarmand tabaqalari yuzaga kelgan, jamiyat a’zolari orasidagi aloqa va munosabat kuchaygan edi. Bu tomondan, “Qutadg‘u bilig” tilini puxta o‘rganish, uning qaysi tilga asoslanganini ilmiy asosda isbotlash – tarixda katta aniqlik yaratadi va bu sohada sodir bo‘lgan qo‘pol xatolarga xotima beradi.

Ma’lumki, u davrda bir qancha qabilalarning o‘zaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari uchun markaz bo‘lib xizmat qilgan shahar va o‘lkalar ancha bor edi. Qoraxoniylardan oldingi poytaxt Samarqand, Buxoro, O‘zgand (qoraxoniylar poytaxti), Toshkent, Qashg‘ar, Balasog‘un, Barsag‘on, Sayram va boshqalar shu-lap jumlasidandir. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” nomli asarida ana shu shaharlarning o‘ziga xos so‘zlari (lahjaviy so‘zlar) ham izohlangan. “Qutadg‘u bilig” tili shularning birortasi ta’sirida ham qolmagan. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida u davrdagi juda ko‘p qabilalarning qabila tillari va alohida sharoitda bir-birlari bilan bo‘lgan munosabatlar natijasida yuzaga kelgan boshlang‘ich umumiy bir til, masalan, o‘g‘uz gruppasi, qipchoq gruppasi, chigil gruppalari haqida va ularning boshlang‘ich holda umumlasha boshlagan tillari haqida mukammal ma’lumot bergan. “Devonu lug‘otit turk”dagi ma’lu-motlarga ko‘ra, chigil qabilasi katta hududda yashovchi ko‘p nufuzli qabila edi. Ular O‘rdukentda, Barsag‘on quyisidagi Qayosda, Sayram yonidagi shahar va vodiylarda yashar edilar. Chigil-

lar u davrda katta o‘rin tutgan yag‘mo, tuxsi qabilalari bilan qo‘shni yashar edilar. Masalan, chigillar yashaydigan Qayos shahrining yuqorisidagi Soblig‘ qayos, O‘rung qayos qal’alarida tuxsilar yashar, Tiroz quyisidagi shaharlarda yag‘molar yashar edilar. Bu qabilalarning bir-biriga munosabati yaqin edi. Ularning tillarida ham yaqinlik – birlik yuzaga kela boshlagan edi. Ularning tillari boshqalarga nisbatan turli xil atama va so‘zlarga boy edi. Hatto bular tili bilan Ila, Irtish, Yamor vodiylaridan Yuqori Chingacha bo‘lgan hududlarda yashovchi qabilalar tilida ham umumiylik yuzaga kelgan edi.

Mahmud Koshg‘ariy o‘g‘uzlar Jayhundan tortib Quyi Chingacha bo‘lgan qabilalarning hammasinn chigil deb ataydilar, deb ko‘r-satadi va bu qarashning xato ekanini, bu yerlarda juda ko‘p qabilalar bor deb uqtiradi (qarang: “Devonu lug‘oti-t-turk” I jild. B.330).

O‘g‘uzlarning bu qarashi to‘g‘ri bo‘lmasa ham, bu qarash chigillarning u davrda tutgan alohida o‘rnini ko‘rsatish uchun muhimdir. Akad. V.V.Radlov O‘rxun obidalarini uyg‘ur hukmdorining bobosi nomiga yozilgan deb kelingani xato ekanini, bu yodgorlik chigil toifasining bobosi Mangubey nomiga yozilganini uqtiradi (Radlov. XXVI bet). Haqiqatan chigillar tarixiy asarlarda xunnlar avlodi deb ko‘rsatiladi. Devonda chigil Iskandar Zulqarnayn yurish qilgan vaqtlardayoq ko‘p nufuzli xalqlardan hisoblangani haqida ma’lumot bor. Navoiy ma’lumoti ham shuni tasdiqlaydi. Iskandar Zulqarnayn yurishida Navoiy faqat chigil va yag‘molarni tilga oladi:

Chigil birla yag‘modin aylab ubur.
Nuchukkim chamandin sobovu lubur.
(Xamsa, Shomurod kotib nusxasi. B. 400)

Tarixchi Ibnu-l-Asir Samarqandga qilingan hujumda chigil askarlari boshchilik qilganini yozadi. Har holda chigil qabilasi tili u davrdagi qo‘shni dialektlar tilini umumlashtirish uchun asos bo‘larlik imkoniyatga ega bo‘lgan edi.

U bir shahar xalqi bilan ikkinchi shahar xalqi orasida, o‘lka va qishloq xalqlari ora-sida kuchaygan turli munosabatlarda birlashtiruvchi rol o‘ynay boshlagan edi.

“Qutadg‘u bilig” ana shu chigil qabilalari tili asosida yozilgan. Yusuf Xos Hojib bu asari bilan ana shu tildagi umumiylikni yana mustahkamladi. Masalan, u davrda qabilalar tilida farqli talaffuz qilinadigan va turlicha yozilgan so‘zlar talaffuzida va imlosida bir xillik yaratdi. Chunonchi, *yog‘och, uyat* kabi bir qancha so‘zlar u davr qabilalari tilida bir necha xil talaffuz qilinib, bir necha xil yozilar edi. Bu asar ana shu xil so‘zlarning imlosida ham, talaffuzida ham birlik yuzaga keltirishga xizmat qildi. Bu asar u davr tilida bo‘lgan turli xil morfologik va grammatik xususiyatlarni yana yangi so‘zlarda qo‘llab, bu hodisalarni tilda ma’lum grammatik va morfologik qoidalar sifatida tanitishga va buni umumlashtirishga xizmat qildi. Masalan, *-chi* affiksini olaylik. Bu affiks XI asr tilida otlarga qo‘shilib, ot yasalishida (keng miqyosda) faol qo‘shimcha sifatida qo‘llanar edi. Lekin Mahmud Koshg‘ariy buni alohida affiks sifatida ko‘rsatmagan, uning ayrim so‘zlarga bergan izo hidan *-chi* affiksini kasbni anglatuvchi affiks deb tushungani ma’lum:“Em – *davo, dori* demakdir, shuning uchun davolovchi e*mchi* deyiladi”.

Mahmud Koshg‘ariyning ma’lumotnga ko‘ra, bu affiks u davrda yolg‘iz kasb anglatuvchi affiks vazifasidagina ishlatilgan. Holbuki, u kengroq ma’noda, ya’ni faqat kasb, hunar egasi ma’nosidagnna emas, balki birmuncha kengroq funksiyada qo‘llangan. Lekin Mahmud Koshg‘ariy bu qarashga qo‘shilmaganligini yozgan. “Timchi – *ichimlik tayyorlovchi* demakdir. Ba’zi odamlar bu so‘zni *ichimlik sotuvchi* ma’nosida ishlatadilar. Birinchi ma’no to‘g‘ri-dir. Chunki *-chi* affiksi faqat kasb-hunar egasi ma’nosinigina anglatadi, xolos” (Devon, III jild. B. 99).

Ko‘rinadiki, Mahmud Koshg‘ariy *-chi* affiksining ma’nosi o‘sha davrda ancha kengayganini hisobga olmagan. Haqiqatda u davr tilida bunga misollar ko‘p edi. Ularni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. *-chi* affiksi sifatlarga qo‘shilib, alohida qiliqlilik mazmunini anglatgan: «Uzun+chi+g uzung‘dan yiroq tut, soqin»[358]. Gapni cho‘zadigan ezma odam ma’nosida qo‘llangan *uzun + chig‘* so‘zi ana shu *-chi* affiksi bilan yasalgan ismdir.

2. Biror kasb-hunar egasi ma’nosini anglatgan: Temurchi, tog‘ochi, o‘tukchi, suchi, chog‘irchi, podachi yo o‘qchi, yochi[359].

3. Biror mansab, darajani bildiradi: agichi – idishchi, oshxona boshlig‘n; bitikchi – kotib, xattot: “*Ag‘ichi* udug‘ bo‘lsa, ish o‘rtamaz».[360] *“Idishchi* boshi ko‘r o‘shandog‘ kerak”.[361] *“Bitikchi* kerak o‘z qamug‘ xat bilir”[362].

XI asr tilida fe’ldan ot yasovchi affikslarning yana biri *-g‘u, -gu, -ku* affikslaridir. Lekin bular, ko‘pincha, *-g‘u* holida uchraydi. Shuning uchun Mahmud Koshg‘ariy faqat *-g‘u* shaklini ko‘rsatgan. Bu affiks haqida Mahmud Koshg‘ariy shunday yozadi: “*-g‘u* qo‘shimchasi fe’l o‘zaklariga qo‘shilib, joy, vaqt va qurol otlarini yasaydi: *borg‘u er* – borar joy, *turg‘u er* – turar joy kabi”.

Ko‘rinadiki, Mahmud Koshg‘ariyning bu ta’rifida *-g‘u* affiksining funksiyasi ancha tor. Shu bilan birga, bu izohda Mahmud Koshg‘ariy hozirgi tildagi sifatdoshlarni *ism* deb bergan. Chunki Mahmud Koshgariy fe’l va yordamchi so‘zlardan boshqa hamma so‘zlarni ham otlar turkumiga kiritgan. Bizning tekshirishla-rimiz, “Qutadg‘u bilig”dagi til faktlari XI asr tilida *-g‘u* affiksining funksiyasi ancha keng ekanini ko‘rsatadi.

XI asr yozma yodgorliklarida bu affiks bilan yasalgan so‘zlarning funksiya va ma’nosiga ko‘ra ularni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. Kelasi zamon sifatdoshi vazifasida:

---

[358] “Qutadg‘u bilik”. B.Radlov nashri. 1910-b.
[359] Shu asar. 284-b.
[360] Shu asar 242-b.
[269] Shu asar. 255-b.
[362] “Qutadg‘u bilig”. 426-b.

"Ot tushog'u bo'ldi"[363] – ot tushovlanadigan, ot oyog'iga tushov soladigan vaqt bo'ldi. "Ot bo'shug'u bo'ldi"[364] – otni arqondan bo'shatadigan vaqt bo'ldi.

"Osh *ichku* chiqardim, yedirdi ko'rub"[365] (ichiladigan).

"Yegu, kiygu, mingu ot ayg'ir suluk"[366] (yeyiladigan, kiyiladigan, miniladigan).

2. Fe'lga qo'shilib ulardan abstrakt ot yasaydn: *Yegu* – yeyish,

ichku – ichish kabi:

"Edi ters turur bu osh *ichku, yegu".*[367] Bu ovqatni yeyish, ichish noto'g'ridir.

"Qatig' orzuladi seni *ko'rguga".*[368] "Meni elchi etdi o'qib *eltkuga"*[369].

3. Fe'l o'zagiga qo'shilib, zarurlik mazmunida qo'llanar edi: "Yana *borg'u e*rsa boroyin o'zum"[370] – Agar yana borish kerak bo'lsa, o'zim boray.

"Qotilg'u, qorilg'u, ulashgu kerak"[371]. "Nadak qilg'u aygil kengash ber menga"[372].

[363, 272] "Devonu lug'otit turk". 393-b.
[273] "Qutadg'u bilik". 426-b.
[274] Shu asar. 390-b.
[365] O'sha asar. 216-b.
[365] O'sha asar. 297-b.
[365] O'sha asar. 260-b.
[365] O'sha asar. 244-b.
[365] O'sha asar. 379-b.
[280] O'sha asar. 356-b.
[365] O'sha asar. 297-b.

4. Fe'l o'zagiga qo'shilib, miqdor mazmunini anglatar edi: "Egin *butku* kazim qorin to'yg'u osh"[373] – Egnim bitarlik kiyim, qornim to'yarlik ovqat.

Bu misrada *bitku* – bitarlik, *to'yg'u* – to'yarlik mazmunida ma'lum miqdor ma'nosini bildiradi.

5. Bu affiks orqali yasalgan ot o'zakdan anglashilgan ishni bajaruvchi ma'nosini anglatadi: *Qutatg'u* – qut-t-at-g'u; *qut* – baxt, *atg'u* – beruvchi, qutadg'u *kutadg'u* – baxt beruvchi, baxtlan-tiruvchi ma'nosidadir. *Qanag'u* – qanatuvchi, nishtar.

6. Qurol nomini anglatadi: *supurgu* – supurgi, *tiragu* – tirgovich, *kozoku* – o't kavlaydigan asbob: kosov, *buqog'u* – o'g'rilarni bo'g'adigan sirtmoq.

Demak, "Qutadg'u bilig" asari so'z yasovchi affikslar funksiyasining tilda stilistik kengayib borishiga to'liq va aniq namunalar bergan, bu usulni rivojlantirgan va tilda bu holatni puxta sistemaga tushirish uchun katta xizmat qilgan.

Bu asar tilda ko'pgina stilistik yangiliklar yaratdi:

1. Sinonnmlarni yonma-yon qo'llash bilan:

"Bu qulgung ot adg'ir bu yer-suv qamuq. Tovar – nang barin qil uzungga uluk".

2. Ikki so'zni yonma-yon qo'llash yo'li bilan juft ot yasalib, bu ikki so'z o'z mazmunidan boshqa abstrakt ma'noni ifodalaydi. Masalan, *o'g'il-qiz* so'zini zurriyot ma'nosida; *saroy-qarshi* so'zini imorat, uskuna, mol-mulk ma'nosida; *ot-ustom* so'zini mol-hol va oltin-kumush ma'nosida; kuch-quvvat so'zini imkoniyat ma'nosida; *tun-kun* so'zini sutka ma'nosida; *yil-oy* so'znini doim ma'nosida qo'llagan.

Misollar:

"Saroy-qarish, yer-suv saning birla yo'q", *"Ot-ustom qiz-o'g'lon* saning bir yo'q"[374]. "Bu *kuch-quvvat* ishlat ilik ishiga"[375]. "Udin yotma *tun-kun* ishi qil aning"[376]. "Yo'rikli kishi yo'lda qolmas *yil-oy"*[377].

Siyrak bo'lsa ham, bu asarda leksik-sintaktik asosda ot yasa-lishi namunalari beriladi: *"Ulug'din* kerakdir *kichikka* salom"[378]

Bu misrada qo'llangan *ulug', kichik* sifatlari leksik-sintaktik asosda otga ko'chgan.

"Qoldi yovuz uyuq ko'rib evni yiqor". Bu misoldagi kelasi zamon fe'li *yiqor* bajaruvchn ot funksiyasidadir.

"Bu holig' *ko'rardin* maning bu ko'zum". By misrada *ko'rar* fe'li abstrakt ot – *ko'rishga* aylangan.

Ayniqsa, bu asar sinonimlarni qo'llashda va yangi sinonimlar ishlatishda tilda muayyan stilistik sistema yuzaga kelishiga ham asos bo'ldi. Masalan, XI asrga qadar *olim* so'zi ma'nosida, asosan, *bilka* so'zigina qo'llanib kelingan bo'lsa, bu asarda shu bilan birga *biliglik, o'qushlug', olim* so'zlari ham qo'llana boshladi: "Neku ter eshitkil tojik *bilkasi, Biliglik* kishilar kishisi bo'lur. Uqushlug' kishidan kishilik kelur.

Orig'in tila, borcha *ichku, yegu.* Qorni *to'yg'ucha y*e qomug' y*em, ichim".*

Xullas, bu asar XI asr qabilaviy tillarni birlashtirishga, u tilni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Bu asar tili puxta sistemaga tushgan adabiy til sifatida hammani ergashtiruvchi asos va namuna bo'ldi. Albatta, har xil farqlarda birlik yuzaga kelishi uzoq vaqtni talab qiladi.

---

[374] "Qutadg'u bilig". 486-b.
[283] Shu asar. 488-b.
[284] Shu asar. 507-b.
[376] Shu asar. 402-b.
[376] Shu asar. 428-b.

Turli xil adabiy va ilmiy asarlar jonli tillardagi kuchli aloqa ta'sirida yuzaga keladi. Lekin bu asar ma'lum masalalarda umumiylnk yaratdi va ma'lum masalalarga umumiylik yaratish uchun zamin hozirladi.

Bundan tashqari, "Qutadg'u bilig" o'z davrining yuksak badiiy asari sifatida ham benihoyat muhim hujjat. Chunki u eng eski adabiy asar namunasi sifatida so'nggi bosqichlardagi yozuvchilarga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. So'nggi davr yozuvchilari undan foydalanganlar. Shuning uchun bu asar so'nggi davr yozuvchilari asarlarida uchraydigan adabiy ta'birlar, poetik obrazlar, ramzli ishoralar, she'riyatga xos uslub va iboralar va hatto ayrim nomlar kabi bir qancha masalalarning mohiyatini ochishga ham yordam beruvchi benihoyat muhim asardir.

XI asrning ulug' tilshunos olimi Mahmud Koshg'ariy

XI asrda bir shahar bilan ikkinchi shahar xalqlari, bir qabila bilan nkkinchi qabila a'zolari o'rtasida aloqa va munosabatlar kuchayadi, biroq tilda xilma-xillik hukmron edi. Tilda mavjud bo'lgan xilma-xilliklarga barham berish, tilda ma'lum normalar yaratish kabi ulug' va g'oyat sharafli ishga ehtiyoj tug'iladi. Ana shu talabga javoban Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'oti-t-turk" asarini yozdi.

* * *

O'rta Osiyo xalqlarining atoqli farzandi Mahmud Koshg'ariy XI asrda yashab ijod etdi. Uning bebaho "Devonu lug'oti-t-turk" asari u davr madaniy hayotida va tilshunoslik tarixida alohida sahifa ochdi. Uning asari o'z davri uchun benihoyat katta voqea bo'lgani kabi turkologiya fani sohasida ham birinchi namuna bo'ldi. Mahmud Koshg'ariy turkologiya fanining dastlabki ustodi bo'ldi. Turkologiyaning maxsus fan sifatida rivojlanishiga asos soldi. Shuning uchun ham u allaqachonlar jahon miqyosida buyuk olim sifatida tanildi. Turkologlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, arxeologlar hanuz unga ulug' ustod

sifatida chuqur hurmat bilan qarab yondashadilar, unga asoslanadilar.

Afsuski, bu ulug‘ olimning muhim asari hanuzgacha jamoatchilik nazaridan chetda qolib kelgan va jiddiy o‘rganilmagandir. Bu hol “Devonu lug‘oti-t-turk” asari haqida ba’zi tuturuqsiz fikrlar tarqalishiga va asar muallifi sha’niga ayrim bo‘htonlarning yuzaga kelishiga ham sababchi bo‘lgan. Ba’zilar Mahmud Koshg‘ariy turkiy so‘zlarni arabchalashtirib, buzgan desalar, ba’zi birovlar, asar arabchadan tarjima qilingan, deb mas’uliyatsizlik bilan Mahmud Koshg‘ariy va uning asariga tuhmat qilganlar. Masalan: nemis turkologi Bergshtresser devonni 850-hijriy yilda vafot etgan Abu Ibrohim al-Forobiyning arabcha “Devonu-l-odob” degan asarining tarjimasi, deb yozgan[2]. Bu xil tuturiqsiz fikrlarning paydo bo‘lishiga qisman asarning keng tarqalmagani va jiddiy o‘rganilmagani sabab bo‘ldi. Axir, u haqda hanuz bir jiddiy ilmiy tekshirish ishini ko‘rsatish qiyin. Shuning uchun biz dastlab ulug‘ olim Mahmud Koshg‘ariyning shaxsiyati haqidagi mulohazalarimizni aytishni muvofiq topdik.

Mahmud Koshg‘ariyning to‘liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Koshg‘ariydir. Uning bobosi Koshg‘arda tug‘ilgan bo‘lsa ham, asosan, Balasog‘unda hayot kechirdi. Uning tug‘ilgan yili aniq bo‘lmasa ham, devon yozilgan vaqtlarda (1068-yilda) ancha yoshlarga borgani aniqdir. Chunki devon ustida u uzoq yillar ishladi, dastlab u ko‘p yillar yurtma-yurt kezib material to‘pladi, Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta hududni birma-bir kezib chiqdi va bu katta hududda yashagan urug‘lar, qabilalar, xalqlarning o‘zini, ularning kasb-korlarini, turar joylarini, nufuzlarini aniqladi va ularning tillarini sinchiklab o‘rgandi. Natijada u shuncha katta hududda yashagan barcha qabilalarni va ularning tillarini juda puxta va mukammal aniqlashga muvaffaq

[2] Востоковедческий литературный журнал. Т.24. S.154.

bo‘ldi. Hatto u har bir so‘z qaysi qabilaga tegishli ekanini, so‘zlarning qadimgi va hozirgi variantlarini, so‘zlarning ma’no va shakllariga doir xususiyatlarini, so‘zlar talaffuzida qabilalar orasidagi moslik va farqlarni har tomonlama aniqlab chiqdi va nihoyat tartibga soldi. Shunday uzoq va chidamli mehnat natijasida u o‘zining “Devonu lug‘oti-t-turk” deb atalgan bebaho asarini yaratdi. Uning bundan oldin yozgan “Javohiru-n-nahv fi lug‘oti-t-turk” – turkiy tillarning nahv qoidalari” degan asari ham bor edi. Afsuski, bu asar bizga etib kelmagan, bu asar yana ham murakkabroq edi, u asar yana ham ko‘proq vaqtni olgan edi, shuning uchun Mahmud Koshg‘ariy devonning oxirida: “Bu kitob umrimning oxiriga yetkazdi”, – deb yozadi. Mana shularning hammasi devon yozilgan vaqtlarda Mahmud Koshg‘ariy ancha yoshlarga borganidan, keksaligidan, uning XI asr boshlarida bitilganini taxminlash mumkinligidan darak beradi.

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining bobolarini so‘z boshidagi “a”ni “ha” qilib so‘zlovchi qabilalardan deb ko‘rsatgan. Bu ko‘rsatma uning qaysi qabiladan ekanini aniqlab bermasa ham, uning juchi ilgarigi davrlardan shu hududda katta o‘rin tutgan bir qabila farzandi ekanini juda aniq ko‘rsatib beradi. Chunki qadimgi yozma yodgorliklarning til faktlariga ko‘ra ham, hozirgi til faktlariga ko‘ra ham bu xil til xususiyatiga ega bo‘lgan qabilalar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu qabila devon yozilgan davrga nisbatan borgan sari keng o‘rin olgan o‘zbek qabilalarining biridir. Navoiy davridayoq bu qabila, katta nufuz qozongan edi. Devon yozilgan vaqtda u qabila tilida, asosan, “a”ni “ha” qilish ko‘ringan bo‘lsa, Navoiy davrida “o‘”ni “ho‘” qilish, “o” ni “ho” kilish va “u” ni “hu” qilishgacha kengayganligi Navoiy asarlarida aniq ko‘rinadi. O‘l – ho‘l, o‘kuz – ho‘kuz, ovich – hovich, ulkar – hulkar kabi. Hozir bular Qoraqalpog‘iston va Quramada, Farg‘onaning ayrim tumanlarida, Qorabuloq va boshqa joylarda yashaydilar. Mahmud Koshg‘ariy ana shu qabilalar farzandidir.

Mahmud Koshg‘ariyning qayerda, qachon va qancha o‘qigani haqida aniq ma’lumot yo‘q. Turkiy tillar sohasida birinchi marta koidalar yaratgan, etuk olim Mahmud Koshg‘ariy, hech shubhasiz, o‘z davrinnng eng yuqori ma’lumotli olim va fozillaridan edi. U arab tili, arab adabiyotini, fors adabiyotini juda asosli egallagan edi. U g‘oyat prinsipli, taqliddan uzoq, masalani faktlar asosida har tomonlama puxta o‘rganib ish qiluvchi alohida shaxs edi. U ilmga, xususan, til ilmiga qattiq ehtiros qo‘ygan olim edi. Uning devon yozish ustidagi xatti-harakatlari shuni isbotlaydi. U yozadi: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqladim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim, bo‘lmasa men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim (“Devonu lug‘oti-t-turk”, I jild. B. 9)”. Shuning o‘zi ham Mahmud Koshg‘ariyning ish tartibi nechog‘lik puxtaligini, o‘z ishida puxta ilmiy metod qo‘llaganini, til faktlariga to‘g‘ri yondashganini, ishga o‘ta ketgan harisligini, ehtiyotkorligini, o‘z davrining ulug‘ tilshunosi ekanini yaqqol ko‘rsatuvchi faktdir.

Mahmud Koshg‘ariyning uzoq vaqtlar yurtma-yurt kezib to‘plagan materiallari unga, birinchidan, o‘sha davr tilini har tomonlama yoritishga imkoniyat tug‘dirgan bo‘lsa, ikkinchidan, bu usul bilan bor til faktlari asosida puxta ilmiy xulosalar chiqarishga ham yo‘l ochdi. U materiallar Mahmud Koshg‘ariyga, u davr tilining fonetikasini, leksikasini, morfologiyasini, dialektologiyasini juda puxta va to‘la ilmiy asosda izohlab berishga asos bo‘ldi. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining ish metodi bilan ham namuna bo‘larlik original olim edi. Devonda berilgan izohlarga ko‘ra, u asarni ishlashga kirishishdan boshlab qanday tamomlash va qanday usul qo‘llash va boshqa masalalar haqida uzoq fikr

yuritdi va ish usulini puxta planlashtirdi. Shuning uchun ham u davr uchun benihoyat ulug‘ va murakkab hisoblangan bu katta asarni o‘z vaqtida oxiriga etkazishga muvaffaq bo‘ldi. Axir u davrda lug‘atchilik sohasi yangi masala edi. Lug‘at to‘plash, so‘zlarni izohlash, zarur o‘rinlarga misollar topish, alifbo tartibiga solish va boshqa lug‘atchilikka doir yana ko‘p ishlarning hammasi yangi ish edi. Ana shularning hammasini uning bir o‘zi boshladi va kutilgandan ortiq darajada sifatli qilib tamomladi. Bunda uning ish boshidagi puxta plani va o‘z oldiga qo‘ygan vazifani qunt bilan ishlashi, unda bo‘lgan zo‘r lingvistik iste’dod (did) katta yordam berdi.

Asar yozish ustida tuzgan planiga muvofiq u dastlab ko‘p yillar yurtma-yurt yurib xalq og‘zidan lug‘atlar to‘pladi. So‘ng ularni o‘ziga xos bir usulda tartibga soldi va nihoyat ularni keragicha izohlab, kerakli misollar bilan ta’minladi. Bu xil ish usuli unga lug‘atlarni izohlash ishini osonlatish, so‘zlarni to‘la ilmiy asosda to‘g‘ri izohlashga yordam berishi bilan bir qa-torda, asarga u yana ko‘p yangi masalalar orttirishga, asar mundarijasini yana ham turli lingivistik qoidalar bilan boyitishga imkoniyat tug‘dirdi. Natijada Mahmud Koshg‘ariy yirik leksikolog sifatida u davr tilining butun leksik xususiyatlarini aniqlashga muvaffaq bo‘ldi. Uning asarida omonim va sinonimlar, antonim va metatezalar, so‘zlarda to‘liq va qisqa variantlilik, dialektal leksika va boshqa ko‘pgina leksik xususiyatlar birinchi martaba leksikaning mustaqil bo‘limlari sifatida izohlab berildi. Uning asarida bu masalalar maxsus bo‘limlar sifatida izohlanmagan. Chunki lug‘at kitobida bu xil masalalarni alohida izohlash qoidaga xilof edi. Lekin Mahmud Koshg‘ariyning so‘zlarni izohlashda tutgan puxta ilmiy metodi yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa ham, bu bo‘limlarni maxsus bo‘lim holida ifodalab bera olganidan darak beradi. Masalan, devonda *un, to‘rt* kabi juda ko‘p so‘zlar ko‘p ma’noli omonimlar ekani, tabib ma’nosida *emchi, o‘tochi* kabi teng qo‘llanuvchi ko‘pgina sinonim so‘zlar aniq ko‘rsatib berilgan.

U so‘zlarni izohlashda ham o‘ziga xos alohida mahorat ko‘rsatdi. Hech kim tomonidan ilgari izohlanmagan so‘zlarga birinchi marta izohlar berish, shubhasiz, ancha qiyin va og‘ir edi. Lekin bu qiyinchilikni Mahmud Koshg‘ariy tugal hal qildi. U so‘zlarni izohlashda zarur qonuniyatlarni mukammal egallagan mutaxassis kabi vazifani to‘la-to‘kis bajardi. U har bir so‘z ustida uzoq va maxsus kuzatish olib borgan mutaxassislar ta’rifi singari aniq va to‘liq izohlar berdi. Uning izohlarida so‘zlar ma’nosining iste’mol o‘rni kengayib borishi, abstraktlanish masalalari, hatto uning so‘zlar haqidagi izohlari qanchalik qat’iyligi yoki dastlabki gipoteza ekani, bu masala ustida u davrlardagi boshqa tilshunos olimlarning mulohazalari va boshqalar ham ochib berilgan. Mahmud Koshg‘ariy ayrim so‘zlarni izohlar ekan, ba’zan mening tekshirishimcha shunday, deb ko‘rsatsa, ba’zan bu haqda hamma olimlar ittifoq, deb uqtiradi. Ba’zan buni men o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, deb izohlaydi va ba’zan men shunday taxmin qilaman, deb halol arz qiladi. Asarda Mahmud Koshg‘ariy o‘sha davr lug‘at sostavida mavjud hamma so‘zlarni, har xil so‘z turkumlarini, so‘zlarda shakl va mazmunga doir har qanday hodisalarni o‘z davri tilshunosligiga nisbatan juda puxta va ilmiy asosda izohlab berdi. So‘zlar etimologiyasi haqida, so‘z yasalishi haqida va har xil so‘z turkumi yasovchi affikslar haqida birinchi marta u qoidalar tuzdi. O‘z asarida bu masalalarni yo‘l-yo‘lakay ko‘rsatib bordi. Mahmud Koshg‘ariyning so‘zlar ustidagi uzoq tekshirishlari unga har bir so‘zning etimologiyasi, so‘zda ayrim davrlarda yuzaga kelgan fonetik va semantik o‘zgarishlar, u yoki bu so‘z talaffuzida qabilalar tilidagi farq va boshqalar hammasi ayon va ravshan bo‘lgan edi. U o‘z asarida so‘zlarning ma’nosini izohlar ekan, so‘zlarda bo‘lgan turli-tuman xususiyatlarni ham izohlab berishni zarur topdi va yo‘l-yo‘lakay so‘zlarning har xil xususiyatlarini ko‘rsata bordi. Lekin bu xil masalalar ko‘p vaqt olar va ko‘p o‘rin talab qilar edi. Hatto bu xil masalalarning bir qismi maxsus qoidalar tuzishni ham talab qiluvchi katta bir ish edi.

Holbuki, bu xil ishlarga asar strukturasi ham, vaqt ham yo‘l bermas edi. Mahmud Koshg‘ariy qulay, ixcham yo‘l asosida katta qonuniyatlarni tushuntirish usulini qo‘lladi. Masalan, u *so‘loq* so‘zini quyidagicha izohlaydi: *So‘loq* – taloq, qora jigar. Bu so‘z qipchoqlar lug‘atidir. Bu so‘zdagi *s* harfi *t* harfi o‘rniga almashgandir. Arabcha ***so‘loq*** so‘zlaridagi kabi, bu so‘zlarning aslidir. Bu yerda arabchaga o‘xshashlikni ko‘rsatish, ba’zilar o‘ylagancha turkiy so‘zlarni arabchaga o‘xshatish emas, balki bu fonetik qoida arab tili darsliklarida ishlanganligiga ishorat qilish, bu qoida turkiy tilda ham borligini uqtirish, bu xususiyat tilda muhim qonunlardan ekanidan xabardor qilishdir. Bu usulni u ko‘pgina masalalarda, qofiya va vazn masalalarida, grammatik xususiyatlar va maqollarda ham qo‘lladi. Shu bilan ham u o‘z asarida til xususiyatiga doir ko‘p masalalarni qiyosiy usul bilan ixcham iboralarga sig‘dirishga imkoniyat topdi. Uning asarida ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravishdoshlar, hatto u davr tilidagi ko‘makchi va bog‘lovchilar, undov va taqlidiy so‘zlar o‘z ifodasini topdi. Asarda so‘z turlarining har biri juda boy faktlar asosida birinchi marta qoida ostiga olindi. Hatto u so‘zlar ma’nosi haqida ham lingivistikada ancha keyin aniqlangan xususiyatlarni o‘sha davrdayoq o‘rtaga qo‘ydi. So‘zlarga yangi ma’no yuklash yo‘li bilan ham yangi so‘zlar yasalishini ko‘rsatishi shu xil yangiliklardandir. Uning ko‘rsatishicha, yangi so‘z tilda yolg‘iz affikslar qo‘shish, so‘zlarni bir-biriga biriktirish yo‘li bilangina yasalmay, yana ko‘p usullar bilan ham yasalar edi. Ulardan biri so‘zga yangi ma’no yuklash usuli edi. Mahmud Koshg‘ariyning fikricha, so‘zlarga yangi ma’no yuklash usuli quyidagicha edi: So‘zlarni zid, qarama-qarshi ma’noda qo‘llash bilan ham yangi so‘z hosil bo‘ladi. Masalan, *suchik* so‘zi oldin shirinlikkagina qo‘llanib, so‘ng achchig‘ ta’mlik ichkilikka qo‘llanishi shunga misoldir. U *ko‘r* so‘zini ham ana shunday ziddiyat asosida yuzaga kelgan, deb uqtiradi.

Butun o‘rnida bo‘lak, bo‘lak o‘rnida butun qo‘llash asosida yangi so‘z paydo bo‘ladi. *Saban* so‘zi ilgari qo‘sh

va omochlarning hammasi ma'nosida qo'llangan bo'lsa, bu so'z so'ng faqat omochga xoslanib qolishi shundaydir.

So'zlar paydo bo'lish o'rniga ko'ra yangi ma'no anglatadi, masalan, kishi a'zosi ma'nosidagi *o'pka* so'zi so'ng *achchig', g'azab* ma'nosida qo'llana boshlashi shunga misoldir. Yomg'ir ma'nosida *bulut* va *osmon* so'zini qo'llash ham so'zlar paydo bo'lgan o'rnn asosida yangi ma'noga ko'chib, yangi so'z yasalishini ko'rsatuvchi misoldir. O'g'uzlar *qiy-go'ng*ni *og'il* deyishlari ham, *bosh* so'zi o'rnida *soch* so'zini qo'llashi ham shunday. So'zda yangi ma'no masalasida Mahmud Koshg'ariy qarashlarini bu yerda to'la ravishda ko'rsatish o'rinli emasdir. Unda so'zlarning ko'chma ma'nolari ham keng izohlangan. *Qiz* so'zini qiymat ma'nosida qo'llashni majoziy deb ko'rsatgan. *Tug'moq* so'zi ilgari faqat odamga nisbatan qo'llanar edi. So'ng bu so'z hayvonlarga nisbatan ham qo'llana boshlagan. Bu hodisani Mahmud Koshg'ariy voqeaning yuzaga kelishidagi o'xshashlik munosabati bilan so'zni istiora usulida qo'llash deb uqtirgan.

Xullas, Mahmud Koshg'ariy o'z asarida so'zga juda keng o'rin berdi. O'sha davrda xalq og'zida qo'llangan hamma so'zlarni to'pladi va ularning har qanday janrlarda qanday qo'llanishini zo'r chidam bilan puxta aniqladi. So'zlarga doir har qanday xususiyatni o'z davri tilshunosligi saviyasiga nisbatan ancha keng va chuqur, mukammal ifodalab berdi. Shuni ham aytish kerakki, u ayrim leksik xususiyatlarda o'sha davr tilshunosligiga xos xatolarga ham yo'l qo'ydi. Masalan, leksik boylikda katta o'rin tutuvchi qo'shni tillardan kirgan so'zlarni u manfiy hodisa deb qaradi. Shuning uchun u xil so'zlarni o'z asarida berishdan tortindi. Lekin shuni ham aytish kerakki, Mahmud Koshg'ariyning chetdan kirgan so'zlar ustidagi qarashi ikki xil edi: 1) turmushga kirgan asbob, ashyolar vositasi bilan kirgan so'zlar. Turli xil xitoy, hind, rus kiyimlari nomlari, ovqatlar nomi, dorilar nomlari. Bularni u zarur va foydali deb hisobladi. Shuning uchun bu xil so'zlarni o'z asarida mukammal izohlab bordi. 2) tilda

bo‘lgan so‘zlar o‘rnida boshqa so‘z qo‘llash. Buni u zararli hisobladi. Masalan, *ko‘zaj* va *qumg‘on* so‘zlari bo‘lgani holda o‘g‘uzlarning forscha oftova so‘zini qo‘llashlari kabi hollarni u qattiq qoraladi.

Mahmud Koshg‘ariy o‘z davrining yirik fonetika olimi edi. U o‘z asarida fonetikani maxsus bo‘lim sifatida izohlamagan. Chunki asar strukturasi uni talab qilmagan. Lekin Mahmud Koshg‘ariyning zarur o‘rinlarda yo‘l-yo‘lakay bergan fonetik uqtirishlarida u davr tili fonetikasi ancha keng izohlangan. “Devonu lug‘oti-t-turk” ustidagi kuzatishlarimizga ko‘ra, Mahmud Koshg‘ariy har bir tovush ustida maxsus tekshirish olib bordi va tilda bo‘lgan har bir tovushni to‘la ilmiy asosda o‘rgandi. Tovushlarning kombinatsiya natijasidagi mavqelarini, fiziologik va akustik holatlarini aniqlab chiqdi. Uning bu sohadagi chidamli mehnati, bir tarafdan, juda ko‘p so‘zlar etimologiyasini fonetik qonunlar orqali puxta ilmiy asosda aniqlashga imkoniyat yaratgan bo‘lsa, ikkinchidan, o‘sha davr tilshunosligida fonetikaga xos ko‘pgina yangiliklarni ochishga, bu sohaga bir qancha yangiliklar qo‘shishga, fonetikani bir qancha yangi qoidalar bilan boyitishga imkoniyat yaratdi. Tovush va harflar munosabatini birinchi marta u aniqladi va u davr yozuvida mavjud harflar jonli til tovushlarini ifodalashdan ojiz ekanligini ochib berdi va birinchi marta yozuvdagi ana shu kamchilikni to‘ldirish uchun bir qancha yangi belgilar tayinladi. U yozadi: “Turkiy tillar yozuvida qo‘llanuvchi harflar o‘n sakkiztadir. Holbuki tildagi tovushlar o‘n sakkizta emas, ko‘pdir. Bu o‘n sakkiz harf yetishmaydi. Bulardan boshqa tilda bo‘lgan tovushlarni berish uchun yana yetti harf kerak. Lekin u harflar yo‘q. U yetti tovushni ana shu mavjud harflar ustiga maxsus belgi qo‘yib yoziladi” (“Devonu lug‘oti-t-turk”, I jild. B. 7–8).

Mahmud Koshg‘ariyning asarida unlilar sistemasi, unlilarda kenglik va torlik, cho‘ziqlik va qisqalik, unlilar masalasida qabilalar tiliga xos xususiyatlar va ularda teng kelish hodisasi va boshqalar keng yoritilgandir. U yozadi:

"*Yog'och* so'zini keng unli bilan ham, tor unli bilan ham qo'llash mumkin". (I jild. B. 76). Bizda hozir ham bu so'z ana shunday ikki variantda qo'llanadi. *To'r* – uyning to'ri, *to'r* – baliq ovlaydigan to'r (III jild. B. 87). *Uy* so'zini tor unli bilan ham, keng unli bilan ham qo'llash mumkin. Aran – erlar, Aran (cho'ziq *a* bilan) – otxona (I jild. B. 73). *Qurig'* ham mumkin, *qurig'* ham mumkin (I jild. B. 18).

Devonda undoshlar sistemasi sodda undoshlar, kombinator undoshlar, undoshlarda jaranglanish va jarangsizlik xususiyati, ikki undoshning qator kelishi, undoshlarning artikulyatsiya asosidagi holatlari, ayrim qo'shni tillardan kirgan undoshlar keng izohlab berilgan. Mahmud Koshg'ariy yozadi: "Turkiy tillar so'zlaridagi tovushlarda torlik, kenglik, qattiqlik, yumshoqlik, ikki undoshning qator kelish holatlari bor (qarang: Devon, I jild. B. 10).

...Bu tilda burun tovushi kelgan so'zlar o'rniga ko'ra *j* harfi bilan birikib keladi, *birinj, beshinj* degandagi kabi yoki "n" "g" bilan birikib keladi *ming, yung* degandagi kabi (III jild. B. 262) ... *h* tovushi hind xalqi bilan aralashish natijasida tilga kirgan tovushdir (qarang: "Devon...", I jild. B. 9).

Mahmud Koshg'ariy til faktlari ustida uzoq va chidamli tekshirish natijasida tilda harf tushish, almashinish, singish kabi qoida borligini birinchi marta aniqladi, bu masalalarda qoidalar tuzdi va o'z asarida, o'rni kelganda, bu xususiyatlarni ko'rsata bordi. Tilda fonetik qoidalar til taraqqiyoti qoidasiga muvofiq turli o'zgarishlarga uchragan so'zlar tarixini o'rganish, so'z etimologiyasini aniqlashda benihoyat muhimdir. Masalan, *ho'plab ichmoq* ma'nosidagi so'zning Qo'qon shevasidagina *ho'pitmoq – cho'milmoq* so'zida qolganini ko'ramiz, xolos. Shu holda bu so'zning etimologiyasini tovush o'zgarish qoidasi asosidagina aniqlash mumkin. "Devonu lug'oti-t-turk"da *o'pmoq* so'zining ikki ma'nosi bo'lgani izohlangan: I – o'pmoq (III jild. B. 143) 2 – ichmoq (III jild. B. 87) Lekin bu so'zning ikkinchi ma'nosi iste'moldan chiqqan. Ko'pdan bizda faqat

birinchi ma'nodagina qo'llanadi. Bu so'zning ikkinchi ma'nosi faqat *ho'plamoq, ho'pitmoq* so'zlaridagina saqlanib qolgan, demak, *ho'plamoq* so'zining asli *o'plamak*dir. Bizgacha so'z oldiga bir harf orttirilgan shaklda o'zgarib etib kelgan.

Fikr qilmoq ma'nosidagi *o'ylamoq* so'zining o'zagi *o'y* bo'lib, "la" affiksi ko'shilib fe'l yasalgandir. Demak, *o'y-fikr, xayol* ma'nosida qo'llangan deb taxmin qilishga to'g'ri keladi. Holbuki, bu qarash to'g'ri emasdir. «Devonu lug'oti-t-turk"da bu so'z uch erda:" I jild. B. 50, 55, 129 da uchraydi. Har yerda "qazilgan yer" y*er – uy, turar joy* ma'nosidagina izohlangan. *Uya* so'zi ham ana shu o'zakdan yasalgan. Bu so'zning bu ma'nosi fikr, xayol ma'nolaridan tamom boshqadir. Demak, fikr, xayol ma'nosidagi so'zning o'zagi *o'y* emas, boshqa bir so'z bo'lib, u harf almashish hodisasiga uchrab, bizga o'zgarib yetib kelgan. Bu so'zning asli o'y emas, aql, fikr, xayol ma'nosidagi o'gdir. Bizga harf almashinishi qoidasiga muvofiq harf o'zgarib yetib kelgan. Bu xil misollar juda ko'p. Masalan, hozir Toshkentda *chiroylik* so'zining sinonimi sifatida qo'llanuvchi *ko'hluk* so'zining o'zagi yuzaki qaraganda *ko'h* so'ziga *-lik* qo'shilib yasalgan deb taxminlash mumkin. Aslida bunday taxminlash xatodir. Buning asli *ko'rkli* bo'lib, bu so'z bir necha xil fonetik o'zgarishlar bilan o'zlashgan:

Bu so'zda o'zbek tilida mavjud bo'lgan tovush tushish fonetik qoidasiga muvofiq *r* harfi tushgan, «r» harfining tushishi o'zbek tilida keng tarqalgan hodisadir. *-lar* affiksidan *barg, charm* so'zlaridan *r* tushishi hammaga ma'lum.

K harfi *h* ga almashgan. "K"ning "h"ga almashinishi ham o'zbek tilida keng tarqalgan. So'zlarning etimologiyasini aniqlash, juda ko'p qabilalar so'zlarini qiyosiy asosda tekshirish Mahmud Koshg'ariyga fonetik hodisalarning tilda tutgan alohida muhim mavqeyini aniqlab berdi. U bu xususiyatni sinchiklab o'rgandi va birinchi marta bu haqda o'ziga xos qoidalar yaratdi. Fonetikani

birinchi marta u mustaqil ilm sifatida izohlashga asos soldi. U tuzgan fonetik qoidalar bizgacha bo‘lgan shuncha uzoq muddatda qayta-qayta ishlansa ham, ko‘plari hamon o‘shanday saqlannb kelishi tahsinga sazovordir. Masalan, u assimilyatsiya haqida shunday yozgan edi: “d” harfi *p, t, ch, k* harflariga qo‘shilganda o‘sha tovushga singib “t” ga aylanadi: *topti, etti, ochti, ekti* kabi” (“Devonu lug‘oti-t-turk”, II jild. B. 28).

Bu fonetik xususiyat hozirgi o‘zbek tili darsliklarida ham shunday ko‘rsatiladi.

Mahmud Koshg‘ariy o‘z davrining ulug‘ dialektologi edi. U o‘sha davrning benihoyat murakkab vaziyatdagi qabilalarini va ularning tillarini mukammal aniqlab chiqdi. Ma’lumki, XI asrda O‘rta Osiyoda yashovchi qabilalar ham, ularning tillari ham u davr tuzumi sharoitiga muvofiq ancha murakkab vaziyat olgan edi. Ilgarilarda kam nufuzli bo‘lgan qabilalar yiriklashgan, ba’zi qabilalar bir-birlari bilan birikishgan, yangi-yangi qabilalar paydo bo‘la boshlagan edi.

Ilgariroq boshchilik qilgan ayrim qabilalar vaqt o‘tishi bilan o‘zlarining boshdagi mavqelarini yo‘qotib, yangidan ma’muriyatga ko‘tarilgan qabilalarga tobe bo‘lib kelgan bo‘lsalar, boshqa mamlakatlardan kelib joylashib qolgan kichik nufuzli qabilalar ham o‘sib, unib yirik kabilalar qatoriga ko‘chgan edi.

Mahmud Koshg‘ariy qabilalar masalasiga alohida ahamiyat berdi. Bu to‘g‘rida u maxsus ilmiy tekshirish olib bordi. Har bir shaharnn va har bir qishloqni boshdan-oyoq birin-ketin tartib bilan sistematik o‘rgandi. Natijada u shuncha murakkab qabilalarni ham, ularning til xususiyatlarini ham, ilgarilardan shu yerlarda o‘sib-unganlarni ham, so‘ng kelib joylashganlarni ham, hatto har qabilani tashkil etgan sonsiz-sanoqsiz urug‘larni ham mukammal aniqlab chiqdi va ularning turar joylarini, jug‘rofiy mavqelarini belgiladi va o‘sha davr saviyasiga mos to‘la ilmiy asosda xarita tuzdi. Ularning yonma-yon turishlarini quyidagicha ko‘rsatadi: Rum yaqinidagi qabila bajanak,

so‘ng qipchoq, so‘ng o‘g‘uz, so‘ng yamoq, so‘ng boshg‘irt, so‘ng basmil, so‘ng koy, so‘ng yaboqu, so‘ng tatar, so‘ng qirg‘iz – bular Chin yaqinida, Rum yonidan Chinga qadar cho‘zilgan qabilalardir. So‘ng chigil, so‘ng tuxsi, so‘ng yag‘mo, so‘ng ig‘roq, so‘ng joruh, so‘ng jumul, so‘ng uyg‘ur, so‘ng tangut, so‘ng xitoy Chin shahridadir. U hatto bu qabilalarni tashkil etgan urug‘larni ham aniqlab chiqdi. Lekin ularning hammasini o‘z asarida ko‘rsatishga zarurat ko‘rmadi. U yozadi: “Har bir qabilaning behisob ko‘p urug‘lari bordir, lekin men o‘z asarimda ularning hammasini bayon qilmadim, faqat o‘g‘uz qabilasining urug‘larini va ularning chorvalarga qo‘llaydigan tamg‘alarinigina namuna sifatida ko‘rsatish bilan cheklandim” (“Devon...”, I jild. B. 27).

Mahmud Koshg‘ariy qabilalarni tarixiy asosda yoritdi. Ilgari katta o‘rin tutib, XI asrda ergashuvchi qabilalar holiga tushgan qarluqlar, tangutlar, basmil va boshqalar ham devonda keng izohlandi. O‘rxun yodgorliklaridan ma’lum bo‘lishicha, bu qabilalar IX–X asrlarda ilg‘or rol o‘ynagan edilar. Lekin XI asrlarda bular o‘zlarining mavqelarini yo‘qotib, boshqa qabilalarga singigan edi. Mahmud Koshg‘ariy hatto ilgarilar bu yerlarga kelib joylashib qolgan boshqa xalq toifalarini ham sinchiklab o‘rgandi. U tubutlar haqida shunday ma’lumot beradi: *«Tubutlar turk diyorida yashovchi bir qavm: kiyik mushki (kiyikning kindigidan kesib olib hozirlanadigan atir) tubutlarda bo‘ladi. Tubutlar bir jinoyat qilib, Yamandan qochib, dengiz yo‘li bilan Chinga borib o‘rnashib qolgan, bola-chaqa qilib urchigan, Bani Sobit avlodlaridir. Hozir ular bir ming besh yuz parsax yerda yashaydilar. Sharq tomoni Chin, g‘arb tomoni Kashmir, shimol tomoni Uyg‘ur, janub tomoni Hind dengizidir. Ular o‘z tillarini yo‘qotib, turkiy tilni o‘zlashtirgan bo‘lsalar ham, hanuz ularning so‘zlarida o‘z tillariga moslashtirish farqi sezilib turadi. Chunonchi, onani “uma” deydilar, otani “aba” deydilar».* Bu qabilalar leksikasi haqidagi bu ma’lumotlar tilshunoslarga va ularning tarixiy jihatdan ular qaysi tilga

yaqinligini ochib berishda katta ahamiyatga egadir. Mahmud Koshg‘ariy ayrim shevalargagina xos bo‘lgan til hodisalarini ham, ko‘pchilik qabilalarning umumlashgan til xususiyatlarini ham o‘z asarida izchil ravishda ko‘rsatib berdi. Bu xil ma’lumotlar O‘rta Osiyo xalqlari tillarining, shu jumladan, o‘zbek tilining tashkil topishida asos bo‘lgan qabilalarni aniqlash uchun yordam beruvchi benihoyat muhim material bo‘lib xizmat qiladi. Hatto uning asarida qabilalar tilida so‘z yasalish masalasi ham to‘la yoritildi. U til faktlari asosida qabilalarning bir-biriga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatdi va nihoyat, u davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlar asosida qabilalarning bir-birlari bilan birika boshlashi natijasida yuzaga kelgan boshlang‘ich xalq tili namunalarini ham yaqqol ifodalab berdi. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, uyg‘urlar, tatar va boshqa xalqlarning qadimgi qabilalarini va bu xalqlarning qadimgi sodda tillarining namunalarini mukammal izohlab berdi. Bu xalqlar devon materiallari asosida o‘zlarining tillari qaysi qabila tili asosida taraqqiy etib, kamolga etganini aniqlay oladilar. U o‘zining kamtarona “Lug‘atlar to‘plami” degan asarida u davrning mukammal dialektologiyasini yaratib berdi.

Bu bo‘lim hozirgi O‘rta Osiyo xalqlari tarixi uchun, shu jumladan, o‘zbek xalqi tarixi uchun ham benihoyat muhimdir. Chunki qabila masalasi tarixiy kategoriyadir. Uning boshi ibtidoiy jamiyat shakli – urug‘chilik davriga borib taqalsa, oxiri jamiyatda yuzaga kelgan taraqqiyot natijasida tashkil topgan xalq va millat bilan bog‘lanadi. Shuning uchun qabila masalasi va xalq tarixini aniqlashda muhim asos bo‘ladi. Lekin qabila masalasi qancha muhim bo‘lsa, shuncha murakkab va qiyindir. Qabila masalasi haqida ayrim tarixiy asarlar chalkashliklarga, ba’zi tarixiy asarlar qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ydi. Ayniqsa, O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi qabilalari ayrim tarixiy asarlarda qo‘pol ravishda buzib berilgandir.

Mahmud Koshg‘ariyniig qabilalar haqidagi ma’lumotlari ana shunday chalkashliklarga xotima berish, O‘rta

Osiyo xalqlari tarixi, shu jumladan, o‘zbek xalqi tarixi va o‘zbek tili tarixi uchun aniqlash qiyin bo‘lgan masalalarni aniqlashda benihoyat muhimdir. Afsuski, u kabilalar izohida ayrim aniqsizliklarga ham yo‘l qo‘ydi. Uning izohlarida ayrim qabilalar ba’zan bir xil bo‘lib qolsalar, ba’zan ular farqli qabilalar kabi izohlanadilar: unda urug‘ yaqinligi asosida yuzaga kelgan qabilalar yoki iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlar natijasida yaqinlashgan qabilalar izohida ham aniqsizlik bor. Ayniqsa, bu haqda uning o‘z xulosalari o‘zi izohlagan faktlardan ajralib qolishi kabi hollar bu haqda yana ham jiddiyroq tekshirishni talab qiladi.

Mahmud Koshg‘ariy shuncha keng hududda yashagan qabila va xalqlar tilini, ular tillaridagi farq va birlikni, ayrilish va yaqinlik kabi benihoyat og‘ir masalalarni aniqladi. Ularning tillari haqida mukammal asar yaratdi. Bu bilan u turkiy tillar tarixida, turkologiya ilmida, turkologiya tarixida yuksak o‘rin oldi. Shu bilan birga Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida til nazariyasi masalasida ham birinchi olimdir. Tilshunoslik ilmidagi eng qiyin masalalardan bo‘lgan tilning kelib chiqishi, so‘z turkumlarining qay biri oldin paydo bo‘lganligi, ikki tillik masalasi, chet tillar ta’siri masalasi kabi qator sof nazariy masalalarga ham to‘xtaldi. Ikkinchi xil aytganda, til nazariyasi sohasida ham nazariyotchi olimlar qatoridan o‘rin olishga sazovor bo‘ldi. Shuni ham aytish kerakki, bu masalalarda u, albatta, o‘sha davr saviyasiga mos fikr yuritdi. Marksistik nuqtai nazardan ularga ayrim e’tirozlar qilish, ko‘pgina tuzatishlar kiritish mumkin bo‘lsa ham, bu masalalarda dastlabki mulohazalar uning sharafiga oiddir.

“Devon...”dagi til faktlari yolg‘iz XI asrgagina oid bo‘lmay, ular yana ham qadimgi davrlar tilidan ham namunadir. Chunki Mahmud Koshg‘ariy til faktlariga tarixiy asosda yondashadi. U o‘z oldiga til tarixini yoritib berishni asosiy vazifa qilib qo‘yadi. Uning o‘z so‘zi bilan aytganda, u bu asarini tilning qadimgi holini o‘rganuvchilarga narvonlik xizmatini qiluvchi qo‘llanma, keyingi davrdagi til o‘rganuvchi tadqiqotchilarga unga

qiyos qilib foydalanishlari va kerakli ilmiy xulosalarni chiqara olishlariga mos ko‘prik qilmoqchi bo‘lgan edi. Shuning uchun u o‘z asarida til faktlarining o‘sha davrga xos xususiyatlarini ham, avvalgi holatni ham, qadimgi davrlardan boshlab kitob yozilgan davrgacha yuzaga kelgan o‘zgarishlarni ham izohlab beradi. Bu jihatdan devon tilning juda qadimgi tarixini, urug‘chilik davri tilini ochib berish ahamiyatiga ham ega bo‘lgan benihoyat muhim manbadir.

Mahmud Koshg‘ariy yolg‘iz tilshunosgina emas, shu bilan birga u ulug‘ adabiyotchi, tarixchi va boshqa ko‘p fanlardan xabardor bo‘lgan o‘z davrining yirik fan arbobi edi. Uning bizgacha etib kelgan noyob asari “Devonu lug‘oti-t-turk” bizga uni mana shunday ulug‘ olim sifatida tanitadi.

Mahmud Koshg‘ariy XI asrda yashab ijod etdi. Mahmud Koshg‘ariy bilan biznnng oramnzni 9 asrlik g‘oyat cho‘ziq bir muddat ayiradi. Biroq uning o‘z davrida xalqqa qilgan chidamli xizmati uni bizga yaqinlashtiradi. Insonlarning mehnati, olimlarning ilmiy faoliyati ko‘klarga ko‘tarilgan davr unga sharafli o‘rin beradi. Uning merosi O‘rta Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda bebaho durdona bo‘lib xizmat qiladi.

XI asrning qimmatli yozma yodgorligi “Devonu lug‘oti-t-turk”

XI asrda bir qancha ilmiy, tarixiy asarlar yaratilgan bo‘lsa ham, bu asarlarning ko‘plari bizga etib kelmagan. Beruniy asarlari va Ibnu-l-Asir, Jurji Zaydon va boshqa tarixiy asarlar u davrgacha bo‘lgan ko‘pgina noyob asarlar yondirilganidan darak beradilar. Akad S.P. Tolstov u davrlarda Qutayba har bir yozuv bilgan kishini halok qilgan, deb yozadi. Shuning uchun u asarlarning ko‘plari bizga etib kelmagan. U davrdan bizga salomat etib kelgan asarlarning biri “Devonu lug‘oti-t- turk”dir.

Bu asar katta hajmlik uch jilddan ibratdir. Asar muallifi Mahmud Koshg‘ariy izohidan ma’lum bo‘lishicha, har uch jild 469-yilgacha (hijriy) yozilib bitilgan. U shunday

yozadi: *"Nok yili turklarning o'n ikki yil nomlarining biridir. Bu kitobning yozilgan yili nok yili edi"*[2]. Asarning yozilib bitgan yili aniq bo'lsa ham, asar ustida qancha vaqt ishlagani haqida biror ma'lumot yo'q. Asarning kattaligi, ko'pqirrali ekani, unda juda katta ilmiy masalalar ko'pligi bu haqda muallif 15 yil ishlagan degan rivoyatning to'g'ri bo'lishiga shubha qoldirmaydi.

Bizga "Devon..."ning birgina qo'lyozmasi yetib kelgan. Qo'lyozma Istanbulda saqlanadi. Qo'lyozma haqida bungacha deyarlik to'liq ma'lumot berilmagan. Shuning uchun biz qo'lyozma haqida biror fikr aytolmaymiz. Qo'lyozmann ko'chiruvchi kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy ma'lumotiga ko'ra, u qo'lyozma asar muallifi Mahmud Koshgariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan ko'chirilgandir. Lekin qo'lyozma bizda yo'qligi uchun biz o'z tarjimamizda ("Devon..." tarjimasida) Istanbulda bosilgan bosma nusxa asosida ish ko'rdik. Bosma nusxa katta hajmli uch jildlikdir.

I jild – 436 bet, II jild – 294 bet. III jild – 333 bet. I-II jildlar hijriy hisobida 1333-yilda, III jild 1335-yilda bosilgandir. Bu qimmatli asarni bostirish qanchalik muhim bo'lsa, bu ishda u yagona nusxaning butun xususiyatlarini to'la berish, zarur o'rinlarni izohlash va nihoyat, ehtiyotkorlik bilan ish olib borish shuncha muhim va zarur edi. Lekin bosma nusxada bu asosiy qoida unutilgan. Biz o'z tarjimamizni Basim Atalay nusxasiga solishtirib katta foyda oldik. Mundarijasiga ko'ra, "Devon..."ni ikki asosiy bulimga ayirish mumkin:

Muqaddima

Lug'at qismi.

Muqaddimada muallif turk tilining ahamiyati va xususiyatlari, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, asarning tuzilish tartibi, qo'llanilgan yozuv, fe'llardan yasalgan ismlar, so'zlarning tuzilishi va o'zgarishi, zikr qilinmagan sifatlar, masdarlar haqida, turk tabaqalari va qabilalari haqida qisqacha izoh beradi.

Lug‘at bo‘limida muallif u davrda iste’molda bo‘lgan hamma so‘zlarni qamrashga intilgan va ularni etarli darajada ilmiy, tarixiy nuqtai nazardan keng va to‘liq yoritgan. Mahmud Koshg‘ariyning so‘ziga ko‘ra, u o‘zining bu asarida o‘sha davrda iste’moldan chiqqan so‘zlarnigina tushirib qoldirgan. “Men “Devon...”da ishni ixchamlashtirish maqsadida tilda qo‘llanib turuvchi so‘zlarnigina berdim. Iste’moldan chiqqanlarini qoldirdim”– deydi (I jild. B.5). Mahmud Koshg‘ariy “Devon...”da arxaik so‘zlar namunasini ham ko‘rsatib, ularning juda ko‘p ekanini uqtiradi. Bu esa “Devon...”da izohlangan til juda qadimiy ekanligidan darak beradi.

So‘z shakllarini shuncha uzoq muddatga yetkazishda Mahmud Koshg‘ariy tutgan alohida tartibning ahamiyati kattadir. Bu tartib asosida qo‘lyozma zararlangan, o‘zgargan taqdirda ham qaysi so‘z qanday boshlanishi, o‘rtada, oxirida qay harf borligi va boshqalarni aniqlash osondir. Ehtimol, Mahmud Koshg‘ariyning bu tartibni qo‘llashda kuzatgan maqsadi ham shudir.

“Devon...”da so‘zlar ikki (ism, fe’l)ga ayirib ko‘rsatiladi. Oldin ismlar, so‘ngra fe’llar beriladi. Ismlarda ham, fe’llarda ham oldin hamza (u, o, a.) harflari bilan boshlanadigan so‘zlar, keyin maxsus alifbe tartibida ب (b), ت (t) va boshqa harflar bilan boshlangan so‘zlar izohlanadi. “Devon...”da oz harfli so‘zlar oldin, ko‘p harfli so‘zlar keyin beriladi. Mahmud Koshg‘ariy eng kam harfli ism ikki harfli, eng ko‘p harfli ism yetti harfli deb taxmin qiladi.

Tillarni uzoq davrlar davomida jamiyat a’zolarining ishtiroki bilan, jamiyatdagi taraqqiyot bilan bog‘liq o‘sib rivojlangan tarixiy kategoriya deb qaralgani uchun tilning tarixini, jamiyat tarixini o‘rgannshda va uning qadimgi holini aniqlashda birdan-bir asosiy hujjag hisoblangan yozma yodgorliklarning ahamiyati benihoyat kattadir. Chunki til turmush bilan bog‘liq, turmush talablariga muvofiq o‘sib takomillashuvchi ijtimoiy hodisadir. Shuning uchun til har bir davrda ham jamiyat a’zolarining o‘zaro aloqasi uchun xizmat qilish vositasi bo‘ladi.

Tillarning qadimgi davrlarida yuzaga kelgan o‘ziga xos davriy yangiliklar o‘sha davr yozma yodgorliklarida saqlanib qolgandir. Hozirgi o‘zbek tili bu kunninggina mahsuli emas, balki ma’lum bir tarixiy bosqichda qadim yuzaga kelgan boshlang‘ich, sodda tilning o‘zgargan, takomillashgan holidir. U bungacha fonetika, leksika, morfologiya va boshqa sohalarda katta o‘zgarish va taraqqiyot bosqichlarini kechirgan. Ana shu o‘zgarish va taraqqiyot yo‘llarini va uning qadimgi ahvoli qanday bo‘lganini, u vaqtdan boshlab tilda qanday yangiliklar yuzaga kelganini, ularning nimadan iborat ekanini ilgarigi yozilgan yodgorliklar ustida qiyosiy asosda tekshirish hal qiladi. Til tarixini o‘rganish, tilda yuzaga kelgan o‘zgarishlar, ayni vaqtda xalq tarixi uchun ham asos bo‘ladi. Chunki tilda yuzaga kelgan yangilik, jamiyatda yuzaga kelgan taraqqiyot va o‘zgarish bilan bog‘liq maydonga keladi.

O‘rta Osiyo xalqlari tarixida benihoyat muhim manba bo‘lgan bu asar soddacha lug‘at deb mashhur bo‘lgan esa-da, aslida bu yolg‘iz u davr tilidagi so‘zlarni izohlovchi lug‘at kitobigina emas, balki shu bilan birga, o‘sha davrda butun O‘rta Osiyo doirasida, ya’ni Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta hududda yashovchi urug‘lar, qabilalar, xalqlar va ular tillarini, u davr tilining fonetikasi, morfologiyasi haqida to‘liq ma’lumot beruvchi va u davr tilidagi har xil adabiy janrlardan namunalar beruvchi nodir filologik asardir. Shuning uchun bu asar O‘rta Osiyo xalqlari tarixini yoritish uchun, xususan, til tarixini o‘rganish uchun benihoyat muhim asardir.

Ayniqsa, “Devon...”da qabilalar haqidagi ma’lumot juda muhim. Qabila masalasi u davrda, ayniqsa, ancha murakkab edi. Mamlakat idorasida yuz beruvchi tez-tez o‘zgarish va almashishlar bilan bog‘liq qabilalar o‘rni tez-tez almashar, yangi qabilalar paydo bo‘lar, birovlar ko‘char, birovlar kelar edi. Hatto bu hodisalarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib turgan o‘sha davr kishilari ham farq qila olmas edilar.

Mahmud Koshg‘ariy yozadi: *“Chinga qadar cho‘zilgan Jayxun qirg‘oqlarida yashovchilarni o‘g‘uzlar chigil, deb ataydilar. Bu xatodir. Bu yerlarda yolg‘iz chigillar emas, ko‘pgina qabilalar yashaydilar”.* Qabilalar masalasi chigalligi, o‘sha davrda yashab turganlar ham chalkashganini ko‘rsatuvchi bu xil faktlar ko‘pdir. Lekin bu hodisalarni e’tibor bilan kuzatib borgan Mahmud Koshg‘ariy bu chigal masalalarni mukammal aniqlay olgan va ularni zarur o‘rinlarda o‘z asarida izohlab bergan.

Mahmud Koshg‘ariy ma’lumotiga ko‘ra, XI asr boshlarida etti qabila birlashmasini anglatuvchi etnik termin sifatida “Arg‘u” termini qo‘llanar edi. Mahmud Koshg‘ariyning qabilalar ustidagi chuqur tekshirishlari unga bu hududda yashovchi qabilalarning uzoq tarixi haqida puxta ilmiy xulosalar chiqarishga zamin yaratdi. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida bu hududda yashovchi qabilalardan, til faktlariga ko‘ra, qay biri eski qabila ekanini, qaysilari keyin vujudga kelganliklari, qaysi qabilalarning tillari nuqsonli yoki to‘g‘riligini, ayrim qabilalar tilida yuzaga kelgan kamchilik sabablarini, qo‘shni xalqlar bilan munosabatlarning tilga ta’siri masalalarini, u yoki bu qabiladagi yozuv tarixini, shaharliklar tillarini, hatto qaysi shahar xalqlari necha tilda so‘zlashishlarigacha mukammal ko‘rsatib berishga muvaffaq bo‘ldi. Shu bilan birga u qaysi qabilalar bir-biriga yaqin-uzoqligini turli til faktlari asosida keng yoritdi.

Mahmud Koshg‘ariyning u davrdagi qabilalar hayotini sinchiklab o‘rganishi, bir tarafdan, asarda u davr qabilalari tillarini puxta yoritishga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchidan, xalq tarixining dastlabki bosqichida alohida o‘rin tutgan qabilalar tarixini aniqlashda ham benihoyat muhim manba bo‘lib qoldi.

Ma’lumki, qabilalar masalasida tarixiy asarlarning ma’lumotlarini ilmiy jihatdan to‘g‘ri deb hisoblash qiyin. Masalan, ancha mashhur tarixiy asarlardan hisoblanuvchi Rashididdin asarida o‘g‘uz qabilasi quyidagicha izohlangan: *“Qoraxonning xotinidan bir o‘g‘il tug‘ildi. U uch kecha-*

kunduz onasini emmadi. Har kecha ul o'g'lon onasining tushiga kirib aytur edi: "E ona, musulmon bo'lg'il, agar bo'lmasang, sening emchagingni emmasman... O'g'lon bir yoshga yetdi. Qoraxon ulug' to'y qildi. Beklariga aytdi: munga ot qo'yarsiz. Beklar javob bermasdan burun o'g'lon aytdi: mening otim O'g'uz turur. Bir yashar o'g'lonning gapirganidan o'tirganlar taajjub etdilar"[263].

O'g'uzlar haqidagi bu ma'lumotning haqiqatga xilof ekani, bu asar muallifining Qoraxon davlati o'zi bilan tugamay, o'g'liga ham o'tishi zarurligini, uning sulolasi doim hukmron bo'lishini ommaga tashviqot qilish va shu g'oyani ular ongiga singdirishga intilishdan boshqa narsa emasligi har kimga ravshan. Shu bilan muallif O'g'uz qabilasi haqidagn tarixni buzib ko'rsatgan. Asarda, bir tarafdan, qabilalar to'la ko'rsatilmasa, ikkinchidan, boshqa qabilalar: uyg'ur, qangli, qipchoq, qarluq va boshqalar haqidagi izohlarda ham muallif xuddi shunday yondashgan, qabilalar tarixini buzib ko'rsatgan. Shuning uchun xalq tarixini, ayniqsa, til tarixini o'rganishda tarixchi va tilshunoslar tarixiy asarlarga tanqidiy qarashlari, moddiy faktlarni o'rganishlari va ularga asoslanishlari lozim bo'ladi. Demak, qabilalar haqida tarixiy asarlardagi ma'lumot qanoatlantirmaydi. Axir o'g'uzlarni hamma qabilalarning otasi deb talqin etishning xato ekanligi hammaga ravshan. Mahmud Koshg'ariy ham O'g'uzni qabilalarning otasi deb ko'rsatadi. Lekin hamma qabilalarning emas, ma'lum guruh qabilalarning otasi deb to'g'ri izohlaydi. U guruhga kiradigan qabilalar orasidagi barcha munosabatlarni boy til faktlari asosida izohlab beradi. Hatto u o'z asarida bu guruhga kiradigan qabilalarning tillaridagi yaqinlik yoki uzoqlik faktlari asosida ularning tarixiy kechirmalari, bular orasidagi munosabat qadimgi yoki so'nggi hodisa ekanini ochib beruvchi asoslarga ham keng o'rin bergan. Tarixiy asarlarda

[3] Qarang: Рашидиддин. Сборник летописей. II т. Ташкент, 1862.с. 81.

o‘g‘uzlarga nisbatan berilgan qabilalarning katta bir qismini Mahmud Koshg‘ariy ikkinchi bir guruhga kiritadi va o‘zining bu tasnifi ular tillaridagi mavjud farqlarga asoslanganini maxsus bir bo‘limda keng izohlab beradi. Demak, “Devon...” ma’lumotlari yolg‘iz til tarixi uchungina emas, shu bilan birga xalq tarixi uchun ham benihoyat muhimdir. Bu yerda akad. V.V. Vinogradov qabila tillarini o‘rganish ishini yolg‘iz tilchilar uchungina emas, shu bilan birga tarixchilar, arxeologlar, etnograflarning ham asosiy vazifasi deb ko‘rsatadi. O‘rta Osiyo xalqlari tarixida yuz bergan kamchiliklar, tarixchilar bu tomonga e’tibor bermaganlaridan kelgan deb, shunday yozadi: “O‘rta Osiyo xalqlari va O‘rta Osiyo madaniyatining kelib chiqishini yoritishda yuz bergan xato: ko‘pchilik tarixchilar qabilalar, xalqlar, millatlar kelib chiqishini yoritmasliklaridadir”.

O‘zbek xalqi tarixidagi xato qarashni dastlab prof. A.P.Yakubovskiy fosh qildi. U yozadi: “Uzoq vaqt davomida hatto hozir ham to‘la barham berilmagan qarash, ya’ni o‘zbek xalqining tarixi XV asrda O‘rta Osiyoga kirishga uringan va faqat XVI asrning boshidagina Shayboniyxon rahbarligida uni to‘la zabt etgan ko‘chmanchi o‘zbeklardan boshlanadi degan fikr hukm surdi. Afsuski, bu qarash keyingi vaqtlarda chiqqan SSSR tarixi darsliklarida ham aks etdi”[4].

O‘zbek xalqi tarixi haqidagi bu xil xato qarashlar o‘zbek tili tarixiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdn. Ayrim turkologlar til tarixiga til faktlarini puxta tekshirish asosida yondashmay, yuzaki yondashdilar, ba’zan ayrim tarixiy asarlardagi uydirmalar asosida ish olib bordilar. Ular bu usuldagi ishlari bilan yozma yodgorliklarni o‘rganish ishiga futur etkazdilar, yozma yodgorliklarning xalq tarixini aniqlashda tutgan muhim o‘rniga xalal yetkazdilar. Shu bilan til tarixi sohasida ham turli chalkashliklar yuzaga kelishiga sababchi bo‘ldilar. Bu masalada akademik V.V. Radlovning XI asrning qimmatli yodgorligi “Qutadg‘u bilig” dostoni haqidagi ishini misolga olish mumkin.

"Qutadg'u bilig" haqidagi dastlabki ish qadimgi turkiy tillarni yaxshi bilgan akademik V.V.Radlov nomi bilan bog'liqdir. Akad. V.V.Radlov bu katta hajmli asarni boshdan oyoq nemis tiliga tarjima qildi. Lekin u bu asarni uyg'urchaga nisbat berdi va bu asar ustidagi ishida asarni uyg'urchalashtirishga, uyg'ur tili elementlarini bo'rttirib berishga urindi. Bu qo'pol xato tezda tanqidga uchradi. Akad. Tomsen V.V. Radlov ishida yo'l qo'yilgan xatolarni qattiq tanqid qildi. Ayniqsa, asarda zo'rma-zo'raki uyg'urlashtirishdagi ilmga xilof xatolarni fonetik qonunlar, vazn va qofiya qoidalari asosida mukammal ko'rsatib berdi.

Natijada akad. V.V.Radlov o'z xatosiga tan berdi. Asarning so'ngso'z qismidayoq o'z xatosini iqror qilib izoh yozdi. V.V.Radlovning o'z so'zi bilan aytganda: bu asarni uyg'urchaga nisbat berishda u asarning til faktlari ustidagi tekshirishlariga asoslanmay, balki ilgarilar shu yerlarda topilgan asarlarga o'xshatib taxminlash bilan xato qilganiga uzr bayon qildi (Qarang: Das Qutadgu blik. B.551).

Prof. S.K.Malov chig'atoy tiliga oid bir qancha yozma yodgorliklarni izohlar ekan, "Qutadg'u bilig"ni uyg'urcha emas, uyg'ur harfi bilan yozilgan eng eski chig'atoy tili yodgorligi deb ko'rsatadi: "Uyg'ur yozuvi yodgorliklari sohasidagi qadimdan turkologlar qo'lida bir qancha yodgorliklar bor... qat'iy qilib aytganda, ular uyg'ur tilida yozilgan emas. Ular faqat uyg'ur harflari bilan yozilgan O'rta Osiyo chig'atoy tili yodgorliklari hisoblanadi. Bunga... turk-musulmon adabiyotining eng qadimgi yodgorligi "Qutadg'u bilig" ham kiradi"[295].

Bular hammasi yozma yodgorliklar puxta o'rganilmaganini, shuning uchun ham o'zbek tili tarixida bir qancha chalkashliklar hukmron ekanini isbotlaydi.

"Devon..."da iqtibos o'rnida keltirilgan maqola va adabiy parchalar qadimgi adabiy janrlarning namunasi sifatida folklor va adabiyot tarixi uchun behad muhimdir.

---

[5] Малов С. Е. Памятники древнерусской письменности, 96-97-б.

Undagi adabiy parchalar bir butun asar holida berilmagan bo‘lsa ham, Mahmud Koshg‘ariyning bu parchalar izohi ustidagi ko‘rsatmalari, u parchalar qandaydir biror qasida, qo‘shiq, dostonlarning bo‘limi ekanidan dalolat beradi.

Ularni bahor sevinchlari, jang sadolari, botirlarning qo‘-shiqlari, sevgi tuyg‘ulari, ta’limiy parchalar, tabiat tasviri va boshqa mavzular ostida ayrim asarlarga biriktirish mumkin.

“Devon...”dagi adabiy parchalar va ular haqidagi Mahmud Koshg‘ariy uqtirishlari, Mahmud Koshg‘ariyning adabiy asarlar tili ham qiziqqanini, adabiy asarlarni ham diqqat bilan o‘rganganini isbotlaydi. Mahmud Koshg‘ariy devonda yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa ham, ba’zan vazn haqida, ba’zan adabiy janrlar haqida, ba’zan istiora, tashbih va boshqa she’riy xususiyatlar haqida ma’lumotlar beradi. Bu xil faktlar she’riy asarlarga doir qoidalar boshlang‘ich holda bo‘lsa ham, o‘sha davrlardayoq vujudga kelganidan darak beradi.

U davrda o‘sha davr saviyasiga mos poetik maktab vujudga kelgan edi. Poetik talablarga to‘la javob berarlik “Qutadg‘u bilig” asari shuni isbot qiladi. Shu xil faktlarga ko‘ra, u davrda yana boshqa bir qancha asarlar yozil-ganligini taxmin qilish ham, albatta, mumkin. Bu fikrni “Devon...”dagi ayrim parchalar ham isbotlaydi. “De-von...”dagi ayrim parchalar u davrda butun hayotini ilmiy, ijodiy ishlarga bag‘ishlagan, katta asarlar yaratgan yozuv-chilar bo‘lganidan darak beradi.

Kuchandi bilagim, yog‘udi tilagim, Tilindi bilagim tegrib angar jartilur.

(Ko‘p yozish natijasida bilaklarimga og‘riq keldi, toldi. Endi maqsadga yaqin qoldi, dilimda hikmat chashmalari ochildi, zamon meni shu darajaga yaqinlashtirganda umrim tugayozdi).

Bu xil yozuvchilar bir qancha asarlar yozganliklariga shubha yo‘q. Biroq ular bizga yetib kelmagan. Demak, ayrim shaxslarning qadim davrlarga oid adabiy asarlarining

bizga etib kelmaganini O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy qoloqligidan, deb izohlashlari butunlay tuhmatdir.

Ma’lumki, irqiy nazariya vakillari, O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyatinigina emas, balki bu xalqlardan yetishgan olimlarga ham shubha bilan yondashganlar. Mashhur “Tarixi Komil” asarining muallifi Ibnu-l-Asir O‘rta Osiyo xalqlaridan chiqqan ulug‘ falakiyot olimi Qutulmishning o‘z davrining tengsiz olimi ekaniga hayron qolnb shunday yozadi: “Falakiyot va ilmi nujumga yagona olim Qutulmishnnng turkiy xalqlaridan ekani hayron qolarlik holdir” (“Tarixi Komil”, 10-jild. Qohira, 1844. B.14).

Hech shubhasiz, u davrlarda bir qancha asarlar yozilgan, lekin ular bizga yetib kelmagan...

Shuni ham aytish kerakki, “Devon...”da berilgan adabiy parchalar yolg‘iz XI asr adabiyotidangina namuna bo‘lmay, shu bilan birga ularning katta bir qismi juda uzoq o‘tmish davrlar mahsulidir.

Masalan, “Devon...”dagi yaboqu va basmillar kurashi haqidagi parchalar juda uzoq o‘tmishga doir parchalardir. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, yaboqu qabilasining boshlig‘i Arslon tekinning uzoq o‘tmishi ma’lum. Bu parchalarni Kultegin obidalaridagi yaboqu va basmillarga nisbat berish ham mumkin. “Devon...”da berilgan tabiat tasviri haqidagi parchalar, sevgi haqidagi ruboiylarning katta bir qismi yana ham uzoq o‘tmishga doir parchalardir. Bu jihatdan “Devon...”dagi parchalar adabiy harakatning juda uzoq tarixini belgilashga xizmat qiluvchi eng muhim hujjatlardir.

“Devonu lug‘oti-t-turk”da yo‘l-yo‘lakay berilgan geografik ma’lumotlar ham diqqatga sazovor. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida shuncha keng va katta hududda o‘sha davrda bo‘lgan hamma shahar va qishloqlardan, dengiz va ko‘llardan, ularning tarixidan, jug‘rofiy mavqeyidan, ularda yashovchi xalqlardan, hatto ba’zan unda bor hayvon va o‘simliklardan ham ancha keng ma’lumot beradi. Bu jihatdan asarning qiymati benihoyat ulug‘ va tengsizdir.

"DEVONU LUG'OTI-T-TURK"NING O'ZBEK TILIGA MUNOSABATI MASALASI

Bu asarning hozirgi o'zbek tiliga munosabati masalasiga kelganda, dastlab shuni aytish kerakki, o'zbek tili uni yaratgan o'zbek xalqi kabi juda uzoq muddat davomida turli hollarni kechirgandir. O'zbek xalqining uzoq vaqtlar kechirgan og'ir hayot sharoiti uning o'zini ham, uning tilini ham unutilar darajaga etkazdi. Ayniqsa, o'zbek tili XIV asrning oxirlarida juda ayanchli holga tushdi. Bu davr tilini qayta tiklashla ulug' yozuvchi Navoiyning xizmati behad ulug'dir. XV asrning gigant olimi va shoiri ulug' ustod Abdurahmon Jomiy so'zi bilan aytganda, Navoiy o'sha davrda unutilar darajaga tushgan o'zbek tilini qaytadan tiriltirdi, yangidan uni dunyo sahnasiga ko'tarib chiqdi.

Suxanroqi az ravnaq aftoda bud,
Ba kunji javon raxt biymhoda bud,
Tu dodi omgar bora in obro'y,
Kashidi ba javlon gah guftu go'y.

Bu sohada Alisher Navoiyning tahsinga sazovor ishi hammaga ravshan. Lekin Navoiy davrida yuzaga kelgan burilish vaqtli bir burilish bo'ldi. O'zbek tili yana turg'unlikka duch keldi...

O'zbek tili tarixi ustida prof. A.K.Borovkovning xizmati behad ulug'dir. O'zbek tili tarixida yuzaga kelgan bu hollar "Devon..." tili bilan hozirgi zamon o'zbek tili orasida katta farq borligini ko'rsatadi. Bu asr til faktlarining hozirgi tilga munosabatini aniqlash fonetika, leksika, morfologiya va grammatika sohalarida maxsus qiyosiy ish olib borishni talab qiladigan benihoyat katta va murakkab masaladir. Bu ish tnlshunos olimlar tomonidan yaqin kelgusida hal etilishi lozim bo'lgan g'oyat dolzarb muammo hisoblanadi. Biz bu yerda o'z kuzatishlarimiz to'g'risida umumiy mulohazalarni aytish bilan cheklanamiz. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, u davr tili leksikasi hozirgi

o‘zbek tili leksikasiga asos bo‘lgan. “Devon...”dagi so‘zlarning bir qismi til taraqqiyot qonunlariga muvofiq arxaik holga tushgan bo‘lsa ham, asosiy qismi turli hollarda yoki butunlay o‘zgarishsiz va yoki ba’zi o‘zgarishlar bilan bizga etib kelgan. Shu orada turmushda qo‘llanib kelgan va bir qancha yangi so‘zlar yasalishiga manba bo‘lib xizmat qilgan. Ba’zi so‘zlar til taraqqiyoti qonunlariga muvofiq benihoyat o‘sib urchigan, bir qismi siyrak uchrovchi bir holga tushgan. Ba’zilarining shakli o‘zgargan, ba’zilarining ma’nosi o‘zgargan, ba’zilari turmushdan chiqqan.

“Devon...” tili ustidagi kuzatishlarimiz u davr tili morfologik xususiyati: so‘z yasalishi, so‘z turlanishi masalalarida ham shunday yaqinlikni isbotlaydi. Ayniqsa, u davr til faktlari jonli tilga juda mosdir. Masalan, “Devon...”da uchrovchi *a, he* kabi bir qancha undov so‘zlar, erkalash affiksi “-qi”, ravish yasovchi “-la” affiksi, buyruq fe’li oxiriga qo‘shilib, ta’kidni anglatuvchi “-chi” affiksi va boshqalar bugungi o‘zbek adabiy tilida uchramaydi. Demak, bu xil so‘z va morfologik xususiyatlar o‘zbek tilida bo‘lmaganmi degan shubha kelib chiqadi. Lekin jonli o‘zbek tiliga, o‘zbek tilining dialektlariga kengroq solishtirganda, bu xususiyatlar ham hozirgi jonli o‘zbek tilida, o‘zbek tilining dialektlarida to‘la mavjud ekani ma’lum bo‘ladi. Masalan, “-la” affiksi qo‘shib ravish yasash “hozirgina” ma’nosida *yangila* tarzida qo‘llash Farg‘ona vodiysida hozir ham keng uchraydi. O‘zakka “-qi” affiksi qo‘shib erkalash ma’nosida qo‘llash ham hozirgi jonli tilda to‘la saqlangan: *otoqi* – otaginam, *opoqi* – opaginam kabi. XI asr yodgorliklarida uchrovchi “a” undovi u davrda faqat ajablanish ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, u hozirgi tilda yana ham keng ma’noda, ya’ni inkor, hayronlik, ajablanish, afsus ma’nolarida qo‘llanadi. Fe’l o‘zagiga qo‘shilib, ta’kid bildiruvchi “-chi” affiksi ham hozirgi jonli tilda barqarordir. *Bor-chi – bor, kelma-chi – kelma* kabi.

U davrda qabilalar tilida farqli qo‘llanuvchi dialektal xususiyatlarning ham hozirgi o‘zbek tili dialektlarida mavjudligi ayniqsa diqqatga sazovordir. Mahmud

Koshg‘ariy ayrim so‘zlarni izohlar ekan, u so‘z talaffuzida qabila tilida farq borligini ba’zilar bir so‘zni *a* bilan, ba’zilar shu so‘zni *e* bilan talaffuz qilishlarini qayd qilgan. Bu xususiyat hozirgi o‘zbek tili dialektlarida hozir ham saqlanibgina qolmay, hatto ko‘pgina so‘zlarda uchraydi. Man – men, yangi – engi, chechak – chachak, sanchti – senchti, kama – kema, tagida – tegida, sakratmoq – sekratmoq, chakmoq – chekmoq, chakka – chekka va boshqalar. Mahmud Koshg‘ariy o‘sha davrda “uy” so‘zini keng va tor lablangan unlilar bilan qabilalar orasida farqli talaffuz qilganini ko‘rsatgan. Bu xususiyat hozirgi o‘zbek tili dialektlari (Toshkent va Farg‘ona)da saqlanib kelayotgani hammaga ravshan. Bu hodisa Toshkent va Farg‘ona dialektlari o‘sha davrdayoq mavjudligini va ular yagona o‘zbek xalq tilining tashkil topishida ishtirok etgan asosiy dialektlardan ekanini ham ochib beradi.

XI asr tili dialektlarida so‘z boshidagi *i* bilan *iy* almashinishi ham hozirgi o‘zbek tili dialektlarida to‘la saqlangan. Masalan, “uya” ma’nosidagi “in” so‘zi “in” tarzida ham “yin” tarzida ham qo‘llanar edi (I jild. B. 36). *Ilig‘* ham *yilig‘* ham bor edi (I jild. B. 46). Mahmud Koshg‘ariy ma’lumotiga ko‘ra, bu hodisa tilda eski hodisa edi, qaysi varianti qaysi qabila xususiyati ekani ham noaniq bir holga kelgan edi. Lekin Mahmud Koshg‘ariy izohiga ko‘ra, “yi”lash varianti eski shakl bo‘lib, “i”lash yangilik edi. Masalan, u “ilig‘” so‘zini izohlar ekan, shunday yozadi: “ilig‘” so‘zining asli *yilig‘* edi (I jild. B. 46).

Bu xususiyat u vaqtda kam tarqalgan, sanoqli so‘zlardagina ko‘rinar edi. Ko‘pchilik so‘zlar devonda “i” bilan berilgan. Hozirgi tilimizda ham bu xususiyat to‘la saqlangan, balki juda taraqqiy qilgan, hatto boshqa unlilarga ham yoyilgandir. Hozir ko‘p so‘zlarda har ikki variant bilan farqsiz, teng qo‘llanadi. *Ilon – yilon, iroq – yiroq, irik — yirik, igirmoq – yigirmoq, ip eshmoq – ip eshmoq, itmoy – yitmoq, utmoq – yutmoq* va boshqalar. Bugina emas, “Devonu lug‘oti-t-turk”da izohlangan yana ko‘pgina

qabilalarning til xususiyatlari ham hozirgi tilimizda mavjuddir.

Bu faktlar, ya'ni u davr qabilalar tilida bor xususiyatlarning bizning tilimizga etib kelishi hozirgi tilimizning ko'p dialektlilik mohiyatini ochib berish, o'zbek xalqi tiliga asos bo'lgan qabila tillarini anislash, ikkinchi xil aytganda, o'zbek tilining kelib chiqishini yoritish uchun ham benihoyat muhimdir.

Xullas, XI asr yozma yodgorliklari til faktlarinnng asosiy qismi hozirgi o'zbek tilida barqarordir. Darrov sezilmovchi ayrim xususiyatlar ham bor. Lekin ularni jiddiyroq tekshirganda, ya'ni jonli til, dialektlarga qiyos qilganda ular ham hozirgi tilda hamon qayerdadir borligi aniqlanadi.

Devon tarjimasi va transkripsiyasi haqida

Biz "Devonu lug'oti-t-turk" tarjimasini bizdan oldingi ikki olim: Brokkelman ("Devon..."ni nemis tiliga tarjima qilib, 1928-yilda Leypsigda nashr etgan) va Basim Atalay (usmonli tiliga tarjima qilib, 1939-yilda Anqarada nashr etgan) tomonidan qilingan tarjimalarga solishtirdik. Lekin biz o'z tarjimamnzda Mahmud Koshg'ariy izohlarini to'la saqlashga intildik.

Mahmud Koshg'ariy o'z asarida u davr tilining faqat fonetikasi, morfologiyasi, leksikasi va dialektologiyasinigina emas, shular bilan bir qatorda u davr tilining yozuvi, orfografiyasi va orfoepiyaci masalalarini ham keng izohlab bergan. Lekin asarda qisqa unlilar ham, uzun unlilar ham birgina shakl bilan ifodalangan. Jarangli va jarangsiz tovushlar ham birgina shaklda berilgan. Lekin asarda yo'l-yo'lakay so'zlar imlosi va talaffuzi haqida berilgan izohlar "Devon..."dagi so'zlarning har birini to'g'ri yozish imkonini beradi. Bu hol asarni bosmaga tayyorlashda maxsus metod qo'llashni talab qildi. Tarjimada shu xususiyatni saqlashga harakat qilindi.

I) oldin so‘zlarning o‘z shakli ko‘rsatilib, yonida uning transkripsiyasi berildi;

II) quyidagi transkripsiya belgilari qo‘llandi:

a – a:, a – a:, b – b, v, g‘, g, g, j, z – z, i – *i*, j, k – k, k, l –1, m, i,

n, o, b. p, r, s, t, u, o‘, f, w, x, h, g, j, j, sh, e

III) *b* bilan *p* o‘rnidagi noaniq “ب” shakli uchun “b” shak-lini, *k* bilan *g* tovushlari o‘rnida berilgan noaniq “ك” shakli uchun *k* belgisini, *ch* bilan *j* orasidagi noaniq “ج” harfi o‘rnida “j” belgilarini qo‘lladik.

IV) “Devon...”da qo‘llangan *v* bilan *f* orasidagi talaffuzi aniqsiz “و” harfi uchun “w” shaklini qo‘lladik.

V) ba’zan “d” bilan “y” o‘rnida almashib qo‘llangan *z* shakli o‘rnida “z” belgisi qo‘llandi.

VI) *l* harfi uchun ba’zan *l*, ba’zan *l* shakli qo‘llandi.

VII) Mahmud Koshg‘ariy tomonidan *z* va *j* mahrajlari orasidagi tovush deb ko‘rsatilgan “j” harfi uchun “j” belgisi qo‘llandi.

VIII) *ng* diffuz harfi uchun “n” shakli olindi.

Unlilar ustida ham shu xilda aniqsiz belgilar qo‘llash mumkin edi. Chunki “Devon...”dagi unlilarni aniqlash ham ayrim undoshlar kabi qiyin edi. Lekin unlilar masalasida bizdan oldin ikki tarjimon tutgan usulga qarshi turishga jur’at qila olmadik. Ular tomonidan qo‘llangan unlilar asosida ish ko‘rdik. Faqat Mahmud Koshgariy tomonidan aniq ko‘rsatilgan cho‘ziq *aa* harfi o‘rnida *a:* shaklini orttirdik. Kitobdan foydalanuvchilar ayrim so‘zlar imlosidan qanoatlanmasalar, yonidagi arabchasiga muvofiq mulohaza yuritishlari mumkin. Arab yozuviga xos diakritik belgi (zeru zabar)lar qo‘yishda asosiy nusxaga asoslandik. Ayrim o‘rinlarda o‘z mulohazalarimizni ham aytdik.

QO‘SHIMCHALAR

Mahmud Koshg‘ariy ayrim so‘zlarni izohlar ekan, ko‘pincha, ularning qaysi qabilaga mansub ekanini ko‘rsatib o‘tadi. Hatto bu so‘zlarning boshqa qabilalarda qo‘llanish-qo‘llanmasligini ham izohlaydi. Lekin ba’zan ayrim so‘zlar haqida ikki tilning birida, degan ma’lumotni beradi.

Izohlardan ma’lum bo‘lishicha, Mahmud Koshg‘ariy o‘z devonida til xususiyatlari ko‘rsatilgan qabilalarning tillarini ular orasidagi yaqinlik va o‘xshashliklarga muvofiq ikki guruhga ayiradi. Ularning birini o‘g‘uz, ikkinchisini *chigil yoki turk guruhi* deb ataydi. Mahmud Koshg‘ariy ikki tilning birida deganda, ana shu ikki guruhning birini ko‘zda tutadi.

Ayrim so‘zlar izohida devonda “Boshqalarda ham bu so‘z qo‘llanadi” degan ma’lumot takrorlanadi. Bu izoh lug‘atchilik tamoyiliga muvofiq so‘zlarning iste’mol doirasini belgilash zaruratidan kelib chiqqandir.

Mahmud Koshg‘ariy bu izohni ayrim so‘zlarni ularning berilgan misolgagina xos ekani yoki boshqa gaplarda ham kela olishi, ya’ni shu so‘zlarning qo‘llanish doirasini ko‘rsatish maqsadida ishlatadi. Bunday usul ayrim so‘zlarning iste’mol doirasini xilma-xil va ko‘p misollar bilan ko‘rsatish vazifasini ixcham va oson shaklda izohlashga imkon beradi.

Devondagi istilohlar masalasiga kelganda, Mahmud Koshg‘ariy ko‘makchi, undov va qo‘shimchani harf deb, sifat, son va boshqa so‘z turlarini ism deb bergan. Boshqacharoq aytganda, Mahmud Koshg‘ariy o‘z izohlarida so‘z turlarini uch turkum (ism, fe’l, harf)ga ayirgan.

Balasog‘un

V.Bartold o‘zining «Энциклопедия Ислама» asarida Balasog‘un haqida katta maqola bergan. U faqat shaharning ishg‘ol qilgan joyini aniqlashga intilgan. Aytish mumkinki, u deyarli hamma kitoblardan foydalangan. Lekin maqolada yolg‘iz devondan ma’lumot berilmagan. Natijada V.Bartold Balasog‘un o‘rnini ilgari bo‘lganidek yana noaniq holicha qoldirgan.

Balasog‘un bir vaqt Quz Urdu nomi bilan va bir vaqt Quz Ulus nomi bilan yuritilgan. U eng qadimgi markaziy shaharlardan biridir: Mirxond[1] “Habibu-s-siyar”da bu shahar to‘g‘risida *g‘uboliq* – yaxshi shahar deb yozadi.

Buxoro, Samarqanddan ko‘chib borgan sug‘doqlar Balasog‘unda joylashib qolgan va turklashib ketgan edilar. Balasog‘un eng katta shaharlardan biri edi. Xalqi ham turkiy, ham sug‘dcha so‘zlashur edi.

Jurjon

Jurjon Gurgonning arabchalashtirilganidir. Bu masalada Yoqut izohini ahamiyatli hisoblab o‘zicha keltirdik. Jurjon Xorazm o‘lkasiga tegishli katta bir shahardir. U Jayxun qirg‘og‘idadir. Aslida xorazmliklar Jayxunning sharqidagi Mansura degan shaharda yashar edilar. Jayxun suvi uni yuvib ketdi. Undan asar ham qolmadi. So‘ng ular Gurganchga ko‘chdilar. U kichik shahar edi. Ular yangi binolar qurdilar. Shahar kundan-kunga kengayib obod bo‘ldi. Gurganchni 616-hijriyda mo‘g‘ullar istilo qilib xarob qilmasdan oldin o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Men bundan kattaroq, chiroyliroq, to‘kisroq bir shahar ko‘rganimni bilmayman... Tilga oid alohida original asar yaratgan Abdul Qohir Jurjoniy shu Gurganch olimlarining biridir, 461-hijriyda vafot etgandir (Mu’jamu-l-buldon, 3-jild. B.80).

Subran

Yoqut buni ajamlar shahri deb izohlagan. Bu izoh to‘g‘ri, faqat u kimlar (tojiklarmi yo turklar)ning shahri bo‘lgani ko‘rsatilgan emas, Mahmud Koshg‘ariyning devonida ko‘rsatilishicha, Subran o‘g‘uzlar shahri bo‘lgan. Bunday ma’lumot o‘g‘uzlar chegarasining qanchalik kengligini aniqlash jihatdan muhimdir.

Subran Hirot va Balx tog‘larining orasidagi bir shahardir (Mu’jamu-l-buldon, 2-jild. B.48).

---

[1] Bu o‘rinda muallifning nomi yanglish berilgan. “Habibu-s-siyar” Mirxond asari emas, balki Xondamir qalamiga mansub. G‘uboliq – sug‘d tilida *begi bor shahar* demakdir (*nashr*).

Hozirgi Turkiston yaqinidagi Subran bu shaharga tarixan aloqador bo‘lsa kerak.

Ig‘roq

Ig‘roqlar Yag‘mo va Joruq qabilalari oralig‘idagi bir qabila sifatida beriladi. Ularning tillari yolg‘iz turkiydir. Ig‘roqlarning botirligi va himmatliligi haqida devonda bir necha parchalar bor.

Ig‘roq yeri tig‘roq,
Yemi aning ug‘loq,
Suti uza sog‘roq,
Yeri taqi ag‘loq.

(Ig‘roq qabilasi g‘ayratli, botir odamlardir. Ularning oziqlari quruq (suvsiz) ovqatlardir. Qimiz tog‘oralari ustidan kosa arimaydi. Holbuki, ularning yerlari o‘tsiz yerlardir).

Devonda ig‘roqlarning jangovar botirliklarini ko‘rsatuvchi yana bir necha to‘rtliklar bor.

Ig‘roqlarning tili chigillarning tiliga tamoman mosdir. (DLT, I jild. B.56).

Chigil

Chigillar devonda eng asosiy o‘rinni ishg‘ol qiladi. Mahmud Koshg‘ariyning ko‘rsatishicha, o‘g‘uzlar Jayxundan quyi Chingacha bo‘lgan xalqlarni *chigillar* deb hisoblar edilar. Devonda chigil ismi Iskandar Zulqarnayn tomonilan berilgani ko‘rsatiladi.

Chigillar eng eski xalqlardan biridir. Havoiy ma’lumoti ham Mahmud Koshg‘ariy fikrlarini tasdiqlaydi. U Iskandar Zulqarnayn yurishida, Movarounnahrda chigil, yag‘mo nomlarinigina tilga oladi:

Chigil birla Yag‘modin aylab ubur,
Nechukkim chamandin sabovu dabur.

(“Xamsa”[2]dan)

Ibnu-l-Asir tarixi qoraxoniylar davrida Samarqandga qilingan hujumda chigil askarlari boshchilik qilganini yozadi.

[2] Alisher Navoiy, Xamsa, T.: O‘zSSR FA nashriyoti, 1960. 669-b.

Haqiqatda ham chigillar O‘rta Osiyodagi eng eski xalqlardan ekanini devondagi yana ko‘p ma’lumotlar isbotlaydi. Mahmud Koshg‘ariy chigillarning o‘g‘uzlar bilan juda qadimdan to‘qnashib kelganini, ularning bir-birlariga qarshiligi devon yozilgan davrlarda ham davom etishini yozar ekan, o‘g‘uzlar tilidagi kamchiliklarni ham ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga ularga qarshi til jihatdan ishonchli qabilalar boshida chigillar turadilar. Chigil, koshg‘ar, arg‘u, uyg‘ur, barsag‘on va boshqa quyi Chingacha bo‘lgan hamma turkiy qabilalar sifatdoshni buyruq oxiriga *-g‘uchi, -guchi* qo‘shib tuzsalar, o‘g‘uzlar buyruq oxiriga emas, o‘tgan zamon fe’liga *-chi* qo‘shimchasining o‘zini qo‘shib, qoidani buzadilar: *bardachi, keldachi* kabi (DLT, II jild. B.43). Chigillar o‘tgan zamon fe’lini buyruq oxiriga *-di* qo‘shib yasasalar, o‘g‘uzlar *-duq* qo‘shib qoidani buzadilar. Chigillar kelasi zamon birinchi shaxs (so‘zlovchi) fe’lini *barirman* tarzida ifoda qilar, o‘g‘uzlar esa men *baran* deb tamom boshqacha so‘zlaydilar. (DLT, II jild. B.54). Chigillar tili bilan o‘g‘uzlar tili orasidagi farq leksikada ham, fonetikada ham juda kattadir. Ularning hammasini bu yerda keltirish o‘rinli bo‘lmaydi.

Tuxsi

Tuxsi qabilasi haqida devonda ma’lumot yetarlidir. U e’tiborli qabilalardan sanaladi. Tuxsilarning tillari yolg‘iz turkcha bo‘lib asosan Qayos shahrida yashaydilar. (Qayos uch katta rayonga ega bo‘lgan shahar: 1) Soblig‘ Qayos, 2) O‘rung Qayos, 3) Qora Qayos. DLT, II jild, 129-bet.

Ular til jihatdan chigil, yag‘molarga yaqindir. Devonda til xususiyatlari izohlangan yerlarda har vaqt deyarli chigil, yag‘mo, tuxsining til xususiyatlari bir xilda ko‘rsatiladi. (I jild, B.59, 93; III jild, B.101, 352).

Devonda ularning yashash joylari ham bir-biriga yaqin, aralash bo‘lgani to‘g‘risida ma‘lumotlar bor. (I jild, B.342, 354; III jild, B.129). Hatto kasb-korda ham ular yaqinligiga oid ma’lumotlar bor. Mahmud Koshg‘ariy devon uchinchi jildining 52-betida Bista so‘zini izohlar ekan, bunday deb yozadi: Bista chetdan kelgan savdogarni uyga qo‘ndiradi, mollarini sotib beradi, sotguncha o‘zini ham, molini ham boqadi; ketar vaqtida mol

boshiga ma'lum miqdorda haq oladi. Men buni, – deydi Mahmud Koshg'ariy, – chigil, yag'mo, tuxsilarda o'z ko'zim bilan ko'rdim.

Tuxsilar haqida devonda yana ko'p yerda ma'lumotlar bor bo'lib, ularda ham tuxsilar tilda, shaharda, fe'l-u odatda chigil, yag'molarga yaqin, lekin ularga nisbatan kichikroq qabila ekani ko'rsatiladi.

Arg'u

Devon ma'lumotiga ko'ra, arg'ular O'zgand va Azgish shaharlarida yashar edilar. Arg'u til xususiyatlarining bir qismi hozirgacha etib kelishi, ular juda keng territoriyada yashovchi, hozirgi Chimkentdan To'qmoqqacha bo'lgan hududda va butun Farg'ona hududida yashagan bir qancha qabilalar orasida ko'p nufuzlilar bo'lgani va mamlakatni idora etish u davrda ko'proq ularning qo'lida bo'lgani bilan izohlanadi.

XI asrlarda arg'u qabilasining mavqeyi ancha o'zgaradi. Buni devon ma'lumotlari to'la tasdiqlaydi. Idora ishlariga boshqa qabila vakillari ko'tariladi. So'nggi davr tarixiy asarlarida arg'u qabilasi nomining uchramasligi ular mavqeyining o'zgarishiga bog'liqdir. Lekin arg'ularning yuqorida ko'rsatilgan joylarda yashab kelgani shubhasizdir.

Mahmud Koshg'ariyning ma'lumotlariga ko'ra, arg'ular *bilir* so'zini *bilur* tarzida talaffuz qiladilar, ya'ni o'tgan zamon fe'l yasovchi affiksini "u" unlisi bilan aytadilar: *bardum*, *keldum* kabi.

Hozirgi jonli tilda Toshkent va uning atrofidagi *bordu(g), keldu(g)* kabi, Namangan va uning atrofidagi *borduna, kelduna* kabi talaffuzlar ana shu arg'ular tili xususiyatlaridan qolgan ta'sir bo'lishi mumkin. Arg'u qabilasi tiliga oid yana boshqa xususiyatlarning saqlanib kelishi ham shuni tasdiqlaydi. Masalan, fe'llardan ish oti yasashda fe'l o'zagi oxiriga *-g'uv, -guv* qo'shimchasini orttirish arg'u qabilasi tiliga xos xususiyatdir: *borg'uvchi, kelguvchi* kabi. Bu xususiyat hozir tilimizda barqaror ekani ma'lum. Shuningdek, jo'nalish kelishigi qo'shimchasi funksiyasida va "uchun" mazmunida *-qo, -g'o* qo'llash arg'u qabilasining til xususiyati edi. Boshqa qabilalar bu qo'shimchani o'rin-payt funksiyasidagina qo'llar edilar. Hozir barcha shevalarda bu qo'shimchaning har ikkala funksiyasi mavjuddir. Shunga o'xshash, arg'ular tilidagi ikkinchi shaxs kishilik olmoshining

belgisining o‘rnida *-ing‘* qo‘llash ham ko‘pgina joylarda hozir ishlatiladi: *qochirding* emas, *qochirding‘* kabi (solishtirib ko‘ring: DLT, II jild. B.131).

Arg‘ular tiliga oid boshqa xususiyatlarning saqlanib kelishi ham ularning eng qadimiy qabilalardan bo‘lganini isbotlaydi.

Turk

Turk so‘zi devonda ba’zan ko‘pgina qabilalarning umumiy ismi sifatida qo‘llansa, ba’zan til xususiyatlari jihatdan boshqa qabilalardan farqlanuvchi kichik bir qabila sifatida izohlanadi.

O‘g‘uz

O‘g‘uz qabilasi eng qadimiy va nufuzli qabilalardan biri sifatida O‘rta Osiyo xalqlari va ularning tillari tarixida alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun unga tarixchi va tilshunoslar juda ilgari zamonlardan jiddiy qiziqib keladilar. Bu masala yuzasidan muhim ilmiy-tekshirish ishlari bor. Ayniqsa, bu so‘zning etimologiyasi ustida juda ko‘p olimlar tekshirish olib borganlar. Chunonchi: V.Bang, V.Radlov, L.Ligeti, I.Markvart, A.N. Bernshtam, D.Sinor, G.Ramstedt, S.P.Tolstov ishlari shu jumladandir. Biroq bu tekshirishlarda masala hanuz gipoteza holida qolgan. Hatto o‘g‘uz xon to‘g‘risida ayrim uydirma, afsonalar ham yuzaga kelgan. (Qarang: I.N.Berezin, Rashiduddin, I jild. B.81; “Shajarayi turk”, qo‘lyozma nusxasi; A.N.Kononov. “Shajarayi tarokima”, 1957. B,13). O‘g‘uz qabilasi haqida “Ravzatus safo” va Bichurin asarida ham ma’lumotlar bor. Lekin bu asarlarda ham masala to‘la-to‘kis yoritilgan emas. Shuning uchun bu haqda etuk tadqiqotchi M.Koshg‘ariy ma’lumoti benihoyat muhimdir. M.Koshg‘ariy o‘z asarida bu so‘zning etimologiyasini aniqlashga uringan emas. Buning juda qadimgi ota-bobolarga borib taqalishini aytish bilan cheklangan. Bunday cheklanish tasodifiy emas, albatta. Aksincha, bu hol *o‘g‘uz* so‘zining shaxs oti sifatida yuzaga kelgani, so‘ng ma’lum sharoitda qabila nomiga aylanganini aniqlash chigal ekani bilan bog‘liqdir. M.Koshg‘ariy o‘z asarida o‘g‘uzlarning u davrda tutgan mavqeyi, tili, kasb-u kori, urug‘-aymoqlari, turar joylari va boshqalarni aniq faktlar

asosida mukammal izohlash bilan cheklanadi. (Qarang: DLT, I jild. B.27, 30–31, 33, 35, 56, 59).

Tot

Tot so‘zi devonda ba’zan uyg‘ur, ba’zan tojik ma’nosida uchraydi. Bu so‘z tarixiy asarlarda Iroq va Xurosonda hukm surgan sulola unvoni ma’nosida ham uchraydi.

Tatar

Tatarlar tarixiy asarlarda juda eski xalqlardan sanalsa ham, o‘rta asrlarda bu so‘z mo‘g‘ul so‘zi bilan birga qo‘llanar edi. Shuningdek, bu so‘z ayrim tarixiy asarlarda u davrdagi butun turkiy xalqlarning etnik termini sifatida ishlatiladi.

Tatar so‘zi devonda bir necha yerda uchraydi. Bu ma’lumotlarda ba’zi bir qarama-qarshiliklar ham bor. I jild, 30-betda tatarlarning boshqa bir tili bo‘lsa ham, turkchani yaxshi biladilar deyilsa, I jild, 344-betda tatar turk qavmlaridan biri deb ko‘rsatiladi. I jild, 123-betda tatar cho‘llari uyg‘urlar yaqinida degan ma’lumot bor. Qabilalar tartib bilan berilgan joyda *tatar* so‘zi *yaboqu*dan so‘ng ko‘rsatilgan. Tatarlar yaboqular bilan qo‘shni turishini ko‘rsatuvchi yana bir dalil ayrim xos so‘zlarda ularning sherikligidir. Masalan: *tor* so‘zi – boshlang‘ich davr qayig‘i (bu haqda o‘z o‘rnida to‘la ma’lumot berilgan) yaboqu va tatarlar so‘zi deb ko‘rsatiladi. (DLT, III jild. B.109).

Uyg‘ur

Uyg‘urlar devonda 43 yerda tilga olinadi. Mahmud Koshg‘ariy qabilalarni bir necha o‘rinda bayon qiladi. Birinchi (hamma qabilalar ko‘rsatilgan) o‘rinda (I jild. B.3) uyg‘urni zikr qilmaydi, ikkinchi o‘rinda (I jild. B.28) ularni jumul qabilasi bilan tangut qabilasi orasida ko‘rsatadi.

Uyg‘ur devon ma’lumotiga ko‘ra, besh shahar: Sulmi (buni Zulqarnayn bino qilgan edi), Kuju, Jonbaliq, Beshbaliq, Yangibaliqdan iborat bir o‘lkaning ismidir. Bularni Zulqarnayn turklar bilan sulh qilganda qurgandir.

Uyg‘ur so‘zi xud xo‘r (o‘zi topib eydigan) so‘zining o‘zgarganidir. Mahmud Koshg‘ariy shunday izohlaydi: Nizo-

middin Isrofil To‘g‘on tekin binni Muhammad jaqir To‘nqaxon otasidan eshitgan xabarini menga shunday so‘zladi: Zulqarnayn uyg‘ur viloyatiga yaqinlashgach, turk hoqoni unga to‘rt ming kishini yo‘lladi. Ular qalpoqlarining patlari xuddi yovvoyi qushlar qanotidek edi. Ular o‘q otishga juda mohir edilar. Orqadan ham oldindan otganday o‘q otar edilar. Zulqarnayn bularga hayron qoldi. Inon xud xurand – bular o‘z ovqatlarini o‘zlari topib yeyuvchi, birovga muhtoj bo‘lmovchilar. Chunki ov bulardan qochib qutula olmaydi. Qachon xohlasalar, tutib yeydilar demakdir. So‘ng o‘lka Xud Xo‘r atalib ketgan, “xu” *u* ga almashgan, Udxo‘r bo‘lgan. So‘ngra yana o‘zgargan, uyg‘ur bo‘lgandir.

Uyg‘urlarning tili turkchadir. Lekin ularning yana bir tillari bor. O‘zaro o‘sha tilda so‘zlashadilar. Yozuvlari bu kitob boshida ko‘rsatilgan 24 harflik yozuvdir. Lekin yana boshqa bir yozuvlari borki, devon va kitoblarini u xat bilan yozadilar. Uyg‘urlarning Ko‘l Bilkaxon ismli (Ko‘l kabi aqlga boy) shohlari bo‘lgan.

Ularning Beshbaliq, Beshshahar degan shaharlari juda katta shahar edi, Yangibaliq degan shaharlari so‘nggi vaqtlarda bino qilingan shahardir. Demak, uyg‘urlar ancha sharqda yashar edilar. Tubut, Kingut, Kujo, Kami, Talos, Bukur, Turum shaharlari uyg‘ur shaharlarining chegarasidir. Kingut, Kujo va uyg‘urlar orasida Yulduzko‘l degan ko‘l bor.

Uyg‘urlarning maxsus so‘zlari devonda juda siyrakdir. Faqat uch yerda eslanadi. Shunda ham oradagi qarama-qarshilik izohlanadi. Masalan: 1) *chopildi* (I jild. B.143) – suyuq loy bilan chapildi (hozir ham o‘zbek tilida shu ma’noda qo‘llanadi). Uyg‘ur tilida bu so‘z *bo‘yniga urildi* demakdir. (II jild. B.143). 2) *it kishiga chopti* – it kishiga chovit qildi (II jild. B.240). Hozir ham o‘zbek tilida shu ma’noda (uyg‘urchada *gardaniga urdi* ma’nosida)dir. 3) *yarmoq* (tanga) – uyg‘urcha yarimoq.

Basmil

Basmil so‘zi devonda (I jildning 28–30, 339, 382, 393-betlari va II jildning 251-betida) yasmil tarzida ko‘rsatilganki, bu – noto‘g‘ri. Bu so‘zning yasmil emas, basmil ekani prof. S.E.Malov

tomonidan uning bir tanqidiy maqolasida isbot qilingandir (Zapiski vostokovedov, t. III. B.215).

Basmillarning til xususiyatlariga kelganda, Mahmud Koshg'ariy bularni qay, yaboqu, tatarlarning tillaridan bir muncha farqli, deb ko'rsatadi. Devonda basmillarning tiliga oid ma'lumotlar anchagina bo'lsa ham, ularning shaharlari, turmushlariga oid ma'lumotlar juda ozdir. Lekin ularning yaboqularga qarshi janglarini tasvirlovchi bir necha to'rtlik bo'lib, bu to'rtliklarda ular jumul qabilasi bilan ittifoqchi, jangovar qabila sifatida ko'rsatiladi. Basmillarning shahar va turmushiga oid ma'lumotlarning yo'qligi devon yozilgan paytda ular mavqeyining pasayib qolgani bilan izohlanadi. Buni basmillar haqidagi to'rtliklarning mazmuni ham tasdiqlaydi. To'rtliklarning mazmunidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, basmillar yaboqularning lashkarboshisi Arslontegin (ikkinchi xil aytganda, Bakabudaraj)ga qarshi janglar qiladi va bu janglarning birida Bakabudaraj o'ldiriladi. Devon uchinchi jildining 263-betidagi to'rtlikdan yaboqularga Bakabudaraj uchun qasos olishga maslahat berish, ularni shunga undash mazmuni anglashiladi. Bakabudarajning anchagina burun o'tgan shaxs ekani tarixdan ma'lum.

Bu ham basmillarning eng qadimiy, eski qabilalardan ekanligini tasdiqlaydi.

Kashmir

Kashmir, devonda ko'rsatilishicha, turkiy xalqlar qaramog'ida bo'lgan eski shahardir. Mahmud Koshg'ariy uni Sulaymon payg'ambar bino qilgan deb ko'rsatadi. Lekin Kashmir turli davrlarda turli davlatlarning tasarrufida bo'lib kelgan.

Kashmir sersuv, obod, yirik shaharlardan biridir.

Iskandar Zulqarnayn

Iskandar Zulqarnayn dunyoda eng katta jahongir sifatida mashhur shaxsdir. Tarixiy asarlarda uni Ulug' Iskandar, Iskandar Rumiy, makedoniyalik Iskandar deb ham ataydilar. Lekin ko'pincha har tomon (sharq va g'arb)ni egallagan ulug' shoh ma'nosida Iskandar Zulqarnayn ismi bilan yuritiladi. Tarixiy asarlarda uni Arastu (Aristotel)ning shogirdi deb ko'rsatadilar.

Navoiy asarlarida Arastu (Aristotel), Aflotun (Platon) va boshqa qator faylasuflar Iskandar Zulqarnayn saroyida maslahatchilar sifatida tasvirlanadi. Firdavsiyning «Shohnoma»sida ham bunga keng o‘rin beriladi.

Ahli vabar

Ahli vabar degan so‘zni biz shartli ravishda ko‘chmanchilar deb izohladik. Aslida bular shahar chetida yashovchilardan iborat. Ular til xususiyatiga ko‘ra, ba’zan qipchoqlarga, ba’zan qarluq va boshqalarga mos keladi.

Ma’nodosh so‘zlar

Mahmud Koshg‘ariy ma’nodosh so‘zlarni chuqur izohlaydi. Bunda u shu so‘zlarning asosiy ma’nosini ham, ko‘chma ma’nosini ham ko‘rsatadi.

Devondagi ayrim so‘zlarda kelgan ب (b) tovushini biz ikki xil: b, p tovushlari bilan ko‘rsatdik. Bunda biz, asosan, hozirgi talaffuzga va qisman “Qutadg‘u bilig” imlosiga asoslandik. Masalan, chuqurlik (o‘ra) ma’nosidagi اوبرى so‘zinn oppï (o‘pri) tarzida oldik. Bunda biz shu o‘zakdan kelib chiqqan hozirgi *o‘prilmoq* so‘ziga asoslandik. Ikkinchidan, bu so‘z “Qutadg‘u bilig” dostonida ham shunday yozilgan:

Yozi, tog‘, yer, o‘pri tushandi yozib
Yetindi qo‘li, qoshi ko‘k ol qazib.

Afrosiyob

Mahmud Koshg‘ariy devonda Afrosiyobni alp Erto‘nga deb ko‘rsatsa, “Qutadg‘u bilig” muallifi Yusuf Xos Hojib Afrosiyob deb ko‘rsatadi:

Bu turk beklarindan oti belguluk,
To‘nga alp er erdi, quti belguluk.
Tojiklar ayur oni Afrosiyob,
Bu Afrosiyob oldi ellarni talob
(“Qutadg‘u bilig”dan).

Mahmud Koshg‘ariy devon uchinchi jildining 272-betida to‘nga so‘zini izohlar ekan, shunday ko‘rsatadi: “To‘nga sher

botir, bahodir, filni o‘ldiruvchi eng kuchli hayvondir. Turklarning mashhur botir xoni Afrosiyobni To‘nga alp er deb atashlari ham uning sherga o‘xshash bahodirligi uchundir”. Demak, Afrosiyobni u davrda alp Erto‘nga deb nomlaganlari kabi To‘nga alp er deb ham atashar edilar. Bu hol Mahmud Koshg‘ariy bilan Yusuf Xos Hojib ma’lumotlari o‘rtasida qarama-qarshilik yo‘qligini tasdiqlaydi.

“Ravzatu-s-safo”, “Tarixi muluki Ajam”da Afrosiyob to‘g‘risida juda ko‘p ma’lumotlar bor. Bularda u g‘oyat zolim podshoh sifatida tasvirlanadi. «Shohnoma»da uning Zol va Rustamlar bilan kurashi anchagina joyni ishg‘ol qiladi.

Navoiy Afrosiyob to‘g‘risida ikki bayt yozish bilan cheklanadi:

Yana shohlig‘ qildi Afrosiyob,
Vale qildi Eronni zulmi xarob.
Zamonida gar erdi obod kam,
Ani qo‘ymadi charxi obod ham.

(“Xamsa”[3]dan).

Xulosa: tarixiy asarlarda Afrosiyob to‘g‘risida ma’lumotlar benihoyat ko‘pdir.

Ayrim manbalar uni afsonaviy shaxs deb ko‘rsatadi (Qarang: В.В. Григорьев, Караханиды в Мавераннахре. В.14); Qoraxoniylar Eron ta’siri ostida qolganlari uchun o‘zlarini afsonaviy Turon podshohiga nisbat berib, otini Afrosiyob deb yuritadilar. Holbuki, bu termin tamoman turkcha emasdir (V.V.Bartold, O‘rta Osiyo turk tarixi haqida darslar. B.78).

Devondagi ma’lumotlar Afrosiyobning tarixiy shaxs ekanligini tasdiqlaydi.

Afrosiyob Afridun yoki Faridunning Tur ismli o‘g‘lining nabirasi Eshang yoki Hushangning o‘g‘lidir. Manuchehr yengilgach, Manuchehr o‘g‘li Navzar dadasining o‘chini olish maqsadida Afrosiyobga qarshi jang qilib, yengiladi. Afrosiyob Navzarga qarshi maxsus hozirlik bilan jang boshlaydi. Navzarni halok qiladi va butun Eronni qo‘lda tutadi, o‘n yillab qattiq zulm ostida hukm yurgizadi.

[3] Alisher Navoiy. Xamsa, T.: O‘zSSR FA nashriyoti, 1960. 647-b.

Afrosiyobning markaziy shahri Koshg‘ar edi. Havosi yaxshi bo‘lgani uchun u doim shu yerda yashar edi. Qoz ismli qizi Qazvin va Qum shaharlarini bino qilgan edi, Qoraxoniylar chegarasi hisoblangan Qazvin shahrida Qoz g‘oz o‘ynar edi. Shuning uchun shu ism bilan atalgan edi. Qazvin – Qoz so‘zining qisqarganidir. Qum ismli shaharda Qoz ov qilar edi. U shahar serqum bo‘lgani uchun ovga mos edi. Ili vodiysiga oquvchi katta suvning Qoz suvi deb atalish sababi ham Qoz u suv qirg‘og‘iga katta qal’a solgani uchundir. Afrosiyob Buxtunnasr o‘g‘li Batzanni shu qizi bilan yashirin aloqada bo‘lgani uchun Jaruq degan shaharga qamagan edi. Ba’zilar bu shaharlarni Afrosiyobning Marviy Shohijon degan o‘g‘li bino qilgan deyishadi. Afrosiyobning Barsag‘on degan o‘g‘li ham bor edi. Barsag‘on shahrini shu bino qilgan edi. Mahmud Koshg‘ariyning bobosi shu shaharda yashagan. Yungu vodiysi Afrosiyob o‘g‘li qurdirgan Bormon shahriga oqadi (III–VII. 27). *Tarim* so‘zi Afrosiyob avlodidan bo‘lgan xotinlargagina qo‘llanadi (I jild. B.331). Qotun so‘zi Afrosiyobning qizlaridan bo‘lganlarning nomidir (I jild. B.343). Devonda Afrosiyob tarjimayi holiga oid bu ma’lumotlardan boshqa Afrosiyobga oid to‘rtliklar ham anchagina bor. Lekin ular devonning har erida, har qaysi jildida sochiqdir. Parchalar Afrosiyobni mohir jangovar sifatida ta’riflaydi. Janglardagi qahramonligi, dushmanlarga zarba berishdagi mahorati, bahodirligi ta’riflanadi va uning o‘limiga afsus bayon qilinadi.

Mashhur “Qutadg‘u bilig” muallifi Yusuf Xos Hojib boshqa bir yerda Afrosiyobni yolg‘iz qahramongina emas, davlat idorasiga mahoratli bilimdon tarzida sifatlaydi. XI asrning zo‘r tadqiqotchi olimlari Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojiblarning Afrosiyob haqidagi ma’lumotlari, shubhasiz, ishonchlidir.

Xoqoniya

Xoqoniya so‘zi devonda bir necha yerda uchraydi. Unda bu so‘z davlat boshlig‘i ulug‘ xon ma’nosidadir: o‘g‘uz xoqoni, tangut xoqoni va boshqalar (Qarang: Devon, I jild, B.297; III jild, B.117 va 171).

Afsuski, bu haqda yanglish qarashlar ham bo‘lib kelgan. Prof. Ko‘pro‘luzoda buni alohida bir qabila, balki bir qancha sharqiy guruh qabilalarining yetakchisi sifatida izohlagan (Qarang: F.Ko‘pro‘luzoda. Turk adabiyotida Ilk mutasaffiflar, Istanbul. B.149). M.F. imzoli muallif* bu haqda yana ham qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yadi. U yozadi: Kitobda asos o‘lon lahja muallifing xoqon turkchasi dedigi koshg‘ar lahjasidir (Milliy tatabbular, 1333-hijriy, B.383). Bu qarash tamoman xatodir. Bu qarashga ko‘ra “Devonu lug‘otit turk” faqatgina u davrda kichik bir shahar bo‘lgan Koshg‘ar shahari tilidan iborat bo‘lib qoladi. Holbuki, devonda yuqori Chindan boshlab butun O‘rta Osiyo doirasida yashovchi qabila va xalq tillari Balasog‘un, Barsog‘on, Shosh, Kashmir, Xorazm, Sayram, O‘zgand, Buxoro kabi yirik shaharlarda yashovchi xalqlar tili ham keng izohlab berilgan.

Prof. Fitrat bu fikrni yana ham bo‘rttirib izohlagan. U yozadi: “Mahmud Koshg‘ariyga ko‘ra hijriy beshinchi asrda turk tili kichkina qabilaviy ayirmalarga qaramay, asosan, ikki muhim qo‘lga ayrilgan: birinchisi o‘g‘uzcha turkcha, ikkinchisi yolg‘iz turkcha yoki hoqoniy turkcha ham deyilar emish. Mahmud Koshg‘ariy devonda mana shu hoqoniy turkchasini asos qilib olganda, joyi kelgach, o‘g‘uzcha so‘zlarni ko‘rsatib, izoh qilib borgan. Uning bu tasnifi bu kun ham asos qilib olinishi zarur”(?!). (Qarang: Eng eski turk adabiyoti namunalari, IV bet). Bu xil qarash ikki jihatdan xatodir. Birinchidan, bu qarashda Mahmud Koshg‘ariyning devonidagi ma’lumotlar qo‘pol ravishda buziladi. Devon ma’lumotlariga ko‘ra, chigil, yag‘mo, tuxsi, arg‘u, ba’zi qarluqlar, ba’zi uyg‘urlar kabi katta nufuzli qabilalar tillaridan tashkil topib, umumlashgan bir tilni faqat saroyda va saroy doirasida yashovchi bir to‘da odamlarga nisbat berib buzishdir. Ikkinchidan, tilshunoslik nuqtai nazardan xalq tili yuzaga kelishida biror urug‘, shahar tiliga emas, balki jamiyat hayotida alohida o‘rin tutib, o‘zining til ta’sirini keng tarqatgan yetakchi qabila tiliga asoslanish zarur bo‘ladi. Bu xil qabila u davrda sharqda chigillar edi. Devonda Qashg‘ar, Balasog‘un shaharlarining xos so‘zlari lahjaviy leksika o‘rnida ozchilik edi. Shuning

* Bu maqola muallifi ham Ko‘pro‘luzoda bo‘lsa kerak.

uchun devonda hoqonlar faqat saroydagilardan iborat bo‘lgan ozchilik edi. Bu xil ozchilik tilini yetakchi deb ko‘rsatish tilshunoslikda qattiq qoralangan irqiy nazariya asosida masalaga yondashish, qo‘pol xatodir.

Qipchoq

Bu kungi o‘zbek tilida katta o‘rin tutgan qipchoq qabilasi haqida “Devonu lug‘oti-t-turk”da keng ma’lumot bor. Ularning xos shaharlari sifatida Tavar shahari va Qashg‘ar yaqinidagi bir shaharcha ko‘rsatiladi. Tiroz yonidagi Kantuan shahari ularning chegarasi deyiladi. Qangli bu qabilaning kattalaridan biri sifatida berilgan. Demak, bu qabila qachonlardir bu yerlarda boshchilik qilgan. Devonda Uron ismli ikki qanotli kema ular tomonidan yasalgani aytiladi. Shuningdek, devondagi ma’lumotlar ularning chorvachilik va bog‘chilik bilan ham shug‘ullanganini tasdiqlaydi. Lekin ularning tili haqidagi ma’lumotlar devon yozilgan vaqtda bu qabila kuchsizlanib, har tomonga tarqalib ketganidan dalolat beradi. XI asrda bu qabilaning til xususiyatlariga ko‘ra ularning bir qismi o‘g‘uz, bir qismi chigil va bir qismi ko‘chmanchilarga moslashgan edi. Tarixiy asarlarda ko‘rsatilganidek, *qipchoq* so‘zining “ichi kavak” degan ma’nosi devonda uchramaydi. Lekin bu xususda faqat ularning shaharlaridagina yashaydigan bir hayvon to‘g‘risidagi ma’lumot xarakterlidir. Devonda ko‘rsatilishicha, katta gavdali *bulan* deyilgan ov hayvoni qipchoq shaharlaridagina yashar ekan, xolos. Uning ichi kavak, uchi osmonga qaragan bir shoxi bo‘lar edi. Qor, yomg‘ir suvlari unga to‘planib qolar va erkak bulan urg‘ochi bulanning shoxidan va urg‘ochi bulan erkagining shoxidan engashib suv ichar ekan. *Qipchoq* so‘zining ma’nosi haqidagi taxminlar shu hodisa bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

Barxan

Mahmud Koshg‘ariyning ma’lumotlariga ko‘ra, Chin uch bo‘limdan iborat edi:

1. Yuqori Chin.
2. O‘rta Chin.
3. Quyi Chin.

Barxan Quyi Chindir.

Jumul

Jumul qabilasi haqida devonda ma'lumot oz. Jumullar ko'proq sahroda yashar edilar. Ularning tillari o'ziga xos edi. Basmillar bilan birgalikda qilgan janglarini ko'rsatuvchi to'rtliklardan ularning basmillar bilan hamfikr ekani ma'lum bo'ladi.

Farg'ona

Farg'ona Turkiston chegarasidagi o'lkadir. Batlimus uning jug'rofiy mavqeyini mukammal ko'rsatgandir. Farg'ona mevaga boy, tog'lari ko'p o'lkadir. Uning cho'ziq tog'larida olma, uzum, pista, bodom va boshqa mevalar, turli xil xushbo'y o'simliklar, gullar, rayhonlar ko'pdir. Xushhavo, sermevalikda tengi yo'qdir. U juda keng, serqishloqdir. Bunday serqishloq o'lka Movarounnahrda yo'qdir. Odam ko'pligidan, ekin va chorvaning mo'lligidan qishloqlar kengayib, kattalashib ketgandir.

Qishloqlarga borish uchun bir qo'nib borish shartdir. U yerda etishgan olimlar ham ko'pdir. So'nggi vaqtlarda Damashqda turib qolgan zo'r olim, dongdor ustod Hojib binni Molik binni Erkin farg'onalik olimlarning biridir (Mu'jamu-l-buldon. 6-jild. B.364).

Qirg'izlar

Devonda qirg'izlar bir necha o'rinda tilga olinadi. Ular ba'zan yag'molar yonida ko'rsatilsa (I jild. B.3), ba'zan tatar yaqinida ko'rsatiladi (I jild. B.28). Qirg'izlar bir qabila turkiy xalqlardir (I jild. B.381). Ularning tillari yolg'iz turkcha edi (I jild. B.30). Biroq devonda qirg'izlar tiliga doir ma'lumot boshqa qabilalarga nisbatan ozdir. Holbuki, tarixiy manbalar qirg'izlar haqida juda ko'p ma'lumot beradi. Ularni eng qadimgi va eng katta nufuzli xalq sifatida tanitadilar. Masalan: Kultagin obidasida ba'zan qirgizlar sharqda eng nufuzli xalqlar qatorida ko'rsatilsa, ba'zan u vaqtlardagi qabilaviy janglarda ishtirokchi sifatida ko'rsatiladi va ba'zan ularning xonlariga hujumi eslanadi, ularning turar joylarini Ko'kman tog'ining quyisida ko'rsatiladi.

Qirg'izlar haqida "Mu'jamu-l-buldon" ma'lumoti alohida muhimdir. Mu'jamu-l-buldon III asrning 1-yarmida Buxorodan Chinga qadar sayohat qilgan Abu Dulaf asaridan ma'lumot beradi: Asar Buxoro bilan Chin oralig'idagi hamma qabilalar haqida keng

ma'lumot beradi. Bu asarning lotincha tarjimasi arabcha matni bilan birlikda bosilgandir. Asarda qabilalarning turar joylari, qabilalar ishlari haqidagi ma'lumot devon ma'lumotiga juda yaqindir. Qirg'izlar haqida u yerda shunday yozilgan: "So'ngra biz "xirxiz" deyilgan bir qabilaga borib etdik. Ular tariq, gurunch va tuyaning go'shtidan boshqa (qoramol) urg'ochi qo'y, echki va boshqalarning go'shtlarini yeydilar. Ularning alohida tutgan yo'llari, fikrlari, yozuvlari va ibodatxonalari bor. Ular chirog'larni o'zi o'chmaguncha o'chirmaydilar. Ularning qofiyalik so'zlari bor, oldilariga xushbo'y narsa qo'yib, namoz o'qish vaqtlarida uni o'qiydilar. Ularning bir yil ichida bir necha bayramlari bor, nishonlari ko'kdir, janub tomonga qarab namoz o'qiydilar. Ko'kdagi Zuhal, Zuhra (Venera) va Saturn yulduzlarini hurmatlaydilar. Ammo Mirrix (Mars) yulduzini yoqtirmaydilar, uni nahs deb hisoblaydilar. Ularning mamlakatlarida yirtqich hayvonlar juda ko'pdir. Ularda kechasini yoritadigan bir tosh bor, shuning uchun chiroqqa ehtiyojlari bo'lmaydi. Bu tosh ularning mamlakatlaridan boshqa joyda bo'lmaydi. Ularning barcha bo'ysungan bir podshohlari bor. Uning oldida qirq yoshdan o'tgan kishidan tashqari biror kishi o'tirmaydi" (Mu'jamu-l-buldon, 5-j. B.411).

Toshkent

Toshkent Movarounnahrning eng qadimiy shaharlaridan biridir. Firdavsiy o'zining «Shohnoma»sida Rustam bilan Ashkabul jangini tasvirlar ekan, Toshkent kamoni ishlatilgani to'g'risida yozadi:

بمالید چاچی کمانرا بدست بچرم کوزن اندرآ ورد شست
ستون کردجب راوخم کرد راست خروش از خم چرخ چاچی بخو است

Shohnoma, Qo'lyozma. I B.171.

Bu fakt Toshkent juda qadim zamonlardayoq o'z maxsus jang qurollariga ega bo'lganini isbotlaydi. O'qchi mahallasining eskiligi ham shuni tasdiqlaydi. «Shohnoma»da Toshkent Choch tarzida beriladi.

Mahmud Koshg‘ariyning devonida Tarkan deb ko‘rsatiladi va shunday izohlanadi: Tarkan – Shoshning ismidir. Asli Toshkent, Tosh shahri demakdir. (I jild. B.369).

Demak, Mahmud Koshg‘ariyga Toshkent va Shosh variantlari ma’lum edi. Toshkent so‘zining etimologiyasi to‘g‘risida juda ko‘p olimlar yozgan. Fikrimcha, arab manbalarida Shosh, tojik manbalarida Choch, turk manbalarida Tarkan deb yuritilgan.

Qarluq

Qarluqlar turklarning bir turi bo‘lib, vabarlilar (ko‘chmanchilar) va o‘g‘uzlardan boshqadir. Ular aslida turkmanlardandir.

Mahmud Koshg‘ariy qabilalarni bayon qilgan maxsus faslda qarluqlarni ko‘rsatmaydi. Lekin qarluq devonda to‘qqiz yerda uchraydi: I jild. B.370, 381, 390, 393; II jild. B.7, 220; III jild. B.80, 259, 264.

Bu o‘rinlarda keltirilgan ma’lumotlar ularni yetakchi qabila tariqasida emas, aksincha, boshqa qabilalarga tobe, ikkinchi darajali qabila, turkmanlarning bir toifasi sifatida ko‘rsatadi. Devonda qarluqlarning Cho‘g‘ilan degan boshliqlari ismidan boshqa bir muhim ma’lumot uchramaydi. Ularning maxsus shaharlari ham ko‘rsatilgan emas. Til jihatdan qarluqlarning bir qismi o‘g‘uzlarga, bir qismi yag‘mo, chigillarga qo‘shilishi mumkin. Tarixiy asarlarda qarluqlar nomi boshqa qabilalarning nomlariga nisbatan mashhurroq ekanligini nazarga olsak, ularning ilgarilari mashhur bo‘lgani va devon yozilgan davrda ikkinchi darajali qabilalarga birikib ketgani anglashiladi. Til xususiyatlari jihatdan devonda berilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadi.

Samarqand

Samarqand shahri eng eski va eng obod shahar sifatida juda mashhurdir. U eng qadimgi arab manbalarida, fors tarixlarida keng izohlab berilgan. Batlimus va boshqa jug‘rofiya olimlari bu shaharning jug‘rofiy mavqeyini va uning xushhavoligi, ko‘rkam manzaralarga boyligi, sermevalik xususiyatlarini mukammal izohlagan edilar.

Bu shahar haqida jug‘rofiya olimlaridan Abu Avn yozadi: Samarqand to‘rtinchi iqlimda uzuni sakson to‘qqiz yarim daraja, eni o‘ttiz olti yarim darajadir. Afriqis binni Imraha Samarqand

ustida katta tortishuvlar bo‘lgani va buning natijasida unda yuzaga kelgan turli xil o‘zgarishlarni keng izohlab bergan.

Mahmud Koshg‘ariy ma’lumotiga ko‘ra, Samarqand eng eski shahardir. VII asrlardayoq bu shaharda xalq gavjum edi. Har xil kasb ahllari bor edi. X asrlarda sug‘doqlar Balasog‘unga shu yerdan ko‘chib bordilar. Uning asl nomi Samizkand – Katta shahar demakdir. Mahmud Koshg‘ariy uqtirishicha, bu shaharning turkiy xalqlar tomonidan bino qilinganiga, bu haqdagi boshqa xil qarashlar xato ekaniga shu nomning o‘zi dalildir.

Barsag‘on

Mahmud Koshg‘ariy bu shaharni XI asrdagi katta savdo-sotiq markazlari bo‘lgan Koshg‘ar, Arg‘u, Jikil kabi shaharlar bilan teng qo‘yadi. Hatto uning “Karasangir” degan tumani ham katta joy sifatida mashhur edi.

Mahmud Koshg‘ariy izohiga ko‘ra, uni Afrosiyobning o‘g‘li bino qilgan.

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining otasi shu yerda tug‘ilganini uqtiradi.

Devonda bu shahar xalqi tiliga doir ko‘pgina ma’lumotlar berilgan. Chunonchi: u shahar xalqlari *bug‘doy* so‘zini *budg‘oy* tarzida talaffuz qilishlarini, birovning u shahar xalqi ekanini shu so‘z bilan sinab bilish odatlarini bayon qilgan. Mahmud Koshg‘ariy bu shahar O‘sh shahrining qarshisida ekanini, u bilan O‘sh oralig‘ida Badal art degan joy – qishloq borligini ko‘rsatgan.

Lekin devonda barsag‘onliklarni baxilroq deb kamsitilgan parchalar ham bor.

“Devon”da qabilalar masalasi

Qabila masalasi jamiyat tarixida juda katta o‘rin tutuvchi alohida muhim hodisadir. U jamiyat tuzumida, ishlab chiqarishda, xalq xo‘jaligining har bir sohasida undan avvalgi davrga ko‘ra ko‘zga ko‘rinarli o‘zgarish, birmuncha ilgari siljish maydonga kelgan alohida davrning natijasi sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun uni o‘rganish tarixchilarga ham, etnograflarga ham, arxeologlarga ham, tilshunoslarga ham bir xilda muhimdir. Shuning uchun ham olimlar bu muhim masala ustida juda ilgaridan

ish boshlaganlar. Jumladan, turkologlar, sharqshunoslar ham bu masala ustida ko‘pgina tekshirishlar olib borganlar. Biroq uzoq o‘tmishga doir bu murakkab masalaning ko‘pgina tomonlari hanuz noaniqdir. Chunki qabila masalasidagi dastlabki tekshirishlar faqat xitoy, arab, fors tillaridagi tarixiy manbalar asosidagina olib borildi. Ko‘pincha, sayoz, ba’zan bir-biriga zid ma’lumotlarga ega bo‘lgan bu xil manbalar asosidagi tekshirishlar juda serqirra masala ustida umumiy bir mulohazalardan nariga o‘ta olmadi. Bu masalani aniqlashda muhim rol o‘ynovchi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi istilohlar, umuman, ularning tillari, kasb-u korlari va boshqa hayotiy sharoitlariga doir ko‘p masalalar e’tibordan chetda qoldi.

Haqiqatda bu masalalarda puxta ilmiy xulosalar chiqarish tarixiy manbalar asosida fikr yurgizish usuli bilangina emas, aksincha, qadimgi davrlarga doir matn materiallari ustida har yoqlama jiddiy tekshirishlar olib borish va har bir masalada konkret xulosalar chiqarishni talab qilar edi. Bu muhim masalani puxta hal qilmaslik natijasida so‘nggi davrda yozilgan tarixiy asarlarda ham xato va aniqsizliklar yuz bermoqda. Bu xatolarni akademik V.V.Vinogradov, tarixchilar – qabilalar, xalqlar, millatlar tarixini puxta o‘rganib chiqmasliklaridan kelib chiqqan, deb to‘g‘ri tanqid qildi.

Shuni ham aytish kerakki, qabila masalasida tekshirish olib borgan ayrim tadqiqotchilar yozma matnlar materiallari ustida tekshirish olib bordilar va qimmatli xulosalar chiqardilar. Lekin dastlabki yodgorliklar ma’lum mavzuga xos bo‘lib, tor doirada cheklanganligi bunday matnlar ustida ishlagan tadqiqotchi olimlarning dastlabki xulosalarini ham tor doirada cheklanishga eltdi, bir qancha masalalar chetda qoldi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asari materiallari bu muhim masalada benihoyat muhimdir. “Devon”da urug‘lardan tortib, qabila masalalarigacha bo‘lgan ma’lumotlar juda keng va ishonchlidir. Unda Yuqori Chindan boshlab, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta hududda yashagan xalqlar, Xorazm, Farg‘ona, Qirg‘iziston respublikasi, Toshkent va butun Movarounnahr xalqlarining tili va umumiy tarixiga doir ma’lumotlar ko‘p va benihoya qimmatlidir.

"Devon..."da hududi kichik bo'lgan qabilalar ahvoliga doir ma'lumotlar bilan bir qatorda, ancha keng hududga joylashgan qabilalar haqida ham ma'lumot beriladi. "Devon..."da ma'lum darajada til jihatidan bir-biriga juda yaqin yoki bir-biridan juda uzoq qabilalar bilan birga til farqlari juda chekli qabilalarga ham duch kelinadi.

"Devon..."da XI asrda yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlar talabiga muvofiq, ba'zan bir necha qabilalar birlashganiga doir ma'lumotlar ham nihoyat muhimdir. "Devon..."da qabilalarning qayerdan kelib chiqqani, bir qabilaning bo'linib ketishi natijasida yangi kichik qabilalarni izohlovchi faktlar ham behad muhimdir. Chunki ularni diqqat bilan tekshirgan Mahmud Koshg'ariydangina o'rgana olamiz. Chunonchi, u davrda ilgarigi davrlarga nisbatan kengaygan chorvachilik mollariga yaylovlar torlik qilish bilan birgina qabilaning bir qismi yangi yaylovlarga joylashib, u yerlarda uzoq yashash bilan mustaqil katta va farqli bir ahvolga tushgan qabilalar haqida faqat masalani sinchiklab tekshirgan Mahmud Koshg'ariy ma'lumotlarigagina asoslanish mumkin. Xullas, "Devon..."da u davrda mavjud barcha qabilalarning o'sha davr sharoitiga mos har qanday xususiyatlari keng va mufassal izohlangan. Ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari aniqlab berilgan.

Buyuk olim Mahmud Koshg'ariyning o'z ko'zi bilan ko'rib aniqlab bergan ma'lumotlari XI asr qabilalar hayotini keng yoritish bilan birga, o'z navbatida, undan oldingi davrlardagi qabilaviy hayotga doir masalalarni ham ochib beradi. O'rxun yodgorliklari bu masalaga doir ma'lumotlarni to'g'ri tushunishga yordam beradi. Qabila va urug'larning chiqib kelishlarini tekshirish ishini yengillatadi. Shuni ham aytish kerakki, "Devon..."da oldingi davrlarda juda katta o'rin tutgan qarluqlarga juda kam o'rin berilishi masalasi ham hayratlanarlidir. Lekin "Devon..."dagi bu ma'lumotlar, asosan, XI asrda yuzaga kelgan holat asosida ekanini nazarga olganda, bu masalalarda ham Mahmud Koshg'ariy mushohadalari to'g'ri bo'lib chiqadi. Chunki ilgarigi davrlardagi hokim qabilalar bu davrda tobe qabilaga tushgan bo'lishi, bu davrda ma'muriyat boshqa qabilalar qo'liga o'tgan bo'lishi ham mumkin.

Shu bilan birga "Devon..."da qabilalar masalasidagi dastlabki qarashda yaxshi anglashilmaydigan masalalarni aniqlash, bu masalalarni har tomonlama jiddiy tekshirishga ham bog'liqdir. Chunonchi, qarluqlar haqida Mahmud Koshg'ariyning ayrim o'rinlarda turkman qarluqlari kabi qaydlari, uning qarluqlar haqidagi fikrlari kengroq ekanidan ham darak beradi. Shuning uchun bizning bu masalalarga doir dastlabki izohlarimiz ancha qisqa bo'lishiga qaramay, mutaxassis o'rtoqlar diqqatini tortish umidida, shoshilibroq bo'lsa ham mulohazalarimizni aytishga jur'at etdik.

Jikil qabilasi

"Devon..."ning I jildida[379] *jikil* qabilasiga doir ma'lumotlar to'g'risida izoh bergan edik. II jildda jikillar haqidagi ma'lumotlar u fikrlarni quvvatlaydi va u davrlarda jikillarning tutgan mavqeyini, shu bilan birga ular tillarining e'tiborini yana ham orttiradi.

II jilddagi ma'lumotlarga ko'ra, *jikil* so'zi u davrda bir tarafdan, *chikil* qabilasi ma'nosida yuritilgan bo'lsa, ikkinchidan, bu so'z ma'lum bir hudud, o'lka ma'nosida ham qo'llangan. Bu so'z Navoiy asarlarida ham ana shu ikki ma'noda uchraydi. Navoiy asarlarida bu so'z bir erda:

Jigil birla yag'modin aylab ayur,
Nechukkim chamandin sabodir deyur[4]

tarzida berilsa, ikkinchi yerda bu so'z quyidagicha uchraydi:

Azim qildi sanam sori xushdil,
Chun bu holatni bildi moh jikil[5].

[4] "Devonu lug'oti-t-turk" tarjimasi, Toshkent, 1960, 1-jild. 487-b.

[5] Alisher Navoiy, Xamsa. 350-b (Shomurod Kotib nusxasi).

Bu misollarning birida bu so‘z ma’lum hudud, mamlakat ma’nosida kelgan bo‘lsa, ikkinchisida mashhur bir xalq ma’nosidadir.

Navoiy asarlarida ham bu so‘zning ikki ma’noda qo‘llanganligi bu qabilaning shuhrati uzoq vaqtlarga qadar saqlangani, bu qabila Mahmud Koshg‘ariy ko‘rsatganicha, XI asrlarda yana ham katta o‘rin tutganidan darak beradi.

“Devon...”ning II jildidagi ma’lumotlar bu qabila XI asrda ilg‘or va boshliq qabila bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ular oddiy xalqlar orasida “keldi” deb so‘zlasalar, kattalar qoshida – “U huzuriga erishdi”, der edilar. Bu fakt u davr beklari shu qabiladan bo‘lganini, bunga xos so‘z shular tilida borligidan dalolat beradi. *Jikiliya* so‘zi turli qabilalarning ko‘pchiligi tilida so‘zlash ma’nosida qo‘llanar edi. Shuning o‘zi ham jikillar mavqeyini u davrda qanchalik kattaligidan dalolat beradi.

Haqiqatan, ularning tili ko‘p masalalarda yag‘mo, tuxsi, arg‘u, aygir va Yuqori Chingacha bo‘lgan qabilalar tili uchun ilg‘orlik mavqeyida bo‘lib, umumlashishga asos bo‘lgan edi. Chunonchi, harakatni bajaruvchi shaxs nomini yasashda qattiq tovushli so‘zlarda *-g‘uchi,* yumshoq tovushli so‘zlarda *-guchi* qo‘shib yasash, asosan, jikil tili xususiyati edi. So‘ng bu xususiyat boshqa qabilalarga o‘gtan edi. Yoki o‘tgan zamon fe’lining tuslanishida ham jikil-larning til xususiyati o‘zlashgan edi.

Joy ismi, qurol ismi yasashda ham shularning til xususiyati asos bo‘lgan edi. Kiyim-kechak, shakl-u qiyofa masalalarida ham bu qabila o‘ziga xos bir holatda shakllangan edi. U davrda bu qabilaning tili, so‘zlari mustaqil bir til holatiga ko‘tarilgan edi.

“Devon...”da jikil qabilasiga xos so‘zlar, ularda har xil kasb, savdo-sotiq ishlari taraqqiy qilganidan, ko‘pchilik qabilalar kiyim-kechak va boshqalarda ham ularga ergasha boshlaganlaridan darak beradi. “Devon...”da jikil qabilasining u davrda tutgan ilg‘or mavqeyini ko‘rsatuvchi turli xil faktlar juda ko‘p. Ular maxsus ishda to‘la bayon qilinadi.

Tot

Mahmud Koshg‘ariy izohiga ko‘ra, u davrda *tot* so‘zi ikki xil ma’noda qo‘llangan: 1) hamma qabilalarda: tot – forslardir;

2) yag‘mo, tuxsi qabilalarida bu so‘z xususiy ma’noda islomni qabul qilmagan uyg‘urlar ma’nosida ham qo‘llangan.

So‘nggi davr adabiyotlarida bu so‘z, asosan, forslargagina xoslanib qolgan.

XVI asrda tuzilgan lug‘atda, mumtoz adabiyotda ham *fors* ma’nosida uchraydi: *Agar totsan va gar rumsan va gar turk zaboni bezaboniyro biomuz.*

[Alp Erto‘nga haqida]

Afrosiyobni Bartold kabi mo‘‘tabar olimlar afsonaviy shaxs, deb ko‘rsatganlar. Shuning uchun bu fikr ko‘pchilikka singib kelgan edi. Mahmud Koshg‘ariyning bu haqdagi ma’lumotlari tamoman bu qarashga zid bo‘lib chiqdi. Shuning uchun biz bu haqda I jildda “Devon...”dagi ma’lumotlar asosida izoh berdik (Qarang: “Devon...” tarjimasi, I jild. 493-b).

Lekin ayrim o‘rtoqlar hanuz Afrosiyob haqida shubhalanadilar. Hatto ayrim o‘rtoqlar uni maxsus joy nomi degan mulohazalar yuritadilar. Shuning uchun biz o‘z mulohazamizni quvvatlab, bu haqda yana kichik izohni muvofiq topdik.

Ilgari tadqiqotlar – akademik V.V.Bartold, V.V.Grigorevlar Afrosiyobni afsonaviy nom degan da’volarida ular bu so‘zni turkiy emasligiga asoslanganlar. Darhaqiqat, bu so‘z forscha so‘zdir. Shuning uchun buni turkiy xalqlar qahramoni deb ko‘rsatish olimlarning afsonaviy nom degan qarashlarini quvvatlaydi. Ammo “Qutadg‘u bilig” muallifining ma’lumotiga ko‘ra, bu qahramonning asl nomi To‘nga alp Er edi. Tojiklar buni “Afrosiyob” deb atar edilar:

Bu turk beklarining oti belguluk,
To‘nga alp Er erdi quti belguluk.
Tojiklar ayur oni Afrosiyob,
Bu Afrasiyab aldi ellar talab.

“Devon...”da ham xuddi shu mazmun saqlangan. Mahmud Koshg‘ariy “To‘nga alp Er yoki Alp Er To‘ng” degan nom zikr qilingan er-da, bu – Afrosiyob deb izohlaydi.

Demak, mo‘tabar olimlarimiz akademik V. Bartold va Grigorevlarning “Qutadg‘u bilig”dagi bu faktdan xabarsizliklari ularni adashtirgan. Demak, Afrosiyob mashhur Bahodir Alp Ar To‘ngaga forslar tomonidan berilgan nomdir. U tarixiy shaxsdir. “Devon...”da uning haqidagi qasidadan bir qancha parchalar berilgan.

Afrosiyobni yanglish tushunish bir xalq tarixiga doir voqealarni ikkinchi bir xalqqa nisbat berishga eltuvchi qo‘pol xatodir.

BA'ZI QABILALAR HAQIDA

Tangutlar

Tangutlar "Devon..."da *Chin yaqinida yashovchi toifa* deb izohlangan. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy ular turklar bo'lib, o'zlarini arablardan deb da'vo qiladilar, deydi. Mahmud Koshg'ariy ham tangutlarning ba'zilari boshqa shahardan ekanligini ko'rsatib o'tadi. "Devon"da tangutlariing maxsus xonlari bo'lgani aytiladi va ularning boshqa qabilalar bilan bo'lgan kurashlarini tasvirlovchi bir qancha to'rtliklar bor. "Devon..."da tangutlar haqidagi ma'lumot shu bilan cheklanadi. "Devon..."dagi ma'lumotlarga ko'ra, bu xalq tilida nuqsonlar ham sezilarlidir. Bu ma'lumotlarga qarab, biz bu qabila juda qadimda yashagan katta bir xalqning turklashib ketgan qismi degan fikrdamiz. O'rxundagi ma'lumot ham bu xalqning qadimiyligini tasdiqlaydi: *Girm oshma tanguttapa s lad m tangutbud nig buzdii – o'n yetti yoshimda tangut xalqiga qarshi askar yo'lladim, tangut xalqini engdim.* Bilkaxonning tangutlarga qarshi bu jangi uning basmil va qarluqlarga qarshi olib borgan jangidan oldin edi, binobarin, bu jangni 711-yillar deb taxminlash mumkin. Tangut filologiyasi haqida olib borilayotgan ilmiy tekshirishlarning dastlabki yakuniga ko'ra, tangutlar juda ilgarilardan o'zlarining maxsus yozuvlariga ega, ancha taraqqiy etgan xalq bo'lgan.

Tubutlar

Turk diyorida yashovchi bir qavm. Kiyik mushki, kiyikning kindigini kesib olib tayyorlanadigan mushk tubutlarda bo'ladi. Bular bir jinoyat qilib Yamandan qochib, dengiz yo'li bilan Chinga borib o'rnashib qolgan Bani Sobit avlodidir. Shu yerda yashab, uylanib-joylanib, avlodi ko'paygan. Turklar yeridan bir ming besh yuz farsax joyda yashaydi. Sharq tomoni Chin, g'arb tomoni Kashmir, shimol tomoni Uyg'ur, janub tomoni esa Hind dengizidir. Mahmud Koshg'ariy ularning tillarida hanuz dag'allik,

ya'ni arabchaning ta'siri borligini ko'rsatadi; ular onani "uma", otani "abo" deydilar.

Kanjaklar

Kanjaklar ikki tilda so'zlashuvchi qabilalardandir. Shuning uchun ular tillarida ayrim kamchiliklar uchraydi. Kanjaklarning biror maxsus shaharlari haqida ma'lumot uchratmadik. "Devon..."ning 1-jildi 31-betida Koshg'arda kanjakcha so'zlashuvchi ko'chalar bor deb ko'rsatiladi. "Devon..."da kanjaklarga nisbat berilgan maxsus so'zlar, asosan, tokchilik, bog'dorchilikka oidligi xarakterlidir. Masalan: *bulduni uzum* – mayiz saqlanadigan joy; *bo'shunjak* – uzum urug'i; *nabzi* – uzum uzilgandan keyin tokda qolgan shingil-shapoq; *lujnat* – xirmon qilishda qishloq ahllari bir-biriga odam yuborib, hashar qilishi; *tabchang* – balandligi toklarni kesishda ustiga chiqishga qo'llanadigai uch ayoqli asbob (Qarang: "Devon...", I jild. 481-b, 353, 377, 423; III jild. 285-b).

Turkmanlar

Mahmud Koshg'ariy "Devon..."da turkmanlarni *o'g'uzlar* deb ko'rsatgan. Spu bilan birga, Mahmud Koshg'ariy "Devon..."da ularning bu nom bilan atalishi haqida keng izoh bergan. Bu ma'lumot III jildda bosilgani uchun bu yerda takrorlashni ortiqcha hisobladik. Darhaqiqat, Mahmud Koshg'ariyning turkmanlar tili haqidagi izohlari ularning tili o'g'uzlar tiliga tamoman yaqinligidan dalolat beradi. Lekin bir qism turkmanlar boshqa qabilalarga qo'shilib, ularning tillari ham ana shu qabila tiliga moslashib ketganiga ham "Devon..."da misollar ko'p.

Chunonchi: er ewdin tashiqti – odam uydan tashqari chiqdi. Buni yag'mo, tuxsi, qipchoq, yaboqu va ba'zi turkmanlar qo'llaydilar. Ko'pchilik turklar *tashiqti* o'rnida *chiqti* so'zini qo'llaydilar (Qarang: "Devon..." II jild.93-b.).

Turkmanlarning til xususiyatlariga doir ma'lumotlar ko'p. Bu haqda biz alohida ishimizda ma'lumot bermoqchimiz. Shuningdek, bu haqda S.Axallining ishida ham keng ma'lumot bor.

Yag‘molar

Yag‘mo Tiroz yaqinidagi shahar. U yerda yashovchi qabila ham *yag‘mo* deb atalgan. Uni *qora yag‘mo* deb ham yuritilgan edi. Yag‘molarning bir qismi Ila vodiysining o‘ng qirg‘og‘ida, ba’zilari jikillar bilan birga yashar edi.

“Devon...”dagi ma’lumotlar yag‘molarni jangovar xalq sifatida tanitadi. “Devon”da ularning urf-odatlariga va til xususiyatlariga doir ma’lumotlar ancha bor. Yag‘molarda savdo-sotiq ishlari ancha taraqqiy qilgan edi. Ulardagi saroybonlarning ish usuliga doir ma’lumot ham xarakterlidir. Ularning tillari jikil va tuxsilar tili bilan yaqin bo‘lsa ham, o‘ziga xos ayrim xususiyatlarga ega edi. Mahmud Koshg‘ariy ular *uchni o‘ttiz* deyishlari, ayrim so‘zlarni qisqartirib qo‘llashlari, *kishi* so‘zini *xotin* ma’nosida ishlatishlarini alohida qayd qilgan. Ularning tili haqida kengroq ma’lumot boshqa ishimizdadir.

Qay qabilasi

Qay qabilasi “Devon...”da turkiy qavm sifatida izoh qilingan. Lekin ularning o‘zlariga xos biror shahar yoki ulug‘lari haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Shuningdek, ularning til xususiyatlari haqidagi ma’lumot ham boshqa qabilalarning tili haqidagi ma’lumotlarga nisbatan oz. Aftidan, ular juda qadimdan shu yerlarda yashagan bo‘lsa ham, ma’lum sharoit natijasida boshqa qabilalarga singib ketgan.

Yamaqlar

Yamaq turkiy qabiladir. Mahmud Koshg‘ariy bularni qipchoqlardan deb ko‘rsatgan. Ular, asosan, Irtish qirg‘og‘ida yashagan. “Devon...”da ularning til xususiyatlariga doir alohida ma’lumot yo‘q. Ayrim til xususiyatlarida ular ba’zan yaboqular, ahli vobarlar bilan va ba’zan yaboqu, qay, jumul, basmil, qipchoq, o‘g‘uzlar bilan teng ko‘rsatiladi. Yamaqlar haqida “Devon...”da berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ular bir vaqtlar ko‘p nufuzli qabilalar sifatida til tarixida o‘ziga xos o‘rin tutgan.

Yaboqular

Yaboqu turkiy qabila bo‘lib, bular ancha katta hududni ishg‘ol qilgan edilar. Qashg‘ar tog‘laridan O‘zgandga oqadigan katta suvni *Yaboqu suvi* deb atalishi ham bir vaqtlar ular mavqeyining katta bo‘lganidan darak beradi.

Ular kemasozlik ishida ham katta o‘rin tutar edilar. “Devon...”da izohlangan ba’zi bir til xususiyatlariga ko‘ra, ular ancha qadimiy qabila bo‘lgan. Chunonchi, *yemoq* so‘zi boshqa qabilalar tilida faqat *taom yemoq* ma’nosidagina qo‘llangan bo‘lsa, yaboqular tilida, shu bilan birga bu so‘z *halok qilmoq* ma’nosida ham qo‘llangan.

Beg kishini jädi – bek odamni halok qildi kabi. Arslon tegin davrida ularning *Baka budraj* degan boshliqlari asir qilingani va boshqalar haqidagi “Devon...” ma’lumotlari juda muhim. Bu xil misollar anchagina bor.

S.Mutallibov

MUNDARIJA

Ikkinchi jild haqida. *(Hamidulla Boltaboyev)* 3

BIR HARFI QAYTA TAKRORLANGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI
[To‘rtinchi kitob]

IKKI HARFLI OTLAR BOBI 5

UCH HARFLILAR BOBI 8
O‘rta undoshlari har xil unli (a, i, u) lar bo‘lgan فَعِلْ فَعَلْ فَعُلْ kabi so‘zlar 8
Bu bo‘limning misol qismi 10

TO‘RT HARFLILAR BOBI 12

فَعْلَل fa’lol shaklidagi so‘zlar..... 12

فَعْلَعَلْ SHAKLIDAGI BESH HARFLI SO‘ZLAR BOBI 13
Bu bo‘limning g‘unnalilari 14

BIR HARFI IKKI QAYTA TAKRORLANGAN

FE’LLAR BO‘LIMI

IKKI HARFLILAR BOBI

UCH HARFLILAR BOBI 20
فَعَّدى shaklidagi har bir harfi cho‘zg‘ili so‘zlar 20
Bu bobning misol turi 32
Bu bobning misoli 34

Bu bobning manqus turi 41
G‘unnalilar bo‘limi 41
Bu bo‘limning misol turi 42

TO‘RT HARFLILAR BOBI 42
فَعْلَلَدِي shaklidagi so‘zlar 42

ASLIDA MUZOAF BO‘LGAN SO‘ZLARDAN BA’ZISI
Muzoafning boshqa bir turi 59
Bu bo‘limning misol turi 60
Bu bo‘limning boshqa bir turi 63
Bu bo‘limning manqus turi 64
Bu bo‘limning g‘unnalilari 64
Bu bo‘limning misol turi 65

BOSH HARFI *J, Ǯ, I*
BO‘LGAN MISOL SO‘ZLAR BO‘LIMI
[Beshinchi kitob]

Ikki harflilar 70
فَعْلٍ فُعْلٍ فِعْلٍ *FA’L, FU’L, FE’L* SHAKLIDAGI
O‘RTA HARFLARI SUKUNLI SO‘ZLAR BO‘LIMI 73

O‘RTA HARFI *A, U, I* BO‘LGAN فَعَلٍ فَعُلٍ فَعِلٍ *FA’LIN, FA’ULIN,*
***FA’ILIN* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI 74**
O‘rtasi harakatli so‘zlarning boshqa bir turi 85

OXIRIDA UNLILAR BO‘LGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI 86
Bu bo‘limning boshqa bir turi 87
فَعْلَلْ shaklidagi so‘zlar 88

فَوْعَلٍ fav’alin shaklidagi so‘zlar 88

HAR XIL HARAKATLAR BILAN
KELGAN فَعالْ *FA’L* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI 89

فَعْلَى FA’LA SHAKLIDAGI O‘RTASI SUKUNLI
SO‘ZLAR BO‘LIMI 90
Bu bo‘limning matviy qismi 94
فَعالِي *faoli* shaklidagi so‘zlarning

har qanday harakatlar bilan qo‘llangan shakllari 94

TURLI UNLI TOVUSHLAR BILAN QO‘LLANGAN *FA’LON* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR 96

فعيلان *FAILON* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI 96

فَعْلَنِي *FA’ANLI* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI 96

TO‘RT HARFLILAR BOBI 97
Har xil harakatlar bilan qo‘llangan
فَعْلال، فَعْلَلٍ *fa’alal*, fa’lol shakllaridagi so‘zlar 97
Bu bo‘limning boshqa bir turi 103
فَعالِلْ *faolil* shaklidagi so‘zlar 103

فَعْلُو *FA’ALLU* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR 104

BESH HARFLILAR BOBI 105
فَعْلَعِلْ *faal’alin* shaklidagi turli harakatlar bilan 105
talaffuz qilinadigan so‘zlar bo‘limi 105

فَعْلَعان *FAALON* SHAKLIDAGI TURLI HARAKATLAR BILAN TALAFFUZ QILINADIGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI 107
Bu bo‘limning matviylari 110

HAR XIL HARAKATLAR BILAN TURLI SHAKLLARDA QO‘LLANILGAN فَعْلَلْنَ *FAALLAL* VAZNIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI 111
Bu bo‘limning boshqa bir turi 111

OLTI HARFLILAR BO‘LIMI 112
Bu bo‘lim boshida harfi illat bo‘lgan fe’llar bo‘limi 113

O‘RTASI HARAKATLAR BILAN فَعْلَى FAALIÏ *(FAULDÏ, FUULDÏ, FAÏLDÏ)* SHAKLIDA KELGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI IKKI HARFLILAR 119
Bu bo‘lim boshqa turi 119

Bu bo‘limning muzoaflari 129
Bu bo‘lim boshqa bir turi 132
Oxiri harfi illat bo‘lgan so‘zlar bo‘limi 133

TO‘RT HARFLILAR BO‘LIMI 138

فَعْلَلَى FA’LALDI SHAKLIDAGI TURLI HARAKATLARDA TALAFFUZ ETILADIGAN SO‘ZLAR BOBI 138

Bu bo‘limning boshqa bir turi 143
Bu bo‘limning boshqa bir turi 148
فَعَلْدِي FAAL’ALDI SHAKLIDAGI BESH HARFLILAR BO‘LIMI 151
Bu bo‘limning olti harfliilari 153

UCH HARFLI SO‘ZLAR
[Oltinchi kitob]

IKKI HARFLI OTLAR 155
Bu bo‘limning misol qismi 155

O‘RTASI SUKUNLI فَعْلٍ. فُعْلٍ. فِعْلٍ *FA’L, FU’L VA FE’L* SHAKLLARIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI 156
Bu bo‘limning matviy xili 174
Bu bo‘limning misol turi 174

و (vov) LI SO‘ZLARNING BOSHI VA O‘RTASI HARAKATLI BO‘LGAN فَعَلْ *FA’AL* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR 177

OXIRGI HARFI ILLATLI BO‘LGAN SO‘ZLAR 187
Bu bo‘limning misol turi 187
Bu bo‘limning boshqa bir turi 190
Bu bo‘limning *ى – j* harfi bilan kelgan so‘zlari 193
Bu bo‘limning matviylari 196
Bu bo‘limning boshqa bir turi 197

فاعَلْ FA’EL SHAKLIDAGI ZIYODALILAR BO‘LIMI 198

فَعالْ FA’OL SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI 198
Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلى *fa’lo* shaklidagi so‘zlar 199

TURLI HARAKATLAR BILAN QO‘LLANGAN فُعالى *FA’OLU* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI 201
Bu bo‘limning misol turi 201

فَعْلانْ *FA’LON* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI 201

HAR XIL HARAKATLAR BILAN فيعل *FAY’AL* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI 202
Har xil harakatlar bilan qo‘llanadigan فِعالْ *fa’olil* shaklidagi so‘zlar 203

Bu bo‘limning misol turi 204
Bu bo‘limning misol turi 205

BESH HARFLILAR 204
Har xil harakatlar bilan qo‘llanadigan فَعْلَلِ
fa’al’al shaklidagi so‘zlar 204
O‘rtasi sukunli bo‘lgan so‘zlar 204

OLTI HARFLILAR BO‘LIMI 205
MANQUS FE’LLAR BOBI 206
Ikki harfli fe’llar bo‘limi 206
Bu bo‘limning misol turi 210

UCH HARFLILAR 211
Har xil harakatlar bilan ko‘llangan فَعْلَدِي *fa’aldi* shaklidagi so‘zlar 211
Bu bo‘limning misol turi 215

TO‘RTLIKLAR BO‘LIMI 216
Har xil harakatlar bilan
qo‘llangan فَعْلَلْدِي *fa’laldi* shaklidagi so‘zlar bo‘limi 216
Bu bo‘limning boshqa bir turi 219

ASOSIY O‘ZAKDAN YASALGAN FE’LLAR 219
Bu bo‘limning boshqa bir turi 220
Bu bo‘limning misol turi 223
Bu bo‘limning olti harflilari 224

IKKI HARFLI ISMLARDAN YASALGAN
TO‘RTLIKLAR BO‘LIMI
[Yettinchi kitob]
[Ikki harfli ismlar] 226
Bu bo‘limning misol turi 233

فَعِلْ. فَعَلْ. فَعَلْ *FA’AL, FA’UL, FA’IL* SHAKLLARIDA
O‘RTASI HAR XIL HARAKATLAR BILAN TALAFFUZ
QILINADIGAN SO‘ZLAR 234
Har xil harakatlar bilan qo‘llanadigan فاعلْ *fa’il* shaklidagi so‘zlar 250
Har xil harakatlar bilan qo‘llanuvchi فعالْ *fa’ol* shaklidagi so‘zlar 251
Har xil harakatlar bilan qo‘llanuvchi فعْلى *fa’lo* shaklidagi so‘zlar 252
Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلال *fa’lol* shaklidagi so‘zlar 252

BESH HARFLILAR BO‘LIMI **254**
فَعْوَلِلى *faulli* shaklidagi so‘zlar 255
فَعْلَلالْ *fa’lal* shaklidagi so‘zlar 255

FE’LLAR BOBI **256**
Ikki harflilar 256
Bu bo‘limning boshqa bir turi 258
Bu bo‘limning boshqa bir turi 258
Bu bo‘limning boshqa bir turi 259

فَعَلْدِى *FAALDI* SHAKLIDA O‘RTASI UCH XIL HARAKATLAR BILAN QO‘LLANADIGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI **260**
Bu bo‘limning boshqa bir turi 274

TO‘RT HARFLILAR BO‘LIMI **274**
فَعَلْلدِى *FA’LALDI* SHAKLIDAGI O‘RTA HARFI SUKUNLI BO‘LGAN SO‘ZLAR BOBI **274**
Bu bo‘limning misol turi 292
Bu bo‘limning manqus turi 297

فَعِيلادِى *FAOLADI, FAULADI, FAILADI* SHAKLIDA HAR XIL HARAKATLAR BILAN QO‘LLANGAN SO‘ZLAR BO‘LIMI **304**
Bu bo‘limning misol turi 307
Bu bo‘limning manqus turi 308

BESH HARFLILAR BO‘LIMI **309**
فَعَلْعادِى *fa’al’adi* shaklidagi so‘zlarda har xil harakatlar bilan kelgan so‘zlar bo‘limi 309
Bu bo‘limning misol turi 316

BESH HARFLILAR **320**
Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَعْلِى *fa’la’ladi* shaklidagi so‘zlar .. 320
Bu bo‘limning boshqa bir turi 321

G‘UNNALI SO‘ZLAR BO‘LIMI
(Yettinchi kitob)
Ikki harfli ismlar 323
Bu bo‘limning misol turi 328

TURLI HARAKATLAR BILAN BOSHLANGAN فَعْلْ. فِعِلْ. فُعُلْ *FA’AL, FA’UL, FA’IL* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI **329**
Bu bo‘limning muzoaflari 332
Oxiri zaif tovushli so‘zlar 333
Bu bo‘limning matviy turi 333

So‘z oxirida g‘unna kelgan so‘zlar 334
Bu bo‘limning misol turi 336
ج (jim) harfli g‘unnalilar 337
Bu bo‘limning misol turi 338

TO‘RT HARFLILAR 337
Bu bo‘limning misol turi 338

فَعال *FA’AL* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR BO‘LIMI 339
Bu bo‘limning misol turi 339
فَعْلى *fa’li* shaklidagi so‘zlarning har xil
harakatlar bilan qo‘llangan namunasi 339
Bu bo‘limning misol turi 341
فَعالُو *fa’al*u shaklidagi so‘zlar 342
Bu bo‘limning misol turi 343

BU BO‘LIMNING TO‘RT HARFLILAR BOBI 343
Har xil harakatlar bilan qo‘llanadigan فَعْفَلٍ فَعْلَلٍ shaklidagi so‘zlar 343
Bu bo‘limning misol turi 346
Bu bo‘limning g‘unnalilari 347
Bu bo‘limning manqus turi 347
Bu bo‘limning ج – ج li g‘unnalisi 348
Bu bo‘limning misol turi 348
فَعْلَلُو *fa’all*u shaklidagi so‘zlar 348
Bu bo‘limning misol turi 348
Bu bo‘limning besh harflilari 349
Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَلالٍ *faanlol* shaklidagi so‘zlar 349
Oxiri g‘unnali so‘zlar 349
Bu bo‘limning misol turi 349
Bu bo‘limning boshqa bir turi 349
Bu bo‘limning olti harflilari 349

G‘UNNALI FE’LLAR BO‘LIMI 351
Ikki harflilar 351
Bu bo‘limning misol turi 352

UCH HARFLILAR BO‘LIMI 352
Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَدي *fa’aldi* shaklidagi so‘zlar 352
Muzoaflar bo‘limi 355
To‘rt harflilar 355
Bu bo‘limning latif turi 355

TO‘RT HARFLILAR BO‘LIMI **355**
Har xil harakatlar bilan qo‘llanga فَعْلَلِدِى *fa’laldi* shaklidagi so‘zlar 355
Bu bo‘limning boshqa bir turi 357
Bu bo‘limning misol turi 357
Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلادِى *fa’aldi* shaklidagi so‘zlar 358
Bu bo‘limning misol turi 360

HAR XIL HARAKATLAR BILAN QO‘LLANGAN فَعِيلادِى فَعِيلادِى *FA’ILDI, FI’ILDI* SHAKLIDAGI SO‘ZLAR **360**
Bu bo‘limning misol turi 361
Bu bo‘limning boshqa bir turi 361
Bu bo‘limning besh harflilari 361
Bu bo‘limning to‘rt harflilari 362
Bu bo‘limning besh harflilari 363
To‘rt harflilarning muzoafi 364

IKKI SUKUN QATOR SO‘ZLAR BO‘LIMI
[Sakkizinchi kitob]

ISMLAR BOBI **365**
Bu bo‘limning boshqa bir turi 365
Bu bo‘limning boshqa bir turi 367
Bu bo‘limning olti harflilari 369
Bu bo‘limning fe’llari 369
Bu bo‘limning to‘rt harflilari 371
Bu bo‘limning muzoaflari 372
Bu bo‘limning fe’llari 373
Bu bo‘limning to‘rt harflilari 374
Bu bo‘limning misol turi [Ismlar] 377
Bu bo‘limning muzoafi 377
Bu bo‘limning boshqa turi 378
Oxirgi harfi illatli (*a-äli*) so‘zlar 378
Bu bo‘limning fe’llari 378
Bu bo‘limning uch harflilari 379
Bu bo‘limning to‘rt harflilari 380
Bu bo‘limning boshqa bir turi 380
Bu bo‘limning manqus turi 381
Bu bo‘limning to‘rt harflilari 381
Bu bo‘limning fe’llari 381

TO‘RT HARFLILAR **383**
Bu bo‘limning boshqa bir turi 383
Bu bobning fe‘llari 384

TO‘RT HARFLILAR **386**
ج (jim)li g‘unnalilar 386
Bu bo‘limdagi fe’llar 388

IZOHLAR **389**

ILOVALAR **384**

M 37 Mahmud Koshg‘ariy [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Hamidulla Boltaboyev. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 472 b.
ISBN 978-9943-8721-9-6

UO‘K 821.512.1-1
KBK 83.3(54)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

MAHMUD KOSHG‘ARIY

2-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 29,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 28,57.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 70-1/22. Buyurtma raqami № 22-281.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MAHMUD
KOSHG'ARIY